

84-7
L-26

IJTIMOIY ISH ETIKASI

TOSHKENT

82.2
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

IJTIMOIY ISH ETIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim
vazirligi oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun darslik
sifatida tavsija etgan*

TOSHKENT – 2015

UO'K: 172.1

KBK 87.7

I-26

I-26

Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 432 bet.

ISBN 978-9943-990-54-8

O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiy munosabatlarga asoslangan odil, erkin demokratik jamiyat qurishga harakat qilinmoqda. O'tish davrining tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat ijtimoiy sohani har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun bu soha davlatning alohida e'tibori va nazoratida bo'ladi.

Ijtimoiy ish faoliyatning shunday turiga tegishlikli, bunda maxsus bilimlarning professional etik kompitentligi professionalizmning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy ish xodimi etikasi – bu o'ziga xos professional etika bo'lib, u axloqiy kodeks vazifasini bajaradi, odamlar o'ttasidagi ularning tabiatiga mos keluvchi axloqiy munosabatlarni ta'minlaydi, bu munosabatlar esa mehnat muhofazasiga va kasbiy kompitentlikka bo'lgan talablardan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ish xodimi etikasining nazariy mazmuni etika uchun umumiy deb hisoblangan kategoriyalar bilan ochib beriladi. Etikaning o'ziga xosligi shundan iboratki, umumiy etik kategoriyalar ijtimoiy ish xodimining kasbiy faoliyatida o'zgacha tusda namoyon bo'ladi.

Jamiyatimiz uchun yangi bo'lgan ixtisoslik va professional faoliyat hisoblangan ijtimoiy ishning shakllanishi, uni nazariy jihatdan anglashga nisbatan dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Professional faoliyat turi sifatida ijtimoiy ish bir asrdan ziyod davr mobayinida rivojlanmoqda. Ijtimoiy ish sohasi tarixini o'rGANISH, uni nazariy tushunish, umumlashtirish va tizimlashtirish uning samarasini va natijavilagini oshirish respublikamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi uchun yangi istiqbollarni ochishi shubhasizdir.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiysi xalqimiz uchun yaxshi hayot sharoitlarini ta'minlash maqsadini o'z oldiga qo'yadi.

Respublika hukumati ijtimoiy sohani yanada rivojlanishirish va uni xalqaro andozalar darajasiga ko'tarishga harakat qilmoqda. Bu o'z navbatida professional kadrlarni talab etadi.

Darslikda ijtimoiy ish etikasi fani muammolari bilan bog'liq bir qator nazariy va amaliy masalalarning mohiyati ochib berilgan bo'lib, unda fanning obyekti, predmeti va mazmuni, ijtimoiy ish kasbiy faoliyatida amal qiladigan axloq standartlari, tamoyillari hamda professional-etik tamoyillarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

"Ijtimoiy ish etikasi" darsligi asosida ijtimoiy ish xodimi etikasi va kasbiy majburiyatlarida belgilangan xususiyatlar muhimligi ko'rsatilgan.

UO'K: 172.1

KBK 87.7

Taqribchilar:

F.X.Nabiyev – Samarqand davlat universiteti "Ijtimoiy ish" kafedrasini professori, t.f.d.;

S.X.Tadjiyeva – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi "Ijtimoiy ish" bo'limi rahbari, p.f.n.

Mualliflar jamoasi:

M.X.G'aniyeva – s.f.d., prof.,

N.M.Latipova – s.f.n., dots.,

I.Negmatov – f.f.n., dots.;

L.N.Jo'ravayev – f.f.n., dots.;

M.B.Sherov – katta o'qituvchi;

U.U.Abduraxmonov – o'qituvchi;

Z.R.Ergashev – o'qituvchi.

ISBN 978-9943-990-54-8

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

KIRISH

Ijtimoiy ish sohasiga talab minglab yillar avval vujudga kelgan bo‘lsada, biroq bu soha mutaxassislarini maxsus tayyorlash XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining birinchi sanoat inqiloblari sodir bo‘lgan hududlarida rivojlanma boshladi. Chunki sanoat inqiloblari natijasida jamiyat ijtimoiy hayotida keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqqanligi ijtimoiy ish sohasini kasbiy faoliyat sifatida rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Sobiq Ittifoq o‘zining insonparvarligi bilan har qancha maqtansa ham, amalda insonparvarlik yaqqol namoyon bo‘ladigan soha – ijtimoiy ish sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash va aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga e’tibor qaratilmadi. Buning oqibatida ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmat sifati bo‘yicha sho‘rolar tuzumi va uning xarobalarida vujudga kelgan mamlakatlar G‘arb mamlakatlaridan ancha orqada qolib ketdi.

Prezidentimiz Islom Karimov «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobida keltirilgan Farg‘ona viloyatida sodir bo‘lgan voqealar sabablarini chuqur tahlil qilib, ushbu hududda yashayotgan aholining og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog‘lab shunday baho beradilar: «Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsat-kichlar bo‘yicha Ittifoqdagi o‘rtacha darajadan ham ancha orqada bo‘lib, mamlakatda oxirgi o‘rinlardan birida turibdi».

Shu borada kitobdan yana bir misol keltirish o‘rinli deb o‘ylaymiz: «Statistikaning ko‘rsatishicha, hozir O‘zbekistonda aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi 75 so‘mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashab turibdi. Bu esa aholining 45 foizini tashkil etadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, kun kechirish uchun kamida hozirgi kunda 85 so‘m zarurligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ana shunda odamlar qanday qiyinchilik bilan uchma-uch yashab kelayotganligiga o‘zingiz baho berishingiz mumkin¹.

¹ I.A. Karimov. «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» T.: O‘zbekiston, 2012. 8 bet.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli chuqur inqiroz holatida bo‘lib, ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog‘lijni saqlash, xalq ta’limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og‘ir ahvolga tushib qolgan edi. Bu borada yana bir misolga e’tibor beraylik: «Respublikada sotsial ahvol, odamlarning sotsial ta’minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish mutlaqo qoniqarsiz. Qishloq aholisining atigi 5 foizi kanalizatsiya va vodoprovod bilan, salkam 50 foizi ichimlik suvi bilan, 17 foizi tabiiy gaz bilan ta’minlanganini me’yorl ahvol deb hisoblash mumkin emas»¹.

Ushbu kitobda keltirilgan statistik raqamlar va tahlillar mustaqillik arafasida mamlakatimizda boshqa sohalar kabi ijtimoiy soha naqadar ayanchli, halokatli ekanligidan dalolat beradi.

Shu ma’noda, Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta’kidlagani kabi: «Bu tuzum o‘z xalqining tarixini, uning ruhi va urfatlarini, o‘z avlod-ajdodlarini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi... Xuddi shu bois bu davlatning ijtimoiy tizimi bilan xalq ehtiyojlar o‘rtasida jarlik paydo bo‘ldi. Ya’ni inson, uning moddiy, ma’naviy, shu jumladan, milliy qadriyatları bu tizimda orqa o‘rinda turar edi. Binobarin, bunday davlatning avval boshdanoq istiqboli yo‘q edi».² Ana shu istiqboli yo‘q davlatning istiqbolsiz tizimi uzoq-yillar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hayotning «tamal toshlari» sifatida qarab kelindi, ularga asoslanib ko‘pgina umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillar quruq shiorlarga aylantirildi.

O‘zbekiston istiqlol arafasida chuqur inqiroz holatiga tushib qolgan paytda va bu chuqur inqiroz holatidan chiqarish maqsadida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatda ijtimoiy adolatni o‘rnatish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasi va umuman ijtimoiy sohaga qadimdan katta e’tibor berib kelingan. Qariyalarni hurmatlash, imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoyalash, muhtojlarga yordam ko‘rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. Islom dini xalqimizning bu kabi qadriyatlarini yana ham yuksakroq ko‘tardi. Uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma’muriy-

¹Qarang o’sha manba

²Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.-T.:O‘zbekiston, 1995. 8 bet.

buyruqbozlik tizimining asorati ta'siri natijasida bu qadriyatlar tan olinmadi hamda taqiqlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq nogironlar, ehtiyojmand oilalar, ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lган bolalar va barcha ijtimoiy himoyalanishga muhtoj bo'lган qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning shu maqsadda qabul qilingan qator farmonlari, o'nlab huquqiy-me'yoriy hujjatlar, 1997-yilning «Inson manfaatlari yili», 1998-yilni «Oila-yili», 1999-yilning «Ayollar yili», 2000-yilni «Sog'lom avlod yili», 2001-yilni «Onalar va bolalar yili», 2002-yilning «Qariyalarni qadrlash yili», 2003-yilni «Obod mahalla-yili», 2004-yilning «Mehr va muruvvat yili», 2005-yilning «Sihat – salomatlik yili», 2006-yilning esa «Homiyalar va shifokorlar yili», 2007-yilni «Ijtimoiy himoya yili», 2008-yilni «Yoshlar yili», 2009-yilning «Qishloq taraqqiyoti farovonligi yili», 2010-yilning «Barkamol avlod-yili», 2011-yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», 2012-yilning «Mustahkam oila yili», 2013-yilning «Obod turmush yili», 2014-yilning «Sog'lom bola yili» va o'tayotgan 2015-yilning Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi mamlakatda ijtimoiy sohaga qanchalik katta e'tibor berilayotgani dalilidir.

Har qanday kasb odamlarning ehtiyojlariga javob tariqasida vujudga keladi, lekin ana shu «javob»ning shakllanishi ba'zan qisqa, ba'zan esa juda uzoq vaqt davom etishi mumkin. Ijtimoiy ishni professional kasbiy faoliyat darajaga ko'tarish maqsadida 2004–2005-o'quv yilda Toshkent Davlat Madaniyat (hozirgi Toshkent davlat San'at va Madaniyat instituti) institutida «Ijtimoiy ish» ixtisosligi bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan bo'lim ochildi. 2005–2006-o'quv yilidan boshlab esa shunday bo'limlar Samarqand Davlat universiteti va Farg'ona Davlat universitetida ham ish boshladи. 2010–2011-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Milliy universitetida ham «ijtimoiy ish» ta'lim yo'naliishlari ochildi.

Ijtimoiy ish etikasi fani – talabalarda ijtimoiy ish olib borishning tashkiliy mexanizmi va konseptual yo'naliishlaridan samarali foydalananish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj mijozlar bilan olib

boriladigan ijtimoiy ishning axloqiy qoidalariga amal qilish bo‘yicha nazariy va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga yo‘naltirilgan.

Ijtimoiy ish ixtisosligi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish yo‘lidagi to‘siqlardan biri – shu yo‘nalishdagi darslik va o‘quv adabiyotlarining kamligida. Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PK-1533-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosini amalga oshirish maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2013-yil 2- avgustdagи 278-sonli buyrug‘i asosida takomillashtirilgan oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, jahon tajribasi o‘rganilgan va tahlil qilingan holda mazmuni tubdan o‘zgartirilgan o‘quv reja va fan dasturlari asosida darsliklarni yaratish ishlari o‘quv adabiyotlari yetishmaslining oldini olishga qaratilgan ulkan qadamdir.

Qo‘lingizdagи ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan «Ijtimoiy ish etikasi» darsligi ham bu borada qilingan dastlabki ishlardan biri hisoblanadi.

Darslikda keltirilgan boblar quyidagi mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan:

kirish – M.X.Ganiyeva.

I-bob – N.M.Latipova, I.Negmatov, M.B.Sherov.

II-bob – M.X.Ganiyeva, L.N.Jo‘rayev, M.Sherov.

III-bob – N.M.Latipova, U.U.Abdurahmonov, Z.R.Ergashev.

IV-bob – M.X.Ganiyeva, L.N.Jo‘rayev, M.B.Sherov.

V-bob – M.X.Ganiyeva, I.Negmatov, M.Sherov.

VI-bob – I.Negmatov, M.Sherov, Z.R.Ergashev.

VII-bob – N.M.Latipova, M.B.Sherov, Z.R.Ergashev.

VIII-bob – M.X.Ganiyeva, L.N.Jo‘rayev, U.U.Abdurahmonov.

IX-bob – N.M.Latipova, M.B.Sherov, U.U.Abdurahmonov.

X-bob – M.X.Ganiyeva, N.M.Latipova, M.B.Sherov.

XI-bob – M.X.Ganiyeva, M.B.Sherov, Z.R.Ergashev.

XII-bob – N.M.Latipova, U.U.Abdurahmonov, Z.R.Ergashev.

XIII-bob – M.X.Ganiyeva, I.Negmatov, M.B.Sherov.

I bob. «IJTIMOIY ISH ETIKASI» FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA MAZMUNI

Reja:

- 1.1. «Ijtimoiy ish etikasi» fanining obyekti, predmeti.
- 1.2. «Ijtimoiy ish etikasi» fanining maqsadi va vazifalari.
- 1.3. «Ijtimoiy ish etikasi» fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi.

Ijtimoiy ish – bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarda ko‘maklashishga yo‘naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy ish keng ma’noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o‘ziga xos modelidir. Uni jamiyatning aniq bir tarixiy davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariga mos ravishda ro‘yobga chiqaradi. Tor ma’noda esa ijtimoy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo‘lib, odamlar, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan.

«Ijtimoiy ish» – butun dunyoda qabul qilingan ibora bo‘lib, u insonning insonga gumanistik munosabatini bildiradi.

Jamiyatning rivojlanish jarayoni, jamiyatda yashayotgan insonlarga nisbatan ijtimoiy munosabat orqali belgilanadi. Ayniqsa, davlatning yordamga muhtoj bo‘lgan odamlar qatlamiga e’tibori, ijtimoiy zaif kishilarga, ya’ni keksalar, nogironlar, yolg‘iz, nochor kishilarga yordam berishi, ana shu jamiyatning yuksak ma’naviyati va ijtimoiy moddiy jihatdan barkamolligidan dalolat beradi. Jahon tajribasida o‘z yaqinlariga yordam berish, og‘irini yengil qilish, hamdard bo‘lish, xayr-ehson qilish azaldan turli ko‘rinishlarda amalga oshirib keltingan. Ayniqsa, bu fazilatlar diniy qatlamlar orasida keng rivojlangan bo‘lib, o‘ziga xos ko‘rinishlari bilan namoyon bo‘lib kelgan. Tarixan o‘z in’ikosini topgan bu insoniy

fazilat ming yillar mobaynida xayriya, insonlarga yordam berish orqali diniy burch sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, XIX–XX asrlarga kelib, alohida mazmun va mohiyat kasb etuvchi professional kasbga aylandi. Bu davrlarga kelib, insonparvarlik tamoyillariga suyangan diniy xayriya bilan shug‘ullanuvchilar bilan zamonaviy ijtimoiy xodim orasidagi farq yuzaga keldi va o‘z shaklu-shamoyillari bilan rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy ishni professional kasb sifatida, alohida fan yo‘nalishida o‘rganish, bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ijtimoiy ish instituti yuz elliq yil mobaynida faoliyat olib bormoqda va yetakchi oliv dargohlarda kasbiy tayyorgarlik amalga oshiriladi. Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamni o‘ziga xos modeli sifatida hayotga tatbiq qilinmoqda.

Ijtimoiy ish faqatgina kundalik insonlar orasidagi muammolarni hal qilish borasida yordam berish bilan cheklanmay, balki ehtiyojiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish xususiyatlarini va o‘ziga o‘zi yordam berish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan, xaysaxovat va ana shu faoliyatning shunga o‘xhash turlaridan farq qiladi. Bu hodisani istalgan hayotiy vaziyatda odamni o‘z muammolarni o‘zi hal qilishga o‘rgatish deb tushunish mumkin. Ijtimoiy ish bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari bugungi kunda keng doiradagi muammolarga duch kelmoqdalar. Alkogolizm, giyohvandlik, mulchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga yomon muomalada bo‘lish, oilaviy janjallar, ruhiy va jismoni kasalliklar, darbadarlik, jamiyatdan ajralgan holda yashash shular jumlasidandir. Bularning barchasi maxsus tayyorgarlik talab qiladi. Bunga yuzaki yondoshish mumkin emas. Chunki ijtimoiy ish xodimlari tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘libgina qolmay, balki shu kasbga doir axloqiy me’yorlar va tamoyillarga rioya qilishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Ijtimoiy ish xodimlarining xizmat turlari mijozlarning yoki guruhlar muammolarining mazmuni, ya’ni yordam va qo‘llab-quvvatlashning talab darajasi, faoliyat turlaridan kelib chiqib tasniflanadi. Ijtimoiy xizmat xodimlarining faoliyati me’yoriy huquqiy hujjatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va belgilangan qoidalari asosida amalga oshiriladi. Qoidalarga ijtimoiy xizmat tashkilotining maqsad va vazifalari, moliyalashtirish manbasi,

xodimlarning ish majburiyatlari, ish jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan axloqiy tamoyillar aks etishi lozimdir.

Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o‘zgarishlarga insoniy munosabatlar muammolarini hal qilishga, shuningdek, odamlarning farovonligini oshirish uchun imkoniyatlarning taqsimlanishiga va ozod bo‘lishiga ko‘maklashadi. Insoniy xulq-atvor va ijtimoiy tizimlar haqidagi nazariyalardan foydalanib, ijtimoiy ish odamlarning atrofidagilar bilan o‘zaro aloqadorlikka kirishgan joylarda yuzaga keladi.

Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy ish xodimlari insonparvarlikka, halollikka xizmat qilish yo‘li bilan inson qadr-qimmatini hurmat qilishga, ijtimoiy adolatni ta’minalashga ko‘maklashishi kerak.

Fan sifatidagi ijtimoiy ishning predmeti alohida shaxs, muayyan ijtimoiy guruh yoki shaxs hayotiga bevosita aloqador bo‘lgan ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalar, ularning psixologik-pedago-gik, iqtisodiy va boshqaruv omillari ta’sirida o‘zgarish tamoyil-laridir.

Ijtimoiy ish fanining predmeti, o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida uni boshqa fanlar predmetlari, avvalo sotsiologiya, psixologiya, konfliktologiya, ijtimoiy tarix predmetlari bilan qiyoslab so‘z yuritish mumkin.

Ijtimoiy ish ko‘proq amaliy xususiyatga ega. U faqat nazariyadan iborat emas, balki o‘z tarkibiga uzviy ravishda muayyan amaliy tajribaning ma’lumotlarini ham qamrab oladi. Hayot bilan, aholi turli guruhlari va qatlamlari hayotining muayyan shart-sharoitlari bilan mustahkam aloqa ijtimoiy ish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishdagi muhim shartdir.

Ijtimoiy ishning eng muhim tizim tashkil qiluvchi elementlaridan biri ijtimoiy ishdagi voqeа va hodisalar mohiyati o‘rtasidagi mustahkam, takrorlanib turuvchi obyektiv aloqadorlikni ifodalaydigan qonuniyatlardir. Ijtimoiy ish qonuniyatlarini nazariy asoslash va eksperimental jihatdan tasdiqlash hozirgi zamon olimlari va tadqiqotchilari oldida turgan asosiy vazifalardan biri.

Hozirgi kunda quyidagi qonuniyatlar to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin:

1) ijtimoiy ish jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarga odamlarning ehtiyojlari, muayyan vaziyat talablari asosida ta'sir o'tkazish bo'yicha faoliyat turi bo'lib, u barcha odamlarning manfaatlariiga, ularning ma'naviy yuksalishlariga va ijtimoiy munosabatlarning yangilanishiga, ijtimoiy salomatlikning saqlanishi va reabilitatsiya qilinishiga xizmat etadi;

2) individning shakllanishi «ijtimoiy dastur» bo'yicha – shaxsning o'z rivojida o'zining faolligi hal qiluvchi rol o'ynaydigan ijtimoiy muhit ta'sirida yuz beradi;

3) ijtimoiy xizmatlarning shakllanish va iste'mol qilish mabaliari ijtimoiy determinatsiyalashga (lotincha determino – aniqlayman) xususiyatga ega, ya'ni ular jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib uning taraqqiyotidagi tamoyillarni aks ettiradi.


Ijtimoiy ish subyektlari:

1) ijtimoiy yordam ko'rsatayotgan ijtimoiy xizmatchilar, ijtimoiy pedagogolar;

2) boshqalarni ijtimoiy ishga o'rgatayotgan professor-o'qituvchilar tarkibi;

3) ijtimoiy ish rivojlanish holatini qayd etayotgan, to'plangan materialni umumlashtirayotgan va tizimlashtirayotgan, uning rivojini bashoratlashtirayotgan tadqiqotchilar;

4) mamlakatdagi ijtimoiy siyosatni shakllantiradigan va amalga oshiradigan ma'muriy-boshqaruv xizmatchilar.



Jahon amaliyotidagi zamonaviy yondashish ijtimoiy ish ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyat shakllaridan

biri ekanini aniq-ravshan tushunishda. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy ish jamiyatdagi ijtimoiy kataklizmlarni va ziddiyatlarni qat'iy to'xtatib turadigan vosita hisoblanadi va unga jamiyat va davlat qanchalik ko'p mablag' ajratsa, u shunchalik samaraliroq bo'ladi.

Ijtimoiy ish keng ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o'ziga xos modelidir. Uni jamiyat aniq bir tarixiy davrda ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariiga mos ravishda ruyobga chiqaradi. Tor ma'noda esa ijtimoiy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo'lib, odamlar, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan.

Ijtimoiy ish tushunchasi – butun dunyoda qabul qilingan ibora bo'lib, u insonparvarlik munosabatini bildiradi.

Ijtimoiy ish filantropiya, xayriya va boshqa faoliyatlardan shu bilan farqlanadiki, u nafaqat kundalik muammolarni yechishda yordam berishga, balki muhtoj kishilarga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatadi.

Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlarini ketma-ketlikda qarab chiqishda tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy ishning subyektlar o'z muhimligiga qaramasdan obyektlarning ham hosilasi va yetakchisidir. Ijtimoiy ish obyektlari u yoki bu jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, hatto siyosiy sharoitlari ta'sirida shakllanadi. Subyektlari esa xuddi shu obyektiv sharoitlar ta'sirida yuzaga kelsalar-da, shu bilan birga siyosiy va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan, ustqurmoviy jihatdan shakllantiriladi.

Obyektlarning xususiyati shundan iboratki, obyektlar vujudga kelgan muammolardan kelib chiqib, hal etish kerak bo'lgan masalalar darajasi bilan aniqlanadi. Subyektlar esa (ijtimoiy xizmatlar) ana shu asosda shakllanadi, tashkil topadi. Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlari «obyektlar-subyektlar» nisbatida qarab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy ish subyektlari tavsifini uning barcha jihatlarini hisobga olgan holda, xususan amaliy va ilmiy hamda o'quv fani sifatida qarab chiqish lozim. Chunki ular ijtimoiy hayot fenomenining bir-biri bilan zich bog'langan va bir-biri bilan aloqador faoliyat turlari hisoblanadi.

Obyektni subyektga, uning predmetli-amaliy faoliyatini bilish deb izohlash mumkin. U obyektiv vogelikka shunchaki o‘xshash emas, balki subyekt bilan o‘zaro aloqa va ta’sir qiluvchi qismidir.

Subyekt – predmetli-amaliy faoliyat va bilishning ifodalovchisi (individ, ijtimoiy guruh) bo‘lib obyektga qaratilgan faollik manbayidir.

Ijtimoiy ishda obyektlar va subyektlarni tushunishda 3 ta muhim bo‘lgan jihatni ta’kidlash lozim: birinchidan, ularning o‘zaro farqlari; ikkinchidan, ularning organik o‘zaro aloqasi va ta’siri; uchinchidan, ularning joy almashish imkoniyatlari.

«Obyekt» hamda «subyekt» tushunchalari o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lishi mumkinligini hamda nazarda tutish kerak. Obyektlisubyektlis munosabatlar ijtimoiy ishni asosan amaliy faoliyat sifatida tavsiflaydi.

Ijtimoiy ishni fan sifatida o‘rganishimizda obyektlipredmetli munosabatlar bilan ish ko‘ramiz. Agar obyekt ijtimoiy ishning amaliy muayyan bir turi sifatida qabul qilinsa, predmeti esa shu obyektning (mijoz – individ, oila, jamoa, ijtimoiy guruh) tomonlarini tashkil etadi. Ta’bir joiz bo‘lsa buni ijtimoiy ish qonuniyatlarideb ham hisoblashimiz mumkin.

Ijtimoiy ishni o‘quv fani sifatida (aniqrog‘i o‘quv jarayoni) tahlil qilinganda, tinglovchilar, talabalar obyekt, subyektlar esa – o‘qituvchilar tarbiyachilar hisoblanadi. Shu bilan birga bu yerda obyekt-subyekt munosabatlari haqida gap ketganda, ayniqsa (tinglovchilar) talabalar mustaqil ilmiy tadqiqot va boshqa faoliyati (shu jumladan amaliy) jonli misol bo‘la oladi.

Ijtimoiy ishning obyekti keng ma’noda izohlanganda barcha odamlar hisoblanadi. Bu aholini barcha qatlamlari va guruhlarining hayotiy faoliyati ko‘p jihatdan jamiyat taraqqiyotining darajasi, ijtimoiy sohaning ahvoli, ijtimoiy siyosatning mazmuni, uni amalgao shirish imkoniyatlari bilan aniqlanadigan shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Umuman aholini ijtimoiy himoya instituti doirasida ijtimoiy ish obyekti va subyekti masalasi yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy siyosatni yanada oydinlashtiradi. Chunki har bir inson o‘z hayotining har qanday davrida o‘zning istak, ehtiyojlari, hatto qiziqishlarini to‘laroq qondirilishiga intilishini ham nazarda tutish kerak. Shu bilan birga odam hayot faoliyatining

har bir sohasida istak-ehtiyoj bir xil qondirilmasisligi mumkin. Oddiy qilib aytganda har bir inson u yoki bu darajada jamiyat tomonidan qo'llab-qo'vvatlanishga, yordamga, himoyaga muhtojlikni anglatadi. Hatto boy odamning ham qattiq hayojonga soluvchi vaziyatlar bilan bog'liq tashvishlari, tinchroq vaziyatda o'z sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga muhtoj bo'ladi. Ba'zan sog'lom odam o'zining turli niyatlarini amalga o'shirishga imkoniyati bo'lmay, omadsiz, hatto qashshoq bo'lishi mumkin yoki har qanday oilada er-xotin yoki ota-onasi bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi kabi jarayonlarda ko'rish mumkin.

Aholi turli xil tabaqa, qatlamlarga mansub bo'lib ularning ba'zilari hayotning qiyin, murakkab vaziyatiga duch kelganda o'zining ijtimoiy muammolarini hal etolmaydigan darajada bo'lishi mumkin. Ijtimoiy huquq¹ aynan aholining ana shu guruhlari, qatlamlariga alohida e'tiborni qaratishni nazarda tutadi.

Umuman tabaqa lashtirilgan yondashuv, ya'ni ularni klassifikatsiyalash (tasniflash) guruhlashtirish quyidagi shakllarda namoyon etish mumkin:

1. Sog'lig'i tufayli hayotiy muammolarni mustaqil hal eta olmaydiganlar guruhi. Bularga nogironlar yoki imkoniyati cheklangan kishilar (katta yoshdagilar, bolalar), radiatsiya ta'siriga uchragan shaxslar, nogiron farzandlari bo'lgan oilalar, psixologik tanglik, psixologik qattiq hayojonga tushib qolgan, o'z joniga qasd qilishga moyil katta-kichik yoshdagilar hatto bolalar.

2. Ekstremal – eng past yoki eng yuqori darajadagi ko'rsat-kichlar bilan xususiyatlanadigan sharoitga tushib qolgan odamlar guruhi Bu guruhga Ikkinci Juhon urushi ishtirokchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, urush davrida front ortida ishlagan kishilar (ularning iqtisodiy ahvoli qarilik va sog'ligining yomonligi bilan chuqurlashadi), urush va tinchlik davrida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning bevalari, bolalar.

3. Keksalik nafaqa yoshiga etib ishdan ketganligi tufayli hayotning qiyin vaziyatiga tushib qolganlar – bular yolg'iz kishilar, nafaqadagilar, himoyaga muhtoj oilalar.

4. Deviant xulq atvorining turli shakllari va turlari bilan bog'liq guruhlar. Bu kategoriyaga
– deviant xulqli bolalar va o'smirlar kiradi;

- oilada shafqatsiz munosabat va zo'ravonlikka uchragan bolalar;
- sog'ligi va jismoniy va aqliy o'sishga ta'sir etgan sharoitlarda yashaydiganlar;
- ozodlikdan mahrum etilgan, qamoqxonalardan qaytgan mahbuslar, maxsus o'quv-tarbiyaviy (axloq tuzatish) muassasalardan qaytgan yoshlar;
- spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarini iste'mol qiluvchi oila a'zolar.

5. Omadsiz, ishi yurishmay qolgan toifadagi oilalar. Ya'ni:

- ota-onasiz, qarovsiz qolgan yetim bolalar;
- daromadi past bo'lgan oilalar;
- ko'p bolali oilalar;
- balog'at yoshiga yetmagan oilalar;
- yosh oilalar;
- nikohi buzilgan, ajralgan oilalar;
- noxush psixologik vaziyatga tushgan oilalar;
- o'zaro ziddiyatga tushib qolgan oilalar;
- shuningdek, ota-onalari pedagogik jihatdan zaif bo'lgan oilalarni kiritish mumkin.

6. Bolalarning favquloddagi ahvoli (yetimlik, sayoqlik va hokazo). Bu guruhga quyidagilar kiradi:

- bolalar uylari, maktab-internatlarni bitirib mustaqil hayotga yo'l olganlar bo'lib, ular iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy yetuklikka yetishmaganlar;
- yetim qolgan yoki ota-onaning qarovisiz qolgan bolalar;
- nazoratsiz qolgan bolalar va o'smirlar.

7. Darbadarlik, boshpanasiz qolganlar. Bu guruhga aniq yashash joyi bo'lмаган odamlar, migratsiya tufayli ro'yxatdan o'tgan qochoqlar, majburan qochib o'tganlar;

Yuqorida keltirilgan guruhlarga bo'lish yagona emas. Ko'rsatilgan guruhlarni ehtimol yanada aniqroq guruhlarga bo'lish yoki aksincha, ancha kengroq tamoyillarni ajratish mumkin – bu esa tadqiqotning maqsadi va vazifalarga, amaliy masalalarni hal etishga bog'liqidir.

Ijtimoiy ishning obyektlari oldida turgan u yoki bu masalalarni muammolarni yechshiga qaratilgan, kishilar, muassasalar, tashki-

lotlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy ishning subyektlari ekanligini inobatga olgan holda, jumladan ijtimoiy ishni tarkibiy qismini e'tiborga olib, turli asos bo'yicha quyidagicha darajalash (differensatsiyalash) mumkin: amaliy faoliyat, ilmiy va o'quv jarayoni (ijtimoiy ishdagi o'quv fanlari).

Ijtimoiy ishning subyektlari quyidagilar hisoblanadi.

1) avvalo jamiyatdagi barcha tashkilotlar, muassasalar, ijtimoiy institutlar:

1. Davlat o'zining turli darajadagi qonun chiqaruvchi ijro etuvchi va sud hokimiyati ko'rinishdagi tuzilmalari bilan, bu tuzilmalarda mehnat va ijtimoiy taraqqiyot vazirligi, shuningdek hududiy darajadagi ijtimoiy ish boshqarish organlari (o'lka, viloyatlar, respublikalar, avtonom tuzilmalarda ijtimoiy himoya organlari) shaharlar mahalliy organlar alohida o'rinn tutadi.

2. Turli ijtimoiy xizmatlar: oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari; balog'atga yetmaganlar uchun ijtimoiy tiklash (reabilitatsion) markazlari; ota-onha qarovisiz qolgan bolalarga yordam ko'rsatish markazlari; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun reabilitatsion markazlar; bolalar va o'smirlar uchun ijtimoiy boshpanalar; aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari; telefon orqali ekstrim (shoshilinch) yordam berish markazlari va boshqalari.

3. Davlat korxonalari, tashkilotlari, muassasalari, oliygochlari (oliy o'quv yurtlari) va hokazolarning ma'muriyatlari va ularning bo'limlari.

4. Jamoat, hayriya va boshqa tashkilotlar va muassasalar: kasaba uyushmalari, bolalar fondining Qizil yarim oy (Qizil xoj) jamiyatining bo'limlari, xususiy ijtimoiy xizmatlar, tashkilotlar va hokazolar.

5. Amaliy ijtimoiy ish bilan professional tarzda yoki jamoatchilik yo'li bilan shug'ullanuvchi kishilar. Haqiqatda ular ijtimoiy ishning ko'rsatilgan ikki subyektlarining vakillaridir. Bunda ularni ikki guruhga ajratish mumkin: tashkilotchi-boshqaruvchilar va biz yuqorida ko'rib chiqqan ijtimoiy ishning obyektlariga bovosita yordam ko'rsatuvchi, madad ko'rsatuvchi mijozlarni himoya bilan ta'minlovchi ijrochilar, amaliy ijtimoiy ish xodimlari.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda jahonda 500 mingga yaqin professional ijtimoiy ish xodimlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy ish xodimlari alohida guruh bo‘lib, ular aniq professional va ma’muriy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishlari zarur.

6. O‘qituvchilar, shuningdek, bilimlar, ko‘nikmalar, mahoratlarini mustahkamlashga yordam beruvchilar: talabalar amaliyotining rahbarlari, murabbiylar, amaliy ijtimoiy ish xodimlar va ijtimoiy sohaning turli tashkilotlari, muassasalari, korxonalarida talabalar (tinglovchilar)ning amaliyot o‘tashlariga yordam beruvchi boshqa xodimlar.

7. Ijtimoiy ishni tadqiq etuvchilar: ilmiy xodimlar turli usullarni qo‘llagan holda ijtimoiy ishning holatini tahlil qiladilar, ilmiy dasturlar ishlab chiqadilar, shu sohada mavjud bo‘lgan va paydo bo‘layotgan tendentsiyalarni qayd etadilar, ijtimoiy ishning muammolari bo‘yicha ilmiy hisobotlar, kitoblar maqolalar chop etadilar. Bu jarayonda mamlakatning ilg‘or oliyoholarining kafedralari, laboratoriya xonalari, ilmiy muassasalari, ijtimoiy muammolar bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo‘yicha ilmiy kengashlar muhim rol o‘ynaydi.

«Ijtimoiy ish etikasi» fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy ish fanining turlicha nazariyalarni o‘rganish;
- Ijtimoiy ish xodimlari amal qiladigan axloqiy qoidalarning milliy xususiyatlarini tadqiq etish;
- Ijtimoiy ish xodimlari amal qiladigan axloqiy-etik kodekslari bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish;
- Ijtimoiy ish sohasida faoliyat yuritadigan xodim faoliyatining asosiy vazifalari va funksiyalarini aniqlash;
- Ijtimoiy ish xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash;
- Ijtimoiy ish xodimining ma’naviy-axloqiy qiyofasini tadqiq etish;
- Ijtimoiy ish sohasida kasbiy faoliyat olib boruvchi ijtimoiy ish xodimlarining axloqiy-etik faoliyatini takomillashtirish.

Hozirgi davrda ijtimoiy ish xodimlari faoliyati jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy printsiplar va tamoyillar mohiyatini bilishi, shu bilan birgalikda ularda ko‘nikma va malakalarini

Ijtimoiy ish xodimlari alohida guruh bo‘lib, ular aniq profesional va ma’muriy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishlari zarur.

6. O‘qituvchilar, shuningdek, bilimlar, ko‘nikmalar, mahoratlarini mustahkamlashga yordam beruvchilar: talabalar amaliyotining rahbarlari, murabbiylar, amaliy ijtimoiy ish xodimlar va ijtimoiy sohaning turli tashkilotlari, muassasalari, korxonalarida talabalar (tinglovchilar)ning amaliyot o‘tashlariga yordam beruvchi boshqa xodimlar.


7. Ijtimoiy ishni tadqiq etuvchilar: ilmiy xodimlar turli usullarni qo‘llagan holda ijtimoiy ishning holatini tahlil qiladilar, ilmiy dasturlar ishlab chiqadilar, shu sohada mavjud bo‘lgan va paydo bo‘layotgan tendentsiyalarni qayd etadilar, ijtimoiy ishning muammolari bo‘yicha ilmiy hisobotlar, kitoblar maqolalar chop etadilar. Bu jarayonda mamlakatning ilg‘or oliygohlarining kafedralari, laboratoriya xonalari, ilmiy muassasalari, ijtimoiy muammolar bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo‘yicha ilmiy kengashlar muhim rol o‘ynaydi.

«Ijtimoiy ish etikasi» fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy ish fanining turlicha nazariyalarni o‘rganish;
- Ijtimoiy ish xodimlari amal qiladigan axloqiy qoidalarning milliy xususiyatlarini tadqiq etish;
- Ijtimoiy ish xodimlari amal qiladigan axloqiy-etik kodekslari bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish;
- Ijtimoiy ish sohasida faoliyat yuritadigan xodim faoliyatining asosiy vazifalari va funksiyalarini aniqlash;
- Ijtimoiy ish xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash;
- Ijtimoiy ish xodimining ma’naviy-axloqiy qiyofasini tadqiq etish;
- Ijtimoiy ish sohasida kasbiy faoliyat olib boruvchi ijtimoiy ish xodimlarining axloqiy-etik faoliyatini takomillashtirish.

Hozirgi davrda ijtimoiy ish xodimlari faoliyati jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy printsiplar va tamoyillar mohiyatini bilishi, shu bilan birgalikda ularda ko‘nikma va malakalarini

rivojlantirish bilan bog'liq bilimlarni berish ushbu fanni asosiy vazifalaridan hisoblanadi.



Mazkur fanni metodologik asosi bo‘lib, etika, axloqshunoslik, estetika, ma’naviyat asoslari fanlari hisoblanadi.

Ijtimoiy ish etikasi fan sifatida etika bilan chambarchas bog‘-liqidir. Axloq murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa bo‘lganligi sababli u ko‘pgina fanlar tomonidan o‘rganiladi (1.2-rasm).

Jumladan, axloq – kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat hamda mu-loqotning qonun-qoidalari, mezonlari yig‘indisi¹. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy voqeliklarini inson xulq-atvori, xatti-harakati aniq-rogi, umume’tirof etilgan milliy-ma’naviy va zamonaviy me’yorlarga mos kelishini ta’minlovchi va belgilovchi ma’naviy mezondir.

O‘z mohiyatiga ko‘ra axloq - kishilarning bir-biriga, oilaga, vatanga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar yig‘indisidir. Axloq har bir kishining xulqini aks etti-radi. Axloqning yuksak darajada bo‘lishi jamiyat rivojiga ijobiy ta-sir qiladi yoki aksincha, axloqsizlik jamiyat rivojini izdan chiqaradi. Axloqsiz shaxsning istiqboli bo‘limganidek, axloqsiz jamiyatning ham istiqboli bo‘lmaydi. Ayni paytda, axloq jamiyatning barcha jab-halariga kirib borishi va unga jamiyat a’zolarining amal qilishi ij-timoiyadolat munosabatlarini vujudga keltiradi. Ammo har qanday holatda shaxsning ichki axloqiy tarbiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ushbu munozara xususida I. Kant tomonidan aytilgan fikrlar mazkur muammoni oydinlashtirishga yordam beradi. Jumladan, u shunday deydi: «Faqat har bir insonning o‘zi uchun o‘zi axloqiy qonun o‘rnata olish qobiliyati negizida. Boshqacha aytganda, har bir inson o‘z axloqiy qonuning ijodkori hisoblanadi. Har bir individ axloqiy jihatdan mustaqil. Bu aytilganlar odamlarda axloqiy qonunlar belgilash erki borligi va ular shunday qilish uchun yetarli aqlga ega ekanini ko‘rsatadi. Erkin va oqil shaxslar faqatgina o‘zlar uchun ma’qul bo‘lgan qonunlarni o‘rnata olmasliklarini tushunadilar»². Darhaqiqat, Kant masalaning falsafiy-ijtimoiy negizlariga kirib boradiki, insonning ongsiz va ongli harakatlari mohiyati ochib beriladi. Masalan, vatanparvarlikning axloqiy

¹ Qarang. Falsafa. (qisqacha izohli lug‘at). -T.: Sharq, 2004. -B. 49

² Falsafa tarixi. -T.: Sharq, 2002. -B. 430.

mezonlari, darajasini belgilab bo‘ladimi?! Yoki vatanparvarlik qilmagani uchun javobgarlikka tortish mumkinmi?! Shuning uchun axloqiy jihatdan inson mustaqil. Faqat yaratganning oldida hisobot beradi. Albatta, agar inson xoinlik qilsa, u javobgarlikka tortiladi. Lekin masala mohiyatan ikki xil narsa.

Axloqqa nisbatan D. Yum shunday ta’rif beradi: «Axloq tushunchasi barcha insoniyatda qandaydir umumiylar hissiyot tug‘dirib, u bitta obyektida umumiylilikni ma’qullaydi va har bir kishini yoki ko‘pchilikni ma’lum xulosaga olib kelib, bir-biriga itoat etishga qodir»¹. Ushbu ta’rif yuqorida keltirilgan Aristotelning qarashlariga to‘g‘ri keladi. Siyosat axloqiy qadriyatlarga asoslansa, ko‘pchilikni umumiylar harakatga, itoatga olib keladi. Shuning uchun axloqqa amal qilish shaxs va millatning ma’naviy dunyosi va salohiyat darajasi bilan bog‘liq hodisa sifatida qaraladi.

Axloq va uning ijtimoiy mohiyati to‘g‘risida Abdulla Avloniy shunday deydi: «Insonlarni yaxshilikg‘a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur»². Ko‘rinib turibdiki, A. Avloniy axloqqa nisbatan nafaqat ilmiy ta’rif beradi, balki uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochadi. «Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligi» bevosita siyosiy faoliyatda ham o‘z ifodasini namoyon qiladi. Chunki, xulq-atvor inson faoliyati orqali ijtimoiy hayotga u yoki bu tarzda ta’sir o‘tkazadi.


Axloqni tadqiq qilish doirasi kengayib borgan sari bu sohada fanning yangi yo‘nalishlari ham ko‘paymoqda. Hozirgi vaqtida ular qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- *estetika* – Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo‘ladi, ya’ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go‘zallik) ham nafosat (tashqi go‘zallik) xususiyatlarini o‘rganadigan fan;

¹ Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. -T.: Sharq. 2002. -B. 34.

² Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat. 1998. -B. 34.

- *sotsiologiya* – insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi;
- *huquqshunoslik* – inson huquq va erkinliklarini o‘rganadigan fan;
- *pedagogika* – shaxsni tarbiyalash, ta’lim berishga yo‘naltilgan fan;
- *psixologiya* – kishilar xatti-harakati, fe’l-atvori va maylistaklarini o‘rganadi.



1.2-rasm. Ijtimoiy ish etikasi bilan aloqador fanlar

Jamiyat va ma’naviy – axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish masalalari qadimdan o‘rganilib kelingan. Bu jarayonni shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin:

- 1) *Qadimgi davrdan VIII asrgacha bo‘lgan davr;*
- 2) *O‘rta asrlar davri (VIII – XIX asrlar)*
- 3) *Milliy uyg‘onish davri (XIX asr oxiri – XX asrning 1-choragi)*
- 4) *Ilmiy o‘rganish davri (XX asrning 30-yillaridan to‘ hozirgi davrigacha)*

Birinchi davrga oid «Avesto» kitobida jamiyatni ma’naviy-axloqiy takomillashtirishda ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu (amal) axloqni shaxsda shakllantirish tamoyiliga asoslanish lozimligi uqtiriladi.¹ Bu davrda nisbatan dunyoviy axloq muomala odobi ustuvor darajada ko‘zga tashlanadi.

Ikkinci davr Islom davri bo‘lib, unda dunyoviy axloq me’yorlariga diniy axloqiy fazilatlarni qo‘shish xususiyatidir. Bu muammo Qur’oni Karim, Hadisi Sharif va mutafakkirlarning asarlarida tahlil qilingan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy jamiyatning ma’naviy-axloqiy darajasini fozil fazilatlar va johil xususiyatlar tashkil qilishini ilmiy tahlil qilib bergen.²

Uchinchi davrga yangilanishga (jadidchilik) xos bo‘lib, unda jamiyatda ijtimoiy-axloqiy faol bo‘lgan kishilarni voyaga yetkazish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan. Bu davrda M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy va shu kabi olimlar shaxsni vujud, aql va axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan jamiyatda ma’naviy-axloqiy uyg‘onishni yuzaga keltirish mumkinligini asoslab bargarlar.³

To‘rtinchi davr muammoni ilmiy tahlil qilish davri bo‘lib, I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, E.Yusupov, J.Tulenov, O.Fayzullayev, X.Shayxova, I.Karimov, K.Xonazarov, M.Xolmatova, Q.Nazarov, X.Aliqulov, G.Tillayeva Abdulla Sher va V.Karimovalarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Istiqlol-yillarda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mutlaqo yangi bo‘lgan milliy modeli ishlab chiqildi. Bu modelning negizini bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurish tashkil qiladi. Yangi davlatchilik va jamiyatni barpo etish ijtimoiy fanlarni, ijtimoiy ish etikasi oldiga ham yangi vazifalarini qo‘ymoqda. Chunki, O‘zbekistonda «ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi»⁴. Shu ma’noda hozirgi davlatchilik va jamiyatimizda quyidagi to‘rt masala ustuvorlikka ega:

– inson hayoti;

¹ «Avesto». Toshkent. Sharq. 2000-y.

² Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1998-y.

³ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma’naviyat. 1998-y.

Fitrat A. Najot yo‘li. Toshkent. Sharq. 2001-y.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. Ma’naviyat. 2001-y.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 12-modda. Toshkent. O‘zbekiston. 2010-y.

- inson huquqlari;
- inson erkinligi;
- inson manfaatlari.

Bu masalalarni ro'yobga chiqarish uchun jamiyat hayotida boshqa kasb sohalari ahamiyatini inkor etmagan holda ijtimoiy ish kasbi xodimlarining ham jamiyat hayotidagi roli va o'rni hamda ma'naviy - axloqiy fazilatlarini rivojlantirish lozim bo'ladi.

Hamkasb va hamfan sifatida ijtimoiy ish integral xususiyatga ega. Ijtimoiy ish paydo bo'lgan davrdan boshlab bu ish bilan pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar shug'ullanildilar, ijtimoiy ish faoliyati turli ilm sohalari tutashgan joyda yuzaga keladi.

Ijtimoiy ish faoliyati psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, tibbiyot xodimlari, huquqshunoslar, faylasuflar, shuningdek, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatishning turli jihatlarini tadqiq qiladigan boshqa soha vakillarining sa'y-harakati tufayli yuzaga keladi. Jumladan, ushbu faoliyatda psixologlarni inson shaxsi muammolari, pedagoglarni ularning tarbiyasi muammolari, sotsiologlarni ijtimoiy tuzilma muammolari, huquqshunoslarni muhtojlarga yordam ko'rsatishning qonuniy asoslari, faylasuflarni esa uning eng umumiyligi muammolari qiziqitradi¹. Boshqacha qilib aytganda, u kompleks dasturlarni hal qilishda turli soha vakillari o'rtasidagi hamkorlikni nazarda tutadigan sohalararo faoliyatni nazarda tutadi.

Ijtimoiy ish sohasiga xos alohida holat shunda-ki, u to'liq inson huquqlariga bag'ishlangan kasb ekanligi ta'kidlangan. Ayni vaqtida ta'kidning o'zi ham to'liq emas, ijtimoiy ish kasbi bilan inson huquqlari mavzusi o'rtasidagi aloqadorlikka taalluqli adabiyotlarning yetishmasligi mazkur mavzuning aniq yoritib berilmaganligini ko'rsatadi. Ushbu holat ijtimoiy ish xodimlari o'z amaliyotlarida inson huquqlari mavzusini tatbiq etishga harakat qilayotganlarida o'z mushohadalarining boshlang'ich nuqtasini topishga qiynalayotganliklari tufayli yuzaga kelayotgan bo'lishi mumkin. Agar ijtimoiy ish to'laligicha inson huquqlariga bag'ish-

¹ Агапов Е.П. Социальная работа как феномен культуры. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского государственного педагогического университета, 1999. – С. 104.

langan kasb bo'lsa, ijtimoiy ish xodimlari inson huquqlarini ta'minlash tamoyilini amaliyotning qaysi qismida qo'llashni boshlaydilar?

Amaliyotda inson huquqlari bilan ishlar ekanlar, ijtimoiy ish xodimlari inson huquqlari Konsepsiyasini tushunishlari va mos hujjatlar, xususan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr) to'g'risida bilimga ega bo'lislari lozim. Biroq ushbu hujjatlardan tashqari ijtimoiy ish xodimlariga o'z kasblarining inson huquqlari bilan aloqadorligini yaxshiroq tushunishlariga ko'maklashuvchi boshqa hujjatlar ham bor.

Ijtimoiy ish xodimlari Milliy Assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan Axloq Kodeksi shunday hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatning ko'p bo'limlari induvidial xulq-atvorga, masalan konfedensiallikka amal qilish mijoz bilan shaxsiy aloqadorlik tamoyili va boshqalarga taalluqli bo'lsa, boshqa bo'limlari inson huquqlari bilan ishslashga taalluqli ko'plab misollarni o'zida mujassamlashtiradi. AQSHdagi ijtimoiy ish xodimlarining katta qismi mazkur Kodeksdan qo'llanma sifatida foydalanadilar. Ushbu Kodeks ularga o'z kasblarini inson huquqlari bilan bog'lashda boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Kodeksni insonning mos huquqlariga amal qilishga nibatan qo'llab, AQSHda ijtimoiy ish xodimlari o'z kasblarining asosiy vazifasini bajaradilar. Kodeksda aks etgan bo'limlar ijtimoiy ish xodimlarini o'z mijozlaring huquqlariga amal qilishga chaqiradi. Garchi Kodeksning o'zida bir marta ham «inson huquqlari» atamasi ishlatilmasa-da, uning tili baribir inson huquqlariga doir asosiy hujjatlar, ayniqsa, Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining uslubini eslatadi. Kodeksni inson huquqlariga doir hujjatlar bilan aynan mos kelishini, ijtimoiy ish xodimlari nima uchun ularning kasblari inson huquqlari bilan mustahkam aloqada ekanligini yaxshiroq tushunadilar hamda mazkur huquqlarga amal qilish tamoyilini amaliyotga yaxshiroq qo'llaydilar.

Tarixan ijtimoiy ish insonlar va insonlar guruhlari o'rtaсидаги адолатсизликлар билан исхлассига то'ғ'ри келган. Ижтимоий исх парварлик ва демократик г'оялар асосида ривожландики, уларга амал qilish, uni kamsitishlar va resurslarning adolatsiz taqsimotiga qarshi kurash sari boshlaydi. Mazkur asosiy jihat – adolatsizlikka qarshi

kurash va demokratik g'oyalarni ilgari surish – ijtimoiy ish xodimi Axloq Kodeksining bir qismini tashkil etadi.

Ijtimoiy ish insonga ham, uning ehtiyojlarini qondirishga atrofdagilarning muhim amaliyat kasb etishini ehtiborga oлган holda atrofdagilarga ham yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy ish xodimlari nafaqat alohida odamlarga ko'mak beradi, balki kengroq, global darajada ham o'zgarishlar yasashga intiladilar. Respublikamizda olib borilayotgan demokratik huquqiy davlat barpo etish siyosati o'z navbatida ijtimoiy ishchi xodimlariga bo'lgan talabni yuzaga keltiradi va buning mobaynida bu soha vakillariga bir qator mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Bunday vazifalarga quyidagilarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy ish xodimlarining halol va madaniyatli inson bo'lishligining zarurligi;
- himoyasidagi insonlarning millati, irqidan va dinidan qat'i nazar barchasini baravar ko'rib muomalaga kirish;
- ijtimoiy ish xodimi madaniyatining tamoyillariga amal qilish;
- ijtimoiy ish xodimning qanday vaziyat bo'lishidan qat'i nazar, insonparvarlik xususiyatlarini amalga oshirishga kuch va g'ayrat topishligi;
- ayniqsa mustaqil ravishda o'zini o'zi himoya qilishga qodir bo'Imagan odamlarni, masalan, ishga layoqatsiz bolalar va yoshlar hamda aqliy taraqqiyoti buzilgan yoki sekinlashgan kishilarni qabul qilingan ma'naviy sog'lom qonunchilik doirasida himoyalashga doir ish olib borish;

– turli etnik guruhlar va jamiyatdagi insonni asosiy huquqlariga qarama-qarshi bo'Imagan an'analar, madaniyatlar, mafkuralar, e'tiqodlar va fanlarni hurmat qilish va ularga yordam berish.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarning barchasi ijtimoiy ish kasbining zaruriy omillari sanaladi va bu kasbning egasidan vijdonan yondashishlik talab qilinadi. Ushbu soha vakillarini respublikamizda mavjud huquqiy-me'yoriy hujjalarni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham o'zida xalqaro inson huquqlari borasidagi to'plangan ijobiy tajriba tamoyillarini muhrlagan. Bundan ko'rinish turibdi-ki, hozirgi zammon davlatlarining inson huquqlari masalasidagi faoliyatlariga asos bo'lib xizmat qiladigan tamoyillar, ham nazariy va ham amaliy ahamiyatga molikdir, ularni qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin:

- Eng go'zal narsa nima?
- Odam. Chunki u Tangrining mahsulidir.
- Eng tez narsa nima?
- Aql. U hamma narsani ortda qoldiradi.
- Hammadan donoroq narsa-chi?
- Vaqt. Chunki yolg'iz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi.
- Hamma uchun eng umumiylar narsa nima?
- Umid. Chunki u hech vaqosi yo'qlarda ham mavjuddir.
- Eng kuchli narsa nima?
- Zaruriyat. Chunki u hamma narsaning ustidan hukmonronlik qiladi.
- Eng qiyin narsa nima?
- O'zni anglash.
- Eng oson narsa-chi?
- O'zgalarga maslahat berish.

Fales

qadriyat hisoblanib, ularni hurmat qilish, himoya etish va ularga rioya etish har bir davlatning majburiyatidir;

– inson huquqlari barcha odamlarning tengligiga asoslanadi va umumiylar xususiyatga ega;

– inson huquqlari – ayni paytda hokimiyat ustidan nazorat qilishning vositasi hisoblanib, u davlat hokimiyati tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan o'zboshimchaliklarni cheklab turadi, zero davlat inson huquqlari bilan belgilab berilgan erkinlik doirasidan chetga chiqishi mumkin emas;

– inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – shaxsni u yoki bu belgiga asoslanib kamshitilishiga olib kelmasligi shart;

– inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish – boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga zarar yetkazmasligi, buzmasligi shart;

– inson huquq va erkinliklari butun mamlakat hududida yagona bo'lishi kerak;

- insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari o‘zaro tengdir, ya’ni huquqlar tizimida pog‘onaviylik – ierarxiya bo‘lmasligi lozim;
- kollektiv (jamoaviy) huquqlar individ (yakka shaxs) huquqidan ajralmasdir va ular o‘zaro bir-biriga zid kelishi, shaxsning huquqiy maqomini cheklashi mumkin emas;
- inson huquqlari faqat qonun, ya’ni yuqori yuridik maqomga ega bo‘lgan hujjat bilangina tartibga solinishi lozim;
- inson huquq va erkinliklari faqat qonun bilan, Konstitutsiya va boshqa xalqaro hujjatlarda ko‘rsatilgan hollardagina cheklanishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, inson huquqlari masalasiga doir xalqaro amaliyot tayanadigan yuqorida zikr etilgan asoslar qator nufuzli xalqaro hujjatlarda o‘zining ifodasini topgan:

– 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratasiysi:

– 1966-yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt va va boshqa shu kabi hujjatlar.¹

Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida qo‘lga kiritilgan olamshumul g‘alabalardan biri – inson huquqlari kategoriyasi rivojlanishidir. Inson huquqlari insoniyat taraqqiyotining mezoni sifatida mustahkamlanib, jahondagi barcha davlatlarida rivojlanib bormoqda. Muayyan bir davlatda inson huquqlari ta’milanishi ushbu davlatning har tomonlama yuksalishi, turmush tarzining yaxshilanishi, iqtisodiy farovonlik darajasining o‘sishi, xalqaro munosabatlarda mavqeining yuksalishiga xizmat qiladi. Zero, inson huquqlari kishilik jamiyatning barcha jabhalarini kamrab olib, ularni ta’minlagan davlat ijtimoiy inqiroz bilan bog‘liq bo‘lgan turli nomuvofiqliklardan holi bo‘lib, chinakam demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, «Inson huquqlariga asoslangan demokratik jamiyatining xalqaro miqyosda e’tirof etilgan tamoyillari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqalar va millatlararo do’stlik, insonning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning

¹ M.A.Axmadshayeva. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. T-2005.11-b.

ko‘pchilikka bo‘ysinishi, barcha fuqarolarning teng huquqligi, davlatning assosiy idoralari sayylanishi, ularning saylovchilar oldida hisobot berishi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, tayinlash yo‘li blan shakllanadigan davlat idoralarining saylovchi tashkilotlar oldida javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi¹. Ma’lumki, inson huquqlari haqidagi g‘oyalari kishilik jamiyatida davlat, davlatchilik, huquq kabi kategoriyalar paydo bo‘lishidan mavjud bo‘lib, ularning insonlar turmush tarziga kirib borishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

Mazkur institut XX asrning ikkinchi yarmidayoq umum e’tirof etilgan qadriyat sifatida xalqaro-huquqiy hujjatlar asosida mustahkamlanib, davlatlarning amaliyotida singdirila boshladi. Hozirda zikr etilgan hujjatlarning o‘ziga xos huquqiy poydevori – Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 90 ortiq davlatlarning konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi, 180 ortiq mamlakatlar tomonidan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida»gi Pakt ratifikatsiya qilindi. Bugungi kunda BMT tomonidan 70 yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160 tadan ziyod, YUNESKOda – 70 tadan ortiq, Yevropada xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti tomonidan – 30 tadan ortiq turli mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ham ko‘plab inson huquqlariga oid xalqaro shatnomalar, konvensiyalar, paktlar qabul qilindi. Darhaqiqat, professor A.X.Saidov e’tirof etishicha: «Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari – har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham, inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o‘rin tutadi»².

Bundan ko‘rinib turibdi-ki, inson huquqlarini himoyalash doimiy ravishda butun jahon diqqat markazida turadi. Shular bilan bir qatorda respublikamizda ham inson huquqlarini himoyalash jamiyatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Respublikamizga yangi ijtimoiy ish xodimi kasbining kirib kelishi fuqarolik demokratik jamiyat qurilishiga katta hissa qo‘sishi mumkin. Faqat buning uchun birinchi navbatda jamiyatimiz oldida bu soha bo‘yicha

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-T.: O‘zbekiston, 1997. 8-bet.

² Inson huquqlari.-T.: Adolat, 1997. 6-bet.

mutaxassis kadrlni tayyorlash va xalqimizga bu soha bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish masalalari turibdi.

I.V. Vachkovning psixologik o'yinlari va mashqlari¹.

Taklif etilayotgan mashqlar o'quv kursi materialini o'zlash-tirishda hamda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini, bo'lg'usi ijtimoiy ishchilarga kerak bo'ladigan shaxsiy sifatlarni rivojlan-tirishda talabalarga yordam berishga qaratilgan. Shaxsni shakllan-tirishning muhim sharti bo'lgan o'zini-o'zi anglash rivojiga yordam beradigan o'yinlarga alohida e'tibor berilgan.

«Kasbning muhim belgilar» mashqi

O'qituvchi talabalarga o'zlari oldindan biladigan «ijtimoiy ish» kasbining belgilarni aytishni taklif etadi. U ularni doskaga yozadi. Muhokamadan so'ng, ro'yxatga o'qiyotganlar tomonidan aytilmagan belgilarni qo'shib qo'yadi va ulardan har birining ma'nosini tushuntiradi. Shundan so'ng o'qituvchi talabalarga daftarlariда har bir belgiga rasm chizishni («piktogrammalar» uslubiyati) taklif etadi. To'rtta-beshta eng muhim belgilar bilangina chegaralanish mumkin.

Maxzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. *Ijtimoiy ish kasb sifatida qachon paydo bo'lgan?*
2. *Ijtimoiy ishni qanday ehtiyoj kasb sifatida tan olishga sabab bo'lgan?*
3. *Ijtimoiy ish xodimi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ochib bering?*
4. *Ijtimoiy ish etikasi fani nimani o'rghanadi?*
5. *Ijtimoiy ish etikasi fanining maqsadi nima?*
6. *Ijtimoiy ish etikasi fanining oldida turgan vazifalar nimalardan iborat?*
7. *Ijtimoiy ish etikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqa-dorligini tushuntirib bering?*

¹ Teterskiy S.V. «Ijtimoiy ishga kirish», A.Begmatov tarjimasi. Toshkent. 2006-y. 29 b.

Test savollari

1. Insoniylik, insonparvarlik, inson haqida g‘amxo‘rlik...

- A) Gumanizm
- B) Altruizm
- C) Egoizm

2. Voqelikdagи muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan falsafiy tushuncha...

- A) Qadriyat
- B) Qobiliyat
- C) Madaniyat

3. Insonning individual salohiyati, imkoniyatlari, shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati...

- A) Qobiliyat
- B) Qadriyat
- C) Madaniyat

4. Ijtimoiy ish xodimining samarali muloqotini ta’minlovchi sifatlar:

A) munosabatlardagi iliqlik, ochiqlilik, empatiya, o‘zga kishilarga nisbatan ijobiy munosabat;

B) muloqotdagi har ikki tomon huquqlarining tengligi, ayblovlarning mavjud emasligi; o‘zini himoyalovchi pozitsiyadan holilik;

D) bilim, malaka va ko‘nikma.

5. Xayrixohlik (empatiya) bu:

A) xayrixohlik bu o‘zga insonning idroki dunyosiga kira bilishdir, ya’ni uni o‘zga kishilar qay tarzda ko‘rayotgan bo‘lsa, shu tarzda ko‘ra olishdir;

B) «o‘zga kishi his-tuyg‘usini xatosiz ko‘ra bilish va his qila olish hamda shu insonga bu haqida tushuntirib bera bilish qobiliyatidir»;

D) xayrixohlik o‘zga kishiga nisbatan

6. Ijtimoiy ish etikasi fani qaysi fanlar bilan aloqador?

- A) Barcha javoblar to‘g‘ri
- B) Estetika

D) Etika

E) Sotsiologiya

7. Shaxsni tarbiyalash, ta'lim berishga yo'naltirilgan fan...

A) Pedagogika

B) Sotsiologiya

D) Falsafa

E) Psixologiya

8. Ijtimoiy ish etikasi fanining metodologik asosi...

A) Barcha javoblar to'g'ri

B) Etika

D) Axloqshunoslik

E) Estetika

9. Insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadigan fan.

A) Sotsiologiya

B) Huquqshunoslik

D) Axloqshunoslik

E) Psixologiya

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2010.
2. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. –T.: O‘zbekiston, 2010.
3. Ganiyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. –Toshkent. 2012-у.
4. Антология социальной работы. История социальной помощи в России / Сост. М.В.Фирсов. –М.:Сварогъ-ИВФСПТ, 1994.Т.1.
5. Барнз Дж.Г. Социальная работа с семьями в Англии. –М.: Центр общественных ценностей, 1993.
6. Бербешкина З.А. Этика социального работника // Теория и практика социальной работы: проблемы, прогнозы, технологии: Сб. –М.: РГСИ. 1992.
7. Василева-Гангнус Л. Правила этикета: Краткий справ. – М.: Делта МКС, 1992.
8. Государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования / Госкомитет Российской Федерации по высшему образованию. –М., 1995.
9. Медведева Г.А. Этика социальной работы. –М., 2000
10. Пинкус А., Минахан А. Практика социальной работы (формы и методы). –М.: Союз, 1993.
11. Профессионально-этические нормы социальной работы. –М: Социальное здоровье России, 1993.
12. Этические основы социальной работы // Теория и методика социальной работы (краткий курс). –М.: Союз, 1994.

II bob. IJTIMOIY ISHNING RIVOJLANISH TARIXI

Reja:

- 2.1 Faoliyat turi sifatida ijtimoiy ish yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.**
- 2.2 G‘arbiy Yevropa va AQSHda ijtimoiy ishning kasb sifatida qaror topishi.**
- 2.3 XX asrda ijtimoiy ishning rivojlanishi.**

Turli shakllar va nomlar bilan ataladigan ijtimoiy ishchi kasbi turli tarixiy va turli madaniy-tarixiy davrlardan buyon ma’lum. Ijtimoiy ishning birinchi marta tilga olinishi eramizdan avvalgi 1750-yilga taalluqlidir. Bu vaqtida Bobilda adolat kodlari – fuqarolik aklari yaratilgan bo‘lib, ular odamlarni o‘z yaqinini sevishga, kambag‘allar to‘g‘risida qayg‘urishga chorlaydi. Qadimgi Gretsiyada ijtimoiy ish «filantropiya¹» sifatida ma’lum bo‘lgan, Rimda esa «xalq an’anasi» sifatida, qadimgi inklar yordam berish jarayonini «minka» deb, slavyan qabilalari «slepnya» deb ta’riflaganlar. Rossiyada ijtimoiy ish 1864-yildagi yer islohotlarini o’tkazish davrida paydo bo‘ldi, lekin u paytda bu nom bilan atalmagan edi. Ijtimoiy xizmatchilarning e’tiborini ko‘zi ojizlarga, kambag‘allarga, qarovsiz bolalarga, boshpanasiz odamlarga qaratish bo‘yicha funksiyalarni maxsus vakillar bajarganlar. Bu faoliyatning muvaffaqiyati, boshqa istalgan har qanday faoliyatdagি kabi, odamlarning bilimlariga, hayotiy tajribasiga va kasbiy mahoratiga bog‘liq edi.

Ijtimoiy ish xodimlarini kasbiy tayyorlashning birinchi dasturlari XIX asr oxirida Amsterdamda, keyin Berlinda, Londonda paydo bo‘ldi, bu ijtimoiy ishning kasbiy darajaga o‘tishini anglatardi; bunda ijtimoiy tashxis qo‘yishda va ijtimoiy ish usullari va vositalarini tanlashda umumiy axloqiy mezonlarga emas, balki

¹ Yunon tilidan tarjima qilinganda «insoniyatga nisbatan muhabbatni ifodalash» ma’nosini bildiradi.

ilmiy asoslangan kasbiy yondashishga amal qilinadi. Ijtimoiy ko'mak natijasi insonning o'zini ham, ijtimoiy muhitning ham o'zgarishlari hisoblanadigan tadbirlar majmuyi hisoblana boshladi. Butun XIX asr davomida ijtimoiy xizmatchilar tomonidan asosiy tezis, ya'ni insonning ijtimoiy xastaliklarini davolash uchun shaxsning imkoniyatlari va uning ijtimoiy muhitini, eng avvalo uning oilasini erkinlashtirish va rivojlantirish, yuksaltirish kerakligi haqidagi bosh tezis qaror topdi.

Inson uchun hayotdagi birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Aynan shular insonni foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib keladi.

Demokrit

Jamiyatning rivojlanganlik darajasi odatda jamiyatdagи keksalar va bolalarning ahvoliga, ularning o'zini qanday his etishiga, yordam va qo'llab-

quvvatlashga muhtoj bo'lgan barcha odamlar toifasiga davlatning qanday munosabatda bo'lishiga qarab belgilanadi. Ijtimoiy zaif kishilarga, ya'ni keksalar, nogironlar, yolg'iz, nochor kishilar va aholining boshqa toifalariga yordam berish jamiyatning yuksak ma'naviyati va madaniyligidan dalolat beradi.

Yaqinlariga yordam berish, hamdard bo'lish va xayr-ehson qilish azaldan turli mamlakatlar xalqlariga xosdir. Ushbu fazilatlar O'zbekiston xalqiga ham xos bo'lib, milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarning asosini ifodalaydi. Ularni esa asrash va rivojlantirish zarur. Bu odamlar, ayniqsa yoshlar ongida insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash zarurligi bilan uзви bog'liq yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish bosqichiga chiqqan bir pallada ayniqsa muhimdir. Mamlakatni isloh qilish, bozor munosabatlari qaror topayotgan sharoitlarda jamiyatdagи har bir kishining munosib hayot kechirishini ta'minlash sifatida tushuniladigan milliy-davlatchilik manfaatlari ustuvorligi milliy mustaqillik mafkurasini shioriga aylanmoqda. Jamiyatning barcha qatlamlari ijtimoiy birdamligi va javobgarligi bunga erishishning zarur omili hisoblanadi.

Ijtimoiy ishni kasb va akademik fan sifatida o'rganish mazkur holatda nihoyatda muhim va foydalidir. Mamlakatimizda yangi «Ijtimoiy ish xodimi» kasbiga ehtiyojni shakllantirish aholi ijtimoiy zaif qatlamlarining u yoki bu toifalariga nisbatan ijtimoiy ish amaliyoti bilan shug'ullanadigan, ularga har tomonlama yordam

ko'rsatadigan muassasalar, xalqaro va jamoat tashkilotlarining keng tarmog'i tashkil etilishi bilan izohlanadi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ijtimoiy ish instituti yuz yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat olib bormoqda va jahonning yetakchi universitetlari bunday tayyorgarlikni amalga oshiradi.

Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida keng ma'noda ijtimoiy yordamning o'ziga xos modelini ifodalaydi. Buni jamiyat ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot xususiyatlariga qarab aniq bir tarixiy davrda amalga oshiradi. Tor ma'noda ijtimoiy ish shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda odamlarga, ijtimoiy guruahlarga yordam berishga yo'naltirilgan ijtimoiy zarur faoliyatdir.

«Ijtimoiy ish» – butun jahonda qabul qilingan insonning insonga munosabatini, insonning jamiyatga moslashishini yengilashtirish uchun qaratilgan faoliyatni anglatuvchi atamadir.

Bu ish ming yillar oldin xayriya va insonlarning diniy burchi sifatida yuzaga kelib, XX asrda maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan kasbga aylandi. Kelajakni tadqiq etish xalqaro Akademiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan «Jahon mamlakatlari 2002–2010-yillarda - muammolar va yechimlar» loyihasi ishtirokchilari taxmin qilayotgandek, XX asrda ishchi va oldingi asrlarda dehqon ommaviy kasb bo'lganidek, XXI asr ijtimoiy ish xodimi asri bo'lishi taxmin qilingan.

Ijtimoiy ishning teran insonparvarlik manbalarini qayd etgan holda diniy xayriya bilan shug'ullanadigan kishilar va zamonaviy ijtimoiy ish xodimi o'rtaсидagi farqni ko'rsatish zarur. Ma'naviy burch tuyg'usi va ko'rsatilayotgan yordamning kattaligi va uzoq muddatliligi bilan o'lchanadigan ezgu ishlar qilishga intilish xayriya bilan shug'ullanadigan kishilarga kuch bag'ishlaydi.

Ijtimoiy ish kundalik muammolarni hal qilishda yordam berishgagina emas, balki ehtiyojmandlarda qiyinchiliklarni yengib o'tish xususiyatlarini va o'ziga-o'zi yordam berish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan filantropiya, xayr-saxovat va faoliyatning shunga o'xshash turlaridan farq qiladi. Buni istalgan hayotiy vaziyatda odamni o'z muammolarini o'zi faol hal qilishga o'rgatish deb aytish mumkin.

Tarqoq, kam sonli yolg'iz kishilar tomonidan emas, balki kuchli davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan profes-

sional yordam eng samarali hisoblanadi. Ijtimoiy ish rivojlanishining dastlabki bosqichida bu ish bilan asosan XIX asrda sanoatning tez rivojlanishi va Yevropa mamlakatlarida shaharlaring roli oshishi tufayli kelib chiqqan ijtimoiy muammolarning keskinlashishidan tashvishlangan turli filantropiya jamiyatlari shug‘ullangan.

Sanoat inqilobining sodir bo‘lishi G‘arb ijtimoiy tuzilmasida ulkan o‘zgarishlarga olib keldi, bu esa inson va jamiyat o‘rtasida munosabatlarning yangi tipini yuzaga keltirdi. G‘arbda yangi intellektual yo‘nalish vakillari paydo bo‘ldi, ularning qarashlari davlatning shaxs oldidagi javobgarligi va ma’naviy burchi to‘g‘risidagi tushunchalar paydo bo‘lishiga ko‘maklashdi. Ijtimoiy muammolarning keskinlashishi nochorlar muammosining kelib chiqishiga olib keldi, jamoatchilik fikri ushbu muammo barqarorlik va tartib-intizomiga xavf tug‘diradi, deb hisobladi. Va bu holat, pirovardida, aholining turli guruhlarini empirik o‘rganishga buyurtmalar paydo bo‘lishida va ijtimoiy islohotlar o‘tkazilishida, keyinchalik esa ijtimoiy islohotchilar tashabbusi bilan ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning turli shakllari paydo bo‘lishida aks etdi. Yangi harakatning intensiv rivojlanishi, ixtisoslashtirilgan xizmatlarning tashkil etilishi natijasida nafaqat shoshilinch yordam ko‘rsatishni nazarda tutadigan, balki profilaktik yoki oldini oluvchi xususiyatga ega ijtimoiy faoliyatning eng samarali modellari izlandi.

Zamonaviy jamiyat misli ko‘rilmagan texnik yuksalayotgan hozirgi davrda odam boshqarmaydigan axborot texnologiyalari joriy etilmoqda, aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimiga singib ketadigan ishchi kuchi ajralib chiqmoqda. Taxminiy hisoblarga ko‘ra, hozirgi vaqtda AQSHda yollanma ishechi bo‘lib ishlaydiganlarning deyarli 15 foizi oila, ta’lim, sog‘liqni saqlash, qariyalar, ruhiy kasallar, bolalarga yordam berish singari amaliy ishlarda, axloq tuzatish muassasalarida ish bilan ta’minlangan.

Bu ixtisoslikka eng umumiy yondashishdir. U tegishli sohadagi xodim turli sohalarda zarur bilimga ega bo‘lishini talab qiladi. U yordam so‘rab murojaat qiladigan odamlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, foydalilanishi mumkin bo‘lgan tashkilotlar va muassasalarni, amaldagi milliy qonunchilikni, moliyalashtirish manbalarini,

ushbu sohada faoliyat olib boradigan boshqa mutaxassislar faoliyatini va bunday holatlarda ko'rsatiladigan xizmatlarni bilishi kerak.

<i>Skandinaviyacha model</i> (Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya, Daniya)	<i>Bismark modeli</i> (Germaniya, Fransiya, Belgiya)	<i>Beverij modeli</i> (Angliya, Irlandiya)
<i>Asosiy qoidasi</i>	<i>Asosiy qoidasi</i>	<i>Asosiy qoidasi</i>
Mamlakatlarda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minlanish huquqiga ega	Jamiyat a'zolariga ijtimoiy ta'minot uchun zarur vositalarni ishlab topishga imkoniyat berish	Har bir fuqaro favqulodda holatlarda (kasallik, nafaqa yoshi, o'lim va b) ijtimoiy sug'urtali nafaqa va pul yordami bilan qamrab olinishi zarur
Bosh siyosiy maqsad to'la-to'kis bandlikka erishish (davlat mas'uliyati)	Bosh siyosiy maqsad daromadlarni himoyalash (xodim mas'uliyati)	Bosh siyosiy maqsad minimal darajadagi daromadlarni himoyalash

Ijtimoiy ish xodimlari keng doiradagi muammolarga duch kelmoqda. Alkogolizm, mulkchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga yomon muomalada bo'lish, er-xotinlar janjali, ruhiy va jismoniy kasalliklar, darbadarlik, jamiyatdan holi yashash shular jumlasidandir. Bularning barchasi maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Ijtimoiy ish xodimlari tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'libgina qolmay, balki kasbga doir axloqiy me'yorlar va tamoyillarga riosa qilishga shaxsan tayyor bo'lishlari kerak.

Yangi vazifalarning paydo bo'lishi, ichki imkoniyatlardan foydalangan holda eskini yangilashda, ayniqsa odamlarning o'zi

hayotiy vaziyatlarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini rivojlan-tirishga yo'naltirilgan ijtimoiy ish faoliyatining professional shakllari, metodlari, texnologiyalardan unumli va samarali amalga tatbiq etgan holda, davr talablarga muvofiq ravishda qo'llash lozimligini ko'rsatmoqda. Yuzaga kelgan muammolarni samarali hal etish uchun xizmatlar, resuslarni taqdim etuvchi tizimlar bilan odamlar aloqasini ta'minlash, muammolarini hal etishning samarali va insonparvar yo'llaridan biri ekanligini alohida e'tirof etmoq lozim. Bu esa o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlari singari, ijtimoiy ish faoliyatning professional va noprofessional turlarining uyg'unlashib ketishi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni bu yerda professional mutaxassislar bilan birgalikda ko'ngillilarining katta guruhi mehnat qiladi, ularning ko'pchiligi oliy va o'rta ma'lumotga ega, faqat boshqa ixtisoslik bo'yicha yoki ijtimoiy xodimlarini taylorlov kurslarini tamomlaganlar. Bu sohada ijtimoiy ishning yutug'i ko'p jihatdan barcha xodimlarning ijtimoiy ish nazariyasi va texnologiyasi boshqa fanlar sohasidagi bilimlar tizimini, egallaganliklar, ularni amali-yotda qo'llash mahorati va ko'nikmasiga ega ekanliklariga, zamonaviy texnologiyani o'zlashtira olishlariga bog'liqdir.

2. Barcha strukturaviy darajalar ijtimoiy ish – mikro – mezo – makro darajalarda namoyon bo'ladigan texnologikligi va ko'p rejaligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy muammolarning o'sishi va ijtimoiy resurslarning cheklanganligi sharoitida ta'sir samarasi hal qiluvchi darajada mijozga ta'sir etish usullari, metodlari, yo'llari majmuyidan to'g'ri foydalana olish mahorati bilan belgilanadi. Ijtimoiy soha xodimi uning ijtimoiy vaziyatining o'zgarishiga erishib, psixologik korreksiyani o'tkazadi, ijtimoiy - maishiy, tibbiy - ijtimoiy yordam ko'rsatadi, yuridik yoki ijtimoiy - psixologik maslahat beradi va hokazo xizmatlarni amalga oshiradi.

Mikro darajada hayotiy vaziyat ijtimoiy muhitning bevosita ta'sirida vujudga keladi. Ijtimoiy ish xodimi kishilar bilan individual ishslash metodlarni yaxshi egallagan holda mijozini ijtimoiy himoyalay oladi. Mezo darajada mijoz sotsium ichida boshqa kishilar va kichik guruhlar bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi (oila, jamoa, tengdoshlari guruhi). Bu holda ijtimoiy soha xodimi guruh bilan ishslash metodlari va texnologiyalarini yaxshi bilishi kerak bo'ladi.

Makrodarajada yirik korxonalar, tizimlar va guruhlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu holda u bir o‘zi hal etishi qiyin bo‘lgan yirik ijtimoiy muammolar bilan to‘qnash kelishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy ish xodimi muammoni hal etishning qulay yo‘llarini topishga yordam berishi kerak bo‘ladi.

Har bir sohaning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda ijtimoiy xodimlar mijozga faqat muammoni hal eta olish mahoratigina emas, balki qiyin vaziyatni yengishning yangi ko‘nikma va malakasini ham shakllantira olmog‘i lozim. Bu yerda ijtimoiy ishning muhim xususiyati bir vaqtning o‘zida makro – mezo - mikro darajalarda vaziyatni qayta o‘zgartirish faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini namoyon qiladi. Ya’ni individual darajada muammolarni hal etish individual muammolar doirasidan chetga chiqish o‘z navbatida joriy va kelgusidagi muammolarni hal etishni yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Faqat shundagina insonga yordam berishdagi faoliyat samarali bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy ish boshqa sohalardagiga nisbatan faolroq va ko‘p subyektlri hamda ko‘p qirrali faoliyat sifatida rivojlanib bormoqda. Bu esa aholi ijtimoiy muammolarining ko‘payishi va uning hayot darajasining pasayishini, ijtimoiy himoyasizligini jamiyatning turli qatlamlari va guruhlari o‘rtasida ijtimoiy faollikni va reaksiya ijtimoiy tashabbusning paydo bo‘lishini yanada kuchaytirishga yordam berishi mumkin.

Ijtimoiy tashabbuslar subyektlari bo‘lib, mamlakatda vujudga kelayotgan uchinchi sektorni ifoda etuvchi turli ijtimoiy institutlar, ijtimoiy uyushmalar va xayriya tashkilotlarini hisoblanadi.

Ijtimoiy himoyaning muhim tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimidagi ijtimoiy ish o‘z xususiyatlariga ega. Ijtimoiy ish ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalarida ishlovchi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilaди. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning kompleks markazlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari, oila va bolalarga yordam ko‘rsatishning hududiy markazlari, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarga yordam berish markazi, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy rehabilitatsion markazlar, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning statsionar muassasalari (qariyalilar va nogironlar uchun uy-internatlar) psixonevrologik inter-

netlar), gerontologik markazlar va boshqa muassasalar muhtojlarga turli xizmatlarni ko'rsatadilar.

Hayot tajribasi ko'rsatadiki, kishilar ko'pincha shunday muammolarga duch keladiki, bu muammoni nafaqat o'zлari, balki ularning oilalari va oila a'zolari, do'stlari, qarindosh-urug'lari ham hal qila olishmaydi. Buning uchun yordamga muhtoj kishilarga maxsus professiyaga ega bo'lgan ijtimoiy ishchi zarur bo'ladi¹.

Ijtimoiy ish ijtimoiy xizmat ko'rsatishning muhim vazifalarini amalga oshiradi:

a) ijtimoiy yordam ko'rsatish:

- ijtimoiy yordamga juda muhtoj kishilarni aniqlash va ro'yxatga olish, ularga moddiy (moliyaiy, natural yordam berish; vaqtincha boshpana berish va boshqalar;

- muhtojlarga o'z faravonligini mustaqil ta'minlashi, oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yishi uchun sharoit yaratish, bu qashshoqlik profilaktikasi bo'ladi;

- chetdan parvarishga muhtoj bo'lgan oilalar va yolg'izlarga uyda xizmat ko'rsatish (oziq-ovqat, dori-darmon yetkazish, davolash muassasalariga yuborish, uyda sog'lig'iga qarash va boshqalar);

- xalq ta'limi organlari bilan hamkorlikda bolani vaziyat tazosasi bilan vaqtincha oiladan boshqa joyga, keyinchalik bog'chaga joylashtirish, vasiylikka olish, farzandlikka olishni tashkil etish;

b) maslahat berish:

- mutaxassislar maslahati (konsultatsiyasi) (jurist, sotsiolog, pedagog, shifokor, psixolog va boshqalar);

- kasb tanlashda, yoshlarni kasbga tayyorlashda ishtirop etish;

- yigit - qizlarni nikohga va ongli tarzda ota-onalikka tayyorlash;

- ota-onalarga tibbiy - psixologik umumiy majburiy ta'lim berish;

¹Основы социальной работы. Москва, ИНФРА-М. 1999. 6-бет

d) ijtimoiy korrektirovkalash va reabilitatsiya:

– davlat hulq-atvorli, qarovsiz bolalar, ota-onalar yoki qarindoshlar qarovsiz qolgan o'smirlarni ijtimoiy, tibbiy-pisixologik reabilitatsiyalash;

– imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar, ularning oilalarini tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi;

e) aholini axborot bilan taminlash, ijtimoiy ehtiyojlarni o'rganish va oldindan aytish, bular doirasidan uchta nisbiy mustaqil yo'nalishlar ajratiladi:

– hayotning murakkab vaziyatini yechish uchun zarur bo'lgan axborotni mijozga yetkazish;

– aholi o'rtasida tibbiy-pisixologik, pedagogik va boshqa bilimlarni yoyish;

– ijtimoiy ish mutaxassislari, maxsus tuzilgan muassasalar, ilmiy tashkilot tomonidan o'z mijozlari ehtiyojlarini va regionda keskin ziddiyat, tug'diruvchi ijtimoiy muammolarini o'rganish, ularning bartaraf etishning konkret usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

f) tabiiy ofatlar va ijtimoiy ziddiyatlarini bartaraf etish bo'yicha favqulodda choralarini bajarishda ishtirok etish;

– favqulodda dasturlarni ishlab chiqishda ijtimoiy xizmatlar mutaxassislarining ishtirok etishi;

– respublikalararo, respublika, regional (hududiy) daraja ijtimoiy xodimlar markaziy brigadalarida aholisi ijtimoiy ziddiyatga tortilgan tabiiy ofat hududiga zarur bo'lgan professional, psixologik va boshqa yordam ko'rsatish uchun yetib keluvchi qutqaruv xizmatlarini tashkil etish.

Ijtimoiy ishning zamонавиј технологияларни егалиш мутаксисларга о'з ваqtida kishilarning hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishga, inqirozli davrlarda ularning yashashiga yordam berish va ular hayot darajasi va sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir etishga imkon beradi.

Ijtimoiy ish zamонавијликнинг сотсиомаданий феномени сифатида 100 yil avval vujudga kelib, kasbga aylandi, yangi yo'nalishlar, funksiyalar, texnologiyalar bilan boyidi. U hozirgi paytda jamiyat hayot faoliyatining muhim sohalarida amalga oshirilayapti: aholini ijtimoiy himoyalash tizimida maorif va sog'liqni saqlashda, harbiy

muhitda va penitensar muassasalarda, sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish korxonalarida, sport-sog‘lomlashtirish va madaniy dam olish faoliyatni sohalarida va boshqalarda.

Ijtimoiy sohaning har bir tarmog‘i insonga yordam va madad berishning konkret vazifalari hal etilayapti. Ijtimoiy ishning o‘z qonuniy va me‘yoriy-huquqiy bazasi bor, sinalgan texnologiyalar qo‘llanilayapti, faoliyatning professional turi sifatida ijtimoiy ish funksiyalarini to‘la amalga oshirish uchun ijtimoiy sharoitlar yaratilayapti.

Ijtimoiy ishning bosh g‘oyasi inson huquqi va professionalizm konsepsiysi bo‘lib, uning atrofida ijtimoiy ish kasb sifatida shakllanayapti, hayotning mushkul vaziyatiga tushib qolgan kishilarni ijtimoiy himoya qilish tajribasi to‘planayapti. Insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi va uning asosiy ijtimoiy ehtiyojlariga mos keluvchi huquqlarni himoyalash ijtimoiy ishning ham asosi, ham jamiyatning har qanday sohasidagi rag‘bati bo‘ladi. Insonning eng muhim hayotiy huquqlari nazarda tutilayapti – yashashga, mehnat qilishga, qarilikda ijtimoiy ta‘minotga, oilani muhofaza qilishga, yetarli hayotiy darajaga yetishi huquqlari.

Har bir inson muayyan ne‘matlar va boyliklarga mutloq va oydin bo‘lgan huquqqa egaligiga ishonch, qaysi bir sohada ishlamasin, har bir ijtimoiy ish xodimining asosiy professional qo‘llanmasi bo‘lishi zarur. Turli vaqtida inson huquqlari haqidagi tasavvurlar tubdan qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lsa ham, bu asos sezilarli o‘zgartirishlarga uchragani yo‘q. Aksincha, XXI asr boshida bu asosni professional yoki jamoatchilik boshlanishi asosida hayotga tatbiq etishni xohlovchilar soni ancha ko‘paydi. Hatto yangi tushuncha paydo bo‘ldi – «yordam beruvchi kasb vakillari», bularga amaliy psixologlar, psixoterapevtlar, ijtimoiy pedagoglar, ijtimoiy ish xodimlari va boshqalar kiradi. Muhtojlarga yordam berishda professional, «ko‘ngillilar» va boshqalar sifatida millionlab kishilar ishtrok etayapti¹.

Shu bilan birga ko‘rsatib o‘tilgan ixtisosliklar bilan professional faoliyat o‘rtasidagi chegarani aniq belgilash, shuningdek, faqat ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatni ta‘minlash bilan emas, balki insonlarni muhtojlikdan, qashshoqlikdan, adolatsizlikdan, marginallikdan qutqarishga, cheklangan imkoniyatlarni yengishga, o‘z

muammolarini mustaqil hal etish qobiliyatini qaror toptirishga yordam beruvchi, yordam berishning turli ijtimoiy tizimlarida band bo‘lgan kishilar mavqeyi farqlarining mohiyatini aniqlash zarur. Ijtimoiy ish kasb sifatida inson kulfatlari ko‘lamlarini chuqurroq bilishning markazidir. Demak, bu kasb vakillari hayotga tatbiq etilayotgan hukumat qarorlariga javoban davlatga ancha mos qaytar aloqani ta’minalashlari, unsurlari atrof-muhitning va jismoniy sog‘liqning ahvoli bo‘lgan hayot sifatini yaxshilash yo‘llarini, iqtisodiyot, maorif, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoyalanganlik darajasini ko‘rsatish mumkin. Ijtimoiy ish xodimi qaysi sohada ishlamasin, u quyidagi bir asosda turib ish ko‘rishi kerak: inson uning ravnaqi va munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarga ega bo‘lishi kerak, kishilarning kundalik hayotini yengillashtirishi, ularga ko‘p sonli ijtimoiy muammolarni hal etishda yordam berish, o‘z funksiyasini ijtimoiy soha xususiyatini, konkret sotsiumni hisobga olgan holda bajarishi kerak. Ijtimoiy ishning obyekti «sotsiumdagi shaxs»dir. Ijtimoiy ish mijozining mutaxassislar, turli strukturalar va muhit bilan o‘zaro munosabati, o‘zaro ta’siri har qanday sotsiumda ijtimoiy ishning predmetini tashkil etadi.

Ijtimoiy ish xodimi mijozga quyidagicha yordam beradi:

- yashash uchun kurashni ta’milagan holda, turmush muammolarini mustaqil hal etish usullariga o‘rgatish holda o‘zini ta’minalash va yashashning munosib darajasiga erishish imkoniyatlarini ochgan holda;

- hayotning mushkul vaziyatidan chiqib olish uchun resurslar, harakatlar ko‘rsatadigan tizimlar bilan mijozning aloqasini ta’milagan holda, bu tizimlarning samarali va tashkiliy ishlariga ko‘maklashgan holda;

- inson va davlat o‘rtasida vositachi sifatida o‘z mijozining ijtimoiy faoliyat yuritishdagi vaziyatni o‘zgartirishga, uning muammolarini hal etishga samarali va insoniy vositalarni topishga, davlat tizimini insонning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga majbur qilishga, sotsiumga mijozning tezroq ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qilgan holda;

- ijtimoiy voqelikning o‘zgargan sharoitlariga moslashuviga yordam beradi. O‘z tizimining imkoniyatlaridan, uning me’yoriy

huquqiy aktlaridan foydalangan holda ijtimoiy xodim mijozning o‘zini safarbar etish mexanizmini individual - shaxsiydan tortib, guruhigacha – faollashtira olish zarur. Va shu nuqtayi nazardan professional ijtimoiy xodimning mahorati, uning mijoz yoki mijozlar guruhi bilan o‘zaro ta’siri va munosabati, natijasida kishilar muhtojlikdan, hayotning mushkul vaziyatidan qutulishida o‘z-o‘ziga yordam asosini amalgalashda mujassam bo‘lishi kerak.

* * *

Xristian dini tarqalishi bilan ijtimoiy masalalarga doir me’yoriy-hujjatlar qabul qilindi. 347-yilda Sardukiy bosh cherkovida (G‘arbiy va Sharqi Rim imperiyasi chegarasida) faqirlar, yetimlar, bevalar va musofirlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘n ikkita qoida qabul qilindi. Shu bilan birga ushbu qoidalarda xayr-ehson tarqatishda, faqirlarni ovqat bilan ta’minlashda o‘z aksini topgan boshpana va oziq-ovqat berish tizimi ustuvor o‘rin egallaydi¹.

Rossiyada ijtimoiy himoya davlat tizimining qaror topishi 1701-yilda imperator Pyotr I tomonidan «Avliyo Patriarx uylarida g‘ariblar, kasallar va qariyalarni aniqlash to‘g‘risida» Farmoni qabul qilinishidan boshlandi. Imperator Pyotr I davrida birinchi yetimxonalar paydo bo‘ldi jamiyatga davlat tomonidan faqirlarni ajratish va har bir alohida toifa bo‘yicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bo‘yicha choralar qabul qilish yuklandi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI–XVII asrlarda ijtimoiy yordam davlat tizimi rasmiylashtirilishi davlat rolining oshishi va ayni bir vaqtda xristian cherkovi faolligining pasayishi bilan izohlanadi. Jumladan, 1529-yilda Germaniyada nochorlarga yordam to‘g‘risida Gamburg ustavi, 1682-yilda esa davlat ta’minoti chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmon qabul qilinadi. Angliyada 1531-yilda nochorlarga yordam berish to‘g‘risida qonun qabul qilinadi, 1572-yilda faqirlarga yordam ko‘rsatish uchun umummilliy soliq joriy etiladi. 1601-yilda Angliyada qabul qilingan Kambag‘allik to‘g‘risidagi qonunda muhtojlarga moliyaviy yordam berishga urg‘u

¹ Кузьмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). – М.: Академический проект, Екатеринбург: Деловая книга, 2002. - С. 11.

berildi. Bu qonun mazkur sohada qonunchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi va hukumatning inson ehtiyojlari uchun javobgarligi shakllanishida burilish yasadi.

Faoliyat turi va kasb turi sifatida ijtimoiy ish kelib chiqishining tarixiy doiralarini u yoki bu darajada aniqroq belgilab olish mumkin. Jumladan, ko'pchilik tadqiqotchilar uni sanoat rivojlangan boshlang'ich davrga kiritmoqda.

№	Mazmuni	Tarixiy davrlar
1.	Qadimgi Misrda ibodatxonalarda diniy yordamlar berilgan, och kishilarga non bepul tarqatilgan.	Mil.av. 7 asr
2.	Qadimgi Gresiyada, so'ngra Qadimgi Rimda nochorlashgan qatlam orasida non, kiyim, pul tarqatishda aks etgan filantropiya g'oyasi rivojlandi.	Mil.av. 6-4asrlar
3.	Qadimgi slavyanlarda turli an'anaviy belgilar bilan diniy qo'llab-quvvatlash, urug', oila, aholi doirasida ijtimoiy-urug'doshlik, shuningdek xo'jalik yordami, o'zaro yordam va himoya ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari bulgan.	1-3 asrlar
4.	Xristian dini tarqalishi bilan ijtimoiy masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul kilindi. 347 yilda G'arbiy va Sharqiym Rim imperiyasi chegaralarida faqirlar, yetimlar, bevalar va musofirlarga yordam ko'rsatish buyicha o'n ikkita qoida qabul qilindi. Shu bilan birga unda xayrehsionlar tarqatishda, faqirlarni ovqat bilan ta'minlashda o'z aksini topgan boshpana va oziq-ovqat berish tizimi ustuvor o'rinn egallaydi.	4-6 asrlar
5.	Rossiyada ijtimoiy himoya davlat tizimining qaror topishi 1701 yilda imperator Pyotr I tomonidan «Avliyo Patriarx uylarida g'ariblar. kasallar va	18 asr


	qariyalarni aniqlash tug‘risida»gi Farmoni qabul qilinishidan boshlandi. Imperator Pyotr davrida birinchi yetimxonalar paydo buldi, jamiyapa davlat tomonidan faqirlarni ajratish va har bir alohida toifa bo‘yicha g‘amxurlnk kursatish bo‘yicha choralar qabul qilish yuklandi.	
6.	G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XVII asrlarda ijtimoiy yordam davlat tizimi rasmiylashtirilishi davlat rolining oshishiga va ayni bir vaqtda xristian cherkovi faolligining pasayishi bilan izohlanadi.	16-17 asr
7.	1529 yilda Germaniyada nochorlarga yordam to‘g‘risida Gamburg ustavi qabul qilindi.	16-17 asr
8.	G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XVII asrlarda ijtimoiy yordam davlat tizimi rasmiylashtirilishi davlat rolining oshishiga va ayni bir vaqtda xristian cherkovi faolligining pasayishi bilan izohlanadi. Jumladan, 1529 yilda Germaniyada nochorlarga yordam tug‘risida Gamburg ustavi, 1662 yilda esa davlat ta‘minoti chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmon qabul qilinadi. Angliyada 1531 yilda nochorlarga yordam berish to‘g‘risida qonun qabul qilinadi, 1572 yida faqirlarga yordam ko‘rsatish uchun umummilliy solik joriy etiladi. 1601 yilda Angliyada qabul qilingan Kambag‘allik to‘g‘risidagi qonunda muhtojlarga moliyaviy yordam berishga urg‘u beriladi. Bu qonun mazkur sohada qonunchilikni rivojlantirish. uchun asos bulib xizmat qildi va hukumatning inson extiyohlari uchun javobgariigi shakllanishida burilish yasadi.	16-17 asr

XVIII asr oxiri – XIX asr boshida G‘arbiy Yevropa va Amerika mamlakatlari sanoatida tub burilish davri boshlanib, ishlab chiqarish texnik jihatdan takomillashibgina qolmay, balki ijtimoiy muammolarning keskinlashishiga, ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishiga, jinoyatchilik va ishsizlikning o‘sishiga olib keldi.

Ijtimoiy muammolarning keskinlashishi qashshoqlik muammosi kelib chiqishiga olib keldi, bu esa jamoatchilik tomonidan haqli ravishda barqarorlikka va tartibga tahdid sifatida qabul qilindi. Bu holat nafaqat Yevropa va Amerika mamlakatlarida ijtimoiy sohadagi munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy qonunchilikning paydo bo‘lishiga, balki aholining turli guruhlarini empirik o‘rganishga olib keldi. XIX asr boshida aholi ro‘yxatga olina boshlandi, turli ijtimoiy muammolar tekshirildi, tahliliy ifodalab berildi. Biroq XIX asr oxiridagina ijtimoiy islohotchilar va xayriya tashkilotlari yetakchilari nochorlarga yordam ko‘rsatadigan odamlar maxsus tayyor-garlikdan o‘tishi kerak degan xulosaga keldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida pozitivizm va liberalizm vakillari qarashlari sanoati rivojlangan mamlakatlarda shaxsning maqbul hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib bera olmaydigan davlatning shaxs oldida javobgarligi va ma’naviy burchi to‘g‘risidagi tushuncha paydo bo‘lishiga ko‘maklashdi.

Ijtimoiy ish rivojlanishida uch bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi bosqich ijtimoiy ishning kasb sifatida qaror topishi bilan ifodalanadi. Ikkinci bosqich XX asrda Shimoliy Amerika va Yevropada ijtimoiy ish kasbining ijtimoiy institutga aylanishi bilan ifodalanadi. Uchinchi bosqich ijtimoiy ishning butun dunyo bo‘ylab tarqalishi bilan ifodalanadi.



XIX asrda ijtimoiy ishning kasb turiga aylanishi Yevropa mamlakatlarining tez sanoatlashishi va urbanizatsiyasi tufayli ijtimoiy muammolarning keskinlashishidan tashvishga tushgan filantropik jamiyatlar faoliyatiga borib taqaladi. Odamlar hech bir maxsus tayyorgarliksiz xayriya bilan shug'ullanganlar. XIX asrning birinchi yarmidayoq bu sohada diniy arboblar va xususiy shaxslar bilan hamkorlikda ijtimoiy muammolarni yumshatishga intilgan kuchli ijtimoiy tashkilotlar paydo bo'la boshladi.



Germaniyada birinchilardan bo'lib ijtimoiy ish sohasini rivojlanishiga hissa qo'shgan. Germaniyada davlat xizmatchilarining ishtirokida qashshoqlarga yordam berishning Elberfeld

tizimini (Elberfeld System) tashkil etgan. 1908-yilda Alisa Salomon tashabbusi bilan Berlinda birinchi ijtimoiy ish xodimlari tayyorlaydigan milliy maktab tashkil etilgan. Eng qizig'i ushbu maktab hozirgacha o'z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu maktabga Alisa Salomon nomi berilgan.

cherkovlar va xususiy xayriya muassasalari ijtimoiy sohani resurslar bilan ta'minlashda yuzaga kelgan muammolarga bas kelolmay qoldi. 1880 yilda muhtojlarga yordam ko'rsatish bo'yicha Germaniya Kongressi tashabbusi bilan nochorlar haqida g'amxo'rlik qiluvchi Germaniya xayriya ittifoqiga asos solindi. Bunday tashkilotlar jahonning boshqa mamlakatlarida ham tashkil etildi.

AQ'da ijtimoiy ishbga aylanishi muhtojlarga xayrehsori qilish ortishiga olib keldi. Diniy, dunyoviy, tadbirkorlik, ko'ngilli, hukumat guruhlari va boshqa muhtojlarga yordam ko'rsatuvchi guruhlar nochor odamlarga mablag', oziq-ovqat, doridarmonlar va boshpana ajratdi. 1890-yillar boshida yirik shaharlarda xayriya tashkilotlari faoliyatini yo'lga soluvchi jamiyatlar ochildi.

1866-yilda Shvetsiyaning Stokholm shahrida Homiylik Ijtimoiy Uyushmasi tashkil etildi. 1869-yilda Londonda ko'rsatilayotgan yordamni muvofiqlashtiruvchi Xayriya jamiyatni tashkil etildi (The Charity Organization Society).

Germaniyada ishchilarning ahvoli keskin nochorlashishi natijasida davlat ijtimoiy ta'minotiga ehtiyoj paydo bo'ldi, chunki

Ular shahar hokimiyati vakillari, tadbirkorlar, cherkov xizmatchilari va siyosiy yetakchilardan iborat direktorlar kengashi yordamida barcha mahalliy xayriya ishlarini muvofiqlashtirdi.

Muhojirlar ko‘p to‘plangan shaharlarda 1880-yilda boshlangan «Uy- joylarga ko‘chirish uchun harakati» AQSHda ijtimoiy ishning kasbga aylanishi uchun boshqa bir asos vazifasini bajardi. Jeyn Addams tomonidan asos solgan Chikagodagi Hall uyi ular ichida eng mashhuri edi. Jeyn Addams bilan birga «nochorlar orasida yashash»ni maqsad qilgan boshqa ma'lumotli ayollar ham bor edi. Ular nochor muhojirlar kvartallarida uylar tashkil etdi, u yerda mashg‘ulotlar o‘tkazdi, mazkur kichik tumanlarda yashaydigan kambag‘al muhojirlar farzandlariga maslahatlar berdi.

1.	1898 yilda M.Richmond tashabbusi bilan birinchi amaliy filontropiya milliy maktabi (keyinchalik bu maktab Kolombiya Universitetining ijtimoiy ish fakultetiga aylangan.)
2.	1903 yilda Londonda «Sotsiologlar maktabi» nomi bilan ijtimoiy ishchilarni tayyorlovchi birinchi maxsus ukuv muassasasi ochilgan.
3.	1912 yilda bu maktab London Iqtisodiyot maktabini ijtimoiy ish maktabiga aylangan.
4.	1908 yilda Germaniyada ayollar harakati yetakchisi Alisa Solomon tashabbusi bilan Ijtimoiy ishchilarining ayollar maktabiga asos solingan.
5.	1910 yilda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQShda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan 14 ta maktab faoliya ko‘rsata boshlagan.
6.	1899 yilda Gollandiyaning Amsterdam shahrida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan birinchi o‘quv muassasasi ochilgan.Bu yerda o‘qish muddati 2 yil bo‘lib, ayollar va erkaklar birgalikdagi ta’limi yo‘lga qo‘yilgan.

7.	1920 yilda AQShda Jeyn Adams tashabbusi bilan Chikago fuqarolik va filontropiya maktabi ochilgan.
8.	Birinchi Jahon urushi davrida 7 ta davlatda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan o'quv yurtlari tashkil etilgan.
9.	1920 yilda Belgiya, Norvegiya, Shvesiya, Italiya davlatlarida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan o'quv muassasalari o'z faoliyati boshlagan.
10.	1920 yilda Lotin Amerika mamlakatlari ichida birinchi bo'lib Chilida Rene Sandra rahbarligida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlovchi kurslar tashkil etilgan.
11.	1930 yilda Ispaniya, Isroil, Irlandiya, Portugaliya, Gresiya, Lyuksemburg, Daniya, Hindiston va Misrda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan o'quv muassasalari ochila boshlagan.
12.	Ijtimoiy ish sohasi bo'yicha birinchi o'quv qo'llanmasi Amos Uorner tomonidan yozilgan «Amerikacha homiylik» deb nomlanadi. Meri Richmond tomonidan yozilgan «Qashshoqlarga do'stona tashrif:homiylik tashkilotlarida ishlovchilar uchun amaliy ko'rsatmalar» asarlar hisoblanadi.
13.	1919 yilda Amerika ijtimoiy ish maktablari Xalqaro Assosiasiysi tashkil etiladi. Uning asosiy vazifasi milliy ta'lim dasturlarini ekspert baholashni amalgga oshirish.
14.	1924 yilda Assosiasiya o'quv kurslari rejasini ishlab chiqadi.
15.	1920 yilda Ijtimoiy ish xodimlari Xalqaro Assosiasiysi tashkil etiladi.
16.	1935 yilda Ijtimoiy ish maktablari Xalqaro Komiteti tashkil etiladi.

Shu bilan bir vaqtida faoliyatning yangi turlari, masalan, (The settlement house movement) – AQSH va Angliyadagi muhoxijrlar

uchun manzilgohlar tashkil etilgan settlement harakati paydo bo'ldi. Germaniya, Finlyandiya, Shvetsiyada davlat xizmatchilarining xususiy ishtirokida nochorlarga yordam beruvchi Elberfeld tizimi (Elberfeld System) paydo bo'ldi.

O'z nomini Elberfeld shahri nomidan olgan Elberfeld tizimi tamoyillariga qo'yidagilar asos qilib olingan edi:

–xususiy masalalarini ko'rib chiqishda har bir vasiylikning mustaqilligi va umumiy yo'nalishning markazlashtirilishi;

–har bir ehtiyojmandni batatsil tekshirishda yordamni individuallashtirish;

–jamiatning barcha qatlamlarini nochorlarga boshpana va oziq-ovqat berishga jalb qilish.



1920-yilda AQSH da Jeyn Adams tashabbusi bilan Chikago fuqarolik va filontropiya maktabi ochilgan.

AQSHda birinehilaridan bo'lib ijtimoiy ish sohasini rivojlanishiga hissa qo'shgan.

AQSHda inson huquqlari harakatini asoschilaridan biri. 1931-yilda uning shu xizmatlari uchun halqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ladi. AQSHda muhojirlarga yordam ko'rsatuvchi Settlement harakatini yetakchisi bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan ish usullari va shakllari o'zgardi, biroq ijtimoiy yordam ko'rsatish ijtimoiy ishning bosh tamoyilligicha qolmoqda.

Ushbu davrda Buyuk Britaniyada qashshoqlik bo'yicha qo'llanma joriy etiladi. 1834-yilda nochorlarga yordam ko'rsatish tartibga

solingen maxsus qonunchilik (Poor Laws) qabul qilinadi. Shvetsiyada XVIII asr o'rtalarida ikki yo'nalishda nochorlarga yordam ko'rsatiladi: kasallarga boshpana va oziq-ovqat berish hamda nochorlarga yordam berish. 1847-yilda qabul qilingan nochorlarga boshpana va oziq-ovqat berishniig shakllari va usullari to'g'risidagi qaror bu yo'nalishda yangi qadam bo'ldi. 1862-yildagi munitsipal islohotlar nochorlarni boshpana va oziq-ovqat bilan

ta'minlashni cherkovdan ajratdi, buning natijasida u munitsipal obyektga aylandi¹.

Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida sudlanganlar va qamoqda saqlash joylaridan ozod etilganlarga maxsus davlat yordamlari, kasallarga maxsus qarash tizimlari, kar va soqovlarga maxsus yordam, aholini majburiy davlat – munitsipal o'qitish, ish bilan ta'minlash bo'yicha xususiy va munitsipal vositachilik shakllari ishlab chiqilgan. Jumladan, 1880-yilda muhtojlarga yordam ko'rsatadigan Germaniya kongressi tashabbusi bilan nochorlarga g'amxo'rlik qiladigan Germaniya xayriya ittifoqi tuzildi. 1919-yilda u Germaniya davlat va xususiy vasiylik ittifoqi deb qayta nomlandi.

Ijtimoiy qonunchilik mazkur sohani boshqaradigan davlat organlari hamda ularning huzuridagi muassasalar faoliyat olib boradigan huquqiy doiralarini belgiladi. Ushbu muassasalarning na mansabdar shaxslari, na xayriya tashkilotlari a'zolari yordamga muhtoj odamlarga yordam ko'rsatish bo'yicha oddiy bilimlarga ega emasdi.

XIX asr oxirida muhtojlarga yordam ko'rsatish sohasida kuchli ijtimoiy tashkilotlar tuzilib, ijtimoiy muammolarni yengillashtirish bo'yicha ularning sa'y-harakatlari cherkov va xususiy shaxslar faoliyati bilan, Angliya va AQSHda ular bevosita yordamga muhtojlar bilan ishlaydigan Ijtimoiy xayriya tashkilotlari bilan to'ldirildi. Muhtojlarga yordam ko'rsatish sohasida erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, uning arboblari professional emasligi ijtimoiy muammolarni hal qilishda odamlarga samaraliroq yordam berish imkonini bermadi. Shu bilan birga, davlat ijtimoiy ta'minotiga ehtiyoj paydo bo'ldi, chunki diniy tashkilotlar va xayriya muassasalari ijtimoiy sohadagi katta xarajatlarni qoplay olmayotgan edi.

XIX asr oxirida Yevropa mamlakatlari va Amerikada yuzaga kelgan muhtojlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish tizimi qo'yidagi ikkita asosiy elementni o'z ichiga olgan edi. Bular:

- qonunchilikni rivojlantirish;
- maxsus organlar va muassasalar tashkil etish.

¹ Теории социальной работы. - М.: Юрист, 1998. - С. 17.

Ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan birinchi o'quv yurtlari xayriya tashkilotlari tomonidan tashkil etildi. 1896-yilda deyarli bir vaqtida Angliya va Germaniyada kurslar ochildi. AQSHda 1898-yilda Nyu-York filantropiya mакtabida maxsus xodimlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Pirovardida Kolumbiya universiteti Ijtimoiy ish maktabiga aylangan Nyu-York filantropiya mакtabi muhtojlarga yordam ko'rsatadiganlar uchun bir-yillik o'qitish dasturini taklif etdi. Grem Teylor va uning hamkasblari tomonidan 1903-yilda tashkil etilgan Chikago fuqarolik huquqi va filantropiya mакtabi ham shunday dasturni taklif etdi. Vaqt o'tishi bilan u ijtimoiy xizmat ko'rsatishni boshqarish mакtabi nomini olgan Chikago universiteti bo'linmasiga aylandi¹.

G'arb mamlakatlari jamoatchiligi ongida muhtojlarga yordam ko'rsatishni professional darajaga olib chiqish g'oyasi tobora yaqqolroq anglab yetilmoqda edi. Bu g'oya XIX asr oxirida ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan jahonda birinchi institutga asos solinishi amalga oshirila boshlandi va u amsterdamlik bir guruh ijtimoiy islohotchilarga taalluqli bo'ldi. Ular 1899-yilda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash institutiga asos soldilar. Institut dasturida keyinchalik ijtimoiy ish nomini olgan ishga o'zlarini bag'ishlashni xohlagan erkaklar va ayollar uchun kunduzgi nazariy o'qitish va amaliy tayyogarlikning to'liq ikki yillik kursi ko'zda tutildi.

* * *

XX asrning birinchi yarmi davlatning roli kuchayishi va «umumiylar farovonlikka asoslangan davlat» nazariyasi va amaliyoti rivojlanishi bilan izohlangan ijtimoiy ishning institutlashishi bilan ajralib turadi.

Odatda ularning asosiy huquq va erkinliklarini shakllantirish, mehnatga rasman haq to'lashni joriy etish, kasb-hunar o'quv yurtlarini tashkil etish Ijtimoiy ish xodimlari kasbiga doir faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Garchi Ijtimoiy ish xodimlarini kasbga tayyorlaydigan birinchi ixtisoslashgan o'quv yurtlari aytib o'tilganidek, Niderlaniyada, so'ngra AQSH, Buyuk Britaniya va

¹ Агапов Е.П. Социальная работа как феномен культуры. - Ростов-на-Дону, 1999. - С 57.

Germaniyada tashkil etilgan bo‘lsa-da, «ijtimoiy ish xodimi» kasbi dastlab AQSHda, so‘ngra G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy maqomga ega bo‘ldi. Birinchi va Ikkinci jahon urushlari orasidagi davrda ijtimoiy ish maktablari Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq, Sharqiy Yevropa va biroz keyinroq Afrika mamlakatlarida ochildi.

1910-yilda yangi harakat Yevropa va Amerikada ijtimoiy faoliyatga ixtisoslashgan 14 ta maktab tashkil etilishiga olib keldi. 1920-yilda Lotin Amerikasidagi birinchi ijtimoiy ish maktabi Chilida ochildi¹.

1930-yillarda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlaydigan mamlakatlar soning o‘sishi davom etdi. Uchinchi dunyo mamlakatlarida an‘anaviy iqtisodiyotining asoslarini barbod qilgan bozor munosabatlari tizimiga jalb etilishi natijasida ijtimoiy ish Sharq mamlakatlariga ham kirib keldi. 1936-yilda Hindistonda Ijtimoiy fanlar instituti ta’sis etildi, Misrda esa ijtimoiy ishning birinchi kurslari paydo bo‘ldi. Shunday qilib, maxsus tayyorlash va moddiy taqdirlashga yo‘naltirilgan holda muhtojlarga yordam berish kasbiga aylandi.

Birinchi ijtimoiy ish xodimlari muhojirlarga ingliz tilini o‘qitishdan tortib to sanoati rivojlangan jamiyatda ish topish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishda yordam berishgacha keng ko‘lamli muammolar bilan shug‘ullanganlar. Ular ijtimoiy adolatsizlikka barham berishga, o‘z muammolarini samarali hal qilishda odamlarga yordam berishga intildilar.

Ijtimoiy ish xodimlarining kasbga doir manfaatlarini ifoda etgan birinchi tashkilot Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘ldi. Bu 1917-yilda tashkil etilgan ijtimoiy ish xodimlarining milliy birjasi edi. Keyinroq ijtimoiy ish xodimlarining boshqa kasbga o‘qitadigan tashkilotlari paydo bo‘ldi (ushbu qisqa o‘qitish kurslarida ijtimoiy ish xodimlari tibbiyot xodimlari, o‘qituvchi kasblarini egallahsgan). 1921-yilda ular birinchi bo‘lib ro‘yxatdan o‘tkazilgan Amerika ijtimoiy ish uyushmasiga birlashdi.

Ijtimoiy ish tuzilmalarini tashkil etish jarayoni G‘arbning boshqa mamlakatlariga ham tatbiq etildi. 1928-yilda Parijda Ijtimoiy

¹ Социальная работа как профессия (аналитический обзор) // Ж. Социологические исследования. – М., 1993. №3. – С. 91.

farovonlik bo'yicha xalqaro kengashga birlashgan Yevropaning yetti mamlakati milliy uyushmalari tashkil etildi.

Bugungi ijtimoiy ish xodimlari o'tmishdoshlarining sa'y-harakatlari muhtojlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan edi. Faqat XX asrda ijtimoiy ta'minotning metodi, ularga muvofiq tahlili va yo'llari ta'rifiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ular yordamida xayriya va jamoat tashkilotlari o'z maqsadlarini jamiyatning pragmatik maqsadlariga muvofiqlashtirishi mumkin edi. AQSHda Meri Richmond birinchi bo'lib buni amalgalashdi. U e'tiborni individiga va uning oilasiga qaratib, xayriyani metod bilan bog'ladi. 1915-yilda chop etilgan «Ilmiy ijtimoiy ish» asarida Meri Richmond ijtimoiy ish xodimlari hal qilishiga to'g'ri kelgan ijtimoiy ish sifati baholari chizmasi to'plamini, ijtimoiy muammolar tashxisini taklif etdi. Bu muhtojlarga yordam ko'rsatishning turli shakllarini anglashga tayangan axloqiy-terapevtik ijtimoiy ish yaratilishiga olib keldi.



Meri Elen Richmond (1861–1928) 1898-yilda Meri Richmond tashabbusi bilan birinchi amaliy filantropiya maktabi tashkil etilgan. (keyinchalik bu maktab Kolumbiya universitetining ijtimoiy ish fakultetiga aylan-gan). Ijtimoiy ish xodimlarining birinchi

axloq kodeksini ishlanmalarini ishlab chiq-qan. Ijtimoiy ish sohasida Diagnostika maktabi asoschisi. Asarlari:

1. «Qashshoqlarga do'stona tashrif: homiylik tashkilotlarida ishlovchilar uchun amaliy ko'rsatmalar»

2. Ijtimoiy tashxis (1915)

3. Ilmiy ijtimoiy ish (1917)

Yangi metod 1917-yilda «Ijtimoiy tashxis» kitobida olim tomonidan bat afsil ta'riflab berilgan va ijtimoiy ta'minot dasturlari samaradorligining oshishiga ko'mak-lashgan. Meri Richmond ham mijozning shaxsi, ham uning ijtimoiy holati sifatida baholashni nazarda tutuvchi o'zining ijtimoiy tashxis metodini bat afsil ta'riflab berdi. M. Richmond keyinchalik terepevtik nomini olgan ijtimoiy

ish modeli asoschisi hisoblanadi. Ushbu modelga muvofiq har bir

aholida holatda baholash, ijtimoiy tashxis qo'yish va uning asosida davolash metodini tanlash qobiliyati ijtimoiy ish xodimi faoliyatida eng muhim hisoblanadi. Nochorlikni kasallik deb hisoblagan Meri Richmond vrach va ijtimoiy ish xodimi faoliyati o'rtasida o'xshashlikni keltirdi.

U ijtimoiy yordamni chora-tadbirlar kombinatsiyasi deb qaraydi, ham mijozning, ham uning ijtimoiy muhitining o'zgarishi ularning natijasi hisoblanadi. Meri Richmond ijtimoiy tadbirlarni ikkita bir-birini to'ldirib boradigan metodga ajratdi:

- davolashning bilvosita metodi;
- davolashning bevosita metodi.

Bilvosita metod insomning tashqi muhitiga ta'sir qilishdan, yechimlar ishlab chiqish uchun uni faol sa'y-harakatlarga undash maqqundida mijozning o'ziga ta'sir qilishdan iborat edi. Uning ijtimoiy tashxisi narida quyidagilar qayd etadi: «Yaxshi ijtimoiy ish xodimi kishilarni qashshoqlikdan qutqarish bilan shug'ullanmay, balki umuman qashshoqlikka barham berish haqida o'ylaydi»¹.

M. Richmond tomonidan asos solingen «o'rganish, tashxis qilish, davolash» paradigmasi ijtimoiy ishda asosiy paradigmaga aylandi.

Meri Richmond birinchi bo'lib ijtimoiy ish xodimlari amal qilishi lozim bo'lgan «ijtimoiy ish xodimlari axloq kodeksi»ni birinchi ishlannmalarini ishlab chiqdi. Bugun ijtimoiy ish sohasi rivojlangan mamlakatlarda amalda bo'lgan axloq kodekslari shu asosda yaratilgan.

AQSHda 30-yillardagi buyuk turg'unlik davrida va ijtimoiy muammolar juda ko'pchilik kishilarga daxl qilgan 60–70-yillarda ijtimoiy ish xodimlari kompleks yondashuvi yordamida bir vaqtning o'zida ko'plab odamlar muammolarini yenga oldi. AQSHning 32-Prezidenti F. Ruzvelt tashabbusi ostida ilk bor ishsizlikni milliy muammo deb qaray boshladilar. U zamonaviy Amerikani tubdan o'zgartirgan mashhur «Yangi yo'naliш»ga poydevor yaratib bergen davlat dasturlarini ishlab chiqish uchun xususiy xizmat sohalariga yaxshi ta'lim olgan ijtimoiy ish xodimlarini taklif etdi. F. Ruzvelt

¹ Социальная работа как профессия (аналитический обзор) // Ж. Социологические исследования. – М., 1993. №3. – С. 91.

ishsizlarga davlat yordamini xayr-sadaqa va xayriya emas, balki har bir fuqaroning madaniyatli jamiyatda eng kichik turmush darajasiga umid qilish huquqiga asoslangan ijtimoiy adolat deb hisoblagan.

1964-yilda Prezident JI. Jonson yangi iqtisodiy va siyosiy vaziyatda o‘zining «Buyuk jamiyat» dasturi doirasida Senat va Kongress vakillari Palatasiga qashshoqlik va sanoat davri bilan bog‘liq muammolarga qaratilgan bir qator qonun loyihalarini ko‘rib chiqishni taklif qildi. Mehnat resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha maxsus president komissiyasining «Millatning uchdan bir qismi: harbiy xizmatga yaroqsiz bo‘lgan yoshlar to‘g‘risida ma’ruza» deb nomlangan ma’ruzasida qashshoqlikka uchrash yo‘lidagi ko‘pchilik qiyinchiliklar ko‘zga tashlanar edi. Boshqa materiallar bilan birlgilikda ma’ruza «Iqtisodiy imkoniyatlar to‘g‘risida»gi qonun uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Hozirgi vaqtida AQSHdagi ijtimoiy ish tuzilmasi jiddiy o‘zgarmoqda. Aqli zaif mijozlar bilan ishslashga e’tibor kuchaytirilmoqda va qashshoqlik bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy ish xodimlari soni kamayganda, mahoratli ijtimoiy ish xodimlarining 47 foizi o‘z faoliyatining mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi savolga javob berar ekan asosan oila a‘zolarining shaxsiy xulq-atvori muammolari yoki umuman oiladagi o‘zaro munosabatlar bilan shug‘ullanayotganliklarini ma’lum qildilar. Ularning 2,5 foizidan kamroq‘i daromadlar, uy-joy, ish bilan ta’minalash sohasidagi muammolarni qal qilish, shuningdek jinoyatni, giyohvand moddalar va alkogol iste’mol qilishning oldini olish bilan bog‘liq faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Ijtimoiy ish faoliyati bo‘limlarini bitirgan talabalar ham psixoanaliz va ruhiy terapiya sohasidagi ixtisoslikka katta qiziqish bildirmoqda.

Oxirgi o‘n yilliklarda AQSHda sektorlar bo‘yicha ijtimoiy ish xodimlarini ish bilan ta’minalash tizimida jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Mamlakatda ijtimoiy ish xodimlari orasida o‘tkazilgan so‘rovrlarga qaraganda, ularning ko‘pchiligi ijtimoiy sektorni tark etmoqda. Jumladan, avval ularning 51 foizi jamoat (federal, davlat, diniy, munitsipal) sektorida mehnat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda vaziyat o‘zgardi – xususiy tijorat sektorida ish bilan band bo‘lganlar soni uch baravar ko‘paydi. AQSHda ijtimoiy xizmatning katta qismi ixtiyoriy birlashmalar (hukumatga qarashli bo‘limgan tashkilotlar) bilan, biroq ko‘pincha hukumat bilan

shartnomalar asosida ta'minlanadi. Turli birlashmalar, kichik va yirik firmalar yakka faoliyat olib boradi yoki ijtimoiy ish bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan hukumat shartnomalarini izlaydi. 1982-1995-yillarda «xususiy amaliyot» bilan shug'ullangan ijtimoiy ish xodimlari soni eng ko'pchilikni tashkil qilib, 11 foizdan 20 foizga o'sagan. Jami ijtimoiy ish xodimlarining 45 foizi ikkilamchi ish bilan shug'ullanganliklarini, ya'ni to'liq bo'lmanan ish kunida ishlaganliklarini qayd etdilar. Xususiy amaliyotda mijoz odatda ishning har bir soati uchun haq to'lab, ijtimoiy ish xodimini yollaydi¹.


Hozirgi zamон ijtimoiy ish xodimiga qo'yiladigan talablar ozilarli darajada oshdi hamda ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarni yengillashdiradigan dasturlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy siyosatning bir qismi hisoblanadi va ijtimoiy op'erahayvonli yengillashdirishga va oldini olishga, tegishli ijtimoiy nizorat va ijtimoiy ta'minotni rivojlantirishga qaratilgan. In coming bosqicha odamlarga va jamiyatga munosabati, shuningdek, jamiyatning shaxslarga va guruhlarga munosabati hali ham muhim abaniyaiga ega. Amerika ijtimoiy himoya tizimi aniq ifodalangan tizim yo'nalishiga, ijtimoiy sug'urta tizimiga va ijtimoiy yordam tizimiga ega. Ijtimoiy sug'urta dasturlari yuqori ijtimoiy maqomga ega, chunki maoshga yashaydigan barcha kishilar muntazam ravishda tegishli fondlarga soliq to'laydi. Bu tizim iqtisodiy faol aholini asosiy ijtimoiy xavf-xatarlardan, keksalikdan, boquvchisidan ayrilishdan, nogironlikdan, kasalliklardan, ishlab chiqarish jarohatlaridan, ishsizlikdan himoya qiladi¹.

Ijtimoiy yordam AQSHdagi ijtimoiy himoya tizimining ikkinchi yo'nalishi hisoblanadi. AQSHdagi yordam tizimi bir qancha yirik va ko'plab kichik dasturlarni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturlar bo'yicha qashshoqlikda kun kechiradigan odamlar pul mablag'lari, oziq-ovqat, qarzga beriladigan uy-joy, ta'lim olish uchun yordam oladi va kasbga o'qitiladi. Rasman belgilangan qashshoqlik darajasidan past darajada kun kechiradigan kishilar ijtimoiy yordam olishga

¹ Русин Т. Профессия социального работника в США. В кн. Гендерный калейдоскоп. – М.: Академия. – С. 510-511.

¹ Ruth Elizabeth Smiley. Theory for social work practice. Columbia University press. - New York and London, 1967. Preface.

haqli. AQSH aholisining taxminan 12–15 foizi ijtimoiy yordam oladigan kishilarni tashkil etadi.




«Farovonlik», «ta'minot», «ko'mak» ma'nolarini anglatadigan Welfare («Velfer») dasturi eng mashhur moddiy yordam dasturlaridan biri hisoblanadi. «Public Assistance» dasturning boshqa bir nomidir. Dastur federal hukumat tomonidan moliyalashtiriladi va ko'pincha shtat va shahar byudjeti hisobidan to'ldiriladi. Turli holatlarga qarab (ishdan ayrilish, ishsizlik bo'yicha yordamning yo'qligi, yosh bolali yoki yolg'iz ona, ota) ma'lum darajada barqaror daromad manbayiga ega bo'lmaslik ijtimoiy ta'minot dasturlaridan ko'mak olish sharti hisoblanadi.

SSI (Supplemental Security Income) – keksa kishilarga (65 yoshdan katta), nogironlarga, kam daromadli kasal odamlarga pul bilan yordam beradigan federal dastur.

Medikeyd (Medicaid) – kam daromadli shaxslarga yoki oilalarga tibbiy yordam ko'rsatish dasturi. U ham federal xukumat tomonidan ta'minlanadi, biroq shtatlar qonunlari tomonidan tartibga solinadi. Medikeyt ma'lum darajalarda dori-darmonlarga haq to'lash, kasalxonada bo'lish, tez yordam chaqirish, shifokorlarga tashrif buyurish, maxsus poyabzal, tibbiy uskuna va hokazolar bilan ta'minlash imkonini beradi. Odatda «Velfer» va SSI dasturi

bo'yicha to'liq miqdorda yordam oluvchilar Medikeyd dasturidan foydalinishga haqli.

Yevropa ijtimoiy ta'minot tizimi. Turli mamlakatlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari hal qilinadigan vazifalarning o'xshashligi va bir xilligiga qaramay tarixiy shart-sharoitlar, shuningdek muammolarni hal qilish yo'naliishlari va metodlaridagi tafovutlarni hisobga olgan holda yuzaga keldi. Jumladan, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimi AQSH ijtimoiy ta'minot tizimidan davlatning yo'naliishlarini belgilash, ijtimoiy siyosatni rejalashtirish, moliyalashtirish va hayotga tatbiq etishda ko'proq ishtirok etishi bilan farq qiladi. Bunda mahalliy boshqaruv organlari ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Aholini turli ijtimoiy xizmatlar va yordam turlari bilan ta'minlash ham Yevropa ijtimoiy xizmat modelining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.



Fransiyada ijtimoiy ish xodimlarining **50%** davlat tizimida faoliyat ko'rsatadi, **17%** ijtimoiy ish xodimlari xususiy sektorda, **22%** esa nodavlat-notijorat tashkilotlari tizimida, **11%** ijtimoiy ish xodimlari esa jamoat tashkilotlari tizimida faoliyat ko'rsatishadi.



*Ona - «uy
tarbiyachisi»ning
professional ramzi*

Fransiyada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi XX asrning 40-60-yillarida shakllana boshlagan. Fransiya statistika vazirligining 1998-yil ma'lumotlariga ko'ra mamlakatda 37 xil mutaxassislikka ega bo'lgan **800 000** ta ijtimoiy ish xodimi mavjud ekanligi qayd etgan. Franziyada 1992-yilda qabul qilingan qonunchilik bo'yicha eng ko'p ijtimoiy ish xodimlari (**380 000**) «ona-uy tarbiyachisi» vazifasida faoliyat ko'rsatadi. Uy tarbiyachisi Shahar Kengashining rasmiy roziligi bilan ish faoliyati tashkil etiladi.

Fransiyada «Ijtimoiy xizmat mutaxassislari» (38 000) aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari: nogironlar, ruhiy kasallar, oilalarni huquqlari va himoyasi bilan shug‘ullanadilar.

«Mutaxassislashgan pedagoglar»ning vazifasi esa (55 000) deviant xulq-atvorli kishilar bilan profilaktika ishlarini olib borishdir.

«Iqtisodiy savollar bo‘yicha oila maslahatchisi» vazifasini bajaruvchi ijtimoiy ish xodimlari oilalardagi mavjud iqtisodiy masalalar bo‘yicha muammolarni yechishga harakat qiladilar. Fransiyada ijtimoiy ish sohasi ayollar mutaxassislik sohasi hisoblanadi. (Mamlakatdagi 97% ijtimoiy ish xodimlari ayollar hisoblanishadi)

Yevropa ijtimoiy xizmat modeli davlat umumiy farovonlik nazariyasiga asoslanadi, uning asosida insонning «tabiiy huquqlar» konseptsiyasi turadi. Ushbu nazariyaning asosiy vazifalari barcha fuqarolar uchun hayotiy rejalarни ruyobga chiqarish borasida taxminan bir xil boshlang‘ich imkoniyatlarni yaratishni, ularni munosib turmush tarzi bilan ta’minalashni, ijtimoiy tenglik va adolat qaror topishiga intilishni nazarda tutadi. Umumiy farovonlik nazariyasiga asoslangan davlat barcha fuqarolar uchun rivojlangan ijtimoiy yordam tizimini shakllantiradi, tibbiy, ta’lim, ruhiy, huquqiy va boshqa hayotiy muhim xizmatlar bilan ta’minalaydi.

«Umumiy farovonlik nazariyasiga asoslangan davlat» tushunchasi ikkinchi jahon urushidan keyin rasm bo‘ldi. Biroq 1970-yillar oxiri 1980-yillar boshida bu nazariya tanqidga uchradi. Buning sababi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning va odamlar, ijtimoiy guruqlar, umuman aholi ehtiyojlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq edi. Rivojlangan mamlakatlar ekspertlarining fikricha, 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, G‘arb mamlakatlariдagi ijtimoiy ta’milot tizimi aholini ijtimoiy to‘lovlar turlari bilan ta’minalash bo‘yicha o‘z oldiga qo‘ygan vazifasini bajarib bo‘ldi. 1990-yillarda ushbu tizimni iqtisodiy taraqqiyotning o‘zgarishlarga uchragan shart-sharoitlariga, resurslar cheklanishining o‘sishiga, ishsizlikning yuqori darajaga ko‘tarilishiga moslashtirish vazifasi birinchi o‘ringa qo‘yildi.

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ta’milot tizimi ustuvorliklari o‘zgarishini belgilab bergen omillar orasida tug‘ilishning kamayishi va umrning uzayishi natijasida aholining tez qarishi qayd etilmogda. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari uchragan iqtisodiy qiyinchiliklar va

ularning oqibatlari davlatning bir qancha ijtimoiy dasturlarini to'xtatishiga katta ta'sir o'tkazdi. Iqtisodiy inqiroz o'sib boruvchi byudjet taqchilligi, ishsizlar va qashshoqlar sonining ortishi, aholining qarishi, to'liq bo'lman oilalar sonining oshishi va boshqa omillar davlat ijtimoiy siyosatidagi o'zgarishlarga olib keldi.

Rossiyada ijtimoiy ish. Rossiyada ijtimoiy ish muhtojlarga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat sifatida ko'p asrlarga borib taqalsada, u davlat, turli jamoatchilik guruhlari, ijtimoiy soha tadqiqotchilarini tomonidan XX asrning 90-yillardan boshlab obyektiv zarur hodisa sifatida qarala boshlandi. Ushbu yillarda aholiga xizmat ko'rsatish tizimining qaror topishi, aholi bilan ish olib borishda zamonaviy texnologiyalar va metodlarni keng qo'llanishi ijtimoiy siyosatning eng jiddiy tendentsiyalaridan biri bo'ldi. Bunda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish Rossiyalik olimlarning ayrim asarlarida ijtimoiy ish zamonaviy paradigma sifatida, boshqa asarlarda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sharoitlarida fuqarolarni samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan yuqori samarali ijtimoiy texnologiya sifatida, yana boshqa asarlarda esa ijtimoiy sohaning, umuman olganda muhim sektor sifatida qaraladi.

«Rossiya Federatsiyasida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish asoslari to'g'risida»gi federal qonun mazkur masalaga anqlik kiritadi. Qonunda ijtimoiy xizmat ko'rsatish qiyin hayot kechirayotgan fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy, tibbiy, ruhiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam turlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyat deb qaraladi. Qonunda ijtimoiy xizmat turlari: moddiy yordam, uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish, statsionar holatlarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish, maslahat berish, fuqarolar va oilalarning ijtimoiy rahnamoligi va boshqalar ochib beriladi¹.

«Keksa kishilarga va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risida»gi federal Qonun Rossiya aholisining alohida ijtimoiy guruhlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risidagi tasavvurni jiddiy ravishda to'ldiradi va unga qo'shimchalar kiritadi. U aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, keksa yoshdagি fuqarolarga va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangan.

¹ Теория социальной работы. - М.: Юристъ, 1998. - С. 203.

O'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklariqa qaramay, davlat nogironlarga, ko'p hollarda yolg'iz va nogiron qariyalarga alohida e'tibor beradi. Rossiyada qariyalarga, shu jumladan nogironlarga ko'p darajali yordam tizimi amal qiladi. Jumladan, 2002-yilda 14 mln keksa kishilarga u yoki bu ko'rinishdagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. 500 mingdan ortiq nogiron bolalar davlat tomonidan alohida qo'llab-quvvatlandi.

Maqsadlilik, qulaylik, ixtiyoriylik, insonparvarlik, qiyin ahvolda qolgan voyaga yetmaganlarga, keksa kishilarga va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ustuvorligi, maxfiylik, profilaktikaga yo'naltirilganlik, inson va fuqaro huquqlariga rioya qilish, ijtimoiy xizmat ijtimoiy siyosati shunga qaratilgan. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o'zaro uzviy bog'langan.

Ijtimoiy ish bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy institut, ham kasbiy faoliyat turi, ham ijtimoiy amaliyat turi va amaliy bilimlar sintezi, ham o'quv fani hisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimi faoliyati ijtimoiy ish nazariyasining diqqat markazida turadi. U samarali bo'lishi uchun ijtimoiy ish xodimi insoniy muammolarni tushunib olishi, ularni hal qilish texnologiyalariga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy ish xodimi ijtimoiy ishning asosiy nazariyasi uning predmeti va obyekti, tamoyillari va metodlarini aniq ajrata oladi. Rahmdillik, hamdardlik, javobgarlik, insonparvarlik, fuqaroviyligi va ijtimoiy adolat tuyg'usi singari maxsus kasbga doir va ma'naviy-axloqiy xususiyatlar unga xosdir.

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyat turi sifatida puxta umumiyligi va maxsus tayyorgarlik, tajriba orttirish natijasida inson erishgan bir qator maxsus bilimlarni va muayyan ko'nikmalarni nazarda tutadi. «Kasb» atamasi odatda keng ma'noda ishlatiladi: ishdagi kasb, professional duradgor, professional tarbiyalovchi, vrachlik kasbi. Ingliz tili lug'atlarida kasb (profession) yuqori darajada texnik va intellektual chuqur bilimga egaligi bilan ifodalananadigan o'rta sinf vakillarining ishi (occupation) sifatida keltiriladi¹.

¹ Аберкомби Н. и др. Социологический словарь. - Казан: Изд-во Казан. Ун-та, 1997; Джери Д., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь (Коллинз): В 2-х т. | Пер. с англ. - М: Вече, АТ, 1999.

Ijtimoiy ish o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida uch tur – kasb, fan va o'quv fani bilan ifodalanadi:

– kasb sifatida u alohida shaxslarga, kishilar guruhiiga yordam ko'rsatish orqali shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlash-tirishga qaratilgan;

– fan sifatida u shaxs hayotiy faoliyatiga, aniq ijtimoiy guruhgaga yoki jamiyatga bevosita aloqador ijtimoiy jarayonlarni va ijtimoiy hodisalarni o'rganadi.

– ijtimoiy ish o'quv fani sifatida ko'p qirrali xususiyatga ega va turli tipdag'i o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Ijtimoiy ish xodimi kasbi ijtimoiy yo'naltirilgan kasblar bo'lgan vrach, psixolog, pedagog singari boshqa o'xshash kasblardan farq qiladigan belgilarga ega. Ijtimoiy ish xodimi va mijoz o'rtasida o'zaro hamkorlik xususiyatining o'zi asosiy farq qiladigan xususiyatlardan biri hisoblanadi. Yordam beradigan boshqa kasblarga xos bo'lgan subyektiv-obyektiv munosabatlardan farqli ravishda postindustrial jamiyatning ijtimoiy ishida ishonchga asoslangan subyekt-subyekt munosabatlari ustunlik qiladi. Bunday sharoitda mijoz qaror qabul qilish huquqini yoki ustunlikni o'zida saqlab qoladi.

Ijtimoiy ishning eng umumiy ta'rifi – bu shaxs, guruhlar yoki hamjamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha professional faoliyat hisoblanadi. Buyuk Britaniya ijtimoiy ish xodimlari uyushmasi ijtimoiy ishning qo'yidagi ta'rifini berdi: ijtimoiy ish – bu ularga ta'sir qiladigan shaxsiy, ijtimoiy va vaziyatga bog'liq qiyinchiliklarni belgilashda kishilarga va hamjamiyatlarga yordam beradigan mas'uliyatli kasbiy faoliyatdir.

2002-yil iyulda Jenevadagi Xalqaro ijtimoiy ish xodimlari Federatsiyasining har-yillik uchrashuvida qo'yidagi ta'rif qabul qilindi:

– ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o'zgarishlarga, kishilar o'rtasidagi muammolarni hal qilishga, mobillashtirishga va individlar va guruhlarning xotirjamligini kafolatlash uchun ularni safarbar etishi va ozod qilishga yordam beradi. Ijtimoiy ish inson hulq-atvori va ijtimoiy tizimlar nazariyasini qo'llab, odamlarning ular atrofidagi kishilar bilan munosabatlari aralashadi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ish uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy ish qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va reabilitatsiya qilish vositasida qiyichiliklarni yengib o'tishga, ularga yordam beradi. Bu tashxis qo'yish uchun yuborilgan huquqbuzarliklarni tuzatish va nazorat qilish bilan bog'liq patronaj, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ta'lim faoliyatidir.

Kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ish uch sohani o'z ichiga qamrab oladi:

- birinchidan, bu shaxsiy va oilaviy darajalardagi ijtimoiy terapiyadir;
- ikkinchidan, bu turli tasnidagi guruh bilan olib boriladigan ijtimoiy faoliyatdir;
- uchinchidan, bu jamoada, yashash joyida olib boriladigan ijtimoiy faoliyatdir.

Individni ijtimoiy moslashtirish va hayotga qayta tayyorlash, uning hayotida ro'y berayotgan nizolarni hal qilish yakka tartibda ishlashning asosiy maqsadi hisoblanadi. Misol uchun, oilada bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti ota-onalarning ijtimoiy-madaniy va moddiy maqomiga, ularning bolalarga keraklicha e'tibor berishga qodirligi yoki qodir emasligiga, mazkur oila qayerda yashashiga, ta'lim resurslarining qulayligiga bog'liq. Barcha sanab o'tilgan holatlarda qonunlarda mustahkamlangan qoidalardan foydalanish uchun ularning ota-onalariga ham malakali yordamchilarning ko'magi zarur. Ijtimoiy ish e'lton qilingan huquqlarni amaliyatga tatbiq qilinishi uchun kerak bo'lgan ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimi qiyinchiliklarni aniqlashi, mijozni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy resurslar manbalariga murojaat qilishda oilaga va individga yordam berishi mumkin.

Ijtimoiy yordam va ko'mak zarur bo'lgan guruhrar yoshiga qarab bolalar, yoshlari, keksa fuqarolarga tasniflanishi mumkin. Boshqa tasnid gender, madaniy yoki o'xshash muammolar bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni diniy guruhrar, yolg'iz ota-onalar, yolg'iz onalar birlashmasi, sobiq alkogoliklar yoki giyohvandlar guruhlari. Ko'pincha ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy illatga aylangan yoki hatto jinoiy xususiyatga ega bo'lgan guruhrar – bolalar yoki o'smirlar jinoyatchiligi, fohishabozlik va boshqa ijtimoiy xatar guruhlari bilan ishlashiga to'g'ri keladi.

Yashash joyi bo'yicha va jamoalarda faoliyat olib borish ijtimoiy ish xodimi faoliyatining muhim sohasi hisoblanadi. U odamlar zinch bo'lib yashaydigan joylarda ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini kengaytirishga, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga, qulay ijtimoiy-ruhiy iqlim yaratishga, shuningdek, turli mahalliy tashabbuslar, o'zaro yordam beruvchi guruhlarni tashkil etishga qaratilgan.

Bu sohada O'zbekistonning o'ziga xos milliy modeli – mahalla-ning ulkan salohiyatidan va imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy ishning mazmun-mohiyatini individrlar, oilalar guruhlarning ijtimoiy huquqlarini ro'yobga chiqarishda va to'laqonli ijtimoiy faoliyat ko'rsatishga to'sqinlik qiladigan jismoniy, ruhiy, intellektual, ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni hal qilishda ularga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat sifatida ta'riflash mumkin. Ijtimoiy ishning mazmun-mohiyatini faoliyatning o'ziga xos turi, insон hayotining madaniy, ijtimoiy va moddiy darajasini ta'mintash maqsadida unga davlat tomonidan va nodavlat ko'mak berish, insonga, oilaga yoki shaxslar guruhiga yakka tartibda yordam berish sifatida ta'riflash mumkin .

Turli mamlakatlarda ijtimoiy ish xodimlarini ish bilan ta'minlash cohasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Bir qator mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada bu kasb ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlashni birlashtiradigan sohaga taalluqli. Irlandiyada esa ijtimoiy ish xodimlarii (**social workers**) sog'liqni saqlash tizimiga mansub. Ular kasalxonalarda, turar joylaridagi salomatlik markazlarida ishlaydi, kishilarni ruhiy qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy ta'minot sohasida odamlarga yordam beruvchilar (**welfare workers**) ijtimoiy himoya qilish sohasida ishlaydi. Bundan tashqari, Irlandiyada yoshlar bilan ishlaydigan mutaxassislar (**youth workers**) mavjud. Ushbu mutaxassislar, u yoki bu darajada bir-birlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, ko'ngillilarni va turli hukumatga qarashli bo'limgan tashkilotlarni hamkorlikka taklif etadi. AQSHda ijtimoiy ish xodimi ijtimoiy xizmatlar bo'limlaridan tashqari tibbiyot muassasalarida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Mijozni ham davolash jarayonida, ham uyiga qaytarishga tayyorlashda yetarlicha tibbiy va ruhiy qo'llab-quvvatlash uning vazifasi hisoblanadi.

Rossiyada ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy ta'minot, ta'lif (ijtimoiy pedagoglar), ish bilan ta'minlash xizmatida faoliyat ko'rsatadi.

Ijtimoiy ishning qonuniyligi ijtimoiy ish nazariyasining muhim elementi hisoblanadi.

Maxsus adabiyotlarda ijtimoiy ish qonuniyligini uch guruhg'a bo'lish taklif etiladi:

1) ijtimoiy ish – odamlarning ehtiyojiga, aniq vaziyat talabiga, kishilarning ijtimoiy salomatligi saqlanishi va reabilitatsiyasiga ko'maklashadigan, ijtimoiy munosabatlarning yangilanishiga muvofiq jamiyatda yuz beradigan jarayonlarga ta'sir qiladigan o'ziga xos faoliyat turi;

2) individning shakllanishi ijtimoiy dasturga ko'ra yuz beradi – ijtimoiy muhitning ta'siri ostida va individning o'zini o'zi kamol toptirishida muayyan faolligi sharoitida yuz beradi;

3) ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish va iste'mol qilish manbalari jamiyat ehtiyoji bilan izohlanadi va uning kamoloti tendentsiyalarini aks ettiradi.

Davlatning ijtimoiy siyosati bilan jamiyatdagi ijtimoiy ishning mazmun-mohiyati o'rtasidagi o'zaro aloqa asosiy qonuniyat sifatida ajratib olinadi. Kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ishning shakllanishi ijtimoiy siyosatni aholining katta guruhlari, sinflar, xarajatlardan qiynalib hayot kechirayotgan individga, oilaga yordam berishga yo'naltirishi bilan bog'liq. Ushbu qonuniyat munosabati bilan ijtimoiy rivojlanish maqsadlari bilan ijtimoiy ish darajasi o'rtasida o'zaro aloqa yuzaga keladi. Ko'rsatib o'tilgan maqsadlar asos bo'lувчи davlat hujjatlarida, ijtimoiy xizmatlar faoliyatida shakllanadi. Bu esa ushbu rivojlanishning yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy ishning ijtimoiy siyosat, ijtimoiy jarayonlar bilan nisbati tadqiq qilish, shuningdek, shaxsning muqobil kamol topishi uchun jamiyatning mas'uliyati bilan bog'liq muammolar ijtimoiy ish muammolari sirasiga kiradi.

Qo'yidagilar ilmiy fan sifatida ijtimoiy ishning maxsus muammolari hisoblanadi:

- ijtimoiy ish tuzilmasida motivatsiya;
- deviatsiya;
- delikventsiya;

- deprivatsiya;
- o‘z joniga qasd qilish;
- jamoada ishlash, ijtimoiy ish metodlari va texnologiyalarining o‘zaro munosabati;
- ijtimoiy ish xodimining odob-axloqining ishlaganligi;
- ijtimoiy korreksiya;
- ijtimoiy terapiya.

Ijtimoiy ish metodologiyasi professional jihatdan ta’sir etish predmetini, obyektni o‘rganishni nazarda tutadi. Bunda mijozdan tashqari ijtimoiy xodim ham ishtirok etadi, shuningdek uning doirasida ijtimoiy ish xodimi va mijoz o‘zaro munosabatida bo‘ladigan ijtimoiy konteksti ijtimoiy ish tuzilmasini va tarmoq faoliyat tamoyillarini o‘rganishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy salomatlikni tiklash, maqomni barqarorlashtirish imkoniyatlar va resurslar namoyon bo‘lishi shartlarini o‘zgartirish, mijozning o‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasini, muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini oshirish, o‘z qadr-qimmati tuyg‘usini tiklash va o‘zini-o‘zi hurmat qilishiga erishish ijtimoiy ish metodologiyasining maqsadi hisoblanadi.

Ijtimoiy ishni o‘qitish jarayoni turli mamlakatlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin bo‘lgan ta’limning milliy tizimlari o‘ziga xosligini aks ettiradi. Ijtimoiy xodimlarni o‘qitish ishida barcha tafsilotlari bo‘yicha yagona namuna yo‘q. Biroq aniq bir sotsiumda qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan kishiga maxsus bilimlarsiz malakali yordam ko‘rsatish mushkul ekanligini tushunish mavjud. Ijtimoiy ish ko‘nikmalariga o‘qitish, bo‘lg‘usi mutaxassislarni ijtimoiy jarayonlarning ilmiy tahlili va ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahlili metodologiyasi bilan qurollantirish imkonini beribgina qolmay, balki muqobil holat yoki xulq-atvor tashqarisidagi, jamiyat me’yorlaridan tashqaridagi guruhni yoki alohida shaxsni undan ajratib olish imkonini ham beradi.

Ijtimoiy ish o‘quv fani sifatida o‘quv maqsadlarini ko‘zlab ilm-fan asoslarini o‘quv yurti mutaxassisligiga tatbiqan tizimlashtirib bayon qilishni o‘zida ifoda etadi. Ijtimoiy ishga o‘qitilayotgan talabalar ijtimoiy xodim bilan mijoz, ehtiyojmand odamlar bilan jamiyat o‘rtasidagi vositachilikni ta’minlaydigan turli nazariy bilimlar va texnologiyalarini egallab olishlari lozim bo‘ladi.

U haqidagi ta'lim tizimi o'zida nazariy va amaliy qismlarning uyg'unligini ifoda etishi kerak. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis tayyorlashning asosiy talablariga muvofiq bo'lgan bilimlarni egallah amaliy ko'nikma va malaka orttirish ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Universitetda bazaviy tayyorlarlikdan o'tgan tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis hisoblanadi.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy ish sohasida mutaxassislar tayyorlashga mavjud yondashuvlarning ko'pchiligi bunday ish, masalan, diniy va dunyoviy asoslarni, vasiylik va xayriyani birga qo'shib olib borishni davlat xizmatlari yoki xususiy ijtimoiy xizmatlar ustuvorligini o'z ichiga oladigan ijtimoiy-madaniy an'analar va tarixiy shart-sharoitlarning o'ziga hosligiga muvofiq tashkil etilishini ko'rsatadi. Bunday tayyorlash izchil, maqsad va vakolatlar sohasi aniq belgilangan holda turli shakllarda (kurslar, kollejlar, universitetlar) va turli bosqichlarda amalga oshiriladi.

AQSH ijtimoiy ishchilar Milliy Assosatsiyasi tomonidan ijtimoiy ish xodimlarining jamiyat ijtimoiy hayotining sohalari taqsimoti bo'yicha 2004-yilda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari:

<i>Nº</i>	<i>Sohalar</i>	<i>ko'rsatkichlar</i>
1	Tibbiyot va sog'liqni saglash	18,1
2	Psixoterapiya	26,6
3	Oilalar va yoshlar bilan ishlash tizimida	8,6
4.	Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimida	8,2

AQSH ijtimoiy ishchilar Milliy Assosatsiyasi tomonidan 1960-1980-yillarda 200 mingdan ortiq ijtimoiy ish xodimini tayyorlagan. Shulardan:

<i>Nº</i>	<i>Sohalar</i>	<i>ko'rsatkichlar</i>
1	Aholiga ijtimoiy ko'mak berish tizimida	63,7
2	Boshqaruv tizimida	20
3	Nazorat tizimida	7,2
4	Pedagog va tarbiyachilar	5,6

AQSHda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash uch bosqichda amalga oshiriladi. O'zlarini ijtimoiy ish xodimlari ko'pchiligi yoki bakalavr diplomiga ega bo'lgan ijtimoiy ishga ixtisoslashgan to'rt-yil o'qitiladigan universitet diplomiga yoki ijtimoiy ish bo'yicha master diplomiga ega. Bakalavr diplomiga ega bo'lgan bitiruvchi universal mutaxassisiga aylanadi – u ijtimoiy muammolarning keng ko'lami bilan ishlaydi. Master (magistr) darajasi bakalavr dasturi bo'yicha to'rt yillik dastlabki universitet ta'limidan keyin, ikki yillik amaliy tayyorgarlik, ma'ruza o'qish va tajriba ishlardan keyin beriladi. Doktorlik darajasi master darajasini olgandan keyin ikki yil tayyorgarlikni talab qiladi. Kolumbiya va Vashington universitetlari bunga misol bo'lishi mumkin. Ushbu universitetlarda ijtimoiy ish xodimlari magistraturada o'qitiladi.

Qo'yidagilar AQSHda ijtimoiy ish sohasidagi ta'limning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- mijozning o'z taqdirini o'zi belgilashini hurmat qilish;
- har bir mijozning qadr-qimmati va qadrililiga ishonish;
- mijozning tabiiy qobiliyatlarini tasdiqlash;
- mijozni uning o'ziga xosligiga va noyobligiga ishontirish;
- mijozlarga o'z kamoloti va inson sifatida o'zini o'zi ruyobga chiqarishi (daromad, ta'lim va hokazolar) uchun kurashish imkonini beradigan shart-sharoitlarni himoya qilish;
- mijozga o'zining ijobji sa'y-harakatlarini aniqlash va yo'naltirish imkonini beradigan o'zgarishlarga qanday ko'maklashishni tushunish, unga yordam berish uchun mijozning atrofidagilardan foydalanish. Bular:

- kurslar, maktablar, litseylarda kursni o'qitish yoki kasb-hunarli bo'lguncha tayyorgarlik.
- o'rta ma'lumotli bitiruvchilar bemorlar, qariyalar, yolg'iz kishilarga xizmat ko'rsatish bo'limlarining ijtimoiy ish xodimlari safini to'ldiradi;
- o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitish. Ularni tamomlagach, bemorlar, yolg'iz kishilar, keksalarga xizmat ko'rsatish bo'limlari xodimlari, ijtimoiy pedagoglar bo'lib ishlash mumkin;
- universitetlar, akademiyalar, soha oliy o'quv yurtlarida (pedagogik, tibbiy) kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlarda (o'qish

muddati uch-yildan olti-yilgacha), fakultetlarda (oliy ma'lumotlilar bir yildan uch yilgacha o'qitiladi) o'qitish.

Professional oliy ta'limga kelsak, ushbu mamlakatda uch bosqich ajralib turadi. Bular:

- bakalavrlar (4-yil);
- mutaxassislar (5-yil);
- magistrlar (6-yil) tayyorlash.

Ijtimoiy ish xodimining professional maqomi rasman tasdiqlangandan keyingi qisqa davrda Rossiyada oliy ta'lim tizimida ijtimoiy soha uchun, shu jumladan, ijtimoiy soha organlari va muassasalari uchun kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan universitetlar, akademiyalar, institutlar, kollejlar tarmog'i kengayib borishi kuzatilmoqda.

Yigirmanchi yillarda tashkil etilgan Xalqaro ijtimoiy faoliyat uyushmasi (LASSW) o'qitish ishida muhim tashkiliy o'rinni tutadi. Ijtimoiy ishga o'qitish milliy dasturlariga ekspert baho berish uning funksiyalaridan biri hisoblanadi. Uning huzurida tashkil etilgan ijtimoiy ish maktabi xalqaro qo'mitasi (ILSSW) BMT va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan yaqin hamkorlik qiladi. XMT Jenevada ijtimoiy ishga o'qitishga taalluqli barcha hujjalarni saqlaydigan ma'lumotnoma-axborot markaziga ega.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarning jahon tajribasi aholini ijtimoiy himoya qiladigan maxsus va ijtimoiy tuzilmalarsiz, aholining alohida guruhlariga va qatlamlariga ijtimoiy yordam berishning aniq amal qiladigan mexanizmisiz demokratik, huquqiy davlatni shakllantirish mumkin emasligidan dalolat beradi. Aynan shu sababli bir necha mamlakatlarda ijtimoiy muammolar nafaqat ijtimoiy ish nazariyalari va maktablari doirasida, balki amaliy sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, iqtisodiy sotsiologiya, ijtimoiy muhandislik, ijtimoiy pedagogika vositalari doirasida ham faol ishlab chiqilmoqda.

Ijtimoiy ish – bu ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos shaklidir, ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishning o'zagi va yo'nalishidir. Huquqiy, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo'lida faoliyatning mamlakatimiz uchun yangi turini shakllantirish va ijtimoiy ish xodimlarini kasbga tayyorlash zarur.

«Oxirgi yillarda O'zbekistonligi ijtimoiy ish, – ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis bo'lgan angliyalik oim Terri Myorfinning

fikricha, – tez rivojlandi va mamlakat hamda ijtimoiy ish xodimi kasbi mintaqada faoliyatning ushbu turida o‘zining yetakchi roldan faxrlanishi uchun barcha asosga ega»¹.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy ta’milot va sug‘urta tizimi orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladigan asosiy me’yorlar va huquqlar mavjud. Mana shu huquq va me’yorlar bazasida ijtimoiy qonunchilik rivojlangan.

1991-yilda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun imkoniyatlari cheklangan kishilarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash milliy modeli shakllanishini boshlab berdi. O‘zbekistonda bola, alohida ehtiyojlarga muhtoj shaxslar huquqlari va erkinliklari sohasidagi asosiy xalqaro hujjalarga qo‘sildi va ularga muvofiq o‘z siyosatini olib bormoqda.

O‘zbekistonda inson kamoloti bilan bog‘liq ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagi muhim maqsadli ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda:

- oilani mustahkamlash;
- sog‘lom avlodni tarbiyalash;
- sog‘liqni saqlashni isloh qilish;
- ayollarning oila va jamiyatdagi maqomi va rolini oshirish;
- nogironlarga, kam ta’minlangan oilalarga va bolali oilalarga aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy yordam ko‘rsatish dasturlari shular jumlasidandir.

Respublikada ijtimoiy ta’lim muassasalarini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda, ularda imkoniyati cheklangan bolalar tahsil oladi. Aholining kam ta’minlangan qatlamlariga mehr-muruvvat ko‘rsatish va ularni maqsadli qo‘llab-quvvatlash mamlakat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bundan tashqari, dasturiy xususiyatga ega me’yoriy-huquqiy hujjalalar mavjud, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning oilani, ayollarni, bolalar, keksalar,

¹ Мерфи Т. Развитие социальной работы в Узбекистане в международном контексте / Материалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки Детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008. - С. 23.

nogironlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan barcha farmonlarini ular qatoriga kiritish mumkin.

Bundan tashqari, imkoniyati cheklangan kishilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etildi.

O'zbekiston yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tishi sharoitlarida aholining katta qismi murakkab ijtimoiy holatga tushib qoldi. Bu holat mamlakatda bozor munosabatlariga o'tishning har bir bosqichi o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi rivojlanishiga ko'maklashdi. Jumladan, agar bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichida davlat butun aholini ijtimoiy himoya qilish yo'lidan borgan bo'lsa, hozirgi vaqtda esa haqiqatdan ham muhtoj bo'lgan oilalarga yordam ko'rsatishga urg'u berilmoqda. Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoya qilish mexanizmi ishlab chiqildi, qat'iy tabaqalashtirilgan yondashuv uning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ijtimoiy institut sifatida tobora rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy himoya odamlar ijtimoiy xatti-harakatining barqaror shakllarini belgilovchi tamoyillar, ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy muassasa va tashkilotlar majmuyi bilan tavsiflanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyatdagi mavjud ijtimoiy jarayon va hodisalar mazmunga, yo'nalishiga, shakllari va metodlarini belgilovchi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-psixologik omillarga bog'liqdir.

Qaysi yilga qanday nom berishdan qat'i nazar – bu oila yoki ayollar masalasi bo'ladimi, sog'lom avlod tarbiyasi, mahalla-larimizni obod qilish yoki qariyalarni qadrlash bo'ladimi, onalik va bolalikni muhofaza etish yoki jamiyatimizda mehr-muruvvat, insonparvarlik ruhini kuchaytirish bo'ladimi – bularning barchasini birlashtiradigan umumiy bir mezon bor. U ham bo'lsa, inson, uning hayoti, orzu-niyatlari dardu tashvishlarini davlat e'tibori markaziga qo'yib, odamlarning og'irini yengil qilishga qaratilgan intilishlari misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'tgan davr mobaynida ma'lum bir nom berilgan har qaysi yil o'zida mujassam etgan ma'no-mazmuni, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, dolzarbliji va ahamiyati bilan hayotimizda mavjud bo'lgan muammolarni yechishda bir yillik muddat bilan chegaralanib qolmasligini ta'kidladi.

Davlat byudjetimizning ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy xarajatlari 2006-yilda 51 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007-yilda 54,1 foizni tashkil etadi. Kam ta'minlangan, yosh bolali oilalarga ijtimoiy nafaqalar uchun mo'ljallangan xarajatlar miqdori esa 2007-yil byudjetida 7 foizni tashkil etdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining Respublikamiz Prezidenti tomonidan ko'rsatib berilgan «O'zbek modeli»ning 5 ta asosiy tamoyillari:

- Iqtisodiyotning siyosatning ustuvorligi.
- Qonun ustuvorligi.
- Davlatning olib borilayotgan islohotlarda tashabbuskorligi.
- Aholining kuchli ijtimoiy himoyasi.
- Islohotlarning bosqichma-bosqichliligi.

Ijtimoiy himoya deganda yoshi, jinsi, millati, mansabidan qat'iy nazar, respublika fuqarolarining to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati tushuniladi. Ijtimoiy himoya choralariga fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy reabilitatsiya tadbirlari kiradi.

Ijtimoiy ta'minot – alohida olingen fuqaro, fuqarolar toifasiga boshqalar qatori teng imkoniyatlar berish orqali to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan va Davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuyiga aytildi. Ijtimoiy ta'minot choralariga fuqarolarning pensiya ta'minoti, bepul protez-ortopediya mahsulotlari, reabilitatsiya texnik vositalari – nogiron aravachalari, eshitish moslamalari, xassa va qo'lтиqta yoqlar bilan ta'minlash, bepul sanator sog'lomlashtirish choralar, turli xil imtiyoz va kafolatlarni yetkazish, fuqarolarga ko'rsatiladigan bepul tibbiy xizmat, bepul ta'lim olish kabi choralar kiradi.

Ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash – muayyan vaqtida obyektiv qiyin sharoitga tushib qolgan fuqarolar, oilalarga shu qiyin sharoitdan chiqib ketish uchun Davlat tomonidan vaqtinchalik ko'rsatiladigan yordam chora-tadbirlari kiradi (kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, voyaga yetmagan farzandlari bor muhtoj oilalarga nafaqalar va hokazolar).

Ijtimoiy reabilitatsiya— kasallik yoki jarohatlar asoratlardan nogiron bo‘lib qolgan fuqarolarni faol ijtimoiy munosabatlarga jalb qilish, ularning jamiyatga integratsiyasini ta’minlash choralariga aytildi.

Mamlakatimizda ijtimoiy ta’minot va uning huquqiy tizimlari barpo etilishi shartli ravishda bir necha bosqichlarga bo‘linadi:

Birinchi bosqich – 1991-yil 31-avgustdan 1992-yil 8- dekabr-gacha.

Bu davrda ijtimoiy ta’minotni amalga oshirish sohasidagi davlat organlari, ular kundalik faoliyatining huquqiy asoslari shakllantirilish davri.

Ikkinchi bosqich – 1992-yil 8-dekabrdan 1994-yil o‘rtalari.

Bu davrda yangi konstitutsiyaviy asoslarga tayanilgan holda davlat va huquq tizimlarini qaytadan shakllantirila boshlanganligi, pensiya ta’minoti sohasida milliy qonunning qabul qilinishi hamda zaif aholi qatlamlari ijtimoiy himoyasini asta-sekin kuchaytirila boshlanganligi.


Uchinchi bosqich – 1994-yilning ikkinchi yarmidan 2001-yilgacha bo‘lgan davr.

Bu davrda ijtimoiy ta’minot sohasidagi qonunchilik tizimlari asosan barpo etib bo‘lindi, aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy himoyalash tizimlari va mexanizmlari yaratildi.

To‘rtinchi bosqich – 2001-yildan to hozirgi kungacha.

Bu davrda aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashning 2002–2003-yillarga mo‘ljallangan hukumat dasturining qabul qilinishi va ro‘yobga chiqarilishiga qaratilgan qonun hujjalarning qabul qilinishi, ijtimoiy yordam oluvchi fuqarolar doirasining kengaytirilishi hamda moddiy yordam miqdorining ko‘paytirila borilishi kabilar ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari sanaladi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar



2008-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni bolalarni himoya qilish sohasida assosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun bola huquqlari bo‘yicha BMT Deklaratsiyasida mavjud bo‘lgan bolaning barcha huquqlarini ta’minlaydi. Kadrlar tayyorlash masalasiga kelsak, 4-moddada bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib bornyotgan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanishi aytildi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash faoliyatida turli soha mutaxassislari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, huquqshunoslar va boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, turli soha mutaxassislari integratsiyasi kerakli va zarur ishdir. Biroq hozir mamlakatimizda yangi ijtimoiy faoliyat institutini tashkil etish bosqichida turibdi. Bunday institutni tashkil etish uchun barcha asoslar yaratilgan. Bular: davlatning kuchli ijtimoiy siyosati, mahalliy hokimiyat organlari faoliyati, o‘zini-o‘zi boshqarish organlirining ushbu sohadagi faoliyati va boshqa turli ijtimoiy tashkilotlar faoliyati. Biroq aytib o‘tilgan agentliklar faoliyati turli-tumanligiga qaramay, ijtimoiy ishga birgina juda muhim bo‘g‘in ijtimoiy ishni nazariy asoslash yetishmaydi. Yangi yo‘nalishdagi malakali mutaxassislarni ijti-

moiy ish xodimlarini tayyorlashni kengaytirib, ijtimoiy ishning nazariy asoslarini yaratish zarur.

I.V.Vachkovning psixologik o‘yinlari va mashqlari¹

«Ijtimoiy ish muammolari bo‘yicha umumjahon anjumanisi» mashqi

Talabalar 4–5 guruhga bo‘linadi. Har bir guruh mamlakatlardan biri (Germaniya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Angliya va h.k. – qur'a tashlash yo‘li bilan aniqlanadi)ning vakili hisoblanadi. Birinchi bosqichda har bir mamlakat «delegatsiyasidan» bir kishi o‘z mamlakatida ijtimoiy soha xizmatchilarini kasbiy tayyorlash qanday amalga oshirilishi to‘g‘risida ma’ruza qiladi. Ikkinci bosqichda har bir delegatsiya boshqa delegatsiyalarning har biriga bittadan savol beradi (savollar aniqlash uchun, sinash uchun, tuzoqqa tushirish uchun berilishi mumkin). O‘qituvchi ekspert sifatida savollarni ham, javoblarni ham 5 balli tizimga ko‘ra baholaydi. «Majlis»ning oxirida yakun yasaladi va qaysi delegatsiya eng ko‘p ball olgani aniqlanadi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hozirda O‘zbekistonda ijtimoiy ishning dolzarbligi nimalarda aks etadi?
2. Ijtimoiy ishga ehtiyoj qanday, uning ahamiyati nimalarda ko‘zga tashlanadi?
3. Ijtimoiy ishning asosiy tarixiy davrlarini aytib bering?
4. AQSH ijtimoiy himoya tizimining o‘ziga xosligi nimalardan iborat?
5. Aholini ijtimoiy himoya qilishning G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tizimidagi o‘ziga xosliklar nimalardan iborat?
6. Xorijiy mamlakatlardagi va O‘zbekistondagi ijtimoiy himoya qilish tizimlarining qanday umumiyligi va o‘ziga xos jihatlari bor?

¹ Teterskiy S.V. «Ijtimoiy ishga kirish», A.Begmatov tarjimasи. Toshkent. 2006-y.29 b.

Test savollari

1. Ijtimoiy ishning birinchi marta tilga olinishi...

- A) eramizdan avvalgi 1750-yilga taalluqli
- B) eramizdan avvalgi 1850-yilga taalluqli
- C) eramizdan avvalgi 1860-yilga taalluqli
- D) eramizdan avvalgi 1900-yilga taalluqli

2. Ijtimoiy ish professional faoliyat turi sifatida qachon shakllandi?

- A) XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida
- B) XVIII asrning boshlarida
- C) XIX asrda
- D) XX asrning o‘rtalarida

3. Ijtimoiy ish bo‘yicha ta’lim muassasalari dastlab qayerda paydo bo‘ldi?

- A) Gollandiyada
- B) Buyuk Britaniyada
- C) Germaniyada
- D) AQSHda

4. Ijtimoiy ishni kasb sifatida shakllanishiga ta’sir qilgan omil...

- A) Filontropik tashkilotlarning rivojlanishi
- B) Ijtimoiy qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati
- C) Maxsus davlat dasturlarining qabul qilinishi
- D) Ijtimoiy ish fakultetlarining ochilishi

5. Stokgolmda Homiylik ijtimoiy uyushmasi qachon tashkil etilgan?

- A) 1866-yilda
- B) 1869-yilda
- C) 1876-yilda
- D) 1896-yilda

6. Ijtimoiy ish sohasini rivojlanishi nechta asosiy bosqichni bosib o‘tgan?

- A) Uch
- B) To‘rt
- C) Besh
- D) Ikki

7. Ijtimoiy ish xodimlarining kasbga doir manfaatlarini ifoda etgan birinchi tashkilot qaysi davlatda paydo bo‘lgan?

- A) AQSHda
- B) Buyuk Britaniya
- D) Gollandiya
- E) Germaniya

8. Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy ish xodimlarining profesional assotsiatsiyasi bu - ...

- A) Ijtimoiy ishchilar Britaniya assotsiatsiyasi
- B) Ijtimoiy ishchilar Britaniya Federatsiyasi
- D) Ijtimoiy ishchilar Xalqaro Assotsiatsiya maktabi
- E) Ijtimoiy ishchilar Milliy assotsiatsiyasi

9. Davlat xizmatchilarining xususiy ishtirokida nochorlarga yordam beruvchi Elberfeld tizimi qaysi davlatda amalda bo‘lgan?

- A) Barcha javoblar to‘g‘ri
- B) Finlyandiya
- D) Shvetsiya
- E) Germaniya

10. Nochorlar haqida g‘amxo‘rlik qiluvchi Germaniya Xayriya Ittifoqiga nechanchi-yili asos solingan?

- A) 1880-yilda
- B) 1861-yilda
- D) 1866-yilda
- E) 1898-yilda

11. Lotin Amerikadagi birinchi ijtimoiy ish maktabi qaysi mamlakatda ochilgan?

- A) Chili
- B) Braziliya
- D) Paragvay
- E) Kolumbiya

12. Ijtimoiy ishchilar Axloq Kodeksi birinchi ishlasmalari qachon ishlab chiqilgan?

- A) 1915-yilda
- B) 1920-yilda
- D) 1922-yilda
- E) 1925-yilda

13. «Ijtimoiy davlat» termini qaysi davlat Konstitutsiya-sida birinchi marta tilga olingan?

- A) Germaniya
- B) AQSH
- C) Fransiya
- E) Shvetsiya

14. «Ijtimoiy ishchilar muammolari» Akademiyasi qayerda joylashgan?

- A) Buyuk Britaniyada
- B) Rossiyada
- D) Ukrainada
- E) Avstraliyada

15. Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishchilar tayyorlaydigan birinchi o'quv muassasasini tashkili etgan olim ...

- A) Crom Taylor
- B) Meri Richmond
- D) John Adams
- E) Mariya Gaxeri

16. Ijtimoiy ishda Meri Richmond asos solgan yondashuv...

- A) Ikkotizimli yondashuv
- B) Ramziy interokSIONIZM
- D) Inqirozli yondashuv
- E) Xulq-atvor yondashuvi

17. «Ijtimoiy himoya» tushunchasi birinchi marta qaysi davlat qonunchiligidagi ishlataligida ishlataligida

- A) 1935-yilda AQSH qonunchiligidagi
- B) 1889-yilda Buyuk Britaniya qonunchiligidagi
- D) 1908-yilda Germaniya qonunchiligidagi
- E) 1993-yilda O'zbekiston qonunchiligidagi

18. Ijtimoiy ishchilarning kasbiy manfaatlarini himoya qilluvchi birinchi tashkilot ... -yil tashkil etilgan.

- A) 1917-yilda
- B) 1915-yilda
- D) 1912-yilda
- E) 1908-yilda

19. Meri Elen Richmond yashagan-yillarni ko'rsating.

- A) 1861–1928
- B) 1870–1928
- C) 1861–1922
- D) 1870–1922
- E) 1870–1926

20. Yunon tilidan tarjima qilinganda «insoniyatga nisbatan muhabbatni ifodalash» ma'nosini bildiradigan kategoriya...

- A) Filantropiya
- B) Etika
- C) Falsafa
- D) Filologiya

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2010.
2. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. –T.: O‘zbekiston, 2010.
3. Ganiyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. –Toshkent. 2012-y.
4. Антология социальной работы. История социальной помощи в России / Сост. М.В.Фирсов. –М.: Сварогъ-ИВФСПТ, 1994. Т.1.
5. Барнз Дж.Г. Социальная работа с семьями в Англии. –М.: Сентр общественных тсенностей, 1993.
6. Бербешкина З.А. Этика социального работника // Теория и практика социальной работы: проблемы, прогнозы, технологии: Сб. –М.: РГСИ. 1992.
7. Василева-Гангнус Л. Правила этикета: Краткий справ. – М.: Делта МКС, 1992.
8. Государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования / Госкомитет Российской Федерации по высшему образованию. –М., 1995.
9. Медведева Г.А. Этика социальной работы. –М., 2000.
10. Пинкус А., Минахан А. Практика социальной работы (формы и методы). –М.: Союз, 1993.
11. Профессионально-этические нормы социальной работы. –М: Социальное здоровье России, 1993.
12. Этические основы социальной работы // Теория и методика социальной работы (краткий курс). –М.: Союз, 1994.

III bob. IJTIMOIY ISH ETIKASI FANIDA AXLOQIY TA'LIMOTLARNING QADIMIY ILDIZLARI VA MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY TA'LIMOTLARI

Reja:

3.1 Ijtimoiy ish etikasi fanida axloqiy ta'limotlarning qadimiy ildizlari.

3.2 Axloqiy qarashlarning inson ma'naviy taraqqiyotida tutgan o'rni.

«Axloq – ma’naviyatning o’zagi. Inson axloqi shunchalik salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq bu, avvalo, insof va adolat tuyg’usi, iymon, halollik degani».

Islom Karimov

Ijtimoiy ish etikasi fani doirasida talabalarni insoniyat hayotida axloq tushunchasining ahamiyatini chuqurroq tushuntirish maqsadida axloqning jamiyat taraqqiyotida mutafakkirlar tomonidan yaratilgan axloqiy qarashlar va ta'lomitlar mazmun-mohiyatini o'rganish katta ahamiyatga ega. «Etika» tushunchasini bиринчи bo'lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhg'a bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhg'a u falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhg'a – etika va siyosatni; uchinchi guruhg'a esa – san'at, hunurmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'lomitni fan darajasiga ko'targanlar va «Etika» (ta ethika) deb ataganlar.

Ijtimoiy ish etikasi fanida axloq tushunchasi eng muhim tushunchalardan biri sifatida o'rganiladi. «Axloq» so'zi arabchadan olingan bo'lib, «hulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obyektini anglatса, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va

xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmuyi.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisidir¹.

Axloq shu jamiyatda yashayotgan va shu jamiyatni tashkil qilgan odamlarning bilim va ma'naviyatini rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bilim insonning ongida ta'lim tizimi orqali shakllansa ma'naviyat insonning qalbida tarbiya orqali shakllanadi. Jamiyatning bilim va ma'naviyati qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti shunchalik jadal va hayot shunchalik farovon bo'ladi. Bu allaqachonlar insoniyat tomonidan isbotlangan va anglab olingan oddiy haqiqatdir.

Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, o'zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko'plab insonlar, kattayu-kichik bilan muloqotlar qiladi. Bu insonning o'z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ish xodimi o'zining kasbiy faoliyati davomida

Axloq – o'z muvozanatini yo'qotganning xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanati buzilgan xulqning muvozanatini saqlab qoladi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir.

Abu Nasr Forobiy

o'rnatilgan kasbiy me'yorlarga amal qilishni talab etadi. Bu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan obyekтив aloqadorlik, ya'ni ijtimoiy munosabatlar.

¹ Abdulla Sher Axloqshunoslik. Toshkent. 2000. 5-bet

sabat-xulq-atvor, odob, xatti-harakat tamoyillari va me'yorlarining majmuasi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

«Axloq» iborasi muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatlarini bildiradi. Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi obyektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiylar manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan va tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat tamoyillari va me'yorlarining majmuyidir. Axloq jamiyat va insonni o'ziga xos tarzda go'zallik qonuniyatlari vositasi bilan o'rganuvchi eng qadimiy va hozirgi zamonda nihoyatda muhim ahamiyatga ega fandir.

Dastlab axloq tushuncha sifatida Sharq mamlakatlarida vujudga kelgan. Ilk axloq tushunchasi qadimgi Misrda paydo bo'lган. Qadimgi Misrda esa odob-axloq masalalari o'ziga xos pandnomalarda ifoda topgan. Ular orasida «Pxatotep o'gitlari» bizgacha yetib kelgan eng qadimiy pandnoma hisoblanadi. Bundan deyarli ikki yarim ming-yil avval beshinchi sulola Fir'avni Jadkara Isesidan vazir Pxatotep qariligi tufayli o'rniga o'z o'g'lini tayinlashni iltimos qiladi va o'g'liga atab o'ttiz yetti nasihatdan iborat mazkur pandnomani yozadi. Unda o'sha davr axloqiy qonun-qoidalari, o'zni tutish, muomala odobi singari muammolar ko'tariladi, axloqiy fazilatlar esa hikmatlar va nasihatlar tarzida targ'ib qilinadi. Undagi o'gitlar yuksak badiiyati bilangina emas, balki quldorlik davri

talablarini chetlab o'ta olgan umuminsoniy demokratik fikrlar tarzida, haqiqiy donishmandlik va insonparvarlik namunasi sifatida hanuzgacha kishini hayratga soladi: «Qimmatbaho toshdek yashirindir oqilona so'z, holbuki uni don tuyayotgan cho'ridan topish mumkin». Agar nafaqat Qadimgi Misrda, balki undan bir necha ming yil keyingi

- Sima Nyu Konfutsiydan inson-parvarlik haqida so'radi. Donishmand:
- Insonparvarlik haqida so'zlamoqlik mushkul, – dedi.
- Demak, nimaiki to'g'risida so'zlamoqlik mushkul bo'lsa, shu inson-parvarlik ekan-da? – deb so'radi Sima Nyu.
- Uni amalga oshirmoqlik mushkul-u, u haqda so'zlamoq mushkul bo'lmaydimi?! – javob berdi Konfutsiy.

Qadimgi Yunonistonda ham qul ezgulikka, donishmandlikka xos bo'lмаган jonzot sanalganini va odam o'rnida ko'rilmaganini

hisobga oladigan bo'lsak, Pxatotepning mazkur fikri insoniyat axloqiy tafakkur taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini anglash mumkin¹.

Qadimgi Xitoyda ham axloqiy fikrlarning taraqqiy etganligini ko'ramiz. Masalan, qadimgi Xitoy mehnat ahlining ma'naviy hayoti va yuksak axloqi haqida «Shutszin» («Qo'shiqlar») kitobida ajoyib naqlar to'plangan.

Kishilik jamiyatining butun taraqqiyoti davomida insonlar komillikka intilib yashaganlar va yashab kelmoqdalar. Etika fani axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

U o'zining tarixiy taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajargan:

- umuminsoniy madaniyat tizimida insonning tabiiy xislatlarini;
- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma'naviy-ijtimoiy omillarini;
- kishilarning ichki tuyg'ularini, hissiyotlarini o'stirib, umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlarini anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodga yetkazib berishni;
- oila va kundalik turmushda mavjud bo'lgan oilaviy burch, o'zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an'analarni avloddan-avlodga o'tkazish asosida davom ettirish vositasi vazifasini;
- adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g'oyasi va boshqalar.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda shaxs vaqtি kelib, odobsizlikdan – axloqsizlikka o'tishi mumkin.

Qadimgi Turonzamin va Erondagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Qadimgi Xorazmda yaratilgan, «Avesto» deb atalgan muqaddas kitobda asosiy axloqiy fazilatlar va illatlar sanab o'tiladi, talqin etiladi. Unda zardushtiylik ilohiy Ahuramazda – ezgulik, Ahriman esa yovuzlik

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Toshkent. 2000y. 17-18 betlar.

timсли сифатида намоён бо'лди, езгулик ва ювузлик, юруг'лик ва зулмат, хайот ва мамот о'ртасидаги абадиј курашнинг ибтидоси аксетди.

Axloqiy va estetik qarashlarning shakllanishida diniy muqaddas kitoblarning va allomalar merosining tutgan o'rni juda katta. Bundan taxminan 2700-yil muqaddam hozirgi Markaziy Osiyo hududida ulug' tarixiy shaxs – ilohiyotchi, faylasuf shoir va tabiatshunos olim, jahon xalqlariga yakkaxudolikka asoslangan birinchi diniy ta'limot asoschisi sifatida mashhur bo'lgan ulug'



Zardushtiylik ta'limotida yaxshilik g'oyasi muhim ahamiyatga ega. Uning yaxshilik tamoyili tizimi o'zida me'yor, go-zallik va haqiqatni mujassam etgan.

vatandoshimiz – Zardusht (Sepitoma) dunyoga kelgan edi. Zardusht 40 yoshida avvalgi ko'pxudochilik diniy tasavvurlariga hamda tabiat hodisalariga sig'inish e'tiqodlariga qarshi chiqib, yakkaxudochilikka asoslangan kitobiy din

– zardushtiylik dinini yaratgan. Zardusht orqali ilohiy xabarlar muqaddas kitobga to'plangan va bu kitob «Avesto» deb atalgan (qat'iy qilib belgilangan (o'rnatilgan) qonun-qoidalar). Butun mavjudlikning ikki olyi ibtidosi – езгулик ва ювузлик haqida, olam qarama-qarshilik asosida ko'rilgan. Bu hol:

- jismoniy narsalarda юруг'лик ва зулмат;
- tirik tabiatda хайот ва о'lim;
- ma'naviy olamda езгулик ва ювузлик;

– ijtimoiy хайотда esa adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda o'z ifodasini topgan. «Avesto»da inson axloq-odobi, ma'naviyati ushbu uchlikda: Gumata – yaxshi fikr, Gugta – yaxshi so'z, Gvarsha – yaxshi ishda ifodalananadi. «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman», – deb ta'kidlaydi Axura Mazda.

Yaxshi fikr degan-da yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

Yaxshi so‘z deganda esa o‘z va’dasiga rioya qilish, so‘zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo‘lishga, qarzni o‘z vaqtida to‘lash, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o‘zini tiyish va hokazolar tushunilgan.

Yaxshi ish deganda insonning o‘z xatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so‘zlarda ilgari surilgan barcha ijobiylar yo‘l-yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilish nazarda tutilgan.

Zardushtiylik dinini ma’lum ma’noda axloqiy e’tiqod, uning muqaddas⁸ kitobi «Avesto»ni qadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axloqiy tushunchalar va ko‘rsatmalar majmuyi deyish mumkin. Buni ushbu din payg‘ambari Zardushtning «Avesto»dagi «Asha alqovi»dan joy olgan quyidagi so‘zlaridan yaqqol ko‘rish mumkin:

«Ahuramazda – eng loyiq haqning irodasi ruyobga chiqib, Ahriman daf bo‘lsin. Ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu ishlarni oqlayman. O‘zimni butkul ezgu o‘y, ezgu so‘z va ezgu amallarga baxshida qilaman, barcha qabih o‘y, yomon so‘z va yomon ishlardan tiyaman. Haqiqat – oliy ne’mat...»

«Avesto»dagi talqinlar insonning real hayoti bilan bog‘liq ekanligi, undagi ezgulik ruhi – yaratuvchilik, ijodkorlik quvvati sifatida, yomonlik esa buzish va buzg‘unchilik kuchi tarzida namoyon bo‘ladi.

Axuramazda qiyofasidagi bu ezgulik – hayat ramzi, yerni inson, hayvonot va nabotot bilan boyitadi, inson ularni sog‘lik, kuchqudrat, baxt, shodlik, umid, ishonch, go‘zallik, farovonlik yordamida munavvar qiladi.

Ahri man qiyofasidagi yovuzlik esa qurg‘oqchilik, ocharchilik, kasallik, jisman va ruhan halokat singari ofatlarni keltirib chiqaradi.

«Avesto»da Oliy Tangriga iltijo va murojaat qilinib, «Axuramazda yaratgan yaxshilik g‘oyasiga, sog‘lom, aql-hushi tetik farzandlarga, jasur, dono, bir necha tillarni biladigan o‘g‘il-qizlarga, uzoqni ko‘rib, yurtni balo-qazolardan himoya eta oladigan pok ziynat avlodlarga olqishlar bo‘lsin!» deyiladi. Undagi ta‘rifga binoan, tarbiya hayatning eng muhim tayanchi bo‘lishi lozim. «Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, – deyiladi Zardusht ta‘limotida, u avvalo yozishni o‘rganish bilan xulq-odobli bo‘lsin,

yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin»¹.

«Avesto» ajdodlarimizning axloqiy-estetik qomusi, qadimiy urfatlarimizning o'ziga xos, abadiyatga daxldor majmuyi sifatida qimmatlidir.

Qadimgi ajdodlarimiz axloqni odamni baxtga erishtiruvchi vosita deb bilganlar, uning aniq dunyoviy asoslarini topishga uringanlar. Ularning axloqiy ta'limotlari asosida O'zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma'naviy-axloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosini xilma-xil shakllardagi mulklar tashkil etayotgan bir vaqtda uni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash, insонning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlik tashkil etadi.

Axloq – oliv mavjudotga ato etilgan buyuk ne'mat. Shu bois o'zimiz-o'zimizni va iloji bo'lsa, o'zgalarni ham axloqiy tarbiyalash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Sharq axloq nazariyasini yuksak darajaga ko'targan qadimgi yunon sivilizatsiyasi jahonshumul ahamiyat kasb etadi. Yunonistonlik mutafakkirlar ilk bor inson shaxsini, inson xatti-harakatiga asoslangan niyatni tadqiq etishga va axloqiy qilmish muammolarini tushuntirishga urindilar.

Buyuk faylasuf Aflatun (e.a. 427 – 347 y.y.) axloqiy ta'limotida yaxshilik g'oyasi muhim ahamiyatga ega. Uning yaxshilik tamoyili tizimi o'zida me'yor, go'zallik va haqiqatni mujassam etgan. Uning axloqiy ta'limoti ruh orqali bayon qilinadi. Aflatunning fikricha, axloq manbayi inson tabiatida emas, balki insonga bog'liq bo'limgan abadiy ruhda. Ruh uch qismidan: aql, iroda, hissiyotdan tashkil topgan. Aql oliv fazilat bo'lgan donolikning asosi, iroda mardlikning manbayi, hissiyotni saqlay bilish fazilati aqlilikning asosidir.

Fazilat adolat bo'lib, unda donolik, mardlik mujassamlashgan. Aflatun real dunyoni yovuzlik manbai deb hisoblaydi va bu dunyoni haqiqiy dunyo emas, degan xulosa chiqaradi. Uning fikricha,

¹ Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida «Avesto» ning o'rni. T.: 2012. 51.

otikaning nazariy tayanchi inson ongi ruhlar (mangulik) olamida Xudoning doimiy nazoratida bo‘ladigan yagona «yxshilik» g‘oyasidir.



Aflatunning axloqiy ta’limotida yaxshilik g‘oyasi muhim ahamiyatga ega. Uning yaxshilik tamoyili tizimi o‘zida me’yor, go‘zallik va haqiqatni mujassam etgan.

Aflatunning qarashlarida estetika ham go‘zallik falsafasi, ham san’at falsafasi sifatida ta’riflanadi. Aflatun fikricha, nafosat manbayini avvalo g‘oyalar tashkil etadi. His-tuyg‘u beradi-gan barcha narsalarni abadiy, o‘zgarmas g‘o-

ya «yoritib turgan» dagina go‘zallik kashf etiladi. Uning fikricha go‘zallik o‘ta hissiyotli bo‘lgani tufayli uning mohiyatini his-tuyg‘u bilan emas, balki aql-idrok bilan anglash mumkin.

Insoniyatning ulug‘ allomalaridan biri bo‘lgan Arastu (e.a. 384 – 322 y.y.) o‘zi faoliyat ko‘rsatgan davrdagi axloqiy qarashlarni bir tizimga soldi, axloq tashnifini yaratdi. Arastuning «Siyosat» nomli asarida axloq muammolariga alohida o‘rin berilgan. O‘zining bu asarida u shunday yozadi: «Tabiat inson qo‘liga quroq, aqliy va axloqiy kuch bergen, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin. Shu sababli axloqiy tayanchlari bo‘limgan inson eng insofsiz va yovvoyi, o‘zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo‘lib qoladi».

Arastu etikasining asosida baxtga intilish yotadi, baxt esa kishining dono, adolatli, sog‘lom bo‘lishi bilan o‘lchanadi. Arastu axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Axloqiy fazilatlar tabiat tomonidan belgilanmaydi, balki inson unga o‘z faoliyati natijasida erishadi. Inson adolat bilan ish qilib adolatli bo‘ladi, qahramonlik qilib qahramon bo‘ladi.



Arastuning axloqiy qarashlari, asosan o‘g‘liga bag‘ishlangan «Nikomaxning axloq kitobi» va «Evdemning axloq kitobi» hamda «Katta axloq kitobi» risolalarida o‘z aksini topgan.

Arastu axloqqa siyosat bilan chambarchas bog‘liq, amaliy xarakterga ega bo‘lgan fan sifatida qaraydi. Inson uchun donolik, onglilik, faollik, aqlilik muhim ahamiyatga ega. Bu fazilatlarga ajdodlar tajribasi, bilimlarni o‘rganish nati-

jasida erishiladi.

Boshqacha qilib aytganda, tabiat axloqiy fazilatli bo‘lish imkoniyatini yaratadi, axloqiy fazilatlar inson faoliyatida namoyon bo‘ladi, ya’ni axloqiy fazilat xatti-harakat demakdir. Bunda tarbiyaning roli katta.

Arastu asosiy fazilatlarni tahlil etganda aqliy fazilatlarga alohida ahamiyat beradi, ammo axloqiy fazilatlarni aqliy fazilatlarga bo‘ysundirgan holda ifodalaydi.

Arastuning axloqiy ta’limotida adolatlilik fazilati muhim rol o‘ynaydi. Boshqalar haqida g‘amxo‘rlik qilish demakdir. Adolat tenglikdan iborat. Arastuning axloqiy ta’limoti quidorlik jamiyatini abadiylashtirishga xizmat qilganligini ham ayтиб o‘tish o‘rinlidir.

Ranj alam chekmay, huzurlanmay ezgu ishlarni amalga oshirish mumkin emas.

Arastu

Qadimgi yunon estetika nazariyasining cho‘qqisi va yakuni sifatida Arastu (m.a.384 – 322 y.y.) estetik ta’limoti katta ahamiyat kasb etadi. Arastuning fikricha, nafosat asosini moddiy

dunyodagi narsalar tashkil qiladi, nafosat ana shu narsalarning tartiblilik, muvofiqlilik, aniqlik, uyg‘unlik, yaxlitlik xossalardida namoyon bo‘ladi.

San‘at amaliyoti Arastu estetikasining hayotbaxsh manbayidir. Buyuk mutafakkir ana shu amaliyot bilan uzviy bog‘langan nazariy qoidalar yaratdi.

Insonning axloqiy hayoti shu oliy «yaxshilik» g‘oyasiga intilishdan iborat. Axloqiy qarashlar taraqqiyotiga qadimgi yunon faylasufi Epikur (e.a.341 – 270 y.y.) ham o‘ziga xos hissa qo‘shtgan.

Epikurning axloqiy ta’limoti hayotiy xarakterga ega bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Epikur inson xatti-harakatining asosiy maqsadi rohat-farog‘atga erishishdan iborat, deb hisoblaydi. Faylasufning axloqiy muammolar haqidagi fikrlarini dinga qarshi yo‘naltirilganligini ham aytib o‘tish joizdir. Epikur axloqni dindan ajratdi, «baxt» tushunchasini axloqning negizi, deb hisobladi, uni nodonlik bilan bog‘ladi. Uning fikricha, etika fanining asosiy vazifasi insonni oqilona orom olishga, mammunlikka erishishga, tabiiy va zaruriy istaklarni ongli ravishda o‘rganishdan iboratdir.

Epikur axloqiy ta’limoti inson shaxsining real olam mavjudoti, deb qaraganligi bilan muhimdir. Chunki dunyoviy baxt, shaxsning dunyoviy qadr-qimmati to‘g‘risidagi fikr, insonparvarlik tamoyili epikurizm qimmatini oshiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari axloqiy ta’limotlar taraqqiyoti tarixini o‘rganishda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz asarlari muhim o‘rin egallaydi.

Sharq mutafakkirlarining ijodida g‘arib va etimlarning ko‘ngliga ozor etkazmaslik, ularga mehr-shafqat ko‘rsatish, imkon qadar ularni moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanib, atrofdagilar ularga nisbatan muhabbatli, g‘amxo‘r bo‘lishga chaqiriladi.

O‘rtalarda boshqa Sharq mamlakatlarida ham ilg‘or axloqiy g‘oyalarni ilgari surgan donishmand mutafakkirlar etishib chiqdi. Ayniqsa, IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan va falsafaning yuksak darajada rivojlanishi uchun qulay tarixiy, ijtimoiy va siyosiy shart-sharoit vujudga keldi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafa, axloq sohasidagi nazariy merosi umuminsoniy madaniyatga muhim hissa bo‘lib qo‘shtidi.

Ularning falsafiy qarashlari taraqqiyoti, shuningdek, davlat, ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabatlari, axloqiy-estetik qarashlarning rivojlanishiga islom dini o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Allomalarning axloqiy ta’limotlarida inson eng buyuk oliy zot, deb

baholanadi. Bu mutafakkirlar hamma narsaning qadr-qimmatini insoniylik bilan belgiladilar va insonparvarlik g'oyalari axloqiy tizimda yuqori bosqichga ko'tarildi.



Sharqning bu-yuk mutafakkiri Abu Nasr Muhammad Tarxon Forobi (873–950 y.y.) o'z davrining ilg'or g'oyalarini ifodalab, ijtimoiy - falsafiy fikrning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. 160 dan ortiq asar muallifi Forobiyning 40ta asari saqlanib qolgan.

Forobiy Arastuning falsafiy qarashlarini churqur o'zlashtirib, uni tar-g'ib qiladi. Masalan, Arastuning axloqiy ta'lilotini sharhlab, shunday yozadi: «Oliy farog'at faqat bu dunyoda bo'lib, baxtni bu dunyodan tash-qarida bor, deb hisoblanadigan barcha narsa aqlsizlikdir».

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Fozil odamlar shahri» va boshqa asarlarida ijtimoiy hayat masalalari bilan birga, fozil shaharda yashovchi xalqning axloqiy me'yorlari, munosabatlari va xulq qoidalalarini batatsil bayon etadi. Forobiy inson va jamiyatni ta'riflashda evdemonizm nuqtayi nazaridan turib, fikr yurtladi. Aql va axloqning o'zaro aloqadorligi tamoyiliga amal qiladi.

Faylasuf axloq me'yorlarini aqllilik bilan bog'laydi. Uningcha, aqli inson har tomonlama, jumladan, axloqan mukammal bo'ladi. Inson kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganda aqliy bilishga ham harakat qilmog'i lozim. Shundagina u ezgu niyatiga, ya'ni baxtsaodatga erishadi.

Yaxshi fazilatga ega bo'lmoq uchun barcha ijobjiy sifatlarni inson o'zida mujassamlashtirmog'i lozim. Xususan, inson jismoniy, axloqiy va aqliy jimhatdan mukammal bo'lmosh'i, ya'ni idrokli, ziyrak, bilimdon, yaxshi muomalali, pok, adolatli, insonparvar, qo'li ochiq, o'z harakati va fikrida qat'iy, jasur, qo'rqish va ojizlikni bilmaydigan bo'lishi kerak.

Bularning barchasiga bilim orqali erishiladi. Forobiy insoniy fazilatlarni ikkiga bo'ladi, ya'ni nazariy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar) fazilatlari. Inson bu fazilatlar yordamida baxt-saodatga erishadi.

Forobiyning fikricha, donolik bu baxt haqida bilim beradigan fazilat, mulohazalilik va baxt-saodatga erishish haqida bilim fazilatidir. Forobiy fazilat haqida ham fikr yuritib, u ezgulikka duxldor bo‘lishdan vujudga keladigan mehr-oqibat tufayli hosil bo‘ladi, deb ta’kidlaydi. Ushbu fikrlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, kelajak sari dadil qadamlar bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Har bir kishi o‘zining kelajagini buyuk bir maqsad shaklida bashorat va tasavvur qila olmasa, uning bunyodkorlik faoliyati susayadi hamda asta-sekin o‘z qiyofasini yo‘qota boshlaydi. Forobiyning fikricha, insoniy vujuddan maqsad – eng oliy baxt-saodatga erishuvdir, avvalo bu baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o‘ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog‘i lozim bo‘ladi. Demak, baxtni qo‘lga kiritish uchun inson faol, tashabbuskor bo‘lishi kerak. Forobiyning fikricha baxt-saodatga ilm-ma’rifat orqali erishiladi, chunki u olamning mohiyati, mazmuni haqida to‘liq, mukammal bilim, kasb-hunar egallash uchun muhimdir, deb ta’kidlaydi.

Forobiy insonning kamolotga erishuvida ta’lim-tarbiya niyatda zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. U insonning ma’naviy hayotida ongllilik va axloqiyilikka e’tibor beradi. Forobiy inson axloqini bir butun holda uning faoliyatini belgilashda mezondir, ya’ni insonning ma’naviy boyligi, mazmuni uning axloqiy harakatlarida namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida»gi risolasida inson go‘zallikni samarali idrok etishi uchun unda nozik tabiat va aqliy mukammallik zamini bo‘lishi kerak, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan insongina dunyoning barcha sirlarini bila olishi mumkin, deb ta’kidlaydi. Inson aql-idroki tufayli haqiqiy insonga aylanadi, bilim insonga baxt va shodlik keltiradi, inson bilish orqali o‘zida go‘zallik va mukammallikni kashf etadi, deb uqtiradi. Forobiy odamlarni ilm bilan, san’at bilan shug‘ullanishga da’vat etadi va shu tufayli go‘zal narsalar tushunarli narsaga aylanadi, deb ko‘rsatadi.

Forobiy insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashida, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqa san’atining o‘rnini alohida

ta'kidlaydi. Uning fikricha, san'atning barcha turlari bir-biridan farq qiladi: nazm san'ati so'z bilan, tasviriylar san'at esa bo'yoqlar bilan ish ko'radi, lekin ular insonga bir xil ta'sir ko'rsatadi. U Arastu izidan borib bu san'atlarning har ikkalasi taqlid qilish yordamida kishilarning tasavvuriga va hissiyotiga ta'sir ko'rsatishini maqsad qilib qo'yadi, deb ta'kidlaydi.



O'rta asr m-daniyatining buyuk vakillari dan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973 – 1048 y.y.) ilmiy merosida ilg'or axloqiy fikrlar yanada rivojlantirildi.

Beruniy ta'lilotida axloqning mohiyati kishilarning tur mush tarzi bilan bog'lab qaraladi. Beruniy axloqning mazmunini ijtimoiy hodisalar, kishilarning moddiy ehtiyoji va manfaatlari bilan bog'lagan holda tushuntirishga harakat qiladi.

Uning fikricha, inson

ongga ega bo'lganligi,

tafakkur qudrati sohibi sifatida unga mamlakatni obod qilishga va tartibot o'rnatish buyurilgan. Shuning uchun u o'z asarlarida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi.

Beruniyning axloqiy ta'lilotida rostgo'ylik bilan adolat bir xil qiymatga ega bo'lgan tushunchalar sifatida qaraladi. Yolg'onchilik, yovuzlik kishini adolatdan yuz o'girtiradi, zulm, omonatga xiyonat qilish xalqning buzilishiga sabab bo'lib, yomon xulqlar sanaladi. Inson o'zining dunyosini tarbiyalab borib, nafsini yomon xulqlardan tozalab, axloqiy davolash bilan kamolotga erishadi va salbiy xulqlardan holi bo'ladi. Xulqni yangilash insonning o'ziga bog'liq bo'lsada, sharoit bilan ham belgilanadi.

Beruniy insonning baxti bilim va ma'rifikatda, deb biladi. U insonning ezguligi va uning oljanob axloqiy fazilatlarini madh etish bilan birga insondagi salbiy illatlarni qoralaydi. U hayotning ma'nosi masalasida ijodiy mehnat va yaxshilikni asos, deb hisoblaydi. Mehnat xayotda iz qoldiradi, uning mevasidan avlodlar foydalanadi. Shu bilan birga u zo'ravonlik, majburiy mehnatni qoralaydi, erkin mehnatni sharaflaydi.



Axloqiy ta'-limotlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sino (980 – 1037 y.y.) edi. Ibn Sinoning axloqiy ta'limoti asosan «Axloq ilmiga doir risola», «Burch to'g'risida risola», «Nafsn po-kiza tutish to'g'risida risola», «Adolat haqida kitob», «Turar joylardagi tad-birlar» singari asarlarida bayon etilgan.

Ibn Sinoning ijodiy faoliyatida axloqiy masalalar katta o'rin egallaydi. Bu muammolarga mualim o'zining «Axloq», «Axloq fani», «Oila qurilishi» va boshqa asarlarida katta o'rin beradi. Uning axloqiy ta'limoti ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalardan kelib chiqdi. Ibn Sinoning fikricha, axloqshunoslik yaxshilikni yomonlikdan ajratadigan va kishining baxtli bo'lishi uchun

sharoit ta'minlab beradigan fandir. U axloq tamoyiligiga yaxshilik va yomonlik, aqlilik, lazzat, donolik, saxiylik, sevgi-muhabbat, kamtarlik, azob-uqubat, sadoqat, intilish va boshqalarni kiritadi.

Insoniy adolat inson xatti-harakatining eng muhim bezagidir. Uningcha, adolat ruhiy lazzatning bosh o'lchovidir. Adolat odamning uch istagi sabr, jasurlik, donolik bilan paydo bo'ladi. Agar inson bu fazilatga ega bo'lsa, u o'zini saqlay oladi, yaxshilikni o'zida mustahkamlab, haqiqiy ruhiy lazzatga erishadi. Demak, adolat yaxshilik bilan yomonlikning mezoni.

Ibn Sino insonning yaxshi axloqiy fazilatlariga kishilarning yomon xulq va xatti-harakatlarini qarshi qo'yadi. U insonning salbiy nuqsonlariga aldash, nafrat, zaiflik, adovat, o'ch olish, bo'xtan, irodasizlik kabi yomon xislatlarni kiritadi. Mutafakkir insonning nuqsonlaridan biri ishiga qarama-qarshi bo'lgan johillikdir, deb ta'kidlaydi. Bu bilan xudbinlik va munofiqlikni qoralaydi, haqiqiy do'stlarni soxta do'stlardan farqlashga chaqiradi. «Yaxshi do'st, deydi u, kishining hamma yaxshi va yomon sifatlarini aks ettiruvchi oynadir. Yaxshi do'st o'z vaqtida butun nuqsonlarni ko'rsatadi, maslahat va xatti-harakati bilan bu kamchiliklarni yo'qotishga yordam beradi. Rostgo'ylik, sadoqat, pok muhabbat, iroda makr,

yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi, ikkiyuzlamachilik, faqat o‘z foydasini ko‘zlab do‘splashish yomonlikdir».

Ibn Sino axloqiy ta’limotining muhim tomonlaridan biri bolalar ta’lim-tarbiyasi masalasidir. U tarbiya kishilarning axloqiy fazilatlari rivojlanishida muhim rol o‘ynashini alohida ta’kidlab, tarbiyaning asosiy maqsadi bolaga yaxshi axloqiy fazilatlarni singdirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyada jamoaning roli kattadir.

Ibn Sino yosh avlodni tarbiyalash oila va davlatning muhim vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, jamiyatning xo‘jalik va madaniy yutuqlari bevosita ma‘lumotli, madaniyatli kishilarning o‘sishiga bog‘liq, deb e’tirof etadi, «barcha bilimlarga ega narsalar mukammallikka moyildir» deb ta’lim beradi. «Mukammallik» atamasida u insonning ichki go‘zalligi va ezungulikka intilishini ifodalaydi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari uning ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa g‘oyalarining negizini tashkil etadi. Mutafakkir fikricha, odam kimligidan (hokim yoki oddiy kishi bo‘lishidan) qat’iy nazar inson bo‘lishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylikkina abadul-abad qoladi. Shu sababli o‘z nomining hamisha yaxshilik bilan eslanishini istagan kishi faqat yaxshilik qilishi lozim. Mutafakkir insoniylik deganda oljanob fazilatlarga ega axloqiy barkamollikni nazarda tutadi. Zero, axloqiy kamolot – insonning butun hayoti va faoliyatining birlamchi asosidir. U jumladan, shunday deb yozgan edi: «Kimning odobi yaxshi va axloqi to‘g‘ri bo‘lsa, u kishi maqsadiga etadi va baxt unga kulib boqadi», chunki «yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir».

Yusuf Xos Hojibning fikricha, o‘zini kamtarona, muruvvatli qilib tutadigan kishigagina baxt kulib boqadi. Kalondimog‘, manmanlikka berilgan, maqtanchoq kishidan hamma yuz o‘giradi, bunday yomon xislatlar yaxshi odobli kishilarni o‘zidan yiroqlashtiradi. Haqiqiy inson bo‘lg‘usi avlodlar uni yuksak axloq-odobli kishi deb eslashlari uchun, o‘zidan keyin yaxshi nom qolishiga hamisha harakat qiladi. Shu sababli deb ta’lim beradi u, – agar kishi obro‘-e’tiborli bo‘lishni istasa, uning ko‘ngli ochiq, qiyofasi va so‘zлари ma’noli hamda yoqimli bo‘lmog‘i lozim. Mutafakkir inson kamolotga etishi uchun mazkur xislatlardan tashqari yana sabotli, chidamli va sabr-toqatli bo‘lishi darkorligini

ta'kidlaydi. Inson har taraflama layoqatli bo'lishi zarur, ana o'shandagina uning uchun hayot yanada yaxshiroq va xushchaqchaqroq bo'ladi, baxt unga hamisha yor bo'ladi.

Yusuf Xos Hojib (XI asr) o'z asarlarida etimlik va etimlarga munosabat masalasini yoritar ekan, «qashshoq, etimlarga mehribon ko'ngil» bo'lish eng yuksak insoniy sifatlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Bu toifa kishilarga mushkul vaziyatlarda yordam ko'rsatish, ularning ko'nglini ko'tarish oliyanoblik ekanligini uqtiradi. Allomaning fikricha, qashshoq va etimlarga mehr-shafqat ko'satish, mehribonlik qilish «chin adolat»ning yorqin ko'rinishi ekanligini aytadi

Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiya – bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy omil ekanligini, mabodo bolalarning xulq-atvori yomon bo'lsa, bunga bola emas, ota aybdor ekanligini, ota o'z farzandini aqli va fahmli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsa, u bolani doimo diqqat-e'tibor ostida tutishi lozimligini ta'kidlaydi. Mutafakkir o'z bolalarini ortiqcha erkalatib, bu bilan ularning kelgusida noloyiq xatti-harakatlar qilishiga to'g'ridan-to'g'ri aybdor bo'ladigan ota-onalarni qattiq qoralaydi va kimki o'g'il yoki qizini taltaytirib yuborgan bo'lsa, buning uchun u axiyri qattiq yig'lashini aytadi.

Mutafakkirning fikricha, bolalarni hunar va bilimga o'rgatish ularning axloq-odobini tarbiyalashning asosidir. Shuning uchun ham otaning eng birinchi burchi o'z bolasiga zarur bilimni berish va uni hunarga o'rgatishdir. U •bola odobli bo'lishi, uy vazifalarini sarishtalik bilan o'z vaqtida bajarishi uchun uni go'dakligidanoq tarbiyalamoq lozim, deb ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning bunday qarashlari o'z davri odobnomasi, axloqiy qarashlarining yorqin namunasi sifatida O'rta Osiyoda ilg'or fikrlarning rivojlanishida katta rol o'ynagan.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur va temuriylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarning faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular qoldirgan

ma'naviy meros necha-necha avlodlarni ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Amir Temur (1336 – 1405-y.y.) millatimiz tarixida munosib o'rin egallaydi. Amir Temur harbiy sohada jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lish bilan birga, uning Movarounnahrda markazlashgan va qudratli davlat barpo etilishi hamda bu yerda tinchlik, osoyishtalikning ta'minlanishi bunga asosdir.



Sohibqironning ma'naviy-axloqiy qarashlari uning «Temur tuzuklari»da mujassamlangan. Mazkur asarda Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

Amir Temur davlatni boshqarlshda o'zi uchun asosiy g'oya sifatida «Kuch adolatda» amaliga rioya qilganligi uchun har ishda insoniy, axloqiy fazilatlarni, kuchli iymonni birinchi o'ringa qo'ygan. Sohibqiron Amir Temur davrida Markaziy Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi, ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaq topdi.

Temuriylar davrining ko'zga ko'ringan allomalaridan biri – Husayn Voiz Koshifiy (1440 – 1505-y.y.). Uning dunyoqarashida axloqshunoslik muammolari muhim o'rinni egallaydi. Koshifiy «Axloqi Muhsiniy» asarida axloqshunoslikni maxsus fan tarmog'i sifatida tan olib, uning vazifalarini belgilab beradi. Uningcha, axloqshunoslik ko'proq amaliy fanlar turkumiga kirib, uning asosiy vazifasi yaxshi fazilatlarni kasb qilishdan iborat. Koshifiy axloqni kishilar o'rtasidagi munosabatlar va ularning kundalik turmushidan qidiradi.

Sohibqironning ma'naviy-axloqiy qarashlari uning «Temur tuzuklari»da mujassamlangan. Mazkur asarda Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, davlatning siyosiy

Koshifiy bolalarni yoshlikdan boshlab ularning qobiliyatiga qarab muayyan kasb-hunarga o'rgatish lozim, deb hisoblaydi. Agar bola biror kasbga qiziqish bildirsa, unga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berish kerak. U shaxsning axloqiy kamolotida yaxshi fazilatlarni egallashi lozimligi masalasiga keng to'xtaladi.

Ma'lumki, eng muhim axloqiy tushunchalardan biri adolatdir. Koshifiy adolatni keng ma'noda tushunadi, uni insonning axloqiy malakalarini yuksak shakli sifatida talqin qiladi. Agar adolat mutlaq fazilat bo'lsa, insonning boshqa xususiyatlari uning xizmatkori hisoblanadi. Uningcha «adolat – eng yaxshi fazilat bo'lsa, adolatsizlik esa eng tuban va yaramas illatdir».

Koshifiy yaxshilik va yomonlik haqida ham o'z fikrini bildirgan. Uning tushunchalari juda keng ma'noni anglatadi. Sharq imutafakkirlari ular orqali kishilarning xulq-odobi, yurish turishi va xatti-harakatini baholaganlar.

Koshifiy ham Navoiy singari kishilarni yaxshi va yomonga ajratadi va besh guruhga bo'ladi. Birinchi guruh kishilari shunday kishilarki, ular o'z tabiatи va kelib chiqishiga ko'ra yaxshi kishilar bo'lib, doimo xayrli ishlar bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun ularni qo'llab-quvvatlash zarur. Ikkinci guruhdagilar o'ziga yaxshilikni ravo ko'rib, boshqalarga nafi tegmaydi. Bunday odamlarni ham qadrlab, ularni xayrli ishlar qilishga undash kerak. Uchinchi guruhga kiruvchi odamlar jamiyatga na foyda, na ziyon keltiradilar, ya'ni ular tabiatiga ko'ra na yaxshi va na yomondirlar. Ularni ham yaxshi ishlar qilishga, yomonlikdan qochishga chorlash lozim. Lekin to'rtinchi guruhga kiruvchilar, garchi ular yomonlik qilmasa-da, tanbeh berishga loyiq odamlar hisoblanadi. Ularni yomonlikdan tiyilishiga da'vat qilish zarur. Besinchi guruhdagilar yomon va axloqsiz odamlar bo'lib, jamiyatga faqat ziyon keltiradilar. Ularga nisbatan jazo choralarini qo'llash va ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish lozim.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat arbobi sifatida ham o'chmas nom qoldirdi.

O'sha davr ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy va estetik qarashlari takomilida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530 y.y.) hayoti va faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.



Temuriylar sulolasining vakili shoh va shoir Bobur Mirzoning millatimiz oldidagi xizmatlari beqiyosdir.

chambarchas bog'liq holda talqin etadi. U har qanday kimsani emas, balki haqiqiy insonni qadrlaydi, uning mehnat faoliyati va xulq-atvorini madh etadi. Shoir kishilarning tashqi ko'rinishlari ularning ichki dunyosini ifodalashini yaxshi anglaydi va bunda tasvirga alohida e'tibor beradi. «Boburnoma» asarida 80 dan ortiq shaxsning nomi tilga olinib, 50 dan ortiq zamondoshi xulq-odobi, insoniyligi, nasabi, kasbi, ijodi va fanga qo'shgan hissasi haqida to'xtaladi, ularga adolatli baho beradi, o'z munosabatini bildiradi.

Sharq xalqlari tarbiya nazariyasida kishi xulqini belgilovchi bir qancha mezonlar mavjud. Shulardan biri jamoat orasida yoshi ulug', mansabdar, ilmli va hurmatli shaxslar oldida o'zini qanday tuta bilishiga qarab baholash alohida o'rin tutgan.

Bobur ijodida vatanparvarlik tuyg'usi yetakchi o'rinni egalaydi. U Vatanga muhabbat va sadoqat shaxsning vatanparvarligi, yetukligi, milliy iftixori kabi fazilatlarida aks etishini ta'kidlaydi. Yuksak badiiy did, chin insoniy axloq sohibi bo'lgan Bobur qaysi shaharda, qaysi davlatda bo'lmasin, xalqlar o'rtasida vatanparvarlikni keng targ'ib etadi.

Serjilo o'zbek tilida yozilgan, Mavarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlarining tarixi yoritilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning buyuk tarixnavis, axloqshunos olimlari qatoridan joy oldi.

Boburning ijtimoiy-axloqiy qarashlari uning «Boburnoma» asarida aks ettirilgan. U kishilar xulqini uning faoliyati bilan



Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub» («Ko'ngillarning kaliti»), «Lison ut-tayr» («Qush tili») kabi asarlar olamshumul manba sifatida xizmat qiladi.

Yoshlarda shargona axloq-odob madaniyatini tarbiyalashda islam dini alohida o'rinn tutadi. «Islam dini, — deydi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov, — bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham

iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar». ¹

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy jamoat arbobi sifatida madrasalarni buniyod etishdagagi xizmatlari e'tirof etilar ekan, mazkur madrasalar yonida etim bolalar uchun ham maktablar ochganligini aytib o'tish joiz. Alloma bu toifa bolalarning nafaqat ta'lim olishlari uchun sharoitni yaratibgina qolmay, shu bilan birga ularni o'z hisobidan kiyim-kechak, oziq-ovqat va o'quv manbalari (kitoblar va yozuv qurollari) bilan ham ta'minlagan.

Islam dini ming-yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq, u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda. Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarini engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan.

¹ Karimov I.A. «Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir». 3-jild, «O'zbekiston», Toshkent, 1996, 40-bet.

Al-Buxoriy to‘plamida insonlarning bir-biriga mehribon, bir-birlariga ko‘makedosh bo‘lishlari, og‘ir kunlarda elkadosh bo‘lishlari, bir-birlariga nisbatan fisqu-fasod qilmashlik, fitnakor bo‘lmaslik, gunoh qilmashlik, munofiq bo‘lmaslik haqidagi hadislar tarbiya ishida alohida o‘rin tutadi. Quyidagi hadislar bu fikrimizning dalilidir:

Imom al-Buxoriy o‘zining «Al-Jomi’ as-sahih», «Al-Adab al-mufrad», «Kitob alkuna» kabi yigirmadan ortiq asarlari orqali insonning yuksak fazilatlari to‘g‘risidagi eng ilg‘or qarashlarni ilgari surgan.



– qo‘li bilan va tili bilan o‘zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir;

– o‘zi yaxshi ko‘rgan narsani birodariga ravo ko‘rmoqlig iymondandir;

– fitnadan hazar qilmoq dindandir;

– hayo iymondandir;

– omonatga xiyonat qilmoqlig yolg‘on so‘zlash, so‘zida turmaslik, kek saqlashlik, nohaqliq qilish munofiqlikning alomatlaridir.

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatları o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘slik, o‘rtoqlik, mehmondo‘slik, odamgarchilik, inson-parvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomalilik, jamoa ichida o‘zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamllilik, oilaparvarlik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ota-onva kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insofllilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrash, vatanparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O‘zbeklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarning o‘ziga xos sharqona axloqiy fazilatlari, ota-onva,

Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so‘nmas e’tiqod timsolidir.

I.A.Karimov

tarzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog'liq ma'naviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

Kattalarga, ota-onalarga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy-ma'naviy fazilatlari-miz hamisha barqaror. Chunki bu ma'naviy xislatlar avloddan-avlodga o'tib qon-qonimizga singib ketgan. Millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

«Tarbiya, – degan edi Abdulla Avloniy, – bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».¹

Bu fikrlarning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo'q. O'zbek millati faqat milliy-ma'naviy kamolot orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy buzilishning oldini olishi mumkin.

Milliy tarbiya – u yoki bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyati, merosi, qadriyatları, urf-odatlari, an'analarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir.

Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va insoniylikni yuksaltirish, fan, texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishni rivojlantirish, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insof-diyonat, urf-odat, qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib etish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

Milliy tarbiyaning yana bir yo'nalishini ota-on, qarindosh-urug'larning hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o'zga millatlar va elatlar vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizning ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik,

¹ «Vatan va millat muqaddasidir» (Milliy uyg'onish davri ijodkorlarining e'tiroflari). Toshkent. «Ma'naviyat», 2000, 43-bet.

oqko‘ngillilik xususiyatlari haqida uzoq gapirish mumkin. Hech birimizni xalqimizga xos ana shunday fazilatlar tark etishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobjiy ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham doim qadimiy va navqiron bo‘lib turaveradi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda g‘amxo‘rlik qilish kabi ma’naviy mas’uliyat o‘z ahamiyatini doimo saqlab qolaveradi.

Adolat, tenglik, ahil qo‘sniichilik kabi ma’naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do’stlik, halollik, vatanparvarlik singari fazilatlar umuminsoniy ma’naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi.

O‘zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynal-minalchilik ham umuminsoniy ma’naviyat tizimidan o‘rin olgan.

O‘z taraqqiyoti uchun har bir millatning umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruriyatdir. Busiz zamonaviy ilg‘or millat haqida orzu qilish mumkin emas. Umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig‘idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko‘rish va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma’naviyat bo‘lmasa, umuminsoniy ma’naviyat bo‘lmaydi, umuminsoniy ma’naviyatsiz esa hozirgi zamon ilg‘or millati bo‘lmaydi. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma’naviyatning yaratuvchilaridir.

Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida: «Milliy madaniyatning o‘ziga xosligini tiklashga alohida e’tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o‘z-o‘zini anglashning tiklanishi va jahon inson-parvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatлari, ideallaridan, bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an‘analaridan ajralib qolish

mumkin emas»,¹ – deb ta’kidlagan edi. Mustaqillikni mustah-kamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma’naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan toydalanish negizida ko‘rmog‘imiz lozim.

Axloqiy kodekslar, qoidalar va me’yorlarning kelib chiqish turixiga nazar tashlasak, kasbiy axloqlar tizimi borligining guvohi bo‘lamiz. Kasbiy axloqiy me’yorlar zaminida kasbning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab, uning sharoitlari, nizom va qoidalari hamda jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti mujassamlangan.

Kasbiy axloq umuminsoniy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Unda umuminsoniy axloq me’yorlari va qoidalariiga tayangan holda insonlarning turli ijtimoiy sohalardagi faoliyati namoyon bo‘ladi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. *Axloq tushunchasi qachon paydo bo‘lgan?*

2. *Ijtimoiy ish sohasida axloq tushunchasining tutgan o‘rnini qanday baholaysiz?*

3. *Yunon mutafakkirlari axloqiy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*

4. *Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida axloq tushunchasining asoslanganligini qanday baholaysiz?*

¹ Karimov I.A. «O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-jild. «O‘zbekiston», Toshkent, 1996. 81-82-betlar.

Test savollari

1. Ma'naviy fazilatlarning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni masalasi Sharq mutafakkirlari ijodida o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Qaysi Sharq mutafakkiri insonda va jamiyatda fazilatni hamma narsadan yuqori qo'yadi va uni asosan axloqiy kategoriylar bilan bog'laydi?

- A) Konfutsiy
- B) Abu Nasr Forobiy
- C) Ibn Sino
- D) Alisher Navoiy

2. Men-Szi insonda ezgulik nechta fazilat orqali amalga oshishini ta'kidlab, ularning asosini bilim tashkil qiladi deb hisoblaydi?

- A) 4
- B) 5
- C) 3
- D) 2

3. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida shahar hokimi oqil bo'lib, u tabiatan nechta xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarurligini ta'kidlab o'tgan?

- A) 12
- B) 10
- C) 8
- D) 6

4. «Ma'naviy fazilatlar tabaqaga qarab, ya'ni faylasufda donishmandlik fazilati, hunarmandda mo'tadillik, jangchida esa qahramonlik va botirlik namoyon bo'ladi» – degan fikr muallifini ko'rsating.

- A) Platon
- B) Konfutsiy
- C) Forobiy
- D) Suqrot

5. Ijtimoiy ish xodimlarning muhim kasbiy sifatlarini o'rgangan olimni ko'rsating.

- A) A.Kalyujniy

B) Meri Richmond

D) Grem Teylor

E) Jeyn Adams

6. Ma'naviy fazilatlar nimalar bilan bog'liq?

A) Barcha javoblar to'g'ri

B) insonning ma'naviy qiyofasi

D) ijtimoiy hayot

E) ong va munosabatlar

7. Alisher Navoiyning qaysi asarida komil insonga xos xususiyatlar, ularning sharqona fazilatlari kabi sifatlar keltirib o'tilgan?

A) «Nasoyim ul muhabbat»

B) «Xamsa»

D) «Lison ut-tayr»

E) «Mahbub ul-qulub»

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Т.: O‘zbekiston, 2010.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Т.: O‘zbekiston, 2008.
3. Ganiyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Toshkent. 2012-y.
4. Uvatov U. O‘zbekiston – buyuk allomalar yurti. – Т.: Ma’naviyat. 2010.
5. Антология социальной работы. История социальной помощи в России / Сост. М.В.Фирсов. –М.: Сварогъ-ИВФСПТ, 1994.Т.1.
6. Барнз Дж.Г. Социальная работа с семьями в Англии. –М.: Центр общественных ценностей, 1993.
7. Бербешкина З.А. Этика социального работника // Теория и практика социальной работы: проблемы, прогнозы, технологии: Сб. –М.: РГСИ. 1992.
8. Василева-Гангнус Л. Правила этикета: Краткий справ. – М.: Делта МКС, 1992.
9. Государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования / Госкомитет Российской Федерации по высшему образованию. –М., 1995.
10. Медведева Г.А. Этика социальной работы. –М., 2000.
11. Пинкус А., Минахан А. Практика социальной работы (формы и методы). –М.: Союз, 1993.
12. Профессионально-этические нормы социальной работы. –М: Социальное здоровье России, 1993.
13. Этические основы социальной работы // Теория и методика социальной работы (краткий курс). –М.: Союз, 1994.

IV bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING MA'NAVIY FAZILATLARINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Reja:

4.1 Ijtimoiy ish sohasida ma'naviy fazilatlar tushunchasi va mohiyati.

4.2 Ma'naviy fazilatlarning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni. Ijtimoiy ish xodimining ma'naviy fazilatlari.

4.3 Vatanparvarlik, mas'uliyat, kasbiy komponentlik va boshqaruv madaniyatiga egalik ijtimoiy ish xodimlarining muhim ma'naviy fazilatlari sifatida.

Buyuk mutafakkir Arastu – «insonning ma'naviy fazilatlari, bir tomonidan butun jamiyatga, ikkinchi tomondan insonning o'ziga foyda va lazzat keltiruvchi faoliyatida shakllanadi» – deb o'rini ta'kidlaydi. Ya'ni, ijtimoiy foydali faoliyat inson ma'naviyati shakllanishning asosiy poydevorlaridan biridir.

Azaldan mutafakkir olimlar inson ma'naviy fazilatlarini takomillashuvida ta'lim masalasiga alohida e'tiborni qaratganlar. Jumladan, eramizdan avval 372–289-yillar davomida ijod etgan xitoylik faylasuf olim Men-Szi inson ma'naviyatini shakllantirish masalasini tarbiya bilan bog'liq holda talqin etgan¹.

Ta'kidlash joizki, buyuk alloma Abu Nasr Forobi, haqiqiy hukmdor rahbar jamiyat va davlat manfaatini o'z shaxsiy manfaat va maqsadlaridan ustun qo'ya olishi, ya'ni «fozil mujohid o'z jonini shahar manfaati yo'lida tika olishi» zarurligini ta'kidlab o'tgan². O'z davrida yashab o'tgan buyuk sarkarda Amir Temur vazirlar, amirlar, devonbegi, viloyatlardagi devonlarni, beklarni tanlash va joy-joyiga

¹ Tulenova G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Falsafa fan. dok...avtoref. dis. -- T.: 2006. -- B. 14-15.

² Forobi Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -- T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -- B. 41-42.

qo'yishda ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, sabr-toqtatlilik, tinchliksevarlik, adolatparvarlik fazilatlariga, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish fazilatlariga katta e'tibor bergan. U davlat hokimiyatini «zo'ravonlik bilan emas, balki o'z hukmining ta'sirchanligi va adolat bilan boshqarish»ga rioxva qilgan¹.

Ijtimoiy ish xodimlarida ma'naviy fazilatlarning shakllanishing o'zagida o'z - o'zini tarbiya qilishga intilish yotishi darkor. Aytish lozimki, tabiatiga ko'ra o'z - o'zini tarbiya qilish bu ijtimoiy jarayondir. Bu asosan ijtimoiy munosabatlarda o'zini anglaydigan shaxslarga taalluqlidir. Ijtimoiy ish xodimlari o'z - o'zini tarbiya qilish bilan shug'ullanishi, ularning ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishga imkon beruvchi fazilatlarga ega bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishga zamin yaratadi. Shuningdek, o'z - o'zini tarbiya qilishda ijtimoiy ish xodimlari o'zlarining yutuqlari va kamchiliklarini obyektiv baholab, keyinchalik ushbu kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha o'ziga dastur yaratishi mumkin bo'ladi. Alovida shuni qayd etish lozimki, ijtimoiy ishchilarining ma'naviy fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha o'z - o'zini tarbiya qilishining dastlabki bosqichi bo'lib, o'zini anglash, ya'ni qanchalik darajada mazkur fazilatlar shakllanganligini ongli ravishda tushunib etishi lozimdir. O'zini anglash ijtimoiy ish xodimlariga ma'naviy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha o'zining oldiga vazifalar belgilab olishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy ish xodimlari o'zining fazilatlarini mukammallashtirish bo'yicha qilinadigan xatti-harakatlar modelini yaratishga turtki bo'lib, uni doimo o'zining ustida ish olib borishga chorlaydi.

Insonning tom ma'nodagi ijtimoiy qiyofasi uning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi, egallashi hamda unga amal qilishi bilan belgilanadi². Shu o'rinda bir qator tadqiqotchilar ma'naviy mezonnarni umumiy tarzda quyidagicha belgilab olishgan: erkin, mustaqil fikrlash; o'zgalar fikrini e'tiborga olish; bilimli, irodali, axloqli, jamoatparvar, yurtga sadoqatli bo'lish; o'z kasbini

¹ Muqimov Z. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinci to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – B. 76.

² Normurodov B.N. Hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va amaliyoti. Samarqand. 2006. – B. 3.

hevish; voqeа hodisalarga munosabat bildirish; jamiyat ishida faol ishtirok etish¹.

Shunday qilib, ijtimoiy xizmatchilarning ma'naviy fazilatlari shakllanishida yetakchi o'rин, ularning faoliyati va xulq - atvorini usosiy tartibga soluvchisi va ijtimoiy xizmatchilarning g'oyaviy yuksakligi va e'tiqodini ifodalovchi axloq komponentiga tegishli bo'ladi. Ijtimoiy ish xodimlarining ma'naviy fazilatlari muayyan sharoitlar yordamida shakllanib, mazkur jarayonga turli xil omillar ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida ijtimoiy ish xodimlarining ma'naviy fazilatlari nafaqat kasbiy faoliyat davomida, balki kundalik turmush tarzida ham namoyon bo'lib, uning jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs sifatida inson ekanligini ifodalaydi.

Insoniyatning qadimiy tarixi, ijtimoiy himoya va o'zaro ijtimoiy yordam o'sha moziyning qabila-urug'chilik aloqalariga asoslanuvchi ibridoiy jamoa tuzumi davridayoq ijtimoiy o'zaro ko'mak ko'rsatish, qariyalar, bolalar, nogironlar haqida g'amho'rlik ko'rsatish axloqiy qadriyat sifatida shakllangani va rivojlanib borganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ijtimoiy himoya g'oyalari diniy ta'limotlar va aqidalar tarzida o'z ifodasini topdi hamda asosan diniy qadriyatlar sifatida amalga oshirilib kelindi. Ammo, shu bilan birga o'zaro ijtimoiy ko'mak ko'rsatish axloqiy tafakkurning muhim elementi sifatida xalq ongida ham chuqr joylashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehr-muruvvat g'oyalarini takomillashib borishi va ro'yobga chiqarilishiga islom dini, uning umuminsoniy ta'limotlari juda katta hissa qo'shib kelmoqda. Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo insонning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi

¹ Qarshiyeva G. Ma'naviy yetuklik // Jamiyat va boshqaruv, 2006, maxsus son. – B. 79-80.

va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi¹.

Mehr-muruvvat va sahovat g'oyalari, muhtoj va nogironlarga mehr-shafqat ko'rsatish eng asosiy insoniy burchlardan ekanligi dunyo dinlaridan bo'lmish xristianlik, iudizm, musulmon dini, buddizm dinlarining bosh g'oyalari, asosiy harakatlantiruvchi kuchlarini tashkil etadi.

Ma'naviy fazilatlarning inson va jamiyat hayotidagi o'rni masalalari azaldan mutafakkirlarning e'tiborini jalb etib, uning turli jihatlari Sharq mutafakkirlari Konfutsiy, Men-Szi, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning ijodlarida o'z aksini topgan².

Ma'naviy fazilatlar va uning shaxs hayotidagi o'rni masalalari hozirgi kunda ham faylasuf, psixolog, sotsiolog, pedagog, siyosatshunos olimlarning diqqat markazida turib, muammoning turli jihatlari ushbu fanlar doirasida o'rganilmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov tomonidan aytib o'tilgan nutq va yozilgan asarlarida, ma'naviyat, uning inson hayotidagi o'rni hamda rahbarga xos ma'naviy fazilatlar masalalariga to'xtalib o'tganlar³.

Mamlakatning barqaror rivojlanishi uning boshqaruvi tizimidagi insonlarning o'z vazifalarini sidqidildan ijro etishiga bog'liq bo'lib, ma'naviy yetuk shaxslarning boshqaruvi tizimida faoliyat yuritishi jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlaydi. Shu bois Yurtboshimiz «Islohot – avvalo odamlar ongidagi o'zgarishdir» deb nomlangan nutqida: «Boshqaruvi tizimini takomillashtirish – bevosita rahbar ma'naviyati, uning shaxs sifatidagi kamoloti, yetuk va komil

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti. 2008-yil. 9-bet.

² См: Китайская философия и конфуцианство Мен-Цзы. Древнекитайская философия, собрание текстов в двух томах. Том 1. – М.: Мысл., 1972. /древнекитайская_философия_собрание_текстов_в_двуих_томах_т_1/14-1-

0-711. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Т.: «Xalq merosi», 1993. – В. 186. Temur tuzuklari /Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahriri ostida. – Т.: 1991. Navoiy A. Alisher Navoiy hikmatlari. «Mahbub ul-qulub» asari. – Samarqand: 2000.

³ Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. – Т.: «O'zbekiston», 1994. – В. 160, Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8 – jild. – Т.: «O'zbekiston», 2000. – В. 358–359; Ma'naviyat, falsafa va hayot: nashr etilgan maqolalar to'plami. – Т.: «Fan», 2001. – В. 213; Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot derajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15 – jild. – Т.: «O'zbekiston», 2007 – В. 320, Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Т.: «Ma'naviyat», 2008. – В. 176.

insonligi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda»¹, – degan edi. Sababi, bugungi kunda boshqaruv tizimi samaradorligi bevosita ma’naviy omil bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi. Bu esa turli toifa va darajadagi kadrlar tayyorlashda ularning qobiliyati, bilim darajasi, tajriba va ko‘nikmasi bilan birga, ma’naviy qiyofasiga ham jiddiy e’tibor berish maqsadga muvofiqligini anglatadi².

Turli darajadagi inson, xususan rahbar faoliyatida ma’naviy omilning o‘rni masalasi azaldan mutafakkirlarni qiziqtirib, ular ijodida alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Jumladan, insondagi ma’naviy fazilatlar muammosi Xitoyda Konfutsiy³, Men-Szi⁴, komil insonga xos xususiyatlar, ularning sharqona fazilatlari masalalari buyuk mutafakkir Alisher Navoiy⁵, Abu Nasr Forobiy asarlarida o‘z aksini topgan. Buyuk alloma o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida rahbarning fazilatlariga alohida urg‘u bergen⁶. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda ham inson va xususan rahbar ma’naviy fazilatlarini o‘rganish muammosi o‘z dolzarbligini saqlab qolib, olimlar tadqiqotlari predmetini tashkil etmoqda. Shu bilan birga tadqiqotlarda insonga bog‘liq asosiy sifatlar turli xil, jumladan xislat, xususiyat, sifat va fazilat kategoriyalari orqali yoritilayotganligini kuzatish mumkin.

Masalan, olimlar R.Samarov, K.Raxmatullina, A.Kalyujniy, B.Kaverin va P.Chijiklar mazkur masalani sifat, I.Masharipov, G.Tulenova, G.Tillaryeva, A.Yusupov, Q.Yusupov, N.Boboyev, F.Xaldibekovalar fazilat sifatida o‘rganishgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida xislat kishi yoki narsaning muhim ijobiy belgisi deb, xususiyat esa biror narsa yoki kimsaning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan tomoni, o‘ziga xos belgisi sifatida ko‘rsatilib o‘tilgan⁷. Falsafa qomusiy lug‘atda xususiyat fal-

¹ Karimov I. A. Yangicha fikrash va ishlash – davr talabi. 5 – jild. – T.: «O‘zbekiston», 1997. – B. 205.

² Aliyeva K. Shaxs va jamiyat: manfaatlar uyg‘unligi // Tafakkur, 2008, № 2. – B. 13.

³ См: Китайская философия и конфуцианство [хттп://www.onfuiuansim.py](http://www.onfuiuansim.py).

⁴ Мен-Цзы. Древнекитайская философия, собрание текстов в двух томах. Том 1. – М.: Мысл, 1972. [хттп://платонанет.орг.уа/лод/книги_по_философии/историка_восточнажа/древнекитайская_философия_собрание_текстов_в_двух_томах_т_1/14-1-0-711](http://платонанет.орг.уа/лод/книги_по_философии/историка_восточнажа/древнекитайская_философия_собрание_текстов_в_двух_томах_т_1/14-1-0-711).

⁵ Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. – T.: 2009. – B. 26. 6

⁶ Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 41-42.

⁷ O‘zbek tili izohli lug‘ati. 4 – jild. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2008. – B. 402-429.

safiy kategoriya sifatida, predmet va hodisalarning boshqa predmet va hodisalardan farqini yoki ular bilan umumiylikni ifodalaydi¹ – deb ta’rif berilgan. Ya’ni, xususiyat o’ziga xoslik, umumiylik va ayrılıq bilan bog‘liq bo‘lsa, xislat kategoriysi o’ziga xoslik va ayriliqning ijobjiy tomonini ifodalaydi. O‘zbekiston falsafa entsiklopedik lug‘atida keltirilishicha sifat bu obyektning muhim belgilarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha bo‘lib, u obyekt tarkibiy qismlarining o‘zaro turg‘un munosabatlarini va bir obyektni ikkinchi obyektdan ajratib turadigan o’ziga xos tomonlarini aks ettiradi². Ya’ni, sifat nafaqat insonning, balki jonsiz predmetning ham o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib beradi. Fazilat esa shaxsning ijobjiy xislati, yaxshi xulqi yoki xususiyati sifatidagi falsafiy kategoriya bo‘lib, afzallik va ustunlik tushunchalariga sinonim ko‘rsatilgan³.

Shu bilan birga rus tilidagi manbalarda insonga xos sifatlar «качество», uning ijobiysi «положительные качества» kategoriysi orqali ifodalanib, fazilat tushunchasiga mos keladi. Shu sababli biz rus tilida tayyorlangan adabiyotlardan foydalanganimizda «качество» tushunchasi ijobjiy ma’noda qo’llanilgan bo‘lsa fazilat sifatida foydalananamiz⁴.

O‘zbekiston ma’naviyat izohli lug‘atida ma’naviy fazilatlar – insonning ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy hayot, ong va munosabatlар bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat taraqqiyoti va turmush ta’sirida shakllangan ma’naviy xususiyat va xislatlarini umuminsoniy hamda milliy fe'l-atvor ko‘rinishlarini ifodalovchi tushuncha sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Demak, ma’naviy fazilat kategoriya sifatida shaxsning ijobjiy xususiyati, xislati, sifati va axloqiy fazilatlarining majmuyini qamrab olib, negizida ma’naviyat, ya’ni insonda shu fazilatlarni uyg‘otadigan beqiyos kuch yotadi.

Ta’kidlash joizki, ma’naviy fazilatlarning inson hayoti va faoliyatidagi o’rni masalasi Sharq mutafakkirlari ijodida o‘ziga xos talqin etilgan. Xusan, Konfutsiy insonda va jamiyatda fazilatni hamma narsadan yuqori qo‘yadi va uni asosan axloqiy kategoriylar

¹ Falsafa qomusiy lug‘at. – T.: «Sharq», 2004. – B.446.

² Falsafa ensiklopedik lug‘at. – T.: «O‘zbekiston», 2010. – B.244.

³ O‘zbek tili izohli lug‘ati. 4 – jild. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2008. – B. 318.

⁴ Abdurahimov M. O‘zbekcha – ruscha va ruscha – o‘zbekcha lug‘at. – T.: «Akademnashr», 2010. – B. 168–225.

bilan bog‘laydi⁵. Men—Szi insonda ezgulik 4 ta fazilat orqali amalgamoshishini ta’kidlab, ularning asosini bilim tashkil qiladi deb hisoblaydi. Olimning fikriga ko‘ra, olam va insonga xos tartibni bilish insoniylik, xushfe’llik, bilim va to‘g‘rilikni ro‘yobga chiqarish bilan ifodalananadi¹.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Nasoyim ul muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, ularning sharqona fazilatlari, ya’ni: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish; o‘z kasbidan rizq töpib, tirikchilik o‘tkazish; farzandlari, xizmatchilariga qo‘pollik qilmaslik; shirin tillik, yaxshilik; muloyimlik, rahmdillik; sahiylik, mardlik; rozi - rizolik bilan kun o‘tkazish; sadoqatli, vafoli bo‘lish; xushxulqlik va sabr - toqatlilik kabi sifatlar keltirib o‘tilgan². Yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkirlar bevosita insonga xos bo‘lgan fazilatlarni, har bir millatning, ularning turmush tarzi va madaniyatining o‘ziga xosligini e’tiborga olgan holda tavsiflaganligi kuzatilmoqda.

O‘z davrida buyuk alloma Abu Nasr Forobi «Fozil odamlar shahri» asarida shahar hokimi oqil bo‘lib, u tabiatan 12 ta xislat – fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarurligini ta’kidlab o‘tgan. Barcha o‘n ikkita xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol, zero bunday tug‘ma fazilatlar sohibi bo‘lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo fozillar shahrida shunday barkamol inson topilmay qolsa, unda yuqoridagi fazilatlaridan oltitasi, yoki beshtasi kamol topganida ham, u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi³.

Ijtimoiy ish kasbini asosiy mezonlarida ham umumiy axloqiy tamoyillar va uning ko‘rinishlari o‘zining barcha yo‘nalishlari bilan namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy ish xodimining ma’naviy axloqiy dunyosi o‘ziga xos tamoyillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Chunki uning kasbiy faoliyatidan kelib chiqib, yordamga muhtoj insonlarga

⁵ См: Китайская философия и конфуцианство <http://www.confucianism.ru>.

¹ Мен—Цзы. Древнекитайская философия, собрание текстов в двух томах. Том 1. – М.: Мысл, 1972. http://платонанет.орг.уа/лод/книги_по_философии/историка_восточнажа/древнекитажджаска_философия_собрание_текстов_в_двуих_томах_т_1/14-1-0-711.

² Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. – T.: 2009. – B. 26.

³ Forobi Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 41-42.

yordam berishda insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, tinchlikparvarlik tamoyillari dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri bo‘lib, u insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g‘oyalar, qarashlar va e‘tiqodlar majmuyi, shaxs erki, qadr-qimmati, uning baxtli bo‘lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch tamoyili sanaladi.

Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati ham insonga mehr-muhabbat va izzat hurmat ko‘rsatishni asosiy tamoyil qilib olgan bo‘lib, shaxsni har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo‘lgan haqiqiy insoniy shart-sharoitlarni yaratishni oliy maqsad deb biladi.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya’ni ancha keng qamrovli va umumiyl intilish bo‘lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma’lum ma’noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi.

Erkparvar inson qullikning, mute’likning har qanday ko‘rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma’nodagi jangchisiga ham aylanadi. Bu jangchi bir tomonidan, har bir shaxsning huquqlarini, o‘z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqini, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomonidan, butun-butun millatlar erki masalasini o‘rtaga tashlar ekan, ma’lum ma’noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi. Odatda erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero, ular o‘zgalar erki uchun o‘z erkini, o‘z hayotini qurbon qilishdan ham cho‘chimaydilar.

Vatanparvarlik. Eng ma’lum va mashhur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o‘z Vataniga muhabbatini, uni asrab avaylashga bo‘lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko‘pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma’naviy-mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi juda keng – u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U eng avvalo, o‘z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, insonparvarlikning inson ozodligini xatti-harakatlaridir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoiylarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtida yoshlarimizda vatanparvarlik

tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini terang anglab etishga o'tqatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish zaruriy holatdir.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyili, bu millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilini yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas. O'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Fidoiylik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yorlarni buzmay yashashi mumkin. Fidoiylik tamoyilining mazmunini turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayyanlashadi. Hozirga kelib asta-sekinlik bilan jamiyatimizda fidoiylik ustivor tamoyil maqomini egallab bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning fidoiylik tamoyili mohiyatini to'la anglatadigan «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!» degan so'zlarini axloqiy ishlar shiori qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining ilg'or qismi tobora ko'payib bormoqda. Ana shu ko'payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shakli shamoyili shuncha muayyanlik kasb etadi. Bugungi kundagi jamiyatimiz hayotidagi muhim o'zgarishlar har bir mamlakatimiz fuqarosidan fidoiylikni talab qilmoqda.

Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi – 1994-yilda Kolomba shahri (Shrilanka)da ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi umumiy yig'ilishda «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qabul qilindi. Bu hujjat ikki qismdan iborat. «Ijtimoiy ish tamoyillarining xalqaro dekleratsiyasi» va «Ijtimoiy xodimlarning xalqaro axloqiy andozalari». Bu hujjatlarning qabul qilinishi federatsiya tomonidan uzoq-yillar davomida orqaga surib kelindi, bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Bu tashkilotga a'zo bo'lgan yuzlab mamlakatlarning a'zolari bo'yicha juda xilma-xil. Ularni yo'llagan davlatlar o'zlarining to'zilishi, boshqaruv shakllari, madaniyati bo'yicha xilma-xil bo'lib, o'zlarining an'analariga va ijtimoiy ishning shakllanish tarixiga ega. Qizg'in munozaralardan keyin umumiy xulosaga kelishga muvaffaq bo'lindi, shuning natijasida mazkur dekleratsiyalar dunyoga keldi. «Ijtimoiy ishning

axloqiy tamoyillari dereratsiyasida» quyidagi tamoyillar bayon qilingan:

1. Har bir odam noyob hodisa bo'lib, unga axloq nuqtayi nazardan e'tibor berish lozim.
2. Har bir odam o'z ehtiyojlarini qondirishda boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmasdan harakat qilish huquqiga ega va u jamiyat farovonligini oshirishdagi o'z hissasini qo'shishi lozim.
3. Har bir jamiyat, boshqaruv shaklidan qat'i nazar, o'zining har bir a'zosini maksimum darajada noz-ne'matlar bilan ta'minlashga intilishi lozim.
4. Ijtimoiy soha xodimlari ijtimoiy adolat tamoyillariga dohildir.
5. Ijtimoiy soha xodimi o'zining bilimlarini, ko'nikma va malakalarini alohida odamlar, guruhlar, jamoa va jamiyatlar taraqqiy etishi uchun, shaxsiy-ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarf qilishi lozim.
6. Ijtimoiy ish diskriminatsiyani rad etish asosiga quriladi. Demak, u mijozlarning jinsi, yoshi, millati, diniy e'tiqodi, tili, siyosiy e'tiqodlari, jinsiy yo'naltirilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.
7. Ijtimoiy xodimlar har bir odam va ijtimoiy guruhi huquqlarini, uning mustaqilligi va sha'nini hurmat qilar ekan «BMT ning inson huquqlari xartiyasi» va boshqa xalqaro hujjalarga asoslanadi.
8. Ijtimoiy ish mijozlarning daxlsizligini himoyalash tamoyiliga asoslanadi, bunga tanlov erkinligi va kasbiy sir, mijozning o'z huquqlari va «shaxsiy ishi» mohiyatini tushuntirib berishga bo'lgan huquqi ham kiradi.
9. Ijtimoiy xodimlar kasbiy sir saqlaydilar, hatto u amaldagi qonunchiligidigimizga zid bo'lsa ham. Ijtimoiy ish mijozning ishtiroki va u bilan hamkorlikka asoslanadi. Ijtimoiy xizmatchilar o'zlariduch keladigan har qanday murakkab vazifani hal qilishda mijozlar bilan hamkorlik qilishlari lozim

Ijtimoiy soha xodimlari xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar o'z muammolarini hal etishda juda faol ishtirok etishlari lozim. Mijozlar har doim ijtimoiy soha xodimi tomonidan ana shu

birlikdagi harakatlarning maqsadi va oqibatlari haqida ma'lumotolishlari zarur.

Ijtimoiy ish mijozlarining ixtiyoriyligi tamoyiliga asoslanadi. Demak, u har qanday majburiylikni minimum darajaga tushirish uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy ish o'z fuqarolarini ezadigan, terrorizm, qiyonqlari va shunga o'xshash shafqatsiz vositalardan foydalanadigan biror shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki hokimiyat to'zilmalari qo'llab-quvvatlashga mutlaqo zid.

Chunki, kasbiy faoliyat insonni sifatlariga bir tomonidan ta'sir o'tkazsa, ikkinchi tomonidan turli kasb egalariga xos sifatlar ham mayjudligini e'tibordan chetda qoldirish kerak emas. Kasbiy faoliyatning shaxsiy sifatlarga ta'siri xususida faylasuf olim Platon fikr yuritib, «ma'naviy fazilatlar tabaqaga qarab, ya'ni faylasufda donishmandlik fazilati, hunarmanda mo'tadillik, jangchida esa qahramonlik va botirlik namoyon bo'ladi» deb ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababli bo'lsa kerakki ijtimoiy ish xodimlariga xos ma'naviy fazilatlarni o'rganish muammosi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etib, ijtimoiy soha tadqiqotchilari e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan bo'lsada, e'tirof etish joizki ma'naviy fazilat tushunchasi ta'rifi, ularning tarkibiga kiruvchi xislatlar haqida olimlarda yagona to'xtam mavjud emas.

Ma'naviy fazilatlar ma'naviy me'yor bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson xulq - atvorining muayyan tomonlarini umumlash-tirilgan shaklda baholaydi va ko'rsatib beradi. Misol uchun, talabchanlik va mas'uliyat fazilatlari, insonning bir qator xususiy fe'l-atvor me'yorlarida o'z ifodasini topib, oqibatda inson aniq vaziyatda qanday harakatlanishi lozimligini o'zi aniqlaydi.

Demak, ijtimoiy ish xodimining ma'naviy fazilatlari – bu nafaqat uning insoniy fazilatlari, balki uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq. Ma'naviy fazilatlar ma'naviy omilning individual darajada namoyon bo'lishi hisoblanib, ijtimoiy ish xodimlariga bilimlar, axloq, ta'lim-tarbiya, badiiy-estetik qadriyatlarni o'zlashtirish va qayta qo'llashga imkon yaratadi.

Ma'naviy fazilatlar shaxs ma'naviy dunyosining elementi sifatida ichki va tashqi yo'nalishga ega. Bunda, ichki yo'nalish ijtimoiy ish xodimiga o'z - o'zini takomillashtirishga imkon bersa, tashqisi boshqa ijtimoiy subyektlar hamda tabiiy muhit bilan

munosabatlarda amalga oshib, jamiyatning ma'naviy madaniyatini aks ettirishda namoyon bo'ladi.

Shu sababli axloqiy fazilatlar qatlami va xususiyati ma'naviyatga bog'liq. Bu qatlam ma'naviyatga aloqador bo'lsa, boshqa axloqiy sifatlarning qanday ekani bevosita shu qatlamga bog'liqdir¹.

Yuksak ma'naviy fazilatlar, ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishining eng muhim omildir. O'z navbatida, agarda ijtimoiy ish xodimi o'zining ma'naviy fazilatlarini jamoada namoyon qilsa, obro' - e'tibor qozonishga imkon beruvchi nufuzga ega bo'ladi. O'z navbatida obro' - e'tiborga ega bo'lgan ijtimoiy ish xodimlari butun jamiyatning bir elementi sifatida atrof muhitga ma'naviy yetuklik namunasiga aylanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganidek, bugun mehr-oqibat, bag'rikenglik, bechoralarga himmat ko'rsatish haqida, bu sohadagi milliy-tarixiy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni qayta tiklash haqida so'z yuritilar ekan, eng avvalo xalqimizning sog'lom ma'naviy ruhini uyg'otish, o'zligiga qaytarish haqida qayg'urgan bo'lamiz. O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming-yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Misol uchun, tilimizdagи mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo.

Yuksak insoniy fazilatlar, insonparvarlikni g'arbdangina emas, balki o'zimizning o'tmishimizdan, boy ma'naviy-axloqiy xazinamizdan, ajodlarimizning savob ishlar qilish bo'yicha bitmas-

¹ Bekmurodov M., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – T.: 2003. – B. 18-21.

tuganmas boy tajribasidan ham o'rganish lozim va hatto shartdir. Chunki, ular o'zimizni bo'lgani sababli beminnatdir.

O'zbek xalqining millat sifatida shakllanishida ana shu bag'rikenglik, o'zaro sabru-toqatlilik, hamjihatlik, bamaslahat ish qilishga intilish, beva-bechoralarga ko'mak berish xislatlari asosiy omil bo'lib xizmat qildi. O'zaro ijtimoiy yordam, ijtimoiy himoya O'zbekiston sharoitida yangilik bo'lmasdan, ming-yillar davomida shakllangan hamda davom etib kelayotgan milliy-tarixiy qadriyatlarimizning ajralmas qismidan iborat.

Ijtimoiy himoyaning tarixiy, ma'naviy jihatlari ibrat, namuna sifatidagi emas, balki yoshlarimizni vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash, ular ma'naviyatiga insoniylik xislatlarini singdirish uchun ham juda zarurdir.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

I.A.Karimov

Prezidentimiz I.A.Karimov shakllanib kelayotgan ijtimoiy himoya tizimlari haqida so'z yuritib, ta'kidlagan ediki: «Biz ijtimoiy himoyalashning asossiz tenglashtirish tizimidan qat'ian voz

kechib, Sharqda necha ming-yillar davomida qaror topgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlariga muvofiq keladigan o'z yo'limizni tanlab oldik. Bunda biz nafaqat o'z tarixiy tajribalarimizga, shu bilan birgalikda jahon tarixiga ham tayanishga harakat qildik».

Muayyan darajada ishchilarni xatarlardan himoya qilish tadbirlari ko'rlishiga, ishchilar va ular oila a'zolari og'ir moddiy ahvolga tushib qolishlarining oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga yuqoridaq omillar turtki bo'ldi. Hukumatning qo'llab-quvvatlashi ostida ishchilarning o'z mablag'lari, keyinroq esa ish beruvchilar majburiy ravishda ajratishi lozim bo'lgan mablag'larni bank muassasalarida toplash, ishsiz va daromadsiz, tirikchilik manbayisiz qolgan ishchilarga ushbu mablag'lar hisobidan moddiy yordam ko'rsatish yo'iga qo'yila boshlandi. Ushbu voqelik va ijtimoiy munosabatlar «ijtimoiy ta'minot»,

«ijtimoiy sug‘urta», «ijtimoiy yordam» kabi tushunchalar bilan ta’riflana boshlandi.

«Ijtimoiy ta’midot» tushunchasi turli mamlakatlarda turlicha keng yoki torroq talqin qilinishiga qaramasdan hamma joyda u ijtimoiy silkinishlar, ishning to’xtab qolishi, kasalliklar, jarohatlanishlar, nogironlik, homiladorlik va bola tug‘ish, qarilik, vafot etish, ishsiz qolish oqibatida moddiy ta’midotida qiyinchilik yuz bergen shaxslar (oilalar) ga jamiyat tomonidan moddiy yordam ko’rsatilishi, tibbiy xizmat qilish, imtiyoz va engilliklar berish orqali ijtimoiy himoyalash tadbirlari sifatida tushuniladi.

«Ijtimoiy ta’midot» tushunchasi ilk bora AQSHning 1935-yilgi «Ijtimoiy ta’midot to’g‘risda»gi qonunida qo’llanilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ushbu atamadan keng foydalana boshladi va uni o‘z Konventsiyalari va Tavsiyalarida keng qo’llay boshladi.

Ikkinci jahon urushi tamom bo‘lganidan keyin jahon miqyosida gumanitar faoliyat avj oldi va inson huquqlari, ularning kafolatlanishi hamda ta’minlanishi masalalariga global miqyosda e’tibor kuchaydi. Bunda BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, boshqa qator insonparvarlik tashkilotlari ishning faollashganligi muhim rol o‘ynay boshladi. Inson huquqlari va erkinliklarining jahon standartlari ishlab chiqilishi hamda ularning BMT «Huquqlar haqidagi Bill»ida mustahkamlanishi ijtimoiy ta’midot sohasidagi huquqlarni ham rivojlanishiga olib keldi. Bularning barchasi ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha xalqaro hamda ayrim davlatlar milliy dasturlari ishlab chiqilishi va ro‘yobga chiqarilishiga sabab bo‘ldi.

«Ijtimoiy ta’midot» tushunchasi mazmuni jihatidan keskin boydir va endi u ijtimoiy xatarli vaziyatga tushib qolgan fuqaro yoki oilaga pul shaklida moddiy madad ko’rsatishnigina emas, balki boshqa ko’plab masalalarni o‘z ichiga qamrab oldi.

O‘zbekiston Respublikasi BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va boshqa qator xalqaro tashkilotlar a’zosi sifatida inson huquqlarini ta’minlash, muhtoj fuqarolarga minimal ijtimoiy yordamlar berish yuzasidan xalqaro standartlar talablarini bajarish yuzasidan o‘z majburiyatlarini bajarishga intilib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlari tomon tobora jadal rivojlanib borar ekan, o‘z oldiga buyuk kelajak barpo etishdek oliyjanob hamda yuksak vazifani qo‘ygan. Insonlarning to‘q-

harovon, tinch-osoyishta va baxtli yashashlari ushbu buyuk kelajak jamiyatining asosiy xususiyatlaridandir.

Bugungi o'tish davrida, ushbu buyuk kelajak sari ravon rivojlanish chog'ida ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'min etish, bozor munosabatlari qiyinchiliklar yukining odamlar zimmasiga to'linligicha tushishiga yo'l qo'ymaslik dolzarb vazifalardan analadi. Ana shunday barqarorlik shartlaridan biri – aholining ijtimoiy ta'minoti amalga oshirilishi va muhtoj qatlamlarni ijtimoiy himoyalash jarayonida adolat tamoyilini to'g'ri belgilash va ularga to'liq amal qilinishini ta'minlay bilishdan iborat.

Tabiatan tanti va mehr-oqibatli o'zbek xalqi bozor munosabatlariga o'tishni ta'minlovchi o'z milliy modelini ishlab chiqar ekan, unda nochor va muhtojlarni etarli muhofaza etishga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni nazarda tutdi. Zeroki, Prezident I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida ta'kidlaganidek: «Oldimizda turgan barcha muammo va vazifalarni yechishda «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatini ta'minlash uchun» degan teran ma'noli fikrni aslo unutmashligimiz kerak».

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida, dastlabki davrlarida butun aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yo'lidan borilgan bo'lsa, keyinchalik, fuqarolar bozor talablari va sharoitlariga birmuncha moslashib olganlaridan so'ng barcha aholini emas, balki obyektiv holatiga ko'ra ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarnigina ijtimoiy himoyalashga o'tildi. Bu taraqqiyotimiz dinamikasidan kelib chiqadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz bozor munosabatlariga yaqinlashgan sayin ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish choralarini hamda vositalari o'zgarib borishi kerak, degan muhim saboq chiqarib oldik. Islohotlar boshlang'ich bosqichining har bir aniq davriga moslab ijtimoiy himoyaga oid tadbirlarning tegishli tizimi ham yaratildi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ko'nikish chora tadbirlarining o'zgarib borayotgan iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishning o'ziga xos vositasi yaratildi».

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga tomon astasekin, tadrijiy rivojlanish yo'li bilan borar ekan aholini himoyalash

obyektiv zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, buning tabiiy sabablari mavjud bo‘lib, bular jumlasiga quyidagilarni kiritish lozim:

a) O‘zbekistonda tarkib topgan o‘ziga xos demografik vaziyat. Aholi sonining nisbatan tez sur‘at bilan ko‘payib borayotganligi va har-yili mehnat bozoriga 800–850 ming atrofida yangi ishchi kuchlari qo‘shilayotganligi;

b) aholi demografik tarkibining o‘ziga xosligi va bunda 15 yoshga to‘limgan bolalar hamda pensiya yoshidagi fuqarolar aholining yarmidan ko‘p qismini tashkil etishi;

d) qishloq va shahar o‘rtasida aholi sonining notekis joylashganligi va uning 50 foizidan ortig‘i qishloq joylarda istiqomat qilishi. Ish kuchlari asosan qishloq joylarida bo‘lgani holda ish joylarining asosiy qismi shaharda ekanligi;

e) boshqa obyektiv va subyektiv sabablar.

Yuqorida keltirilgan obyektiv sabablarga ko‘ra hamda fuqarolamizda bozor ko‘nikmalar yo‘qligi, o‘zini o‘zi yetarli darajada himoya qila olmasliklarini e’tiborga olib bozor munosabatlariiga o‘tishning dastlabki-yillarida barcha aholi tabaqalariga tovon puli to‘lash, narxlarni eng past darajada saqlab turish, natural yordamlar ko‘rsatish yo‘li bilan yalpisiga ijtimoiy himoyalash amalga oshirilgan bo‘lsa, XX asrning 90-yillari o‘rtalaridan boshlab yalpisiga ijtimoiy himoyalash siyosati o‘rniga tanlab-tanlab va haqiqatan ham yordamga muhtoj bo‘lgan ijtimoiy zaif fuqarolarni ijtimoiy himoyalash tadbirlari amalga oshirildi. Bunda qariyalar, nogironlar, ko‘p bolali va kam ta’minlangan fuqarolar asosiy diqqat markazda bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyaning huquqiy bazasi bugungi kunda asta-sekin shakllanib kelmoqda va bunda inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy me’yorlar hamda standartlar ijtimoiy himoya milliy huquq tizimi shakllanishida e’tiborga olinmoqda.

Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning ta’kidlashicha: «Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy negizidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat’yan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdar shaxs, hech bir kishi bo‘ysunish majburiyatidan holos bo‘lishi mumkin emas.

Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir».

Aholini ijtimoiy himoyalash chog‘ida belgilangan tamoyillar ison huquqlarini kafolatlash va himoya qilishga xizmat qiluvchi o‘yinalardan iboratdir. Ijtimoiy himoyalash tamoyillarining buzilishi infayli turli qonunbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l ochiladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish – obyektiv qiyinchiliklar, aholi muayyan qatlamlari ijtimoiy - iqtisodiy ahvolining og‘irlashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, «...jamiyatni sifat jihatidan yangi holatga o‘tishida bizga islohotlar chog‘ida odamlar moddiy ahvolini keskin yomonlashtiradigan, axloqiy qadriyatlar, ma’naviy tayanchlar barbod bo‘ladigan, o‘tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yulkasiga tushadigan andoza maqbul emas».

Ushbu qoidalarga tayanilgani holda O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish milliy modeli ishlab chiqilar ekan va uning avosiy tamoyillari belgilanar ekan, muhtoj aholini ijtimoiy jihatdan kuchli himoya qilish ustuvor vazifa sifatida nazarda tutildi.

Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilar ekan, ushbu islohot jarayonlarining huquqiy asoslarini yaratish va mustahkamlash davlat hamda jamiyat oldida eng muhim vazifa hisoblanib keldi va ana shunday bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganlaridek: «...eng avvalo Qonunchilik faoliyatimizdag‘i kamchiliklarni tanqidiy baholab, bartaraf etish, qonunlarimizning mukammal va izchil bo‘lishiga yetishmog‘imiz va eng muhimi barcha huquqiy davlatlar qatorida qonun asosida yashashni o‘rganishimiz lozim. Shu bilan birga, qonunchilik va me’yoriy asoslarni shakllantirish, jamiyatni o‘zgartirish va isloh qilish jarayonidan oldinroq yurish kerak».

Aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, bunda xalqaro andozalar, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi, xorijiy qonunchilik amaliyotidagi ijobjiy jihatlarni yanada to‘laroq e’tiborga olish dolzarbdir. Chunki bozor munosabatlari shakllanib bo‘lgan va aholi turmush darajasini yuksaltirishda yutuqlarga erishgan ilg‘or mamlakatlar yutuqlaridan unumli foydalanilmasa, u holda samarali ishlaydigan ijtimoiy himoyaga oid huquqiy tizimni yuzaga keltirib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra ijtimoiy himoya va uning tamoyillari,

ularni yanada takomillashtirishga oid ilmiy taddiqotlar dolzarb ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati haqida to'xtalib o'tishdan oldin, «ijtimoiy himoya» termini haqida fikr bildirishni lozim deb topdik. Chunki, «ijtimoiy himoya» termini bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan muhim ahamiyat kasb etgan yangi tushuncha hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Hukumati va Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator qonunlar, qarorlar va farmonlar buning yorqin misolidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi 1994-yil 23-avgustdag'i PF-938 sonli va «O'zbekiston Respublikasining aholisiga kompensatsiya to'lovlarini joriy etish to'g'risida»gi 1994-yil 31-avgustdag'i farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustda qabul qilgan «Kam ta'milangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 434-tonli qarori, shu qarorga ilova tarzda ishlab chiqilgan «Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2008-yil 11-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonuni respublikamizda ijtimoiy himoya borasida olib borilayotgan ichki siyosatning dastlabki huquqiy asoslaridir.

Davlatimizda davr talabini to'g'ri tushungan holda insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini rivojlantirish bilangina cheklanib qolmasdan, balki bu huquqlarni ta'minlashning chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlaridagi o'zgarishlarni qarab chiqamiz.

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqni amalga oshirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Nafaqaho'rlar, nogironlar, ko'p bolali oilalar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan eng kam ta'minlangan tabaqasini tashkil etadi. Ularni ijtimoiy himoya qilish borasida bir qancha ijobjiy ishlar qilindi. Jumladan, nafaka ta'minotini oshirishga qaratilgan bir qancha huquqiy aktlar qabul qilindi: yolg'iz onalar va bolalidan

nopironlarning nafaqasini oshirish, alohida shaxslarga qo'shimcha ijtimoyzlar berish borasida tadbirlar amalga oshirildi.

Pensiya ta'minotida o'tkazilgan umumiy islohot bu sohada ijtimoiy adolatni tiklashga yo'naltirildi.

Bozor sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish, ularni turmush darajasini yomonlashuvini oldini olish deb qaralsa, aholini turmush farovonligi ularni ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini nechog'lik amalg'a oshira olishlariga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra biz bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya qilish insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga qo'shimchalar qo'shish va yangi kafolatlar yaratish. Inson huquqlari sistemasi ikki funksiyani: shaxsning ijtimoiy himoyalanganligi va uning jamoat, davlat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bozor sharoitida ijtimoiy himoyalashning asosiy vositasi bo'lib ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar katta rol o'ynaydi.

Davlatning insonparvarligi va rivojlanganligiga birinchi navbatda u yuritayotgan ijtimoiy siyosatiga qarab baho berish mumkin. I.A.Karimovning «O'zbekiston – bozor iqtisodiyotga o'tishning o'ziga xos yo'li» kitobida: «Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash eng ustuvor vazifa amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi» – deb tu'kidlanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida birinchi marta fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqini mustahkamladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada ilk bor pensiyalar, nafaqlar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.

1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish bo'yicha konstitutsion huquqi kafolatini mustahkamlab berdi.

Har qanday davlat va jamiyat yuritadigan ijtimoiy siyosat hamda iqtisodiy siyosat o'zaro bog'liq bo'lib, iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi — ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolar turmush farovonligini ta'minlash, ya'ni ijtimoiy siyosatga xizmat qilishdan iboratdir va shu nuqtayi nazardan qaraganda ushbu ikki siyosat

o'rtasidagi muvozanatni, ularning o'zaro to'g'ri nisbatining belgilanishi jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatilishining muhim shartlaridan bo'lib sanaladi.

Davlat ijtimoiy siyosati deganda aholi hayot kechirish darajasini shakllantirish, inson kapitalini qayta yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ularning bir maromda faoliyat yuritishini ta'minlash sohasida muayyan davlat tomonidan olib borilayotgan ichki siyosat yo'nalishi nazarda tutiladi. Fuqarolarning asosiy insoniy huquqlari, Konstitutsiyaviy huquqlari davlat ijtimoiy siyosati orqali ro'yobga chiqariladi. Bunda davlat turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, moliyalashtirish me'yorlarini belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy andozalar, qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilish kabi vositalardan keng foydalanadi.

Bunday rivojlanish an'anasi tarix uchun yangilik emas, industrial sivilizatsiyaning so'nggi 200-yil davomidagi taraqqiyoti davrida iqtisodiy va ijtimoiy siyosat nisbatlarining to'g'ri belgilanmaganligi tufayli salbiy oqibatlar kelib chiqqanligi bizga ma'lum. Shu tufayli XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatga katta e'tibor berila boshlandi. Ularda iqtisodiy taraqqiyot yuksak ko'rsatkichlarga erishgani holda aholi turmush darajasi ham yuqori ekanligi, kafolatlangan holda ijtimoiy jihatdan himoyalanganliklari sabablaridan biri ham ana shunda bo'lsa kerak.

«Birinchidan, hech bir ishni sababsiz va maqsadsiz bajarma. Ikkinchidan, jamiyatga foyda keltirmaydigan biror ishni ham qilma».

Mark Avreliy

Bugungi kunga kelib jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy hayoti o'rtasida eng maqbul nisbat belgilanishining ikki asosiy usuli qaror topdi. Ulardan birinchisi – radikal usul bo'lib, bunda ijtimoiy siyosatning barcha yo'nalislari davlat tomonidan markazlash-tirilgan tarzda amalga oshiriladi. Ijtimoiy siyosat bu usulda amalga oshirilishining afzal tomoni sifatida odamlarning ko'proq, to'liqroq himoyalanganligi, davlat bu sohadagi mas'uliyatni asosan o'z zimmasiga olganligi, kafolatlar darajasi birmuncha yuqori ekanligi ko'rsatib o'tilsa-da, ammo u o'zining serxarjligi, sun'iy tenglashtirishga qaratilganligi va shu tufayli ijtimoiy adolat

tumoyillarining buzilishiga olib kelishi, soliqlar shaklidagi og'irlikni qilisidiy faol aholi qatlamlari zimmasiga yuklab qo'yilishi kabi albiy jihatlari bilan ajralib turadi va shu tufayli bozor munosabatlari qaror topgan jamiyatlarda bu usuldan foydalanish qiyin kechadi.

Ikkinci usul — hayotiy mushkulotlar uchun davlat mas'uliyati soqit qilinmagan holda aholi turmush darajasi, ijtimoiy jihatdan himoyalanganligi, inson huquqlarning kafolatlanishida ijtimoiy birdamlikka, adolatga, ijtimoiy ta'minot va qo'llab-quvvatlashning muayyan muhtoj tabaqalarga aniq yo'naltirilganligi ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishida davlat mablag'lari bilan bir qatorda, jamiyat mablag'lariga, o'zaro yordam, hayriya mablag'lariga ham tayaniishi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi-yillar davomida yuritib kelinayotgan ijtimoiy siyosat rivojiga e'tibor berilsa, ana shu radikal usuldan ijtimoiy usulga asta-sekin o'tib borilayotganligini, birinchi usulga xos bo'lgan ijobiy jihatlar imkon darajasida saqlab qolinayotganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

«Odamlarning xatti-harakatlarini yaxshilik va yomonlikka bo'lish uchun bitta shubhasiz belgi bor: odamlarning mehr-muhabbati va birdamligini oshirsra — u yaxshilik, dushmanlik va parokandalikni vujudga keltirsra — u yomonlik».

L.N. Tolstoy

Har qanday jamiyatda ijtimoiy himoya tizimlarining barpo etilishi ma'lum ishlar amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bunda quyidagilar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- Oilaviy va shaxsiy daromadlarni nazorat qilish hamda baholash mehanizmlaridan foydalangan holda aholining ijtimoiy himoya va ko'makka muhtoj guruhlari ajratib olinadi.
- Oilaning pul va mahsulot holida oladigan daromadlari hisobga olinib, oila byudjetini aniqlash, shu orqali turmush darajasini yordamga muhtojligini aniqlash amalga oshiriladi.

Bunda ijtimoiy yordamning aniq yo'naltirilganligini ta'minlash maqsadida eng kam iste'mol darajasi — iste'mol savatchasi aniq lanadi. Minimal turmush kechirish darajasi aniqlanishida eng kam

ta'minlangan oilalarning oziq-ovqat, ijtimoiy xizmatlar va boshqa buyumlarga bo'lgan kundalik eng zarur talablari asos qilib olinadi.

• Ijtimoiy yordam va ta'minot berish usulining to'g'ri belgilanishi, ya'ni bunday yordamlarning pul holida, mahsulot ko'rinishida yoki ijtimoiy imtiyozlar va afzalliklar shaklida berilishining to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega.

XXI asrdagi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy xususiyatlari muhokama qilingan 1995-yil Kopengagenda bo'lib o'tgan Oliy darajadagi uchrashuvlar yuzasidan qabul qilingan Umumjahon Deklaratsiyasida qayd etib o'tilganidek, XXI asr iqtisodiyoti inson manfaatlariga yo'naltirilganligi ta'limotiga tayanishi bilan ajralib turadi.

Strategik jihaddan olganda, inson omiliga tayanilishi, unga kapital sarflanishi – sarmoya joylashtirishning eng sermahsul, eng ratsional usuli sanaladi. Chunki insonga, uning moddiy turmush darajasiga e'tibor berilayotgan davlatlargina iqqisodiy yuksalishga erishmoqda, ularda mehnat unumdorligi yuqori bo'lmoqda, jamiyat farovonlikka erishmoqda. Aksincha, inson ahamiyati pasaytirilayotgan, uning turmush kechirish darajasi past bo'lgan davlatlar qashshoqlar yashaydigan davlat qashshoq davlatligicha qolmoqda va bu hamma narsani odamlar hal qiladi degan qadimiy qoidaning to'g'ri ekanligini, inson omili hisobga olinmaydigan davlatning taraqqiy topa olmasligini isbotlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin davlat va jamiyatning muhim funksional faoliyat olib borish sohalaridan biri sifatida ijtimoiy himoya tizimlari asta-sekinlik bilan shakllantirila boshlandi. Mustaqillikning dastlabki-yillarda ijtimoiy himoya siyosati huquqiy asoslari sifatida sobiq ittifoq davrida qabul qilingan qonunlardan foydalilanilgan bo'lsa-da, ammo asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich tarzda bu sohadagi o'z milliy qonunchiligidan shakllantirila boshlandi. Dastlabki davrlarda bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik ushbu masalalarga oid maxsus qonunlar qabul qilindi va ijtimoiy ta'minot tizimlari milliy qonunchilik asosida rivojlantirila boshlandi.

I.V.Vachkovning psixologik o‘yinlari va mashqlari¹

«Ijtimoiy ish muammolari bo‘yicha Umumjahon konferentsiyasi» mashqi (2-majlis)

Bundan avvalgi mashg‘ulotda boshlangan xizmat o‘yini davom ettiriladi.² xar bir «delegatsiyaga» «ijtimoiy ish tamoyillari Deklaratsiyasi»ni ishlab chiqish topshiriladi. 10–15–20 daqiqadan so‘ng «delegatsiyalar» bu hujjat bo‘yicha o‘zлari tayyorlagan variantlarni taqdim qiladilar. Opponentlarning savollariga javob berar ekan, ular aynan o‘zlarining «Deklaratsiyasi» afzalliklarini ishonarli qilib isbotlab berishlari kerak. Majlisning so‘nggi bosqichida barcha «delegatsiyalar» vakillaridan iborat ekspertlar komissiyasi tuziladi va unga «Deklaratsiyalar»ning barcha variantlaridagi eng yaxshi tamoyillar va g‘oyalarni qo‘shib hujjatni «oxiriga yetkazish» topshiriladi. Komissiya ishining natijalari keyingi majlisda muhokama qilinadi.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. *Ijtimoiy ish xodimining ma’naviy fazilatlari?*
2. *Ma’naviy fazilatlar tushunchasi va uning ijtimoiy ishda tutgan o’rni?*
3. *Ijtimoiy ish xodimi faoliyatining asosiy yo’nalishlarini ochib bering?*
4. *Ijtimoiy ish etikasi fanining oldida turgan vazifalar nimalardan iborat?*
5. *Ma’naviy fazilatlar nimalar bilan bog’liq?*

¹ Teterskiy S.V. «Ijtimoiy ishga kirish», A.Begmatov tarjimasi. Toshkent. 2006 y.29 b.

Test savollari

- 1. Yunon tilidan tarjima qilinganda «insoniyatga nisbatan muhabbatni ifodalash» ma’nosini bildiradigan kategoriya ...**
 - A) Filantropiya
 - B) Etika
 - C) Falsafa
 - D) Filologiya
- 2. Ijtimoiy ish xodimlarining muhim kasbiy sifatlarini o‘rgangan olimni ko‘rsating.**
 - A) A.Kalyujniy
 - B) Meri Richmond
 - C) Grem Teylor
 - D) Jeyn Adams
- 3. Ma’naviy fazilatlar nimalar bilan bog‘liq?**
 - A) Barcha javoblar to‘g‘ri
 - B) Insonning ma’naviy qiyofasi
 - C) Ijtimoiy hayot
 - D) Ong va munosabatlар

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997.
2. Karimov I. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-yilligiga batishlangan tantanali yigilishdagi ma’ruza // Pravda Vostoka. 2003-yil 6-dekabr.
3. Karimov I. Konstitutsiya - mamlakatimizda yangi xayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy asosi // Xalk so‘zi. 2003-yil 6-dekabr.
4. Karimov I. Mamlakatning taraqqiyoti va xalqimizning turmush darajasini oshirish – barcha demokratik yangilanishlar va iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
5. Karimov I. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon xayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir. - Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
6. Karimov I. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minalash – bizning oliv maqsadimiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
7. Агапов Э.П. Социальная работа как феномен культуры. - Ростов-на-Дону, 1999.
8. Американская социология. Перспективы, проблемы, теории. - М., 1972.
9. Ганиева М.Х. XXI век - век социального работника. // Ж. Бола ва Замон. 2005, №1,-С. 24-25.
10. Ганиева М.Х Парадигма «Изучение, диагноз, лечение». История развития социальной работы как вида деятельности. // Ж. Бола ва Замон. 2007. - № 1 (6).-С. 34-36.
11. Тендерный калейдоскоп. - М., 2002.
12. Григорев С.И. Социология и социальная работа. - Барнаул, 1991.
13. История социальной работы. - М., 2002.
14. Ким Л. На пути к решению кадровых вопросов в системе социальной защиты детей: организация курсов переподготовки по социальной работе в Узбекистане /Мате-

риалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.

15. Кравченко. Социология - справочное пособие. - М., 1996.
16. Козлов А.А. Социальная работа за рубежом: состояние, тенденции, перспективы. - М., 1998.
17. Краткий словарь терминов социальной работы. - Саратов. Изд-во Поволжского филиала Российского учебного центра, 1996.
18. Кузмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект, 2002.
19. Павленок П.Д. Введение в профессию «Социальная работа»: Курс лекций. -М., 1998.
20. Павленок П.Д. Социологические методы и техника изучения социальных проблем. -М., 1995.
21. Основы социальной работы. - М., 1997.
22. Справочное пособие по социальной работе. - М., 1997.
23. Социология для социальной работы. -М.: Магистр-Пресс, 2002.
24. Социальная работа /Под ред. В. И. Курбатова. - 2-изд., - Ростов н\Д, 2003.
25. Социальная работа: теория и практика. - М.: Инфра, 2002.
26. Социальная работа: Словарь справочник /Под ред. В.И. Филоненко. Сост.: Э.Г. Агапов, В.И. Акопов, В.Д. Альперович, А.О. Бухановский и др. - М: Контур, 1998.
27. Социальная работа: методология, теория, технология. - Саратов, 1998.
28. Теория социальной работы: Учебник /Под ред. Проф. Э.И. Холостовой. - М.: Юрист, 1998.
29. Теория и методика социальной работы: Краткий курс / Под ред. С.И. Григорева. - М., 1994
30. Тетерский С.В. Введение в социальную работу. -М., 2003.

31. Мёрфи Т. Развитие социальной работы в Узбекистане в международном контексте / Материалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.
32. Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. - М., 1999.
33. Хрестоматия к тренингу «Введение в социальную работу». Проект «Развитие социальной работы на академическом уровне в Узбекистане». - Ташкент, 2006.
34. Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы». Распространение программы переподготовки по социальной работе и продвижение профессии «социальная работа» в Узбекистане». / Составители: М.Х. Ганиева, М.Х. Карамян. - Ташкент: МинВУЗ-РССАД- ТашГИК-ЮНИСЕФ, 2008.
35. Чупрунов В.И. Молодёж в общественном воспроизведстве // Социологические исследования. 1998. №3.
36. Эриксон ЭЭ. Детство и общество. - М., 1992.
37. Ярская-Смирнова Э. Профессиональная этика социального работника. - М.: Ключ, 1998.

V bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI

Reja:

- 5.1 Ijtimoiy ish xodimining axloqi.**
- 5.2 Ijtimoiy ish xodimining kasbiy axloqiy sifatlari.**
- 5.3 Ijtimoiy ish xodimining ma'naviy-axloqiy qiyofasi.**

Ijtimoiy ishda axloq tushunchasi insonlarning va jamoaning fikrlar yig'indisidan iborat bo'lib, ijtimoiy ish xodimining faoliyatini asosini tashkil etadi. Ijtimoiy ish xodimi o'zining ish faoliyatida axloqiy me'yorlar, axloqiy me'yorlar orqali ish yuritishlar va axloqiy tushunchalarga amal qilgan holda yondashadilar. Bu faoliyat ularning axloqiy burchini belgilaydi.

Axloq – ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki yushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xattiharakatlar, his-tuyg'u va kishilar o'rtasidagi o'zaro real munosabatlar tizimini ifoda etadi. Axloq muayyan xalqning atrof muhitga, kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari sifatida, bir jihatdan, mahalliy-milliy xususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi jihatdan, millatning umumjamiyat talablariga uyg'un muvofiqligini ta'minlovchi umuminsoniy xususiyatga ham egadir.

Axloq va ijtimoiy munosabatlar uchun mushtarak manbalardan biri, tabiiyki, til hisoblanib, u ijtimoiy axborotni saqlovchi, ifodalovchi va yetkazuvchi muhim vosita bo'lib, kishilar xatti-harakati, fe'l-atvorlarini (axloqiy ta'sir-ta'ziq, ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish, jazolash va hokazo) boshqarish omilidir.

Axloq va jamoatchilik fikri hodisalarining bog'liqligi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi va undan keyingi davrlarida namoyon bo'la boshlagan bo'lib, u qabila hamda elatlar maishiy va ijtimoiy ongida o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan. Maishiy hayot doirasida axloq asosan quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lgan:

A) Munosabatlar

B) Faoliyat

Axloqiy sifatlar insонning xatti-harakatlarida namoyon bo‘lib, үнинг gnosиologik, iqtisодiy va ijtimoiy kelib chiqishi, hozirgi mavqeyi va axloqiy qarashlariga ishora va guvohlik berib tурган. Axloqiy sifatlar yoki xatti-harakatlar ilk kishilik tarixi, ya’ni insонiyatning zaminga dastlabki qадамлар qо‘yilishidan shakllanish bosqichiga kirgan va shu boisdan har bir xalq, elatlarda u o‘ziga xos va betakrordir. Xuddi shu ongning muayyan holati hisoblanmish jamoatchilik fikri ham o‘zining shaklanishi manbaalarining salmog‘i, real kuchga aylanish sur’ati, uyushqoqlik darajasi, xissiy-emotsional potentsiali hamda mantiqiy-intellektual asoslariغا ko‘ra milliy iqlimi, mahalliy hamda regional o‘ziga xosligiga egadir.

Axloq asrlar davомida odamlarni jamoaga, uyushuvga, boshqalar manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qо‘yib, yondashuvga undab kelgan. Bu xусusda ulug‘ donishmandlar ibratli fikr – qarashlarni ilgari surganlar. Sharqning buyuk olimlaridan Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy aytar edilar: «Har kim o‘zgalarni xohlasa, o‘zini xohlabdi, kimki o‘zgани xohlamabdi, bilsinki o‘zini xohlamabdi».

Sharq axloq qoidalari nafaqat shaxsning uyushuviga undaydi, balki uyushgan holda har kishining shaxs sifatida bir butunligi, barqaror turmog‘i, jamoaviy integratsiya doirasida ham ruhiy botiniy yaxlitlik saqlanmog‘i zarurligi, umumiy bir butunlik ko‘plab serjilo va mustaqil yaxlitliklar yig‘masidan iboratligini yorqin ifodalaydi. Jamoada shaxs bir butunligi yemirilmaydi, umumlash-tirishlar negiziga qurban etilmaydi, balki mantiqiy muvofiqlik mezoni doirasida uyg‘un birlashuv jarayoni tabiiy ravishda amalgamoshiriladi. Ayni chog‘da shuni e’tiborda saqlash kerakki, har qanday uyg‘unlashuv o‘lchovsiz, chegarasiz bo‘lmасligi, har bir harakatda xissiy va aqliy xushyorlik bo‘lishi xalqimiz fe’l-atvorligiga xos an’anaviy beligidir.

Jamoada o‘zlikni anglash, ammo unda gegamonlik huquqini talab etmaslik, maqsadga intilishda kamtar va kamsuqumlik daholarimiz ilgari surgan muqaddas shiorlardan biri edi. Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy uqtirgan «Xilvat dar anjuman (Anjumanda xilvat yohud o‘zlikda qolish), Safar dar vatan (Vatanda

safar yohud o‘z o‘lkangga mutloq emasliging, bu fano zaminda mehmonligingni doimo his etishing) va zoxirda xalq bilan bo‘lishlik uqtiriladi. Ammo botinda Haq bilan bo‘lish» xususidagi o‘gitlari fikrimizning isbotidir.

Movarounnahr xalqlari axloq tizimi jamoatchilik fikrini salmog‘ini, uning Haq va Islom qoidalariga nechog‘li muvofiq kelishiga bog‘liq ekanligini alohida qayd etadi. Shu jamoa a‘zolarining to‘g‘ri va halolligiga, gunoh ishlardan qanchalik o‘zlarini forig‘ tuta bilishlari bilan ham o‘lchanishiga e’tibor qaratiladi. Ayni chog‘da jamoa a‘zolari gunoh yo‘lga kirgudek bo‘lsalar, ularni tarbiyalash ishidan bo‘yin tovlamaslik zarurligi ham uqtiriladi. «Bu toifa ahlidan har kim bir gunoh qilsa, unga chora tadbir bor, biroq undan yuz o‘girish ravo emas».

Hazrat Bahovaddin Naqshbandiy ayni chog‘da axloqning buyuk qudrati va salohiyati uning cheksiz imkoniyatlariga yuksak baho beradi. Xalqni ayplash noto‘g‘ri va behuda ish ekanligini uqtiradi. Mabodo el-ulus to‘g‘ri axloq iznidan va hatto Haq yo‘lidan adashgan holda ham unga tushuntirish ko‘zi bilan qaramoq lozimligini, xalqni bevosita emas, bilvosita usullarda tarbiyalamoq joizligini tayinlaydi.

Zero inson bir umr shakllanadi, tarbiyalanib boradi. Aslida inson o‘z hayotini butun umr davomida ma’qulroq tartiblarga tushurish, jamiyat talablariga muvofiqroq yo‘nalishlarga solish tashvishlari bilan yashab o‘tadi. Shu boisdan ham jamoatchilik fikri jamiyat axloqiy qarashlari, talab va yo‘riqlariga har jihatdan bog‘liq bo‘lib keladi. Chunki jamiyat axloqiy butunligi insonlar axloqiy jihatlarining yig‘indisidir.

Har qanday axloqiy qoida va talablar jamiyat tomonidan e’tirof etilib, jamoatchilik fikrida mustahkamlangan holdagina umrboqiylik kasb etadi. Shu boisdan ham axloq jamoatchilik fikrining asosi va unga bevosita bog‘liq ijtimoiy ong ko‘rinishi bo‘lib, jamoa ahli fikrini belgilaydi.

Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi – 1994-yilda Kolomba shahri (Shrilanka)da ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi umumiy yig‘ilishda «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qabul qilindi. Bu hujjat ikki qismidan iborat. «Ijtimoiy ish tamoyillarining xalqaro dekleratsiyasi» va «Ijtimoiy

xodimlarining xalqaro axloqiy andozalari». Bu hujjatlarning qabul qilinishi federatsiya tomonidan uzoq-yillar davomida orqaga surib kelindi, bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Bu tashkilotga a’zo bo‘lgan yuzlab mamlakatlarning a’zolari bo‘yicha juda xilma-xil. Ularni yo‘llagan davlatlar o‘zlarining to‘zilishi, boshqaruv shakllari, madaniyati bo‘yicha xilma-xil bo‘lib, o‘zlarining an’analari va ijtimoiy ishning shakllanish tarixiga ega. Qizg‘in munozaralardan keyin umumiy xulosaga kelishga muvaffaq bo‘lindi, shuning natijasida mazkur dekleratsiyalar dunyoga keldi. «Ijtimoiy ishning axloqiy tamoyillari dereratsiyasida» quyidagi tamoyillar bayon qilingan:

- Har bir odam noyob hodisa bo‘lib, unga axloq nuqtayi nazardan e’tibor berish lozim.
- Har bir odam o‘z ehtiyojlarini qondirishda boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmasdan harakat qilish huquqiga ega va u jamiyat farovonligini oshirishdagi o‘z hissasini qo‘sishi lozim.
- Har bir jamiyat, boshqaruv shaklidan qat’i nazar, o‘zining har bir a’zosini maksimum darajada noz-ne’matlar bilan ta’minlashga intilishi lozim.
- Ijtimoiy soha xodimlari ijtimoiyadolat tamoyillariga dohildir.
- Ijtimoiy soha xodimi o‘zining bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini alohida odamlar, guruhlar, jamoa va jamiyatlar taraqqiy etishi uchun, shaxsiy-ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarf qilishi lozim.
- Ijtimoiy ish diskriminatsiyani rad etish asosiga quriladi. Demak, u mijozlarning jinsi, yoshi, millati, diniy e’tiqodi, tili, siyosiy e’tiqodlari, jinsiy yo‘naltirilganligidan qat’i nazar amalga oshiriladi.
- Ijtimoiy xodimlar har bir odam va ijtimoiy guruh huquqlarini, uning mustaqilligi va sha’nini hurmat qilar ekan «BMT ning inson huquqlari xartiyasi» va boshqa xalqaro hujjatlarga asoslanadi.
- Ijtimoiy ish mijozlarning daxlsizligini himoyalash tamoyiliga asoslanadi, bunga tanlov erkinligi va kasbiy sir, mijozning o‘z huquqlari va «shaxsiy ishi» mohiyatini tushuntirib berishga bo‘lgan huquqi ham kiradi.
- Ijtimoiy ish xodimlari kasbiy sir saqlaydilar, hatto u amaldagi qonunchiligidizga zid bo‘lsa ham. Ijtimoiy ish mijozning ishtiroki

va u bilan hamkorlikka asoslanadi. Ijtimoiy xizmatchilar o'zlaridagi keladigan har qanday murakkab vazifani hal qilishda mijozlar bilan hamkorlik qilishlari lozim.

Ijtimoiy soha xodimlari xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar o'z muammolarini hal etishda juda faol ishtirok etishlari lozim. Mijozlar har doim ijtimoiy soha xodimi tomonidan ana shu birlikdagi harakatlarning maqsadi va oqibatlari haqida ma'lumot olishlari zarur.

Ijtimoiy ish mijozlarining ixtiyoriyligi tamoyiliga asoslanadi. Demak, u har qanday majburiylikni minimum darajaga tushirish uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy ish o'z fuqarolarini ezadigan, terrorizm, qynoqlari va shunga o'xshash shafqatsiz vositalardan foydalanadigan biror shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki hokimiyat to'zilmalari qo'llab-quvvatlashga mutlaqo zid.

Ijtimoiy soha xizmatchisi o'zining bilimlarini, ko'nikma va malakalarini alohida odamlar, guruhlar, jamoa va jamiyatlar taraqqiy etishi uchun, shaxsiy-ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarf qilishi lozim.

Ijtimoiy ish diskriminatsiyani rad etish asosiga quriladi. Demak, u mijozlarning jinsi, yoshi, millati, diniy e'tiqodi, tili, siyosiy e'tiqodlari, jinsiy yo'naltirilganidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Ijtimoiy soha xizmatchilar har bir odam va ijtimoiy guruh huquqlarini, ularning mustaqilligi va sha'nini hurmat qilar ekan, «BMTning inson huquqlari xartiyasi» va boshqa xalqaro hujjalarga asoslanishadi.

Ijtimoiy ish mijozlarining daxlsizligini himoyalash tamoyiliga asoslanadi, bunga tanlov erkinligi va kasbiy sir, mijozning o'z huquqlari va «shaxsiy ishi» mohiyatini tushuntirib berishga bo'lgan huquqi ham kiradi.

Ijtimoiy xizmatchilar kasbiy sirni saqlaydilar, hatto u amaldagi qonunchilikka zid bo'lsa ham. Ijtimoiy ish mijozining ishtiroki va u bilan hamkorlikka asoslanadi. Ijtimoiy xizmatchilar o'zlaridagi keladigan har qanday murakkab vazifani hal qilishda mijozlar bilan hamkorlik qilishlari lozim, bunda mijozning manfaatlarini eng yaxshi usulda himoya qilish uchun harakat qilish kerak. Ijtimoiy soha xizmatchilar xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar o'z

muammolarini hal etishda juda faol ishtirok etishlari lozim. Mijozlar har doim ijtimoiy soha xizmatchisi tomonidan ana shu bиргаликдаги harakatlarining maqsadi va oqibatlari (xatar va foyda) haqida ma'lumot olishlari zarur.

Ijtimoiy ish mijozlarining ixtiyoriyligi tamoyiliga asoslanadi. Demak, u har qanday majburiylikni minimum darajaga tushirish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Ishtirokchilardan bir guruhining muammolarini boshqa guruh muammolarini hisobiga hal qilish zaruriyati tug'ilganda majbur qilish har doim muqobil guruhning manfaatlarini batafsil ko'rib chiqish, har ikki guruhni to'la eshitib bo'lgandan keyingina tamoyil tanlashga asoslanishi kerak. Ijtimoiy xizmatchilar muqobil guruhlarning har ikkisini ham malakali vakillar bilan ta'minlashlari zarur. Ijtimoiy xizmatchilar, shuningdek, o'z mamlakatlari qonunchiligidagi ochiq majbur qilish imkoniyatlarini minimum darajaga tushirishlari kerak.

Ijtimoiy ish o'z fuqarolarini ezadigan, terrorizm, qynoqlar va shunga o'xshash shafqatsiz vositalardan foydalanadigan biror shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki hokimiyat tuzilmalarini qo'llab-quvvatlashga mutlaqo zid.

«Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari»da 5 guruh ko'rsatilgan: axloqiy xulq-atvor andozalari; mijozlar bilan o'zaro munosabatlar; agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar; hamkasabalar bilan o'zaro munosabatlar; kasbga munosabat.

Axloqiy xulq-atvor andozalari.

1. Har bir inson unikal ekanini, inson xulq-atvorini va unga ko'rsatiladigan yordam xususiyatini belgilaydigan sharoitlar unikal ekanini tushunishga intiling.

2. Kasbiy qadriyatlarni tatbiq qiling, bilim va ko'nikmalariningizni takomillashtiring; kasbingiz obro'sini tushiradigan xattiharakatlar qilmang.

3. Shaxsiy va kasbiy imkoniyatlariningizga ortiqcha baho bermang.

4. Har doim paydo bo'layotgan muammolarni hal qilishda bilimlaringiz, ko'nikmalariningiz va ilmiy bilish metodlaridan foydalaning.

5. Jamiyat hayotining sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan siyosatning asosiy yo‘nalishlarini va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda kasbiy tajribangizdan foydalaning.

6. Ijtimoiy ehtiyojlar, shaxsiy, guruh va jamoa, milliy va xalqaro ijtimoiy muammolarning mohiyati va xususiyatini aniqlang va ularni tushuntiring.

7. O‘zingizning xususiy shaxs sifatida ham, kasbiy uyushma, agentlik yoki tashkilot vakili sifatida ham bajarayotgan harakatlaringiz va maqsadingizni tushunarli shaklda aniq va ravon izohlang.

Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar.

1. Mijozlarga nisbatan majburiyatlarining birinchi o‘ringa qo‘ying, biroq boshqa odamlarning axloqiy maqsadlarini ham hurmat qiling.

2. Mijozning o‘zaro ishonch, sir va konfidensiallikka, axborotdan mas’uliyatli foydalanishga bo‘lgan huquqlarini himoya qiling.

Axborot to‘plash va uni boshqa shaxslarga berish faqatgina mijozning manfaatlari yo‘lida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat doirasida yuz berishi mumkin, bu harakatlarning zarurligi haqida mijoz oldindan ogohlantirilishi lozim. Xech bir axborot mijozni oldindan xabardor qilmay turib va uning roziligidan boshqalarga berilmaydi, bundan mijoz o‘z xatti-harakatlari uchun mas’ul bo‘la olmaydigan va bu harakatlar boshqa shaxslar uchun jiddiy xavf tug‘diradigan holatlar mustasno. Mijoz o‘zi haqida ijtimoiy xizmatchida mavjud bo‘lgan har qanday axborot bilan tanishish huquqiga ega.

3. Mijozning shaxsiy intilishlari, tashabbuslari va xususiyatlarini qadrlang va hurmat qiling. Agentlik va ijtimoiy muhit doirasida ijtimoiy xizmatchi mijozga o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatli bo‘lishda ko‘maklashadi. Biror sababga ko‘ra mana shu darajada kasbiy yordam ko‘rsatilishining imkonini bo‘lmasa, bu haqda mijozga xabar beriladi va u o‘z bilganicha harakat qiladi.

4. Mijozga (alohida odamga, guruhga, jamoaga, jamiyatga) o‘zini namoyon qilishi va shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishda yordam bering, shu bilan birga boshqa odamlarning ham huquqlarini mazkur darajada saqlang. Mijozga xizmat

ko'rsatish asosida uning mutaxassis bilan muloqotlaridan o'zining qonuniy istaklari va foydasiga erishish uchun foydalanish zarurligini tushuntirish yotadi.

Agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar.

1. Ijtimoiy siyosatlari, metodlari va amaliyoti mijozlarga sifatli yordam ko'rsatish va kasbiy ijtimoiy ishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan agentliklar va tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlikda ishlang.

2. Agentlik yoki tashkilotning nizomdagagi maqsadlari va vazifalariga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'ling; ijtimoiy ishning eng yuksak andozalariga erishish maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni, uning uslubiyoti va amaliyotini ishlab chiqishga o'z hissangizni qo'shing.

3. Mijoz taqdiriga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'ling; ijtimoiy siyosatga, uning uslubiyoti va amaliyotiga zarur o'zgarishlarni tegishli agentliklar va tashkilotlar orqali kriting. Barcha imkoniyatlardan foydalansangiz-u, biroq o'zgartirishlarni kiritishning imkoni bo'lmasa, unda yuqori tashkilotlarga yoki manfaatdor keng jamoatchilikka murojaat qiling.

4. Mijoza yoki jamoaga ijtimoiy ish samaradorligi to'g'risidagi hisobotni mijozlar, agentlik va tashkilotlar oldida vujudga keladigan muammolarni davriy tahlil qilish, shuningdek, shaxsiy faoliyatizingizni tahlil qilish shaklidagi kasbiy hisobot sifatida taqdim qiling.

5. Ijtimoiy ish axloqiy tamoyillari harakati, bajariladigan ish tartibi va amaliyotiga zid bo'lgan harakatlarni qilmang.

Hamkasabalar bilan o'zaro munosabatlar.

1. Hamkasblaringiz va boshqa mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va amaliy faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo'ling, ularga ijtimoiy ish samaradorligiga erishishlarida qo'lingizdan kelgan yordamni bering.

2. Hamkasblaringiz va boshqa mutaxassislarning turlicha fikrlari va amaliy yondashuvlariga hurmat bilan munosabatda bo'ling, tegishli tashkilotlarda tanqidiy mulohazalariningizni to'la mas'uliyat bilan bayon qiling.

3. Hamkasabalaringiz, boshqa mutaxassislar va ko'ngillilar orasida bir-birlarini o'zaro mukammallashtirish va o'zlarini

namoyon qilish maqsadida bajarilayotgan bilimlar, ko'nikmalar va g'oyalarni olishga va tarqatishga bo'lган harakatlarga ko'maklashing.

4. Mijozlar manfaatlari yoki axloq me'yorlari buzilishi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni tegishli idoralarga yetkazing.

5. Hamkasblaringizni adolatsiz xurujlardan himoya qiling. Kasbga munosabat.

1. Kasbning qadrini, bilimlar va metodologiyasini himoya qiling; ularni ommalashtirish va takomillashtirishga o'z hissangizni qo'shing.

2. Ijtimoiy ishdagi professionalizmni ko'taring, uni har tomonlama takomillashtirishga harakat qiling.

3. Kasbingizni o'rinsiz tanqiddan himoya qiling, kasbingiz zarur ekani to'g'risidagi ishonchni mustahkamlash uchun imkonibor ishlarning barchasini qiling.

4. Kasbingizni, uning nazariyalari, usullari va amaliyotini konstruktiv tanqid qiling.

5. Yangi va mavjud bo'lган ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lган ijtimoiy ishning yangicha yondashuvlari va usullarini ishlab chiqishni har tomonlama rag'batlantiring.

Ijtimoiy xizmatchining majburiyatları:

1) va'zxonlik qilmaslik, buyruq bermaslik, ta'qiqlamaslik. Mijoz shaxsining sha'ni va noyobligini hurmat qilib uni harakatga, tashabbusga, ijodga undash;

2) mijozga quloq tuta bilish, sabr-toqat ko'rsatish, muammo va vaziyatni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'ya bilish, nazokat va odob ko'rsata bilish;

3) muloqotmand bo'lish, ochiq bo'lish, mijozni «gapirtira bilish», birgalikda muammolarning yechimini aniqlash; atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo'lish;

4) mijoz va uning atrofidagilar o'rtasida vosita, bog'lovchi halqa bo'lish, mijozga ko'rsatilayotgan xayriya yordami orqali uning sha'ni pastga urilishiga yo'l qo'ymaslik;

5) mijoz bilan ishlashda norasmiy bo'la bilish, mijozning o'z muammolarini hal qilishda maslahatchi, ko'makchi vazifasini bajarish; o'zaro munosabatlarni tenglik asosidagi dialogga turish;

6) doimo insonparvarlik va mehribonlik nuqtayi nazaridan yondashish. Mijozni muhokama qilmaslik va unga tanbeh bermaslik; shaxs yoki odamlar guruhiga g'ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarning oldini olish; mijozni jismoniy yoki ruhiy o'ng'aysizlikdan, asabiylashishdan, xavfdan va haqoratlardan himoya qilish;

7) o'z xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash, har qanday makrlar, birovlarни aldash, nopl xattiharakatlarni istisno qilish. Doimo faqatgina mijoz manfaatlari yo'lida harakat qilish;

8) o'ziga ko'makchilarni topa bilish, ijtimoiy ishni rivojlantirishda jamoatchilik ko'magini ta'minlash;

9) faqatgina o'zi vakolatl bo'lgan doirada ish yuritish, o'z ishining sifati uchun shaxsan mas'ul bo'lish; tashqi ta'sir va bosimlarga berilmaslik; mijozni qo'llanilayotgan tadbirlar, unga ko'rsatilayotgan yordam hissi, yozuvlar, to'planayotgan ma'lumotlar haqida xabardor qilish;

10) o'zining kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadlar yo'lida foydalanmaslik; vaziyatlarni muhokama qilish va baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish; mijoz ishonib bildirgan surni hurmat qilish va uni fosh etmaslik. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni faqat qonuniy asoslarda olish. Bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg'alar olmaslik;

11) kasbiy bilimlari, mahorati, malakasini uzlusiz oshirib borishga intilish, o'z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish;

12) kasbning obro'si va pokligini himoya qilish va orttirishga intilish. Kasbiy o'zaro munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonida hamkasblar ishonchiga hurmat bilan qarash, nazokat va adolatni saqlash. Kim bo'lishidan qat'i nazar, hamkasbi axloqqa zid harakat qilsa, unga qarshi choralar ko'rish (V. G. Bocharova).

Odatda, sovuqqonlik deb baholanadigan kasbiy me'yorlarni buzish yoki xatolar «beg'amlik, malakasizlik yoki oldindan o'ylangan niyat tufayli kasbiy me'yorlarni buzish» sifatida baholanadi. Ijtimoiy soha xizmatchilar maxfiylikni buzganlari, bolalar bilan yomon munosabatda bo'linayotgani haqidagi shubha to'g'risida xabar bermaganlari, suiste'molliklar, so'z bilan

haqoratlash yoki jismoniy zo'ravonlik tahdidi singari holatlarga befarqlik, xatti-harakatlar yordamida haqoratlash, davolash yoki axloq tuzatish muassasasiga xato natijasida yotqizish tufayli erkinlikni cheklagani uchun sud tomonidan ta'qib qilinishi mumkin.

Malaka tavsifi bilan belilangan majburiyatlarni bajarish uchun ijtimoiy pedagog va ijtimoiy soha xizmatchisi o'zining quyidagi huquqlaridan keng foydalanadi:

— mijozlarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organlarida ifodalash va himoyalash;

— maxsus ma'lumot to'g'risidagi va litsenziyaga mos bo'lgan diplom yoki sertifikat bo'lgani taqdirda davlat yoki xususiy ijtimoiy amaliyotni yuritish;

— mijozlar ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, aholi orasida sotsiologik so'rovlar, diagnostik tadqiqotlar o'tkazish;

— mijozlarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal qilish to'g'risidagi rasmiy so'rovlar va iltimoslari bilan jamoat tashkilotlariga, davlat muassasalariga murojaat qilish;

— o'z faoliyati doirasidagi u yoki bu muammoning holati to'g'risida davlat idoralariga axborot berish;

— ijtimoiy tashabbus va faollik ko'rsatganlari uchun ota-onalar, oilalar, ijtimoiy ish ko'ngillarini taqdirlash to'g'risida korxonalar va muassasalar, tijorat tuzilmalari va jamoat birlashmalariga takliflar kiritish;

— oiladagi tarbiya, ijtimoiy ishdagi tajribani ommaviy axborot vositalari yordamida targ'ib qilish uchun faol ish yuritish;

— muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan jamoat tashabbuskorlik harakatlariga boshchilik qilish.

Muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy pedagog, ijtimoiy xizmatchi bo'lib ishlash uchun zarur bo'lgan umumiyluhiy sifatlar va qobiliyatlarni sanang.

2. Siz mijoz bilan munosabatlaringizni qaysi axloqiy tamoyillar asosiga qurasiz?

3. Ijtimoiy soha xizmatchilari mijozlarning muammolarini hal qilish uchun qanday huquqlarga ega?

4. Ijtimoiy soha mutaxassislari jamoasida amal qiladigan asosiy axloqiy qoidalarni ifodalab bering.

Igor Viktorovich Vachkovning psixologik o‘yinlari va mashqlari¹

«Ijtimoiy ish tamoyillarini men qanday tushunaman» mashqi

Talabalar 4–5 kishilik guruhlarga bo‘linadilar va ijtimoiy ish tamoyillarini timsollar yordamida ifodalaydigan rasmni jamoa bo‘lib tuzadilar. Har bir guruh ishining natijalarini: tushuntirishlar va izohlar berilgan rasmlarnigina emas, balki tamoyillardan birini tasvirlaydigan kichkina sahna ko‘rinishlarini ham namoyish etadilar. Boshqa guruhlar esa sahnada qaysi tamoyil ifodalanganini topishlari lozim.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Axloq tushunchasini izohlab bering?
2. Maishiy axloq deganda nimani tushunasiz?
3. Sharq allomalari axloq haqidagi fikrlarini sharhlab bering?

¹ Teteriskiy S.V. «Ijtimoiy ishga kirish», A.Begmatov tarjimasi. Toshkent. 2006 y. 81 b.

VI bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING KASBIY ETIKETI

Reja:

6.1 Ijtimoiy ish sohasida ijtimoiy adolat tushunchasining o‘rni. Uni qaror toptirishda ijtimoiy ish xodimining ma’naviy javobgarlik asosi.

6.2 Ijtimoiy ish xodimining ish faoliyati jarayonidagi mas’uliyati.

6.3 Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillarining ijtimoiy ish sohasida qaror toptirish asoslari.

Ijtimoiy adolat – jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish me’yorlarini, millat hayot tarzining axloqiy timsolini belgilovchi davlat siyosati, aholining ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan tabaqalari manfaatini ko‘zlab, milliy boyliklarni taqsimlash tartibidir.

«Xalq ochlikka, yo‘qchilikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolasizlikka chiday olmaydi¹» – deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov.

Ijtimoiy ish besh asosiy mezonga tayanadi. Ular quyidagilar:

- Inson qadr-qimmati va qadriyat;
- Ijtimoiy adolat;
- Insonparvarlikka xizmat qilish;
- Butunlik;
- Kompitentlik.

Ijtimoiy adolat ijtimoiy ishning asosiy mezoni bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy adolatni ta’minalash yo‘lidagi izlanishlar yomon sharoitlarni kamaytirishga va ularni yengish strategiyasini qo‘llab-quvvatlashni anglash va intilish masalalarini qamrab oladi.

Ijtimoiy adolat jamiyatni rivojlanishi va takomillashib borishini qudratli omilidir. Demokratik jamiyat-odamni mehnatga, sog‘liqni

¹ I.A.Karimov. Adolatli jamiyat sari. T.: «O‘zbekiston». 1998-yil, 112-bet.

maqlashga, ma'lumot olishga, uy-joyga, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan muhim hayotiy ehtiyojlarini qondirilishini ijtimoiy kafolatini o'zida mujassamlagan ijtimoiy adolatli tuzumdir. Bu jamiyatda odamni qobiliyati mehnati, malakasi va iqtidori qadrlanadi va moddiy-ma'naviy jihatdan munosib taqdirlanadi.

Ijtimoiy adolat ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lgani kabi xuddi shunday bu axloqiy-huquqiy kategoriya hamdir. U odamlarni xohish va imkoniyatini, erkinlik va mas'uliyatini, huquq va majburiyatini, odamlarning ishini va jamiyatdagi o'rning munosibligini anglatadi. Bundan tashqari ijtimoiy sohada ma'lum bir axloqiy me'yorlar hukmronlik qilishi kerakki, zarur bo'lganda, bu me'yorlar o'zgalar manfaatini (yordamga muhtojlar manfaati) ustivorligini ta'minlashi lozim.

Buyuk mutafakkir Arastu adolatning ikki xil, ya'ni tenglash-tiruvchi va taqsimlovchi ko'rinishini farqlaydi. Tenglashtiruvchi adolat mezoni «arifmetik tenglik» bo'lib, bu tamoyil fuqaroviy-huquqiy kelishuvlar, oldi-sotdilar, zararni qoplash, jazolash singari sohalarda qo'llanadi. Taqsimlovchi adolat mezoni esa «geometrik tenglik»dan kelib chiqib, yetishtirilgan ne'matlarni har kimning qo'shgan hissasiga qarab taqsimlashni bildirgan. Bu holda tegishli narsalarga (hokimiyatga, hurmatga, moddiy boylikka) boshqalar bilan teng yoki teng bo'lmagan miqdorda egalik qilish mumkin.

Tenglashtiruvchi adolat ikki qismga bo'linadi. Ayrim ijtimoiy munosabatlar erkin tarzda amalga oshadi, masalan: oldi-sotdi, qarz berish va shunga o'xhash..., erkin bo'lmagan munosabatlarga o'g'rilik, o'ziga og'dirish, shikast yetkazish, yolg'on guvohlik berish, haqorat kabi holatlar kiradi. Ayni vaqtida qonunga mos keladigan harakatlardan iborat bo'lmish adolat eng qimmatbaho sifat deb e'lon qilinadi.

«Jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi xalqimizni bexatar, tinch-omon farovon badavlat tur mushga erishishi uchun, kuch-g'ayrat manbayi bo'lishi lozim¹» deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov.

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. -T.: O'zbekiston. 1998-yil. 13-bet

Ma'naviy hayotning asl mohiyati, mazmunini insofu diyonat tashkil etadi. Insofli, diyonatli insonlarning adolatli faoliyatidan jamiyatning ma'naviy ne'matlari paydo bo'lib, uning mevasidan xalq oziqlanib, farovon, tinch, osoyishta yashaydi. Adolatli jamiyatning masifikasini millatning aqli-idroki, kuch-g'ayratga to'lgan ezgu niyatli, pokiza, bilimdon insonlarning tajribaga boy g'oyalari tashkil etadi.

Odamlar yashash davomida jamiyatning taassuroti, ustozlarning tarbiyalari adolatli turmush tufayli shaxsga, ya'ni insonga, ma'naviy hayot egasiga aylanadilar. Hayotning notejis yo'llari, qonunlari insonlarning to'g'ri yo'l topishlariga, yaxshini yomondan, haqni nohaqdan ajrata olish qobiliyatiga, ma'naviy kamolotiga yetaklaydi. Oddiy inson o'z ma'naviy hayotida o'z faoliyatini adolatli yo'nalishda olib borib, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shamdi.

Adolat ijtimoiy hayotga, jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlariga oid tushuncha, shuning uchun ijtimoiy adolat mavjuddir.

Adolat insonning eng yuksak ezgu niyati, hayot-mamotini harakatga keltiruvchi omildir. Bu tushuncha inson kabi o'tmishda sanoqsiz ziddiyatlarga bardosh bergani, mashaqqatlarda toblangani va insoniyat mudom unga intilib kelgani uchun ham e'zozlanadi. Adolat beqarorlikni barqarorlikka keltiruvchi muvozanat qaror topishida, jamiyatda insonlar turmushida barqarorlik bo'lishida muhim rol o'yndaydi.

Adolat – ma'naviy ne'mat, u falsafiy, huquqiy va axloqiy qirralarga boy g'oyadir. Adolatning falsafiy mazmuni insoniyat rivojlanish tarixida qabilaviy, tabaqaviy, sinfiy qoidalari, savob va gunoh, ma'qul va nomaqbul, haq va nohaq xatti-harakatlar va qarorlar ta'sirida rivojlanib keldi. Arastu ta'limotiga ko'ra adolat hayot uchun zarur mahsulotlarni tayyorlash, taqsimlash, ayriboshlashda mezon bo'lmog'i, taqdirlash va tahqirlash hamda undirish kabi kundalik faoliyatda andoza bo'lib ish qilmog'i lozim. Inson o'zi uchun ham, o'zga uchun ham foydali yoki zararli unsurlar muvozanatining na ko'payib, na kamayib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Aks holda adolasizlik ro'y beradi.

Ijtimoiy adolat quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

– Insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun lozim bo'lgan resurslarning adolatli va teng taqsimlanishi;

- Insoniy yuksonlikka erishish uchun ijtimoiy ishlar va imtioylarga nisbatan teng imkoniyatlarni yaratish;
- Oilalar, guruhlar va jamoalarning huquq va majburiyatlarini tan olish;
- Qonun tomonidan bir xil munosabat va muhofaza muhitini yaratish;
- Insonning zamonaviy va kelajakdag'i farovonligi manfaatlari yo'lida ijtimoiy rivojlanish hamda atrof-muhitni boshqarish.

O'zbekistonda islohotlarni Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan o'zbek modeli tamoyillarining biri, ya'ni uchinchi tamoyil: jamiyat hayotida qonun ustuvorligi haqida fo'xtalgan edi. Ijtimoiy yo'naltirilgan ma'daniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta'minlasdan turib, bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan qonunchilik asosini yaratish – bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir, qonunlar hayotiy, amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i kerak, qonun hujjatlari bevosita ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lishi lozim. Qonunga bo'ysunish kerak, qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy tamoyilidir, qonun oldida hamma barobar. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Huquqiy davlatning elementlari:

- 1) qonun ustuvorligi;
- 2) qonun oldida hammaning tengligi;
- 3) hamma o'z ish faoliyatini qonun doirasida bajarishi;
- 4) hokimiyatning bo'linishi tamoyili amal qiladi.

Yurtboshimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: «Adolat haqida juda chiroyli gapirish mumkin. Adolat haqida juda uzoq gapirish mumkin. Ammo gap chiroyli va uzoq gapirishda emas, balki hayotda adolatni o'rnata olishda».

Adolatning quyidagi xususiyatlari mayjud:

- Adolatning axloqiy jihat. Bu hol ko'proq kishilararo munosabatda namoyon bo'ladi. Insonlar bir-biri bilan bo'lgan

¹ I.A.Karimov. Adolatli jamiyat sari. T.: «O'zbekiston». 1998-yil, 111-112-betlar.

munosabatda tenglik qoidalariga rioya qilishi, odamga nimani ravo ko'rsa, boshqalarga shuni ham ravo ko'rishi lozim. Odam o'zgalar bilan bo'lgan munosabatda xulq odob qoidalariga rioya qilishi, ularni tahqirlamasligi, izzat nafsigiga tegmasligi, tabiiy kamchiligini yuziga solmasligi, zulm o'tkazmasligi, kamtar va xushmuomala bo'lishi lozim.

— Adolatning huquqiy jihat. Bu hol fuqarolarning huquqlari tengligida bilinadi.

— Adolatning siyosiy jihat. Davlatni boshqarishda, podshohlarning fuqarolarga munosabatida mamlakatning gullab yashnashi va tinchlik, osoyishtalik va ahillik hukm surishida namoyon bo'ladi. Qayerda adolat o'rnatilsa, o'sha yerda taraqqiyot ro'y beradi.

— Adolatning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u yaxshilik, burch, vijdon va boshqa axloqiy darajalar bilan chambarchars bog'liq.

Adolat va adolasizlik, ayniqsa, yaxshilik va yomonlik bilan yaqin turadi. Adolat va adolatsizlik hamda yaxshilik va yomonlik o'rtasida umumiylit va mushtaraklik mavjud bo'lishi bilan birga, ular o'rtasida farq ham bor. Adolat va adolatsizlik yaxshilik va yomonlik darajalariga nisbatan torroq ma'noni anglatsa ham, lekin aniq tushunchalardir. Ularning yaqin aloqada ekanligini yana shundan ham bilsa bo'ladiki, biror kishiga axloqiy nuqtayi nazardan baho berilganda, uni yaxshi odam deb ataymiz. Ayni vaqtida uni odil odam ekanligini nazarda tutamiz.

Adolatning asosida tirli omillardan tashqari tenglik yotadi. Forobiying aytishicha, kishilarning tengligi shunda bilinadiki, tug'ilganda ular teng bo'lib, biror narsaga tug'ma qobiliyati bo'ladi. Ikkinchi tomondan, adolatning tenglikni bildirmaslik jihat shundan iboratki, har bir kishi ishi va qobiliyati, jamiyatdagi mavqeyida qobiliyatiga to'g'ri keladigan obro' va boylikka ega bo'ladi. U yerda tenglik shahardagi vaziyatga qarab odamga moddiy va ma'naviy boyliklarni o'ziga qaytishi va undan ketishining bir xil va teng qiyamatiga ega bo'lishi ma'nosida qo'llaniladi.

Abu Nasr Forobiy adolat to'g'risidagi g'oyalarini ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarida bayon qildi. U adolatga asoslangan mukammal davlat tuzumi to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. Bunday

davlat tuzumining asosiy maqsadi kishilarni baxt-saodatga erishuvini ta'minlash bo'lishi kerak.

Ijtimoiy adolat tamoyillarini qat'iy amalga oshirish - xalq birligining, jamiyat siyosiy barqarorligining, rivojlanish dinamikasining muhim shartidir.

Ijtimoiy adolat – ijtimoiy ongning eng muhim belgisi bo'lib, shaxs, sinf yoki ijtimoiy guruh imkoniyatlari va ehtiyojlari, huquqlari va farovonligining darajasi, jamiyatning shaxsga bo'lgan munosabati me'yорини, odamlarning mamlakatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy voqealarga munosabatini, kishilar kundalik faoliyatiga davlat yoki jamiyat tomonidan berilgan bahoning haqqoniyligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy adolatning vazifalari:

– birinchi amaliy vazifasi ijtimoiy munosabatlarning inson-parvarligini ta'minlashdir;

– ikkinchi vazifasi jamiyatda mavjud bo'lgan turli guruhlar va tabaqalar manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi, ular orasidagi muvozanatni saqlab turish davomida namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov «Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor asosi sifatida e'tirof etamiz. Va hech qanday kuch bizni bu yo'ldan ortga qaytarolmaydi¹» – deb ta'kidlagan edilar.

Nosiriddin Tusiy (1201–1274) ijtimoiy adolatning 3 ta asosiy talabi mavjudligi va u jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omil ekanligini alohida uqtirgan edi:

1. Adolatning birinchi talabi – aholi turli tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlashdir;

2. Ikkinchi talabiga ko'ra, el-ulusning haq-huquqi teng ta'minlangan holda kishilarni ishga tayyorlashda shaxsnинг salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqish lozim;

3. Adolatning uchinchi talabi esa barchaning teng farovonligini himoya qilish bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi ishi va huquqiga qarab har bir inson o'z ulushini olishga imkon yaratishdan iborat.

¹ I.A.Karimov. Adolatli jamiyat sari. T.: «O'zbekiston», 1998-yil, 113-bet.

Qadimgi va o'rta asrlardagi tarixiy manbalar va mutafakkirlarning adolat g'oyasinining tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tushuncha turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Lekin ikkinchi tomondan, adolat umuminsoniy xususiyatga ega bo'lish bilan birga, uning milliy jihatni ham mavjud. Uning muayyan millatda namoyon bo'lishi shu xalqning turmush tarzi, urf-odati, marosimlari va udumlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning adolatning siyosiy-huquqiy jihatlariga e'tibor bergenligi ta'kidlanadi.

Amir Temur fuqarolarga munosabatda bo'lishda, davlatni boshqarishda adolat va insofni asosiy mezon qilib oladi.

«Adolat va insof bilan tangrini yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim», – deydi Amir Temur.

«Temur tuzuklari»da ilgari surilgan fikrlardan biri bu – Amir Temurning jamiyatda fuqarolarni, ularning qaysi toifa va tabaqaga mansubligidan qat'iyy nazar, ularni axloqiy va huquqiy jihatdan teng hisoblashidir.

Amir Temur adolat deganda, mamlakatdagi fuqarolarni birdek ko'rishini, ishlarga qarab bir xil baholashni, jamiyatdagi turli tabaqalarni, lavozimidan qat'i nazar, hurmatini joyiga qo'yishni, boy va kambag'alga birdek munosabatda bo'lishni, huquqini paymol qilmaslikni tushungan¹.

Amir Temur davlatni boshqarishda adolat, insof va haqiqatga tayanib ish ko'rgan, «Kuch – adolatda» ekanligiga amin bo'lgan.

Shunday qilib, mamlakatning farovonligi, uning taraqqiy etishi, hokimiyatning mustahkamligi va mustaqilligi, ilm-fan va madaniyatning yuksalishi, jabr-zulm va yomonliklarga qarshi kurashida adolat asosiy mezon bo'lib ish qilgan.

Alisher Navoiy va uning zamondoshlarining adolat to'g'risidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Alisher Navoiy adolatni kishilararo munosabatdagi va jamiyatdagi ahamiyatini chuqr anglab etdi.

¹ Aliqulov H.. Adolat buyuk donishmandlar talqinida. T., 2010-yil, 48-bet

Alisher Navoiy o‘zining asarlarida adolatni aql, ma’rifat, ilm-fan bilan chambarchas bog‘liqlikda ko‘radi. Bular insonda mavjud bo‘lsa, haqiqat sirlari ochiladi, komillik va baxt-saodatga erishadi. Davoniy aql bilan adolatning o‘zaro aloqasi haqida quyidagicha fikr yuritadi: «O‘zining butun quvvatini baravar tutadigan va butun faoliyatni aqlning hukmidan mo‘tadil ravishda kelib chiqadigan shaxsga odil kishi deyiladi, chunonchi, quvvatlarning hech qaysisi aql belgilagan hissadan ortiq narsani talab qilmasligi va ular, ya’ni quvvatlar bir-birlarining ustidan g‘olib kelmasligi kerak».

Demak, insonning butun quvvatlari hamjihatlikda bo‘lib, aql amriga bo‘ysungan holda faoliyat ko‘rsatsa, adolat to‘laqonli bo‘lishi mumkin. Adolat insonning baxt-saodatga erishuvida muhim vosita bo‘lib ish qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoiy hayotning hamma sohalarida adolat o‘rnatish, adolatsizlikning turli ko‘rinishlariga qarshi kurash uchun keng imkoniyatlar ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, «inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi». Modomiki shunday ekan, hozirgi vaqtida davlatimiz adolatning siyosiy, huquqiy va axloqiy jihatlarini xalq ongiga singirishga, ijtimoiy hayotning hamma sohalariga tatbiq qilish uchun sa‘y-harakat qilmoqda. «Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik asoslar asosida amalga oshiradi¹», – deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy davlatchilikni barpo etish yo‘lida inson huquqlari hamda erkinliklarini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishni tashkil etadigan o‘z milliy qonunchiligini shakllantirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyyati suverenligini mustahkamlash va huquq, hukmronligini qaror toptirish huquqiy davlatchilik sari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikki jarayon hisoblanadi.

Kuchli ijtimoiy siyosat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy siyosat orqaligina shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O‘zbekiston». 2008-yil

ro'yobga chiqishini ta'minlashga, oilalarning, har bir insonning farovonligini oshirishga oid tadbirlarni keng miqyosda amalga oshirish mumkin.

O'zbekistonda aholining turmush farovonligi yil sayin oshib bormoqda. Bu borada Prezident Islom Karimov «Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi»⁵ deb ta'kidlaydi.

Albatta, aholi va jamiyat har bir a'zosining turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ana shu ma'noda aholi muhofazasini ta'minlashdagi bиринчи va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o'rni hamda nufuzini ko'tarish bilan bog'liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilan emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilganligi bilan baholanadi.

Buguni kunda Prezident I.A.Karimov ko'rsatmalari asosida olib borilayotgan islohotlar aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan yagona to'g'ri yo'l ekanligi amalda o'z isbotini topdi. Shu bilan birga, mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi jamiyatning muhtoj a'zolari, ayniqsa, ko'p bolali oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan izohlanadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, mamlakatda olib borilayotgan barcha iqtisodiy islohot va tadbirlarning hammasi inson uchundir. Shuning uchun aholining kam ta'minlangan, mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan qatlamini: kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, nogironlar, bolalar, talabalar, qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo'qotganlarni ijtimoiy muhofaza qilishni maqsad qilib qo'yadi.

⁵ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.- T.: «O'zbekiston», 1994, 49-bet.

Mamlakatimizda manzilli ijtimoiy himoya kengroq joriy etila borgani sayin uning aniq va haqiqatdan ham shunga muhtoj kishilarga, oilalarga yetib borishi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyaning huquqiy bazasi bugungi kunda asta-sekin shakllanib kelmoqda va bunda inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy normalar hamda standartlar ijtimoiy himoya milliy huquq tizimi shakllanishida e'tiborga olinmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalash chog'ida belgilangan tamoyillar inson huquqlarini kafolatlash va himoya qilishga xizmat qiluvchi g'oyalardan iboratdir. Ijtimoiy himoyalash tamoyillarining buzilishi tufayli turli qonunbuzarliklar sodir etilishiga yo'l ochiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish - obyektiv qiyinchiliklar, aholi muayyan qatlamlari ijtimoiy - iqtisodiy ahvolining og'irlashuvi bilan bog'liq bo'lib, "...jamiyatni sifat jihatidan yangi holatga o'tishida bizga islohotlar chog'ida odamlar moddiy ahvolini keskin yomonlashtiradigan, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbod bo'iadigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi elkasiga tushadigan andoza maqbul emas".

Ushbu qoidalarga tayanilgani holda O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish milliy modeli ishlab chiqilar ekan va uning asosiy tamoyillari belgilanar ekan, muhtoj aholini ijtimoiy jihatdan kuchli himoya qilish ustuvor vazifa sifatida nazarda tutildi.

Yurtimizda ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar amalga oshirilar ekan, ushbu islohot jarayonlarining huquqiy asoslarini yaratish va mustahkamlash davlat hamda jamiyat oldida eng muhim vazifa hisoblanib keldi va ana shunday bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganlaridek: "...eng avvalo Qonunchilik faoliyatimizdag'i kamchiliklarni tanqidiy baholab, bartaraf etish, qonunlarimizning mukammal va izchil bo'lishiga etishmog'imiz va eng muhimi barcha huquqiy davlatlar qatorida qonun asosida yashashni o'rganishimiz lozim. Shu bilan birga, Qonunchilik va me'yoriy asoslarni shakllantirish, jamiyatni o'zgartirish va isloh qilish jarayonidan oldinroq yurish kerak".

Aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, bunda xalqaro andozalar, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi, xorijiy Qonunchilik amaliyotidagi ijobiy jihatlarni yanada to'laroq e'tiborga olish

dolzarbdir. Chunki bozor munosabatlari shakllanib bo‘lgan va aholi turmush darajasini yuksaltirishda yutuqlarga erishgan ilg‘or mamlakatlar yutuqlaridan unumli foydalanimasa, u holda samarali ishlaydigan ijtimoiy himoyaga oid huquqiy tizimni yuzaga keltirib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra ijtimoiy himoya va uning tamoyillari, ularni yanada takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati haqida to‘xtalib o‘tishdan oldin, "ijtimoiy himoya" termini haqida fikr bildirishni lozim deb topdik. Chunki, "ijtimoiy himoya" termini bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan muhim ahamiyat kasb etgan yangi tushuncha hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida"gi 1994 yil 23 avgustdagи PF-938 sonli va "O‘zbekiston Respublikasining aholisiga kompensatsiya to‘lovlarini joriy etish to‘g‘risida"gi 1994 yil 31 avgustdagи farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 avgustda qabul qilgan "Kam ta‘milangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to‘g‘risida"gi 434-sonli qarori, shu qarorga ilova tarzda ishlab chiqilgan "Kam ta‘minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida"gi Nizom va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2008 yil 11 iyulda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonuni Respublikamizda ijtimoiy himoya borasida olib borilayotgan ichki siyosatning dastlabki huquqiy asoslardir.

Davlatimizda davr talabini to‘g‘ri tushungan holda insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini rivojlantirish bilangina cheklanib qolmasdan, balki bu huquqlarni ta‘minlashning choratadbirlari ishlab chiqilmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy ta‘minotga bo‘lgan huquqni amalga oshirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Nafaqaho‘rlar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan eng kam ta‘minlangan tabaqasini tashkil etadi. Ularni ijtimoiy himoya qilish borasida bir qancha ijobjiy ishlар qilindi. Jumladan, nafaqa ta‘minotini oshirishga qaratilgan bir

qancha huquqiy aktlar qabul qilindi: yolg'iz onalar va bolalidan nogironlarning nafaqasini oshirish, alohida shaxslarga qo'shimcha imtiyozlar berish borasida tadbirlar amalga oshirildi.

Pensiya ta'minotida o'tkazilgan umumiylislohot bu sohada ijtimoiy adolatni tiklashga yo'naltirildi.

Davlatning insonparvarligi va rivojlanganligiga birinchi navbatda u yuritayotgan ijtimoiy siyosatiga qarab baho berish mumkin. I.A.Karimovning «O'zbekiston – bozor iqtisodiyotga o'tishning o'ziga xos yo'li» kitobida: «Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash eng ustuvor vazifa amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi» -deb ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasi birinchi marta fuqarolarning ijtimoiy (ilgari bo'lganidek moddiy emas) ta'minot olish huquqini mustahkamladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada ilk bor pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilangan.

Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash maslalarida ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yetakchi manba sifatida qaralmog'i lozim. Konstitutsiyaning 39-moddasida fuqarolar pensiya bilan bir qatorda qonunda nazarda tutilgan boshqa ijtimoiy ta'minot turini ham olishlari mumkinligini kafolatlagan. Shuningdek, 40-moddasida nazarda tutilgan malakaviy tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi ham ijtimoiy yordam olish huquqini o'zida aks ettiradi.

1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish bo'yicha konstitusion huquqi kafolatini mustahkamlab berdi.

Har qanday davlat va jamiyat yuritadigan ijtimoiy siyosat hamda iqtisodiy siyosat o'zaro bog'liq bo'lib, iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi – ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolar turmush farovonligini ta'minlash, ya'ni ijtimoiy siyosatga xizmat qilishdan iboratdir va shu nuqtai nazardan qaraganda ushbu ikki siyosat o'rtaсидаги мувозанатни, ularning o'zaro to'g'ri nisbatining

belgilanishi jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatalishining muhim shartlaridan bo'lib sanaladi.

Davlat ijtimoiy siyosati deganda aholi hayot kechirish darajasini shakllantirish, inson kapitalini qayta yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ularning bir maromda faoliyat yuritishini ta'minlash sohasida muayyan davlat tomonidan olib borilayotgan ichki siyosat yo'nalishi nazarda tutiladi. Fuqarolarning asosiy insoniy huquqlari, Konstitutsiyaviy huquqlari davlat ijtimoiy siyosati orqali ro'yobga chiqariladi. Bunda davlat turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, moliyalashtirish normativlarini belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy andozalar, qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilish kabi vositalardan keng foydalanadi.

Aholini ijtimoiy himoyalash muayyan tashkiliy tizimlar orqali amalga oshiriladi. Ular faoliyatining huquqiy asoslari, shuningdek ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida yuz beruvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy tizimlari mavjud milliy Qonunchilik normalari bilan belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy himoya, eng avvalo fuqarolarimizning ijtimoiy ta'minot hamda yordam olishga bo'lgan Konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Ijtimoiy himoya siyosatini huquqiy ta'minlash vositalari bo'lgan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari o'zining yuridik kuchi, ta'sir doirasasi, maqsad va vazifalari hamda boshqa xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi. «Ijtimoiy ishning huquqiy asoslari» kursining manbalari bunday yordam olish huquqini belgilovchi, uni amalga oshirish tamoyillari, asosiy shakllarini nazarda tutuvchi qonunlar hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Uning manbalari qonun va qonunosti hujjatlariga bo'linishi ko'rsatib o'tilmog'i lozim. Bugungi kunda fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalasiga oid maxsus qonun qabul qilinmagan bo'lsa-da, bunday yordamning u yoki bu shakllari haqida ayrim qonunlarda belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39, 40, 41 va 42-moddalari bevosita ijtimoiy ta'minot hamda yordam olish huquqlari, ularning kafolatlariga bag'ishlangan.

Fuqarolarga Konstitutsiyamizning ushbu moddalarida kafolatlangan ijtimoiy ta'minot olish huquqi Birlashgan Millatlar

Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi”, “Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt”, Xalqaro Mehnat Tashkilotining ijtimoiy ta‘minotga oid hujjatlarida nazarda tutilgan standartlarga mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida ijtimoiy himoyaga oid qonunlar va qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, bu sohada huquqlarni belgilash va amalga oshirilishini kafolatlashda ularning ahamiyati kattadir. Bunday qonunlar qatoriga 2008 yil 11 iyulda yangi taxrirda qabul qilingan “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi, “Harbiy xizmat-chilarning pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonun, tibbiy va reabilitatsiya xizmatiga oid qonunlar taalluqli bo‘lib, ularda ham ijtimoiy yordam va uni ko‘rsatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tartibga solingan.

Ijtimoiy himoyaning tashkil etilishi, amalga oshirilishi, u yoki bu shakldagi ijtimoiy yordamning rivojlantirilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari katta o‘rin tutadi. Ular vositasida yangi ijtimoiy himoya shakllari joriy etiladi, ijtimoiy himoya tizimi o‘zgartiriladi va hokazo.

Keng ma’noda ijtimoiy himoya, bu davlat hisobidan, davlat organlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari tomonidan fuqarolarga (oilaga) ko‘rsatiladigan har qanday moliviyiy, moddiy, natural xizmatlar tarzidagi qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlaridan iborat. Bunday qo‘llab-quvvatlash ishlari davlatning turli ijroiya-boshqaruv organlari, idoralari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Ana shu nuqtai-nazardan Respublika tarmoq (funksional) vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari tomonidan qabul qilinadigan normativ huquqiy hujjatlar ijtimoiy himoyani real tashkil etilishi hamda amalga oshirilishida juda katta o‘rin tutadi.

Odatda qonunlar, Respublika Prezidenti Farmonlari, Xukumat qarorlarida ko‘zda tutilgan ijtimoiy himoya turlarini amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari aynan ushbu idoraviy huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo‘yiladi.

Ijtimoiy himoyaning muayyan mintaqaviy turlarini joriy etilishi va amalga oshirilishida joylardagi davlat hokimiyati organlari (tuman (shahar), viloyatlarning hokimlari, xalq deputatlari kengashlari) normativ huquqiy aktlari ham ma'lum darajada ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya manbalari orasida lokal normativ hujjatlar ham sezilarli o'rinni egallaydi. Bular jumlasiga korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolarini moddiy - ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan maqsadlarda qabul qilingan aktlar kiradi. Bunday lokal me'yoriy hujjatlar orasida korxonada amal qildigan jamoa sharfnomalari, turli nizom va qoidalar, tarmoq jamoa kelishuvlari hamda boshqalar kiradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning jahon me'yorlari xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ushbu sohadagi ishlarni tashkil etilishida ularga og'ishmay amal qilishga harakat qilmoqda. Bunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlari, Evropa Hamjamiyati aktlari, Xalqaro Mehnat Tashkilotlарining Konvensiyalari hamda Tavsiyalari, boshqa mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning qarorlari yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi e'tirof qilgan (ratifikasiyalagan) xalqaro huquqiy hujjatlar mamlakatimiz milliy Qonunchilik tizimining tarkibiy qismi bo'lib sanaladi va ular huquqimiz manbaidir. Ijtimoiy himoyani tashkil etish sohasida ham xalqaro huquqiy hujjatlarga yuqorida nuqtai nazardan munosabatda bo'lmoq lozim.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash umuminsoniy tamoyillar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, demokratik-insonparvar g'oyalar asosida amalga oshiriladi. Bunda BMTning "Inson huquqlari umumjahan Deklarasiyasi"da belgilangan umumbashariy prinsiplar yetakchi o'rin tutadi.

Bozor munosabatlariga o'tishning o'zbek modeli asosiy tamoyillaridan bo'lgan aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish siyosati huquqiy jihatdan ta'minlangan bo'lib, ushbu sohadagi davlat faoliyatini samarali amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi zarur huquqiy tizim hamda infrastruktura barpo etilgan.

Mustaqilligimizning dastlabki davrlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish ishlari sobiq ittifoq davrida qabul qilingan qonunlar hamda qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan bo'lsa,

Leyinchalik bu masalalarda mustaqil Qonunchilik tizimi shakllana boshladi. Bunda dastlabki davrlarda Respublika Prezidentining farmonlari va O'zbekiston Hukumati qarorlari yetakchi o'rin tutganligi, ijtimoiy himoyalash masalalari farmon hamda qarorlar bilan tartibga solinganligi qayd etib o'tilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy islohotlar maromiga mos ravishda mustaqil huquqiy baza vujudga keltirila boshlandi. Bunda ijtimoiy himoyaga oid Qonunchilik tizimi ham asta-sekinlik bilan shakllantirildi.

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan yangilanish va rivojlanish asosi o'tish davrining barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlarining o'tkazilishidan iborat. Bozor munosabatlariga o'tishning bosh maqsadi - uning afzalliklaridan keng foydalangan holda odamlar hayot sharoitlari, moddiy farovonliklarini yuksaltirishdan iboratdir. Shu sababli jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o'tishida - deya ta'kidlagan edi Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov-«bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tayanchlar barbod bo'ladigan, o'tish davrining barcha qiyinchiligi aholi elkasiga tushadigan andoza maqbul emas».

Aholining nochor va muhtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash, o'z vaqtida ijtimoiy himoya qilinishlarini ta'minlash fuqarolar osoyishtaligi, ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlikka erishishning eng maqbul yo'li va ishonchli kafolatidan iboratdir.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirishning ilk bosqichi iqtisodiyotdagи nobarqarorlik, kuchli inflyasiya jarayoni shaxslarning erkinliklarini, sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan va mustaqil davlatlarga aylangan sobiq Respublikalar o'rtasida xo'jalik aloqalarini tubdan izdan chiqishi oqibatida keskin qisqarib borayotgan ishlab chiqarish jarayonida aholining barcha tabaqalarini ijtimoiy himoyalash, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish darajasini keskin pasaytirmaslik kabi maqsadlarini ko'zлади. Narxlarning o'sishi, inflyasiya jarayonlarining salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiylarni oshirish muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichida va keyinchalik demografik vaziyatdan kelib chiqilgani holda hamda

iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi qatlami tez o‘sib borayotganligi e’tiborga olinib, zarur bandlik va aholini ish bilan ta’minlash siyosati amalga oshirib kelindi. Bunda kichik va xususiy biznesni rivojlantirish yo‘li bilan qo’shimcha ish joylari barpo etilishiga ko‘maklashish odamlarga tadbirkorlik va boshqa o‘zлari uchun foydali faoliyat turlari bilan shug‘ullanganlari holda o‘zlarini-o‘zlar ish bilan ta’minlashlariga yordam berish ijtimoiy himoyalash shakllaridan biri sifatida keng qo‘llanildi.

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichi tugallanishi va ushbu bosqich uchun mo‘ljallangan ijtimoiy siyosatni to‘liq ro‘yobga chiqarilishi bozor sharoitlari uchun zarur bo‘lgan minimal ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarni vujudga keltirishga olib keldi.

Shu tufayli mamlakatimiz ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning yo‘nalishi, maqsadlari, shakl hamda usullarida zarur o‘zgarishlar amalga oshirildi, uning asosiy mohiyati - aholini yalpi ijtimoiy himoyalashda, ehtiyojmand, iqtisodiy nochor qatlamlarga aniq yo‘naltirilgan holdagi yondashuvlarda namoyon bo‘ldi.

O‘sha davrgacha amalga oshirib kelingan ijtimoiy himoyalash isrofgarchilikka yo‘l qo‘yadigan va ijtimoiy samarasini past, dotasiyalar, nafaqalar va imtiyozlar butun aholiga mo‘ljallanganligi tufayli haqiqatdan ham yordamga muhtoj tabaqalarning ularidan foydalanish imkoniyatlari cheklab qo‘yilayotgan, ushbu imtiyozlardan aholining o‘ziga to‘q qatlamlari ham foydalanishlari uchun imkoniyat beradigan tizimdan iborat bo‘lib, boqimandalik kayfiyatlarini kuchaytirar, mehnatga rag‘batni pasayishiga sabab bo‘lar edi. Kundalik ehtiyoj mollariga (ayniqsa, non va boshqa eng zarur oziq-ovqat mahsulotlariga) belgilangan dotasiyalar hamda shu asosda past sotish narxlari tufayli bu imtiyozdan foydalanish huquqi o‘ziga to‘q fuqarolarda ko‘proq bo‘lib, haqiqatda nochor aholi tabaqalari (nogironlar, nafaqaxo‘rlar, kambag‘al oilalar) undan to‘liq foydalanish imkoniga ega emas edi. Shu tufayli nochor fuqarolar uchun belgilangan ijtimoiy himoyalash choralarini aslida o‘ziga to‘q hamda shunday himoyaga muhtoj bo‘lmasligi fuqarolarga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Faqat Respublika budjeti mablag‘lari hisobiga 30dan ortiq ijtimoiy imtiyozlar berilgan edi va bu hol ana shu maqsadga ajratilgan moliyaviy mablag‘larning

sochilib ketishi, past samarali bo'lishiga olib kelgan. Bunday yondashuv odamlardagi sobiq sosializm tuzumidan qolgan boqimandalik, ijtimoiy sustlik kayfiyatlarining saqlanib qolishiga yordam berdi va o'tkazilayotgan islohotlar jarayoniga salbiy ta'sir qila boshladi.

Shu sababli o'tgan asrning 90-yillari o'rtalariga kelib, ijtimoiy himoyalash siyosatida tub burilish yasash obyektiv zaruratga aylanib qoldi. Aholini yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishchonchli ijtimoiy kafolatlar berish, aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash tizimiga o'tish maqsadga muvofiq ekanligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha: «Bu qoidaning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga haqiqatdan muhtoj bo'lgan aholi tabaqalari toifasini belgilashda amal qilinishi lozim bo'lgan mezonlar ham, bu madadni ularga yetkazish vositasi bo'lgan omillar ham aholiga ravshan, juda sodda va ular nazdida adolatli bo'lishi lozim. Ijtimoiy himoya maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan bo'lishi kerak».

Ijtimoiy himoyalash siyosati sohasidagi bunday tub burilish uning shakl va uslublarinigina jiddiy o'zgarishiga olib kelmasdan, shu bilan birga ushbu maqsadga xizmat qiluvchi barcha vositalarni ham keng ishga solinishini taqozo eta boshladi.

Ana shunday qo'shimcha vositalardan biri-aholi nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalashda budjet mablag'lari bilan bir qatorda nodavlat mablag' manbalaridan ham keng foydalanish imkoniyatini ishga solinishi lozimligi edi.

Davlat ayrim toifadagi shaxslarning ma'lum xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos huquqiy maqom belgilashi mumkin. Biroq bu huquqiy maqomda shaxsning eng asosiy erkinliklari, siyosiy huquqlari o'zgarmasdan qoladi. Davlat insonparvarlik, ijtimoiy ado'lat nuqtai nazaridan kelib chiqib, ayrim toifadagi shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini kuchaytirishi mumkin. Odatda, yuridik adabiyotlarda bunday holatlar «falon toifadagi shaxslar doirasining imtiyozlar» tariqasida ishlatalidi. Umumiy jihatdan olganda, bu ibora e'tiroz tug'dirmaydi, chunki oddiy kishilar diqqat-e'tiborini darhol o'sha alohida huquq va imtiyozlarga jalb etadi va binobarin kundalik amaliyotda bu holat o'rinchli ham,-deb aytish

mumkin. Ammo ilmiy jihatdan olganda, bunday huquq va imtiyozlar o'sha toifadagi kishilar huquqiy maqomining tarkibiy qismidir.

Keksa inson jamiyatda alohida g'amxo'rlikka muhtoj bo'lib qoladi va ularga davlat va jamiyat tomonidan bunday ijtimoiy ko'mak ko'rsatiladi. Bu g'amxo'rlik zamirida nafaqat achinish, mehr-sahovat, insoniylik balki ijtimoiy adolat ham yotadi.

Ijtimoiy himoya dunyoviy va hozirgi zamon davlatining muhim funksiyasi sifatida uning insonparvarlik xususiyatlarini namoyish etish vositasidir va har qanday mamlakatdagi siyosiy rejim mohiyati, umuminsoniy tamoyillarga so'zda hamda amalda rioya etilishi ahvoli, inson huquqlariga, uning qadr-qimmatiga munosabat ko'p jihatdan ana shu ijtimoiy yordam ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida va bunday bosqichni boshidan kechirayotgan mamlakatlarda ijtimoiy yordamning samarali va adolatli tashkil etilishi nafaqat muhtoj fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish vositasi bo'lib, balki jamiyatda barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning ham muhim omillaridan bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda shakllanib kelayotgan ijtimoiy himoya o'zining mazmun-mohiyati, shakli, uslublari hamda boshqa jihatlari bilan ijtimoiy ta'minotning sovet davlati davridagi tizimlaridan jiddiy farq qiladi. O'zbekistonda aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishning keng tarmoqli tizimi mavjud bo'lib, unga yuklatilgan vazifalarni muayyan darajada bajarib kelmoqda.

Aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash tizimi, uning amalga oshirilish shakl hamda usullari haqida so'z yuritishdan avval "ijtimoiy himoyalash" tushunchasi, ta'rifini to'g'ri anglab etish zarur.

Bugungi kunda "ijtimoiy himoyalash" tushunchasi iqtisodiy, ijtimoiy, falsafiy va huquqiy fenomen sifatida ta'riflanadi hamda har bir fan sohasi o'z predmeti nuqtai nazaridan unga muayyan ma'no-mazmun joylashtirishga harakat qiladi. Ammo, kundalik turmush sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa turli obyektiv sabablar bilan qiyinchiliklarga duchor bo'lish tufayli nochor ahvolga tushib qolgan shaxslarga moddiy va natural ko'mak ko'rsatishdan iborat vosita sifatida qabul qilinadi.

Xalqaro Qonunchilik va xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilarini tomonidan ijtimoiy yordam keng ma'noda talqin qilinadi.

Ayrim Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimlari ayrim shaxslarning qo'shgan badallaridan emas, balki davlat mablag'lari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy yordam dasturlari asosida vujudga kelganligi qayd etiladi. Aholining ijtimoiy yordam bilan qamrab olingan dastlabki guruhlari - keksalar, kasallik tufayli vaqtinchalik ishlamayotganlar, nogironlar, boquvchisiz qolganlar, ishsizlardan iborat bo'lgan.

Xalqaro Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy yordamning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar ko'rsatilishi mumkin:

A) ushbu yordam bo'yicha barcha harajatlar davlat yoki uning mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qoplanadi;

B) ijtimoiy yordam nafaqalari ijtimoiy sug'urta qilinmaydigan shaxslarga tayinlanadi;

V) yordamga muhtojlik mezonini belgilash chog'ida shaxsiy mablag'lar vayordamchi daromadlar hisobga olinadi (uncha ko'p bo'lmagan shaxsiy jamg'armalar hisobga olinmaydi);

G) ko'rsatiladigan yordam shaxs yoki oilaning umumiyligi daromadlari jamiyat beliglaydigan eng kam ko'rsatkichdan (minimal iste'mol savati, minimal iste'mol dasturxoni) pasayib kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadini ko'zlaydi;

D) ijtimoiy yordam hayriya va ehson faoliyatiga o'xshash bo'lib, fuqarolarning muayyan iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi ham ijtimoiy yordam mohiyatiga ko'ra davlat ijtimoiy sug'urtasi va ijtimoiy yordam bir vaqtda amal qiladigan mamlakatlar sirasiga kiradi.

Yuqoridaq tahlil asosida ijtimoiy yordam tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilishi mumkin: "Ijtimoiy yordam, bu - yoshi, salomatligi ahvoli va boshqa obyektiv jihatdan yordamga muhtoj, muammolarini mustaqil ravishda hal etishga imkonli bo'lmagan shaxslar (oilalar)ga davlat (mahalliy davlat hokimiyyati) organlari mablag'lari hisobidan moliyaviy, moddiy va boshqa shakllarda ko'rsatiladigan ko'makdan iboratdir".

Mamlakatimizda aholi manfaatlari ko'zlangan holda amalga oshirilayotgan islohotlar chuqurlashib borgani sari ijtimoiy

muhofaza ishlari ham rivojlanib borishi tabiiydir. Bunday tendensiya ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam ko'rsatish faoliyatining huquqiy asoslari ham takomillashtirilishini, bu soha bilan tanish bo'lgan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanish lozimligini talab qiladi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ayrim jihatlarini o'zida aks ettiruvchi qonunlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyulda yangi taxrirda qabul qilingan «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonuni. Ushbu qonunning 32-moddasida nogironlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam turlari, 33-36 moddalarida bunday yordam ko'rsatish tartiblari va shartlari belgilab berilgan;

2. O'zbekiston Respublikasida 1991 yil 20 noyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonuni. Mazkur qonunning 10-moddasida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari, ijtimoiy xizmat turlari nazarda tutilgan;

3. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustdag'i «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonuni. Ushbu qonunning 16-moddasida tibbiy ijtimoiy yordam olish, 32-moddasida ijtimoiy ahamiyatga molik kasallikka chalingan fuqarolarga tibbiy ijtimoiy yordam, 33-moddasida atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasallikka chalingan fuqarolarga tibbiy ijtimoiy yordam ko'rsatish masalasi nazarda tutilgan;

4. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquq va faoliyatlarining kafolatlari to'g'risida»gi 1992 yil 2 iyuldag'i qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Xotin qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»gi qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdag'i «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi qonuni (5, 37, 39-moddalari) va boshqa qonunlar.

Aholini ijtimoiy himoyalashga oid munosabatlар tartibga solinishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlar, hukumat qarorlari muhim o'rин tutadi. Ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam ko'rsatishning bir sohalari bilan hozircha qonun bilan tartibga solinmaganligi, ushbu masalaga oid qonunlarni qabul qilinmaganligi tufayli Prezident farmonlari va hukumat qaror-

larining ahamiyati yanada ortadi. Ushbu aktlar vositasida ijtimoiy yordamni amalga oshirishning eng muhim, keng qamrovli masalalari tartibga solinadi.

Aholini ijtimoiy himoyalash masalalariga taalluqli bo‘lgan farmonlar va hukumat qarorlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining:

1. 1996 yil 4 martdagi «Bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi;

2. 1996 yil 10 dekabrdagi «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida»gi;

3. 1998 yil 26 apreldagi «Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi; 1999 yil 10 yanvardagi «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta’minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida»gi;

4. 1999 yil 17 martdagi «Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi;

5. 2001 yil 17 apreldagi «Kommunal xizmat ko‘rsatish soxsida iqtisodiy islohotlarni chuquralashtirishning yanigi bosqichi to‘g‘risida»gi va boshqa farmonlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

a) 2002 yil 24 yanvardagi «Qariyalarni qadrlash yili davlat to‘g‘risida»gi;

b) 2002 yil 26 yanvardagi «Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi;

v) 2002 yil 26 yanvardagi «Aholining ijtimioy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashning 2002-2003 yillarga mo‘ljallangan dasturni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi;

g) 1999 yil 7 dekabrdagi «2000-2005 yillarda yolg‘iz keksalarni, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishin kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarori va boshqalar.

Aholini ijtimoiy himoyalashni amalga oshirish mexanizmlarini belgilab beruvchi va ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga oid

qonun, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari ijrosini bevosita'min etilishiga mo'ljallangan manbalar, bu idoraviy normativ huquqiy hujjatlardir. Ular vazirliklar, davlat qo'mitalari, idolar tomonidan chiqariladigan normativ xususiyatga ega bo'lgan yo'riqnomalar, nizom, tushuntirish, ko'rsatmalardan iborat bo'lib, ularni ishlab chiqish, huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish, kuchga kiritish, bekor qilish tartiblari maxsus qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Aholini ijtimoiy himoyalashda amal qiladigan tamoyillar mamlakatimizda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat mohiyati va maqsadlariga to'la muvofiq keladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'llaniladigan tamoyillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Aholini ijtimoiy himoyalash fuqarolar turmushini yengilashtirish, ularni moddiy jihatdan qullab-quvvatlash maqsadiga qaratilganligi;

2) Aholini ijtimoiy himoyalashning umumiyligi, ya'ni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganida fuqarolarning muhtoj qatlamlari millatidan, jinsidan, yoshidan va boshqa sosial farqlaridan kat'i nazar ijtimoiy yordam olishga haqli ekanligi;

3) ijtimoiy himoyalashning xilma-xilligi;

4) ijtimoiy himoyalashdan foydalanishda fuqarolarning teng huquqli ekanliklari va kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

5) ijtimoiy himoyalash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda to'liq ko'rsatilishi lozimligi;

6) ijtimoiy himoyalash jarayonida qonuniylikning ta'minlanishi va ijtimoiyadolat tamoyillariga so'zsiz rioya qilinishi;

7) ijtimoiy himoyalashni amalga oshirilishida nodavlat tashkilotlari, notijorat birlashmalarining, xorijiy homiylik tashkilotlari hamda fuqarolarni o'z mablag'lari bilan qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda ishtirop etishlari;

8) ijtimoiy himoyalashda jamoatchilik ishtiropi va nazoratning amalga oshirilishi;

9) ijtimoiy himoyalash ustidan davlat nazoratining amalga oshirilishi;

10) ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlarda umumhuquqiy va umumgumanitar tamoyillarga amal

qilinadi. Bunday umumhuquqiy tamoyillar qatoriga ijtimoiy adolatga erishish, qonuniylikning ta'minlanishi, kamshitishga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.

Bulardan tashqari, ijtimoiy himoyalash paytida maxsus, o'ziga xos tamoyillarga amal qilinadi. Bunday o'ziga xos tamoyillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ijtimoiy himoyalashning beg'arazligi, ya'ni ijtimoiy yordam ko'rsatilganligi uchun yordam oluvchidan hech qanday haq olinmasligi;

2. Ijtimoiy himoyalashning yetarli darajada bo'lishi, ya'ni yordam tufayli shaxs o'zining muayyan xizmatga bo'lgan ehtiyojini qondira olishi;

3. Qonunda ko'zda tutib qo'yilgan ijtimoiy yordam oluvchi ixtiyoriga ko'ra ko'rsatilishi, yordamni ko'rsatuvchi organlar talab qilinganida yordam ko'rsatishga majbur ekanligi;

4. Ijtimoiy himoyalash uchun zarur mablag'lar davlat budjeti hisobidan, yuridik va jismoniy shaxslar-homiylar hisobidan shakllantirilishi;

5. Ijtimoiy himoyalash muhtoj aholi tabaqalariga aniq yo'naltirilganligi va adolatli taqsimlanishi;

6. Ijtimoiy himoyalashda jamoatchilikning ishtirok etishi .

Ijtimoiy himoya – ma'naviy–axloqiy voqelik va insonlarning bir-biriga ko'magi, o'zaro qo'llab-quvvatlash shakli sifatida insoniyat ongli hayot tarixiga teng ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Ana shunday ijtimoiy yordamning ko'rsatilishi va uning qabul qilinishi shaxslar o'rtasidagi aloqalarni yuzaga keltirgan. Bu aloqalar dastavval ma'naviy–axloqiy tusga ega bo'lgan va axloqiy prinsiplar asosida amalga oshirilib kelingan, ya'ni bunday munosabatlar chog'ida davlat aralashuvi, davlat majburlovi istisno qilingan. Bugungi kunda ham xayriya, homiylik, insonparvarlik yordami tarzida xususiy usullarda amalga oshiriladigan ijtimoiy yordamlar davlat aralashuvi va majburlovisiz, ixtiyorilik, beg'arazlik kabi ma'naviy–axloqiy normalarga tayanilgan holda amalga oshirilmoqda. Davlat bu munosabatlarning tashkil etilishi va amalga oshirilishini o'z huquq normalari asosida tartibga solmoqda, uni jamiyat manfaatlari va xavfsizligi nuqtai-nazaridan nazorat qilmoqda. Davlat tomonidan uning organlari tizimi yoki u vakolat

bergan boshqa o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, jamoat birlashmalari orqali hamda davlat mablag‘lari hisobiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam ma’naviy-axloqiy qoidalarga ko‘ra emas, balki qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bular ijtimoiy yordam ko‘rsatishga oid huquqiy munosabatlardan iborat, uning ishtirok-chilari muayyan huquqlarga ega bo‘ladilar va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklatiladi.

Ijtimoiy himoya - davlat ijtimoiy siyosati maqsadlaridan biri bo‘lgan aholini ijtimoiy himoyalash shakli sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar uni aholi ijtimoiy himoyasi maqsadlarida amalga oshiriladigan boshqa chora-tadbirlardan farq qilish imkonini beradi. Ijtimoiy himoya - ijtimoiy munosabat va huquq normalari bilan tartibga solinadigan jarayon sifatida o‘zining obyektlariga, subyektlari doirasiga hamda o‘ziga xos mazmunga egadir.

Ijtimoiy yordamga oid huquqiy munosabat obyekti bo‘lib bunday munosabatlarning maqsadi sanaladi, ya’ni yordamga muhtoj shaxs moddiy yoki boshqa turmush ehtiyojlari aniqlanishi va bu ehtiyojlarni qondirilishi yo‘lida amalga oshiriladigan hatti-harakatlar sanaladi.

Ijtimoiy ish sohasida inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari axloq kodekslarining asosi sifatida

Inson huquqlarini ta’minalash huquqiy davlat qurishning asosiy vasifasidir. Davlat tomonidan inson huqularini ta’minalash huquqiy kafolatlash va amaliy ishlar bilan birga olib boriladi. Davlat hamda uning organlari sudda inson huquqlari himoyasini ta’minalaydi, shaxsiy hayot daxlsizligini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonunlarni amaliyotda tatbiq etish, inson va fuqarolarning fuqaroviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarini amalgam oshirish imkonini beruvchi samarali tizim va tuzilmalarga muhim ahamiyat berilmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi inson huquqlarini amalga oshirishga ko‘maklashish uchun safarbar etilgan davlat tuzilmalaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlab o'tish lozim: «Adolat – qonun ustuvorligida» degan shiorimizni amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni zamon talablari darajasiga ko'tarish yo'lida yangi amaliy qadamlar qo'yishimiz zarur¹».

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri alohida ko'mak va e'tiborga muhtoj odamlarga manzilli yordam ko'rsatish bo'lgan ijtimoiy himoya va aholiga ish qilishning asosiy jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda ijtimoiy sohada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami bilan ishlashda bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – «ijtimoiy ishchi» ga zaruriyat yuzaga keldi.

O'zbekistonda ijtimoiy ish instituti 90-yillarda oxiriga kelib shakllanishni boshladi. Buning uchun 1998-yilda bilim va ta'lim sohasida davlat uchun yangi bo'lgan – «ijtimoiy ish»ning oliy ta'lim ixtisosliklari va yo'nalishlar umum davlat turkumlarga kiritilishi asos bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Kasblar va lavozimlar Milliy turkumlarga «ijtimoiy ish» kasbi va «ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis»lik kiritildi.

«Ijtimoiy ish» yo'nalishi bo'yicha ta'lim Toshkent davlat madaniyat instituti va Samarqand, Farg'onadagi davlat universitetlarida olib boriladi. Toshkent davlat madaniyat instituti ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash sohasida yetakchi oliy o'quv yurti hisoblanadi, unda bakalavriat va magistraturada talabalar tayyorlash amalga oshiriladigan dastlabki ijtimoiy ish fakulteti ochildi. Bundan tashqari, 2007-yildan boshlab malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash fakulteti qoshida respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamkorligida BMTning O'zbekiston-dagi YuNISEF Bolalar jamg'armasi ko'magida O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlaridagi ijtimoiy ish o'qituvchilari va bolalarni ijtimoiy himoyalash tashkilotlari hamda muassasalarining xodimlari uchun ijtimoiy ish bo'yicha 4 oylik qayta tayyorlash kurslari olib borilmoqda.

¹ Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oily saodatdir. T.: «O'zbekiston». 2007-yil.

Ijtimoiy ish – bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarda ko‘maklashishga yo‘naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kasbiy faoliyatdir

Ijtimoiy ish – bu quyidagi chiziqlar bilan xususiyatlanadigan kasb:

- ilmiy asoslangan bilim va nazariyalarga tayanadi;
- dalillarga asoslangan amaliyotga tayanadi;
- axloqning etik tamoyillari va standartlariga amal qiladi;
- mijoz va uning atrofidagi kishilar bilan o‘zaro professional harakatda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ishning kasb sifatida rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

-ijtimoiy ish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni, o‘quv rejasи tuzilmasini (amaliyotni kiritgan holda) va bu bilimlar hamda axborotlarni ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyalari va modellariga muvofiq ravishda doimiy yangilash jarayonini ifodalovchi ta’lim standartiga asoslangan ta’lim jarayonini rivojlantirish;

-ijtimoiy sohada rasman ishlash huquqini beradigan diplom yoki sertifikat ko‘rinishidagi rasmiy vakolatlarning mavjudligi;

-ta’lim jarayoni va amaliyotni nazorat qiladigan, tashkilotlardi ijtimoiy ishchining axloq standartlari va etik kodeksini ko‘rib chiquvchi hamda rivojlantiruvchi professional assotsiatsiyalar va uyushmalarning mavjudligi.

Ijtimoiy ishning kasb sifatidagi noyob tavsifnomasi:

-ijtimoiy ish ba’zi kasblar diqqat e’tiborini alohida individuum-larga (masalan, psixologlar) yoki yaxlit holda jamiyatga (masalan, sotsiologlar yoki politologlar) qaratgan bir paytda insonni ijtimoiy muhitda ko‘rib chiqadi;

-ijtimoiy ish ibtidoni boshqa fan va kasblardan olgan nazariya va usullarning noyob majmuyidan iborat. Ijtimoiy ishning rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar ishning turli usullari va yondon-shuvlari uyg‘unligi, multidarajali intervensiya hamda fanlararo yondoshuvning rivojlanishiga yo‘naltirilgan;

-ijtimoiy ish ijtimoiy ko‘makka muayyan qat’iy yo‘nalishga ega va aholining zaif qatlamiga alohida e’tibor qaratadi, u ijtimoiy ishlarni tashkil etish va qo‘llab quvvatlashga yo‘naltirilgan;

-ijtimoiy ish mijozlarning o‘z-o‘zini aniqlashiga alohida urg‘u beradi, mijoz va ijtimoiy ishchi o‘rtasidagi munosabat ochiqlik va o‘zaro do‘slik bilan xususiyatlanadi, bu esa muammoning maqbul yechimi uchun imkon beradi.

Ijtimoiy ishchining professional faoliyati ijtimoiy o‘zgarish-larga, insoniy o‘zaro munosabatlar muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi; jamiyatda funksional mavjud bo‘lish qobiliyatining mustahkamlanishi va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ozod qilishga yordam beradi. Inson axloqi va jamoat-chilik tizimi nazariyasidan foydalangancha ijtimoiy ish odamlarga ularning atrofidagi kishilar bilan o‘zaro harakatda ko‘maklashadi. Inson huquqlarining tamoyillari va ijtimoiy haqqoniylig ijtimoiy ish negizi hisoblanadi.

Ijtimoiy ish o‘zining turli shakllarida odamlar va ularning atrofidagi kishilar o‘rtasidagi ko‘p sonli, murakkab aloqalar bilan shug‘ullanadi. Ijtimoiy ish faoliyatining maqsadi: barcha odamlarga o‘z imkoniyatlarini to‘la rivojlantirish, o‘z hayotini boyitish va disfunksiyani bartaraf etish imkoniyatini taqdim etadi. Professional ijtimoiy ish muammolarni hal qilish va o‘zgarishlarga erishishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy ishchilar jamiyatdagi va o‘zlari ish qilayotgan individium, oilalar va hamjamiyat hayotidagi o‘zgarish agentlari hisoblanadilar. Ijtimoiy ish o‘zida qadriyatlar, nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liq tizimini aks ettiradi.

Ijtimoiy ish o‘z sarchashmasini insonparvarlik ruhi bilan sug‘o-rilgan va demokratik ideallarda oladi, uning qadriyatlari tenglik, har bir shaxsning qadriyati va har bir odamning qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslanadi. Kasbning paydo bo‘lishidan boshlab, deyarli bir yarim asr avval ijtimoiy ish amaliyotining diqqat e’tibori umumin-soniy ehtiyojlar va inson imkoniyatining rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan. Inson huquqlarini ta’minalash va ijtimoiy haqqoniylig ijtimoiy ishchilar faoliyati uchun motivatsiya va sabab bo‘lib ish qiladi, «zaif» ijtimoiy qatlamga hamfikrlik tufayli kasb faqirlikni yengillatish, himoyaga muhtoj va ruhan ezilgan odamlarni jamiyat a’zosi sifatida faoliyat yuritishlarini faollashtirish uchun ozod qilishga intiladi. Ijtimoiy ish qadriyatlari professional milliy va xalqaro etik kodekslarda mujassamdir.

Ijtimoiy ish metodologiyasi muayyan kontekstlar uchun xos bo‘lgan lokal bilimlarni kiritgan holda amaliy faoliyatni baholash va tadqiqot o‘tkazish yo‘li bilan olingan isbotli asoslangan bilimlar tizimiga suyanadi. Ijtimoiy ish nazariyasi odamlar va ularning atrofidagi kishilar orasidagi o‘zaro harakatning murakkabligini inobatga oladi va odamlarning ta’sirga duch kelganiday ularga biopsixojtimoiy omilni kiritgan holda ko‘p sonli omillar ta’sirining o‘zgarishini ham tan oladi. Professional ijtimoiy ish inson axloqi va rivojlanishi, majmuaviy vaziyatlari tahlili uchun ijtimoiy tizimlarni ham, individual, tashkiliy, ijtimoiy va ma’daniy o‘zgarishlarga ko‘maklashish nazariyasini ham o‘zlashtirib oladi.

Ijtimoiy ish jamiyatda mavjud bo‘lgan to‘siqlar, tengsizlik va nohaqlik bilan kurashga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy ish krizis va kritik holatga, shuningdek, kundalik shaxsiy va ijtimoiy muammolarga reaksiya qiladi. Ijtimoiy ish shaxs va uning atrofidagi kishilarga majmuaviy va yaxlit yondoshuvga moslashtirilgan malakalar, usullar va ta’sirlarning turli tumanligidan foydalanadi. Ijtimoiy ish harakatining spektri psixojtimoiy jarayonlarning individual shaxsiy darajadagi mashg‘ulotlardan tortib, ijtimoiy siyosatda ishtirot etishni, shuningdek, ijtimoiy loyihalash va rivojlanishni qabul qilishgacha yoyiladi. Amaliy faoliyat maslahat berish, klinik ijtimoiy ish, guruhlar olib borish, ijtimoiy pedagogik ish, oilaviy terapiya, shuningdek, odamlarga jamiyatda mavjud bo‘lgan ish va imkoniyatlarga erishishga yordamlashishga urinishdan iborat. Bundan tashqari, amaliy faoliyat jamoa tashkilotlari, agentliklarini boshqarish va ijtimoiy siyosat hamda iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida jamoatchilik va siyosiy faoliyat mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ish amaliyatining ustuvorligi davlatdan davlatga o‘tishi va vaqt davomida madaniy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq ravishda o‘zgarib tursada, ijtimoiy ishning majmuaviy yaxlit yondoshuvi universaldir.

Inson huquqlarini muhofaza qilish sohasida turli davlat va tashkilotlarning faoliyatini belgilovchi xalqaro deklarasiya va konvensiyalar ijtimoiy ishchining ushbu professional hamda etik kodeksi asosida turadi.

Ijtimoiy ish mohiyatini odamlarning farovonligini ularning ashxsiy imkoniyatlari va ijtimoiy yaqin odamlari imkoniyatlaridan

eng yuqori darajada foydalanish hamda ularga imkoniyat berish orqali yaxshilash maqsadidagi amaliy faoliyat sifatida tushunish ijtimoiy ishning etik tamoyillarini quyidagi xalqaro shartnomalar asosida qurishni ko'zda tutadi:

- Inson huquqlarining Umumiy Deklaratsiyasi, 1948-yil.
- fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi Xalqaro pakt, 1966-yil;
- irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya, 1965-yil;
- ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya, 1976-yil;
- bola huquqlari haqidagi Konvensiya, 1989-yil;
- nogironligi bo‘lgan odamlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, 2006-yil.

Ijtimoiy ishchining professional va etik kodeksining ijtimoiy ishning qadriyatlari va tamoyillariga bag‘ishlangan ushbu qismi 2004-yil oktabrida Adelaida (Avstraliya) da qabul qilingan Ijtimoiy ish bo‘yicha maktablar xalqaro assotsiatsiyasi va Ijtimoiy ishchilar xalqaro federasiyasining «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar Deklaratsiyasi» umumiyligi hujjati asosida ishlab chiqildi. Bu hujjatda ijtimoiy ishchilarning o‘z faoliyatlarini etik tomonlari haqida xabardor bo‘lishi professional amaliyotning muhim qismi, inson huquqlari va ijtimoiy adolatga amal qilish tamoyillari esa ijtimoiy ish faoliyati uchun belgilovchi hisoblanishi ta’kidlanadi.

Ijtimoiy ishning mohiyati va vazifasi uning noyob va o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy qadriyatlarda aks etgan. Ijtimoiy ish quyidagi qadriyatlarga asosan ish tutadi:

- Inson huquqlari va insoniy qadr-qimmatni hurmat qilish;
- Ijtimoiy haqqoniylik va gumanizm;
- Sodiqlik va vijdonlilik;
- Professional vakolatlilik.

Inson huquqlari va insoniy qadr-qimmatni hurmat qilish. Ijtimoiy ishchining faoliyati inson huquqlari va erkinligini, uning obro‘sini va qadriyatlari hamda o‘z imkoniyatlarini munosib hayot sharoiti va farovonlikni amalgalash oshirish qobiliyatini tan olish hamda hurmat qilishga asoslangan. Shu qadriyatlar bilan bog‘liq ravishda tamoyillar quyidagilarni anglatadi:

– Ijtimoiy ishchi etikasining ushbu kodeksi asoslanadigan Xalqaro shartnomalarda e'lon qilingan insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish.

– Insonning mustaqil tanlov va o‘z-o‘zini aniqlashi huquqini tan olish. Ijtimoiy ishchilar odamga ijtimoiy ko‘maklashgancha uning o‘zi qaror qabul qobiliyatini rivojlantirishga va boshqa odamlar manfaatiga xavf yo‘qligi sharoitida o‘z hayotini mustaqil ravishda belgilashiga yordamlashadi.

– Ijtimoiy ishchining aholini turli konfessional va etnik guruhlariga munosabati bo‘yicha insonparvarligini ko‘zda tutuvchi polietnik jamiyat kontekstida insonning ijtimoiy - madaniy xususiyatlарини hurmat qiladi. Ijtimoiy ish mijozlari turli tuman xislatlarga ega bo‘lgan alohida odamlar yoki shaxslar, guruh bo‘lishi mumkin. Inson yoki shaxslar guruhining barcha xususiyatlari yordam ko‘rsatish va qaror qabul qilishda inobatga olinishi darkor.

– Kamsitishga qarshi amaliyot va insonni uning kelib chiqishi belgilari, yoshi, irqiy va ijtimoiy mansubligi, jinsi, diniy e’tiqodi, ideologiyasi, millati, sog‘ligining holati yoki boshqa har qanday tafovutlardan qat’i nazar qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishni amalga oshiradi.

– Ijtimoiy ishchilar odamlarni ularning hayotini o‘zgartirishga, inson, guruhlar, jamoalarning kuchli tomonlari va imkoniyatlariga tayangancha imkoniyat berishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etishga ko‘maklashadi.

– Odamlar qadr qimmatini himoyalash, ularning xavfsizligini ta’minalash, ularning shaxsiy farovonlikka erishishida yordamlashish ijtimoiy ishchi tomonidan insonni uning individual, oilaviy, jamoatchilik xususiyatlari bilan bir butunlikda tushunishi, uning manfaatlari va ehtiyojlarini hurmatlashidan kelib chiqib amalgalashiradi.

Ijtimoiy haqqoniylig va insonparvarlik ijtimoiy ishning asos soluvchi tamoyillari va qadriyatlar hisoblanadi. Bu qadriyatlar bilan bog‘liq ravishdagi tamoyillar quyidagilarni anglatadi:

– Ijtimoiy ishchining insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida teng huquqlar hamda imkoniyatlar va vositalarni haqqoniy hamda teng huquqli taqsimlashni ta’minalash bo‘yicha faoliyati, davlat va jamoatchilik tashkilotlari imkoniyatidan

foydalanimishning teng kafolatlangan imkonini yaratish va amal qilish bo'yicha faoliyati.

– Ijtimoiy ishchilar ijtimoiy nohush ahvoldagi odamlar chaqiradigan ijtimoiy sharoitlar va qiyinchiliklarni aniqlashga ko'maklashadi, ijtimoiy siyosatning shakllanishi hamda uni amalgalashish mehanizmlarini yaxshilashga ta'sir ko'rsatadi.

– Ijtimoiy ishchilar kansitishning har qanday, jumladan, jins, yosh, u yoki bu madaniyatga mansublik, oilaviy holat, ijtimoiy-iqtisodiy maqom, irqiy va diniy mansublik belgilari, jismoniy tafsifnomasi va jinsiy yo'nalishni kansitish kabi turlari bilan kurashishlari zarur.

– Ijtimoiy ishchilar o'z faoliyatida ijtimoiy haqqoniylik tamoyiliga amal qilgancha odamlar orasidagi ijtimoiy - madaniy farqlarni inobatga oladi, tan oladi va hurmat qiladi.

– Ijtimoiy ishchilar faoliyati inson stigmatizatsiyasi, ajralib qolishini uyg'otadigan va uni ijtimoiylashuv jarayoniga jalb etadigan ijtimoiy sharoitlarni tenglashtirishga yo'naltirilishi darkor. Ijtimoiy ishchining amaliy faoliyati ijtimoiy haqqoniylik tamoyillariga amal qilish maqsadida ijtimoiy farovonlikni yaxshilash va o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini ijobiy ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

Sodiqlik va vijdonlilik. Odamlarga ish qilish va vijdonlilik jamiyat e'tiborini ijtimoiy muammolarga jalb qiladigan, ochiq hamda o'ziga xos ishonch uyg'otadigan tarzda odamlarga yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Shu qadriyatlar bilan bog'liq ravishda tamoyillar quyidagilarni anglatadi:

– Ijtimoiy ishchilarning boshqa odamlar manfaatlari va jamoatchilik farovonligiga erishish bo'yicha faoliyati shaxsiy, moddiy yoki moliyaviy foydani kutmaydi.

– Mijoz va uning ijtimoiy atrofidagilar manfaatlari, mijozning qiziqishlari va ijtimoiy ishchining shaxsiy qiziqishlari; umuman olganda, ijtimoiy ishchining vijdonliliqi vositasida mijoz manfaatlari, professional hamjamiyat va jamiyat manfaatlari muvozanatini ta'minlash. Birlarining manfaatlari boshqalarining manfaatlaridan yuqori qo'yilmasligi, qay birigadir zarar yetkazilmasligi lozim.

– Ijtimoiy ishchilar tomonidan ijtimoiy ish vazifasiga professional faoliyat, uning qadriyatları va axloqning etik standartlari sifatida rioya qilishi.

– Ijtimoiy ishchilar tomonidan mijoz bilan ishlashda maxfiylikka amal qilinishi, uni ta'minlash uchun choralar qo'llanishi darkor. Ijtimoiy ishchi mijozni u yoki bu axborot uning ruxsati bilan qaror qabul qilish uchun boshqa tashkilot, ijtimoiy ishga berilishi mumkinligi haqida o‘z vaqtida xabardor qilisha lozim. Maxfiylik mijoz yoki boshqa shaxslar hayoti uchun xavfli bo‘lgan sharoitda buzilgan bo‘ladi.

– Ijtimoiy ishchi yordam uchun murojaat qilgan mijoz muammoni hal qilish uchun uning manfaatida qo'llanadigan harakatlar haqida to‘liq va ochiq xabardor qiladi.

– Ijtimoiy ishchining etik tamoyillarni qo'llab quvvatlash uchun sharoitni vijdonan va mas’uliyat bilan yaratish hamda ko’maklashish faoliyatini.

Ijtimoiy ishchining professional vakolatliligi ishtimoiy ishning qadriyati hisoblanadi va ularning o‘z majburiyatlarini doimiy professional rivojlanish va professional o‘sishning etik tamoyillariga asoslangancha, samarali bajarishni o‘z ichiga oladi. Bu quyidagi larni anglatadi:

– Professional majburiyatlarni sifatli bajarishga yo‘naltirilgan ijtimoiy ishchining munosib va mas’uliyatli axloqi.

– Professional majburiyatlarni bajarishda ijtimoiy ishchilarning beg‘araz axloqi, professional tamoyil va standartlarga zid bo‘lmagan axloq.

– Mijozi, tadqiqot ishtiropchilari, talabalar, hamkasblar bilan muloqtda xatar va ekspluatasiyani kamaytirish va ularning oldini olish uchun aniq professional chegara o‘rnatish.

– Ijtimoiy ishchilarning professional chegarani buzadigan harakatlar, shu jumladan, katta vakolatga ega bo‘lgan mijozlar, tadqiqot ishtiropchilari, talabalar, hamkasblari bilan yaqin yoki jinsiy xususiyatdagi munosabatdan qochishlari zarur.

– Ijtimoiy ishchining o‘z amaliy faoliyatida bilimi, malakasi va mahoratidan samarali foydalana bilishi.

– Ijtimoiy nohushlik omillari va ijtimoiy muammolarni hal qilish yo‘llarini aniqlash uchun tadqiqot faoliyatida ishtirop etish, olingan ilmiy natijalarni o‘z hamkasblari orasida tarqatish, bilimlarni ommaviy axborot aloqalari orqali ommalashtirish.

— O‘z bilimlari chegarasini tan olish va o‘zlarining ish beruvchilarini ishga boshqa professionallarni jalb qilish zaruriyati to‘g‘risida xabardor qilish.

Professional axloq. Milliy tashkilotlar, Ijtimoiy Ishchilar Xalqaro Federatsiyasi, Ijtimoiy Ishchilar Maktablarining Xalqaro Assotsiatsiyasi a’zolariga yuklangan mas’uliyat – Ijtimoiy Ishchilar Xalqaro Federatsiyasi, Ijtimoiy Ishchilar Maktablarining Xalqaro Assotsiatsiyasi dekloratsiyasiga muvofiq etikada ularning shaxsiy qoidalari va etik me’yorlarni muntazam ravishda yangilab turish va rivojlanirishdan iborat.

Milliy tashkilotlar ijtimoiy ishchilar va «ijtimoiy ish» ixtisosligi bo‘yicha ta’lim beradigan institut (maktab, fakultet, bo‘linma) larni bu qoidalari va me’yorlar haqida xabardor qilishga mas’uldirlar.

Ijtimoiy ishchilar ularning davlatlarida ayni lahzada harakatdagi etikaning qoidalari va me’yorlari bilan muvofiqlikda harakat qilishlari lozim. Bu qoidalari va me’yorlar, umuman olganda, milliy kontekstda ularni qo’llashni aniq belgilovchi xiyla mukammal tavsiyalardan iborat bo‘ladi.

Ijtimoiy siyosat tamoyillari ichida eng asosiy tamoyil bu ijtimoiy adolat tamoyilidir. U nafaqat ijtimoiy siyosatning balki davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarini asosiy tamoyili bo‘lib hisoblanadi. Ulug‘ bobokalonimiz Amir Temur siyosatining asosiy tamoyili «Kuch – adolatda» deb nomlanishi bejiz emas.

Ijtimoiy adolat bu jamiyatni moddiy va ma’naviy rivojlanish darjasи bilan obyektiv ravishda belgilanadigan odamlarni hayotiy ahvoidagi tenglik (va tengsizlik) o‘lchovidir. Ijtimoiy adolat real xalq hokimiyatini va qonun oldida hamma fuqarolarni tengligini, millatlarni teng huquqlilagini, shaxsni hurmat qilinishini va uni har taraflama rivojlanishi uchun sharoit yaratilishini qamrab oladi. Bu keng ijtimoiy kafolat hamdir. Ish bilan ta’minlash, ma’lumot olish, madaniy, tibbiy ish olish va uy-joyga ega bo‘lish, keksalarga, onalik va bolalikka g‘amxo‘rlik qilish kafolatidir. Davlat ijtimoiy siyosatining muhim vazifalaridan biri bu ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida ijtimoiy adolat tamoyilini to‘liq amalga oshirishdan iborat. Ijtimoiy adolat faqatgina odamlarning ongida mavjud bo‘lmaydi. Balki u tarixiy xususiyatga ega bo‘lib olg‘a rivojlanib borayotgan real ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi.

Ijtimoiy adolat ijtimoiy-iqtisodiy tamoyil bo‘lgani kabi xuddi shunday bu axloqiy-huquqiy kategoriya hamdir. U odamlarni xohish va imkoniyatini, erkinlik va mas’uliyatini, huquq va majburiyatini, odamlarning ishini va jamiyatdagi o‘rnini munosibligini anglatadi. Bundan tashqari ijtimoiy sohada ma’lum bir axloqiy me’yorlar hukmronlik qilishi kerak-ki, zarur bo‘lganda bu me’yorlar o‘zgalar manfaatini (yordamga muhtojlar manfaati) ustivorligini ta’minlashi lozim.

Inson hayatini va birinchi navbatda yordamga muhtojlar hayatini farovon qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosat vazifalarini samarali hal qilishda yuqorida qayd qilingan omillar ayniqsa ijtimoiy adolat tamoyilining roli muhim ahamiyatga ega. Faqat demokratik, huquqiy davlatgina bunday tamoyillarga rioya qilib, xalq hayatini farovonligini ta’minlashi mumkin.

Har bir fan nazariy va amaliy bilimlar, nazariyalar, uslub va uslubiyat (texnologiya)lar qorishmasidan iborat. Shundan kelib chiqilsa, ijtimoiy ish faoliyatning universal turi, bilimning sohasi sifatida esa u boshqa fanlarning butun bir majmuyi bilan uzviy bog‘liq, ijtimoiy ish tamoyillarining bir necha guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) mazmuniga ko‘ra: insonparvarlik; demokratizm; qonuniylik; kishilar faoliyatining muayyan shart-sharoitlari bilan bog‘liqlik; ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish; ijtimoiy adolat; altruizm; ijtimoiy, jamoaviy va shaxsiy manfaatlarning uyg‘unlashuvi; o‘zini-o‘zi ta’minlash; ijtimoiy xizmatlar sohasida inson va fuqarolar huquqini himoya qilish va ularning davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minlash, fuqarolar uchun ijtimoiy xizmatlarga ega bo‘lishda teng imkoniyatlarni ta’minlash; xizmatlarga ega bo‘lishda fuqarolarning roziligi; ijtimoiy xizmatlarga ega bo‘lishning ochiqligi; ijtimoiy ishda sir saqlash; ijtimoiy xizmatning barcha tur va shakllari vorisiyligi; adreslilik; sog‘ligi va hayoti xavf ostida bo‘lgan fuqarolarga ko‘mak berishdagi ustuvorlik; profilaktika yo‘nalishi; ijtimoiy rehabilitatsiya va adaptatsiyaga ko‘maklashuv; idoralararo va fanlararolik; faoliyat nuqtayi nazaridan yondashuv; ijtimoiy xizmatni hududiy tashkil qilish; aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda ko‘ngilli jamoatchilik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va boshqalar;

2) tashkiliy: ijroni nazorat qilish va tekshirish; xizmatchi-larning vakolatlari va mas'uliyatlari, huquqlari va majburiyatlarining birligi; umumiylit; komplekslik; vositachilik; hamkorlik; yordam ko'rsatish va boshqalar;

3) psixologik-pedagogik: kompleks va differensiallashgan yondashuvlar; texnologik vakolatlilik; faollikni rag'batlantirish; maqsadga yo'naltirilganlik; hamdardlik, jozibadorlik, ishonch; vorisiylik; paydarpaylik; uzlusizlik; mijozning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va boshqalar.

Insonparvarlik ijtimoiy ishdagi insonni oliy qadriyat sifatida baholaydigan, uning fuqarolik sha'ni va huquqlarini himoya qiladigan, shaxsning o'z qobiliyatlarini erkin va har tomonlama namoyish qilishi uchun sharoit yaratadigan yetakchi maqsadlidir.

Xizmat yo'rqnomalari, buyruqlar va farmoyishlar bilan tartibga solinadigan rasmiy munosabatlardan farqli o'laroq, ijtimoiy xizmatchi va mijoz o'rtasidagi norasmiy aloqalar, avvalo, sanksiyalash ahamiyatiga ega bo'limgan, shaxsiy sifatlarning ruhiy jihatdan mosligi, manfaatlarning umumiyligi, simpatiyalar va antipatiyalar asosida vujudga keladi. Ijtimoiy ishdagi munosabatlarning norasmiy xususiyati ruhiy fenomen sifatida namoyon bo'lsa ham ijtimoiy xizmatchining xizmat majburiyatları, lavozim faoliyatları doirasidan chetga chiqmaydi.

Ijtimoiy ishdagi demokratizm mijoz bilan ruhiy aloqa o'rnatish ko'nikmalarini, muloqot me'yorlari va qoidalariga rioya qilinishini, mijoz shaxsiyatiga nisbatan hurmat va e'tiborni, uning shaxsiy muammolarini hal qilishga o'zini jalb etishni va aql kuchi, bilimlari, axloqi, tajribasi yordamida ta'sir o'tkazishni talab qiladi.

Qonuniylik ijtimoiy ishdagi asosiy mazmuniy tamoyillardan biri sifatida qonunlar va unga asoslangan huquqiy hujjalarga barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan qat'iy rioya qilinishini taqozo etadi. Me'yoriy-huquqiy hujjalalar shunday bir shaklki, unga davlatning siyosati, shu jumladan, ijtimoiy siyosat yo'g'riladi. Huquqning roli va maqsadi avvalo, siyosatni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilishdir, biroq bu rolni huquq faqatgina uning me'yorlariga barcha tomonidan rioya qilingani taqdirda bajarishi mumkin. Mana shunda

qonuniylikning birlamchi va asosiy talabi, jumladan, ijtimoiy ishdagi qonuniylikning talabi namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ishning eng muhim mazmuniy tamoyillaridan biri uning odamlar hayot faoliyat muayyan sharoitlari bilan bog‘liqligidir. Bu tamoyilda ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotining birligi namoyon bo‘ladi, uni amalga oshirish esa aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning, uning huquq va manfaatlarini himoya qilishning ilmiy asoslangan tarzda qo‘llanishi va realligini ta‘minlab beradi.

Hayot har doim nazariyadan ko‘ra boyroq, ko‘rsatma va yo‘riqnomalardan ko‘ra ko‘p qirraliroqdir. Vaziyatlar va hayot faoliyatining shart-sharoitlari muttasil o‘zgarib turishi, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning madaniyat darajasi, ma’lumoti, jinsi, yoshi, mehnat qobiliyati va malakasi, sog‘ligiga ko‘ra turfaligi ijtimoiy xizmatchilar duch keladigan ijtimoiy muammolarning doimo yangilanib turishi va o‘ziga xos bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy ishning shaxs hayot faoliyat muayyan sharoitlari bilan bog‘liqlik tamoyili, avvalo, muayyan vaziyatni tahlil qilish va baholash, insonning hayot sharoitiga ijtimoiy tashxis qo‘yishni nazarda tutadi. Bu tamoyil ijtimoiy xizmatchini ijtimoiy vaziyatdagi ijtimoiy ish maqsadlariga erishish uchun bevosita ahamiyatga molik xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltiradi. U mavhum nazariyalarga, qoliplarga, inersiya va rasmiyatchilikka berilish uchun yo‘l qo‘ymaydi.

Ijtimoiy ishning muhim tashkiliy tamoyillaridan biri ijroni nazorat qilish va tekshirishdir. Ijtimoiy xizmatlarning nazorat qilish-tekshirish funksiyasi alohida bir soha bo‘lmasdan uning ajralmas tarkibiy qismidir. Ijtimoiy xizmatlar va boshqaruv organlari faoliyatidagi nazorat qilish-tekshirish faoliyatining mazmuni davlat tomonidan aholi turli guruhlarini ijtimoiy muhofazalash bo‘yicha belgilangan tadbirlarning ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlashdan iborat.

Ijtimoiy ishning asosiy tashkiliy tamoyillaridan biri vakolat va mas‘uliyat, huquq va majburiyatlarning birligidir. Ijtimoiy xizmatlar va ularni boshqaruv organlari faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadi, ularning aniq faoliyat yuritishiga har bir ijtimoiy xizmatchi o‘z funksiya va vazifalarini aniq bilishi orqali erishiladi.

Hayot kichik mas‘uliyat bilan ulkan vakolatlarning birikishi ma’muriy o‘zi bo‘larchilik, yaxshi o‘ylanmagan qarorlar qabul

qilish uchun qulay sharoit yaratishini ko'rsatmoqda. Ayni paytda, kadrlarning katta mas'uliyatga va kichik vakolatga ega bo'lishi tezkor, qat'iy harakat qilishga yo'l qo'yaydi, amalda ijtimoiy sizmatlar mutaxassislarining tashabbusini bo'g'adi va mas'uliyatsizlikni keltirib chiqaradi. Mana shuning uchun ham ijtimoiy ish bo'yicha har bir mutaxassisning vakolatlariga mutanosib tarzda mas'uliyatini belgilash va ularga yuklatilgan funksional majburiyatlarning aniq bajarilishini ta'minlash ijtimoiy ish samaradorligining zaruriy shartidir.

Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotida psixologik-pedagogik tamoyillarga katta o'rinni ajratiladiki, ular ijtimoiy ishning shakl va usullariga, mijozlarga ko'rsatiladigan ta'sir usullariga qo'yiladigan talablarni ifodalaydi.

Ijtimoiy ishning mana shu guruhg'a kiruvchi asosiy tamoyillaridan biri kompleks yondashuv tamoyilidir. Ijtimoiy ishdagi kompleks yondashuv bir tomondan ijtimoiy ish obyektiga o'tkazilayotgan ta'sirning bir butunligi va har tomonlamaligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, idorachilik, mahalliychilik va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi cheklanishlarga yo'l qo'yaydi hamda odamlarning manfaatlari, ehtiyojlari, kayfiyatlarini o'rganishni, ularning xulq-atvori, o'zini-o'zi his qilishlariga o'tkazilayotgan ta'sirini bashoratlashini; shuningdek, odamlarda ehtiyoj va istaklar, ularning kasbiy mas'ulligi, ijtimoiy mavqeyi, maishiy turmush shart-sharoitlari va hayot tajribasi bilan bog'liq bo'lgan real shaxslarni ko'ra bilishni talab qiladi.

Psixologik-pedagogik tamoyillar orasida differensiatsiyalashgan yondashuvni alohida ajratib ko'rsatish lozim. Ijtimoiy ishdagi differensiatsiyalashgan yondashuv turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, kasblar va yoshlardagi moddiy va ma'naviy qadriyatlarga va atrofdagi voqelikka o'ziga xos qarashlar va munosabatlarning paydo bo'lishi qonuniy xususiyotga ega ekani bilan belgilanadi.

Ijtimoiy siyosat inson manfaatlarini qaysi shaklda ifoda etmasin, odamlar uni faqatgina natijalari ro'yobga chiqqan taqdirdagina his qiladilar. Muayyan harakatlar bilan mustahkamlanmagan deklaratsiyalar va shiorlar faqatgina ularning obro'sini ketkazish usuli bo'lib qoladi xolos. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan ijtimoiy

xizmatchilar, ijtimoiy xizmatlarning boshqaruv organlari texnologik jihatdan vakolatliliga bog'liq.

Texnologik vakolatlilik – ijtimoiy xizmatchining vujudga kelayotgan muammolarni hal qilish sharoitlari va texnologiyasidan chuqur xabardorligi va o'z bilimlarini amaliyatga kasbiy savodxonlik bilan amalga oshirish ko'nikmasi bo'lib, u muntazam o'qishni va xizmatchilarni qayta tayyorlashni, aniq axborotni, boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlaridagi tahliliy va bashoratlash faoliyatini, ijtimoiy ish obyektlari to'g'risida chuqur va atroflicha bilimga egalik, ularning tasnifi va xususiyatlarini bilishni, ijtimoiy xizmat mijozlari bilan ishlashda ishchanlik va tashkiliylilikni taqozo qiladi.

Ijtimoiy-psixologik tamoyillarning eng muhimlaridan biri ijtimoiy faollilikni rag'batlantirish bo'lib, u insonni ongli, manfaatni anglagan holda uning kuch-g'ayratini sarflashdagi, qobiliyatlarini, axloqiy va iroda salohiyatini ijtimoiy muhim maqsadga erishish yo'lidagi faolligini oshirishga undaydi. Bunda har qanday faoliyat turida rag'batlantirish kuchining manbayi bo'lib, manfaatlar va ehtiyojlarning o'zi emas, balki ularni qondirish darjasи xizmat qiladi.

Ijtimoiy ishda rag'batlantirish tamoyili uning ma'naviy-axloqiy va moddiy shakllarining birligi va uyg'unlashtrilishini; shaxsning individual, kasbiy, ma'naviy-madaniy va ruhiy xususiyatlarini adekvat vositalar va usullar yordamida; insonning ishga, hayot faoliyatining ijtimoiy qadriyatlariga munosabatlarini baholashdagi xolislik va oshkoralarlikni taqozo qiladi.

Ijtimoiy ishning psixologik-pedagogik tamoyillari jumlasiga maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili ham kiradi. Ijtimoiy xizmatchining doimo diqqat markazida turadigan mijozga ta'sir o'tkazish maqsadi uning faoliyati xususiyatlari va usullarini belgilaydi, ijtimoiy ish mazmuni va shakllarini oldindan aniqlab beradi. Maqsadga erishish ijtimoiy xizmatchi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning ta'sirchanligi va samaradorligi uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi maqsadga yo'naltirilganlik tamoyilining alohida mutaxassis faoliyatida ham, ijtimoiy xizmatlar tuzilmasi faoliyatida ham qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik ijtimoiy ishning barcha tamoyillarini bir butunlikka jamlab ish usuli va shakllarini tanlash jarayoniga ilmiylik baxsh etadi.

Igor Viktorovich Vachkovning psixologik o‘yinlari va mashqlari¹

«Eng-eng» mashqi

Olib boruvchining buyrug‘iga ko‘ra, qatnashchilar eng . . . (quvnoq, muloqotmand, saxiy, kamtar, intiluvchan va h.k.)ning yelkasiga qo‘lini qo‘yishsin. Eng ko‘p qatnashchining tanloviga sazovor bo‘lgan talabani esa olib boruvchi «eng istiqbolli ijtimoiy xodimga» maxsus medali bilan mukofotlashi mumkin.

¹ Teterskiy S.V. «Ijtimoiy ishga kirish», A.Begmatov tarjimasi. Toshkent. 2006 y 399 b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997.
2. Karimov I. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-yilligiga bag‘ishlangan tantanali yigilishdagi ma’ruza // Pravda Vostoka. 2003-yil 6-dekabr.
3. Karimov I. Konstitutsiya – mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy asosi // Xalq so‘zi. 2003-yil 6-dekabr.
4. Karimov I. Mamlakatning taraqqiyoti va xalqimizning turmush darajasini oshirish – barcha demokratik yangilanishlar va iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
5. Karimov I. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qatiyat bilan davom ettirishdir. - Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
6. Karimov I. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
7. Агапов Э.П. Социальная работа как феномен культуры. - Ростов-на-Дону, 1999.
8. Американская социология. Перспективы, проблемы, теории. - М.,1972.
9. Ганиева М.Х. ХХI век - век социального работника. // Ж. Бола ва Замон. 2005, №1,-С. 24-25.
10. Ганиева М.Х. Парадигма «Изучение, диагноз, лечение». История развития социальной работы как вида деятельности. // Ж. Бола ва Замон. 2007. - № 1 (6).-С. 34-36.
11. Тендерный калейдоскоп. - М., 2002.
12. Григорев С.И. Социология и социальная работа. - Барнаул, 1991.
13. История социальной работы. - М., 2002.
14. Ким Л. На пути к решению кадровых вопросов в системе социальной защиты детей: организация курсов переподготовки по социальной работе в Узбекистане /Мате-

риалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.

15. Кравченко. Социология - справочное пособие. - М., 1996.

16. Козлов А.А. Социальная работа за рубежом: состояние, тенденции, перспективы. - М., 1998.

17. Краткий словарь терминов социальной работы. - Саратов. Изд-во Поволжского филиала Российского учебного центра, 1996.

18. Кузмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект, 2002.

19. Павленок П.Д. Введение в профессию «Социальная работа»: Курс лекций. -М., 1998.

20. Павленок П.Д. Социологические методы и техника изучения социальных проблем. -М., 1995.

21. Основы социальной работы. - М., 1997.

22. Справочное пособие по социальной работе. - М.,1997.

23. Социология для социальной работы. - М.: Магистр-Пресс, 2002.

24. Социальная работа /Под ред. В. И. Курбатова. - 2-изд., - Ростов н\Д, 2003.

25. Социальная работа: теория и практика. - М.: Инфра, 2002.

26. Социальная работа: Словарь справочник /Под ред. В.И. Филоненко. Сост.: Э.Г. Агапов, В.И. Акопов, В.Д. Альперович, А.О. Бухановский и др. - М: Контур, 1998.

27. Социальная работа: методология, теория, технология. - Саратов, 1998.

28. Теория социальной работы: Учебник /Под ред. Проф. Э.И. Холостовой. - М.: Юрист, 1998.

29. Теория и методика социальной работы: Краткий курс / Под ред. С.И. Григорева. - М., 1994

30. Тетерский С.В. Введение в социальную работу. -М., 2003.

31. Мёрфи Т. Развитие социальной работы в Узбекистане в международном контексте/Материалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. -Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.
32. Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. - М., 1999.
33. Хрестоматия к тренингу «Введение в социальную работу». Проект «Развитие социальной работы на академическом уровне в Узбекистане». - Ташкент, 2006.
34. Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы». Распространение программы переподготовки по социальной работе и продвижение профессии «социальная работа» в Узбекистане. / Составители: М.Х. Ганиева, М.Х. Карамян. - Ташкент: МинВУЗ-РССАД- ТашГИК-ЮНИСЕФ, 2008.
35. Чупрунов В.И. Молодёж в общественном воспроизведстве // Социологические исследования. 1998. №3.
36. Эриксон Э. Детство и общество. - М., 1992.
37. Ярская-Смирнова Э. Профессиональная этика социального работника. - М.: Ключ, 1998.

VII bob. IJTIMOIY ISH ETIKASI: ASOSIY TAMOYIL VA PRINTSIPLAR

Reja:

7.1 Ijtimoiy ishda axloqiy tamoyillar.

7.2 Ijtimoiy ishda xalqaro axloqiy standartlar.

**7.3 Ijtimoiy ish xodimining axloqiy me'yorlarni hayotga
tatbiq etishi.**

Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va printsiplar – 1994-yilda Kolombo shahri (Shrilanka) da Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi umumiy yig‘ilishida «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qabul qilindi. Bu hujjat ikki qismidan iborat. «Ijtimoiy ish tamoyillarining xalqaro deklaratsiyasi» va «Ijtimoiy xodimlarning xalqaro axloqiy andozalari». Bu hujjat-larning qabul qilinishi Federatsiya tomonidan uzoq yillar davomida orqaga surib kelindi, bunga ajablanmasa ham bo‘ladi. Bu tashkilotga a’zo bo‘lgan yuzlab mamlakatlarning a’zolari diniy va siyosiy qarashlari bo‘yicha juda xilma-xil. Ularni yo‘llagan davlatlar o‘zlarining tuzilishi, boshqaruv shakllari, madaniyati bo‘yicha xilma-xil bo‘lib, o‘zlarining an'analariga va ijtimoiy ishning shakllanish tarixiga ega. Qizg‘in munozaralardan keyin umumiy xulosaga kelishga muvaffaq bo‘lindi, shuning natijasida mazkur deklaratsiyalar dunyoga keldi.

«Ijtimoiy ishning axloqiy tamoyillari deklaratsiyasida» quyidagi tamoyillar bayon qilingan:

Har bir odam noyob hodisa bo‘lib, unga axloq nuqtayi nazaridan e’tibor berish lozim.

Har bir odam o‘z ehtiyojlarini qondirishda boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmasdan harakat qilish huquqiga ega va u jamiyat farovonligini oshirishga o‘z hissasini qo‘slishi lozim.

Har bir jamiyat, boshqaruv shaklidan qat'i nazar, o'zining har bir a'zosini maksimum darajada noz-ne'matlar bilan ta'minlashga intilishi lozim.

Ijtimoiy soha xodimlari ijtimoiy adolat tamoyillariga doxildir.

Ijtimoiy soha xodimi o'zining bilimlarini, ko'nikma va malakalarini alohida odamlar, guruqlar, jamoa va jamiyatlar taraqqiy etishi uchun, shaxsiy-ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarf qilishi lozim.

Ijtimoiy ish diskriminatsiyani rad etish asosiga quriladi. Demak, u mijozlarning jinsi, yoshi, millati, diniy e'tiqodi, tili, siyosiy e'ti-qodlari, jinsiy yo'naltirilganligidan qat'i nazar, amalga oshriladi.

Ijtimoiy xodimlar har bir odam va ijtimoiy guruh huquqlarini, uning mustaqilligi va sha'nini hurmat qilar ekan, «BMT ning inson huquqlari xartiyasi» va boshqa xalqaro hujjalarga asoslanishadi.

Ijtimoiy ish mijozlarning dahlsizligini himoyalash tamoyiliga asoslanadi, bunga tanlov erkinligi va kasbiy sir, mijozning o'z huquqlari va «shaxsiy ishi» delosi mohiyatini tushuntirib berishga bo'lgan huquqi ham kiradi.

Ijtimoiy xodimlar kasbiy sir saqlaydilar, hatto u amaldagi qonunchilikka zid bo'lsa ham. Ijtimoiy ish mijozning ishtiroki va u bilan hamkorlikka asoslanadi. Ijtimoiy xizmatchilar o'zlaridagi keladigan har qanday murakkab vazifani hal qilishda mijozlar bilan hamkorlik qilishilar lozim, bunda mijozning manfaatlarini eng yaxshi usulda himoya qilish uchun harakat qilish kerak. Ijtimoiy soha xodimlari xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar o'z muammolarini hal etishda juda faol ishtirok etishlari lozim. Mijozlar har doim ijtimoiy soha xodimi tomonidan ana shu bирgalikdagi harakatlarning maqsadi va oqibatlari (xatar va foyda) haqida ma'lum olishlari zarur.

Ijtimoiy ish mijozlarining ixtiyoriyligi tamoyiliga asoslanadi. Demak, u har qanday majburiylikni minimum darajaga tushirish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Ishtirokchilardan bir guruhining muammolarini boshqa guruh muammolari hisobiga hal qilish zaruriyati tug'ilganda majbur qilish, har doim muqobil guruhning manfaatlarini batafsil ko'rib chiqish, har ikki guruhni to'la eshitib bo'lgandan keyingi tamoyil tanlashga asoslanishi kerak. Ijtimoiy soha xodimlari muqobil guruhning har

ikkisini ham malakali vakillar bilan ta'minlashlari zarur. Ijtimoiy xodimlar, shuningdek, o'z mamlakatlari qonunchiligidagi ochiq majbur qilish imkoniyatlarini minimum darajaga tushirishlari kerak.

Ijtimoiy ish o'z fuqarolarini ezadigan, terrorizm, qiyonoqlar va shunga o'xshash shafqatsiz vositalardan foydalanadigan biror shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki hokimiyat tuzilmalarini qo'llab-quvvatlashga mutlaqo zid.

«Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari» da 5 guruh ko'rsatilgan axloqiy hulq-atvor andozalari; mijozlar bilan o'zaro munosabatlar; agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar; hamkasabalar bilan o'zaro munosabatlar; kasbga munosabat.

Axloqiy xulq-atvor andozalari:

Har bir inson betakror ekani, inson xulq-atvorini va unga ko'rsatiladigan yordamini belgilaydigan sharoitlar noyob ekanini tushunishga intiling;

Kasbiy qadriyatlarni tatbiq qiling, bilim va ko'nikmalaringizni takomillashtiring; kasbingiz obro'sini tushiradigan xatti-harakatlar qilmang;

Shaxsiy va kasbiy imkoniyatlaringizga ortiqcha baho bermang;

Har doim paydo bo'layotgan muammolarni hal qilishda bilim-laringiz, ko'nikmalaringiz va ilmiy bilish metodlaridan foydalaning.

Jamiyat hayotining sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan siyosatning asosiy yo'nalishlarini va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda kasbiy tajribangizdan foydalaning.

Ijtimoiy ehtiyojlar, shaxsiy, guruh va jamoa, milliy va xalqaro ijtimoiy muammolarning mohiyati va xususiyatini aniqlang va ularni tushuntiring.

O'zingizning huquqiy shaxs sifatida ham, kasbiy uyushma, agentlik yoki tashkilot vakili sifatida ham bajarayotgan harakat-laringizni tushunarli shaklda aniq va ravon izohlang.

Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar:

1. Mijozlarga nisbatan majburiyatleringizni birinchi o'ringa qo'ying, biroq boshqa odamlarning axloqiy jihatlarini ham hurmat qiling.

2. Mijozning o'zaro ishonch, sir va konfidensiallikka, axborot-dan mas'uliyatli foydalanishga bo'lgan huquqlarini himoya qiling.

Axborot to‘plash va uni boshqa shaxslarga berish faqatgina mijozning manfaatlari yo‘lida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat doirasida yuz berishi mumkin, bu harakatlarning zarurligi haqida mijoz oldindan xabardor qilmay turib va uning rozilisiz boshqalarga berilmaydi. Bundan mijoz o‘z xatti-harakatlari uchun mas’ul bo‘la olmaydigan va bu harakatlar boshqa shaxslar uchun jiddiy xavf tug‘diradigan holatlar mustasno. Mijoz o‘z haqida ijtimoiy xodimda mavjud bo‘lgan har qanday axborot bilan tanishish huquqiga ega.

3. Mijozning shaxsiy intilishlari, tashabbuslari va xususiyatlari ni qadrlang va hurmat qiling. Agentlik va ijtimoiy muhit doirasida ijtimoiy xodim mijozga o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatli bo‘lishda ko‘maklashadi. Biror sababga ko‘ra mana shu darajada kasbiy yordam ko‘rsatilishini imkonli bo‘lmasa, bu haqda mijozga xabar beriladi va u o‘z bilganicha harakat qiladi.

4. Mijozga (alohida odamga, guruhga, jamoaga, jamiyatga) o‘zini namoyon qilishi va shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishda yordam bering, shu bilan birga boshqa odamlarning ham huquqlarini mazkur darajada saqlang. Mijozga xizmat ko‘rsatish asosida uning mutaxassis bilan muloqotlarida o‘zining qonuniy istaklari va foydasiga erishish uchun foydalanish zarurligini tushuntirish yotadi.

Agentliklar va tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlar.

1. Ijtimoiy siyosatlari, metodlari va amaliyoti mijozlarga sifatli yordam ko‘rsatish va kasbiy ijtimoiy ishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan agentliklar va tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlikda ishslash.

2. Agentlik yoki tashkilotning nizomdagи maqsadlari va vazifalariga to‘la mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish; Ijtimoiy ishning eng yuksak andozalariga erishish maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni, uning uslubiyoti va amaliyotini ishlab-chiqishga o‘z hissasini qo‘shish.

3. Mijoz taqdiriga to‘la mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish; Ijtimoiy siyosatga, uning uslubiyoti va amaliyotiga zarur o‘zgarishlarni tegishli agentliklar va tashkilotlar orqali kiritish; Barcha imkoniyatlardan foydalansangiz-u, biroq o‘zgartirishlarni

kiritishning imkoni bo‘lmasa, unda yuqori tashkilotlarga yoki manfaatdor keng jamoatchilikka murojaat qilish.

4. Mijozga yoki jamoga ijtimoiy ish samaradorligi to‘g‘risidagi hisobotni mijozlarga, agentlik va tashkilotlar oldida vujudga keladigan muammolarni davriy tahlil qilish, shuningdek, shaxsiy faoliyatizingizni tahlil qilish shaklidagi kasbiy hisobot sifatida taqdim qilish.

5. Ijtimoiy ish axloqiy tamoyillari harakati, bajariladigan ish tartibi va amaliyatiga zid bo‘lgan harakatlarni qilmaslik.

Hamkasabalar bilan o‘zaro munosabatlar.

1. Hamkasblaringiz va boshqa mutaxassislarning kasbiy tayyor-garligi va amaliy faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularga ijtimoiy ish samaradorligiga erishishlarida qo‘ldan kelgan yordamni berish.

2. Hamkaslar va boshqa mutaxassislarning turlicha fikrlari va amaliy yondashuvlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, tegishli tashkilotlarda tanqidiy mulohazalarni to‘la mas’uliyat bilan bayon qilish.

3. Hamkaslar, boshqa mutaxassislar va ko‘ngillilar orasida bir-birlarini o‘zaro mukammallashtirish va o‘zlarini namoyon qilish maqsadida bajarilayotgan bilimlar, ko‘nikmalar va g‘oyalalar olishga va tarqatishga bo‘lgan harakatlarga ko‘maklashish.

4. Mijozlar manfaatlari yoki axloq me’yorlari buzilishi to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotlarni tegishli idoralarga yetkazish.

5. Hamkasblarni adolatsiz hurujlardan himoya qilish.

Kasbga munosabat.

1. Kasbning qadrini, bilimlar va metodologiyasini himoya qilish, ularni ommalashtirish va takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shish.

2. Ijtimoiy ishdagi professionalizmni ko‘tarish, uni har tomonlama takomillashtirishga harakat qilish.

3. Kasbini o‘rinsiz tanqiddan himoya qilish, kasbini zarur ekani to‘g‘risidagi ishonchni mustahkamlash uchun imkoni bor ishlarning barchasini qilish.

4. Kasbini uning nazariyalari, usullari va amaliyotini konstruktiv tanqid qilish.

5. Yangi va mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ishning yangicha yondashuvlari va usullarini ishlab chiqishni har tomonlama rag‘batlantirish.

Ijtimoiy xodimning majburiyatlari:

1. Mijoz shaxsining sha’ni va noyobligini hurmat qilib uni harakatga, ijodga undash.

2. Mijozga qulqoq tuta bilish, sabr-toqat ko‘rsatish, muammo va vaziyatni tushunish, uning o‘rniga o‘zini qo‘ya bilish, nazokat va odob ko‘rsata bilish.

3. Muloqotmand bo‘lish, ochiq bo‘lish, mijozni gapirtira bilish, birgalikda muammolarning yechimini aniqlash, atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo‘lish;

4. Mijoz va uning atrofidagilar o‘rtasida vosita, bog‘lovchi halqa bo‘lish, mijozga ko‘rsatilayotgan xayriya yordami orqali uning sha’ni pastga urilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

5. Mijoz bilan ishlashda norasmiy bo‘la bilish, mijozning o‘z muammolarini hal qilishda maslahatchi, ko‘makchi vazifasini bajarish, o‘zaro munosabatlarni tenglik asosida qurish.

6. Doimo insonparvarlik va mehribonlik nuqtayi nazaridan yondashish. Mijozni muhokama qilmaslik va unga tanbeh bermaslik; shaxs yoki odamlar guruhiга g‘ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarning oldini olish; mijozni jismoniy yoki ruhiy o‘ng‘aysizlikdan, asabiyashishdan, xavfdan va xatarlardan himoya qilish.

7. O‘z xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash, har qanday makrlar, birovlarini aldash, nopok xattiharakatlarni istisno qilish. Doimo faqatgina mijoz manfaatlari yo‘lida harakat qilish.

8. O‘ziga ko‘makchilarni topa bilish, ijtimoiy ishni rivojlanishda jamoatchilik ko‘magini ta’minalash.

9. Faqatgina o‘zi vakolatli bo‘lgan doirada ish yuritish, o‘z ishining sifati uchun shaxsan mas‘ul bo‘lish; tashqi ta’sir va bosimlarga berilmasdan, mijozni qo‘llanilayotgan tadbirlar, unga ko‘rsatayotgan yordami, yozuvlar, to‘planayotgan ma’lumotlar haqida xabardor qilish;

10. O‘zining kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadlar yo‘lida foydalanmaslik, vaziyatlarni muhokama qilish va

baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish, mijoz ishonib bildirgan sirni hurmat qilish va uni fosh etmaslik. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haqni faqat qonuniy asoslarda olish. Bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg'alar olmaslik.

11. Kasbiy bilimlari, mahorati, malakasini uzluksiz oshirib borishga intilish. O'z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish.

12. Kasbning obro'si va pokligini himoya qilish va orttirishga intilish. Kasbiy o'zaro munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonida hamkasblar ishonchiga hurmat bilan qarash, nazokat va adolatni saqlash. Kim bo'lishidan qat'i nazar hamkasbi axloqqa zid harakat qilsa, unga qarshi choralar ko'rish (V.G.Bocharova).

Odatda,sovuqqonlik deb baholanadigan kasbiy me'yirlarni buzish yoki xatolar «beg'amlik, malakasizlik yoki oldindan o'ylangan niyat tufayli kasbiy me'yirlarni buzish» sifatida baholanadi. Ijtimoiy soha xodimlari maxfiylikni buzganlari, bolalar bilan yomon munosabatda bo'linayotgani haqidagi shubha to'g'risida xabar bermaganlari, suiste'molliklar, so'z bilan haqoratlar yoki jismoniy zo'ravonlik tahdid singari holatlarga befarqlik, xatti-harakatlar yordamida haqoratlash, davolash yoki axloq tuzatish muassasasiga xatar natijasida yotqizish tufayli erkinlikni cheklagani uchun sud tomonidan ta'qib qilinishi mumkin.

Ijtimoiy ishchilarning axloq to'g'risidagi bilimlari kasbiy amaliyotining muhim qismi hisoblanadi. Ularning axloqiy xushmuomalalik bilan yo'l tutishga intilishlari va qobiliyatlari taqdim etilgan xizmatlar sifatining muhim jihatni hisoblanadi. IIXF va IIMXA larning axloqqa qaratilgan maqsadlari bu ijtimoiy ish tashkilotlari, ijtimoiy ish maktablari va ijtimoiy ish sohasi bilan shug'ullanadigan talabalar tomonida axloqiy muammolarning tahlili va muhokama jarayonlarini osonlashtirish va bajarilishiga yordam berish hisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimlari duch keladigan axloqiy muammolarning ba'zilari o'zлari yashaydigan hududga xos bo'lishi, boshqalari esa barcha davlatlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Umumiy tamoyillarga rioya qilgan holda, umumtasdiqlangan IIXF va IIMXA o'z oldilariga butun dunyo ijtimoiy ish xodimlarining o'zilari duch keladigan muammolar va dilemmalar orasida fikr yuritishi va mulohazalarni kuchaytirishi va

rag‘batlantirishi hamda ular tomonidan aniq qabul qilinadigan qarorlar, xulosalarni axloqiy muammolar majmuasining umumiy bilimlariga asoslanishini maqsad qilib qo‘ydilar. Ijtimoiy ish sohasi axloqiy tomonlarining muammoli jahhalari quyidagilar hisoblanadi:

– nizolarni barcha tomonlariga sodiq va xolis bo‘lgan holda bartaraf qilish zarurligi;

– ijtimoiy ishchilar yordamchilar sifatida harakat qilishlari bilan bir vaqtning o‘zida yordam ko‘rsatilish jarayonini nazorat qilishi zarurligi;

– ijtimoiy ishchilar o‘zlarini ish olib borayotgan mijozlarining talab-ehtiyojlarini himoya qilish majburiyati va jamiyat talablari bilan o‘z faoliyatlarini ko‘rsatilgan xizmat ma‘qulligi va samaradorligi asosida muvofiqlashtirilishi zarurligi o‘rtasidagi nizo.

– jamiyat ixtiyorida bo‘lgan resurslarning cheklanganligi.

IIXF va IIMXA tegishli uchrashuvlarda 2000-yilda Monrealda (Kanada) alohida qabul qilingan, keyinchalik 2001-yil may oyida Kopengagenda birgalikda kelishilgan ijtimoiy ishning ta’rifi mazkur hujjatning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Ushbu hujjatda inson huquqlari va ijtimoiy adolatning amal qilinishi tamoyillarini belgilab beradi. Keyingi bo‘lim ijtimoiy ish sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan inson huquqlari to‘g‘risidagi turli xil konvensiyalar va deklaratsiyalar haqida bayon qiladi. 4-bo‘limda inson qadr-qimmatini hurmat qilish, shuningdek ijtimoiy adolat va inson huquqlariga amal qilish bo‘limlarida ko‘rsatilgan asosiy axloqiy tamoyillar belgilab o‘tilgan. Yakunlovchi bo‘lim IIXF va IIMXA ning tegishli tamshkilot a‘zolari tomonidan detallashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ish axloqiy xulq-atvorining asosiy qoidalarini o‘z ichiga oladi.

2. Ijtimoiy ish ta’rifi.

Ijtimoiy ish kasbi insonlarning tinchligini ta’minalash maqsadida jamiyatdagi o‘zgarishlarga, insoniy munosabatlar muammolarining hal qilinishiga, shuningdek insonlarning ozodligi va imkoniyatlarini kengayishiga imkon yaratadi. Ijtimoiy ishning asosi bo‘lib, ijtimoiy adolat va inson huquqlarining amal qilinishi tamoyillari hisoblanadi.

3. Xalqaro konvensiyalar.

Inson huquqlarining xalqaro deklaratsiya va konvensiyalari hammaga ma'qul bo'ladigan asosiy standartlarni (mezonlarni) shakllantiradi. Ijtimoiy ishning amaliy faoliyati bilan quyidagi hujjatlar bog'liq:

Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi:

– Fuqarolikka oid va siyosiy huquqlariga qaratilgan xalqaro shartnoma.

– Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to'g'risida xalqaro shartnoma.

– Irqiy taxqirlashning barcha shakllarini istisno qilish to'g'risidagi konventsya.

– Ayollar tahqirlanishining barcha shakllarini istisno qilish to'g'risidagi konventsya.

– Inson huquqlari to'g'risidagi konventsya.

– Aborigen va qabilaga oid xalqlar to'g'risida konventsya.

4. Tamoyillar.

4.1. Inson qadr-qimmatining hurmat qilinishi va inson huquqlari.

Ijtimoiy ish barcha insonlarning azaliy qadriyatlari va qadr-qimmatining tan olinishi va shulardan kelib chiqadigan huquqlarini hurmat qilinishiga asoslanadi. Ijtimoiy ishchilar har bir insonning tinchligini va jismoniy, fiziologik, emotsiyal va ruhiy yaxlitligining himoya qilishlari va qo'llab-quvvatlashlari kerak. Bular quyidagilarni anglatadi:

1. Mijozning o'z o'rnnini, yo'lini mustaqil belgilab olishi huquqini hurmat qilish.

2. Insonlarning ishtirok etish huquqi. Mijozlarning shaxsiy hayotiga qiladigan mustaqil qarorlarni qabul qilishlariga imkon yaratish.

3. Insonga butun shaxs sifatida nazar solish.

4. Kuchli tomonlarni aniqlash va rivojlantirish.

4.2. Ijtimoiyadolat.

Ijtimoiy o'zları ish olib boradigan insonlarga va umuman jamiyatga aloqador bo'lgan ijtimoiyadolatning o'rnatilishiga yordam berishga majburdirlar. Bu quyidagilarni anglatadi:

1. Negativ (salbiy) tahqirlashga qarshi chiqish.

2. Tafovutlarni tan olinishi.
 3. Chora-imkoniyatlarning teng taqsimlanishi.
 4. Adolatsizlikka qarshi chiqish.
 5. Mustahkam birdamlilikda ish olib borish.
- 5. Kasbiy xulq-atvor.**

IIXF va IIMXA – a’zolari kasbiy axloq va mazkur hujjatning mohiyati bilan bog’liq bo’lgan, o’zlariga tegishli bo’lgan qoidalar va qo’llanmalar to‘plamini ishlab chiqishlari va to‘ldirib borishlari kerak. Milliy tashkilotlar ijtimoiy ishchilarni mazkur hujjatlar va qoidalar-dagi o’zgartirishlari bilan xabardor qilishlari kerak. Ijtimoiy ishchilar o’zlarining mamlakatlari spetsifikasini (o’ziga hosligini) inobatga olgan holda qabul qilingan qoidalar va me’yoriy hujjatlarga binoan harakat qilishlari kerak. Shu bilan bir qatorda ular o’z ishlarida kasbiy xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalarga amal qilishlari kerak:

1. Ijtimoiy ishchilar o’zlarining ishlarini samarali bajarilishi uchun zarur bo’lgan malaka va kompetentsiya (huquq, vakolat) darajasini doimo ko’tarib turishlari va rivojlantirishlari kerak.
2. Ijtimoiy ishchilar o’z malakalarini (mahoratlarini) odamlar-ning azobga solinishi yoki terrorizm kabi noinsoniy maqsadlarda qo’llanilishiga yo’l qo’ymasliklari kerak.
3. Ijtimoiy ishchilar vijdonan, halol yo’l tutishlari kerak.
4. Ijtimoiy ishchilar birga ishlaydigan insonlarga hamdardlik, xayrixohlik va g’amxo’rlik bilan muomala qilishlari kerak.
5. Ijtimoiy ishchilar mijozlarining qiziqish va talab-ehtiyoj-larini shaxsiy qiziqish va talab-ehtiyojlariga bo’ysindirmasliklari kerak.
6. Ijtimoiy ish xodimlari sifatli xizmat ko’rsatish imkoniyatlariga ega bo’lishlari uchun o’z ish joylarida, umuman, jamiyatda o’zları haqida ham g’amxo’rlik qilishlari kerak.
7. Ijtimoiy ishchilar mijozlari to‘g’risidagi ma’lumotlarni konfidensialligini saqlashlari kerak.
8. Ijtimoiy ishchilar mijozlari, hamkasblari, ishchilari, profes-sional tashkilotlar va qonun oldida o’z harakatlari uchun javobgar bo’lishlarini anglashlari kerak.
9. Ijtimoiy ishchilar ijtimoiy ish maktablari bilan hamkorlik qilishlari va bu maktablar talabalariga sifatli amaliy treninglar va

zamonaviy amaliy bilimlarni taqdim etgan holda ularni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lib turishlari kerak.

10. Ijtimoiy ish xodimlari hamkasblari bilan doimo kasbiy axloq masalalarini muhokama qilishlari va axloqiy tomonlariga e'tibor bergan holda qarorlar qabul qilishlari kerak.

11. Ijtimoiy ishchilar o'zlarini qabul qilgan qarorlarining sabablarini va izohini tushuntirib berishga doimo tayyor bo'lishlari kerak.

12. Ijtimoiy ishchilar hujjatlarda bayon etilgan tamoyillar, shuningdek mamlakat hujjatlarida qabul qilingan qoidalar doimo muhokamada bo'lib qadrlansa, mazkur hujjatning bajarilishi uchun o'z agentligi va davlatida kerakli bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilishi ustida ishlashlari kerak.

«Ijtimoiy ishning etikasi: tamoyillarining tasdiqlanishi» deb nomlangan hujjat 2004-yil oktabrda Adelaidada (Avstraliya) ijtimoiy ishchilarning xalqaro Federatsiyasi va ijtimoiy ish maktablarining xalqaro Assotsiatsiyasining umumiy uchrashuvida tasdiqlangan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va andozalar» hujjati qachon qabul qilingan?

2. Ijtimoiy ish axloqiy tamoyillarining xalqaro deklaratsiyasida qanday vazifalar aks ettirilgan?

3. Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda nimalarga amal qilinadi?

4. Agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar qanday yo'lga qo'yiladi?

5. Hamkasblarga va o'z kasbiga munosabat deganda nimani tushunasiz?

Test savollari

1. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 1948-yil 10-dekabr
- B) 1950-yil 10-dekabr
- C) 1958-yil 10-dekabr
- D) 1960-yil 10-dekabr

2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya qachon qabul qilingan?

- A) 1989-yil 20-noyabr
- B) 1990-yil 20-noyabr
- C) 1992-yil 20-oktyabr
- D) 1993-yil 20-oktyabr

3. O‘zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasini qachon ratifikatsiya qilgan?

- A) 1992-yil 9-dekabr
- B) 1992-yil 8-dekabr
- C) 1991-yil 1-sentabr
- D) 1991-yil 9-dekabr

4. «Inson uchun hayotdagi birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Aynan shular insonni foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib keladi» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Demokrit
- B) Suqrot
- C) Forobiy
- D) Arastu

5. «Axloqning asosiy mohiyati – o‘zgarmas va abadiy asl fayzlat bo‘lmish donishmandlik» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Suqrot
- B) Demokrit
- C) Forobiy
- D) Arastu

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka məhdid, barqarorlik shartları va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997.
2. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11 yilligiga bag'ishlangan tantanali yigilishdagi ma'ruba // Pravda Vostoka. 2003-yil 6-dekabr.
3. Karimov I. Konstitutsiya – mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy asosi // Xalq so'zi. 2003-yil 6-dekabr.
4. Karimov I. Mamlakatning taraqqiyoti va xalqimizning turmush darajasini oshirish – barcha demokratik yangilanishlar va iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi. –Toshkent: O'zbekiston, 2007.
5. Karimov I. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
6. Karimov I. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliv maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
7. Агапов Э.П. Сотциальная работа как феномен культуры. - Ростов-на-Дону, 1999.
8. Американская социология. Перспективы, проблемы, теории. - М., 1972.
9. Ганиева М.Х. XXI век - век социального работника. // Ж. Бола ва Замон. 2005, №1, -С. 24-25.
10. Ганиева М.Х Парадигма «Изучение, диагноз, лечение». История развития социальной работы как вида деятельности. // Ж. Бола ва Замон. 2007. - № 1 (6).-С. 34-36.
11. Тендерный калейдоскоп. - М., 2002.
12. Григорев С.И. Социология и социальная работа. - Барнаул, 1991.
13. История социальной работы. - М., 2002.
14. Ким Л. На пути к решению кадровых вопросов в системе социальной защиты детей: организация курсов переподготовки по социальной работе в Узбекистане /Материалы

- Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.
15. Кравченко. Социология - справочное пособие. - М., 1996.
16. Козлов А.А. Социальная работа за рубежом: состояние, тенденции, перспективы. - М., 1998.
17. Краткий словарь терминов социальной работы. - Саратов. Изд-во Поволжского филиала Российского учебного центра, 1996.
18. Кузмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект, 2002.
19. Павленок П.Д. Введение в профессию «Социальная работа»: Курс лекций. -М., 1998.
20. Павленок П.Д. Социологические методы и техника изучения социальных проблем. -М., 1995.
21. Основы социальной работы. - М., 1997.
22. Справочное пособие по социальной работе. - М., 1997.
23. Социология для социальной работы. - М.: Магистр-Пресс, 2002.
24. Социальная работа /Под ред. В. И. Курбатова. - 2-изд., - Ростов н\Д, 2003.
25. Социальная работа: теория и практика. - М.: Инфра, 2002.
26. Социальная работа: Словарь справочник /Под ред. В.И. Филоненко. Сост.: Э.Г. Агапов, В.И. Акопов, В.Д. Альперович, А.О. Бухановский и др. - М: Контур, 1998.
27. Социальная работа: методология, теория, технология. - Саратов, 1998.
28. Теория социальной работы: Учебник /Под ред. Проф. Э.И. Холостовой. - М.: Юрист, 1998.
29. Теория и методика социальной работы: Краткий курс / Под ред. С.И. Григорева. - М., 1994
30. Тетерский С.В. Введение в социальную работу. -М., 2003.

31. Мёрфи Т. Развитие социальной работы в Узбекистане в международном контексте / Материалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.
32. Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. - М., 1999.
33. Хрестоматия к тренингу «Введение в социальную работу». Проект «Развитие социальной работы на академическом уровне в Узбекистане». - Ташкент, 2006.
34. Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы». Распространение программы переподготовки по социальной работе и продвижение профессии «социальная работа» в Узбекистане. / Составители: М.Х. Ганиева, М.Х. Карамян. - Ташкент: МинВУЗ-РССАД- ТашГИК-ЮНИСЕФ, 2008.
35. Чупрунов В.И. Молодёж в общественном воспроизведстве // Социологические исследования. 1998. №3.
36. Эриксон Э. Детство и общество. - М., 1992.
37. Ярская-Смирнова Э. Профессиональная этика социального работника. - М.: Ключ, 1998.

VIII bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING MAJBURIYATLARI VA VAZIFALARI. IJTIMOIY ISH XODIMIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Reja:

8.1 Ijtimoiy ish xodimining majburiyatlarini umuminsoniy munosabatlarda namoyon bo'lishi.

8.2 Ijtimoiy ish xodimining axloqiy majburiyatlari.

8.3 Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishda axloqiy muammolar.

Ijtimoiy ish xodimi mijozlar bilan olib boriladigan ijtimoiy ish amaliyotida bir qator majburiyatlarga amal qilishi lozim.

Ijtimoiy ishchining majburiyatlari:

- va'zxonlik qilmaslik, buyruq bermaslik, ta'qiqlamaslik;
- Mijoz shaxsining sha'ni va betakrorligini hurmat qilib uni harakatga, tashabbusga, ijodga undash;
- mijozga qulqoq tuta bilish, sabr-toqat ko'rsatish, muammo va vaziyatni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'ya bilish, nazokat va odob ko'rsata bilish;
- muloqotmand bo'lish, ochiq bo'lish, mijozni «gapirtira bilish», birgalikda muammolarning yechimini aniqlash;
- atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo'lish;
- mijoz va uning atrofidagilar o'rtasida vosita, bog'lovchi halqa bo'lish, mijozga ko'rsatilayotgan xayriya yordami orqali uning sha'ni pastga urilishiga yo'l qo'ymaslik;
- mijoz bilan ishlashda norasmiy bo'la bilish, mijozning o'z muammollarini hal qilishda maslahatchi, ko'makchi vazifasini bajarish; o'zaro munosabatlarni tenglik asosidagi dialogga qurish;
- doimo insonparvarlik va mehribonlik nuqtayi nazaridan yondashish;
- mijozni muhokama qilmaslik va unga tanbeh bermaslik;

- shaxs yoki odamlar guruhiga g‘ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarning oldini olish;
 - mijozni jismoniy yoki ruhiy o‘ng‘aysizlikdan, asabiy-lashishdan, xavfdan va haqoratlardan himoya qilish;
 - o‘z xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash, har qanday makrlar, birovlarni aldash, nopol xattiharakatlarni istisno qilish;
 - doimo faqatgina mijoz manfaatlari yo‘lida harakat qilish;
 - o‘ziga ko‘makchilarni topa bilish, ijtimoiy ishni rivojlan-tirishda jamoatchilik ko‘magini ta’minalash;
 - faqatgina o‘zi vakolatli bo‘lgan doirada ish yuritish, o‘z ishining sisati uchun shaxsan mas’ul bo‘lish;
 - tashqi ta’sir va bosimlarga berilmaslik;
 - mijozni qo‘llanilayotgan tadbirlar, unga ko‘rsatilayotgan yordam xususiyati, yozuvlar, to‘planayotgan ma’lumotlar haqida xabardor qilish;
 - o‘zining kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadlar yo‘lida foydalanmaslik;
 - vaziyatlarni muhokama qilish va baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish;
 - Mijoz ishonib bildirgan sirni hurmat qilish va uni fosh etmaslik;
 - ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haqni faqat qonuniy asoslarda olish;
 - bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg‘alar olmaslik;
 - kasbiy bilimlari, mahorati, malakasini uzlucksiz oshirib borishga intilish;
 - o‘z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish;
 - kasbning obro‘sisi va pokligini himoya qilish va orttirishga intilish;
 - kasbiy o‘zaro munosabatlar va o‘zaro ta’sir jarayonida hamkasblar ishonchiga hurmat bilan qarash, nazokat va adolatni saqlash;
 - kim bo‘lishidan qat’i nazar, hamkasbi axloqqa zid harakat qilsa, unga qarshi choralar ko‘rish.
- Odatda, sovuqqonlik deb baholanadigan kasbiy me’yorlarni buzish yoki xatolar «beg‘amlik, malakasizlik yoki oldindan o‘ylan-

gan niyat tufayli kasbiy me'yorlarni buzish» sifatida baholanadi. Ijtimoiy ish xodimlari maxfiylikni buzganlari, bolalar bilan yomon munosabatda bo'linayotgani haqidagi shubha to'g'risida xabar bermaganlari, suiiste'molliklar, so'z bilan haqoratlash yoki jismoniy zo'ravonlik tahdidi singari holatlarga befarqlik, xatti-harakatlar yordamida haqoratlash, davolash yoki axloq tuzatish muassasasiga xato natijasida yotqizish tufayli erkinlikni cheklagani uchun sud tomonidan ta'qib qilinishi mumkin.

Malaka tavsifi bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun ijtimoiy ish xodimi o'zining quyidagi huquqlaridan keng foydalanadi:

- mijozlarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organlarida ifodalash va himoyalash;
- maxsus ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki sertifikat bo'lgani taqdirda davlat yoki xususiy ijtimoiy amaliyotni yuritish;
- mijozlar ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni toplash, aholi orasida sotsiologik so'rovlar, diagnostik tadqiqotlar o'tkazish;
- mijozlarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal qilish to'g'risidagi rasmiy so'rovlar va iltimoslari bilan jamoat tashkilotlariga, davlat muassasalariga murojaat qilish;
- o'z faoliyati doirasidagi u yoki bu muammoning holati to'g'risida davlat idoralariga axborot berish;
- ijtimoiy tashabbus va faoliik ko'rsatganlari uchun ota-onalar, oilalar, ijtimoiy ish ko'ngillilarini taqdirlash to'g'risida korxonalar va muassasalar, tijorat tuzilmalari va jamoat birlashmalariga takliflar kiritish;
- oiladagi tarbiya, ijtimoiy ishdagi tajribani ommaviy axborot vositalari yordamida targ'ib qilish uchun faol ish yuritish;
- muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan jamoat tashabbuskorlik harakatlariga boshchilik qilish.

Oila bu vatandir. Oila bu bir jamiyat. Oila bu ota-onaning kelajak uchun farzandlar tarbiyalab, voyaga yetkazib beruvchi ulug' dargohdir. Vatan ham ana shu dargohdan boshlanadi. Har bir oila o'z farzandining jamiyat uchun kerakli inson bo'lib yetishishini istaydi. Prezidentimiz 1998-yilni «Oila yili» deb e'lon qilganlarida ham muhim ma'no bor edi. Xalqmiz azaldan oilaga, uning mustahkam poydevorga ega bo'lishiga intilib kelgan. Oilada,

ma'lumki, sog'lom bolalar bilan birga ba'zan boshqalar ko'magiga muxtoj bo'lgan bolalar ham tug'iladi. Ularni tarbiyalash va jamiyatga munosib qilib yetkazib berishning o'ziga xos yo'llari va talablari mayjud. XXI asrda kimlar va qanday yashashi, qanday ishlashi hozirgi zamon oilasining o'zini qanday ijtimoiy his qilishiga, u qanday bolalarni dunyoga keltirishiga va ularga qanday ma'naviy va jismoniy tarbiya berishiga bog'liq.

Oila – nikoh yoki qarindoshlikka asoslangan kichik ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari umumiyl ro'zg'or, o'zaro majburiyatlar va hissiy yaqinlik bilan bir-birlariga bog'langan bo'ladi. Nikoh jamiyat tomonidan ruxsat berilgan va boshqariladigan erkak va ayol munosabatlari shakli bo'lib, u o'zaro majburiyatlar va bolalarga nisbatan mas'uliyat hissini vujudga keltiradi.

Oilani ijtimoiy ish obyekti sifatida qabul qilar va uni murakkab ijtimoiy tizim sifatida ko'rар ekanmiz, u bilan muloqotga kirishganda quyidagilarni hisobga olish zarur: uning tuzilmasi, muhit, funksiyalarini bajarishi va rivojlanish tarixi.

Oila ijtimoiy tuzilma bo'lib, jamiyatning ham bir aniq-tarixiy tiplarida o'ziga xos xususiyatlarga; har bir milliy madaniyatda o'z an'analariga ega bo'ladi.

Oila deb nimani hisoblash, bиринчи qarashda tuyilganiday osон ish emas. Erdagi turli mamlakatlarda oilaning turli-tuman tiplari mayjud bo'lib, ularning ba'zilari uzoq o'tmishta borib taqaladigan munosabat shakllarini saqlab turuvchi ancha ekzotik tiplardir. Shuni ham aytish zarurki, oila-nikoh an'analari va urf-odatlari ancha mutaasiblik xususiyatga ega bo'lib, ko'pgina arxaik xususiyatlarni o'zida saqlab keladi. Ayni paytda, rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligidagi hozirgi zamon ishlab chiqarishlari va hozirgi zamon shaharlashgan uslublarning tarqalishi bilan birga oilaning uncha ko'p bo'limgan, bir-biriga o'xshash modellari qaror topmoqda.

Eng keng tarqalgan tip nuklear (lotincha nuklerus - negiz) oila bo'lib, u bolali yoki bolasiz ota-onalar juftligidan iborat bo'ladi. Bunday oilalar Rossiya Federatsiyasi aholisi tarkibida 2/3 qismni tashkil etadi. Son jihatidan ikkinchi o'rinni to'liqsiz oilalar – ota-onalardan biri va bolalar tashkil etadi. Bunday oilalar taxminan 12 % ni tashkil etadi. Bunday oila yoki ajralish, yoki beva qolish, yoki bo'lmasa yolg'iz ayolning bola tug'ishi natijasida vujudga

keladi. Bir xonadonda uch avlod: ajdodlar juftligi (yoki ulardan bittasi), katta yoshlilar, bolalar va nevaralar yashasa, unda gap murakkab (ko‘p avlodli) oila to‘g‘risida borayotgan bo‘ladi. Murakkab va to‘liqsiz oila kombinatsiyasi bo‘lishi ham mumkin.

Nuklear oilalarning ustuvorligi aholi safarbarligining ortishi va ommaviy shaharlashish, uy-joy qurilishining keng quloch yoyishi va katta yoshli bolalarning ota-onasidan an‘anaviy hukmidan emansipatsiya-lashuvi natijasida paydo bo‘ladi. Bunday iqtisodiy va ijtimoiy o‘z-garishlar ota-onalardan alohida turmush kechirishga qaratilgan barqaror psixologik ko‘rsatmaning shakllanishiga olib keldi, lekin ota-onalarning yordamini katta yoshli bolalar ma’naviy e’tirozsiz qabul qilishadi va juda ma’qullashadi. Bu o‘rinda oiladagi bolalar soni bilan bavosita aloqa mavjud: an‘anaviy murakkab oilada keksa ona kichik bolalarga qarar va uy xo‘jaligini yuritar edi, buvisiz oilada esa ishlayotgan ona odatda, bir nechta bola tug‘ish imkoniga ega emas.

Ko‘makka muhtoj bolalarni hayotga psixologik jihatdan tayyorlash.

Ma’lumki, ko‘makka muhtoj bolalar juda sezgir va o‘zining jismoniy imkoniyatlari cheklanganidan xijolat holatida yashaydilar va doimo buni yashirishga intiladilar. Ularning ko‘ngillari nozik va sezuvchan bo‘ladi. Shuning uchun ijtimoiy ish tamoyillarini ana shu sharoitdan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tamoyillar bilimlarni tashkil qilishning muhim vositasi sifatida qonuniyatlar bilan bir qatorda – faoliyatning muqarrar qoidalarini belgilovchi asosiy tayanch g‘oyalar, qoidalar sifatida amal qiladi. Tamoyillar bilish va atrof-borliqni o‘zgartirish jarayonida vujudga keladigan mantiqiy xulosalarning natijasidir. Tamoyillar, qonuniyatlardan farqli o‘laroq, odamlarning subyektiv xulosalari bo‘lishi ham mumkin.

Har bir fan nazariy va amaliy bilimlar, nazariyalar, uslub va uslubiyat (texnologiya)lar qorishmasidan iborat. Shundan kelib chiqilsa, ijtimoiy ish faoliyatning universal turi, bilimning sohasi sifatida esa u boshqa fanlarning butun bir majmuyi bilan uzviy bog‘liq, ijtimoiy ish tamoyillarining bir necha guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– Mazmuniga ko‘ra: insonparvarlik; demokratizm; qonuniylik; kishilar faoliyatining muayyan shart-sharoitlari bilan bog‘liqlik; ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish; ijtimoiy adolat; altruizm; ijtimoiy, jamoaviy va shaxsiy manfaatlarning uyg‘unlashuvi; o‘zini-o‘zi ta’minalash; ijtimoiy xizmatlar sohasida inson va fuqarolar huquqini himoya qilish va ularning davlat tomonidan kafolatlanishini ta’minalash, fuqarolar uchun ijtimoiy xizmatlarga ega bo‘lishda teng imkoniyatlarni ta’minalash; xizmatlarga ega bo‘lishda fuqarolarning roziligi; ijtimoiy xizmatlarga ega bo‘lishning ochiqligi; ijtimoiy ishda sir saqlash; ijtimoiy xizmatning barcha tur va shakllari vorisiyligi; adreslilik; sog‘ligi va hayoti xavf ostida bo‘lgan fuqarolarga ko‘mak berishdagi ustuvorlik; profilaktika yo‘nalishi; ijtimoiy reabilitatsiya va adaptatsiyaga ko‘maklashuv; idoralararo va fanlar-aronlik; faoliyat nuqtayi nazaridan yondashuv; ijtimoiy xizmatni nududiy tashkil qilish; aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda ko‘ngilli jamoatchilik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va boshqalar;

– Tashkiliy: ijroni nazorat qilish va tekshirish; xizmatchilarning vakolatlari va mas’uliyatlari, huquqlari va majburiyatlarining birligi; umumiylig; komplekslik; vositachilik; hamkorlik; yordam ko‘rsatish va boshqalar;

– Psixologik-pedagogik: kompleks va differensiallashgan yondashuvlar; texnologik vakolatlilik; faollikni rag‘batlantirish; maqsadga yo‘naltirilganlik; hamdardlik, jozibadorlik, ishonch; vorisiylilik; paydarpaylik; uzluksizlik; mijozning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va boshqalar.

Tamoyillardan ba‘zi birlarini ko‘rib chiqamiz.

Insonparvarlik ijtimoiy ishdagi insonni ofiy qadriyat sifatida baholaydigan, uning fuqarolik sha’ni va huquqlarini himoya qiladigan, shaxsning o‘z qobiliyatlarini erkin va har tomonlama namoyish qilishi uchun sharoit yaratadigan yetakchi maqsadli ko‘rsatmadir.

Xizmat yo‘riqnomalari, buyruqlar va farmoyishlar bilan tartibga solinadigan rasmiy munosabatlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy xizmatchi va mijoz o‘rtasidagi norasmiy aloqalar, avvalo, şanksiyalash ahamiyatiga ega bo‘limgan, shaxsiy sifatlarning ruhiy jihatdan mosligi, manfaatlarning umumiyligi, simpatiyalar va antipatiyalar

asosida vujudga keladi. Ijtimoiy ishdagi munosabatlarning noras-miyligi ruhiy fenomen sifatida namoyon bo'lsa ham ijtimoiy xizmatchining xizmat majburiyatlari, lavozim faoliyatlarididan chetga chiqmaydi.

O'zaro teng munosabatlarni shakllantirish

Ijtimoiy ko'makka muxtoj bolalar bilan ruhiy aloqa o'rnatish ko'nikmalarini, muloqot me'yorlari va qoidalariga rioya qilinishini, ularning shaxsiyatiga nisbatan hurmat va e'tiborni, uning shaxsiy muammolarini hal qilishga o'zini jalb etishni va aql kuchi, bilimlari, axloqi, tajribasi yordamida ta'sir o'tkazishni talab qiladi.

Qonuniylik ijtimoiy ishdagi asosiy mazmuniy tamoyillardan biri sifatida qonunlar va unga asoslangan huquqiy hujjalarga barcha davlat idoralari, mansabdar shaxslar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan qat'iy rioya qilinishini taqozo etadi. Me'yoriy-huquqiy hujjalalar shunday bir shaklki, unga davlatning siyosati, shu jumladan, ijtimoiy siyosat yo'g'riladi. Huquqning roli va maqsadi avvalo, siyosatni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilishdir, biroq bu rolni huquq faqatgina uning me'yorlariga barcha tomonidan rioya qilingani taqdirda bajarishi mumkin. Mana shunda qonuniylikning birlamchi va asosiy talabi, jumladan, ijtimoiy ishdagi qonuniylikning talabi namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ishning eng muhim mazmuniy tamoyillaridan biri uning odamlar hayot faoliyati muayyan sharoitlari bilan bog'liqligidir. Bu tamoyilda ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotining birligi namoyon bo'ladi, uni amalga oshirish esa aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning, uning huquq va manfaatlarini himoya qilishning ilmiy asoslangan tarzda qo'llanishi va realligini ta'minlab beradi.

Hayot har doim nazariyadan ko'ra boyroq, ko'rsatma va yo'riqnomalardan ko'ra ko'p qirraliroqdir. Vaziyatlar va hayot faoliyatining shart-sharoitlari muttasil o'zgarib turishi, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning madaniyat darajasi, ma'lumoti, jinsi, yoshi, mehnat qobiliyati va malakasi, sog'ligiga ko'ra turfaligi ijtimoiy xizmatchilar duch keladigan ijtimoiy muammolarning doimo yangilanib turishi va o'ziga xos bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy ishning shaxs hayot faoliyati muayyan sharoitlari bilan bog'liqligi tamoyili, avvalo, muayyan vaziyatni tahlil qilish va baholash, insonning hayot sharoitiga ijtimoiy tashxis

qo‘yishni nazarda tutadi. Bu tamoyil ijtimoiy xizmatchini ijtimoiy vaziyatdagi ijtimoiy ish maqsadlariga erishish uchun bevosita ahamiyatga molik xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltiradi. U mavhum nazariyalarga, qoliplarga, inersiya va rasmiyatçilikka berilish uchun yo‘l qo‘ymaydi.

Qobiliyatlarni aniqlab, uni rivojlantirish

Ijtimoiy ko‘makka muxtoj bolalarning qobiliyatlarini aniqlab, uni rivojlantirishning muhim tashkiliy tamoyillaridan biri ularga berilgan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish va tekshirishdir. Ijtimoiy xizmatlarning nazorat qilish-tekshirish funksiyasi alohida bir soha bo‘lmasdan uning ajralmas tarkibiy qismidir. Ijtimoiy xizmatlar va boshqaruv organlari faoliyatidagi nazorat-qilish, tekshirish faoliyatining mazmuni davlat tomonidan aholi turli guruhlarini ijtimoiy muhofazalash bo‘yicha belgilangan tadbirlarning ro‘yobga chiqarilishini ta’minalashdan iborat.

Ijtimoiy ishning asosiy tashkiliy tamoyillaridan biri vakolat va mas’uliyat, huquq va majburiyatlarning birligidir. Ijtimoiy xizmatlar va ularni boshqaruv organlari faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ularning aniq faoliyat yuritishiga har bir ijtimoiy xizmatchi o‘z funksiya va vazifalarini aniq bilishi orqali erishiladi.

Hayot kichik mas’uliyat bilan ulkan vakolatlarning birikishi ma‘muriy o‘zi bo‘larchilik, yaxshi o‘ylanmagan qarorlar qabul qilish uchun qulay sharoit yaratishini ko‘rsatmoqda. Ayni paytda, kadrlarning katta mas’uliyatga va kichik vakolatga ega bo‘lishi tezkor, qat’iy harakat qilishga yo‘l qo‘ymaydi, amalda ijtimoiy xizmatlar mutaxassislarining tashabbusini bo‘g‘adi va mas’uliyatsizlikni keltirib chiqaradi. Mana shuning uchun ham ijtimoiy ish bo‘yicha har bir mutaxassisning vakolatlariga mutanosib tarzda mas’uliyatini belgilash va ularga yuklatilgan funksional majburiyatlarning aniq bajarilishini ta’minalash ijtimoiy ish samaradorligining zaruriy shartidir.

Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotida psixologik-pedagogik tamoyillarga katta o‘rin ajratiladiki, ular ijtimoiy ishning shakl va usullariga, mijozlarga ko‘rsatiladigan ta’sir usullariga qo‘yiladigan talablarni ifodalaydi.

Ijtimoiy ishning mana shu guruhga kiruvchi aosiy tamoyillaridan biri kompleks yondashuv tamoyilidir. Ijtimoiy ishdagi

kompleks yondashuv bir tomondan ijtimoiy ish obyektiga o'tkazila-yotgan ta'sirning bir butunligi va har tomonlamaligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, idorachilik, mahalliychilik va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi cheklanishlarga yo'l qo'ymaydi hamda odamlarning manfaatlari, ehtiyojlari, kayfiyatlarini o'rganishni, ularning xulq-atvori, o'zini-o'zi his qilishlariga o'tkazilayotgan ta'sirini bashoratlashni shuningdek, odamlarda ehtiyoj va istaklar, ularning kasbiy mas'ulligi, ijtimoiy mavqeyi, maishiy turmush shart-sharoitlari va hayot tajribasi bilan bog'liq bo'lgan real shaxslarni ko'ra bilishni talab qiladi.

Hech kimdan kam emasligini anglatish

Bunday bolalarga yondoshuvda psixologik-pedagogik tamoyillardan differensiatsiyalashgan holda foydalanish, masalaga individual yondashuv alohida ajralib turadi. Bunday yondashuv turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, kasblar va yoshlardagiga qaraganda ko'makka muhtojlarga nisbatan boshqacharoq tarzda amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda masalaning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga va atrofdagi voqelikka o'ziga xos qarashlar va munosabatlarning paydo bo'lishi qonuniyatlarini hisobga olish kerak.

Ijtimoiy siyosat inson manfaatlарини qaysi shaklda ifoda etmasin, odamlar uni faqatgina natijalari ro'yobga chiqqan taqdirdagina his qiladilar. Muayyan harakatlar bilan mustahkamlanmagan deklaratsiyalar va shiorlar faqatgina ularning obro'sini ketkazish usuli bo'lib qoladi xolos. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan ijtimoiy xizmatchilar, ijtimoiy xizmatlarning boshqaruv organlari texnologik jihatdan vakolatlilikiga bog'liq.

Texnologik vakolatlilik – ijtimoiy xizmatchining vujudga kelayotgan muammolarni hal qilish sharoitlari va texnologiyasidan chuqur xabardorligi va o'z bilimlarini amaliyatga kasbiy savodxonlik bilan amalga oshirish ko'nikmasi bo'lib, u muntazam o'qishi va xizmatchilarni qayta tayyorlashni, aniq axborotni, boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlaridagi tahliliy va bashoratlash faoliyatini, ijtimoiy ish obyektlari to'g'risida chuqur va atroflicha bilimga egalik, ularning tasnifi va xususiyatlarini bilishni, ijtimoiy xizmat mijozlari bilan ishlashda ishchanlik va tashkiliylilikni taqozo qiladi.

Ijtimoiy-psixologik tamoyillarning eng muhimlaridan biri ijtimoiy faollikni rag'batlantirish bo'lib, u insonni ongli, manfaatni anglagan holda uning kuch-g'ayratini sarflashdagi, qobiliyatlarini, axloqiy va iroda salohiyatini ijtimoiy muhim maqsadga erishish yo'lidagi faolligini oshirishga undaydi. Bunda har qanday faoliyat turida rag'batlantirish kuchining manbayi bo'lib, manfaatlar va ehtiyojlarning o'zi emas, balki ularni qondirish darajasi xizmat qiladi.

Ijtimoiy ishda rag'batlantirish tamoyili uning ma'naviy-axloqiy va moddiy shakllarining birligi va uyg'unlashtirilishini; shaxsning individual, kasbiy, ma'naviy-madaniy va ruhiy xususiyatlarini adekvat vositalar va usullar yordamida; insonning ishga, hayot faoliyatining ijtimoiy qadriyatlari munosabatlarini baholashdagi xolislik va oshkoraliqni taqozo qiladi.

Ijtimoiy ishning psixologik-pedagogik tamoyillari jumlasiga maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili ham kiradi. Ijtimoiy xizmatchining doimo diqqat markazida turadigan mijozga ta'sir o'tkazish maqsadi uning faoliyati xususiyatlari va usullarini belgilaydi, ijtimoiy ish mazmuni va shakllarini oldindan aniqlab beradi. Maqsadga erishish ijtimoiy xizmatchi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning ta'sirchanligi va samaradorligi uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi maqsadga yo'naltirilganlik tamoyilining alohida mutaxassis faoliyatida ham, ijtimoiy xizmatlar tuzilmasi faoliyatida ham qanchalik muhim o'rincutishini ko'rsatadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik ijtimoiy ishning barcha tamoyillarini bir butunlikka jamlab ish usuli va shakllarini tanlash jarayoniga ilmiylik baxsh etadi.

Oilaning generativ funksiyasi inson avlodini davom ettirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, u faqat biologik ehtiyoj emas, balki ulkan iqtisodiy ahamiyatga molik populyatsiyaning saqlanib qolishidir. Ertangi kunning mehnat potensiali – bugungi chaqaloqlar va yosh bolalar, bolalar va o'smirlar. Jamiyat har bir avlodning o'zidan oldingisidan hech bo'limganda kam bo'lmasligidan manfaatdor. Ayni paytda, oila bola ko'rishdan manfaatdor. Shunisi ham borki, bugungi kunda bu faqat iqtisodiy (bolalar – ota-onalari qariganda ta'minlash kafolati) emas, balki axloqiy-emotsional ehtiyojdir.

Farzandsiz oila ma'naviy jihatdan to'laqonli bo'lmaydi. o'zlarini bolalarida davom ettirmagan katta yoshlilar kamchilik, bo'shliq tuyg'usini his etadilar. Ayni paytda, Rossiyadagi oilalarning uchdan bir qismi balog'atga yetmagan bolalarga ega emas. Bu hol nari borsa, bolalarini o'stirib bo'lgan, yomonroq variantda esa bola ko'rmagan va ko'rishni istamayotganlardan iborat bo'ladi. Bola tug'ish yoshidagi er-xotinlar orasida bola ko'rmaslikka bo'lgan qarash bir tomondan, o'sib borayotgan moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, bolaning ijtimoiy «ziynat predmeti» ga aylanib borishi, ikkinchi tomondan esa hozirgi jamiyatni egallab olgan ma'naviy-axloqiy tanglik natijasi bo'lib, uning qadriyatlar tizimida mashina, uy, zotdor kuchuklar singari urf bo'lgan buyumlarga katta o'rin ajratiladi, bolaga esa o'rin yo'q. Ekspertlarning baholariga ko'ra, katta yoshli aholining 10–15 % i noqulay ekologik ta'sirlar, noto'g'ri turmush tarzi, xastaliklar, yomon ovqatlanish va h.k tufayli salomatligi yomonlashgani sababli bola ko'rish qobiliyatiga ega emas. Ularning ba'zilariga zamonaivy tibbiyot yordam ko'rsatishi mumkin, biroq bunday davolanish uchun hammaning ham hamyoni yo'l qo'yavermaydi.

Bolalarning dastlabki ijtimoiylashuvi funksiyasi shundan iboratki, dunyoga kelgan inson bolasi o'zida «aqlli odam»ning faqatgina kurtaklari, salohiyatiga ega bo'ladi xolos. Chaqaloq jamiyatga asta-sekin olib kirilishi va «insoniy dastur» bo'yicha rivojlanishi lozim. Aks holda, undagi insoniylik kurtaklari rivojlanmay qolishi, qobiliyatlarning asoslari abadiy o'chishi mumkin.

Oilaning hozirgi tangligi uning pedagogik salohiyati pasayishida – oilaviy tarbiya mazmuni va sifatining yomonlashuvida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, oila ijtimoiylashuvning qudratli vositasidir. Shuning uchun oilaning ijtimoiy xastaliklarini «davolash», uning ijtimoiy-pedagogik funksiyalarini tiklash hozirgi kunning muhim vazifasidir. Ijtimoiy ishning markaziy funksiyasi – odamlarning munosabatlarga ta'sir o'tkazish, ularning o'zaro va atrofdagilar bilan munosabatini real voqelikni o'zgartirish orqali takomillash-tirish va korreksiya qilishdan iborat. Demak, oila bilan olib boriladigan ijtimoiy ishning maqsadi va integrativ natijasi shaxsnii ijtimoiy kutishlar, ijtimoiy buyurtmaga binoan ijtimoiylashtiruvdir.

Ijod qilishga, o‘zini anglashga ko‘niktirish

Ijtimoiy ko‘makka muxtoj bolalar agar ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri baholansa, ijod qilishga, o‘zlarini ko‘rsatishga intiluvchan bo‘ladilar. Ularning qo‘llari bilan har yili juda katta ijodiy ishlar amalga oshiriladi va ular ham jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida turmushda ishtirok etayotganlarini isbotlab kelayotirlar. Ular ko‘p hollarda turli muassasalarda, bolalar uylarida ijod namunalari bilan oshno bo‘ladilar. Ko‘makka muhtoj bolalar jamiyatda qanday paydo bo‘lib qoladi, degan savol juda dolzarb. Bu hol ko‘pincha baxtsiz hodisa tufayli emas, balki ijtimoiy falokat natijasida yuz beradi. Tug‘ilishi istalmagan bolalar ota-onalariga kerak bo‘lmay qoladi. Yoki bo‘lmasa, ona bolani tarbiyalash uchun vositalar va shart-sharoitga ega bo‘lmagani sababli undan qachonlardir, hayot yaxshilaniib o‘z iziga tushganda qaytib olish to‘g‘risidagi g‘ira-shira umid bilan «tilxat berib» voz kechadi. hattoki, bu bolalar yetarli oziq-ovqat, g‘amxo‘rlik, tegishli tibbiy xizmat olganlari taqdirda ham ularning rivojlanishi gospitalizm sindromi – kommunikativ-hissiy aloqalarning yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan oqibatlar tufayli xiralangan bo‘ladi, bunday bolalar odatda, faqat intellektual jihatdan emas, balki jismoniy rivojlanishda ham orqada qoladilar, ularning tili kechroq chiqadi, keyinroq ularda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar namoyon bo‘la boshlaydi, bu qiyinchiliklarni har doim ham, hatto yuqori malakali tibbiy-pedagogik korreksiya yordamida ham bartaraf etib bo‘lmaydi.

Bolalar uylarida o‘sayotgan kattaroq bolalar esa bu uy devorlaridan tashqaridagi hayotga yaxshi moslashmagan bo‘lishadi, mustaqil hayot kechirishga qiyinchilik bilan moslashishadi. Shuning uchun ham bolalar uyida tarbiyalanib chiqqanlarning ko‘pchiligi hayot ssenariysi deyarli yarim holatlarda sudlanish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘zining tarbiyasidagi kamchiliklarni ular bolaligida oilali-rolli xulq-atvor saboqlarini olmagانلارи sababli, o‘zlarining oilalariga ham olib kirishadi. Odamlar, mehnat jamoasi bilan muloqot qilishda ular ko‘pincha nizoli yo‘l tutishadi.

Oila bolalarning ijtimoiylashuviga faqatgina o‘zining mavjudligi bilan emas, balki qulay axloqiy-ruhiy iqlimi, barcha a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar orqali ta’sir o‘tkazadi.

Oila tarixan jamiyatning asosiy xo'jalik hujayrasi bo'lgan. Ovchilik va g'allachilik, kasb-hunar va savdo faqatgina oila ta'minlaydigan funksiyalar taqsimotiga asoslanibgina mavjud bo'lishi mumkin edi. Sanoatlashgan ishlab chiqarish vujudga kelishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan shahardagi oilalarning ko'pgina funksiyalari tashqarida qoldi. Tomorqa xo'jaligiga ega bo'lgan qishloq oilalarida esa u anchagini saqlanib qoldi.

Oilaning boyish, boylik toplash va uni meros qoldirish bo'yicha iqtisodiy roli asta-sekin zaiflasha boshladi. Odamlar hayotining ularga ovqat tayyorlash, kiyim-kechak tikish, kir yuvish, uyni tozalash singari qadimdan oila bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina qirralari endi butunicha yoki bo'lmasa qisman maishiy sanoat «yelkalariga» yuklandi.

Odatda, odamlardagi umumbiologik jinsiy ehtiyojlar va ularni xuddi ovqatga, turar joyga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish singari qondirish zarurligi sog'lom «seks» deb ataladigan gedonistik funksiya bilan bog'liq. Ko'p asrlar davomida cherkov va dunyoviy axloq jismoni muhabbatni qoralab keldilar, uni faqat insonning gunohkor tabiatiga yon berish sifatida baholab uning faqat jismoni emas, balki ma'naviy lazzat manbayi ham ekanini inkor etib keldilar. Hozirgi kunda demokratik jamiyatlarning ko'pchiligidagi jinsiy ehtiyojlarning qondirilmasligi shaxsni og'ir kechinmalar va salomatlikning izdan chiqishiga olib kelishi e'tirof etiladi. Me'yoriy jinsiy hayot, muntazam jinsiy yaqinliklar sog'lom turmush tarzining asoslaridan biri sifatida tan olinadi. Bugungi kunda nikohda bo'la turib jinsiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan nevrotik reaksiyalar ko'plab uchraydi. Yolg'izlik singari «ijtimoiy xastalik»ning keng tarqalishi katta yoshli odamlarning ko'pchiligidagi bu ehtiyojlarning qondirilmastigiga olib kelmoqda. «Ikki yuzlama axloq» erkaklarning nikohdan tashqari aloqalarini qoralamagan holda, ayollarning bunday aloqalarini keskin qoralaydi. Ajrashgan ayollar ajrashgan erkaklarga nisbatan og'irroq ahvolga tushib qoladilar. 20 va 40 yosh orasida sodir etiladigan xudkushlikning katta qismi yolg'izlik muammolari bilan bog'liqidir.

Ayni paytda, jismoniya yaqinlilikka yuzaki munosabatda bo'lish, avvalgiga nisbatan yengil-yelpi munosabatlarning ko'plab uchrashi odamlarni baxtli qila olmaydi. Tasodifiy jinsiy sheriklar bilan

nomuntazam munosabatlar ruhiy boylik va chuqurlikka ega bo'lmaydi, ular xavotir va yolg'onlik hissini uyg'otadi, o'z ortidan jinoiy yoki salbiy tibbiy oqibatlarni olib keladi. Jamiatning ma'naviy jihatdan yemirilishi, «erkin seks» va uni barcha vositalar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari yordamida ochiq targ'ib qilish jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklarning keng tarqalishiga qonuniy ravishda olib keladi. Ayni paytda, mustahkam va sog'lom, baxtli va jips oilalar timsolini yaratish ko'p mamlakatlarda doimiy va ishonchli sherik bilan amalga oshiriladigan «sog'lom seks quvonchlari» OITSga qarshi kurashda eng yaxshi vosita hisoblanadi.

«Mening uyim – mening qal'am» iborasi sog'lom, nizosiz oila – eng yaxshi tayanch, eng yaxshi boshpana va unda odam tashqi dunyoning g'ayri do'stona xurujlaridan himoyalovchi, o'zining salbiy hissiyotlaridan qutulishi mumkin bo'lgan makon ekanini ifodalovchi fikrni yaxshi ifodalaydi. Inson mehnat jarayonida sarf qilgan jismoniy kuchlar dam olish vaqtida to'ldiriladi. Kuzatishlar ko'rsatishicha, bu kuchlar oilada, yaqinlar, bolalar bilan muloqot jarayonida to'laroq tiklanar ekan.

Ijtimoiy ish masalalarida oila davlat va jamiat vakillari bilan juda kam holatlarda muloqotga kirishadi, qonun yo'li bilan belgilangan yoki taklif qilinayotgan yordam moddiy xususiyatda bo'lishi (nafaqa, to'lovlar va boshqalar) bundan istisno.

Ijtimoiy xizmatchi minimumni maksimallashtirish tamoyilidan (ijtimoiy ko'makning minimal zaxiralarini maksimal kengaytirishga intilishdan) kelib chiqar ekan, oilaga homiylarning mablag'larini jalg etish yoki davlatning ko'magini adolatli taqsimlashni kuzatibgina qolmay, oilalarni o'z-o'ziga va bir-birlariga yordam berishga ham o'rgatishi lozimki, bunday yordam eng saxiy nafaqalarga nisbatan ham ko'proq samara beradi. Shuni unutmaslik kerakki, axloqiy jihatdan o'zi ishlab topgan mablag' ijtimoiy boqimandalikdan ancha yuqoridir. Kichik va o'rta oilaviy biznesni rivojlantirish dasturi, bu ishda munitsipal organlarning ko'magi Rossiyadagi ko'pchilik oilalarning o'zlarini-o'zlari ta'minlashi va farovon hayot kechirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Oilaning muhim va ziddiyatli muammolaridan biri mas'uliyatli ota-onalik muammosidir. Mas'uliyatli ota-onalik deganda, ijtimoiy, ruhiy, tibbiy va boshqa shart-sharoitlar tushuniladiki, ular oilaga

qancha bola ko‘rishni istasa, shuncha ko‘rish; faqatgina tug‘ilishi istalgan bolalarni tug‘ish va tug‘ilishi istalmagan bolalarni esa hayot uchun xavfli bo‘lmanan madaniyatli vositalar yordamida tug‘ishdan saqlanish imkonini beradigan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Ming-yilliklar davomida zarurat bola tug‘ishni biologik mahsuldarlik darajasida ushlab turishga majbur etdi: dunyoga qancha tug‘ilishi mumkin bo‘lsa, shuncha bola kelar edi. Urushlar, epidemiyalar, bolalar o‘limining dahshatli darajasi natijasida tug‘ilgan bolalarning oz qismi tirik qolar edi, lekin baribir ular aholining uncha tez bo‘lmasa ham barqaror o‘sishini ta’minlar edi. Ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va ilmiy yutuqlar hamda XX asrda yuz bergen o‘zgarishlar xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etdi. Chaqaloqlarning ko‘pchiligi hayotini saqlab qolish imkoniyati ta’minlandi, rivojlangan mamlakatlarda oilalarning demografik ko‘rsatkichlari o‘zgardi. Tibbiyot fanining yutuqlari tufayli oilani ongli ravishda rejalashtirish imkoniyatlari vujudga kelibgina qolmay, u ko‘pchilik uchun erishish mumkin bo‘lgan jarayonga aylandi.

Afsuski, bizning jamiyatimizda, aholining tibbiy madaniyati yetarli bo‘lmanani, jinsiy axloqning nodemokratligi sababli oilani rejashtirishning eng vahshiy usuli – abort qaror topdi. Madaniyatli dunyo uchun xos bo‘lmanan bunday manipulyatsiyalar miqdori bo‘yicha Rossiya hurmatga sazovor bo‘lmaydigan birinchi o‘rinni mutlaq jihatdan ham, har mingta ayloga hisoblaganda ham, egallab turibdi. Tibbiy muassasa sharoitlarida ham ayollarga yomon oqibatlar, hatto halokat tahdid soladi, ekspertlarning baholariga ko‘ra esa abortlarning uchdan bir qismigachasi shifoxonadan tashqarida amalga oshiriladi. Abort – kelgusidagi naslsizlik imkoniyati, ichki tanglik va tashqi qoralash bilan bog‘liq ayol uchun og‘ir axloqiy-ruhiy silkinish.

Balog‘atga yetmagan onalarning bola tug‘ishi alohida suhbat mavzuyi.

Fiziologiya nuqtayi nazaridan ham bu hol juda erta qiz bolaning hali shakllanib ulgurmagan tanasi homiladorlik yukini zo‘rg‘a ko‘taradi, ijtimoiy nuqtayi nazaridan esa ona bo‘lgan qizcha ulkan murakkabliklarni boshdan kechiradi: uning mavqeyi ko‘plab muammolarni vujudga keltiradi. Ota-onalar, atrofdagilar, maktab

ko‘pincha juda shafqatsiz munosabat bildiradi, hatto haydab yuboradi. Ayni paytda, ijtimoiy va axloqiy vaziyat bundan buyon balog‘atga yetmaganlarning fohishaligini ham, tasodifiy jinsiy aloqalarining ham ko‘plab bo‘lishiga olib keladi. Maktab uchun ham, oilaning maslahatchisi bo‘lgan ijtimoiy xizmatchi uchun ham tibbiy-ijtimoiy bilimlarni keng tarqatish, kontratsepsiyaning hozirgi xavfsiz vositalarini har tomonlama targ‘ib qilish birinchi darajali ahamiyatga molik hodisa deb hisoblanishi lozim.

Oilaviy nizolar va oiladagi zo‘rlashlar, hissiy kelishmov-chiliklar, oilaviy rollarning nomutanosibligi va oiladagi majburiyatlarning adolatsiz taqsimlanishi, ichkilikbozlik va ko‘pgina boshqa muammolar – bularning barini hal qilish ijtimoiy xizmatchining vazifasidir. Shuni yodda tutish zarurki, mijozlarning oilaviy muammolarini ijtimoiy xizmatchi hal qilib bermaydi, balki oilaning o‘zi ijtimoiy xizmatchi ko‘magida o‘zining muammolarini anglab etadi va ularni hal qilish uchun o‘zida kuch topadi.

Kontakt o‘rnatish. Ko‘makka muxtoj bolalarni axloqiy tarbiyalashning birinchi sharti ular bilan kontakt o‘rnatishdan iborat. Bunda ota-onaning va pedagogning o‘z o‘rni bor. Biz ana shu jarayonning pedagogik asoslarini ko‘rib chiqmoqchimiz.

Pedagogika jamiyatda insonning rivojlanishida obyektiv qonuniyatlarini o‘rganadigan, inson xulq-atvorini tushuntirib beradigan va mazkur qonunlarni inson hayoti va faoliyatining turli sharoitlarida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar taklif qiladigan fandir. Shu ma’noda ko‘makka muhtoj bolalar bilan va umuman yoshlar bilan ishlashda pedagoglarning roli beqiyosdir. Ishlab chiqarish faoliyatida, oilaviy va intim hayotda ham yuz beradigan barcha hodisalar pedagogika nuqtayi nazaridan qarab chiqilishi mumkin, chunki u inson xulq-atvorini belgilaydigan ruhiy murvatlarni o‘rganadigan va unga tegishli kalit topadigan fan ham aynan pedagogikadir. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekanlar va bir-birlariga ta’sir o‘tkazar ekanlar, barcha uchun umumiyl bo‘lgan qonunlarga bo‘ysunadi. Mishel Monten ta’biri bilan aytganda, imperator va etikdo‘zning ruhi bir xil andoza asosida bichilgan. Shu jumladan, ko‘makka muhtoj bolalarga ham bu birdek taalluqlidir.

Shunday qilib, pedagogika dunyoga qarashning bir turi, pedagogik tafakkur esa asta-sekin egallanadigan va o‘rganish

mumkin bo‘lgan alohida va o‘ziga xos tafakkurdir. Pedagogika shunday bir sehrli kalitki, uning yordamida insonlar olamidagi barcha qulflar ochilishi mumkin.

Ijtimoiy ish sohasida pedagogika o‘zak vazifasini – ijtimoiy ishning faoliyat negizini tashkil qiladi, chunki axborot vazifalari, jamiyat, guruhlardagi munosabatlar, ijtimoiylashuv, shaxsning o‘ziga o‘zi yordam ko‘rsatishga tayyorligini rivojlantirish to‘g‘risidagi bilimlarning shakllanishi asosan, pedagogik usul va vositalar yordamida hal qilinadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy ishning pedagogik asoslari ijtimoiy ishning tamoyillari, mazmuni, usullari, yo‘llari va vositalari to‘g‘risidagi pedagogik nazariyaning elementlarini qamrab olishi lozim. Ijtimoiy ish tarkibida psixologiya bilan birgalikda pedagogika ham tushuntirish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy vazifalarning hal qilinishi ko‘p jihatdan odamlarning tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham pedagogik bashorat funksiyasini ham bajaradi. Shaxsning ijtimoiy ish subyektlari va obyektlari rivojlanishidagi usullar, yo‘llar va vositalarni aniqlashda pedagogika yetakchi rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ishni odamlar madaniyatni o‘rganadigan, ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini egallaydigan, moddiy va ijtimoiy munosabatlarga qo‘shiladigan o‘quv jarayoni sifatida tasavvur qilishi mumkin. Shaxs va jamoaning ijtimoiy shakllanishi tasodifiy jarayon sifatida izohlansa ham, ilmiy asoslangan ijtimoiy ish unga maqsadga yo‘naltirilganlik baxsh etadi.

Ijtimoiy ta’lim faqatgina o‘quv-mehnat faoliyati differensiatsiyalashgan va individuallashgan sharoitlardagina samarali bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy xizmatchi instruktaj o‘tkazar ekan, texnologik hujjatlarni o‘rganishni tashkil qilar ekan, mijozning faol bo‘lishiga erishish uchun, uning mustaqilligini rag‘batlantirish uchun intiladi.

Ijroni nazorat qilish va tekshirish bilan birga qo‘shilgan odamlarga ishonchning pedagogik takt bilan amalga oshirilishi ijtimoiy ishdagi insonparvarlik tamoyilining ifodasi hisoblanadi. Mutaxassislar doimo ijobiy tajribaga tayanishga, personalni tarbiyalashda optimistik gipotezadan kelib chiqishga intilishadi. Tarbiyaviy ish sharoiti qanchalik murakkab bo‘lmisin, har doim ijtimoiylashuv, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, qayta tarbiyalash va o‘zini

muhofaza qilish shakllanishiga yordam ko'rsatadigan odamlar, omillar, alohida insoniy sifatlar topiladi.

Ijtimoiy ishdagi muhim pedagogik elementlardan biri hamkorlikka tayyor bo'lgan, yordam qabul qila oladigan va ko'rsata oladigan odamning dunyoqarashini belgilaydigan gumanistik qadriyatlarni shakllantirishdir. Pedagogika ijtimoiy faollikka yo'nalish beradi. Bunda ijtimoiy ish odamlarning ongliligi darajasidan mo'ljal oladi. Chuqur, har tomonlama ijtimoiy bilimlar voqelikda yo'l topish, o'zining ehtiyojlari va qobiliyatlarini unga moslashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy ishning zaruriy pedagogik elementlaridan biri ijtimoiy harakatlar, ko'nikma va malakalar shakllantirish bo'lib, odamlar ularning yordamida o'zlariga o'zlar yordam ko'rsatish usullarini egallaydilar.

Ijtimoiy ish oxir-oqibat shaxsni o'zini-o'zi tarbiyalashga olib kelishi, hayotning maqsadi va mazmunini aniqlashga ko'maklashishi, samarali ijtimoiy xulq-atvorga erishish, uzuksiz ta'lim tizimiga qo'shilish vositalarini egallashida yordam berishi lozim.

Yolg'izlatib qo'ymaslik. Ko'makka muxtoj bolalarni tarbiyalashda ularni jamoadan chetlashib, yolg'izlanib qolishiga yo'l qo'ymaslik pedagogik usullarning muhim bo'g'inidir. Ijtimoiy ishning pedagogik mazmuni odamlar xulqini korreksiya qilish va qayta tarbiyalash bilan belgilanadi. Korreksiya har qanday faoliyatning zaruriy elementi hisoblanadi, chunki na o'qishda, na mehnatda va na muloqotda birdaniga ijtimoiy muhim bo'lgan natijalarga erishish mumkin emas. Sog'lom va ishga layoqatli jamoani shakllantirish ijtimoiy ishning muhim pedagogik jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu yo'l bilan rasmiy va norasmiy liderlikning uyg'unligiga erishiladi, bu esa o'z navbatida nizolarning ehtimolini pasaytiradi, guruhdagi o'zaro yordamni kuchaytiradi.

Ishlab chiqarish razryadini, malakani oshirish, uzuksiz ta'lim, o'zini-o'zi boshqarishda ishtirok etish – bular shunday bosqichlarki, ulardan o'tib borar ekan, inson o'zini namoyon qilish va qaror toptirishning yangi bosqichlariga ko'tariladi.

O'quv-mehnat, sport, badiiy va boshqa turdag'i faoliyatlarda yutuqlarga erishishni ta'minlaydigan usullar muhim pedagogik xususiyatlarga ega. Ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatning o'zi

shaxsni yuksakliklarga ko‘taradi. Biroq ko‘pincha unga erishish uchun maxsus usullardan, masalan, mehnatni ilmiy tashkil qilish, individual xususiyatlarni hisobga olish, psixologik jihatdan asoslangan samarali yordam kabilardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Shaxsning rivojidagi eng yuqori samaraga uni ijodning turli sohalariga jalb etish orqali erishiladi. Muammoli darslar, qo‘sishma darslar, qayta o‘qishlar, malakani oshirish jarayonidagi tadqiqotlar tafakkurni rivojlantiradi.

Ijtimoiy rivojlanishga odamlar o‘zlarining rivojlanish darajasi, qiziqishlariga ko‘ra a’zo bo‘lib kiradigan turli ijodiy guruhlar va jamoat birlashmalari ancha katta hissa qo‘sadilar.

Ijtimoiy xizmatchining mahorati uning madaniyati, umumiy va kasbiy ma’lumotiga bog‘liq bo‘ladi. Nazariy va amaliy, psixologik va pedagogik tayyorgarlikdan o‘tish ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Fan va amaliy faoliyatning birligi sifatida ko‘riladigan ijtimoiy ish pedagogikasi sohasining eng muhim vazifasi insonni tarbiyalash maqsadlari, mazmuni, usullari va vositalarini, uning xulq-atvoriga, turli mintaqaviy sharoitlardagi ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarining keng doirasiga ta’sir o‘tkazish yo‘llarini aniqlashdir. U aholining, oilalarning barcha toifalariga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy yordam tizimini shakllantirish, eng yaxshi munosabat iqlimini yaratish, ruhiy qulaylik, sotsiomadaniy maydonni shakllantirish shaxsning rivojlanishi va o‘zini namoyon qilishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Topshiriqlar berish, suhbatlar o‘tkazish. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy ish pedagogikasi, shu jumladan, ko‘makka muhtoj bolalarni axloqan tarbiyalash va ularni jamiyatning faol a’zolari qatoriga qo‘sishish harakatlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, uning shakllanishi amerikalik Meri Richmond, Jeyms Adams va germaniyalik Adolf Disterveg va Paul Natorplarning nomlari bilan bog‘liq bevosita bog‘liqidir. «Inson tarbiyasidagi eng asosiy yo‘l ishontirishdir, ishontirishga esa faqat ishonch yordamida erishish mumkin».

Bahslashuvda ko‘pincha haqiqatni ifodalayotgan odam emas, balki raqibi nutqini tez va aniq tahlil qila oladigan, unga mutanosib va samarali tarzda o‘z nutqini tuza oladigan odam g‘olib chiqadi.

Bolalar bilan ularning turli muammolari bo'yicha muzokaralar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Muzokaralar samimiy dialog shaklida mo'ljallangan natijalarga erishish yo'lida o'tkaziladigan suhbat ko'rinishidir. Ular asosan o'zaro fikr almashish yo'li bilan har ikki tomon manfaatlariga mos keladigan bitimga erishish va barchaga manzur bo'ladigan natijani qo'lga kiritish uchun o'tkaziladi. Yutuqqa erishish va bola, subyekt manfaatini eng yaxshi tarzda himoya qilish uchun muzokara olib borish san'atini mukammal egallash lozim. Muzokara olib borishning mutaxassislar tomonidan tajriba asosida ishlab chiqarilgan muayyan qoidalari mavjud.

Muzokara olib borish qoidalari:

- O'z oldingizga qo'ygan vazifani nazardan qochirmang, nima bilan shug'ullanayotganingiz haqida beriladigan savolga javob berish uchun tayyor bo'lib turing.
- E'tiborli bo'ling va suhbatdoshingizning gapini bo'lmang.
- Suhbatdoshingizni u yetti uxlab tushiga ham kirmagan narsada ayblamang. Bu uni mudofaa mavqeyiga o'tib olishga majbur qiladi va muzokaralarning umumiy asabiyligi va aggressivligiga sabab bo'ladi.
- Muzokara boshidanoq samimiy va oqko'ngil bo'ling. Suhbatdoshingizga hurmat bilan munosabatda bo'ling, lekin uning oldida yaldoqlanmang.
- Suhbatdoshni eshitishni biling. Uning haqiqiy motivlari va istaklarini tushunishga xatti-harakatlari, imo-ishoralari va so'zlarini ifodalayotganini anglashga harakat qiling.
- Suhbatdoshingizni o'z tomoningizga «ag'darib olishga», uning muammolarini o'zingiz hal qilib berishga urinmang.
- O'z muammoingizda vakolatli bo'ling, sizga berilgan savolning javobini bilmasangiz, uni ichingizdan to'qib chiqarmang va sizga berilmagan savolga javob berishga harakat qilmang.
- Kambag'allik va nochorligingiz bilan «maqtanmang».
- O'tmishto'g'risida emas, kelajak to'g'risida ko'proq gapiring.
- «Mayda gap» bo'lmang va muhim bo'lmagan masalalar yuzasidan tortishmang. Tashakkur bildiring (yordam, ajratilgan vaqt, masalahat va h. k. uchun). Suhbatdoshingizga u bilan uchrashevningiz siz uchun juda muhim bo'lganini yetkazib qo'ying.

– Muzokaralar muvaffaqiyatsizlik bilan tugashiga doimo tayyor turing.

– Mijozlarning muammolarini hal qilishda ijtimoiy xizmatchi ko‘pincha boshqa muassasa, tashkilot va idoralarning mutaxassislariga yordam so‘rab murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi. Bir marotabali shaxsiy muloqotlar uzoq muddatli o‘zaro majburiyatlarga nisbatan ijtimoiy xizmatchi uchun murakkabroq bo‘ladi, uning faoliyati samaradorligini pasaytiradi. «Kerakli» odamlar va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini to‘g‘ri o‘rnata bilish ijtimoiy xizmatchi muvaffaqiyatining kafolatidir.

Hamkorlik munosabatlari rivojlanishiga xalaqit berayotgan muammolar: tomonlar manfaatlarining noaniqligi va kelishtirilmagani.

Kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tasavvurlarning turlichaligi. O‘zaro axborot almashishning zaifligi.

Munosabatlarni huquqiy jihatdan shakllantirilmagani.

Moliyaviy mablag‘larni jalb qilish va ulardan foydalanish masalasidagi noaniqlik. Rejalashtirishning yo‘qligi, kim nima uchun mas’ul ekani to‘g‘risida tasavvur shakllantirilmagani.

Ijtimoiy xizmatchining faoliyatida verbal va noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan, rasmiy-xizmat doirasida amalga oshiriladigan, bevosita muloqot shakli bo‘lgan suhbatga katta o‘rin ajratiladi. Bolalar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

— hamkorlarning o‘z mavqelarini aniq va ishonarli qilib bayon qila olish layoqatlari va muloqot maqsadlarini hisobga olgan holda muzokara predmetiga tanlab yondashish;

— sherikning so‘zlariga munosabat bildirishning tezligi; sheriklar fikri va takliflariga tanqidiy baho berish;

— subyektiv va obyektiv omillarni hisobga olish va baholashga tahliliy yondashuv;

— mazkur muammo bo‘yicha mavjud nuqtayi nazarlarni tanqidiy tahlil qilish orqali o‘zining ahamiyatini bilish va sheriklarning malakalarini oshirish;

— muammoni hal qilishga aloqadorligi va mas’ulligini his qilish.

Ijodga rag‘batlantirish, ijod namunalarini namoyish etish.

Ko‘makka muhtoj bolalarni axloqiy tarbiyalashda ularni ijod qilishga rag‘batlantirishdir. Bolalar bilan eng yaxshi suhbat ijod haqidagi suhbatdir. Shuning uchun ular bilan turli mavzularda, ayniqsa ular sevgan mavzuda suhbatlashish bunday bolalar uchun quvonch manbayidir. Xizmat yuzasidan suhbatlarni o‘tkazish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

– suhbat rejasini oldindan yozib olish, eng muhim iboralarni tanlash;

– suhbatdoshga suhbat davomida vaqtı-vaqtı bilan ta’sir o‘tkazish tamoyilidan foydalanish: noxush momentlarni yoqimlilari bilan almashtirib turish, suhbatning boshida va oxirida ijobiy narsalar to‘g‘risida gapirish;

– suhbatdoshning asosiy motivlarini doimo yodda tutish: uning kutishlari, shu suhbat natijasida u qo‘lga kiritmoqchi bo‘layotgan afzalliklar, uning mavqelari, o‘zini namoyon qilish istagi,adolat tuyg‘usi, o‘zini hurmat qilishi;

– suhbatga aloqasi bo‘lmagan chet kishilarning hozir bo‘lishidan qochish;

– har qanday vaziyatda xushmuomala bo‘lish, yuksak didni namoyish qilish;

– suhbatdoshning ijobiy javob berishiga ko‘maklashish;

– suhbatdosh «yo‘q» deb javob berishi mumkin bo‘lgan savollarni chetlab o‘tishga intilish;

– agar suhbatdosh sizning fikringizga qo‘shilmasa, uni bat afsil bayon qiling;

– suhbat mavzuyidan chetga chiqmaslikka harakat qilish, yo‘l-yo‘lakay chekinishlardan qochish, fikrni ishonarli qilib optimistik kayfiyatda ifodalash.

Shuni ham esda tutish zarurki, suhbatdoshning so‘zlarini beodblik bilan bo‘linganda, uning o‘z fikrini bayon qilishiga asossiz yo‘l qo‘yilmaganda, uning dalillarini e’tiborga olmaganda yoki mazax qilganda, faktlar buzib ko‘rsatilganda, asossiz shubhalar bayon qilinganda va h. k. suhbatning risoladagiday o‘tishiga xalaqit beradi.

Muzokaralar olib borishning quyidagicha soddalashtirilgan chizmasi taklif qilinadi: salomlashish va muzokaralar mavzusining

debochasi: mavzu tavsifi va muzokaralar yuritish bo'yicha takliflar; tomonlarning o'z mavqelarini bayon qilishi; munozara yuritish; muammoni hal qilish; yakuniy hujjat tayyorlash va yakunlash.

Muzokaralar muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun, ular boshlanishi bilanoq suhbatdosh bilan umumiyligi nuqtalarni topishga intilish zarur. Munozara mavzuning eng muhim jihatlaridan boshlash va asosiy masalalar bo'yicha umumiyligi xulosaga intilish va shundan keyingina tafsilotlarga o'tish taklif qilinadi. Muzokaralar boshlanishida mavzuning munozaraga sabab bo'lmaydigan aniq jihatlari ko'rib chiqiladi, bu esa munozarani rivojlantirish uchun asos yaratishga xizmat qiladi. Shundan keyin nisbatan osonroq hal qilinishi mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqishga o'tiladi. Undan keyin esa batafsil muhokama talab qiladigan asosiy masalalarni ko'rib chiqishga o'tiladi. Agar bu masalalarni ko'rib chiqishga muhokama boshidayoq kirishilsa, unda muzokaralar mutlaqo barbod bo'lishi mumkin. Agar qarashlardagi tafovutlar jiddiy bo'lsa, ularga urg'u bermaslik lozim, aks holda bu muzokaralarning rivojlanishiga xalaqit beradi.

Mabodo, murakkab masalalarni ko'rib chiqishga asta-sekin kirishish tamoyiliga erishib bo'lmassa, muzokaralar ikkinci darajali masalalarda o'ralashib qolishi, asosiy mavzular bo'yicha esa tomonlar umumiyligi kelishuvga erisha olmasliklari mumkin. Bunday holatda erishilgan bitimlarni qayd etish va ular asosida muhokama qilinishi lozim bo'lgan navbatdagi masalalarni belgilash lozim. Muzokaralar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o'tganidan qat'i nazar, ularning natijalarini batafsil tahlil qilish zarur.

Muzokaralarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan nutq ifodasiga bog'liq bo'lib, optimal holatda u rasmiy-xizmat nutqining uslubi va tilidan foydalanishga, psixolingvistika, sotsiolingvistika, shuningdek, muloqot psixologiyasi fanlarining ma'lumotlariga asoslangan bo'ladi. «Odamni dunyodan hech narsa san'at kabi ihotalay olmaydi, ayni paytda hech narsa odamni dunyoga san'at singari bog'lay ham olmaydi» – degan edi Gyote.

To'garaklarga, san'at va adabiyotga mehr uyg'otish. Ko'makka muhtoj bolalar axloqiy tarbiyasini san'at vositasida olib borish va ularni adabiyot, san'at vositasida shakllantirish ularning hayotini mazmundor qilishi isbotlangan. Afsuski, klublar nima

uchun kerakligini tushunmaydigan, hissiy, intellektual, ma'naviy jihatdan kambag'al bo'lib qolgan bolalalar ham borligini, ular ko'proq g'arb san'at mahsulotlari bilan kifoyalanayotganini aytmasdan o'tolmaymiz. Shu ma'noda aholining, ayniqsa ko'makka muxtoj bolalarning bu manbalardan bemalol foydalanish imkonini yaratishda anchagina ishlar qilinishi lozim.

Hozirgi «ommaviy» madaniyat o'zini namoyon qilish uchun intilishga kuchi va layoqati bo'limgan shaxsni «modellashtirmoqda», chunki u tomoshabindan hech qanday aqliy va ma'naviy faoliyatni talab qilmaydi, ayollardagi singari injiqlik va irodasizlikni shakllantiradi. Ayni paytda san'atni jonli idrok qilish tomoshabin-larning ongli madaniyati va ehtiyojlarini shakllantirishi aniqlangan.

San'atning imkoniyatlari juda ko'p qirralidir. San'at intellektual va axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Ijodiy qobiliyatlarni rag'batlantiradi, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvga ko'maklashadi. San'at davolaydi. San'at yordamida davolash artterapiya (yunoncha «art» – san'at) deyiladi. Artterapiyada mavjud bo'lgan san'at asarlaridan foydalaniladi: Mijozlarni mustaqil ijod qilishga undaladi; mutaxassisning o'z ijodi – chizish, bo'yash va h.klardan mijoz bilan o'zaro ta'sirda foydalaniladi. Ijtimoiy xizmatchi tomonidan maxsus tanlangan adabiyotlarning mijoz tomonidan o'qilishi, tahlil qilish va baholanishi *biblioterapiya* deb ataladi. Musiqa, teatr, rassomlik, kino ham davolaydi. Qadimgi Fivadagi kutubxonalar peshtoqiga «ruhni davolaydigan shifoxona» deb yozib qo'yilgan edi. Ijtimoiy xizmat qabuliga charchagan, horg'in, boshi og'riyotgan odam kelsa, u bilan suhbat o'tkazish uchun eng yaxshi fon Betxovenning «Piligrimlar xori»dir. Dvorjakning «Karnaval prelyudiyasi» depressiya, siqilishni davolaydi. Betxovenning «quvonch» odasi melanxoliklar uchun foydalidir. Teatr san'ati alohida xususiyatga ega. U o'z ichiga san'atning bir qator turlari: raqs, rassomlik, badiiy o'qish, musiqa singarilarni qamrab oladi; inson ruhiyatining ichkarisiga kirib borishga intiladi, ochiqlik, begonalashuv komplekslarini, yolg'izlikni bartaraf etishga olib keladi, yaxshilikka ishonch uyg'otadi.

Hayotimiz davomida yuzlab rollarni: ota-onalar, bolalar, qarindosh-urug'lar, do'stlar, maslahatchilar, tarbiyachilar, tarbiyalanuv-chilar, yo'lovchilar, piyodalar, xaridorlar, oshiq-moshiqlar, haqorat-

langanlar, xafa qilinganlar, baxtiyorlar... rollarini o'ynashimizga to'g'ri keladi. Bu rollardan har biri o'zining xususiyatlari va qoidalariga ega: yo'lovchi hushyor bo'lishi, piyoda ehtiyot bo'lishi, sotuvchi xushmuomala va halol bo'lishi talab qilinadi. Hayotdagi rollarni kimdir osongina, kimdir esa juda qiyinchilik bilan o'ynaydi. Biz do'stlarimiz orasida «yolg'izlar» – do'stlar orasidagi «o'z odami» rolini o'ynay olmayotganlarni uchratamiz, ko'p ota-onalar esa o'z bolaclarining «do'sti» rolini o'ynashadi, bu esa mungli oqibatlarga olib keladi.

Biroq kasbiy rollar: quruvchi, ishchi, militsioner, o'qituvchi, vrach, olim singarilarning rollari yana ham murakkabroq bo'lib, ulardan har biri noyob va betakrordir, o'z kasbiy roliga o'rganish esa uzoq va murakkab jarayondir.

Kasbiy rollarni ijro etishni o'rganish mumkin. Bunda har bir insonda mudrab yotgan aqliy va ma'naviy qobiliyatlarini faollashtirishga yordam beradigan, odamlarning o'zaro bir-biriga qiziqishlarini, bir-birlarini tushunishga intilishlarini kuchaytiradigan teatr san'atining yordami juda katta. Teatr san'ati – yuksak aqliy madaniyat, estetik madaniyat, yaxshi odob-axloq namunasidir. Teatr optimistik kayfiyatni vujudga keltiradi, jamoada ijobiy ruhiy iqlimni yaratishga ko'maklashadi, bayramona va erkin iqlim yaratadi. Teatr postanovkalarida birgalikda qatnashish shaxsning o'zini o'zi adekvat baholay olishga yaqinlashishi uchun imkon yaratadi, kechirimli bo'lish, bir-birlarining xulq-atvorlarini tushunish, mayda-chuyda xafagarchiliklardan uzoqroq bo'lish, bir-birlarining sha'ni va talantlarini hurmatlashga o'rgatadi. Teatr hamkorlikdagi mehnat, ijod, do'stlik, muhabbat uchun katta kuch-quvvat beradi. Teatr san'ati inson ruhiyatining barcha jabhalarida: intellekt, his-tuyg'u, axloqiy sifatlar va xarakter xususiyatlari, hayotiy urf-odatlar, yo'nalishlar, xulq-atvor va baho motivlariga ta'sir o'tkazadi.

Teatr sirlariga, badiha o'yin olamiga ko'milish hayratlanarli darajada samarali bo'ladi.

Teatr san'atida amaliy mashqlarning katta miqdori to'planganki, ularning ijtimoiy xizmatchilar kasbiy shakllanishida foydali ekanini amaliyot isbotladi.

«Mening tarjimayi holim» mashqi o'quvchining o'z hayoti to'g'risidagi og'zaki hikoyasi bo'lib, xotirani «emotsional jihatdan

yengillatish» imkonini beradi, boshqa shaxs – uning shaxsiyatiga belgilovchi ta'sir o'tkazadigan zaruriy omil hisoblanuvchi zamon-doshi tarjimayi holiga chuqur qiziqish paydo bo'lishi va rivojlan-nishiga ko'maklashadi.

Axloqiy ideallarning, axloqiy qadriyatlarning yo'qolib borishi, shafqatsizlik va agressiya, boylik to'plashga intilish, individualizm hozirgi kunning voqeligiga aylandi. Bugungi kunda Chexovona «yaxshi turmushni sog'inish» har qachongidan ham dolzarb bo'lib qoldi. Amerikaning jangari filmlari va submadaniyati rus mada-niyatini, undagi ma'naviyatni siqib chiqarmoqda. «Yangi to'l-qin»dagi soxta san'at shafqatsizlik, jinsiy erkinlik va patologiyaga sig'inadi.

Vatanga munosabat. Har qanday axloqiy tarbiyaning tag zaminda vatanga muhabbat yotishi ma'lum. Shuning uchun bizning o'rganish obyektimiz bo'lgan kategoriyalidagi bolalar dunyoqarashida ham vatanga muhabbatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Vatan muqaddas diyor. Bu diyorda ajodolarimiz umrguzaronlik qilishgan va ularga munosib hayot kechirish har bir kishining avlodlarning burchidir. Uzoq va yaqin o'tmishta vatan ravnaqi va ozodligi uchun jonlarini fido qilgan ajodolarimizni bolalarning bilishi muhimdir. Xalq qahramonlari To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud, Temur Malik va boshqalar, davlat arboblari Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa siymolar bolalar ruhiyatini boyitish vositalaridir. Bulardan bexabar bolaning dunyoqarashida cheklangan tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu esa ular bilan olib borilayotgan ishlarni faqat bir tomonlama tasavvur qilib qoladilar. Ko'makka muhtoj bolalar o'zlarining davlatga, ota-onasiga, jamiyatga og'irlik qilib qolayotganday his qilmasliklari uchun ish olib boradigan ijtimoiy ish xodimlari juda ko'p narsalarni bilishlari va ularga achinayotganlarini namoyon etmasliklari lozim. Bu ham muayyan darajada pedagogik mahoratni va insoniylikni talab etadi. Ko'makka muhtoj kishilar, ayniqsa bolalar bilan ishslash osonday ko'rindi, lekin ijtimoiy xizmatchi faoliyati juda mas'uliyatlidir. Bir qaraganda u davlat tomonidan ajratilgan nafaqalarni, oziq-ovqatlarni, buyumlarni tarqatish, muhtojlarning ehtiyojini qondirish kabilarning hech qanday murakkabligi yo'qday tuyuladi. Ijtimoiy

pedagog to‘g‘risida esa bundan ham soddaroq fikr yuritiladi. O‘quvchi darsda pedagogga xalaqit berayotgan bo‘lsa, vazifalarini bajarmasa – mana ijtimoiy pedagogning faoliyat maydoni: ota-onalarni chaqirish, ularga dashnom berish, qarshi choralar ko‘rish kerak. «Ijtimoiy ish», «ijtimoiy pedagogika» tushunchalarining noto‘g‘ri anglanishi quyidagi narsalar bilan bog‘liq: butun boshli maktabga bir ijtimoiy pedagog va mikrorayonga bir ijtimoiy xizmatchi nima bera oladi? Bu kasbning obro‘sini tushirish, hozirgi ijtimoiy siyosat g‘oyasini buzishdan boshqa narsa emas. Insonning ichki dunyosiga va uni takomillashtirishga yo‘naltirilmash ekan, ijtimoiy ish qadrsizlanadi va o‘zining gumanistik mazmunini yo‘qotadi.

Bugungi kunda tarbiya to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, ko‘pincha shaxsnинг cheklangan makonda: maktab, bolalar bog‘chasi, oilada shakllanishini nazarda tutishadi. Pedagogika fanidagi shunday vaziyat amaliyotga ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Hozirgi maktablar, oila to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, bolani jazolash (maqtash)ga layoqatli, maktabni ta’minlashda va bayramni tashkil etishda yordam ko‘rsata oladigan, ba’zi-ba’zida ota-onalar majlisiga qatnashadigan ota-onalarni tushunishadi. Oila va yaqin atrof-muhit shaxsnинг shakllanishiga eng kuchli ta’sir o‘tkazishi, ular shaxsnинг ijtimoiylashuvidanagi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishdagi eng qudratli vositalar ekani esdan chiqib qoladi.

Ko‘pchilik olimlarning tarbiyaga nisbatan tor qarashlardan qoniqmasligi ta’lim funksiyalari va tamoyillari, maqsadlarini qayta ko‘rib chiqish istagi, ilg‘or texnologiyalar, ijtimoiy-pedagogik ishning egiluvchan tashkiliy shakllarini yaratishga intilishlari o‘z ichiga insonning hayotiy kuchlarini, uning atrof-muhit va o‘zi bilan ijodiy faollik va muayyan sotsiumda o‘z hayotini axloqiy jihatdan o‘zi tashkil qilishini pedagogik uyushgan tarzda qo‘llab-quvvatlashning maqsadga yo‘naltirilgan bilimlar tizimini qamrab oladigan g‘oya va yondashuvlarini uyg‘otishga turki berdi. Ijtimoiy pedagogika insonning butun hayoti davrlarida va mikromuhitning turli sohalarida ijtimoiy o‘zaro ta’sirlariga pedagogik ta’sir o‘tkazishni ko‘rib chiqadi. Shaxsnинг faolligi, uning ijtimoiy yetukligi ham bevosita insonning muhit bilan o‘zaro ta’siriga borib taqaladi.

Pedagogik bilimlar ijtimoiy ishda va oilaga, qariyalarga, ihsizlarga, bemorlarga, nogironlarga, qochqinlarga, yolg'izlarga, boshpanasizlarga, qamalib chiqqanlar va boshqa ko'plab odamlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishda zarur ekani ma'lum bo'ldi. Pedagogik bilim bugungi kunda umumiyladaniyat va ijtimoiy siyosatning turkibiy qismiga aylanib bormoqda. Sotsiumning butun pedagogik salohiyatini har bir shaxsning individual imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlanishini rag'batlantirish va aholi bilan olib boriladigan ijtimoiy ishning barcha turlarida foydalanish zarur.

Ijtimoiy ishning pedagogik komponenti ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida ijtimoiy tashabbuslarni, bolalar va kattalarning ijodiy faolligini harakatga keltiradigan, oilaning har bir kishi huquqi va farovonligi to'g'risidagi g'amxo'rлигидаги имкониятлардан то'лақонли фойдаланиш ўйлаб саларали ва педагогик жиҳатдан мақсадга ўнташларни тақозо қилиш учун имконият юзасида.

Ta'lim, ijtimoiy muhofaza, reabilitatsiya muassasalaridan har biri, ijtimoiy xizmatchining mijozlar bilan har bir uchrashuvi bugungi kunda mikromuhit turi, vaziyat, aholi ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab tuzatishni taqozo qiladi. Pedagogik faoliyat muayyan odamlarning muayyan vaziyatdagi izlanish va ijodidir.

Har qanday odam muloqot jarayonida ikki roldan birini: gapiruvchi yoki tinglovchi rolini o'ynaydi. Bir qarashda o'z nutqini ayniqsa, o'zi uchun muhim bo'lgan odamlar guruhi oldida savodli, yorqin, ishonarli, qiziqarli qilib tuzish birovning nutqini eshitishdan ko'ra qiyinroq tuyiladi. Aslida esa bunday emas. Tinglovchi roli ko'pincha qiyinroq bo'ladi, chunki bu rolga maktab ta'limi tizimida tayyorlashmaydi. Har birimiz u yoki bu sababga ko'ra tinglashimiz lozim bo'lgan qiziqarsiz ma'ruzalarni eshitishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishimizga to'g'ri kelgan. Ijtimoiy pedagog va ijtimoiy xizmatchi professional darajada tinglash va gapirish qobiliyatiga ega bo'lishi, ya'ni uning nutq muloqoti uning kasbiy majburiyatlarini bajarishida zarur quroq bo'lishi lozim.

Eshitadigan odamlar bor va tinglaydigan, ya'ni og'zaki muloqot jarayonida foydali axborotni ola biladigan odamlar bor.

Odamlarning 10 % dan kamrog'i suhbatdoshini tinglash qobiliyatiga ega, ayni paytda muloqot o'rnatish учун tinglovchilik

rolini biliш juda muhim. Ommaviy chiqishlar (ma’ruzalar, va’zlar) jarayonida oddiy tinglovchi 25 % samaradorlikka erishishi mumkin.

Tinglashdagи kamchiliklar: fikrlamay va uzuq-yuluq idrok qilish, eshitayotgan axborot va real hayot hodisalari o’rtasida aloqa o’rnata bilmaslik; tinglashga tayyorlik va istakning yo’qligi, diqqatni bo’ladigan omillar (shovqin, kech qolib kelganlar, so’zlayotgan odamning gapiрishi va ma’lumotlarni taqdim qilishbdagi g’alati xususiyatlar, gapiruvchi yoki tinglovchining noqulay vaziyat (joy)da ekani).

Samarali tinglash ko’nikmalarini rivojlantirish uchun quyida-gilarga (J. Kepp fikriga ko’ra) amal qilish lozim: diqqatni jamlash; tinglangan axborotni tahlil qilish; tanqidiy tinglash; yordamchi vositalardan foydalana biliш.

Diqqatni jamlay biliш. Tinglovchi nutqni gapiruvchidan ko’ra tezroq tushunishi mumkin. Vaqtdagi ana shu ustunlikdan notiq nima to’g’risida gapirayotganini o’ylab ko’rish, mulohaza va xulosa qilish uchun foydalanish mumkin. Agar vaqt boshqa narsalar to’g’risida o’ylashga, xayol surish va shaxsiy muammolarni hal qilishga sarflansa, diqqatni jamlash mumkin emas.

Sharq xalqlarida azaldan oila muqaddas sanalgan, uni muqaddas vatan deb hisoblaganlar. Oilaning darz ketishi katta baxtsizlik hisoblangan. Buni biz «Avesto» kitobida ham ko’ramiz. Qur’oni Karimda, Hadisi sharifda, sharq mutafakkirlari ijodida, jumladan Kaykovusning «Qobusnomá» asarida, Amir Temur faoliyatida va bugungi kungi davlat siyosatida ham yurtboshimiz asarlarida, nutq va ma’ruzalarida oilaga munosabatni ko’rish mumkin. Ko’makka muhtoj bolalarga ham uning ahamiyati ota-onalar va sotsial tarbiyachilar tomonidan albatta, izchil olib borilishi kerak. Ota-on, aka-uka va qarindoshlarga munosabatda ham ularga milliy mentalitetga xos va mos bo’lgan an’ana va urf-odatlar singdirib borilishi kerak. Oilaviy an’analar milliy qadriyat ekanligini va bugun ularni unutmaslik, targ’ib qilish o’ziga xos ehtiyoj darajsiga ko’tarilishi kerak.

Ijtimoiy ish mutaxassis uchun ushbu mavzuda ish olib borishning hech qanday murakkablik tomonlari yo’q. Faqat uning natijalari va hozirgi paytda yoshlar ongiga g’arbdan atayin eksport qilinayotgan «ommaviy madaniyat» mahsulotlaridir. Buni ijtimoiy

ish xodimi, pedagoglar va ota-onalar bilishlari va qarshi chora-tadbirlar ko'rishlari lozim.

XX asrning 70-yillarida sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, menejment, ijtimoiy ish, pedagojika va siyosatshunoslik fanlarining tutash nuqtasida konfliktologiya fani paydo bo'ldi. U shaxsning ichki nizolaridan to inqiloblar va davlatlar o'rtasidagi urushlarga gacha bo'lgan janjallarning umumiyligi va o'ziga xos qonuniyatlarini to'g'risida bilim berar ekan, insonlar bilan ishlaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ishtirok etadigan odamlar, shu jumladan, ijtimoiy xizmatchilar uchun ham foydalidir.

Konfliktologiya ichki nizolarning barcha turlari va shakllari, ular o'rtasidagi umumiyligi qonuniyatlarini o'rganadi, ijtimoiy ish esa avvalo shaxsning ichidagi, shaxslar o'rtasidagi, shaxs va guruhi o'rtasidagi nizolarni o'rganadi. Konfliktologiya juda ko'p fanlar bilan o'zaro bog'langan: u siyosatshunoslik bilan birga etnoslararo, partiyalarning ichidagi, partiylar o'rtasidagi va boshqa nizolarni o'rganadi; menejment bilan birgalikda esa tashkiliy (jamoai ichidagi va jamoalar o'rtasidagi) nizolarni o'rganadi. Hozirgi zamonda jamiyatshunosligi va insonshunosligi bo'limlarining ko'pchiligi konfliktologiya nazariyalarini yordamida yoritilgan.

Ijtimoiy ishning nazariy-metodologik muammolarini konfliktologik nuqtayi nazardan ko'rib chiqishni inkor etish uning talqinlaridagi biryoqlamalikka olib keladi. Masalan, ijtimoiy ishni ko'pincha xayriya ishlari, mehribonlik, ijtimoiy tibbiyot va uning boshqa ko'rinishlari bilan tenglashtirishadi.

Ijtimoiy ishda quyidagi manfaatlarning uchrashuvi yuz beradi: ijtimoiy xizmatchi va mijoz manfaatlari; alohida mijoz va boshqa odamlar manfaatlari; mijozlar guruhi; mijozlar guruhi va jamiyatning boshqa qismi manfaatlari; muassasalar tizimi va mijozlar guruhi manfaatlari; kuzatuvchi (muassasa) va ijtimoiy xizmatchilar tizimi; professionalarning turli guruhlari manfaatlari.

Ijtimoiy ishdagi nizo sifatida mutaxassisning shaxsiy va kasbiy qadriyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik ham ko'riliishi mumkin. Oilaviy xizmatdagi amaliy xizmatchining, aytaylik, abortlarga qarshi bo'lgan xizmatchi bilan shu masalani yosh homilador qiz bilan muhokama qilish jarayonida qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Hozirgi zamonda tibbiyotining imkoniyatlarini yaxshi

anglaydigan klinikadagi ijtimoiy xizmatchi diniy sabablarga ko‘ra hayotini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan qon quyishga qarshilik ko‘rsatayotgan mijozning o‘zi hal qilishi huquqi bilan to‘qnashishi mumkin. Har bir alohida holatda ijtimoiy xizmatchi mijoz oldidagi, ish beruvchi oldidagi, kasbi oldidagi, jamiyat oldidagi majburiyatlarini taroziga solib ko‘rishi, shundan keyingina qaror qabul qilishi lozim.

Ijtimoiy ishning ba’zi usullari, masalan, «sotsiodrama» va «psixodrama» singarilar nizolarga to‘lib-toshib yotadi, chunki ularning mohiyati hayotdagi nizoli vaziyatlarni «stixiyali» tashkil etilgan sahnalarda o‘ynashdan iborat.

Har qanday nizo muayyan tuzilma, soha va dinamikaga ega. Nizoli vaziyatning tuzilmasi ishtirokchilarning ichki va tashqi mavqelariga, ularning o‘zaro ta’siri va nizo obyektiga bog‘liq. Ishtirokchilarning ichki mavqeyida maqsadlar, manfaatlar va motivlar ajratib ko‘rsatiladi; bu mavqe nizoli vaziyatga bevosita ta’sir o‘tkazadi, biroq u «kadr ortida» bo‘ladi, ko‘pincha u nizo jarayonida tilga olinmaydi. Tashqi mavqe esa nizoga kirishgallarning nutqida, fikrlarida, nuqtayi nazarlarida, istaklarida namoyon bo‘ladi. Nizo sohasi ishga yoki shaxsiyatga aloqador bo‘lishi mumkin. Nizoning xizmat sohasidan chetga chiqishi va shaxsiyatli nizoga aylanishining oldini olishga intilish lozim. Nizoning tadriji uch bosqichdan tashkil topadi: o‘sish; namoyon bo‘lish; pasayish. Nizoni hal qilishning eng qulay payti paydo bo‘lish bosqichidir. Nizoni «blokirovka» qilishning eng samarali usuli uni komunikativ asnodan predmetli-faoliyat asnosiga ko‘chirishdir.

Ijtimoiy nizolar shunday sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga erishdiki, endi ijtimoiy portlash va jamiyatimizning vayron bo‘lish ehtimoli vujudga keldi. Shuning uchun ijtimoiy ish muammolarini konfliktologik tahlil qilish dolzarb va juda muhimdir.

Bahslashuvda ko‘pincha haqiqatni ifodalayotgan odam emas, balki raqibi nutqini tez va aniq tahlil qila oladigan, unga mutanosib va samarali tarzda o‘z nutqini tuza oladigan odam g‘olib chiqadi.

Muloqot strategiyasi o‘z ichiga quyidagilarni (O.Ya. Goyxmanga ko‘ra) qamrab oladi:

— umumiyl vaziyatni anglash;

- unda maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir o‘tkazish vazifalari va avosiyo g‘oyalarini aniqlab olish;
- qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun vaziyat rivojlanishini rejalashtirish va tashkil etish.

Muloqot strategiyasi nutq taktikasida, ya’ni muayyan vaziyatda belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradigan nutq priyom-luridan foydalanish orqali erishiladi. Masalan, avvaldan ishonish ma’nosini deyarli 30 xil usulda ifodalash mumkin: «taxmin qilish», «yumshatish», «bo‘rttirish», «siljitish», «aybni boshqa bir kishiga to‘nkash», «takrorlash», «misol keltirish» va boshqalar.

Nutq taktikasiga quyidagilarni ham kiritish mumkin: kutilmaganlik, ig‘vogarlik, obro‘ga murojaat qilish, prognozlash, norasmiy elementlar kiritish, humor va boshqalar. Ijtimoiy xodim uchun muayyan vaziyatga hammadan ko‘ra mosroq keladigan nutq taktikalarini tanlay bilish ko‘nikmasi juda muhim.

Ijtimoiy xizmatchining faoliyatida verbal va noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan, rasmiy-xizmat doirasida amalga oshiriladigan, bevosita muloqot shakli bo‘lgan suhbatga katta o‘rin ajratiladi. Xizmat yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- hamkorlarning o‘z mavqelarini aniq ‘va ishonarli qilib bayon qila olish layoqatlari va muloqot maqsadlarini hisobga olgan holda muzokara predmetiga tanlab yondashish;

- sherikning so‘zlariga munosabat bildirishning tezligi; sheriklar fikri va takliflariga tanqidiy baho berish;

- subyektiv va obyektiv omillarni hisobga olish va baholashga tahliliy yondashuv;

- mazkur muammo bo‘yicha mavjud nuqtayi nazarlarni tanqidiy tahlil qilish orqali o‘zining ahamiyatini bilish va sheriklarning malakalarini oshirish;

- muammoni hal qilishga aloqadorligi va mas’ulligini his qilish.

Xizmat yuzasidan suhbatlarni o‘tkazish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

- suhbat rejasini oldindan yozib olish, eng muhim iboralarni tanlash;

– suhbatdoshga suhbat davomida vaqtı-vaqtı bilan ta’sir o’tkazish tamoyilidan foydalanish: noxush momentlarni yoqimllari bilan almashtirib turish, suhbatning boshida va oxirida ijobiy narsalar to‘g‘risida gapirish;

– suhbatdoshning asosiy motivlarini doimo yodda tutish: uning kutishlari, shu suhbat natijasida u qo‘lga kiritmoqchi bo‘layotgan afzalliklar, uning mavqelari, o‘zini namoyon qilish istagi, adolat tuyg‘usi, o‘zini hurmat qilishi;

– suhbatga aloqasi bo‘limgan chet kishilarning hozir bo‘lishidan qochish;

– har qanday vaziyatda xushmuomala bo‘lish, yuksak didni namoyish qilish;

– suhbatdoshning ijobiy javob berishiga ko‘maklashish;

– suhbatdosh «yo‘q» deb javob berishi mumkin bo‘lgan savollarni chetlab o‘tishga intilish;

– agar suhbatdosh sizning fikringizga qo‘silmasa, uni batatsil bayon qiling;

– suhbat mavzuyidan chetga chiqmaslikka harakat qilish, yo‘l-yo‘lakay chekinishlardan qochish, fikrni ishonarli qilib ko‘tarinki kayfiyatda ifodalash.

Shuni ham esda tutish zarurki, suhbatdoshning so‘zlarini beodoblik bilan bo‘linganda, uning o‘z fikrini bayon qilishiga asossiz yo‘l qo‘yilmaganda, uning dalillarini e’tiborga olmaganda yoki mazax qilganda, dalillar buzib ko‘rsatilganda, asossiz shubhalar bayon qilinganda va h. k. suhbatning risoladagiday o‘tishiga xalaqit beradi.

Muzokaralar olib borishning quydagiCHA soddalashtirilgan sxemasi taklif qilinadi: salomlashish va muzokaralar mavzuyining debochasi: mavzu tavsifi va muzokaralar yuritish bo‘yicha takliflar; tomonlarning o‘z mavqelarini bayon qilishi; munozara yuritish; muammoni hal qilish; yakuniy hujjat tayyorlash va yakunlash.

Muzokaralar muvaffaqiyatlari rivojlanishi uchun, ular boshlanishi bilanoq suhbatdosh bilan umumiyligi nuqtalarni topishga intilish zarur. Munozara mavzuning eng muhim jihatlaridan boshlash va asosiy masalalar bo‘yicha umumiyligi xulosaga intilish va shundan keyingina tafsilotlarga o‘tish taklif qilinadi. Muzokaralar boshlanishida mavzuning munozaraga sabab bo‘lmaydigan aniq jihatlari ko‘rib

chiqiladi, bu esa munozarani rivojlantirish uchun asos yaratishga xizmat qiladi. Shundan keyin nisbatan osonroq hal qilinishi mumkin bo‘lgan jihatlarni ko‘rib chiqishga o‘tiladi. Undan keyin esa batafsil muhokama talab qiladigan asosiy masalalarni ko‘rib chiqishga o‘tiladi. Agar bu masalalarni ko‘rib chiqishga muhokama boshidayoq kirishilsa, unda muzokaralar mutlaqo barbod bo‘lishi mumkin. Agar qarashlardagi tafovutlar jiddiy bo‘lsa, ularga urg‘u bermaslik lozim, aks holda bu muzokaralarning rivojlanishiga xalaqit beradi.

Jamiyatga munosabat. Ijtimoiy ko‘makka muhtoj bo‘lgan bolalar avvalo jamiyatning a’zolaridir. Ularga shunday munosabatda bo‘lish, jamiyat ularni unutmaganini va alohida e’tibor berayotganini bildirib qo‘yish, uni ta’kidlash o‘rtadagi muloqotni samimiylashtirishi kuzatilgan. Shuning uchun ular bilan muloqotda shunday vaziyat bo‘lishi kerakki, suhbatdaoshlarda ulardan boshqa muhim ish yo‘qligini bildirish muhimdir. Mabodo, murakkab masalalarni ko‘rib chiqishga asta-sekin kirishish tamoyiliga erishib bo‘lmasa, muzokaralar ikkinchi darajali masalalarda o‘ralashib qolishi, asosiy mavzular bo‘yicha esa tomonlar umumiy kelishuvga erisha olmasliklari mumkin. Bunday holatda erishilgan bitimlarni qayd etish va ular asosida muhokama qilinishi lozim bo‘lgan navbatdagi masalalarni belgilash lozim. Muzokaralar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o‘tganidan qat’iy nazar, ularning natijalarini batafsil tahlil qilish zarur.

Muzokaralarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan nutq ifodasiga bog‘liq bo‘lib, muqobil holatda u rasmiy-xizmat nutqining uslubi va tilidan foydalanishga, psixolingvistika, sotsiolingvistika, shuningdek, muloqot psixologiyasi fanlarining ma’lumotlariga asoslangan bo‘ladi.

IX bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING QOBILIYAT VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Reja:

9.1 Ijtimoiy ish xodimining kasbiy salohiyati va uni rivojlantirish.

9.2 Ijtimoiy ish sohasida samarali shaxslararo munosabatlarni ta'minlash asoslari.

9.3 Ijtimoiy ish xodimining samarali muloqotini ta'minlovchi sifatlar.

9.4 Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy ish xodimining sifatlari.

Ijtimoiy ish xodimining qobiliyat va malakalarini rivojlantirish.

Ijtimoiy ishdagi kasbiy salohiyat egalikning o'nta asosiy sohalari:

1. Muloqot malakalari

- mijozlar, bolalar, hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqotga kirishish malakalari;
- verbal va noverbal muloqot.

2. Baholash va rejelashtirish malakalari

- to'liq baholash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish;
- mijoz vaziyatini baholash asosida aniq reja va kelishuvlarni ishlab chiqish;
- erishilgan natijalarni doimiy tarzda baholash va tahlil etib borish.

3. Aralashuv malakalari

- mijoz bilan to'g'ridan to'g'ri ishslash;
- hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish;
- zaruriyatga qarab tahlil qilish va rejani o'zgartirish.

4. Ishchi yozuv qaydlarini olib borish malakalari

- ish bo'yicha yozuvlarni qayd etib borish;
- hisobot va xatlarni yoza bilish.

5. O‘z tashkiloti manfaatlarini tushuna bilish va taqdim etalish malakalari

– tashkilot siyosati, ish tartibi, maqsad va vazifalarini bilish va tushunish;

– tashkilot vazifasini taqdim etishni bila olish.

6. Hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish qobiliyati

– samarali ishchi munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash va rivoj-lantirish;

– g‘oya va ma’lumotlarni birga baham ko‘ra bilish qobiliyati.

7. O‘zini boshqarish malakalari

– o‘z ishi va vaqtini tashkillashtira olish;

– o‘zining ojiz va kuchli tomonlarini bilish.

8. Rahbar kuzatuvi ostida ishlay olish qobiliyati

– amaliy jihatlari (masalan, tayyorlov, aniqlilik);

– o‘qishga tayyorlilik.

9. Kasbiy qadriyat va munosabatlar

– ijtimoiy ish etikasini bilish va tushunish;

– doimiy ravishda o‘z bilimlari saviyasini oshirishga intilish.

10. Egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati

– ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunish;

– amaliy faoliyat uchun mos nazariyani tanlay bilish va uni qo‘llay olish qobiliyati.

Ijtimoiy xodimning samarali muloqotini ta’minlovchi sifatlar:

Ba’zi bir insoniy sifatlar samarali shaxslararo munosabatlarni qurishning zarur shartlaridan hisoblanadi. Jumladan, ijtimoiy ishda ham. Zarur bo‘lgan sifatlarning asosiy guruhini quyidagilar tashkil etadi:

– munosabatlardagi iliqlik;

– ochiqlilik;

– empatiya;

– o‘zga kishilarga nisbatan ijobiy munosabat.

Bu shaxsiy sifatlar «malaka» bo‘lib hisoblanmaydi, lekin malakalardan o‘rinli va diqqat hamda e’tibor bilan unumli foydalanishni ta’minlaydi. Ular kishilar orasidagi barcha munosabatlar zaminida mavjud bo‘lib, o‘z samaradorligiga ega bo‘ladi. Shaxslararo

munosabat malakalariga o'rgatish ishini shu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan va shaxsiy sifatlar tushunchasini muhokama qilmay turib boshlab bo'lmaydi.

Munosabatlardagi iliqlik. Kengyurak inson uchun o'zga kishilar bilan muloqotga kirishish sovuq munosabatli odamlarga qaraganda ancha osonroqdir. *Kengyurak deganda, odatda mijozga nisbatan iliq munosabatda bo'ladigan va mijoz uchun ishonch uyg'ota oladigan qobliyatli inson tushuniladi.*

«Munosabatlardagi iliqlik» tushunchasi keyingi tasdiqlarni ham o'z ichiga oladi:

- muloqotdagi har ikki tomon huquqlarining tengligi;
- ayblovlarning mavjud emasligi;
- o'zini himoyalovchi mavqeyidan xolilik;
- yaqinlik.

Munosabatlardagi iliqlik – bu bir vaqtning o'zida alohida turdag'i tafakkur hamda malakadir. Ehtimol, bu hatto o'zining oldida ham rostgo'y bo'lish hamda o'zga kishilar bilan ochiq muloqotga kirisha olishga tayyorlik qobiliyatida namoyon bo'luvchi malakadir. Shunday qilib, mazkur tushunchaning asosiy tarkibi bu o'zga kishiga nisbatan tenghuquqli munosabatda bo'lishdir.

Iqlilik doimo mutaxassisdan kelib chiqishi kerak. Biroq bu munosabat qarama-qarshi tomonдан ham xuddi shunday tarzdagi munosabat asosidagi javobga ega bo'lishi kerak, degani emas. Agar biz biror bir kishiga kasbiy yordamimizni ko'rsatayotgan bo'lsak, biz albatta ushbu insonga nisbatan doimo iliqliq munosabatni namoyon qilishimiz zarur. Biroq biz u odamdan ham shu tariqa munosabatni kutishimiz kerak emas. Do'stona munosabatlardan farqli ravishda kasbiy munosabatlarda bu u darajada ahamiyatga ega bo'lgan zaruriyatlardan emas.

Ochiqlilik. Ochiqlilik bu ham kasbiy munosabatlarning e'tiborga molik tomonidir. Bu yerda barchasi aniq va tushunarli bo'lsa kerak: biz yoki ro'paramizda turgan odam bilan chin dildan qiziqishimiz yoki aksincha qiziqmasligingiz mumkin. Kasbiy qiziqish doimo mutaxassisning shaxsiy qiziqishi doirasidan kelib chiqadi va uni yuzaki tarzda namoyon qilib bo'lmaydi. O'z kasbining haqiqiy ustasi har qanday vaqtida ham o'z mijozи haqida

qayg'urib, unga qo'lidan kelganicha chin dildan yordam berishga harakat qiladi.

Bunday munosabatlar rivojlanishiga yordam beruvchi turli vositalarni qo'llab ko'rish maqsadga muvofiqdir. Hech narsa chin dildan munosabatda bo'lishda xalaqit bermaydi va u doimo insonning ongli tashabbusi hamda ma'suliyati ostida kechishi, shu bilan birga bo'lib o'tayotgan hodisalar uchun javobgarlikni his etishi lozim.

Ehtimol ba'zi insonlar uchun samimiyl bo'lish bu u yoki bu kasbiy rolni yuqori darajadagi ustalik bilan bajarishdan iborat degan tushuncha bilan talqin etilishi mumkin. Boshqa tomondan, yaxshi mutaxassis bu har bir sohada samimiylilik bilan o'z faoliyatini yurgizuvchi, lekin shu bilan birga bu xususiyatni o'zga kishilar oldida ham samimiylilik bilan namoyish qila biluvchi shaxs hamdir.

Xayrixohlik (empatiya). O'zgalarni tushuna bilish uchun boshqa kishilarga nisbatan hayrixohlik bilan munosabatda bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lishimiz kerak. *Xayrixohlik bu o'zga insonning idroki dunyosiga kira bilishdir, ya'ni uni o'zga kishilar qay tarzda ko'rayotgan bo'lsa, shu tarzda ko'ra olishdir.* Empatiya – Xayrixohlikni «o'zga kishi his-tuyg'usini xatosiz ko'ra bilish va his qila olish hamda shu insonga bu haqida tushuntirib bera bilish qobiliyatidir» deb tushuntiradi.

Hamdardlik bu xayrixoh bo'lish degani emas. Hamdarlik o'zga kishiga nisbatan «rahm» uyg'onishini nazarda tutadi. Ehtimol bu inson o'zi his etayotgan tuyg'ularni o'zga kishilarda ko'rishga qaratilgandir. Inson o'zga kishiga hamdard bo'lganda, u o'zini shu inson o'rniga qo'yishga harakat qiladi. Xayrixohliq bildirib esa biz o'zimizni shu inson o'rnida his qilishga va u his etayotgan tuyg'ularni tasavvur qila olishga harakat qilamiz.

Shartsiz ijobiy munosabat. Bu tushunchani «o'zga insonlarning qadriyatlarini tan olish» yoki shunchaki o'zga insonni «qabul qilish» sifatida tushuntiradi. Demak, tahmin etilishicha, mijoz bu o'z qadriyatlariga ega bo'lgan va o'zining mavjudligi o'zicha qadrli bo'lgan insondir. «Shartsiz» so'zi deganda asosan, insonga nisbatan alohida motivatsiya talab etilmaydigan tabiiy munosabat tushuniladi. Ko'pincha munosabat quyidagicha motivatsiyani talab etadi: men senga yoqqan kezlarimda sen menga yoqishing mumkin

(yoki men seni yaxshi ko'rib yuraman). Rodjersning ta'kidlashicha, mutaxassisda mijozga nisbatan paydo bo'ladigan his-tuyg'u qutilish yoki qandaydir talablar bilan shartli bo'lib qolmasligi katta ahamiyatga ega.

Tabiiy munosabat psixolog yoki ijtimoiy xodimlar uchun boshqa kasb egalariga qaraganda shubhasiz katta ahamiyatga ega bo'lgan munosabatdir.

Shartsiz ijobjiy munosabat. Gohida o'zga kishilarni muhokama qilmaslikda bizga o'zimizni aslida qanday bo'lsak shu tarzda qabul qilishga nisbatan intilishimiz yordam beradi. Hal qilinmagan ko'pgina muammolarga ega bo'lganimizda, hech qiyinchiliklarsiz va o'ta kuchli intilish bilan biz o'zga kishilarni muhoqama qilamiz. *Shunisi ham aniqlik, biz o'zimiz ega bo'lgan muammolarimizni anglamagan hollarimizda ko'pincha o'zga kishilarni muhokama qilish va ayplashga intilamiz.*

Shuning uchun kishilarga nisbatan shartsiz ijobjiy munosabatda bo'lishga o'rnatishning asosiy yo'l va vositalaridan biri bu o'zimizni anglay olish qobiliyatimizni rivojlantirishdir. Biz o'zimizning muammolarimizni to'liq ravishda hal qila olmagan bir vaqtida mutaxassis sifatida o'z muammolarimiz ustida o'ylab ko'rishimiz va o'zimizga bu haqida hisob berib borishimiz ma'qul bo'lar edi.

Shartsiz ijobjiy munosabat bu har qanday insonlarga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi va uning shaxsi xususiyatlari yorqin namoyon bo'ladigan sifatlardandir. Tabiiyki biz barcha insonlarga bir xil darajada iliq va shartsiz ijobjiy munosabatda bo'la olmaymiz. Ba'zida shunday bo'ladiki, ba'zi kishilar shunchaki bizga yoqmaydilar. Gohida esa ijobjiy munosabatni namoyon etish bilan samimi bo'lishga intilish orasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin. Bir tomondan, o'zimizning mavjud fe'l-atvorimizdan voz kechib, o'zligimizni namoyon qila olish imkoniyatiga ega bo'lmasak, ikkinchi tomondan, biz barcha kishilarga ham bir xil munosabatda bo'la olmaymiz.

Malakali ijtimoiy ishchining malakasiz ijtimoiy ishchidan asosiy farqi

Solishtirish punkti	Kasbiy chegarada ishlaydigan malakali ijtimoiy ishchi	Kasbiy chegaradan chetga chiquvchi malakasiz ijtimoiy ishchi
1. Yordamdan maqsad	Maqsadi mijoz muammolarini aniqlashda yordamchi sifatida ko‘riladi. Mijoz moyilligini inobatga olgan holda maqsadga erishish uchun variantlari sonini yuqori darajada topish imkonini beradi; muqobil qarorlarni taklif etish mumkin. O‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi.	O‘z mayilligini amalga oshirish uchun o‘z maqsadini ta‘qib qiladi. O‘z kompitentligini ta‘kidlab o‘z kasbini o‘tkazuvchi sifatida namoyish qilishi mumkin. Mijozi tashvishga solib uning fikrlarini diskreditatsiya (tanqid qilish) mumkin. Mijoza zarur qo‘llab-quvvatlash va yo‘nalishni bera olmasligi mumkin
2. Ta’sir va javob	Keng doiradagi muammo va vaziyat-verbal va noverbal ko‘plab ta’sirlarni topa oladi. Mijoz shaxsi va harakati yuzasidan muhokamani qilish va baholashdan qochish	Variantli va variantsiz kam xulq turi, bir yoki bir qancha javoblarga moyillik, mijoz harakatini ko‘r-ko‘rona baholovchi, mijoz shaxsini baholovchi fikrlarni bildirishga yo‘l qo‘yadi
3. Madaniyat samarasи	Xulqning ko‘plab modellarini ishlab chiqish va boshqa madaniyat doirasida, o‘z madaniyati tarkibi sifatida fikrlash. Milliy kelib chiqishi va har qanday ijtimoiy muhitdagi mijoz dunyosiga va bilan muammoni hal etishga imkon beradi.	Faqat o‘z madaniyati doirasida ishlaydi: mijoz konsepsiyasini inobatga olmasdan, umummadaniy talab sifatida o‘z ijtimoiy muhit me’yorida ko‘radi.
4. Faoliyatda chegaralash	Malaka darajasi va o‘z imkoniyatini haqiqiy baholash. O‘z imkoniyatlarini chegaralashni va amaliyotda qo‘llay oladi. Doimiy superviziyanдан foydalanadi.	O‘zini haq deb hisoblab, boshqa mutaxassilar bilan ishlay olmaydi,
5. Shaxslararo ta’siri	U o‘zining mijozga qanday ta’sir etayotganligini tushunadi. Mijoz fikri va tuyg‘ulari bilan	Mijoza nisbatan ta’sir darajasini hisobga olmasdan, ko‘paytirib yoki kamaytirib

	o‘zining fikri va tuyg‘ularini inobatga oladi.	yuboradi. Maslahat jarayonida mijoz uning ta’sirida ekanligini ba’zan umuman inkor etadi.
6. Insoniy fazilat	Insoniy fazilatlarni hurmat qiladi.	Mijoz bilan hurmat qilmaydi, nohaq va uni his etmasdan. Uni haqorat qilgan holda.
7.Umumlash-tirilgan nazariya	O‘z yo‘nalishini rivojlantirish va yangi nazariyalarni egallash	Bitta nazariyaga asoslanadi, boshqasini bilmaydi.
8. Pozitsiya	Kasbiy refleksiyaga asoslangan pozitsiya	Men-konsepsiyasiga asoslangan pozitsiya...
9. Maslahat maqsadini inobatga oshlish	Mijoz buyurtmasi bo‘yicha aniq ishlash. Maslahatning aniq maqsadini ta’qib etadi.	Maslahat chegarasini kengaytiradi yoki kamaytiradi. Suhbat maqsadi haqida xira tasavvurga ega yoki aniq maqsadga ega emas. O‘z taxminlari asosida mijoz maqsadi almashtiriladi

Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy ishchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak

- 1) Insonlarni individual farqliklariga baholamaslik munosabatida bo‘lish.
- 2) Bolalarning emotsiyonal holatiga sezgirlik.
- 3) Egiluvchanlik (egiluvchanlikka mos ko‘rsatkich) – to‘siqlardan yengil o‘ta olish, bir mavzudan ikkinchi mavzuga yengil o‘tish.
- 4) Emotsional bosiqlik va sabrlilik – boladagi xavotirlikni bartaraf eta olish, tinchlantirish emotsiyonal bosiqlik va sabrlilik qobiliyatiga ega bo‘lish.
- 5) Umumiyl madaniyat xulqini qo‘llab quvvatlash.
- 6) O‘z xulqi yo‘nalishini oxirigacha joylashtira olish – vaziyatni konstruktivligini bola yuklamasdan, uning shaxs sifatida o‘sishiga to‘siqlik qilmasdan berilgan mavzu bo‘yicha suhbatga qaytish.
- 7) O‘smir va bolalar xulqi sohasida bilimlarning mavjudligi – shaxs rivojlanishi va qonunyatları, yosh va individual xususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash.
- 8) Hayoti davomida shaxs bo‘lib rivojlanishi uchun imkoniyatlarni tan olish. Bola hayotidagi yuqoridaq vaziyat uning

tabiyatdan yomonligi uchun emas, balki hayotiy vaziyatga mos kelmaydigan sharoitda o'sganligi sabablidir. Har qanday yoshda uning xulqi va xarakter qirralarini ijobjiy shakllantirish saqlash imkoniyati mavjud. Bolaga chuqur qiziqishni namoyon etish.

9) Bola xulqi va tayyorgarlik darajasiga sezgirlik o'z bolalik tajribasiga murojaat etgan holda amalga oshirish.

10) Bola xuquqini hurmat qilish, o'z muammolaridek xal etish va javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatni.

11) O'z tajribasi va refleksiyaga ochiqlik. Ijtimoiy ishchi, o'z tuyg'ularini tahlil etishi, bilishi, belgilashi va salbiy tomonlarini kamsitmasdan balki ularni to'g'rakash lozim. Faqat shunday hollardagina u o'z xulqini nazorat qila oladi.

12) O'z o'zini anglashni o'stirish. Maslahatchi o'zi haqida qancha-ko'p bilsa, u kim bilan ishlayotganligini yaxshi biladi.

13) Kuchli o'xhashlik – o'z ichki pozitsiyasiga ega bo'lish, boshqa insonlarga nisbatan oddiy umid aks ettirish.

Noverbal muloqot

Nutqsiz muloqot

Tevarak-atrof omillar

Xona

Kutish uchun zal

Suhbat uchun xona

Stollar

Stullar

Rasmlar/suratlar

Kiyim

Punktuallik va ishonchlilik

Nutqsiz ta'sir etuvchi omillar

Masofa

Gavda holati

Teginish

Vizual aloqa

Yuz ko'rinishi

Noverbal muoloqot hissiyot tuyg'u va munosabatni beradi. Verbal muoloqotga nisbatan samaraliroq natijaga ega bo'lishi

mumkin va odatda mijoz his etayotgan yaxshi tasvirni ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida o'zining noverbal muloqoti haqida esdan chiqarish mumkin emas, bu mijoz bilan bo'lgan munosabatni buzishi yoki aksincha, yordam berishi mumkin.

Masofa.

Siz va mijoz orasidagi masofa muhim ahamiyatga ega. Agar siz mijozlarga yaqinroq o'tirib yoki ularga teginishga urinsangiz sizning xulqingiz ba'zi mijozlarga haddan ziyod qo'pol ko'rinishi mumkin. Boshqa mijozlar, siz ular bilan birga yaqinroq o'tirishlarini xohlaydilar (masalan keksaygan, yaxshi eshita olmaydigan) va bu siz uchun noqulaylik tuyulishi mumkin. Sizga to'g'ri masofani ko'rsatadigan, madaniyat va genderli vaziyatlar bo'ladiki, bunda vaziyatga siz alohida e'tibor berishingiz zarur, chunki bu muhim ahamiyatga ega. Agar siz mijozga yaxshi ovozda o'zi uchun qulay bo'lgan joyni belgilashga imkon bersangiz yaxshi ovozda ishonchi oshadi. Agar mijoz stulini surayotganini sezsangiz siz ham o'z stulingizni bir oz orqaga suring. Agar mijoz stulini orqaga surayotganini sezsa, katta joyni his etishi uchun siz ham stulingizni orqaga sursangiz to'g'ri bo'ladi. Agar mijoz yaqinlashishni xohlayotgan ekanligini namoyon etsa, siz (u salgina oldinga egilsa, va stulni chetiga o'tirsa) siz ham mijozga yaqinroq o'tiring. Odatda, mijoz o'zi anglagan holda masofani boshqaradi. Uni bajarishga imkon bering.

Stullarni joylashishi

Suhbatlashayotganda bir-birlari bilan yuzma-yuz o'tirishlari uchun stullar mijoz uchun qulay masofada joylashgan bo'lishi lozim, biroq bir-birining ro'parasida emas. Stullar salgina qaramaqarshi tomonga yo'naltirilgan bo'lishi stullar mijoz uchun qulay masofada joylashgan bo'lishi zarur bu mijozga nisbatan kamroq bosim bo'lishi mumkin. Shuningdek, stullar orasida hech qanday to'siqlar bo'lishi kerak emas stol, mebel va boshq.) Stullar bir xil balandlikda bo'lishi zarur. Odatda turli balandlikdagi stol va stullar mijozga mutaxassislar tomonidan o'z mavqeyini ko'rsatish usuli sifatida ko'rinishi mumkin. Bu mijoz emas, balki mutaxassis ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi va disbalansni yuzaga keltiradi, biz bundan xalos bo'lishni xohlaymiz. Uzoq vaqt davomida mijoz o'tirishga to'g'ri keladi shuning uchun stullar qulay, yaxshi

uyandiqli bo‘lishi kerak. Norozilik yoki diskomfort vaziyatlarda sonadan chiqib ketishga imkoniyat yaratishi uchun mijozning stuli devorga yaqinroq joylashtiriladi. Agar sizning stulingiz mijoz chiqib ketishi uchun to‘sib qo‘ysa, u xonani tark eta olmaydi natijada kayfiyati buziladi yoki tajovuz namoyon bo‘ladi.

Vizual aloqa

- Mijoz sizga bilan gaplashayotganda yoki siz u bilan gaplashayotgan vaqtida mijozga qarang, bu sizning ochiqligingiz va qiziqayotgan ekanligingizni ko‘rsatadi;
- Qiziquvchanlikni namoyon etuvchi, tasodify qarashlardagi vizual aloqani, eshitish va javob qaytarishga xohishni qo‘llab-quvvatlang;
- Juda faol vizual aloqa (tikilib qarash) mijozni mijoz tomonidan qo‘rqitish sifatida, shuning uchun vati-vaqt bilan qarashlarni o‘zgartiring;
- Mijozning faqat ko‘ziga yoki yuziga yaxlit qarang, bu hech qanday jiddiy bo‘lмаган sizda qiziqish hissini uyg‘otadi;
- Ba’zi madaniyatda vizual aloqa haqorat hisoblanishi mumkin.

Kiyim

Mijoz oldidan o‘zini tavsiya qilish juda muhim. Birinchi taassurot mijoz uchun katta ahamiyatga ega, kiyim esa buning kam bo‘lмаган qismi hisoblanadi. Agar siz qimmat yoki elegant (erkaklar kostyum va galstuk), bu mijozni ikkinchi darajali yoki noqulay his etishga majbur qilishi mumkin. Agar siz tartibsiz kiyungan yoki kiyimingiz kir holda bo‘lsa, mijoz o‘ziga nisbatan hurmatsizlik deb qabul qilishi mumkin. Bu yerda asosiysi balansga rioya qilish. Kiyimni to‘g‘ri tanlash bunda yordam beradi.

Shuningdek, bolalar bilan muloqot qilganda polda ishlashga to‘g‘ri keladi, ayniqsa, ayollar bemalol harakat qilishlari va uyalmasliklari uchun uzun yubka, shim yoki ko‘ylak kiyishlari kerak.

Punktuallik va ishonchlik

Mijozning siz haqingizdagи fikri kiyimda emas, balki sizning xulqingiz asosida shakllanadi. Mijoz uchun punktual va ishonchli bo‘lish muhim. Agar siz uchrashuvni bekor qilsangiz, mijozda sizga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mijozni bu haqda ogohlantirib va sababini tushuntirib uchrashuvni bekor qilsangiz, mijozda sizga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘lishi

mumkin. Shuning uchun mijozni bu haqda ogohlantirib va sababini tushuntirish uchrashuvni bekor qilish oxirgi vosita sifatida bo‘lishi zarur. Shuningdek, yangi uchrashuvni qisqa vaqt ichida belgilash zarur. Kechikib kelish humatsizlikni yoki mijozni qiziqmasligini ko‘rsatadi. Agar siz kechikib kelsangiz, bundan mijozni xabardor qiling. Biroq kechikib kelish yoki uchrashuvni bekor qilish kamdan kam hollarda sodir bo‘lishi zarur. Tadbirlarni asosli tarzda rejalashtiring, o‘xshash holatlarni qaytarishdan qochish.

Boshqa omillar

Siz hamisha quyidagi ta’sir etuvchi omillar haqida eslang.

Xonaning joylashishi.

Xona shinam va qulay bo‘lishi kerak. Diqqatni jalb etmaydigan va rasm-plakatlar reprezentativ ijobiy xususiyatga ega.

Stol ustidagi rasmlar

Ba’zi mutaxassilar ishchi stolda oilasi yoki hamkorlarning rasmi turadi. Mijoz bilan uchrashuvda bu muloqotni qiyinlashtirishi mumkin va agar mijoz siz egallagan oila haqida ijobiy tajribaga ega bo‘lmasa, uni ajablantiradi. Bunga qo‘srimcha: agar siz xavfli mijoz bilan ishlasangiz, siz xohlamaganingizda ham bu sizni oilangiz haqidagi ma’lumot bilan tanishtirishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mijoz bilan uchrashayotganda shaxsiy fotosuratlarni qo‘ymaslik tavsiya etiladi.

Ishonchli jihozlar

Imkoniyati cheklangan, zarur muloqot vositalarni talab etadigan insonlar, bolalar, shaxslar bilan muloqotda o‘zingizda zarur materiallar (o‘yinchoq, kitoblar va boshqalar) borligiga ishoning, ular ishda samaraga erishishingizga yordam beradi.

Muloqotchanlik malakalari turlari Maslahat olib borish malakalari

Maslahatlar berish davomida ijtimoiy xodim tomonidan egallangan malakalar turli vaziyatlarda qo‘l kelishi mumkin. Bu malakalar, albatta, amaliyat davomida qo‘llanlib borilishi zarur. Ayniqsa, har kuni bo‘lib o‘tadigan mijoz – mutaxassis vaziyatlarida unumli foydalaniishi kerak. Biroq maslahatlar olib borish malakalari bu foydalilik darajasiga ko‘ra ishlatalish lozim yoki kerak

bo'limagan narsa emas. Bu mijoz uchun yuqori samaradorlik bilan o'z fikr va xis-tuyg'ularini bildirish uchun qulay imkoniyat yaratib beruvchi vositadir. Maslahat berish malakalari mutaxassis va mijoz o'rtaida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha samarali muloqotlarning asosi bo'lib hisoblanadi (munosabat xususiyatidan qat'iy nazar). Bundan tashqari, bu malakalar hamkasblarga kasbiy yordam ko'rsatish davomida katta ahamiyatga ega. Sizning e'tiboringizga ijtimoiy xodim tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan bir necha turdag'i maslahat malakalari hamda vaziyatlar aks etgan ro'yxat havola etilmoqda:

- o'z sohasi bo'yicha siljish yo'nalishini o'zgartirmoqchi bo'lgan insonlarga yordam;
- qaror qabul qilish davomida yordam ko'rsatish;
- katta ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni mustaqil tarzda hal etish imkoniyatini yaratish;
- qarindoshlarini yo'qtган kishilarni qo'llab-quvvatlash;
- bola va o'smirlar bilan ishslash;
- oilaviy muammolarni hal etish;
- psixiatriya sohasiga oid muammolarni muhokama qilish va boshqa soha mutaxassislariga maslahatga yo'llash;
- hamkasblarga yordam ko'rsatish;
- talabalarni ijtimoiy xodim kasbiga o'qitish.

Shuni ham aytib o'tish joizki, «maslahat» tushunchasi turli insonlar uchun turlicha talqinga ega bo'lishi mumkin. Umuman keng ma'noda olganda maslahat tushunchasi ostida maslahatlar berish, yordam ko'rsatish, rahbarlikni amalga oshirish va boshqalar tushuniladi.

Tor ma'noda esa «maslahat» tushunchasi ostida odatda alohida turdag'i munosabatlarni, ya'ni mutaxassis mijozga maslahat berishga emas, balki unga oyoqqa turishga va o'z qarorlarini mustaqil tarzda qabul qilishga o'rganishida yordam berishga harakat qiladi.

Maslahat berish malakalarini asosan ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) tinglay bilish;
- 2) intervensiyalarni olib borish;

Eshita bilish

Tinglash – suhbatdoshga shunchaki o‘z e’tiborini qaratish emas, balki o‘zini haqiqatda ham uni tinglab, to‘g‘ri tushunayotganligingizga ishonch hosil qilishi uchun harakat qilish.

– **Tinglayotgan kishingizning ro‘parasiga o‘tiring.** O‘zga kishini haqiqatda ham to‘liq tinglashingiz uchun, uni albatta ko‘rib turishingiz kerak. Bundan tashqari u ham sizni ko‘rib turishi lozim. Shuning uchun hamsuhbatni tinglab turib, uning yonida emas, balki ro‘parasida o‘tirish maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi hamsuhbatlar bir-birining yuzini ko‘rib turishi lozim.

– **Ochiq bo‘ling.** Chalishtririb turilgan oyoq va qo‘llar o‘z o‘rnida himoyalanuvchi pozitsiyadan dalolatdir. Yaxshisi qulayroq o‘trib olib, qo‘la va oyoqlarni chalishtirmay o‘zingizni erkin tutib o‘tiganingiz ma‘qul.

– **Tinglayotgan kishingiz tomoniga biroz og‘ib o‘tirganingiz ma‘qul.** Bunday harakat odatda suhbatdoshda sizning unga, uning muammolariga nisbatan chin dildan munosabatda bo‘layotganganizdan hamda bu masalaga nisbatan qiziqishingiz darajasidan dalolat beradi. Biroq bu o‘rinda sizning bu harakatingiz suhbatdoshda noqulayliq hisning paydo bo‘lishiga olib kelmasligiga ham e’tibor berish kerak.

– **Nigohli aloqani saqlab qolishga harakat qiling.** Nigoh – bu shaxslararo muloqotning ahamiyatli vositalaridan. Shuning uchun doimo nigohingiz va qarashingizning suhbatdosh uchun yo‘naltilganligi va uning ko‘rishi uchun qulayligiga e’tibor berish lozim.

– **O‘zga kishini tinglab turib, o‘zingizni erkin tuting.** Tinglash – bu suhbatdoshingiz tomonidan aytilgan oxirgi so‘zlarni qaytarish degani emas. Sizga kerakli bo‘lgan eng asosiysi – bu faqatgina tinglash. O‘zini erkin tutayotgan tinglovchi o‘z o‘rnida o‘zga kishi nutqining haqiqatda ham tinglovchi tomonidan tinglanilayotganini his etishi va bu bilan o‘zini yanada erkin his etishiga yordam beradi.

Intervensiya¹larni olib borish malakalari

Maslahat berish malakalarining ikkinchi guruhini interventsiyalarni olib borish malakalari tashkil etadi. Bu erda mutaxassis maslahat davomida gapiradigan gaplari katta ahamiyatga ega. Keyingi intervensiylar maslahat berish jarayonida juda foydali bo‘lishi mumkin:

- savollar;
- refleksiya;
- tanlov asosidagi refleksiya;
- xayrihohlikni shakllantirish;
- to‘g‘ri tushunilayotganligini nazorat qilish.

Yuqorida sanab o‘tilgan har bir malakaning ustida ishlab, uni shakllantirish mumkin. Buning uchun esa albatta amaliyot kerak. Ro‘yxatga qarab turib, har bir inson bexosdan «axir men ham shuni qilaman-ku» deb aytishi mumkin. Biroq malakalarga ega bo‘lish va undan foydalanish hamda eng muhimi amaliyotda ustalik bilan qo‘llay olish bu turli darajaga ega bo‘lgan holatlar. Maslahat odatda oddiy suhbatga ham o‘xshab ketadi. Shu suhbat ko‘rinishini takrorlamay, undan tashqariga chiqish uchun, albatta yuqorida sanab o‘tilgan malakalarning barchasidan unumli foydalana bilish lozim.

Yaxshi va yomon tinglovchi

Yaxshi tinglovchi belgilari

1. Mijozni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga harakat qiladi. Uni muhokama qilmaslikka va o‘zi istaganicha o‘zgartirmaslikka intiladi.

2. U bilan iliq, tabiiy va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘ladi.

3. O‘zining nutqi bilan zavqlanib o‘tirmsandan, suhbatdosh yoki mijozning fikrini diqqat bilan tinglaydi.

4. Bir vaqtning o‘zida mijoz haqida barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishiga intilmaydi, balki samarali muloqot va ish uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlarning o‘zidan ham unumli foydalanishga harakat qiladi.

5. Mijozning his-tuyg‘usi va fikrlarini aks ettiradi.

¹ intervensiya – ijtimoiy ish xodimining inqiroz holatidagi oilaga birinchi yordami.

6. Mijoz fikrining bo‘linishiga yoki vaqtinchalik sukunatga, shuningdek fikrlarini ichida emas, balki ustida o‘ylab olish uchun imkon beradi.

Yomon tinglovchi belgilari

1. Noo‘rin savollar bilan mijozning fikrlarini bo‘laveradi.
2. Mijozning ehtiyojlariga e’tibor bermasdan, suhbat mavzusini o‘zgartiraveradi.
3. Mijozning nima haqida gapirayotganini tinglash o‘rniga mijoz qanday qilib va nima deb javob berishini o‘laydi.
4. Hamkorlikda javob qidirish o‘rniga maslahatlar beradi.
5. Mijozni boshqalarga o‘xshatgan tarzda vaziyatni umumlash-tiradi.
6. Tezkor xulosalarga keladi va mijozning fikri hamda nutqini doim bo‘lib turadi.
7. Mijozni tinglashda davom etish o‘rniga, uning muammosini o‘zi hal qilishga harakat qiladi.
8. Mijoz bilan suhbatlashish vaqtida o‘zining muammolari va xulosalari haqida o‘laydi.
9. Barcha paydo bo‘layotgan sukunatlarni to‘ldirishni o‘zining burchi deb biladi.
10. Mijozning savollariga befarqlik bilan qaraydi.
11. Mijoz muammosini o‘rinsiz yoki arzimagan narsa deb baholab, uning his-tuyg‘ulariga e’tibor ham bermaydi.
12. Mijozning his-tuyg‘ulariga e’tibor bermay, faqatgina uni ovuntirishga harakat qiladi.

Nutqli muloqot / refleksiya

Refleksiya bu mijoz tomonidan aytilganlarga qaytishdir. Bu mijozlarni eshitish va ular tomonidan aytilganlarni bir majmuaga keltirish vositasidir. Bu mijoz tomonidan aytilgan barcha fikrlarning uning o‘ziga qaytarishdir.

Refleksiyaning ikki turi mavjud: ma’lumotlar refleksiyasi va xissiyotlar refleksiyasi.

Ma’lumotlar refleksiyasi

Ma’lumotlar refleksiyasi sizning u tomonidan aytilganlarga nis-batan qiziqishingiz mavjudligi va diqqat bilan tinglayotganligingizni

ko'rsatadi. Refleksiyaning ushbu turi sizni mijoz aytganlarini to'g'ri tushuna olganligingiz haqida ishontirishi mumkin. Ma'lumotlar refleksiyasi – bu mijoz aytganlarini o'ziga yetkazib berish.

Hissiyotlar refleksiysi

Bu holatda sizning vazifangiz ma'lumotlar mazmunini emas, balki hissiy tomonini tasvirlab berishga urinishdan iborat.

Refleksiyalar juda ham katta ahamiyatga ega, chunki ular:

1. Sizning tinglayotganingizni ko'rsatadi.
2. Sizni tinglashga majbur etadi.
3. Mijozingiz aytganini noto'g'ri tushungan taqdiringizda u sizning fikringizni oydinlashtiradi.
4. Mijoz o'z fikrini davom ettirishi uchun qulay imkon yaratadi.
5. Mijozga suhbat mavzusini tanlash imkonini beradi, bu esa o'z muammosini o'zi hal etishi uchun yordam beradi.

Ijtimoiy ishchiga nima mumkin va nima qilish mumkin emas.

Tavarak-atrof va sharoit omili

Mumkin emas:

- Mijoz bilan noqulay sharoitlarda uchrashish;
- Stol ustida o'tirib suhbat o'tkazish;
- Mijozga qarshisiga to'g'ri o'tirish;
- Mobil telefonni yoqilgan holda qoldirish;
- Stol ustida shaxsiy narsalar va fotosuratlarni qoldirish;
- E'tiborsiz kiyim;
- Mijoz stulidan yuqori/katta stulni tanlash;
- Konfidensial qog'ozlarni yuzada qoldirish;
- Uchrashuvga kechikib kelish/ bekor qilish.

Mumkin:

- Turli mijozlar uchun turli materiallarni tayyorlash;
- Suhbatni mutanosib sharoitda o'tkazish;
- Mijoz kelganda qabulxona administratoridan mijoz bilan do'stona munosabatda bo'lishni talab qilish;
 - Agar mijoz ertaroq kelsa, uni kutib turish uchun joy bo'lishi zarur;
 - Ro'yxat bo'yicha uchrashuvlarni belgilang va kundalik tuting.

Tana tili

Mumkin emas:

- Mijozga sinchikovlik bilan qarash;
- Haddan ziyod to‘g‘ri yoki haddan ziyod egilgan holatda o‘tirish;
- Oyoqlarni keng ochilgan holda o‘tirish;
- Shok yoki nafratlanish tuyg‘usini namoyon etish;
- Mijozga o‘zini nomaqbul tutishga ruxsat berish.

Mumkin:

- Vizual aloqani to‘g‘ri qo‘llash;
- Mijozdan «yetarli» oralig‘da o‘tirish;
- Qo‘lni tizzasida erkin qo‘yish;
- Siz diqqat bilan tinglayotgan ekanligingizni namoyon qilish uchun mimikadan foydalanish;
- E’tiborli bo‘ling va mijozning tana tiliga e’tiborli berish.

Muloqot tili

Mumkin emas:

- biror-bir odamni haqorat, tanqid yoki mijoz bilan bahslashish;
- mijozga u nima qilishi kerakligi haqida buyruq berish;
- mijoz tajribasini nazarga ilmaslik;
- steriotiplar asosida muhokama etmaslik;
- mijoz uchun qaror qabul qilmaslik;
- mijoz ruxsatisiz ma’lumotlarni uchinchi shaxsga bermaslik;
- bir xil javob qaytaruvchi to‘g‘ri savollar bermaslik;
- bajara olmaydigan ishlaringiz uchun va’da bermang;
- suhbat mavzusini o‘zgartirish;

Mumkin:

- javoblar sonini ko‘paytiruvchi savollar berish;
- mijozga asosiy so‘zlovchi bo‘lishga imkon berish;
- fakt va emotsiya haqida o‘ylab ko‘rish;
- rezyume bo‘yicha malakalarni qo‘llash;
- mijoz bilan suhbatda uning his-tuyg‘ulari va qayg‘ulariga ta’sirlanish va rag‘batlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilishga mijozni yo‘naltirish;
- sizning shaxsiy fikringiz ustida gapirilganda «men» so‘zidan gapni boshlang;

- hamjamiyatda mavjud xizmat va resurslar haqida ma'lumotlarni ko'rsatish;
- konfidensiallikka hamisha rioya qilish;
- izolyatsiyadan chiqarish/yordam berish orqali mijoz imkoniyatlarini kengaytirish.

Mijoz bilan ishlashda taqiqlangan usullar xatolar:

1. Mijozga nisbatan shaxsiy murojaatning yo'qligi. Bu juda katta masofani, emotsiyal sovuq aloqani talab etadi. *Mijozga ismi bilan murojaat eting.*

2. Mijozga maxsus va tushunarsiz so'zlarni qo'llash. Mijoz bilan ijtimoiy ishchi bo'lgan suhbatda tushunarsiz so'zlarni izohlarsiz qo'llash ular orasidagi ishochli muloqotni buzilishiga olib keladi. *Mijozga tushunarli tilda gapiring!*

3. Kasbiy o'zaro ta'sirdan maishiyya o'tish. Mijoz va ijtimoiy ishchi o'zaro munosabatida inson sifatida emas, professional sifatida refleksiya qilish. Aks holda maslahat mohiyatiga ko'ra «oshxonadagi suhbatlarga» aylanadi. *Kasbiy ta'sirlaning!*

4. Boshqa insonlar fikriga doimiy appelyatsiya. Maslahatli aloqa maqsadi inson fikrini aniqlash uning hal qilish yo'llari mantig'ini aniqlash. *Bu haqda boshqa insonlar nima deb o'ylashi haqida mijozdan so'ramang, uning pozitsiyasini aniqlang.*

5. Muammoni haddan tashqari tez aniqlash. *Sabrsizlikni namoyon etmaslik.*

6. Mijoz qadriyatlarini qabul qilmaslik.

Qadriyatlarni qabul qilish ularni so'zsiz qo'llab quvvatlash anglatmaydi. Biroq maslahatchi mijoz hayotida qadriyatlar asosiy ahamiyatni egallashi va uning shaxsiy mohiyatini anglatishini tushunadi. *Mijozga uning qadriyatlar tizimi halaqt etadimi uni o'zi hal etishi zarur.*

7. Yuqoridan qarash. Yuqoridan qarash «yuqori inson» sifatida maslahatchini o'zini tutayotgandek ko'rindi – hamma narsani biladigan va barcha narsaga qodirdek. *Mijoz bilan teng pozitsiyada bo'ling.*

Quyidagi taqiqlangan usullarni farqlash:

- Qaror qabul qilish – fikr bildirish.
- Fikr bildirish suhbatdoshni o'z-o'zini baholashni pasaytiradi.
- Fikr bildirish – inkor etish.

1. Qaror qabul qilish – fikr bildirish – qachonki ijtimoiy ishchi mijozga nisbatan qaror qabul qilishda ishonchszilik namoyon etsa va uchun mustaqil o‘zi qaror qabul qilish. Bu quyidagi ko‘rinishda:

– *Buyruq, farmonni ijro etish.* Ijtimoiy ishchi mijozga nima qilishi *haqida buyruq beradi*. U mijoz irodasini cho‘ktiradi, uni mustaqil harakat qilishidan, tanlash imkoniyatidan mahrum etadi.

– *Tahdid, ogohlantiri, ishontirish.* Ijtimoiy ishchi mijozni ogohlatirigan holda, uning harakatlari oqibati nima bo‘lishi haqida hokimlikni qo‘llaydi.

– *O‘rgatish, axloqlashtirish.* Ijtimoiy ishchi unga qanday yo‘l tutishni, o‘z axloqiy printsiplarini qo‘llashni majburlaydi.

– *Qaror qabul qilishda takliflar, maslahatlar.* Ijtimoiy ishchi uning muammolarini hal qilish haqida mijozga gapirish.

2. Suhbatdoshi o‘z-o‘zini baholashni pasaytiruvchi fikrlar.

– *Ayblast, tanqid, muhokam.* Maslahatchi mijozni salbiy baholaydi va qabul qilish.

– *Haddan ziyod maqtash, ma’qullah.* Malahatchi tomonidan rag‘batlantirish yoki ikki yuzlamaschilik bilan manipulyatsiya qilish.

– *Uyaltirishga intilish mazah qilish.* Maslahatchi, ajoyib vaziyatni yuritayotgandek ko‘rsatish va uni «tasniflash» uchun mijozni tentak qilib ko‘rsatishga majbur etish.

– *Tashhis qo‘yish.* Maslahatchi mijozga uning motivi nima ekanligini yoki bir qanchasini sanab o‘tish.

– *Ishontirish, tinchlantirish.* Maslahatchi mijoz holatini yaxshilash yoki his etishini yaxshilash, biroq bu usullar u faqat nomigagina «aytishi» mumkin, mijozning qayg‘urishi va samimiyl yoki haqiqiy tuyg‘usini inkor etgan holda, u holatini yaxshilash harakat qilish.

– *So‘rash va izlanish.* Maslahatchi ma’lumotlarni yig‘ishda mijoz gapirishni xohlamagan yoki gapirishga tayyor emas holatlarida «taz‘iyq» o‘tkazish; uni ma’lumot yetkazishiga majburlash; mijozga muammosini anglashiga yordam berish yoki o‘z qarorini qabul qilishni ishlab chiqishiga yordam berish o‘rniga o‘zi qaror qabul qilish.

Bahslashuvda ko'pincha haqiqatni ifodalayotgan odam emas, balki raqibi nutqini tez va aniq tahlil qila oladigan, unga mutanosib va samarali tarzda o'z nutqini tuza oladigan odam g'olib chiqadi.

Muloqot strategiyasi o'z ichiga quyidagilarni (O.Ya. Goyxmanga ko'ra) qamrab oladi:

- umumiy vaziyatni anglash;
- unda maqsadga yo'naltirilgan ta'sir o'tkazish vazifalari va asosiy g'oyalarini aniqlab olish;
- qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun vaziyat rivojlanishini rejalashtirish va tashkil etish.

Muloqot strategiyasi nutq taktikasida, ya'ni muayyan vaziyatda belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradigan nutq priyomlaridan foydalanish orqali erishiladi. Masalan, avvaldan ishonish ma'nosini deyarli 30 xil usulda ifodalash mumkin: «taxmin qilish», «yumshatish», «bo'rttirish», «siljitish», «aybni boshqa bir kishiga to'nkash», «takrorlash», «misol keltirish» va boshqalar.

Nutq taktikasiga quyidagilarni ham kiritish mumkin: kutilmaganlik, ig'vegarlik, obro'ga murojaat qilish, bashoratlash, norasmiy elementlar kiritish, humor va boshqalar. Ijtimoiy xodim uchun muayyan vaziyatga hammadan ko'ra mosroq keladigan nutq taktikalarini tanlay bilish ko'nikmasi juda muhim.

30-kartochkaga turli nutq taktikalari nomlarini yozing.

Kartochkalarni tartibga soling. Ijtimoiy ishchi hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni faqat o'zingizga ma'lum bo'lgan taktikalar yordamida ishlab chiqing (bunda «vaziyatlar» bo'limidagi misollardan foydalanish mumkin). Boshqalarning vazifasi esa siz muammoni hal qilishda qanday nutq usulidan foydalanganingizni aniqlash. Bu mashqni biroz o'zgartirib, kartochkalarga faqat (o'quvchilar soniga mutanosib tarzda) vaziyatlar yoziladi va barchaga bir xil nutq taktikasi taklif qilinadi. Muammoni yechishda undan kim eng samarali foydalana olarkin?

Ijtimoiy ishlar uchun mijozlarning turli muammolari bo'yicha muzokaralar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Muzokaralar dialog yoki polilog shaklida mo'ljallangan natijalarga erishish yo'lida o'tkaziladigan ish muloqoti ko'rinishidir. Ular asosan o'zaro fikr almashish yo'li bilan har ikki tomon manfaatlariga mos keladigan bitimga erishish va barchaga manzur bo'ladigan natijani

qo‘lga kiritish uchun o‘tkaziladi. Yutuqqa erishish va mijoz manfaatini eng yaxshi tarzda himoya qilish uchun muzokara olib borish san’atini mukammal egallash lozim. Muzokara olib borishning mutaxassislar tomonidan tajriba asosida ishlab chiqarilgan muayyan qoidalari mavjud.

Muzokara olib borish qoidalari:

O‘z oldingizga qo‘ygan vazifani nazardan qochirmang, nima bilan shug‘ullanayotganingiz haqida beriladigan savolga javob berish uchun tayyor bo‘lib turing.

Ijtimoiy ish xodimi mijoz bilan muloqot qilganda:

1. Dastlabki vizual aloqani o‘rnatish juda ham muhim. «Ko‘zning ko‘zga tushishi» suhbatdoshni samimiy bo‘lish va haqiqatni so‘zlashga undaydi. Odam o‘zida boshqa kishining nigohini qancha uzoq sezsa, shuncha tez javob beradi.
2. An’anaviy so‘rashishdan (qo‘l uzatishdan) so‘ng mijoz bilan shunday joylashib o‘tirish kerakki, orangizda hech qanday to‘siq (stol, balandlik va h.k.) bo‘lmasin. Suhbatni erkin holatda olib borish lozim (oyoq va qo‘llarni chalishtirish suhbatdoshni «berkitib qo‘yadi»). Mijoz va ijtimoiy xodim bir-birining qarshisida emas, yonida (masalan, divanda) o‘tirishganda suhbat ancha ochiq bo‘ladi.

3. Yonma-yon o‘tirgach, darrov mijozning shaxsiy maydoniga (120 sm) surilish lozim. Biroq bunda 45 sm gacha bo‘lgan masofa intim zona hisoblanib, unga «kirish uchun» faqat yaqin odamlarga ruxsat beriladi.

4. Teginib o‘tirish ochiq suhbatga chorlaydi. Suhbatning biror qismida imo-ishora yoki harakatlar bilan mijozga tegilsa, bu hol tabiiy ko‘riladi.

5. Mijozning so‘zlariga diqqat bilan quloq solish lozim.

Odatda, barcha zarur axborotni mijoz o‘z suhbatining dastlabki 30 daqiqlasida bayon qiladi. Vaqtning qolgan kismida esa bayon qilingan axborot takrorlanadi va suhbat mavzusi uchun unchalik zarur bo‘lmagan chekinishlar qilinadi.

E’tiborli bo‘ling va suhbatdoshingizning gapini bo‘lmang.

Suhbatdoshingizni u yetti uxlab tushiga ham kirmagan narsada ayblamang. Bu uni mudofaa mavqeyiga o‘tib olishga majbur qiladi va muzokalaralarning umumiy asabiyligi va aggressivligiga sabab bo‘ladi.

Muzokara boshidanoq samimiy va oqko‘ngil bo‘ling. Suhbatdoshingizga hurmat bilan munosabatda bo‘ling, lekin uning oldida yaldoqlanmang.

Suhbatdoshni eshitishni biling. Uning haqiqiy motivlari va istaklarini tushunishga xatti-harakatlari, imo-ishoralari va so‘zлari nimalarni ifodalayotganinini anglashga harakat qiling.

Suhbatdoshingizni o‘z tomoningizga «og‘dirib olishga», uning muammolarini o‘zingiz hal qilib berishga urinmang.

O‘z muammoingizda vakolatli bo‘ling, sizga berilgan savolning javobini bilmasangiz, uni ichingizdan to‘qib chiqarmang va sizga berilmagan savolga javob berishga harakat qilmang.

Kambag‘allik va nochorligingiz bilan «maqtanmang».

O‘tmish to‘g‘risida emas, kelajak to‘g‘risida ko‘proq gapiring.

«Mayda gap» bo‘lmang va muhim bo‘lмаган masalalar yuzasidan tortishmang. Tashakkur bildiring (yordam, ajratilgan vaqt, masalahat va h. k. uchun). Suhbatdoshingizga u bilan uchrashuvningiz siz uchun juda muhim bo‘lganini yetkazib qo‘ying.

Muzokaralar muvaffaqiyatsizlik bilan tugashiga doimo tayyor turing.

Mijozlarning muammolarini hal qilishda ijtimoiy ishchi ko‘pincha boshqa muassasa, tashkilot va idoralarning mutaxassislariga yordam so‘rab murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi. Bir marotabali shaxsiy muloqotlar uzoq muddatli o‘zaro majburiyatlarga nisbatan ijtimoiy ishchi uchun murakkabroq bo‘ladi, uning faoliyati samaradorligini pasaytiradi. «Kerakli» odamlar va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini to‘g‘ri o‘rnata bilish ijtimoiy ishchi muvaffaqiyatining kafolatidir.

Har bir talabaga ijtimoiy ishchingin mijozlar muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan «tashqi» aloqalarini chizish topshirig‘i beriladi. Guruhda bajarilgan ishning natijalarini muhokama qiling. «O‘zar ta’sir»ning yakuniy sxemasini chizing. Chizmada belgilangan muassasa va tashkilotlarni o‘quvchilar o‘rtasida taqsimlang. Xizmat o‘yini davomida ijtimoiy ishning barcha ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlik munosabatlari «o‘rnatishga» harakat qilib ko‘ring.

– hamkorlik munosabatlari rivojlanishiga xalaqit berayotgan muammolar: tomonlar manfaatlarining noaniqligi va kelishtirilma-gani;

– kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tasavvurlarning turlichaligi;

- o‘zaro axborot almashishning zaifligi;
- munosabatlarni huquqiy jihatdan shakllantirilmagani.

Moliyaviy mablag‘larni jalg qilish va ulardan foydalanish masalasidagi noaniqlik. Rejalashtirishning yo‘qligi, kim nima uchun mas’ul ekani to‘g‘risida tasavvur shakllantirilmagani.

Ijtimoiy ishchining faoliyatida verbal va noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan, rasmiy-ish doirasida amalga oshiriladigan, bevosita muloqot shakli bo‘lgan suhbatga katta o‘rin ajaratiladi. Ish yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- hamkorlarning o‘z mavqelarini aniq va ishonarli qilib bayon qila olish layoqatlari va muloqot maqsadlarini hisobga olgan holda muzokara predmetiga tanlab yondashish;
- sherikning so‘zlariga munosabat bildirishning tezligi; sheriklar fikri va takliflariga tanqidiy baho berish;
- subyektiv va obyektiv omillarni hisobga olish va baholashga tahlili yondashuv;
- mazkur muammo bo‘yicha mavjud nuqtayi nazarlarni tanqidiy tahlil qilish orqali o‘zining ahamiyatini bilish va sheriklarning malakalarini oshirish;
- muammoni hal qilishga aloqadorligi va mas’ulligini his qilish.

Xizmat yuzasidan suhbatlarni o‘tkazish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

- 1) suhbat rejasini oldindan yozib olish, eng muhim iboralarni tanlash;
- 2) suhbatdoshta suhbat davomida vaqtiga vaqtiga bilan ta’sir o‘tkazish tamoyilidan foydalanish: noxush onlarni yoqimlilari bilan almashtirib turish, suhbatning boshida va oxirida ijobjiy narsalar to‘g‘risida gapirish;
- 3) suhbatdoshning asosiy motivlarini doimo yodda tutish: uning kutishlari, shu suhbat natijasida u qo‘lga kiritmoqchi bo‘layotgan afzalliklar, uning mavqelari, o‘zini namoyon qilish istagi,adolat tuyg‘usi, o‘zini hurmat qilishi;
- 4) suhbatga aloqasi bo‘limgan chet kishilarning hozir bo‘lishidan qochish;
- 5) har qanday vaziyatda xushmuomala bo‘lish, yuksak didni namoyish qilish;

- 6) suhbatdoshning ijobiy javob berishiga ko‘maklashish;
- 7) suhbatdosh «yo‘q» deb javob berishi mumkin bo‘lgan savollarni chetlab o‘tishga intilish;
- 8) agar suhbatdosh sizning fikringizga qo‘shilmasa, uni batafsil bayon qiling;
- 9) suhbat mavzuyidan chetga chiqmaslikka harakat qilish, yo‘l-yo‘lakay chekinishlardan qochish, fikrni ishonarli qilib ko‘tarishi kayfiyatda ifodalash.

Shuni ham esda tutish zarurki, suhbatdoshning so‘zlarini ðeodoblik bilan bo‘linganda, uning o‘z fikrini bayon qilishiga asossiz yo‘l qo‘yilmaganda, uning dalillarini e’tiborga olmaganda yoki mazax qilganda, dalillar buzib ko‘rsatilganda, asossiz shubhalar bayon qilinganda va h. k. suhbatning risoladagiday o‘tishiga xalaqit beradi.

Muzokaralar otlib borishning quyidagicha soddalashtirilgan chizmasi taklif qilinadi: salomlashish va muzokaralar mavzuyining debochasi: mavzu tavsifi va muzokaralar yuritish bo‘yicha takliflar; tomonlarning o‘z mavqelarini bayon qilishi; munozara yuritish; muammoni hal qilish; yakun hujjat tayyorlash va yakunlash.

Muzokaralar muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun, ular boshlanishi bilanoq suhbatdosh bilan umumiy nuqtalarni topishga intilish zarur. Munozaraning mavzuni eng muhim jihatlaridan boshlash va asosiy masalalar bo‘yicha umumiy xulosaga intilish va shundan keyingina tafsilotlarga o‘tish taklif qilinadi. Muzokaralar boshlanishida mavzuning munozaraga sabab bo‘lmaydigan aniq jihatlari ko‘rib chiqiladi, bu esa munozarani rivojlantirish uchun asos yaratishga ish qiladi. Shundan keyin nisbatan osonroq hal qilinishi mumkin bo‘lgan jihatlarni ko‘rib chiqishga o‘tiladi. Undan keyin esa batafsil muhokama talab qiladigan asosiy masalalarni ko‘rib chiqishga o‘tiladi. Agar bu masalalarni ko‘rib chiqishga muhokama boshida-yoq kirishilsa, unda muzokaralar mutlaqo barbod bo‘lishi mumkin. Agar qarashlardagi tafovutlar jiddiy bo‘lsa, ularga urg‘u bermaslik lozim, aks holda bu muzokaralarning rivojlanishiga xalaqit beradi.

Mabodo, murakkab masalalarni ko‘rib chiqishga asta-sekin kirishish tamoyiliga erishib bo‘lmasa, muzokaralar ikkinchi darajali masalalarda o‘ralashib qolishi, asosiy mavzular bo‘yicha esa tomonlar umumiy kelishuvga erisha olmasliklari mumkin. Bunday holatda erishilgan bitimlarni qayd etish va ular asosida muhokama

qilinishi lozim bo'lgan navbatdagi masalalarni belgilash lozim. Muzokaralar muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsiz o'tganidan qat'i nazar, ularning natijalarini batafsil tahlil qilish zarur.

Muzokaralarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan nutq ifodasiga bog'liq bo'lib, muqobil holatda u rasmiy-ish nutqining uslubi va tilidan foydalanishga, psixolingvistika, sotsiolingvistika, shuningdek, muloqot psixologiyasi fanlarining ma'lumotlariga asoslangan bo'ladi.

X bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING PROFESSIOGRAMMASI

Reja:

10.1 Ijtimoiy ish xodimining professional ko‘nikma va malakalari.

10.2 Ijtimoiy ish xodimining shaxsiy professional sifatlari.

10.3 Ijtimoiy ish xodimlarining etik majburiyatlari.

10.4 Ijtimoiy ish xodimining professional majburiyatlari.

Malakali va samarali ijtimoiy ishni amalga oshirish uchun, tabiiyki ijtimoiy ish xodimi universal bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Bu bilimlar – tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va falsafiy fanlar tizimiga kiruvchi bilim va ko‘nikmalardan iborat bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga xos ijtimoiy-psixologik, anatomo-fiziologik xususiyatlar; ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati; bunday insonlarning shaxsiy va huquqiy manfaatlarini himoyalashga yo‘naltirilgan davlat va nodavlat-notijorat tashkilotlari, boshqa organ, idoralar faoliyati strukturasi, o‘zaro hamkorlik tizimi; har bir alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruh vakillarining huquqiy kafolatlari – ularning huquq va majburiyatlari qayd etilgan qonunchilik hujjalardidan, ularni amalga oshirilish mexanizmidan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

Ijtimoiy ish xodimi bilimi va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2008-yildagi 191-sod buyrug‘i bilan tasdiqlanib amalga kiritilgan «5760100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar bayon etilgan Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartida aniq keltiriladi. Jumladan, mazkur ta’lim standartlariga ko‘ra Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha

bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1) umumiy malakaviy talablar; 2) kasbiy malakaviy talablar.

Mazkur yo'naliish bo'yicha tahsil olgan bakalavr darajasidagi ijtimoiy ish mutaxassisiga ta'lim dasturlari bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar bo'yicha talablar belgilanadi:

- A) Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha talablar;
- B) matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar;
- D) Umumkasbiy fanlar bo'yicha talablar;
- E) Ixtisoslik fanlari bo'yicha talablar va h.z.

So'nggi ikki blokda ijtimoiy ish kasbiga bevosita aloqador fanlar tizimiga oid bilim, ko'nikma va malakalar keltiriladi. Ular orasidan to'g'ridan to'g'ri ijtimoiy ish faoliyatiga aloqador bo'lgan «Umumkasbiy fanlar bo'yicha talablar» blokidan ba'zi bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablarni keltirib o'tamiz:

Bakalavr:

- ijtimoiy guruuhlar va qatlamlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Turli ijtimoiy guruuhlar va qatlamlarning dolzarb muammolari. Alovida ijtimoiy guruuhlar va qatlamlar (ayollar, bolalar, qariyalar, imkoniyati cheklanganlar, ishsizlar, deviant xulqlilar)da ijtimoiy ish olib borishning usullari va yo'naliishlari. Turli ijtimoiy guruuhlar va qatlamlarda ijtimoiy munosabatlarni o'rganish dinamikasi. Ijtimoiy guruhlarning shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi o'rni *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- Turli ijtimoiy guruuhlar va qatlamlarning muammolarini o'rganish. Ijtimoiy ishning nazariyasi va uning salomatlik bilan bog'liqlik jihatlari. Ijtimoiy ishning salomatlik bilan bog'liqlik asoslari. Ijtimoiy ishda tibbiyot konsepsiysi va tibbiy huquqlarning asoslari. Bolalar himoyasi va oila siyosati; jamiyatda ayollarning o'rni; oila va bolalar huquqlarining me'yorlarini; davlatning qariyalar to'g'risidagi siyosatining asosiy yo'naliishlarini; imkoniyati cheklanganlarga hamda deviant xulqlilarga ijtimoiy ko'mak berishning o'ziga xosliklarini; O'zbekiston Respublikasida bandlik siyosati va ishsizlar bilan ijtimoiy ish olib borishni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- turli ijtimoiy guruuhlar va qatlamlarning tarbiyaviy va psixologik tamoyillari; oilani rejalashtirish; oilaning ijtimoiy himoya tamoyillari; bolalar, ayollar, qariyalar, nogironlar, ishsizlar va

deviant xulqlilar o'rtasida ijtimoiy ishning o'rni; ijtimoiy ishning alohida ijtimoiy guruhlar va qatlamlarga nisbatan qo'llanilishida soha sifatidagi zamonaviy yutuqlari. Ijtimoiy ishning yoshlar o'rtasidagi ahamiyati va o'rni. Yoshlar muammolarining yechimi ni topishda ijtimoiy ishning o'rni. O'zbekiston yoshlari o'rtasida ijtimoiy ish tizimining huquqiy me'yoriy asoslari. O'zbekiston yoshlarining konstitutsion huquqlari haqida *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

O'zbekistonda ijtimoiy ishni rivojlantirish va targ'ib qilishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi hamda Ijtimoiy ish bo'yicha qayta o'qitish kurslari tashabbuskori bo'lgan Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazida faoliyat ko'rsatayotgan «Ijtimoiy ish» sektori tomonidan ham shu mazmunda qator ilmiy-uslubiy asoslangan hamda jahon miqyosidagi ijtimoiy ish sohasi tajribalariga tayangan holda ilmiy-uslubiy, amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Jumladan, «Ijtimoiy ish» sektori faoliyatidagi Ijtimoiy ish bo'yicha Milliy jamoa a'zolaridan M.X.Ganiyeva, M.X.Karamyan, L.E.Kim va A.V.Shubina tomonidan ishlab chiqilgan «Ijtimoiy ishchining professiogrammasi»da ijtimoiy ishchining kasbiy ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan quyidagi talablar keltiriladi:

Ijtimoiy ishchining kasbiy ko'nikma va malakalari

Ijtimoiy ishchi quyidagilarni uddalashi kerak:

- o'zining kasbiy amaliy faoliyatida kasbiy-axloqiy-axloqiy me'yorlarga amal qilish;
- shaxslar, oilalar va uyushmalar bilan ishlashni uddalash;
- aholining turli guruhlari (bolalar, yoshlar, ayollar, keksa odamlar, nogironligi bo'lgan odamlar va h.k.) xususiyatlarini bilish va ularga yordam ko'rsata olish;
- muloqot malakasi (mijozlar, bolalar, hamkasbleri va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqot ko'nikmalari, verbal va noverbal muloqot mahorati) ga ega bo'lish;
- baholash va rejalashtirish malakasiga ega bo'lism (to'la baholash uchun axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, mijozlar vaziyatini baholash asosida aniq rejalar va bitimlar ishlab chiqish, erishilgan natijalarni muntazam tahlil qilish va baholash);

- intervensiya o'tkazish malakasiga ega bo'lish (mijozlar bilan to'g'ridan to'g'ri ishslash, hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik, zarurat bo'yicha rejalarini o'zgartirish va tahlil qilish);
- ishchi qaydlarini olib borish malakasiga ega bo'lish (ishlar bo'yicha qaydlarni olib borish, hisobot va xatlar yozish, tashkilotda o'rnatilgan talablarga mos keluvchi aniq va yaqqol qaydlarni olib borish);
- o'z-o'zini boshqarish malakasiga ega bo'lish (shaxsiy ishi va vaqtini uyuشتира олиш, o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilish);
- rahbar yoki ancha tajribali hamkasbining superviziysi bilan ishslashga layoqatli bo'lish va o'rganishga tayyor turish;
- amaliyotda nazariyani qo'llashga qodirlik (ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunish, amaliy faoliyat uchun munosib nazariyani tanlay va qo'llay olish);
- ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning miqdoriy hamda sifatli usullarini qo'llagancha tadqiqotlar o'tkazish mahoratidan foydalanish;
- zamonaviy tadqiqotlarning ma'lumotlarini qo'llagancha dalillarga asoslanib, amaliyotni qo'llash;
- aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmidan foydalanish;
- komandada o'z hamkasblari va boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish (samarali ishchi munosabatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, g'oyalari va axborotlar bilan bo'lishish qobiliyati);
- o'z tashkiloti manfaatlarini tushunish va ifodalash (tashkilotning siyosatini, uning tartibini, maqsad va vazifalarini bilish va tushunish, tashkilot nomidan vakil bo'la olish);
- o'zining kasbiy vakolatlilagini oshirishga ko'maklashish. [...]

Ijtimoiy ish xodimining kasbiy, ma'naviy-axloqiy qiyoфasi

Kasbiy bilimlar bilan bir qatorda ijtimoiy ish xodimi shaxsiy insoniy fazilatlarga, barqaror xarakterga, muloqotchanlik qobiliyati va qator ma'naviy-axloqiy xususiyatlarga ham ega bo'lishi lozim. Chunki birgina yuqorida keltirilgan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. U muayyan kasbiy-axloqiy me'yorlarga rioya qilishi, shaxsiy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Ijtimoiy ish xodimi samarali faoliyat yurita olishi, o'z majburiyati doirasidagi vazifalarini hal qilishi uchun ijtimoiy ish

xodimi eng avvalo, bilim va tajribaga; tarbiyalanuvchilar, ma'muriyat va pedagog-tarbiyachilar orasida o'z avtoritetiga; o'z mavqeyi (huquqlari)ga, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, so'zomollik, muloqotchanlik, irodalilik, mas'uliyatilik, tashabbuskorlik, hamfikrllilik, shaxsiy maftunkorlik kabi shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ham ega bo'lishi lozim.

Qiyin vaziyatdagi mijoz bilan kasbiy amaliy ijtimoiy yordam ko'rsatilgunga qadar ijtimoiy ish xodimi o'z e'tiborliligi, hamdardligi, o'zgalar fikri va dardini sabr-toqatlilik bilan tinglay olishi, zarur va tegishli maslahatlarni berishni bilishi lozim. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy ish xodimi qaysi ijtimoiy maqomga ega bo'lgan, yoki boshqa so'z bilan aytganda «ijtimoiy vaziyatda bo'lgan» insonga ijtimoiy yordam va ko'makni tashkillashtirmasin, u eng avvalo insoniylik tamoyilidan kelib chiqishi zarur bo'ladi.

Shu jihatdan ijtimoiy ish xodimining intellektual, umummadaniy va axloqiy salohiyatga egaligi uning o'z kasbini yuritishga loyiqligi mezoni sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan «Ijtimoiy ishchining professiogrammasi»da ijtimoiy ish xodimining shaxsiy-kasbiy sifatlariga quyidagi talablar qo'yildi:

Ijtimoiy ishchiga zarur bo'lgan shaxsiy-kasbiy sifatlar¹

Ijtimoiy ishchi quyidagi shaxsiy-kasbiy sifatlarga ega bo'lishi, ularni rivojlantrishi va namoyish qilmog'i zarur:

- har bir odamning qadriyatlarini shaksiz qabul qilish, uning huquqlarini hurmatlash;
- odamlarning individual farqliklariga baholashsiz munosabatda bo'lish, insonparvarlik;
- o'zligini anglash va o'zini baholash darajasining rivojlanganligi, tanqidiy tafakkur;
- empatiya (hamdardlik va xayrixohlik qobiliyati);
- refleksiya (fikrlash, mulohaza yuritish qobiliyati);
- odamlar bilan aloqa o'rnatish va ishonchli munosabatlarni shakllantirishni uddalay olish;

¹ «Ijtimoiy ishchining professiogrammasi» // O'zR OO'MTV, RBIMM, A.Qodiriy nomli TDMI va Yunisef hamkorligidagi ijtimoiy ishni targ'ib qilish bo'yicha «Ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlov dasturining tarqatilishi va O'zbekistonda «Ijtimoiy ish» kasbining rivojlanishi» loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. 2009 yil, 6-bet.

- odamlarning hissiy holatiga sezgirlik va ta'sirchanlik, hissiy vazminlik va chidamlilik;
- murakkab vaziyatlarni hal qilishdagi qat'iyatlilik va izchillik;
- xavotirlilikning maqbul darajasi, depressiv holatga moyillikning yo'qligi;
- yordam ko'rsatilayotgan odamlar va oilalarning kuchli tomonlarini ko'ra bilish va rivojlantirish mahorati;
- stressli va hissiy murakkab vaziyatlarda ishlash ko'nikmasi: o'z-o'zini nazorat qilish, bir holatdan boshqasiga o'tish, o'z hissiyotlari va axloqini boshqarish qobiliyati.

Bunday sifatlarga egalik (yoki ularning shakllantirilishi) o'z kasbiy faoliyatini yanada samaraliroq amalga oshirish imkonini ta'minlaydi. Xususan, bu unga aholining turli ijtimoiy guruhlari va ularning xususiyatlari haqida xabardor bo'lishi; o'z xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan ko'ra bilish; turli toifadagi insonlar bilan muloqot o'rnatma olish; kasbiy-shaxsiy salohiyatga ega bo'lish (mijozlarda simpatiya uyg'otish, ularning ishonchini qozona bilish, kasbiy sirni saqlay olish, mijoz hayotining shaxsiy maxfiy masalalari borasida o'z odobi va xushmuomalaligini namoyon eta bilish va h.z.); ish jarayonidagi (mijoz va ma'muriyat yoki xodimlar orasida) turli xil nizo va kelishmochiliklarda, ishdagi omadsizlik va qiyinchiliklarda sabr, iroda, hissiy barqarorlikni saqlay bilishi, o'z majburiyatini sidqidildan bajarishi; mijozlar bilan muloqotda xotirjamlik, xayrixohlik, e'tiborlilikni namoyish etishni uddalay bilishi va shu kabilalar.

Maxsus adabiyotlarda ko'rsatilishicha, ijtimoiy ish xodimining shaxsiy sifatlari uch guruhgaga bo'linadi¹.

Shaxsiy sifatlarning *birinchi guruhiga* kasbiy faoliyat doirasida ijtimoiy ish xodimining psixik jarayonlari (diqqat, idrok, xotira, hayol, tafakkur), psixik holati (toliqish, apatiya, stress, xavotirlanish, depressiya), ong sohasi, hissiy (vazminlik, loqaydsizlik) va irodaviy sohasi (qat'iyatlilik, izchillik, sezgirlik) xususiyatlariga oid qo'yiladigan talablar kiradi.

¹ Основы социальной работы: Учебник / П.Д. Павленок таҳрири остида. – М.: ИНФРА-М, 1999. – 328-бет.

Shaxsiy sifatlarning *ikkinci guruhiga* o‘zini nazorat qila olish, o‘z ishiga tanqidiy munosabatda bo‘la olish, o‘z xatti-harakatlari va imkoniyatlarini adekvat hamda obyektiv baholay olish, shuningdek stressga nisbatan bardoshlilik va barqarorlik fazilatlari, ya’ni jismoniy chidamlilik, ixlos va o‘zini ishontira olish, o‘z hissiyotlarini boshqarish va yo‘naltira olish kabi sifatlari kiradi.

Ijtimoiy ish xodimi shaxsiy sifatlarining *uchinchchi guruhiga* muloqotchanlik (insonlar bilan tezda munosabat o‘rnata olish); empaatiylik (insonlar kayfiyatini fahmlay olish, ularning ustanovka va kutilmalarini tez va oson payqay olish, ularning muhtojliklariga xayrixoh bo‘lish); vizual xususiyatlar (shaxsning tashqi maftun-korligi, didlilik, orasta va takallufligi); so‘zomollik (so‘z va fikr bilan uqtirish, ishontira bilish, dunyoqarashning kengligi) kabi xislat va fazilatlar kiradi.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi «kasbiy etika» yoki «mehnat faoliyati etikasi» sifatida belgilanishi mumkin. Uning mohiyati shu kasb bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy ish xodimining axloqi va qadriyatlari sohasi, e’tiqodi va irodaviy fazilatlari hamda xulq-atvori xususiyatlari bilan birgalikda yaxlit kompleksi tarzda idrok etiladi.

Ijtimoiy ish bo‘yicha jahon tajribasida, xususan chet el va mahalliy ijtimoiy ish sohasi mutaxassislari o‘z kasbiy faoliyatida 1979-yilda AQSHda qabul qilingan «Ijtimoiy ish xodimlari Milliy Assotsiatsiyasining Axloq Kodeksi»ga amal qiladilar. Mazkur hujjatda ijtimoiy ish xodimining kasbiy axloqiy tamoyillari 6 asosiy yo‘nalishlarda qayd etilgan bo‘lib, ularda ijtimoiy ish xodimining xulq-atvori, kasbiy majburiyatlari sohasi, mijoz, hamkasblari, tashkilotlar, ish beruvchilar, kasbiy rivojlanishi, jamiyat oldidagi axloqiy majburiyatlari tafsiloti beriladi.

Birinchi bo‘limda «Ijtimoiy ish xodimining xulq-atvori va qiyofasi»ga oid;

Ikkinchi bo‘limida «Ijtimoiy ish xodimining o‘z mijozlari oldidagi axloqiy majburiyatlari»;

Uchinchi bo‘limida «Ijtimoiy ish xodimining o‘z hamkasblariga nisbatan munosabatiga oid axloqiy majburiyatlari»;

To‘rtinchi bo‘limida «Ijtimoiy ish xodimini ishga olgan tashkilot va ish beruvchilarga nisbatan axloqiy majburiyatlari»;

Beshinchi bo‘limida «Ijtimoiy ish xodimining o‘z kasbiga nisbatan axloqiy majburiyatları»;

Oltinchi bo‘limida «Ijtimoiy ish xodimining jamiyat oldidagi axloqiy majburiyatları» qayd etiladi.

Yuqoridagi hujjatdan tashqari har bir davlat o‘z ijtimoiy-siyosiy hayoti tuzilmasi va ma’naviy qadriyatları, qonunchilik hujjatlari doirasida o‘z axloq kodekslariga ega. Jumladan, O‘zbekiston Ijtimoiy ish xodimlari Milliy jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan «O‘zbekistonda ijtimoiy ishchining kasbiy va etik Kodeksi» ham fikrimizning isbotidir. Albatta bu Kodeks ham [...] «Ijtimoiy Ishchilar Xalqaro Federatsiyasi (IFSW)ning 2004-yil oktabrida Adelaida (Avstraliya)da o‘tkazilgan Ijtimoiy Ish bo‘yicha Maktablar Xalqaro Assotsiatsiyasi va Ijtimoiy Ishchilar Xalqaro Federatsiyasining umumiyl uchrashuvida tasdiqlangan «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar Deklaratsiyasi» hujjatini o‘z ichiga olgan tavsiyalari asosida ishlab chiqildi. Ushbu Kodeksni tuzishda ijtimoiy ishchilarning Britaniya Assotsiatsiyasi, AQSH ijtimoiy ishchilari Milliy Assotsiatsiyasi kodekslari hamda Rossiya ijtimoiy ishchilari va ijtimoiy pedagoglari etikasi Kodekslaridan ham foydalanildi¹.

«O‘zbekistonda ijtimoiy ishchining kasbiy va etik Kodeksi»ga ko‘ra Ijtimoiy ishni amalga oshirishda quyidagi qadriyat va tamoyillarga asoslangan holda ish tutiladi:

- *Inson huquqlari va insoniy qadr-qimmatni hurmat qilish* – insonning mustaqil tanlov va o‘z-o‘zini aniqlashi huquqini tan olish; insonning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hurmat qilish; antidiskriminatsion yondoshish (insonni uning kelib chiqishi belgilari, yoshi, irqiy va ijtimoiy mansubligi, jinsi, diniy e’tiqodi, ideologiyasi, millati, sog‘ligining holati yoki boshqa har qanday tafovutlaridan qat‘i nazar qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish, kamstilmaslik); inson, guruhlari, jamoalarning kuchli tomonlari va imkoniyatlariga tayangan holda ularning hayotini o‘zgartirishga ko‘maklashish; odamlar qadr-qimmatini himoyalash, ularning xavfsizligini ta’minalash, ularning shaxsiy farovonlikka erishishida

¹ «O‘zbekistonda ijtimoiy ishchining professional va etik Kodeksi» / O‘zR OO‘MTV, RBIMM, A.Qodiriy nomli TDMD va YuNISEF hamkorligidagi ijtimoiy ishni targ‘ib qilish bo‘yicha «Ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlov dasturining tarqatilishi va O‘zbekistonda «Ijtimoiy ish» kasbining rivojlanishi» loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. 2009 yil, 3-bet.

yordamlashishda insonni uning individual, oilaviy, jamoatchilik xususiyatlari bilan bir butunlikda qabul qilish.

- *Ijtimoiy haqqoniylik va insonparvarlik* – insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida teng huquqlar hamda imkoniyatlar va vositalarni haqqoniy hamda teng huquqli taqsimlanishini ta'minlash; kamsitishning har qanday, jumladan, jins, yosh, u yoki bu madaniyatga mansublik, oilaviy holat, ijtimoiy-iqtisodiy maqom, irqiy va diniy mansublik belgilari, jismoniy tavsifnoma va jinsiy yo'nalishni kamsitish kabi turlari bilan kurashish; odamlar orasidagi ijtimoiy-madaniy farqlarni inobatga olish, tan olish va hurmat qilish; inson stigmatizatsiyasi, jamiyatdan ajralib qolishini oldini olish, bartaraf etish va uni ijtimoiylashuv jarayoniga jalb etadigan ijtimoiy sharoitlarni tenglashtirish; ijtimoiy farovonlik va xotirjamlikning ta'minlanishi va mijozning o'zligini, mavqeyini aniqlashi, o'zini ijobiy ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish.

- *Sodiqlik va vijdonlilik* – mijoz manfaatlari, kasbiy ham-jamiyat va jamiyat manfaatlari muvozanatini ta'minlash, birlarining manfaatlari boshqalarining manfaatlaridan yuqori qo'yilmaydi; mijoz bilan ishslashda maxfiylikka amal qilinishi, uni ta'minlash uchun choralar qo'llanishi darkor; muammoni hal qilish uchun uning manfaatida qo'llanadigan harakatlar haqida yordam uchun murojaat qilgan mijozni to'liq va ochiq xabardor qilishi lozim.

- *Kasbiy vakolatlilik* – kasbiy majburiyatlarni sifatli bajarishga yo'naltirilgan ijtimoiy ishchining munosib va mas'uliyatli axloqi; kasbiy tamoyil va standartlarga zid bo'limgan axloq; mijozlar, tadqiqot ishtirokchilari, talabalar, hamkasblar bilan muloqotda xatar va ekspluatatsiyani kamaytirish va ularning oldini olish uchun aniq kasbiy chegara o'rnatish; o'z bilimi, malakasi va mahoratidan samarali foydalana bilish; muntazam ravishda o'z kasbiy malakasini oshirish, ishda yangi yondoshuvlar va usullarni qo'llash; tadqiqotchilik faoliyatida ishtirok etish va uning natijalarini keng targ'ib qilish; o'sib kelayotgan yosh mutaxassislarni egallangan shaxsiy kasbiy tajriba bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy salohiyat va sifatga erishishlariga ko'maklashish; o'z kasbiy imkoniyatlari va salohiyati chegarasini tan olish, zaruriyatda tegishli mutaxassis ko'magini tashkillashtirish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, bu hujjatlarning barchasi ijtimoiy ish xodimining faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilagan. Tabiiyki, bundan tashqari, o'zbek xalqi va jamiyatining madaniyati an'analari, mintalitet xususiyatlari, shuningdek, mamlakatimizdagi ijtimoiy himoya tizimi tarixiy rivojlanishi davomida egallangan ma'naviy-madaniy qadriyatlar, ijtimoiy ish amalga oshirilishi bilan bog'liq mahalliy ilmiy-nazariy hamda amaliy tajriba yutuqlari ham inobatga olinishi zarur.

Ijtimoiy ish xodimi o'z kasbiy faoliyatida yuqorida keltirilgan har bir kasbiy sifat va fazilat, bilimdonlik va salohiyatlilik talablariga muvofiqlikni talab etadi. Zero, himoyaga muhtoj bo'lган mijozlarning shaxsiy va huquqiy manfaatlarini himoyalash yo'lida u nafaqat baxtli hayotini ta'minlash, oilani saqlab qolish, balki jamiyatda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, adolatli jamiyatni qurish kabi sermashaqqat va savobli faoliyatni amalga oshiradi.

Ijtimoiy ish – bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal kilish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarda ko'maklashishga yo'naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy ish:

- odamlar, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat;

- o'quv sohasi;

- ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Ma'lumki, ijtimoiy ish xodimining kasbiy faoliyati hozirgi davrda alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ijtimoiy ish xodimining professional modelini, mukammal timsolini tasavvur etishni talab etadi. Shu ma'noda ijtimoiy ishni rivojlanishi ijtimoiy ish xodimining modeli asosida uning professiogrammasi yotadi degan tushuncha qat'iy shakllanmoqda.

Ijtimoiy ishdagi professionalizm bu kishilarga, ularning hayotiy muammolarini hal etishda malakali ko'makni ta'minlovchi, mehnatning yuqori sifatiga va natijalariga erishishda mutaxassisning doim yuqori darajada tutib turadigan bilimlari, mahoratlari va ko'nikmalaridir.

Ijtimoiy ish xodimning professionalizmi unda quyidagilarning mavjudligi bilan tavsiflanadi:

- professional moyillik;
- mehnatni uning turli ko‘rinishlarida bajarishga chuqur rag‘bat;
- ma’naviy-axloqiy sifatlar, kishilar bilan ishlash qobiliyati, inson bilan ishlashga ijtimoiy genetik moyillik;
- professional mahorat;
- o‘z faoliyatiga obyektiv tanqidiy munosabat;
- professional bilimlar va professional mahorat;
- bir umr o‘qish izlanish va o‘zini namoyon etish qobiliyati;
- shaxsning ijtimoiy psixologik holati sifatida professional g‘urur.

Ijtimoiy ish o‘zida ham moyillikni, ham kasbni birlashtiradi, shuning uchun professionalizm bu tarkib etuvchilarning uyg‘unlashtish darajasi, ularning bir butunligi va tizimliligi bilan o‘lchanadi.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xodimlarining professional tayyorgarligi nuqtayi nazaridan, mutaxassislarga va nomutaxassislarga ajratish mumkin. Ijtimoiy xizmatlar mutaxassislari oliy va o‘rtा kasbiy ma’lumotga ega bo‘ladilar – ixtisosli va noixtisosli. Nomutaxassislar, ya’ni yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: malakali, yarim malakali va malakasiz xodimlar. Tajribaning ko‘rsatishicha, ularning hammasi turli darajadagi professional malakaga, professional tayyorgarlikka va professional mahoratga egadirlar. Afsuski, shuni tan olish kerakki, ijtimoiy ishda mutaxassis lavozimida ishlaydigan ijtimoiy xizmatlar xodimlarining hammasi ham xizmat majburiyatini muvaffaqiyatli bajarmaydilar, ijtimoiy xizmat mijozlarining muammolarini muvaffaqiyatli hal etish uchun yetarli professional mahoratga ega emaslar, ya’ni hammasi ham professional emasdirlar.

Professionalizmning shakllanishi hamisha mutaxassislarni professional tayyorlash va tarbiyalashdan, ijtimoiy ish tizimida amaliy ko‘nikmalar tizimini va professional mahoratni bosqichma-bosqich shakllantirishdan boshlanadi. Professional mahoratsiz mijozning hayotidagi mushkul vaziyatni hal etish maqsadida individual ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va uning yashashi uchun ijtimoiy psixologik uyg‘unlikni ta’minlash mumkin emas.

Professional shaxsiy shakllanish va ijtimoiy ish mutaxassisining kamol topishi professional moyillikni shakllantirishni, kasbiy ta'lim olishni, professional mahorat va ma'naviy-axloqiy fazilatlarning, shuningdek, o'zini tartibga solish bilan o'zini nazorat qila bilish va o'zini mukammalashtirishni shakllantirishni ko'zda tutadi¹.

Ijtimoiy ish xodimining professional moyilligi (iste'dodi)

Ijtimoiy ishdagi professionallik mutaxassisida professional moyillik bo'lishini talab qiladi.

Professional moyillik doim ijtimoiy shartlanganlikni ko'zda tutadi. Shu nuqtayi nazaridan professional moyillik obyektiv omil bo'lib, bu iste'dodning egasi nuqtayi nazaridan (ijtimoiy xizmatning konkret xodimi) – professional iste'dod xodim ichki olamining subyektiv omili, komponentidir. Bo'lajak ijtimoiy ish xodimida shaxs shakllanishi jarayonida ijtimoiy ishga, professional faoliyatga alohida munosabat yuzaga keladi. Bu munosabatlar asta-sekin yuzaga keladi: birinchidan, – «ijtimoiy ish» kasbi mohiyatini tushunish va qabul qilish asosida; ikkinchidan, shaxsning faqat o'z lavozimi majburiyatlarini bajarishda emas, balki sotsiumdagi ham, oiladagi, shaxsiy hayotidagi burchlarini bajarishda xatti-harakatlari sifatida bosqichma-bosqich shakllanadi. Ijtimoiy xodim faoliyatining maqsadga muvofiqligi aholini ijtimoiy himoya qilishning faqat strategik vazifalari bilan belgilanib qolmaydi. Bu aholi ijtimoiy ish turli kategoriyalarining qayg'u va og'riqlariga refleksiyadir. Shu bilan birga shaxsning professional iste'dod hayotning mushkul vaziyatiga tushib qolgan kishilar bilan ishlashga genetik moyilligiga ham bog'liq. Shunday qilib, professional iste'dod – obyektiv – subyektiv hodisadir.

Ijtimoiy ish xodimining professional iste'dodi – mutaxassis shaxsida kamol topgan fazilatlari majmua (kompleks) sining murakkab ko'rinishi, ijtimoiy ish faoliyatlarini bajarishga, aholiga ma'lum turdag'i ijtimoiy va turli xizmatlar, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tibbiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy xizmat ko'rsatishga ichki ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikdir. Ijtimoiy eksklyuziyalarga ijtimoiy deviatsiyalarga va ijtimoiy xizmatning turli kategoriyadagi mijozlarining ehtiyojlariga bunday refleksiya tug'ma bo'lishi mumkin emasligi tushunarlidir, u insonning butun hayoti davomida ijtimoiy

ish xodimining kasb iste'dodi, avlodlarni tayyorlash va tarbiyalashdagi rivojlangan tizimi (maktabgacha, maktab, oliy ta'lim, oliydan so'nggi tarbiya), yetuk individual fazilatlar yetarli bo'lganda shakllanadi.

Ijtimoiy ishda ijtimoiy xodimning fazilatlari juda muhimdir, bular unga ijtimoiy xizmatlar mijozlari bilan qulay aloqalar o'rnatishga va ijtimoiy xizmat iste'molchilari bilan ularning muammolari to'liq hal etilgunga *empatiyali* munosabatlarni tutib turishga, o'z professional vazifalarini bajarishdan katta quvонch olishga imkon beradi. Kishilar bilan ishslashga moyillik professional iste'dodda muhim o'rin egallaydi. Professional iste'dod komponentlari tizimida konkret ijtimoiy xodim uchun o'z qobiliyatini amalga oshirish imkoniyati ham katta rol o'ynaydi.

Professional iste'dod strategik va taktik vazifalarni anglashni mo'ljallaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik vaziyatga muvofiq ijtimoiy ish xodimlarining va ijtimoiy xizmatning boshqa mutaxassislari oldida ijtimoiy himoya sohasida dolzarb va istiqbol vazifalar vujudga keladi. Bunda, bir tomonidan, ular ishi yo'nalganligining birinchi galDALigi va ustivorligi aniqlanadi, boshqa tomonidan, ular mijozlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi ma'lum maqsadlarga erishishiga intiladilar¹.

Yana bir jihat muhimdir. Umum da'vat ijtimoiy xizmat va ular xodimlarining, birinchi navbatda ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislarning asosiy vazifalarini belgilab beradi. Aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi istiqbol vazifalarni anglash bu vazifalarni amalga oshirishning umum uchun zarurligini shart qilib qo'yadi. Ijtimoiy xizmat xodimlari umumda'vat fazilatlarini tarqatuvchilaridir. Shunday qilib, ijtimoiy va professional iste'dodning oqilonan uyg'unlashuvi shakllanishi mumkin.

Professional mahorat

Professional mahorat ijtimoiy ishdagi professionalizmning tarkibiy qismi sifatida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha mutaxassisning kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi malakasi, bilimlari va malakalari darajasini aks ettiruvchi quyidagi fazilatlari:

- maxsus tayyorgarlik va kasbiy mutaxassislik bo‘yicha o‘qigan o‘qitishdan o‘tgan, aholining turli kategoriyalari bilan ishlash sohasida barqaror ko‘nikmalarga ega, ijtimoiy ish sohasida amaliyotda zamonaviy texnologiyalarni mohirona va samarali qo‘llovchi xodimning yuqori malakasi;
 - ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi davlat standartlari talablariga harakatining muvofiqligi va yuqori bilimdonligi;
 - ijtimoiy ish sohasida bilimlar va mahoratlardan individual qobiliyatlar bilan uyg‘unlikda maksimal foydalanish;
 - ishonchlilik (kompetentlik) va javobgarlik, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga munosib javob ta’siri;
 - sotsiumdagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish uchun ijtimoiy fanlar va ijtimoiy texnologiyalar yutuqlaridan mahorat bilan foydalanishi;
 - mijozlar va hamkasblar ishonchini qozona olish mahorati, rahmdillik, kishilarga ta’sir eta olish, mijozga va uning muammolariga refleksiv yondoshish¹ majmuuni namoyon etadi.
- Boshqacha aytganda, professional mahorat – individning o‘z ixtisosini, kasbini egallash darajasi; bu ijtimoiy xizmat xodimini ijtimoiy ishdagi professionalizm darajasini o‘zlashtirish ko‘rsat-kichidir.

Ijtimoiy xodimning professional mahorati uning ma’naviy-axloqiy fazilatlarining yetukligi darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir².

Ijtimoiy ish xodimi faoliyatining professional etik (axloqiy) sifatlari, asoslari va me’yorlari

Ijtimoiy ish xodimining gipotetik (farazi) modeli o‘zida o‘zaro bog‘langan sifatlar va o‘lchamlar (parametr) tizimining mavjudligini namoyon etadi. Bu mutaxassisning faoliyati bilan chambarchas bog‘langan shaxsning asosiy komponentlari va tavsiflaridir: insonga insonparvarlik munosabatida bo‘lish, kishilar bilan ishlashga moyillik, ijtimoiy xodim faoliyatiga chuqr turtki, professional ong va o‘zini anglashning yetuk strukturasi, ijtimoiy ishga psixologik tayyorgarlik. Shubxasiz, ijtimoiy ish sohasidagi professionalning nazariy modeli o‘zida etik – axloqiy sifatlar, ijtimoiy xodimning etik

– axloqiy kodeksi talablariga munosiblik, kamol topishga va o‘zini kamol toptirishga moyillik va tayyorgarlik, jamiyatdagi o‘zgarishlarga yaratuvchilik munosabatida bo‘lish kabi omillarni mujassam etadi.

Amerikalik olimlar Djun G. Xopps va Eleyn B. Pinderxyus turli darajadagi ijtimoiy xodimlarni professional – nazariy tayyorlashning strukturasini taklif qilar ekanlar, amaliy faoliyatning malakaviy me’yorlari ro‘yxatlarini keltiradilar, mutaxassisning professional javobgarligining ahamiyatini ijtimoiy ish etik – axloqiy me’yorlari va standartlari pozitsiyasidan turib ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘zgaruvchi ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy xodimlardan murakkablashayotgan vaziyatlarga munosib javob ta’siri qaytarishni talab qiladi. Shuning uchun ijtimoiy ish xodimlari qatorini qobiliyatli, tanqidiy fikrlashga qodir, yordam murojaatlariiga javob bera oladigan, kishilar bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan malakali kadrlar bilan to‘ldirishi kerak.

Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH Germaniya, Finlyandiya, Isroil va boshqa mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan ijtimoiy ish xodimiga berilgan professional – shaxsiy tavsif kasbning mohiyatini va unga bo‘lgan zamonaviy talablarni chuqur anglashga imkon beradi.

1994-yil oktabr oyida ijtimoiy ish xodimlarining Xalqaro federatsiyasi tomonidan qabul qilingan «Ijtimoiy ish etikasi: asoslar va standartlar» hujjatida ijtimoiy ish xodimining professional bilimdonligi va axloqiy javobgarligi me’yorlari alohida qiziqish o‘yg‘otadi. Bu hujjatda bayon etilgan ijtimoiy etik-axloqiy me’yorlar ijtimoiy ish xodimiga bo‘lgan talablar tizimini shart qilib qo‘yadi, mutaxassislarning shaxsiy fazilatlarining ahamiyatini ta’kidlaydi: «Etik-axloqiy bilimlar – ijtimoiy ish xodimi professional faoliyatining zaruriy qismi. Uning etik-axloqiy me’yorlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati mijozlarga taklif etilayotgan xizmatlarning sifatini oshiradi». Mutaxassisning etik-axloqiy xulqatvorining asosiy standartlari mohiyati bo‘yicha ijtimoiy ish xodimining axloqiy-etik sifatlarining gipotetik modelidir.

Ijtimoiy ish xodimlarining professional etik-axloqiy sifatlari, funksiyalari va rollari Moskva davlat ijtimoiy universiteti

tomonidan ishlab chiqilgan ikki to‘plamda ancha mufassal ko‘rib chiqilgan. «Aholi ijtimoiy himoyalashning mo‘ljalli adresli tizimini ta‘minlash sharoitida ijtimoiy ish xodimlarining funksiyalari va rollari» o‘quv-metodik qo‘llanmasida ijtimoiy ish xodimining professionalizmga tavsif berilgan, ijtimoiy ish xodimlari mehnatining samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari aniqlangan, ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalari yoritilgan³. «Ijtimoiy ish xodimi professionalizmi» bobida sotsiologik tadqiqotlar materiallari asosida ijtimoiy ish xodimlariga qo‘yilayotgan me’yoriy axloqiy-etik talablar bilan bu xodimlarda haqiqatda mujassam bo‘lgan professional axloqiy sifatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ko‘rsatilgan: ko‘pchilik ijtimoiy ish xodimlari aholini ijtimoiy himoyalashning zamonaviy tizimi, zamonaviy texnologiyalari, ijtimoiy ish etikasi haqida mavhum tasavvurga ega. Asosiy muammo shundaki, Rossiya Federatsiyasining ayrim hudud regionlarida kuzatish natijalariga ko‘ra ijtimoiy ish xodimlarining aksariyatida kasb majburiyatlarini bajarishga rag‘bati, moyilligi yo‘q, ular o‘z qobiliyatlarini namoyon etish istagi bilan emas, balki turmush taqozosi bilan shu lavozimda ishlaydilar.

«Rossiya Federatsiyasida aholiga ijtimoiy xizmat qilishning asoslari to‘g‘risida» qonuni ijtimoiy xodimlarda professionalizmning shakllanishida asosial jihatdan muhim rol o‘ynaydi. «Ijtimoiy xizmatlarni kadrlar bilan ta‘minlash» qonunining 25-moddasida shunday deyiladi: «Ijtimoiy xizmatlar faoliyatining samaradorligini bajarilayotgan xususiyoti va talablariga muvofiq keluvchi, professional ma‘lumot, ijtimoiy xizmat sohasi bo‘yicha ish tajribasi bo‘lgan, o‘zining shaxsiy fazilatlari bo‘yicha ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga moyil bo‘lgan mutaxassislar ta‘minlaydilar». Bu moddada faqat huquqiy emas, balki axloqiy – shaxsiy xarakterdagи professionalizmning sifat ko‘rsatkichlari ilgari surilgan.

Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislarning professional – etik-axloqiy sifatlarga bo‘lgan talablar quyidagilar:

– zamonaviy jamiyat madaniyatining darajasi va uning ijtimoiy ishga va uning asosiy subyektlariga – o‘zining falsafiy – axloqiy-etik tasavvurlariga, milliy mentaliteti va ijtimoiy an‘analariga ega ijtimoiy xizmat xodimlariga bo‘lgan munosabati bilan;

– ijtimoiy ish xodimi malakasiga bo‘lgan xalqaro talablar bilan, bular ma’lum darajada Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Italiya, Germaniya, Gollandiya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan;

– ijtimoiy xizmatlarning, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish qilishning kompleks, ko‘p tarmoqli va ixtisoslashgan markazlarining shakllanish va rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari bilan;

– ijtimoiy muammolarni hal etishning o‘z tasdig‘ini topayotgan ko‘p variyantligi, o‘tish davri sharoitida ijtimoiy *eksklyuzivlarni* bartaraf etish, aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy rivojlanishning samarali yo‘llarini iqtisodiy islohotlar kontekstida emas, balki inson hayoti uchun izlash bilan belgilanadi.

Ijtimoiy ish xodimlarining professional faoliyatining turi va shakllari, mazmuni amalga oshirish yo‘llari shu faoliyat xususiyatini belgilab beruvchi muayyan tarmoqning faqat o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan balki, jamiyatning, konkret hudud – regionning, aholi punkitining, ijtimoiy - iqtisodiy sohadagi vaziyatlarning xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Ijtimoiy ish xodimlarining professional – etik-axloqiy sifatlariga bo‘lgan talablar ijtimoiy ishning vazifalarini bajarish sohasiga va aholini ijtimoiy himoyalash obyektlarining xususiyatlarga qarab o‘zgaradi.

Qashshoqlik, uysizlik, sayoqlik, bolalar va o‘smirlarning asotsial xulq-atvor, katta yoshdagilarning deviantli xatti-harakati, fohishabozlik, yetimlik, ichkilikbozlik, nogironlik va boshqalar mutaxassis faoliyatiga ta’sir etuvchi va zaruriy professional sifatlarning shakllanishini belgilab beruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis va mijozning ijtimoiy o‘zaro harakati

Ijtimoiy ishdagi professionalizm masalasi o‘ziga ijtimoiy xodimi va mijozning o‘zaro harakati masalasini ham kiritadi. Rossiya Federatsiyasining 12 ta viloyatida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, ijtimoiy xizmat qilishning subyektlari va obyektlari o‘rtasida ijtimoiy muloqot tarixiy jarayonlardan chetda,

konkret ijtimoiy iqtisodiy voqelikdan chetda bo‘lмаган va bo‘лиши ham mumkin emas. Ijtimoiy anomaliyalarning o‘sishi, hayotning mushkul vaziyatlarining ko‘paygani, aholi turli kategoriyalarining dezadaptatsiyalashuvining ortgani sotsil xodimlar va turli kategoriyadagi mijozlar muloqotining o‘zgarishiga olib kelmasligi mumkin emas. Ijtimoiy ish xodimi va mijoz muloqoti hamda o‘zaro harakatining mohiyatini axborot instrumental, avvalo jonli muloqot jarayonida ochiladi. Ijtimoiy ish xodimi va mijozning muloqoti tipologiyasi o‘ziga quyidagi komponentlarni kiritishi mumkin: ijtimoiy xizmat sharoitidagi muloqot, yashash joyidagi muloqot, mijozning uyidagi, qishloq yoki shahar jamoasidagi, ishlab chiqarishdagi, mehnat jamoasidagi muloqotlar, muloqotning shaxsiy (avvalo oiladagi) tipi.

Bunday tipologiyaning asosi kishilarning psixologik kontakti (aloqasi)dir. Ijtimoiy ish xodimi va mijozning ijtimoiy o‘zaro harakati mijozning psixologik kontakt (aloqa)larini hisobga olgan holda vujudga keladi. Biroq bu ijtimoiy ishda hisobga olinadigan yagona talab emas. Agar ijtimoiy ish – bu professional harakat ekan, unda biz ijtimoiy o‘zaro harakat bir qator mijozlar va xodimlarning, mijozlar va uning oila a’zolarining intilishlarini, mijozning o‘zini va ijtimoiy xizmat yoki ijtimoiy himoya qilish organlarining, kommunal harakat organlari va boshqalarning intilishlarini, harakatlarini birlashtirishni nazarda tutuvchi muloqotning funksional – boshqaruvli tipini hisobga olish asosida tashkil etilishi va qurilishi mumkin deb taxmin qilishga haqlimiz.

Shunga ko‘ra, ijtimoiy ish xodimi va mijozning muloqotida hamda o‘zaro harakatida muloqotning shaxsiy, emotsiyonal, psixologik, funksional boshqaruvli tipi hisobga olinadi.

Ijtimoiy ishda bu tipologiyani yoki muloqot turlari tasnifini aniqlab olish, ularning mijozga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va yordam berish jarayonidagi rolini tushunish juda muhimdir, lekin asosiysi emas. Muhimi, insonlar muloqotlarida strukturaviy – tasnifiy jihatlardan foydalangan holda ijtimoiy ishda individual muloqotni ham, kishilar guruhlari bilan muloqotda ham rasmiy va norasmiy o‘zaro harakatni qo‘llash kerak. Ijtimoiy ish xodimi mijoz kategoriyasi va uning muammolarini aniqlab, u bilan muloqotga kirishish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi.

Xodim va mijoz ijtimoiy o'zaro harakatining sotsiologik tahlili bu jarayonda bir tomondan, moddiy va ma'naviy boyliklar bilan almashinuv ro'y berishini, ikkinchi tomondan, mijozning ichki kuchlari ro'yobga chiqishini tushunishga imkon beradi. Professional ijtimoiy ish xodimi bu ikki komponentni birlashtiradi, jonlantiradi va shunday qilib, mijozga uning uchun asosiy bo'lgan vazifani bajarishda (masalan, uning oila a'zolari bilan yoki jamiyat a'zolari bilan munosabatlarini uyg'unlashtiradi) yordam beradi. Ijtimoiy ish xizmatning *muloqot tipi, qoida bo'yicha xayoliy emas, balki ijtimoiy eksklyuziyalar va konkret vaziyatlarda o'z muammolari bilan tushib qolgan real mijozining ijtimoiy refleksiyasining aksi bo'lib gavdalanadi.

Ijtimoiy ish xodimi va mijoz o'zaro harakatining xususiyati ko'p jihatdan mutaxassisning ijtimoiy ish metodlari va texnologiyalarni qay darajada chuqur egallaganligi bilan ham belgilanadi. Professional ijtimoiy ish xodimi noprofessionaldan farq qilgan holda doim ijtimoiy diagnostika, ijtimoiy profilaktika yoki ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy patronaj yoki ijtimoiy terapiya sohasidagi mutaxassislar tavsiyalariga binoan mijoz bilan o'zaro harakatda bo'ladi. Professional har qanday vaziyatda o'z mijizi xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy ishning metodlarini qo'llaydi¹.

Ijtimoiy aloqa – bu ijtimoiy ish xodimlarining, mijozlarning, turli tipdagи boshqa fuqarolar yoki oilalar, jamoalar, ijtimoiy guruhlarning ular ijtimoiy manfaatlari va ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish jarayonida bir-biriga ta'sir etish jarayoni. Ijtimoiy ish xodimi va mijoz ijtimoiy o'zaro aloqasining texnologiyasi mijozning qiyinchiliklarini o'z vaqtida hal etishga, ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirish maqsadida ro'y beruvchi ijtimoiy qaramaqarshiliklarni bartaraf etishga, ijtimoiy keskinlikni yumshatishga, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni muvofiqlashtirshga (korreksiylash) da'vat etilgan.

O'zaro aloqa qoidaga ko'ra, xodimlarning professionalizmi va axloqiy sifatlariga, aholini ijtimoiy himoyalash tizimining imkoniyatlariga, davlat va mahalliy boshqaruv organlarining ijtimoiy - iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq.

Ijtimoiy xodim ijtimoiy fanlarning turli sohalaridagi zamonaviy bilimlarnigina egallab qolmasdan, balki ijtimoiy ishning mustahkam

ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. U mijozning muammolari mohiyatini anglab yetishishi, unga qulqoq sola olishi, bu muammolarni to'liq hal etgunga qadar o'zaro ta'sir aloqalarni yaratish va qo'llab-quvvatlash, hayotning mushkul vaziyatlarini bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy harakatlarning faol jarayoniga jalb etish, huquqiy axborot va boshqa yechimlarni topish, qonun tomonidan belgilangan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishi zarur.

Ijtimoiy aloqa amaldagi qonun asosida tuziladi; ko'p jihatdan uning xususiyati professional faoliyatning axloqiy-etik asoslari va me'yorlari bilan belgilanadi.

Shunga ko'ra professional ijtimoiy ishning shakllanishida 1994-yil oktabrida ijtimoiy xodimlarning Xalqaro federatsiyasida qabul qilingan hujjatlar katta ahamiyatga ega, bular: «Ijtimoiy ish axloqiyetik asoslarining Xalqaro deklaratsiyasi» va «Ijtimoiy ish xodimlarning Xalqaro axloqiy-etik standartlari»dir. Rossiya Federatsiyasida 1995-yildan buyon qo'llanayotgan ijtimoiy xodimlarning milliy kodeksi qabul qilingan.

Ijtimoiy ishdagi professional xavf (risk) lar

Ijtimoiy ishdagi professional xavflar avvalgidek dolzarb va kam o'r ganilgandir. Ijtimoiy xodim mijoz bilan murakkab ijtimoiy o'zaro munosabat jarayonida duch keladigan doimiy stress vaziyatlari, mijozning ijtimoiy muammolarining doim tubiga kirib borishi, shaxsiy himoyasizligi va boshqa ma'naviy-psixologik omillar, o'ziga xos emotSIONAL donor hisoblanadigan ijtimoiy ish xodimining sog'ligiga salbiy ta'sir etadi. Bu salbiy ta'sirning belgilari quyidagilar:

- emotSIONAL horishni his etish;
- mijozlarga nisbatan adovat mavjudligini sezish;
- psixosomatik kasallikning mavjudligi;
- ishtahaning buzilishi,
- o'ziga-o'zi salbiy baho berish;
- yoshiga bog'liq qo'pollik va aybdorlik hissi va boshqalar¹.

Bundan jamoatchilikning, hokimiyat organlarining va ijtimoiy xodimlarning o'zini professional kasalliklarni oldini olish, ogohlantirish, ijtimoiy xodimlarni rehabilitatsiyalashga e'tiborni jalb etish zarurligi ko'rinish turibdi. Ijtimoiy xodimlar professional xavflarni, ularning ijtimoiy - psixologik va biologik tabiatini yaqqol tasavvur etishi, bunday kasalliklarning oldini olish, ogohlantirish

usullari haqida ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Ijtimoiy xodim o'z faoliyatini u yoki bu bosqichida psixologik tanazzulning turli ko'rinishlarining paydo bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi va qayta tayyorlovchi ijtimoiy xizmatlar va o'quv markazlariga qarashli boshqarish organlarining muhim vazifasi – ularning faqat professional kamol topishi va xizmat pog'onasidan yuqori ko'tarilishigagina emas, balki ijtimoiy ish xodimlariga sog'liqlarini saqlashda yordam berish, ularning professional kasallikkarning oldini olish, ijtimoiy ishdagi professional xavflar to'g'risida konsultatsiyalar ham o'tkazishdir. Ijtimoiy ish xodimlarining psixologik madaniyatini oshirish va ular bilan psixologik treninglar, konsultatsiyalar o'tkazish ham juda muhimdir. Ijtimoiy ish xodimlarining professional imkoniyatlari va cheklanmalarini yaxshi tasavvur qilishlari, o'z psixofiziologik va mehnat potentsiallarini doim hisobga olishlari zarur².

Ijtimoiy ish xodimlari sog'ligi monitoringini tashkil etish – ijtimoiy xodimlar uchun va umuman ijtimoiy xodimlar harakat qilish tizimi faoliyatining muhim yo'nalishidir.

Ko'pgina funksiyalarning asta-sekin davlatdan jamoatchilik tashkilotlari qo'liga o'tish sharoitida bu ijtimoiy xizmat xodimlari Assotsiatsiyasi ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy ish xodimlari Assotsiatsiyasi, ijtimoiy xodimlar Assotsiatsiyasi tashkilotlarining professional ijtimoiy ishning shakllanishida, ijtimoiy xizmatlarning barcha xodimlari ijtimoiy sog'lig'ini saqlashdagi rolini faollashtirish ravishda muhimdir.

Assotsiatsiyalar mamlakatda ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash tizimlarini yaratishga faol yordam beradi. Bu tizim o'ziga ijtimoiy xizmatlar uchun mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni; ijtimoiy ish muammolari bo'yicha ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr etishni; ijtimoiy ish bo'yicha oliy-professional ta'limning davlat standartlarini ishlab chiqish va qabul qilishni; yangi tipdagi ijtimoiy xizmatlarni (kompleks, ko'p tarmoqli, ixtisoslashgan); shakllantirishni; ijtimoiy ishning xorij tajribasidan foydalanish va ijtimoiy ish sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni kiritadi.

Professiogramma – bu mutaxassisning kasbiy faoliyatiga va sifatlariga jamiyatning umumlashgan talablarini o‘zida mujassam etgan hujjatdir.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, professiogramma avvalo kasbning mutaxassisga nisbatan talabni o‘zida aks ettirgani bois uni hisobga olmasdan turib uni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yakuniy maqsadlarini aniqlab bo‘lmaydi. Kasbiy o‘qitishning maqsadi esa kasbiy malakalilikni shakllantirish hisoblanadi. Kasbiy malakalilik esa o‘z navbatida ijtimoiy ish xodimining ma’lum darajadagi kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligi va qobiliyatidir.

Umuman olganda, professiogramma o‘z xususiyatiga ko‘ra me’yoriy bo‘lib, kasbiy malakalilik professiogramma asosida, mutaxassis imkoniyatlari va tajribasiga monand tarzda shakllanadi. Kasbiy malakalilik yo‘nalishiga ko‘ra integral, ya’ni jamlanma sifatdir. Bu umumiyo ko‘rinishda quyidagi holatda aks etadi.

Ushbu chizmaga muvofiq, kasbiy ta’limda professiogramma dastlabki nuqta yo‘nalishi bo‘lsa, mutaxassis tayyorlash va modeli uning vositasi, kasbiy malakalilik esa maqsadi, natijasi va yakuni hisoblanadi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, ijtimoiy ish xodimi mijoz vaziyatini o‘rganishi, qarorlar qabul qilishi, ularning oqibatlarini ko‘ra bilishi, ularni amalga oshirishning noan’anaviy uslublarini va maqbul sharoitlarini topa bilishi, jamiyatda mavjud huquqiy va iqtisodiy me’yorlar tizimida yo‘l topa bilish va h.k. zarur.

Ma’lumki, ijtimoiy ish kasbiy faoliyatning alohida turi bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarning boshqaruvchanligini ta’minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson omili birinchi navbatda e’tibor qaratilayotgan davrda ijtimoiy ish sharaflı soha bo‘lib qolmoqda, zero uning markazida inson manfaatlariga qaratilgan kasbiy faoliyat yotadi. Ijtimoiy ish xodimi professiogrammasida ana shu kasbiy faoliyatning umumiyo xususiyatlari o‘z ifodasini topadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan ijtimoiy ish xodimlari professiogrammasida ijtimoiy ish xodimlari uchun qo‘yiladigan namunaviy talablarni yuqori darajada anglasa, o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari va tajribasiga mos tushadigan o‘z kasbiy malakasining ma’lum bir variantini shakillantirib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Professiogrammaning kasbiy ta’limdagi roli

1-chizma.

Ijtimoiy ish xodimi kasbiy faoliyati modeli (professiogrammasi)	Mutaxassis tayyorlash modeli	Kasbiy malakalilikning integral ko‘r- satkich sifatidagi modeli (bilimlar, malakalar, kasbiy faoliyat egasining sifatlari bilan birga)
Muvaffaqiyatli mutaxassisning kasbiy faoliyati xususiyatlari	Muvaffaqiyat- li mutaxassis shaxsi sifatlar- ining xususi- yatlari	O‘qitish maqsadi, mazmuni, o‘quv dasturlari, rejala- ri, uslublari, o‘quv shakllari va nazo- rat

Aynan mana shu narsa ijtimoiy ish xodimining o‘z kasbiy malakasini vujudga keltirishning faol subyektiga aylantiradi. Shundan kelib chiqib, u o‘zini o‘zi boshqarish va tartibga solish, kasbiy o‘sish uchun motivatsiyaga ega bo‘lishi, prefessionalizmning yuqori darajalariga intilishi kabi sifatlarini shakllantiradi. Umuman olganda ijtimoiy ish xodimi faqatgina yangi kasbiy bilimlar egasi bo‘libgina qolmay, kasbiy shakllanish jarayonining subyektiga aylanadi.

«Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari»da 5 guruh ko‘rsatilgan:

- axloqiy xulq-atvor andozalari;
- mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar;
- agentliklar va tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlar;
- hamkasblari bilan o‘zaro munosabatlar;
- kasbga munosabat.

Axloqiy xulq-atvor andozalari:

- har bir inson betakror ekan;
- inson xulq-atvorini va unga ko‘rsatiladigan yordam xususiyatini belgilaydigan sharoitlar betakror ekanini tushunishga intiling;

- kasbiy qadriyatlarni tatbiq qiling, bilim va ko‘nikmalaringizni takomillashtiring;
- kasbingiz obro‘sini tushiradigan xatti-harakatlar qilmang;
- shaxsiy va kasbiy imkoniyatlaringizga ortiqcha baho bermang;
- har doim paydo bo‘layotgan muammolarni hal qilishda bilimlaringiz, ko‘nikmalaringiz va ilmiy bilish metodlaridan foydalaning;
- jamiyat hayotining sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan siyosatning asosiy yo‘nalishlarini va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda kasbiy tajribangizdan foydalaning;
- ijtimoiy ehtiyojlar, shaxsiy, guruh va jamoa, milliy va xalqaro ijtimoiy muammolarning mohiyati va xususiyatini aniqlang va ularni tushuntiring;
- o‘zingizning shaxs sifatida ham, kasbiy uyushma, agentlik yoki tashkilot vakili sifatida ham bajarayotgan harakatlaringiz va maqsadlarining tushunarli shaklda aniq va ravon izohlang.

Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar:

- mijozlarga nisbatan majburiyatlaringizni birinchi o‘ringa qo‘ying, biroq boshqa odamlarning axloqiy maqsadlarini ham hurmat qiling;
- mijozning o‘zaro ishonch, sir va konfidensiallikka, axborotdan mas’uliyatli foydalanishga bo‘lgan huquqlarini himoya qiling;
- axborot to‘plash va uni boshqa shaxslarga berish faqatgina mijozning manfaatlari yo‘lida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat doirasida yuz berishi mumkin, bu harakatlarning zarurligi haqida mijoz oldindan ogohlantirilishi lozim. Hech bir axborot mijozni oldindan xabardor qilmay turib va uning roziligesiz boshqalarga berilmaydi, bundan mijoz o‘z xatti-harakatlari uchun mas’ul bo‘la olmaydigan va bu harakatlarni boshqa shaxslar uchun jiddiy xavf tug‘diradigan holatlar mustasno. Mijoz o‘zi haqida ijtimoiy xizmatchida mavjud bo‘lgan har qanday axborot bilan tanishish huquqiga ega;
- mijozning shaxsiy intilishlari, tashabbuslari va xususiyatlarini qadrlang va hurmat qiling;
- agentlik va ijtimoiy muhit doirasida ijtimoiy xizmatchi mijozga o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatli bo‘lishda ko‘malklashadi. Biror sababga ko‘ra mana shu darajada kasbiy yordam

ko'rsatilishining imkoni bo'lmasa, bu haqda mijozga xabar beriladi va u o'z bilganicha harakat qiladi;

– mijozga (alohida odamga, guruhga, jamoaga, jamiyatga) o'zini namoyon qilishi va shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishda yordam bering, shu bilan birga boshqa odamlarning ham huquqlarini mazkur darajada saqlang;

– mijozga xizmat ko'rsatish asosida uning mutaxassis bilan muloqotlaridan o'zining qonuniy istaklari va foydasiga erishish uchun foydalanish zarurligini tushuntirish yotadi.

Agentliklar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar:

– ijtimoiy siyosatlari, metodlari va amaliyoti mijozlarga sifatli yordam ko'rsatish va kasbiy ijtimoiy ishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan agentliklar va tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlikda ishlang;

– agentlik yoki tashkilotning nizomdag'i maqsadlari va vazifalariga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'ling;

– ijtimoiy ishning eng yuksak andozalariga erishish maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni, uning uslubiyoti va amaliyotini ishlab chiqishga o'z hissangizni qo'shing;

– mijoz taqdiriga to'la mas'uliyat bilan munosabatda bo'ling;

– ijtimoiy siyosatga, uning uslubiyoti va amaliyotiga zarur o'zgarishlarni tegishli agentliklar va tashkilotlar orqali kriting;

– barcha imkoniyatlardan foydalansangiz-u, biroq o'zgartirishlarni kiritishning imkoni bo'lmasa, unda yuqori tashkilotlarga yoki manfaatdor keng jamoatchilikka murojaat qiling;

– mijozga yoki jamoaga ijtimoiy ish samaradorligi to'g'risidagi hisobotni mijozlar, agentlik va tashkilotlar oldida vujudga keladigan muammolarni davriy tahlil qilish, shuningdek, shaxsiy faoliyattingizni tahlil qilish shaklidagi kasbiy hisobot sifatida taqdim qiling;

– ijtimoiy ish axloqiy tamoyillari harakati, tartibi va amaliyotiga zid bo'lgan harakatlarni qilmang.

Hamkasbalar bilan o'zaro munosabatlar:

– hamkasblaringiz va boshqa mutaxassislarning kasbiy tayyoragarligi va amaliy faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo'ling;

- ularga ijtimoiy ish samaradorligiga erishishlarida qo‘lingizdan kelgan yordamni bering;
- hamkasblaringiz va boshqa mutaxassislarning turlicha fikrlari va amaliy yondashuvlariga hurmat bilan munosabatda bo‘ling;
- tegishli instantsiyalarda tanqidiy mulohazalaringizni to‘la mas‘uliyat bilan bayon qiling;
- hamkasblaringiz, boshqa mutaxassislar va ko‘ngillilar orasida bir-birlarini o‘zaro mukammallashtirish va o‘zlarini namoyon qilish maqsadida bajarilayotgan bilimlar, ko‘nikmalar va g‘oyalarni olishga va tarqatishga bo‘lgan harakatlarga ko‘maklashing;
- mijozlar manfaatlari yoki axloq ma’yorlari buzilishi to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotlarni tegishli idoralarga yetkazing;
- hamkasblaringizni adolatsiz hurujlardan himoya qiling.

Kasbga munosabat:

- kasbning qadrini, bilimlar va metodologiyasini himoya qiling, ularni ommalashtirish va takomillashtirishga o‘z hissangizni qo‘sning;
- ijtimoiy ishdagi professionalizmni ko‘taring, uni har tomonlama takomillashtirishga harakat qiling;
- kasbingizni o‘rinsiz tanqiddan himoya qiling, kasbingiz zarur ekani to‘g‘risidagi ishonchni mustahkamlash uchun imkonibor ishlarning barchasini qiling;
- kasbingizni, uning nazariyalari, usullari va amaliyotini konstruktiv tanqid qiling;
- yangi va mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ishning yangicha yondashuvlari va usullarini ishlab chiqishni har tomonlama rag‘batlantiring.

Ijtimoiy xizmatchining majburiyatları:

- va‘zxonlik qilmaslik, buyruq bermaslik, ta’qiqlamaslik;
- mijoz shaxsining sha’ni va betakrorligini hurmat qilib uni harakatga, tashabbusga, ijodga undash;
- mijozga qulqoq tuta bilish, sabr-toqat ko‘rsatish, muammo va vaziyatni tushunish, uning o‘rniga o‘zini qo‘ya bilish, nazokat va odob ko‘rsata bilish;
- muloqotmand bo‘lish, ochiq bo‘lish, mijozni «gapirtira bilish», birgalikda muammolarning yechimini aniqlash;
- atrofdagilar uchun kerakli va qiziqarli bo‘lish;

– mijoz va uning atrofidagilar o‘rtasida vosita, bog‘lovchi halqa bo‘lish, mijozga ko‘rsatilayotgan xayriya yordami orqali uning sha’ni pastga urilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– mijoz bilan ishlashda norasmiy bo‘la bilish, mijozning o‘z muammollarini hal qilishda maslahatchi, ko‘makchi vazifasini bajarish; o‘zaro munosabatlarni tenglik asosidagi dialogga qurish;

– doimo insonparvarlik va mehribonlik nuqtayi nazaridan yondashish;

– mijozni muhokama qilmaslik va unga tanbeh bermaslik;

– shaxs yoki odamlar guruhiга g‘ayriinsoniy va diskriminatsion yondashuvlarning oldini olish;

– mijozni jismoniy yoki ruhiy o‘ng‘aysizlikdan, asabiylashishdan, xavfdan va haqoratlardan himoya qilish;

– o‘z xulq-atvorining yuksak axloqiy andozalarga mosligini saqlash, har qanday makrlar, birovlarни aldash, nopol xattiharakatlarni istisno qilish;

– doimo faqatgina mijoz manfaatlari yo‘lida harakat qilish;

– o‘ziga ko‘makchilarni topa bilish, ijtimoiy ishni rivojlantirishda jamoatchilik ko‘magini ta‘minlash;

– faqatgina o‘zi vakolatli bo‘lgan doirada ish yuritish, o‘z ishining sifati uchun shaxsan mas‘ul bo‘lish;

– tashqi ta’sir va bosimlarga berilmaslik;

– mijozni qo‘llanilayotgan tadbirlar, unga ko‘rsatilayotgan yordam, yozuvlar, to‘planayotgan ma’lumotlar haqida xabardor qilish;

– o‘zining kasbiy munosabatlardan shaxsiy maqsadlar yo‘lida foydalanmaslik;

– vaziyatlarni muhokama qilish va baholashda faqat kasbiy maqsadlar bilan ishtirok etish;

– mijoz ishonib bildirgan sirni hurmat qilish va uni fosh etmaslik;

– ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haqni faqat qonuniy asoslarda olish;

– bajarilgan ish uchun qimmatbaho sovg‘alar olmaslik;

– kasbiy bilimlari, mahorati, malakasini uzlucksiz oshirib borishga intilish;

– o‘z amaliy faoliyatini kasbiy bilimlar asosida tashkil etish;

- kasbning obro'si va pokligini himoya qilish va orttirishga intilish;
- kasbiy o'zaro munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonida hamkasblar ishonchiga hurmat bilan qarash, nazokat va adolatni saqlash;
- kim bo'lishidan qat'iy nazar, hamkasbi axloqqa zid harakat qilsa, unga qarshi choralar ko'rish.

Odatda, sovuqqonlik deb baholanadigan kasbiy me'yorlarni buzish yoki xatolar «beg'amlik, malakasizlik yoki oldindan o'ylan-gan niyat tufayli kasbiy me'yorlarni buzish» sifatida baholanadi. Ijtimoiy ish xodimlari maxfiylikni buzganlari, bolalar bilan yomon munosabatda bo'linayotgani haqidagi shubha to'g'risida xabar bermaganlari, suiiste'molliklar, so'z bilan haqoratlash yoki jismoniy zo'ravonlik tahdidi singari holatlarga befarqlik, xatti-harakatlar yordamida haqoratlash, davolash yoki axloq tuzatish muassasasiga xato natijasida yotqizish tufayli erkinlikni cheklagani uchun sud tomonidan ta'qib qilinishi mumkin.

Malaka tavsifi bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun ijtimoiy ish xodimi o'zining quyidagi huquqlaridan keng foydalananadi:

- mijozlarning manfaatlarini qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organlarida ifodalash va himoyalash;
- maxsus ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki sertifikat bo'lgani taqdirda davlat yoki xususiy ijtimoiy amaliyotni yuritish;
- mijozlar ehtiyojlari bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, aholi orasida sotsiologik so'rovlar, diagnostik tadqiqotlar o'tkazish;
- mijozlarning ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal qilish to'g'risidagi rasmiy so'rovlar va iltimoslari bilan jamoat tashkilotlariga, davlat muassasalariga murojaat qilish;
- o'z faoliyati doirasidagi u yoki bu muammoning holati to'g'risida davlat idoralari axborot berish;
- ijtimoiy tashabbus va faollik ko'rsatganlari uchun ota-onalar, oilalar, ijtimoiy ish ko'ngillarini taqdirlash to'g'risida korxonalar va muassasalar, tijorat tuzilmalari va jamoat birlashmalariga takliflar kiritish;
- oiladagi tarbiya, ijtimoiy ishdagi tajribani ommaviy axborot vositalari yordamida targ'ib qilish uchun faol ish yuritish;

— muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan jamoat tashabbuskorlik harakatlariga boshchilik qilish.

Ijtimoiy ishning asosiy maqsadi – farovonlik to‘g‘risida qayg‘urish va shaxsning, oilaning, jamiyatning imkoniyatlari va qobiliyatlarini me’yordagi ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirishdir. Ijtimoiy ish xodimlari odamlar baxtli bo‘lishi, o‘zlarining hayotidan (oilasidan, ishidan, ma’lumotidan, sog‘lig‘idan, maoshidan, uy-joyidan, dam olishidan va sh.o‘.) ko‘ngli to‘lishi uchun barcha zarur narsalarni bajaradilar.

Maqsadga erishish yo‘lari:

- ♦ mijoz bilan tanishish (jamiyat ham, ijtimoiy guruhi ham, inson ham «mijoz» bo‘lishi mumkin), vaziyatni baholash;
- ♦ imkoniyatlarni aniqlash, muammolarni, muhtojliklarni differentsiatsiyalash;
- ♦ muammolarni yechishda yordam berish, imkoniyatlarni amalga oshirish;
- ♦ kuzatish va g‘amxo‘rlik qilish;
- ♦ ijtimoiy ishning o‘ziga xos qadriyati;
- ♦ yaqinlariga nisbatan muhabbat, qayg‘urish, hamdardlik;
- ♦ befarq bo‘lmaslik;
- ♦ mijozning ichki salohiyatiga, vaziyatni o‘zgartirish imkoniyatiga ishonch;
- ♦ yordam berish va qurban berish istagi;
- ♦ bilimlarni jamlash;
- ♦ tajribaga ega bo‘lish;
- ♦ ijtimoiy ijod.

Ijtimoiy ish xodimi, ijtimoiy xizmatchi, mijozga yordam bera turib, quyidagi funksiyalarni bajaradi (V. G. Bocharova bo‘yicha):

- ♦ tashxis qo‘yish – mutaxassis «ijtimoiy tashxis» qo‘yadi, psixologik va yoshga oid xossalarni, insonning qobiliyatlarini o‘rganadi, uning manfaatlari olamiga, muloqot doirasiga, uning hayoti sharoitlariga kirib ketadi, nisbiy va salbiy ta’sirlarni, muammolarni aniqlaydi;

- ♦ tashkiliy - mutaxassis u yoki bu faoliyatni amalga oshiradi, dam olishning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi, ishga joylashishga, kasbiy yo‘nalishiga va moslashishga yordam beradi, o‘smirlar va yoshlar tashkilotlari faoliyatini markazlashtiradi, mijozni tibbiy,

ta'lim, madaniy, sport, huquqiy muassasalar va xayriya tashkilotlari bilan o'zaro ta'siriga ta'sir o'tkazadi;

♦ prognostik - mutaxassis mikrorayon va ma'lum bir mikro-sotsiumning ijtimoiy rivojlanish jarayonini dasturlashtirish va oldindan aytib berish bo'yicha ijtimoiy ishda qatnashadigan turli institutlarning faoliyatida ishtirok etadi;

♦ ogohlantirish – profilaktik va ijtimoiy-terapevtik – mutaxassis salbiy ta'sirlar oldini olish va bartaraf etishning ijtimoiy-huquqiy, yuridik va psixologik mexanizmlarini harakatlantiradi va ularda o'zi ham qatnashadi, muhtojlarga sotsioterapevtik yordamni tashkil etadi, jamiyatda huquqlarning himoyasini ta'minlaydi, o'smirlarga va yoshlarga ijtimoiy va kasbiy o'zini o'zi aniqlash davrida yordam ko'rsatadi;

♦ tashkiliy-kommunikativ – mutaxassis ko'ngilli yordamchilarning, aholining ijtimoiy ishga, birqalikda mehnat qilish va dam olishga, xizmat bo'yicha va shaxsiy muloqotlarga kirishishiga ko'maklashadi, axborot to'playdi va turli ijtimoiy institutlar o'rtasida, ularning mijoz bilan ishlashida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

♦ qo'riqlash-himoya qilish – mutaxassis mijozlarning manfaatlarini himoya qilish uchun huquqiy me'yorlarning barcha majmuyni ishga soladi, mijozlar huquqiga nisbatan bevosita yoki bavosita g'ayri qonuniy harakatlarga yo'l qo'yayotgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan majburlash va yuridik javobgarlik choralarini qo'llanilishiga yordam ko'rsatadi.

Ular avvalo ijtimoiy ishning quyidagi yo'nalishlarida namoyon bo'ladi:

- a) oilaga yordam berish;
- b) ekstremal vaziyatlarda va «xatar guruhlari» bilan ishslash;
- d) sog'liqni saqlash tizimida ishslash;
- e) ta'lim sohasida ishslash;
- f) bandlik xizmatlarida ishslash.

Tegishli xizmatlarning xodimlari sifatida, ijtimoiy ish xodimlari o'zlarini birinchi navbatda aholining ijtimoiy zaif guruhlarining himoyachilari deb his qilishlari kerak. O'zining vazifasini profesional darajada amalga oshirish uchun ular odamlarning qanday rivojlanayotganlari, o'zaro ta'sir qilayotganlari, o'zgarishlari, o'qishlari, qiyinchilik va muammolarga munosabatlari, alohida odamlarga ijtimoiy shart-sharoitning ta'sir o'tkazishini bilishlari, shuningdek,

ishontirish va majburlash usullarini ularning o‘z faolliklarini rag‘barlantirish yo‘lida nozik biriktirishni bilishlari lozim.

Ijtimoiy ishdagi muhim jihat – biz ko‘pincha boshqa odamlar uchun nima kerakligini hal qilish huquqiga ega emasligimizni anglashga, ularning o‘zлари mayjud variantlardan eng maqbulini tanlashga izn berishimizga bo‘lgan ishonch. Odatda, ularning mavjud muqobilliklarni anglab yetishida, xulq-atvorning mavjud variantlariдан har birining qiyosiy ustunliklari va kamchiliklarini baholashda, qarorlarni engli va oqilona qabul qilishda yordam kerak bo‘ladi.

Bunday yondashuv davlat vakillari odamlarning o‘zini qanday tutishlari lozimligini zo‘rlik bilan tushuntirish, ularga yordam ko‘rsatishni belgilashda o‘zларининг тавсияларини тиқистирish an’анаси bilan bog‘liq avtoritar yondashuvdan keskin farq qiladi. Mushkul ahvolga tushib qolgan odamlarga o‘zларининг his-tuyg‘ularini ifodalash, tanglik holatidan chiqish yo‘llarini topish, tegishli qaror qabul qilish va uni hayotga tatbiq etishda yordam berish uchun avtoritar ish usullaridan voz kechishdan tashqari har bir odam o‘z hayotini o‘zi muvaffaqiyatli tarzda tashkil etish huquqiga egaligi va layoqatliligiga chindan ishonish ham zarur.

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatini rivojlantirishda ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy manfaatlarini ifodalaydigan, yagona kuchga birlashtiradigan hamda ularning o‘rni, mavqeyi, huquqlari va mas’uliyatiga oshirishga ko‘maklashadigan tashkilotlar tashkil etilishi juda muhimdir. Shunda ijtimoiy ish xodimlarining mehnat jamoasi, jumladan, tashkilotlari ham o‘z madaniy namunalarini ishlab chiqadi. Bu tashkilot madaniyati deyiladi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, har qanday tashkilot yaxlit tizim sifatida amal qilishi uchun, u ikki asosiy vazifani bajarishi lozim:

1) muhitga moslashishi;

2) ichki integratsiya.

Tashkiliy madaniyat ana shu vazifalarning amalga oshishini ta’minlaydi. Tashkiliy madaniyat, mutaxassislar fikriga ko‘ra, quyidagi qismlardan iborat:

I. E’tiqod – odamning tashkilotda nima to‘g‘ri ekanligi haqida tasavvurlari.

II. Qadriyatlar – tashkilotda hukmron bo‘lgan qadriyatlar tashkilotda nimani muhim deb hisoblashni belgilab beradi.

Amerikalik tadqiqotchilar T.Piters va R.Uoterman mehnat jamoasi madaniyati va uning muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'iqlikni o'rganib, turli mehnat jamoalarining muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator qadriyatlar tizimini asoslab beriganlar.

III. Me'yorlar – bu odamlarga o'zini qanday tutish kerakligini va ulardan nima kutilayotganligini bildirib turuvchi xulq-atvor qoidalari. Xulq-atvor me'yorlari mehnat jamoasi foliyatidagi ba'zi holatlar, halollik va qonunchilikka rioya etish, ijtimoiy adolat tamoyillarini buzmasligi, manfaatlar to'qnashuviga paytidagi xulq-atvor, boshqa tashkilotlar haqida axborot olish va h.k. ni ifoda etadilar.

IV. Xulq-atvor – ish davomida odamlar boshqalar bilan birga harakatga kirishgan paytda va ish jarayonida amalga oshiradigan kundalik harakatlar (odatlar, rituallar, shuningdek, muomala madaniyati);

V. Psixologik muhit – guruhning ichki sohalarining mustah-kam tizimi bo'lib, u emotsiyal kayfiyatda, jamoa fikrida va faoliyat natijalarida namoyon bo'ladi. Tashkilotdagi muhit – bu odamlarning mehnat jamoasidagi madaniyatni qabul qilishlari va bu haqdagi o'y-fikrlari hamda tuyg'ularidir. Guruhdagisi, jamoadagi munosabatlarni o'rgangan holda unga baho berish mumkin.

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan tashkilotlar tashkiliy madaniyati qadriyatları



2-chizma.

Shunday qilib, ijtimoiy ish xodimlari birlashgan tashkilot madaniyati – u yoki bu tashkilotdagi barcha xodimlarning xatti-harakatini belgilab beruvchi umumiy qadriyatlar, e’tiqodlar, muno-sabatlar yig‘indisidir. Ular aniq ifodalangan bo‘lmasligi mumkin, ammo to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatmalar yo‘q paytda odamlarning xatti-harakatlari va o‘zaro aloqalarini ma’lum ma’noda belgilab beradi va sezilarli darajada umumiy ishni bajarish jarayoniga hamda tashkilotning hayotiy faoliyatni xususiyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

* *Ijtimoiy ish kasbgina emas, balki ruhiy holat hamdir. Ba’zi bir mutaxassislar unga, bu ishga tegishlilik va sadoqatlilik hissiyotlarini beradigan sifat kabi qaraydilar, usiz azob chekayotgan odamlar bilan, ba’zida yechilmaydigan muammolar bilan, o‘zining hayotida ko‘p narsalarni yo‘qotgan odamlar bilan muloqot qilish mumkin emas yoki juda qiyin.*

Shaxsning kasb cho‘qqilari sari o‘zini-o‘zi harakatlantirishi beshta asosiy bosqichlarni (E. Zeyer bo‘yicha) o‘z ichiga oladi:

1) optatsiya – kasbiy va shaxsiy niyatlarni shakllantirish, shaxsiy-psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda kasbni ongli ravishda tanlash;

2) kasbiy tayyorgarlik – kasbiy yo‘naltirilganlik, kasbiy bilimlar va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish, kasbiy vaziyatlar va vazifalarni nazari va amaliy yechish tajribasini orttirish;

3) kasbiy moslashish – kasbga kirishib ketish, yangi kasbiy rolni o‘zlashtirish, kasbiy o‘z-o‘zini belgilash, shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish, kasbiy faoliyatni mustaqil bajarish tajribasini to‘plash;

4) professionallashuv – kasbiy mavqeni shakllantirish, shaxsiy va kasbiy muhim xossalarni va bilimlarni biriktirish va mustahkam tarkibiy shaklda uyg‘unlashtirish, kasbiy faoliyatni malakali mutaxassis sifatida bajarish;

5) kasbiy mahorat – kasbiy faoliyatda shaxsiyatni namoyon qilish, o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish.

II. Ijtimoiy ish xodimi faoliyatining asosiy mazmuni

• shaxslar, oilalar, guruhlar va hamjamiyatlarga yordam berish (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy profilaktika);

- zarur ijtimoiy muhofaza va aholini himoya kilish bo'yicha turli davlat va jamoatchilik tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining integratsiyasiga ko'maklashish;
- ijtimoiy va psixojitmoiy muammolarni o'rganish;
- aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj guruhlari muammolarini hal qilish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, bu dasturlarning samaradorligini baholash.

III. Ijtimoiy ish faoliyati sohasiga kiritilgan tashkilotlar:

Ijtimoiy ish xodimi faoliyati odamlar bilan bevosita (to'g'ridan to'g'ri) darajada bo'lgani kabi tashkiliy-boshqaruv va ma'muriy faoliyat darajasida ham amalga oshirilishi mumkin:

- aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tashkilot va muassasalari (Muruvvat, Sahovat uylari, ijtimoiy ta'minot muassasalari va boshqalar), xalq ta'limi (Mehribonlik uylari, Vasiylik va homiylik organlari, umumta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktabgacha va maktab muassasalari, yordamchi ta'lim muassasalari va boshqalar), sog'likni saqlash (oilaviy poliklinikalar, maxsus tibbiyot muassasalari, reabilitatsion markazlar,
- tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyalar va h.k.), hokimiyatlar xuzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, ixtisoslashtirilgan kasbiy-texnik kollej va litseylar va boshqalar;
- xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mehnat va ijtimoiy himoya bo'yicha boshqarmaning viloyat, shahar va tuman organlari, ichki ishlar organlari;
- tuman, shahar va viloyat hokimiyatlari;
- mahalla;
- jamoatchilik tashkilotlari va uyushmalar.

IV. Ijtimoiy ish xodimlarining mijozlari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, ko'mak, yordam, xizmat ko'rsatish va muhofazaga muhtoj bo'lgan odamlar hisoblanadi:

- *bolalar va yoshlar:* ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalar, alohida ehtiyojli bolalar, OIV bilan azoblanayotgan bolalar, huquqiy xatar guruhdagi yoki qonun bilan nizoga kirgan bolalar, institutsional muassasalarining tarbiyalanuvchilari va bitiruvchilari, ixtisoslashtirilgan o'quv va o'quv-tarbiyaviy muassasalarning o'quvchilari va bitiruvchilari, naazoratsiz qolgan bolalar, shafqatsiz yoki sovuqqon munosabatni boshidan kechirgan, zo'ravonlikning

guvohi bo‘lgan bolalar, trafik, mehnatning eng yomon shakllari va barcha turdagи ekspluatatsiyaga tortilgan bolalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolardan azoblangan bolalar va boshqalar;

▪ *oilalar va ayollar* – kam ta’minlangan oilalar, ko‘p bolali oilalar, ota-onasidan biri bo‘lmagan oilalar, a’zolarining birida OIV bo‘lgan oilalar, alohida ehtiyojli a’zosi bo‘lgan oilalar, krizis vaziyatidagi (oila a’zolaridan birining o‘limini, ajrashish, nizolar, uydagi zo‘ravonlik, ko‘chib o‘tishni boshidan kechirgan va h.k.) oilalar; tabiiy ofatlar, qurolli nizolar, jabr tortgan oilalar, tutingan oilalar va bolalikka olgan oilalar;

- nogironligi bo‘lgan odamlar va ularning oilalari;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj keksa odamlar;
- murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlar;
- ish, turar-joyini yo‘qotgan, yaqin insonining o‘limi yoki og‘ir kasalligini boshidan kechirgan, surunkali kasalliklari bo‘lgan odamlar va boshqalar;
- OIV bilan yashayotgan odamlar;
- spiritli ichimlik va yoki giyohvand moddalarga tobelligi bo‘lgan odamlar;
- penitensiya muassasalardan chiqqan va yoki yopik muassasalarda jazoni ijro etib qaytgan odamlar va h.k.

V. Ijtimoiy ish xodimining professional bilimlari

Ijtimoiy ish xodimi quyidagi bilimlarni egallagan bo‘lishi zarur:

- O‘zbekistan Respublikasi ijtimoiy siyosatining asosiy tamo-yillari, ijtimoiy siyosat sohasida davlat ijtimoiy dasturlari va yo‘nalishlari to‘g‘risida;
 - kasbiy faoliyat sifatidagi ijtimoiy ish haqida;
 - ijtimoiy ishning kasbiy-etik me’yorlari va qadriyatlari haqida;
 - ijtimoiy ishning zamonaviy nazariy modellari va bu sohadagi tadqiqotlar haqida;
- ijtimoiy muammolar yechimi, baholashni olib borish, intervensiya, ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktikaning turli usullari haqida;
- insoniy axloq va rivojlanishi haqida, jamoatchilik muhitining rivojlanishi madaniyat, din, shuningdek, shaxsiy ishonch va shaxsiy yo‘l tutishning ta’siri to‘g‘risida;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy va milliy-davlat me’yorlari (onalik va bolalik muhofazasini, bolalar,

alohida ehtiyojli odamlar huquqlarini boshqaruvchi oila, mehnat, turar-joy qonunchiligi me'yorlari, jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va oilaviy huquqlari asoslari) haqida;

• vasiylik, homiylik, farzand qilib olish, patronat oilaga joylashtirish, imtiyoz va nafaqalarni rasmiylashtirish, ishga joylashtrish, tibbiy va ta'lim muassasalariga joylashtirish va h.k.larni tashkil etish hamda tartibi haqida.

VI. Ijtimoiy ish xodimining professional ko'nikma va malakalari

Ijtimoiy ish xodimi quyidagilarni uddalashi kerak:

• o'zining professional amaliy faoliyatida professional-etik me'yorlarga amal qilish;

• shaxslar, oilalar va uyushmalar bilan ishlashni uddalash;

• aholining turli guruhlari (bolalar, yoshlar, ayollar, keksa odamlar, nogironligi bo'lgan odamlar va h.k.) xususiyatlarini bilish va ularga yordam ko'rsata olish;

• muloqot malakasi (mijozlar, bolalar, hamkasblari va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqot ko'nikmalarini, verbal va noverbal muloqot mahorati)ga ega bo'lish;

• baholash va rejalahtirish malakasiga ega bo'lish (to'la baholash uchun axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, mijozlar vaziyatini baholash asosida aniq rejalar va bitimlar tashkilotda o'rnatilgan talab-larga mos keluvchi aniq va yakdil qaydlarni olib borish);

• o'z-o'zini boshqarish malakasiga ega bo'lish (shaxsiy ishi va vaqtini uyushtira olish, o'zining kuchli va zaif tomonlarini bilish);

• rahbar yoki ancha tajribali hamkasbining superviziyasi bilan ishlashga layoqatli bo'lish va o'rganishga tayyor turish;

• amaliyotda nazariyani qo'llashga qodirlik (ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunish, amaliy faoliyat uchun munosib nazariyani tanlay va qo'llay olish);

• ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning miqdoriy hamda sifatlari usullarini qo'llagancha tadqiqotlar o'tkazish mahoratidan foydalanish;

• zamonaviy tadqiqotlarning ma'lumotlarini qo'llagancha dalil-larga asoslanib, amaliyotni qo'llash;

• aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmidan foydalanish;

• jamoada o‘z hamkasblari va boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish (samarali ish xodimi munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, g‘oyalari va axborotlar bilan bo‘lishish qobiliyati);

• o‘z tashkiloti manfaatlarini tushunish va ifodalash (tashkilotning siyosatini, uning protsedurasi, maqsad va vazifalarini bilish va tushunish, tashkilot nomidan vakil bo‘la olish);

• o‘zining professional vakolatliligini oshirishga ko‘maklashish.

VII. Ijtimoiy ish xodimiga zarur bo‘lgan shaxsiy-professional sifatlar

Ijtimoiy ish xodimi quyidagi shaxsiy-professional sifatlarga ega bo‘lishi, ularni rivojlantirishi va namoyish qilmog‘i zarur:

• har bir odamning qadriyatlarini shaksiz qabul qilish, uning huuqqlarini hurmatlash;

• odamlarning individual farqlariga bahosiz munosabat, inson-parvarlik;

• rivojlangan o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tafakkur;

• empatiya (hamdardlik va xayrixohlik qobiliyati);

• refleksiya (fikrlash, mulohaza yuritish qobiliyati);

• odamlar bilan aloqa o‘rnatish va ishonchli munosabatlarni shakllantirishni uddalay olish;

• odamlarning hissiy holatiga sezgirlik va ta’sirchanlik, hissiy vazminlik va chidamlilik;

• murakkab vaziyatlarni hal qilishdagi qat’iyatlilik va izchillik;

• xavotirlilikning maqbul darajasi, ruhiy tushkunlik holatiga moyillikning yo‘qligi;

• yordam ko‘rsatilayotgan odamlar va oilalarning kuchli tomonlarini ko‘ra bilish va rivojlantirish mahorati;

• stressli va hissiy murakkab vaziyatlarda ishlash ko‘nikmasi: o‘z-o‘zini nazorat qilish, bir holattan boshqasiga o‘tish, o‘z hissiyotlari va axloqini boshqarish qobiliyati.

VIII. Ijtimoiy ish xodimlarining etik majburiyatları

Ijtimoiy ish xodimi majburiyatları:

• ijtimoiy ish mijozlarining qiziqishlariga ko‘maklashadi va huuqqlarini himoya qiladi;

• mijozlarda ishonch o‘rnatish va uni saqlashga intiladi va maxfiylik qoidasiga amal qiladi;

- xizmatdan foydalanuvchi mijozlarning mustaqillikni egallashiga, o‘z-o‘zini aniqlashni rivojlantirishga ko‘maklashadi;
- xizmatdan foydalanuvchi mijozlarni xavfdan hamda ularga zarar kelishidan iloji boricha himoya qiladi;
- o‘z ishining sifati va o‘z bilimlari, malakasini saqlash hamda yaxshilashga mas’ul bo‘la oladi;
- millati, yoshi, diniy e’tiqodi, oilaviy maqomi, aqliy yoki jismoniy xususiyatlari, imtiyozlari, shaxsiy tavsifnomalari va boshqalarga asoslangan kamsitishning har qanday shakllarini namoyon etishni rad etadi va to‘sinqinlik qiladi va boshqalar.

IX. Ijtimoiy ish xodimining professional majburiyatları

Ijtimoiy ish xodimi quyidagilarga majbur:

- 1) ijtimoiy-tibbiy, yuridik, psixologik-pedagogik, moddiy va boshqa yordamga, ma’naviy, jismoniy va psixik salomatligining muhofazasiga muhtoj oilalar, bolalar va alohida shaxslarni aniqlash;
- 2) ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, bolalar va katta odamlarning hayot sharoitlarini o‘rganish hamda ularning huquqiy hamda ijtimoiy himoyasini uyuştirish;
- 3) mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va zarur bo‘lgan hollarda qo‘srimcha xizmat olish uchun boshqa tashkilotlarga yuborish;
- 4) tibbiy va ta’lim muassasalariga joylashishga, moddiy, ijtimoiy-maishiy va boshqa yordam olishda ko‘mak berish;
- 5) mijozlarda yuzaga kelgan kiyinchiliklarni, nizoli vaziyatlarni belgilash, ularga bu qiyinchiliklar, nizolarni hal qilishda ko‘maklashish va ijtimoiy himoyalash;
- 6) mijoz/mijozlar bilan ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyasi va modellarini qo‘llab, mijozning kuchli tomonlariga urg‘u berish va uning atrofidagi imkoniyatlarni izlagancha ularning muammojarini hal qilish bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri ish olib borish;
- 7) ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni joylashtirish bo‘yicha ishlarni uyuştirish va uyg‘unlashtirish (masalan, bola qilib olish yoki bolani tutingan oilaga joylashtirish va hokazo);
- 8) mijozlar (ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan shaxslar, institutsional va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiyaviy muassasalarini bitirayotganlar)ning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasi yuzasidan ishlarni uyuştirish va uyg‘unlashtirish;

9) mijozlarni ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi va yuzaga kelgan hayotiy qiyinchiliklarni mustaqil hal qilishlari uchun zaruriy hayotiy ko‘nikmalarga o‘rgatish;

10) mijozlarga bolalarning oiladagi farovonligini yaxshilash uchun bolalarning ehtiyoji va yoshga oid rivojlanishi, bolalar bilan shafqatsiz va beparvo munosabat va h.k. masalalari yuzasidan ota-onalar malakasini rivojlantirish bo‘yicha maslahatlar berish;

11) mijozlarni istalmagan axloqni o‘zgartirish va ijtimoiy maqbul axloqni egallash masalalari bo‘yicha maslahat berish;

12) oilalarga bolalar, bemorlar va keksa odamlarni parvarish qilish qoidalari hamda malakalarini o‘rgatishda yordamlashish va uni tashkil etish;

13) odamlarning zaif guruqlariga nisbatan mavjud stereotiplarni susaytirish maqsadida ta’lim dasturlari va OAV orqali jamiyatning xabardorligini oshirish hamda professional ijtimoiy ishni targ‘ib qilish.

X. Hamkasblari va boshqa tashkilotlar hamda xizmatlar bilan o‘zaro harakat qilish: hamkasblari, aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy ta’minalash tizimiga aloqasi bo‘lgan turli kasblarning vakillari (psixologlar, yurist, pedagog, tibbiyot xodimlari, ijtimoiy muhofaza organlari ish xodimlari, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimalri va h.k.) bilan hamkorlik.

Ijtimoiy ish xodimi:

14) hamkasblari bilan ochiq hamkorlikda ishlaydi va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi;

15) aholi va boshqa kasb vakillarida murakkab hayotiy vaziyatda bo‘lgan boshqa odamni to‘g‘ri anglash va tushunishga yordamlashadi;

16) mijoz bilan uning eng yaxshi qiziqishlariga amal qilish sharoitida ishlashga jalb etilgan mutaxassislar bilan axborot almashadi;

17) manfaatlar nizosini vujudga keltirishi mumkin bo‘lgan munozarali masalalar haqida ma‘lumot beradi;

18) rahbariyat yoki tegishli mas’ul tuzilmalarni aholining turli toifalarini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yordamni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan amaliy qiyinchiliklar yoki imkoniyatlar to‘g‘risida xabardor qiladi;

19) ijtimoiy himoya bo‘yicha o‘zining faoliyatini bajarishga etarli darajada tayyorlanmagan yoki layoqatsiz deb his qilgan rahbariyat yoki yuqori tashkilotlardan yordam so‘raydi;

20) rahbariyat yoki boshqa mas'ul tashkilotlarni hamkasblari tomonidan xavfsiz amaliyotni qo'llash, xizmat kursi ish standartlarini suiste'mol qilish holatlari haqida xabardor etadi.

XI. Ijtimoiy ish xodimi kasbinining xususiyatlari

Ijtimoiy ish xodimi o'z kasbiy faoliyatining xususiyatlardan keilib chiqib, xabardor qilingan va supervayzer yoki rahbar yordamida uddalashi zarur bo'lgan qator qiyinchilik va muammolar bilan to'qnashadi:

- psixohissiy va jismoniy toliqishda, hissiy ta'sirchan ish boshlanishining pasayishi, empatiyaning zaiflashishi professional motivatsiyaning kamayishida namoyon bo'lishi professional «kuyish» sindromi;
- ishda etik dilemmalar bilan tez-tez to'qnashish va har bir aniq vaziyatda qaror qabul qilish zaruriyat;
- mijozning salomatligi va hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar bilan to'qnashish;
- mijozlarning real vaziyatlari va ularning muammolarini hal qilish uchun vaqt hamda vositalarining tanqisligi;
- aniq muammo bo'yicha tezkor qaror qabul qilish zarur bo'lgan sharoitda axborotning tanqisligi yoki informatsion to'kislik.

XII. Ijtimoiy ish xodimi faoliyatining natijalari

Ijtimoiy ish xodimi faoliyati va professional ijtimoiy ish instituti buniyodga kelganidan so'ng quyidagi natijalarga erishiladi:

- jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolarning hal qilinishi yoki pasaytirilishi (oilalar, bolalar, yoshlar, keksalar, nogironligi, OIV bo'lgan, alkagol va giyohvand moddalarga tobe odamlar, yordam, himoya va ko'makka muhtoj odamlar);
- har xil turdag'i ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishini oldini olish;
- ijtimoiy muammolarning paydo bo'lishi va ularning churqurlashishini bartaraf etishga ko'maklashuvchi ijtimoiy himoya hamda qo'llab-quvvatlash tizimiga mablag' kiritishning foydaliligi hamda iqtisodiy maqsadga muvofiqligi;
- jamiyat, oila, aholi, shaxsning turlicha guruhlari, inson darajasida ijtimoiy muammolarning paydo bo'lishini bashoratlash.

XI bob. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY ISH XODIMINING PROFESSIONAL VA ETIK KODEKSI

Reja:

11.1 Ijtimoiy ishning kasb sifatidagi noyob tavsifnomasi.

11.2 Ijtimoiy ishning qadriyat va tamoyillari.

O'zbekistonda ijtimoiy ish xodimining professional va etik kodeksi ijtimoiy ish bo'yicha Milliy komandaning respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Toshkent davlat madaniyat instituti hamkorligida BMTning O'zbekistondagi YUNISEF bolalar jamg'armasi ko'magida amalga oshirilayotgan «O'zbekistonda «ijtimoiy ish» kasbini ilgari surish va ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlash dasturlarini tarqatish» loyihasi doirasida 2008-yilda ishlab chiqildi.

Ushbu kodeksda ijtimoiy ishning aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimidagi tashkilotlar va muassasalar xodimlari o'z professional amaliyotida qo'llashlari zarur bo'lgan asosiy bazali tamoyillari va qadriyatlari bayon etiladi.

Ushbu kodeks ijtimoiy soha mutaxassislarini mijoz (mijozlar)ga nisbatan etik amaliyotini (ular)ning eng yaxshi manfaatlariga amal qilish va (ular)ning ichki imkoniyatlarini hamda (ular)ning ehtiyojlarini qondirish va yuzaga kelgan muammolarini hal qilishda yordam ko'rsatish uchun atrofdagi kishilar imkoniyatlarini faollashtirish maqsadida yo'naltiradi.

Ijtimoiy ish xodimlarining majburiyatlarini bajarishlarida etik tamoyillar, professionallik, kamsitishga qarshi amaliyot yo'nalishiga rioya etishni, shuningdek, kodeksni professional va shaxsan qabul qilishni ko'zda tutadi.

Ushbu Kodeks Ijtimoiy Ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasi (IFSW)ning 2004-yil oktyabrida Adelaida (Avstraliya) da o'tkazilgan Ijtimoiy Ish bo'yicha Maktablar Xalqaro Assotsiatsiyasi va Ijtimoiy Ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasining umumiy

uchrashuvida tasdiqlangan «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar Deklaratsiyasi» hujjatini o‘z ichiga olgan tavsiyalari asosida ishlab chiqildi. Ushbu Kodeksni tuzishda ijtimoiy ish xodimlarining Britaniya Assotsiatsiyasi, AQSH ijtimoiy ish xodimlarii Milliy assotsiatsiyasi kodekslari hamda Rossiya ijtimoiy ish xodimlarii va ijtimoiy pedagoglari etikasi Kodekslaridan ham foydalanildi.

Kodeks 3 qismdan, kirish va foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi qismda «ijtimoiy ish» kasbining tavsifi va kasbning ta’rifi, shu jumladan, xalqaro ta’riflar beriladi. Ikkinchisi qismning birinchi paragrafi ijtimoiy ish xodimlarining etik kodekslari tayanadigan xalqaro hujjatlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi; ikkinchi paragraf ijtimoiy ish xodimlari o‘z ishida amal qilishi zarur bo‘lgan etik qadriyatlar va tamoyillarni bayon etadi. Uchinchi qism o‘zida «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar Deklaratsiyasi» xalqaro hujjatidagi parchalarni aks ettiradi va ijtimoiy ish xodimining professional axloqni ta’riflab beradi.

Ushbu ijtimoiy ish xodimlari va ijtimoiy sohadagi tutash fanlarning mutaxassislari ishi uchun umumiyoq oriyentir bo‘lib xizmat qiluvchi dastlabki hujjat hisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimi axloqning professional standartlarini batafsil ishlab chiqish O‘zbekistonda «ijtimoiy ish» kasbini kelgusida ilgari surish bo‘yicha keyingi vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri alohida ko‘mak va e’tiborga muhtoj odamlarga manzilli yordam ko‘rsatish bo‘lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning asosial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda ijtimoiy sohada aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bilan ishlashda bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – «ijtimoiy ish xodimi»ga zaruriyat yuzaga keldi.

O‘zbekistonda ijtimoiy ish instituti 90-yillar oxiriga kelib shakllanishni boshladi. Buning uchun 1980-yilda bilim va ta’lim sohasida davlat uchun yangi bo‘lgan – «ijtimoiy ish»ning oliy ta’lim ixtisosliklari va yo‘nalishlari Umum davlat klassifikatoriga kiritilishi asos bo‘ldi. O‘zR Kasblar va lavozimlar Milliy klassifikatoriga «ijtimoiy ish» kasbi va «ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis»lik kiritiladi.

«Ijtimoiy ish» yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim Toshkent davlat madaniyat instituti va Samarqand, Farg‘ona davlat universitetlarida olib boriladi. Toshkent davlat madaniyat instituti ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash sohasida yetakchi oliv o‘quv yurti hisoblanadi, unda bakalavriat va magistraturada talabalar tayyorlash amalga oshiriladigan dastlabki ijtimoiy ish fakulteti ochildi. Bundan tashqari, 2007-yildan boshlab malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash fakulteti qoshida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamkorligida BMTning O‘zbekiston-dagi YUNISEF Bolalar jamg‘armasi ko‘magida O‘zR oliv o‘quv yurtlaridagi ijtimoiy ish o‘qituvchilari va bolalarni ijtimoiy himoyalash tashkilotlari hamda muassasalarining xodimlari uchun ijtimoiy ish bo‘yicha 4 oylik qayta tayyorlash kurslari olib borilmoqda.

Ijtimoiy ish ta’rifi

Ijtimoiy ish – bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarda ko‘maklashishga yo‘naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kasbiy faoliyatdir.¹

Ijtimoiy ish – bu quyidagi chiziqlar bilan xususiyatlangan kasb:

- Ilmiy asoslangan bilim va nazariyalarga tayanadi;
- Dalillarga asoslangan amaliyotga tayanadi;
- Axloqning etik tamoyillari va standartlariga amal qiladi;
- Mijoz va uning atrofidagi ishlar bilan o‘zaro professional harakatda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ishning kasb sifatida rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

- Ijtimoiy ish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni, o‘quv rejasи tuzilmasini (amaliyotni kiritgan holda) va bu bilimlar hamda axborotlarni ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyalari va modellariga muvofiq ravishda doimiy yangilash jarayonini ifodalovchi ta’lim standartiga asoslangan ta’lim jarayonini rivojlantirish;

¹ Ijtimoiy ish ta’rifi ijtimoiy ish buyicha Milliy komandanining xalqaro konsultantlari bilan birgalikda BMTning Uzbekistondagi Yunisef Bolalar jamgarmasi ko‘magida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Toshkent davlat madaniyat instituta xamkorligida 2005-yildan 2008-yilgacha ijtimoiy ish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalari doirasida muhokamadan o‘tkazildi va qabul qilindi.

- Ijtimoiy sohada rasman ishlash huquqini beradigan diplom yoki sertifikat ko‘rinishidagi rasmiy vakolatlarning mavjudligi;
- Ta’lim jarayoni va amaliyotni nazorat qiladigan, tashkilotlardagi ijtimoiy ish xodimining standartlari va etik korxonasini ko‘rib chiquvchi hamda rivojlantiruvchi professional assotsiatsiyalar va uyushmalarning mavjudligi.

Ijtimoiy ishning kasb sifatidagi noyob tavsifnomasi:

- Ijtimoiy ish ba’zi kasblar diqqat e’tiborini alohida individuumlarga (masalan, psixologlar) yoki yaxlit holda jamiyatga (masalan, sotsiologlar yoki politologlar) qaratgan bir paytda insonni ijtimoiy muhitda ko‘rib chiqadi.
- Ijtimoiy ish ibtidoni boshqa fan va kasblardan olgan nazariya va usullarning noyob majmuyidan iborat. Ijtimoiy ishning rivojlanishidagi zamонавиy tendensiylar ishning turli usullari va yondoshuvlari uyg‘unligi, multi-darajali interventsiya hamda fanlararo yondoshuvning rivojlanishiga yo‘naltirilgan.
- Ijtimoiy ish ijtimoiy ko‘makka muayyan qat’iy yo‘nalishga ega va aholining zaif qatlamiga alohida e’tibor qaratadi, u ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.
- Ijtimoiy ish mijozlarning o‘z-o‘zini aniqlashiga alohida urg‘u beradi, mijoz va ijtimoiy ish xodimi o‘rtasidagi munosabat ochiqlik va o‘zaro do‘stlik bilan tavsiflanadi, bu esa muammoning maqbul yechimi uchun imkon beradi.

Ijtimoiy ish xodimining professional faoliyati ijtimoiy o‘zgarishlarga, insoniy o‘zaro munosabatlar muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi; jamiyatda funksional mavjud bo‘lish qobiliyatining mustahkamlanishi va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ozod qilishga yordam beradi. Inson axloqi va jamoatchilik tizimi nazariyasidan foydalangancha ijtimoiy ish odamlarga ularning atrofidagi kishilar bilan o‘zaro harakatda ko‘maklashadi.

Ijtimoiy ish o‘zining turli shakllarida odamlar va ularning atrofidagi kishilar o‘rtasidagi ko‘p sonli, murakkab aloqalar bilan shug‘ullanadi. Ijtimoiy ish faoliyatining maqsadi: barcha odamlarga o‘z imkoniyatlarini to‘la rivojlantirish, o‘z hayotini boyitish va disfunksiyani bartaraf etish imkoniyatini taqdim etadi. Professional

ijtimoiy ish muammolarni hal qilish va o‘zgarishlarga erishishga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy ish xodimlari jamiyatdagi va o‘zlarini xizmat qilayotgan individuum, oilalar va hamjamiyat hayotidagi o‘zgarish agentlari hisoblanadilar. Ijtimoiy ish o‘zida qadriyatlar, nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liq tizimini aks ettiradi.

Ijtimoiy ish o‘z sarchashmasini insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan va demokratik ideallarda oladi, uning qadriyatlarini tengliq har bir shaxsning qadriyati va har bir odamning qadr-qimmatini hürmat qilishga asoslanadi. Kasbning paydo bo‘lishidan boshlab, deyarli bir yarim asr avval ijtimoiy ish amaliyotining diqqat-e’tibori umuminsoniy ehtiyojlar va inson imkoniyatining rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Inson huquqlarini ta’minlash va ijtimoiy haqqoniyligini ijtimoiy ish xodimlari faoliyati uchun motivatsiya va sabab bo‘lib xizmat qiladi. «Zaif» ijtimoiy qatlama ga hamfikrlik tufayli kasb faqirlikni yengillatish, himoyaga muhtoj va ruhan ezilgan odamlarni jamiyat a’zosi sifatida faoliyat yuritishlarini faollashtirish uchun ozod qilishga intiladi. Ijtimoiy ish qadriyatlar professional milliy va xalqaro etik kodekslarda mujassamdir.

Ijtimoiy ish metodologiyasi muayyan kontekstlar uchun xususiyatli bo‘lgan lokal yoqlamalarni kiritgan holda amaliy faoliyatni baholash va tadqiqot o‘tkazish yo‘li bilan olingan isbotli asoslangan bilimlar tizimiga suyanadi. Ijtimoiy ish nazariyasini odamlar va ularning atrofidagi kishilar orasidagi o‘zaro harakatning murak kasbligini inobatga oladi va odamlarning ta’sirga duch kelganiday ularga bio-psixioijtimoiy omilni kiritgan holda ko‘p sonli omillar ta’sirining o‘zgarishini tan oladi. Professional ijtimoiy ish inson axloqi va rivojlanishi, majmuaviy vaziyatlari tahlili uchun ijtimoiy tizimlarni ham, individual, tashkiliy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ko‘maklashish nazariyasini ham o‘zlashtirib oladi.

Ijtimoiy ish jamiyatda mavjud bo‘lgan to‘sqliar, tengsizlik va nohaqlik bilan kurashga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy ish krizis va kritik holatga, shuningdek kundalik shaxsiy va ijtimoiy muammolarga reaksiya qiladi. Ijtimoiy ish shaxs va uning atrofidagi kishilarga majmuaviy va yaxlit yondoshuvga moslashtirilgan malakalar, usullar va ta’sirlarning turli-tumanligidan foydalanadi. Ijtimoiy ish harakatining spektri psixioijtimoiy jarayonlarning individual shaxsiy

darajadagi mashg‘ulotlardan tortib, ijtimoiy siyosatda ishtirok etishni, shuningdek ijtimoiy loyihalash va rivojlanishni qabul qilishgacha yoyiladi. Amaliy faoliyat, maslahat berish, klinik ijtimoiy ish, guruhlar olib borish, ijtimoiy pedagogik ish, oilaviy terapiya, shuningdek odamlarga jamiyatda mavjud bo‘lgan xizmat va imkoniyatlarga erishishga yordamlashishga urinishdan iborat. Bundan tashqari, amaliy faoliyat jamoa tashkilotlari, agentliklarini boshqarish va ijtimoiy siyosat hamda iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida jamoatchilik va siyosiy faoliyat mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ish amaliyotining ustuvorligi davlatdan davlatga o‘tishi va vaqt davomida madaniy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq ravishda o‘zgarib tursa-da, ijtimoiy ishning majmuaviy yaxlit yondoshuvi universaldir.

Inson huquqlarini muhofaza qilish sohasida turli davlat va tashkilotlarning faoliyatini belgilovchi xalqaro deklaratsiya va konvensiyalar ijtimoiy ish xodimining ushbu professional hamda etik kodeksi asosida turadi.

Ijtimoiy ish mohiyatini odamlarning farovonligini ularning shaxsiy imkoniyatlari va ijtimoiy yaqin odamlari imkoniyatlaridan eng yuqori darajada foydalanish hamda ularga imkoniyat berish orqali yaxshilash maqsadidagi amaliy faoliyat sifatida tushunish ijtimoiy ishning etik tamoyillarini quyidagi xalqaro shartnomalar asosida ko‘rishni ko‘zda tutadi:

- Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi, 1948-y.
- Fukarolik va siyosiy huquqlar haqidagi Xalqaro pakt, 1966-y.
- Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Xalqaro Konvensiya, 1965-y.
- Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya, 1976-y.
- Bola huquqlari haqidagi Konvensiya, 1989-y.
- Nogironligi bo‘lgan odamlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, 2006-y.

Ijtimoiy ish xodimining professional va etik kodeksining ijtimoiy ishning qadriyatlari va tamoyillariga bag‘ishlangan ushbu qismi 2004-yil oktabrida Adelaida (Avstraliya)da qabul qilingan. Ijtimoiy ish bo‘yicha maktablar xalqaro assotsiatsiyasi va Ijtimoiy

ish xodimlari xalqaro federatsiyasining «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar Deklaratsiyasi» umumiy hujjati asosida ishlab chiqildi

Bu hujjatda ijtimoiy ish xodimlarining o‘z faoliyatlarini etik tomonlari haqida xabardor bo‘lishi professional amaliyotga muhim qismi, inson huquqlari va ijtimoiy adolatga amal qilish tamoyillari esa ijtimoiy ish faoliyati uchun belgilovchi hisoblanishi ta’kidlanadi.

Ijtimoiy ishning mohiyati vazifasi uning noyob va o‘ziga xos xususiyatini belgilovchi asosni qadriyatlarida aks etgan. Ijtimoiy ish quyidagi qadriyatlarga asosan ish tutadi:

- Inson huquqlari va inson qadr-qimmatini hurmat qilish;
- Ijtimoiy haqqoniylik va gumanizm;
- Sodiqlik va vijdonlilik;
- Professional vakolatlilik.

Ijtimoiy ish xodimining faoliyati inson huquqlari va erkinligini uning obro‘sni va qadriyatlari ham o‘z imkoniyatlarini munosib hayot sharoiti va farovonlikni amalga oshirish qobiliyatini tan olish hamda hurmat qilishga asoslangan. Shu qadriyatlar bilan bog‘liq ravishda tamoyillar quyidagilarni anglatadi:

- Ijtimoiy ish xodimi etikasining ushbu kodeksi asoslanadigan Xalqaro shartnomalarda e’lon qilingan insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish.

- Insonning mustaqil tanlov va o‘z-o‘zini aniqlashi huquqini tan olish. Ijtimoiy ish xodimlari odamga ijtimoiy ko‘maklashgancha uning o‘zi qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga va boshqa odamlar manfaatiga xavf yo‘qligi sharoitida o‘z hayatini mustaqil ravishda belgilashiga yordamlashadi.

- Ijtimoiy ish xodimining aholini turli konfessional va etnik guruhlariga munosabati bo‘yicha insonparvarligini ko‘zda tutuvchi polietnik jamiyat konteksiida insonning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hurmat qiladi. Ijtimoiy ish mijozlari turli-tuman xislatlarga ega bo‘lgan alohida odamlar yoki shaxslar guruh(lar)i bo‘lishi mumkin. Inson yoki shaxslar guruhining barcha xususiyatlari yordam ko‘rsatish va qaror qabul qilishda inobatga olinishi darkor.

- Kamsitishga qarshi amaliyot va insonni uning kelib chiqishi belgilari, yoshi, irqiy va ijtimoiy mansubligi, jinsi, diniy e’tiqodi,

ideologiyasi, millati, sog‘ligining holati yoki boshqa har qanday tafovutlaridan qat‘i nazar qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishni amalga oshiradi.

- Ijtimoiy ish xodimlari odamlarni ularning hayotini o‘zgartirishga, inson, guruhlar, jamoalarning kuchli tomonlari va imkoniyatlariiga tayangancha imkoniyat berishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish jarayoniga jalg etishga ko‘maklashadi.

- Odamlar qadr-qimmatini himoyalash, ularning xavfsizligini ta‘minlash, ularning shaxsiy farovonlikka erishishida yordamlashish ijtimoiy ish xodimi tomonidan insonni uning individual, oilaviy, jamoatchilik xususiyatlari bilan bir butunlikda tushunishi, uning manfaatlari va ehtiyojlarini hurmatlashidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Ijtimoiy haqqoniylig va insonparvarlik ijtimoiy ishning asos soluvchi tamoyillari va qadriyatlar hisoblanadi. Bu qadriyatlar bilan bog‘lik ravishdagi tamoyillar quyidagilarni anglatadi:

- Ijtimoiy ish xodimining insonlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida teng huquqlar hamda imkoniyatlar va vositalarni haqqoniy hamda teng huquqli taqsimlashni ta‘minlash bo‘yicha faoliyati, davlat va jamoatchilik tashkilotlari imkoniyatidan foydalanishning teng kafolatlangan imkonini yaratish va amal qilish bo‘yicha faoliyati.

- Ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy noxush ahvoldagi odamlar chaqiradigan ijtimoiy sharoitlar va qiyinchiliklarni aniqlashga ko‘maklashadi, ijtimoiy siyosatning shakllanishi hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini yaxshilashga ta’sir ko‘rsatadi.

- Ijtimoiy ish xodimlari kamsitishning har qanday, jumladan, jins, yosh, u yoki bu madaniyatga mansublik oilaviy holat, ijtimoiy-iqtisodiy maqom, irqiy va diniy mansublik belgilari, jismoniy tavsifnomalar va jinsiy yo‘nalishni kamsitish kabi turlari bilan kurashishlari zarur.

- Ijtimoiy ish xodimlari o‘z faoliyatida ijtimoiy haqqoniylig tamoyiliga amal qilgancha odamlar orasidagi ijtimoiy-madaniy farqlarni inobatga oladi, tan oladi va hurmat qiladi.

- Ijtimoiy ish xodimlari faoliyati inson stigmatizatsiyasi, ajralib qolishini uyg‘otadigan va uni ijtimoiylashuv jarayoniga jalg

etadigan ijtimoiy sharoitlarni tenglashtirishga yo'naltirilishi darkor. Ijtimoiy ish xodimining amaliy faoliyatni ijtimoiy haqqoniylik tamoyillariga amal qilish maqsadida ijtimoiy farovonlikni yaxshilash va o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini ijobjiy ro'yogga chiqarishga ko'maklashadi.

Odamlarga xizmat qilish va vijdonlilik jamiyat e'tiborini ijtimoiy muammolarga jalb qiladigan, ochiq hamda o'ziga xos ishonch uyg'otadigan tarzda odamlarga yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Shu qadriyatlar bilan bog'liq ravishda tamoyillar quyidagilarni anglatadi:

- Ijtimoiy ish xodimlarining boshqa odamlar manfaatlari va jamoatchilik farovonligiga erishish bo'yicha faoliyati shaxsiy, moddiy yoki moliyaviy foydani kutmaydi.

- Mijoz va uning ijtimoiy atrofidagilar manfaatlari, mijozning qiziqishlari va ijtimoiy ish xodimining shaxsiy qiziqishlari, umuman olganda, ijtimoiy ish xodimining vijdonliligi vositasida mijoz manfaatlari, professional hamjamiyat va jamiyat manfaatlari muvozanatini ta'minlash. Birlarining manfaatlari boshqalarining manfaatlardan yuqori qo'yilmasligi, qay birigadir zarar yetkazilmasligi lozim.

- Ijtimoiy ish xodimlari tomonidan ijtimoiy ish vazifasiga professional faoliyat, uning qadriyatları va axloqning etik standartlari sifatida riyoq qilishi.

- Ijtimoiy ish xodimlari tomonidan mijoz bilan ishlashda mahfiylikka amal qilinishi, uni ta'minlash uchun choralar qo'llanishi darkor. Ijtimoiy ish xodimi mijozni u yoki bu axborot uning ruxsati bilan qaror qabul qilish uchun boshqa tashkilot, ijtimoiy xizmatga berilishi mumkinligi haqida o'z vaqtida xabardor qilishi lozim. Mahfiylik mijoz yoki boshqa shaxslar hayoti uchun xavfli bo'lgan sharoitda buzilgan bo'ladi.

- Ijtimoiy ish xodimi yordam uchun murojaat qilgan mijozni muammoni hal qilish uchun uning manfaatida qo'llanadigan harakatlar haqida to'liq va ochiq xabardor qiladi.

- Ijtimoiy ish xodimining etik tamoyillarni qo'llab-quvvatlash uchun sharoitni vijdonan va mas'uliyat bilan yaratish hamda ko'maklashish faoliyati.

Ijtimoiy ish xodimining professional vakolatliligi ijtimoiy ishning qadriyati hisoblanadi va ularning o‘z majburiyatlarini doimiy professional rivojlanish va professional o‘sishning etik tamoyillariga asoslangancha, samarali bajarishni o‘zi ichiga oladi. Bu quyidagilarni anglatadi:

- Professional majburiyatlarni sifatli bajarishga yo‘naltirilgan ijtimoiy ish xodimining munosib va mas’uliyatli axloqi.
- Professional majburiyatlarni bajarishda ijtimoiy ish xodimlarining beg‘araz axloqi, professional tamoyil va standartlarga zid bo‘lmagan axloq.
- Mijozlar, tadqiqot ishtirokchilari, talabalar, hamkasblar bilan muloqotda xatar va ekspluatatsiyani kamaytirish va ularning oldini olish uchun aniq professional chegara o‘rnatish.
- Ijtimoiy ish xodimlarining professional chegarani buzadigan harakatlar, shu jumladan, katta vako‘latga ega bo‘lgan mijozlar, tadqiqot ishtirokchilari, talabalar, hamkasblari bilan yaqin yoki jinsiy xarakterdagи munosabatdan qochishlari zarur.
- Ijtimoiy ish xodimining o‘z amaliy faoliyatida bilimi, malakasi va mahoratidan samarali foydalana bilishi.
- Doimiy ravishda o‘z professional malakasini oshirish, ish amaliyotida taqdim etilayotgan xizmatlarning hajmini oshirish va sifatini yaxshilash maqsadida yangi yondoshuvlar va usullarni qo‘llash.
- Ijtimoiy noxushlik omillari va ijtimoiy muammolarni hal qilish yo‘llarini aniqlash uchun tadqiqot faoliyatida ishtirok etish, olingan ilmiy natijalarni o‘z hamkasblari orasida tarqatish, bilimlarni ommaviy axborot aloqalari orqali ommalashtirish.
- Talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish maqsadida oliy o‘quv yurtlarining ta’lim jarayonida ishtirok etish, mijozlarning ijtimoiy muammolari yoki og‘ir hayotiy vaziyatlarni maxfiylik tamoyiliga amal qilish sharti bilan hal qilishda o‘z tajribasini tarqatish.
- O‘z bilimlari chegarasini tan olish va o‘zlarining ish beruvchilarini ishga boshqa professionallarni jalb qilish zaruriyati to‘g‘risida xabardor qilish.

Milliy tashkilotlar, Ijtimoiy Ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasi (IIXF) va Ijtimoiy Ish xodimlari Maktabalarining Xalqaro Assotsiatsiyasi (IIMXA) a'zolariga yuklangan mas'uliyat – IIXF va IIMXA deklaratsiyasiga muvofiq etikada ularning shaxsiy qoidalari va etik me'yirlarni muntazam ravishda yangilab turish va rivojlantirishdan iborat. Milliy tashkilotlar ham ijtimoiy ish xodimlari va «ijtimoiy ish» ixtisosligi bo'yicha ta'lim beradigan institut (maktab, fakultet va bo'linma)larni bu qoidalar va me'yorlar haqida xabardor qilishga mas'uldirlar.

Ijtimoiy ish xodimlari ularning davlatlarida ayni lahzada harakatdagi etikaning qoidalari va me'yorlari bilan muvofiqlikda harakat qilishlari lozim. Bu qoida va me'yorlar, umuman olganda, milliy kontekstda ularni qo'llashni aniq belgilovchi hiyla mukammal tavsiyalardan iborat bo'ladi. Quyida professional axloqning umumiy me'yorlari keltirilgan:

1. Ijtimoiy ish xodimlari ularning ishlarini bajarish uchun talab qilinadigan o'z professional malakalari va vakolatlarini rivojlantirishlari hamda qo'llab-quvvatlashlari zarur.

2. Ijtimoiy ish xodimlari o'z malakalaridan qyinoq va terrorizm kabi insonparvar bo'lmagan maqsadlarda foydalanishlariga imkon bermasliklari zarur.

3. Ijtimoiy ish xodimlari vijdonan va halol harakat qilishlari kerak. Ularning xizmatidan foydalanuvchi odamlar ishonchini suiste'mol qilmasliklari, shaxsiy va kasbiy hayoti o'rtasidagi chegarani anglashlari, shaxsiy manfaatlari va foydalari uchun o'z xizmat mavqeyini suiuste'mol qilmasliklari darkor.

4. Ijtimoiy ish xodimlari ularning xizmatidan foydalanuvchi odamlarga nisbatan xayrixohliq hamdardlik va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishlari lozim.

5. Ijtimoiy ish xodimlari ularning xizmatlaridan foydalanuvchi odamlarning ehtiyoj va manfaatlarini shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqmasligi zarur.

6. Ijtimoiy ish xodimlari professional va shaxsiy nuqtayi nazardan ish joyi va jamiyatda o'ziga tegishli xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini ta'minlash o'zi to'g'risidagi g'amxo'rlik zaruriy choralarini qo'llashlari kerak.

7. Ijtimoiy ish xodimlari ularning xizmatlaridan foydalanadigan odamlar haqidagi axborotning maxfiyligini saqlashlari darkor. Bunda istisno tarzida oliv etik talablargina (masalan, hayotni saqlash) oqlanishi mumkin.

8. Ijtimoiy ish xodimlari harakatlari uchun ularning xizmatidan foydalanuvchi va birga ishlayotgan odamlar, o‘z xamkasblar va ish beruvchilar, professional assotsiatsiyalar hamda qonunlar oldida mas’uldirlar va bu turli tomonlarning hisobotlarini o‘zining ichiga nizolarni ham olishi mumkin.

9. Ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy ishni o‘rganayotgan talabalarni qo‘llab-quvvatlashda yordamlashish uchun yuqori sifat amaliyotni o‘tash va yangilangan amaliy bilimlarni olishda ijtimoiy ish institut (maktab fakultet, bo‘linma)lari bilan hamkorlikka tayyor bo‘lishlari darkor.

10. Ijtimoiy ish xodimlari o‘z hamkasblari va ish beruvchilari bilan etika masalalari bo‘yicha munozaralarga ko‘maklashishlar unda ishtirok etishlari, shuningdek, étika masalalarida xabardorlikka asoslangan qaror qabul qilishda mas’uliyatni zimmalariga olishlari zarur.

11. Ijtimoiy ish xodimlari o‘z qarorlari sababini mulohazalarga asoslangancha bayon etishi va o‘zi qilgan tanlov hamda harakati uchun javob berishga tayyor turishi lozim.

12. Ijtimoiy ish xodimlari o‘zlari, ishlayotgan tashkilotlarda va deklaratsiya hamda ularning shaxsiy milliy me’yorlari (agar ishlatishga yaroqli bo‘lsa) deklaratsiyasining tamoyillari muhokama qilinadigan, baholanadigan qo‘llab-quvvatlanadigan o‘z davrlarida sharoit yaratish maqsadida harakatlanishlari zarur.

XII bob. ROSSIYA IJTIMOIY ISH XODIMINING KASBIY-AXLOQIY KODEKSI

Reja:

12.1 Rossiyada ijtimoiy ish sohasining rivojlanish bosqichlari.

12.2 Ijtimoiy ishchining ko‘rinishi va xulq-atvori. Kompetentlik (chuqur bilimga egalik) va professional takomillashish.

12.3 Ijtimoiy ishchining mijozlarga nisbatan belgilangan axloqiy burchlari.

12.4 Ijtimoiy ishchining hamkasblariga nisbatan belgilangan axloqiy ma’yorlari.

12.5 Ijtimoiy ish xodimining kasbi oldidagi axloqiy burchlari.

Rossiyada ijtimoiy ish muhtojlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat sifatida ko‘p asrlarga borib taqalsa-da, u davlat, turli jamoatchilik guruhlari, ijtimoiy soha tadqiqotchilari tomonidan XX asrning 90-yillardan boshlab ob‘ektiv zarur hodisa sifatida qarala boshlandi. Ushbu yillarda aholiga xizmat ko‘rsatish tizimining qaror topishi, aholi bilan ijtimoiy ish olib borishda zamonaviy texnologiyalar va metodlarni keng qo‘llanilishi ijtimoiy siyosatning eng jiddiy tendensiyalaridan biri bo‘ldi.

Rossiyada ijtimoiy ish sohasini vujudga kelishini qo‘yidagi davrlar asosida tahlil qilishimiz mumkin:

1. Arxaik davrdan – X asrgacha bo‘lgan davrlar urug‘-qabilaviy turmush davri va o‘zaro yordamning ko‘rinishi.

2. XII – XIII asrlar knyazlik va cherkovning birqalikdagi homiyligi

3. XIV – XVII asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda cherkov va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam.

4. XVII asrning ikkinchi yarmidan - XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda davlat tomonidan ko‘rsatilgan ijtimoiy yordamning belgilarini ko‘rinishlari

5. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ijtimoiy va xususiy ijtimoiy yordamning ko‘rinishlarini o‘ziga xosligi.

6. 1917-yildan – to 1991-yilgacha davlat ta’minoti

7. XX asrning 90-yillaridan boshlab hozirgi kungacha ijtimoiy ish sohasini takomillashish davri.

Rossiya aholisiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish zamонавиy тизимining tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan infratuzilmasi ushbu tizimning muhim belgisi hisoblanadi. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mamlakatda yangi ijtimoiy muassasalar tarmog‘i (statsional, yarimstatsionar va nostatsionar) yaratilgan, ularda muhtoj fuqarolar malakali zarur yordam, maslahat, ko‘mak olishlari mumkin:

- Keksa kishilar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazi,

- aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatadigan kompleks markazlar,
- aholiga ruhiy-pedagogik yordam ko‘rsatadigan markazlar,
- gerontologik markazlar,

- voyaga etmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari,

- bolalar va o‘smlar uchun ijtimoiy etimxonalar,
- oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatadigan hududiy markazlar shunday muassasalarga kiradi.

XX asrning 90-yillarida Rossiyada «ijtimoiy ish» kasbining kiritilishi uchun poydevor sifatida boshqa mutaxassisliklar: tarbiyachilar, psixologlar, madaniyat, sog‘liqni saqlash va sport, ijtimoiy ta’minot va tartibni muhofaza qilish organlari vakillarining ishlanmalaridan foydalanildi, ularda odamlarni ijtimoiy himoya qilishning turli modellari, amaliy ijtimoiy ish shakllari va usullari, ilmiy tadqiqotlar natijalari mujassamlashgan edi.

Rossiyada ijtimoiy ish shaklanishining o‘ziga xosligi aynan mana shunda, o‘zining davlat sifatida «tug‘ilish» davrida bu ish ancha yetuk holatda, boy salohiyatga, chuqr tarixiy ildizlarga, mehribonlik an’analari va jamoaviylik ruhiga, hamkorlik, ijtimoiy g‘amxo‘rlik va o‘zaro yordam tajribasiga ega edi.

Mamlakatda ijtimoiy ishning paydo bo‘lishidan to hozirgi kungacha ijtimoiy pedagogikaning yetakchilik roli xos bo‘lib, bu holat Rossiyaning ijtimoiy ish bo‘yicha boshqa mamlakatlardan orqada qolishi tafovutini qisqartirishga, shuningdek, hozirgi kunda ko‘pchilik mamlakatlardagi ijtimoiy ish modellarida yetishmayotgan va jahon amaliyoti va «ijtimoiy ish» integrativ fani uchun tashvishli hol bo‘lgan «ijtimoiy-pedagogik urg‘u» berishga imkon yaratdi.

1991-yil 23-aprelda Mehnat va ijtimoiy masalalar Davlat qo‘mitasi qaroriga ko‘ra Rossiya Federatsiyasida ilmiy hamda amaliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yangi kasbiy mutaxassislik ro‘yxatga olindi: “*Ijtimoiy pedagog*”, “*Ijtimoiy ishchi*” va “*Ijtimoiy ish buyicha mutaxassis*”.

Rossiyada «ijtimoiy ish» kasbiga dastlabki yo‘lni ochgan mutaxassislar ijtimoiy pedagoglar edi. Bu, avvalo, shuning uchun ham tabiiyki, har qanday ijtimoiy xizmatchi kasbiy vakolatliligi asosini axloqiy, psixologik, pedagogik xususiyatlar tashkil etadi.

Mamlakatda XX asrdagi ijtimoiy ish taraqqiyotida (V.G. Bocharovaga ko‘ra) uch bosqich farqlanadi:

- 1) 60-yillar;
- 2) 70–80-yillar;
- 3) 80-yillar – hozirgi davr.

1-*bosqich* – 60-yillar tajriba to‘plash, izlanish, ijtimoiy-pedagogik amaliyotda sotsiumdagi tarbiyaviy ishni tashkil etishga maxsus yo‘naltirilgan xizmatchilar toifasi (maktabda sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ish tashkilotchisi, maktabdan tashqari muassasalar xizmatchilarining turli toifalari, boshqa idoralar: madaniyat, sport, uy-joy kommunal va ijtimoiy ta’minot, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, kasaba uyushmalari tizimida, yotoqxonalarda va boshqa muassasalarda ishlaydigan) tashkilotchi-pedagog va tarbiyachilar shakllanishi davri edi.

2-*bosqich* – 70-80-yillar davomida ijtimoiy ehtiyoj, ijtimoiy ish, ijtimoiy tarbiyadagi ilg‘or tajribalar muammoni yechish mumkin bo‘lgan yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Mamlakatda turli majmualar: ijtimoiy-pedagogik, ta’limiy-madaniy, jismoniy tarbiyasog‘lomlashtirish, qishloq maktab-majmualari va boshqalar tarmog‘i rivojlana boshladi. Pedagogika fanida bu davr tadqiqotchilarning

ijtimoiy pedagogika muammolariga bo‘lgan e’tiborining kuchayishi bilan xususiyatlidir.

Biroq ijtimoiy ishning rivojiga uning tashkiliy, kadrlar, moddiy- texnik va ilmiy-pedagogik tomonidan yetarli ta’minlanmagani to‘siqlik qilib turardi. Bu jarayon yana ijtimoiy siyosat, ijtimoiy faoliyatning turli sohalari (ta’lim, sog‘lijni saqlash, madaniyat, sport, ijtimoiy ta’minot va boshqalar)ni taqdim qiladigan institutlar faoliyatining o‘zaro bog‘lanmagani va funksional pala-partishliklar tufayli; ikkinchi tomondan, eng ustuvor va murakkab soha – oilaviy- maishiy muhitdagi, katta yoshlilar va bolalar turar joyidagi ijtimoiy ish to‘g‘risida shaklangan an’naviy tasavvurlar, «jek» pedagogikasi tufayli qiyinlashib borardi. Ijtimoiy xizmatlarning maxsus tayyorlangan mutaxassislar bilan ta’minlanmaganligi boshqa bir qator kasblar (ayniqsa, maktablardagi pedagogik kadrlarning) o‘ziga xos bo‘lmagan funksiyalar bilan shug‘ullanishiga olib keldi. Bu ijtimoiy ishning samaradorligi, ta’lim muassasalarining pedagogik funksiyalarini bajarishdagi va ayniqsa, bolalarning muloqot va kattalar bilan munosabatlar muhiti bo‘lgan oila pedagogik ta’limida salbiy iz qoldirdi.

Sotsiumdagagi ish oilani ijtimoiy faoliyatdan, ijtimoiy tarbiyadan begonalashtirish, uning funksiyalarini turli davlat tuzilmalariga olib berishga intilish, bu sohaga maktab usullarini ko‘chirishga urinishlar tufayli cheklanar edi. Tadbirlar pedagogikasi»ga aylanib qolgan maktab usullari ochiq muhitdagi bolalar va ularning mikroijtimoiy iqlimi intilishlari, ehtiyojlari, imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmas; ijtimoiy yordam mazmuni shakllari va usullarining muayyan adressizligi, bu shakl va usullarning ko‘pincha tasodifyi omillar bilan belgilanishi shaxsga yo‘naltirilmagan edi.

Tibbiy ijtimoiy xodimlarning yo‘qligi tufayli sog‘lijni saqlash tizimida ham murakkab vaziyat vujudga keldi, ularning vazifalarini qisman va nokasbiy darajada odamlarni davolashi lozim bo‘lgan mutaxassis-vrachlar bajara boshladi.

Deviant (noijtimoiy) xulq-atvorli o‘smirlar va «xatar guruhi»ga mansub oilalar bilan ijtimoiy ish masalalari mutaxassis ijtimoiy xizmatchilar yo‘qligi tufayli uzoq davr davomida militsiya organlari zimmasiga yuklandi.

Nogironlar, qariyalar, ijtimoiy muhofazaga qattiq muhtoj bo‘lgan odamlarning boshqa toifalari bilan olib boriladigan ijtimoiy ish tizimi to‘liq emas edi.

Biroq, qiyinchiliklar va ziddiyatlarga qaramasdan, bu bosqich ijtimoiy-pedagogik amaliyat va ijtimoiy ish sohasining boshqa tarmoqlari intensiv rivojlanishi bilan xususiyatlanadi. Turli idoralar faoliyatini integratsiyalash, idoralararo asosda ijtimoiy ish mazmunini muvofiqlashtirish, turli idoralarga tegishli muassasalar o‘zaro ta’siri xususiyatlarini o‘zgartirish singari tamoyillar ko‘zga tashlana boshladi.

Jamiyatdagi chuqur inqiroz oilalar, aholi guruhlari katta qismining ijtimoiy qashshoqligini ochib qo‘ydi va keskin kuchaytirdi, har bir shaxs manfaatlari va huquqlarining kafolati bo‘lgan jamiyatni iqtisodiy va ma’naviy-axloqiy jihatdan tubdan sog‘lomlashtirish yo‘llarini izlab topishni birinchi masala qilib qo‘ydi.

3-bosqich – 80-yillar oxiriga kelib, mamlakatda ijtimoiy ish muammolarini davlat darajasida hal qilishga o‘tish, ijtimoiy xizmatlarning keng infratuzilmaga ega bo‘lgan yagona tizimini yaratish, uni retrospektiv ilmiy tahlil qilish, ijtimoiy ish sohasidagi jahon nazariyasi va amaliyoti rivojining yetakchi tamoyillarini anglash asosida kadrlar bilan ta’minalashga o‘tish uchun barcha shart-sharoitlar yetildi. Ijtimoiy ishning o‘z ichiga ko‘plab mintaqalarga yo‘naltirilgan, muayyan milliy-mintaqaviy va mahalliy sharoitlarda umumiyo yondashuvlarni amalga oshirish usullari va vositalariga ko‘ra farqlanadigan variantlarni qamrab oladigan konsepsiysi shakllandi. Ijtimoiy ishga turli xayriya tashkilotlari, ko‘ngillilar jamiyatları, uyushmalar, jamg‘armalar, Cherkov xizmatchilari faol qo‘shildi.

Hozirgi kunda ijtimoiy ishning sof davlat tizimidan jamoat homiyligini ham qamrab oladigan tizimga o‘tish yuz bermoqda. qaysidir darajada biz homiylikning inqilobgacha bo‘lgan murvatlariga qaytmoqdamiz, ayni paytda sho‘rolar davrida vujudga kelgan ba‘zi elementlarni saqlab qolmoqdamiz.

Rossiya homiyligi tizimini qayta yaratish yo‘lida ziddiyatlar va qiyinchiliklar bo‘lishi muqarrar. Xatolarni chetlab o‘tishda faqat hozirgi xorij tajribasininga emas, balki o‘z vatanimiz tarixiy tajribasini o‘rganish ham yordam beradi. Uni o‘rganish quyidagilardan guvohlik beradi: muhtojlarga beriladigan ko‘mak uni

keng jamoatchilikni jalb etib nomarkazlashtirilganda samaraliroq bo‘ladi; uning individual xususiyatini saqlab qolish lozim; jarayonda ishtirok etayotgan barcha tomonlar – xayriya, xususiy, jamoat tashkilotlari, Cherkov va davlatning yordamga muhtoj bo‘lganlar to‘g‘risida axborot olishda ham, ularga yordam berishda ham o‘zaro ta’sirini saqlab qolish zarur.

Davlat o‘z zimmasiga xayriya muassasalari faoliyati, ulardan ba‘zilari ishining qisman moliyalashtirish, eng muhim muhtojlarga imtiyozlar, rag‘batlar tizimi orqali yordam ko‘rsatish bo‘yicha qonunlarning yagona tizimini, me’yoriy asosini yaratish bo‘yicha funksiyalarni olishi zarur.

Homiylit ishlariga ommaviy axborot vositalari tomonidan doi-miy e’tibor qaratish va jamoatchilik tomonidan nazorat qilish zarur.

Hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasida oila va bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning bir necha moddellari tashkil etilib ishlayapti. Ularni davlat yordamida moliyalashtirishni nazarda tutib, quyidagicha tasniflashtiramiz.

- davlat ijtimoiy xizmatlari;
- aralash xizmatlari;
- mustaqil yoki xayriya fondlari, diniy va ijtimoiy tashkilotlari qoshida ish yurituvchi tijorat xizmatlari.

Davlat xizmatining ustun modeli – oila va bolalarga xizmat ko‘rsatishning hududiy markazlaridir. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning boshqa muassasalaridan farq qilgan holda ularning faoliyati va xizmatlari turli-tuman bo‘lib, o‘z kuchlari bilan oila muammlarini yechishga, hayotning turli sohalarida yuzaga kelgan mushkul vaziyatlarni bartaraf etishga harakat qiladilar. Har yili davlat xizmatlari ro‘yxatini Rossiya Federatsiyasi hukumati tasdiqlaydi, bular quyidagilar:

A) Ijtimoiy-maishiy xizmatlar, moddiy va natural yordam:

- shoshilinch xizmat va shoshilinch moddiy yordam;
- og‘ir kasal, nogiron bolalari bo‘lgan oilalarga yordam; harakat qilishga qiynaladigan, birovning qaroviga, oziq-ovqatlar, doridarmonalarni olishda boshqalar yordamiga muhtoj oilalarga va alohida fuqarolarga yordam;
- beg‘arazlik asosida yoki muayyan to‘lov hisobiga aholidan buyumlar (kiyim-kechak, poyafzal va boshqalar)ni qabul qilish;

- xayriya va insonparvarlik yordamini taqsimlash (tovarlar va oziq-ovqatlar va boshqalar);
- yetim bolalarga, ota-onada qo‘arovisiz qolganlarga, vasiy oilalarga ijtimoiy yordam;
- manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish uchun mablag‘lar topishda tadbirlar tashkil etish;
- muassasalar qoshida buyumlar fondi, yolg‘iz onalarning voyaga yetmagan bolalariga va boshqa kategoriyada muhtojlarga bolalar buyumlari fondini tashkil etish;
- ishga joylashtirish (shu jumladan, vaqtincha) va kasbga ega bo‘lish (mutaxasislik olishda) yordam berish;
- bolalarning teatrлar, ko‘rgazmalar va boshqa madaniy tadbirlarga borishini tashkil etishga yordam berish;
- bolalar uchun xayriya ziyofatlari, yozgi dam olish, sanatoriya-kurort davolanishlarni tashkil etish;
- juda muhtojlarga oziq-ovqat va maishiy xizmatlarni tashkil etishda yordam berish;
- pul mablag‘lari, oziq-ovqat mahsulotlari, sanitariya-gigiyena vositalari, bolalarga qarash uchun vositalar, birinchi navbatda zarur bo‘lgan kiyim-kechaklar, poyafzallar va boshqalar, pul yordamlari, imtiyozlar, qo‘shimcha to‘lovlar, tovonlarni ajratishda yordam berish;
- xat, arizalar yozishda, hujjatlarni, shu jumladan vasiylik hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirishda yordam berish;
- mehnatga noqobil kam ta’minlangan oilalarga uyda ijtimoiy maishiy xizmat ko‘rsatish;
- nogiron bolalarga uy mehnatini tashkil etish va ularning keyinchalik ishga joylashtirishni tashkil etish;
- markaz qoshida o‘smirlar va ishsizlar uchun ustaxonalar va sexlar tashkil etish;
- nogiron bolalarni davolash; dam olish joylariga yetazish, hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘mak berish.

B) Ijtimoiy huquqiy xizmatlar:

- mijozlar, shu jumladan bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq hujjatlarni yozish va rasmiylashtirishda yordam berish;

- ijtimoiy to‘lovlarni yetkazishda ko‘mak berish;
- aholining huquqiy savodini (mahalliy axborot vositalarida, ma’ruzalar bilan chiqish va boshqalar), huquqiy xabardorligini oshirish (qo‘llanmalar, axbarot varaqalari va boshqalarni) tayyorlash;
- bolalar shaxsiy manfaatini huquqiy jihatdan himoya qilishda ishtirok etish.

D) Ijtimoiy reabilitatsion xizmatlar:

- «ijtimoiy (psixologik-tibbiy-pedagogik ko‘rik) konsiliumi»ni tashkil etish;
- ijtimoiy va jamiyatga qarshi xatti-harakatli voyaga yetmagan-larning ijtimoiy patronaji;
- individual korreksion dasturlarni tuzish.

E) Psixologik xizmatlar:

- psixoprofilaktika va psixogigiyena;
- psixodiagnostika va mijoz shaxsini ko‘rikdan o‘tkazish;
- psixoterapevtik (individual, guruhiy, oilaviy) yordam;
- oilaviy psixologik (individual, guruhiy) maslahat;
- ijtimoiy psixologik konsilium;
- kishilar bilan ularning og‘ir emotsiyal holatlarida ish olib borish;
- sog‘liqni saqlashning statsionar muassasalariga ma’naviy psixologik madad berish niyatida tashriflar uyushtirish;
- psixosotsial maslahatlar;
- psixologik patronaj;
- keskin, tushkun vaziyatlarda psixologik aralashuv;
- munosabatlar va xulq-atvorlarni korreksiyalash;
- kommunikativ muloqotlar bo‘yicha trening o‘tkazish;
- hissiyotni o‘zi to‘g‘ri yo‘lga solish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- vositachilik xizmatlarini tashkil etish;
- testlashtirish asosida kasbga yo‘naltirish;
- o‘zaro yordam guruhlari faoliyatlarini tashkil etish;
- psixologik ma’rifat;
- nogiron bolalar ota-onalarini psixokorreksion va psixoterapevtik metodlar bilan tanishtirish.

F) Pedagogik xizmatlar:

- bolalar qiziqishlarini himoya qilishda pedagogik yordam berish;
- bolalarda muloqot va emotsiyal doirasidagi ko‘nikmalarni o‘stirish bo‘yicha guruhiy ish yuritish;
- nutqni rivojlanmagan, autizm, nevrozga uchragan bolalarga korreksion yordam berish;
- bolalarning madaniy dam olish faoliyatiga ko‘maklashish;
- nogiron bolalarni uyda o‘qitishni tashkil etishda amaliy yordam berish;
- nogiron bolalarning o‘yin va o‘quv faoliyatini tashkil etishning usullarini ota-onalarga o‘rgatish.

H) Ijtimoiy tibbiy xizmatlar:

- muhtoj shaxslarni, shu jumladan bolalarni statsionar tibbiy narkologik muassasalariga yo‘nallashda ko‘mak berish;
- oilada, jinsiy munosabatlarni va psixojinsiy buzilishlarni bartaraf etishni astalashtirish, sog‘lom turmush tarzini tarbiyalashda maslahatlar berishni tashkil etish;
- nogiron bolalarni zaruriy yordam beruvchi vositalar bilan ta’minlashda ko‘mak berish;
- jismoniy yoki aqliy imkoniyatlar cheklangan bolalari bo‘lgan oilalarda patronaj yordam;
- ota-onalarga nogiron bolasiga qarashni o‘rgatish;
- homilador va emizikli bolalari bo‘lgan ayolarni uylariga borib, doimiy ravishda tibbiy-profilaktik yordam ko‘rsatish¹.

Ijtimoiy xizmat hodimlarining asosiy vazifasi ijtimoiy ishning ijtimoiy psixologik, ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa metodlar yordamida me’yoriy hayot faoliyatiga xalaqit beruvchi muammolarni anglashda oila a’zosiga yordam berish (yoshi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar). Bu yerda oila a’zosining reabilitatsiya darajasi, ya’ni uning mehnat faoliyatiga avvalgi qobiliyatini tiklash, uni jamiyatga qaytarish samara o‘lchovi bo‘ladi.

Biz qarab chiqayotgan konkret ijtimoiy psixologik xizmat aholining turli kategoriyalari bilan o‘zaro harakatda bo‘ladi. Oldindan yordamga muhtoj bolalar va o‘smlar doirasini belgilab olinadi; shuningdek ota-onalarga, yolg‘iz onalarga, maktab

o‘qituvchilariga – bola muhitidagi barcha yordam ko‘rsatiladi; hayot qiyinchiligini bartaraf etilishida manfaatdor kishilarni qo‘sghan holda guruuhlar tuziladi: xulq-atvorida psixologik qiyinchiliklari bor bolalarning ota-onasiga ko‘mak berish guruhi-zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar va bolalarga; nogiron bolali ota-onalarga; ko‘p bolali ota-onalarga, tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlovchi o‘qituvchilarga. Madad (o‘zaro yordam) guruhlari xizmat xodimlari tomonidan maqsadga muvofiq tuziladi. Avval shaxslar, muammolar doirasi aniqlab olinadi va katta tayyorgarlik ishlaridan so‘ng kishilar 2-4 kunlik seminarga taklif etiladi (guruhiy maslahat metodi). Ishtirokchilarning tashabbusi bilan seminar va individual konsultatsiya berishdan so‘ng madad guruhini tashkil etish uchun asos yuzaga keladi.

Boshqalarga yordam bergen holda, xizmat xodimlari o‘zlariining ko‘ngilli yordamchilari (valonter)ning keng bazasini yaratadilar, bular o‘z navbatida boshqalarga yordam beradilar.

Rossiyaning ko‘pgina hududlarida teritorial-hududiy xizmatlar (TIX-teritorial ijtimoiy xizmat tashkilot TS) shakllana boshlandi, ular barcha muhtojlar (kattalar va bolalar)ga kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatadi, u o‘ziga ijtimoiy struktura muassasalarini, ijtimoiy xizmatlar ishini boshqarish organlari, o‘quv va ilmiy-tadqiqot muassasalarini kiritadi. Bu hududiy xizmatlar konkret shahar yoki qishloq tumani hududida faoliyat yuritgan uchun aholiga maksimal yaqinlashish va hammaga daxldor bo‘ladi.

TIX strukturasi quyidagi ixtisoslashgan hududiy markazlardan tashkil topgan:

- ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktik ishlar, konsultativ yordam, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va hokazo, bo‘limlari, shuningdek amaliy yordam ko‘rsatuvchi quyidagi bo‘limchalari bor: ko‘chma kompleks brigadalar; shoshilinch psixologik yordam xizmati; yuridik va psixologik-pedagogik konsultatsiya; tanishish xizmatlari; ijtimoiy boshpana; bolalar va onalarga kunduzgi boshpana berish bo‘limi;

- oiladagi ziddiyatni bartaraf etishda yordam beruvchi, oilaviy, er-xotin, ota-onalar muloqoti doirasida aholining psixologik madaniyatini oshirishga; bolalarni tarbiyalashda, emotsiyonal va psixik tanazzulni bartaraf etishda qiynalayotgan oilalarga yordam

beruvchi; turli xavfli vaziyatlarda shaxslarga malakali psixologik-pedagogik yordamni ta'minlashga yordam beruvchi oila va bolalarga psixologik-pedagogik yordam markazi;

– telefon orqali shoshilinch psixologik yordam xizmati (ishonch telefoni), uning vazifasi, psixologik diskomfortni, oila a'zolarining tajovuzkorlik darajasini pasaytirish;

– voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy reabilitatsion markaz, bu hayotda tanazzulli vaziyatga tushib qolganlarga ijtimoiy va tibbiy psixologik yordam, madad beradi. Voyaga yetmagan o'zlarining reabilitatsiyasi uchun zarur bo'lgan vaqt mobaynida markazga qatnaydilar va u yerda vaqtincha bo'ladilar. Markaz o'ziga shoshilinch ijtimoiy yordam, tibbiy-psixologik diagnostika va orreksiya, bolalar va o'smirlarni ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiy reabilitatsiya qilish xizmatlarini, ba'zida statsion sharoitdagi boshpana xizmatini kiritadi;

– qarovsiz qolgan bolalar va o'smirlarni qutqarib qolish uchun vaqtincha boshpanalar, ularga tibbiy-psixologik yordam, ularni hayotini yo'lga qo'yish masalalarini hal etish maqsadida tuzilgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy boshpanasi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish boshqaruvi organlari tomonidan qonunchilik bo'yicha boshqarish funksiyalarini davlat va ijtimoiy muassasalar amalga oshiradi. Hududiy daraja (shahar, qishloq tuman, shahar tumanlari)da davlat-ijtimoiy (jamoatchilik) organlarini-vasiylit kengashlari (ijtimoiy kengashlar) tuziladi (ma'muriyat qoshida, ijroya organlari tarkibida). Ular o'zlariga manfaatdor tashkilot vakillarini kiritadilar: moliya fondlari, kasaba uyushmalari, jamoatchilik assotsiatsiyalari, xayriya fondlarini kiritadilar.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning 2000-yil 27-oktyabrdagi farmoniga ko'ra ijtimoiy ishchilar kuni 8-iyun kuni nishonlanadi. Bu kunning tanlanishi bejizga emas. 1701-yili 8-iyunda Pyotr I ning «Avliyo Patriarx uylarida g'ariblar, kasallar va qariyalarni aniqlash to'grisida»gi farmoni qabul qilingan.

Rossiya ijtimoiy ish xodimlari Axloq Kodeksi

I.Ijtimoiy ishchining ko‘rinishi va xulq-atvori

1.1 Uslub

Ijtimoiy ish xodimi xulq-atvorining yuqori axloqiy standartlariga amal qilishi lozim. Ijtimoiy ishchi turli xil hiylalardan, birovni yanglishtirishdan, vijdonsizlik bilan qilingan harakatlardan mustasno bo‘lib, kasb vakili sifatida bayonot va harakatlarni aniq farqlay olishi kerak.

1.2 Kompetentlik (chuqur bilimga egalik) va professional takomillashish

Ijtimoiy ishchi o‘z kasbiy amaliyotida va kasbiy vazifalarini bajarishida mutaxassis-ekspert bo‘la olishi uchun bor kuchini qo‘sishi kerak. U o‘z ishini faqatgina o‘zining bilimi doirasida olib borish huquqiga ega. Ijtimoiy xizmat xodimi individual tarzda olib borayotgan yoki bajarayotgan ishining sifati uchun personal javobgarlikni o‘z bo‘yniga olishi kerak.

1.3 Haqiqatgo‘ylik

Ijtimoiy ishchi o‘zining harakatlarini professional haqiqatgo‘ylikning yuqori standartlari bilan o‘lchashi kerak:

a) ijtimoiy ishchi o‘z professional faoliyati yo‘lida paydo bo‘ladigan ta’sirlar va bosimlarga berilmasdan, professional vazifalarini odilona (xolis) bajarishi kerak;

b) ijtimoiy ishchi professional munosabatlarini shaxsiy maqsadi (manfaati) yo‘lida qo‘llashga haqqi yo‘q;

1.4 Ta’lim va tadqiqot ishi

Ijtimoiy ish sohasida mutaxassis doimo kasbiy bilimlari va mahoratini mutassil oshirib borishga harakat qilib, ta’lim va tadqiqot ishi tizimiga qo‘silishi kerak:

– tadqiqot ishida qatnashayotgan ijtimoiy ishchi bu ishning inson va muayyan shaxs uchun oqibati qanday bo‘lishini aniq anglay olishi kerak;

– tadqiqot ishida qatnashayotgan ijtimoiy ishchi tadqiqot ishtiroychilarining shaxsiy erkinligi va qadr-qimmatiga to‘liq amal qilgan holda, ularni ixtiyoriylik va xabardorlik asosida birlashganligiga ishonch hosil qilishi kerak;

- tadqiqot davomida qatnashchilar to‘g‘risida olingan ma’lumotlarni mahfiy tarzda ko‘rilishi kerak;
- eksperimentga jalb qilingan ijtimoiy ishchi ishtirokchilarni noqonuniy jismoniy va ruhiy tartibsizlikdan, xavfdan va kamshitishdan himoya qilishi kerak;
- u yoki bu xizmat jarayonni baholash uchun taklif qilingan ijtimoiy ishchi, buni professional maqsad uchun va faqatgina bu jarayonga bevosita kasbiy aloqasi bor shaxslar bilan muhokama qilishi kerak.

II.Ijtimoiy ishchining mijozlarga nisbatan belgilangan axloqiy burchlari

Ijtimoiy ishchi mijozining mustaqilligini tan olishi va rivojlantirishi uchun maksimal kuch qo‘sishi kerak. Ijtimoiy ishchining burchlari – mijoziga qaratilgan burchlari hisoblanadi:

- ijtimoiy ishchi mijoz bilan shaxsiy qiziqishi asosida munosabatda bo‘lmasligi kerak;
- ijtimoiy ishchi insonlarning tahqirlanishlari bilan kurashib, millati, yoshi, e’tiqodi, oilaviy mavqeysi, aqliy va jismoniy nuqsoniga asoslangan tahqirlashning turli xil shakllarida ishtirok etmasligi va amalda sinamasligi kerak;
- ijtimoiy ishchi mijoziga ziyon keltiradigan aloqa va munosabatlardan chekinishi kerak;
- ijtimoiy ishchi mijozini ijtimoiy xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik huquqi, imkoniyatlari va majburiyatlar haqida xabardor qilishi kerak;
- ijtimoiy ishchi hamkasblari va ustozlari bergan maslahatlarga amal qilishi kerak, agar bu uning qiziqishlari va ishi bilan aloqador bo‘lsa;
- ijtimoiy ishchi xodimi bilan olib borilayotgan ishi mijoji va oilasi uchun zarur bo‘lmay, qiziqishlari va muhtojligiga xizmat qilmasa, ijtimoiy ish xodimi bu ishni va professional munosabatlarni yakunlashi kerak.

Konfidensiallik(maxfiylik) va sir saqlashi

Ijtimoiy xizmat xodimi mijozlarning sirlarini hurmat qilishi va kasbiy ijtimoiy yordam davomida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tarqatmaslikka majburdir:

- ijtimoiy ishchi faqatgina professional sharoit taqozo etsagina mijozning ruxsatisiz mahfiy ma'lumotlar bilan bo'lishishi mumkin;
- ijtimoiy ishchi mijozlarini maxsus vaziyatda konfidentsial ma'lumotlar chegaralari va bu ma'lumotlar qay maqsadda ishlatalishi haqida to'liq xabardor qilishi kerak;
- ijtimoiy ishchi zarurat tug'ilganda mijozlarini har qanday rasmiy hujjatlar bilan ta'minlab berishi kerak;
- mijozlarni zaruriy hujjatlar bilan ta'minlab, ijtimoiy xizmat xodimi hujjatlarda saqlanayotgan qolgan ma'lumotlarning konfidentialligiga rioya qilishi kerak;
- ijtimoiy ishchi magnitafon yozuvlarini va ma'lumotlarni bosmadan chiqarishdan oldin mijozlarining roziligini olishi kerak.

Gonorarlar

Ijtimoiy xizmat xodimi ijtimoiy yordamning turli xil ko'rinishlari uchun belgilangan gonorarlar adolatli, idrokli, andishali va ko'rsatilgan ijtimoiy yordamning turlari mijozning to'lash qodirligi bilan kelishiga ishonch hosil qilishi kerak.

III. Ijtimoiy ishchining hamkasblariga nisbatan belgilangan axloqiy me'yorlari (me'yorlari).

3.1. Hurmat, rostgo'ylik, xushmuomalalik

Ijtimoiy ishchi odob va adolatga rioya qilgan holda hamkasblariga hurmat, adolat, xushmuomalalik va ishonch bilan muomala qilishi kerak:

- ijtimoiy ishchi hamkasbleri bilan kasbiy qiziqishlari asosida muomala qilishi kerak;
 - ijtimoiy ishchi kasbi bilan bog'liq o'zaro munosabatlari yo'lida xodimlarning ishonchini hurmat qilishi kerak;
 - ijtimoiy ishchi hamkasblarining axloqiy, kasbga asoslangan harakatlarini yengillashtiruvchi vaziyatlarni yarata olishi va ushlab tura olishi kerak;
 - hamkasbining vazifasini vaqtinchalik bajarayotgan ijtimoiy ishchi hamkasbining obro'-e'tibori foydasiga harakat qilishi kerak;
 - ijtimoiy ishchi o'z manfaatlari yo'lida hamkasbi va boshliq o'rtasidagi nizodan foydalanmasligi kerak;
 - ijtimoiy ishchi arbitrajni (hakamlar sudini) talab qilishi kerak:
- 1) munozarali masalalarni arbitrlar tomonidan hal qilinishini.
 - 2) bun-

day ziddiyatlarni hal qilinishi bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga murojaat qilish.

– ijtimoiy ishchi o‘z ishi sohasiga taalluqli bo‘lmagan hamkasblarini ham hurmat qilishi kerak;

– boshqa xodimlarining bahosi uchun javobgar bo‘lgan ijtimoiy ishchi ularni bahosi bilan xabardor qilishi kerak.

3.2. Hamkasblarining mijozlari bilan bo‘lgan munosabat

Ijtimoiy xizmat xodimi hamkasbining mijoziga e’tiborli bo‘lib, ishlarini qo‘ldan kelgancha professional darajada bajarilishi kerak:

– ijtimoiy ishchi hamkasblarining vaqtinchalik yo‘qligida mijozlariga xizmat ko‘rsatganda, o‘zining mijoziga xizmat ko‘rsatgandek ularga ham e’tiborli bo‘lishi kerak.

IV. Ijtimoiy ishchining boshliqlari va boshqarmaga nisbatan belgilangan axloqiy burchlari

4.1.Boshqarmaga nisbatan belgilangan burchlari

Ijtimoiy ishchi boshqarayotgan tashkilot belgilangan burchlarga qattiq rioya qilishi kerak:

– ijtimoiy ishchi tashkilot siyosatining kamol topishi ustida ishlashi kerak;

– ijtimoiy ishchi tashkilotida ishga qabul qilishda siyosat va amaliyotdagi kamchiliklarni, xatolarni, ogohlantirish va bartaraf etish uchun harakat qilishi kerak.

V. Ijtimoiy ishchining kasbi oldidagi axloqiy burchlari

5.1.Kasbning halloligini va daxlsizligini himoyalash

Ijtimoiy ishchi kasbining ahamiyatini, axloqini, bilimini va maqsadini oshirishi va qo‘llab-quvvatlashi kerak:

– ijtimoiy ishchi kasbining halolligi va qadr-qimmatini oshirishi va himoya qilishi kerak.

Kasbining takomillashishish borasidagi munozaralarda javobgar va faol bo‘lishi kerak.

5.2. Sotsiumda ish olib borish

Ijtimoiy ishchi sotsium aholisiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatib va xabardor qilib, insonlarga yordam berish uchun bor imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

Ijtimoiy ishchi kasbining foydali, halol va kompetentli bo‘lishiga yordam beradigan o‘z vaqtini, kasbiy tajribasini, bilimi va faoliyatini qo‘sishi kerak.

5.3.Bilimning rivojlanishi

Ijtimoiy ishchi kasbiy bilimlarining to‘liq ishlatishi va rivojlanishi uchun javobgarlikni o‘z bo‘yniga olishi kerak:

– ijtimoiy ishchi kasbiy bilimlarini amaliy faoliyatida asoslamog‘i kerak;

– ijtimoiy ishchi kasbiga doir bo‘lgan yangi ko‘nikmalardan, bilimlardan xabardor bo‘lishi, baholay olishi va ularni tanqidiy tahlil qila olishi kerak;

– ijtimoiy ishchi aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga o‘z hissasini va bilim ko‘nikmalarini qo‘sishi kerak.

Hamkasblari va amaliy tajribalari va bilimini baham ko‘rishi kerak.

VI. Ijtimoiy ishchining jamiyat oldidagi axloqiy burchlari

6.1.Umumiy faravonlikni qo‘llab-quvvatlash

Ijtimoiy xizmat xodimi jamiyat farovonligining rivojlanishiga ko‘maklashishi (o‘z hissasini qo‘sishi) kerak.

– ijtimoiy ishchi aholining nochor qatlamiga e’tibor bergan holda turli xil oilalarning va barcha insonlarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilishi kerak.

– ijtimoiy ishchi turli madaniyatlar hurmatini qo‘llab-quvvatlash uchun sharoit yaratishi kerak.

Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. *Rossiyada ijtimoiy ish kasb sifatida qachon paydo bo‘lgan?*

2. *Rossiyada ijtimoiy ishni qanday ehtiyoj kasb sifatida tan olishga sabab bo‘lgan?*

3. *Rossiyada ijtimoiy ish xodimining kasbiy faoliyat yo‘nalishlariga ta’rif bering?*

Test savollari

1. Inson xulq-atvorini va unga ko'rsatiladigan yordam xususiyatini belgilaydigan sharoitlar betakror ekanini tushunishga intilish qaysi andozaga tegishli?

- A) Axloqiy xulq-atvor andozalari
- B) Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar
- C) Hamkasblari bilan o'zaro munosabatlar
- D) Kasbga munosabat

2. Ijtimoiy ish...

- A) Barcha javob to'g'ri
- B) Amaliy faoliyat
- C) O'quv sohasi
- D) Ilmiy yo'nalish

3. Kompetentlik...

- A) Chuqur bilimga egalik
- B) Maxfiylik
- C) Sir saqlash
- D) B va V

4. Konfidentsiallik...

- A) B va V
- B) Maxfiylik
- C) Sir saqlash
- D) Chuqur bilimga egalik

5 . Ijtimoiy ish ... asosiy kriteriyaga tayanadi.

- A) Besh
- B) Olti
- C) To'rt
- D) Uch

6. «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qachon qabul qilindi?

- A) 1994-yilda
- B) 1995-yilda
- C) 1996-yilda
- D) 1997-yilda

7. «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qayerda qabul qilindi?

- A) Kolomboda
- B) Jenevada
- C) Londonda
- D) Parijda

8. O‘zgalarga beg‘araz g‘amxo‘rlik qiluvchi va odamlar baxt-saodati yo‘lida o‘zini qurban qilishdan voz kechmaydigan shaxs.

- A) Altruist
- B) Gumanist
- C) Egoist
- D) To‘g‘ri javob yo‘q

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997.
2. Karimov I. Konstitutsiya – mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy asosi // Xalq so'zi. 2003-yil 6-dekabr.
3. Karimov I. Mamlakatning taraqqiyoti va xalqimizning turmush darajasini oshirish – barcha demokratik yangilanishlar va iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
4. Karimov I. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Karimov I. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
6. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi ma'ruza // Xalq so'zi. 2013-yil 6-dekabr.
7. Агапов Э.П. Социальная работа как феномен культуры. - Ростов-на-Дону, 1999.
8. Американская социология. Перспективы, проблемы, теории. - М.,1972.
9. Ганиева М.Х. XXI век - век социального работника. // Ж. Бола ва Замон. 2005, №1,-С. 24-25.
10. Ганиева М.Х Парадигма «Изучение, диагноз, лечение». История развития социальной работы как вида деятельности. // Ж. Бола ва Замон. 2007. - № 1 (6).-С. 34-36.
11. Тендерный калейдоскоп. - М., 2002.
12. Григорев С.И. Социология и социальная работа. - Барнаул, 1991.
13. История социальной работы. - М., 2002.
14. Ким Л. На пути к решению кадровых вопросов в системе социальной защиты детей: организация курсов переподготовки по социальной работе в Узбекистане /Мате-

риалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.

15. Кравченко. Социология - справочное пособие. - М., 1996.

16. Козлов А.А. Социальная работа за рубежом: состояние, тенденции, перспективы. - М., 1998.

17. Краткий словарь терминов социальной работы. – Саратов. Изд-во Поволжского филиала Российского учебного центра, 1996.

18. Кузмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект, 2002.

19. Павленок П.Д. Введение в профессию «Социальная работа»: Курс лекций. -М., 1998.

20. Павленок П.Д. Социологические методы и техника изучения социальных проблем. -М., 1995.

21. Основы социальной работы. - М., 1997.

22. Справочное пособие по социальной работе. - М., 1997.

23. Социология для социальной работы. - М.: Магистр-Пресс, 2002.

24. Социальная работа /Под ред. В. И. Курбатова. - 2-изд., - Ростов н/Д, 2003.

25. Социальная работа: Теория и практика. - М.: Инфра, 2002.

26. Социальная работа: Словарь справочник /Под ред. В.И. Филоненко. Сост.: Э.Г. Агапов, В.И. Акопов, В.Д. Альперович, А.О. Бухановский и др. - М: Контур, 1998.

27. Социальная работа: Методология, теория, технология. - Саратов, 1998.

28. Теория социальной работы: Учебник /Под ред. Проф. Э.И. Холостовой. - М.: Юрист, 1998.

29. Теория и методика социальной работы: Краткий курс / Под ред. С.И. Григорева. - М., 1994

30. Тетерский С.В. Введение в социальную работу. -М., 2003.

31. Мёрфи Т. Развитие социальной работы в Узбекистане в международном контексте / Материалы Международного форума «Инклюзивное образование и современные тенденции в развитии форм социальной поддержки детей». 28-29 октября 2008 г. - Ташкент: Республиканский Центр социальной адаптации детей, 2008.
32. Тощенко Ж.Т. Социология. Общий курс. - М., 1999.
33. Хрестоматия к тренингу «Введение в социальную работу». Проект «Развитие социальной работы на академическом уровне в Узбекистане». - Ташкент, 2006.
34. Хрестоматия по учебному курсу «Основы социальной работы». Распространение программы переподготовки по социальной работе и продвижение профессии «социальная работа» в Узбекистане». / Составители: М.Х. Ганиева, М.Х. Карамян. - Ташкент: МинВУЗ-РССАД- ТашГИК-ЮНИСЕФ, 2008.
35. Чупрунов В.И. Молодёж в общественном воспроизведстве // Социологические исследования. 1998. №3.
36. Эриксон Э. Детство и общество. - М., 1992.

XIII bob. IJTIMOIY ISH XODIMLARI BRITANIYA ASSOTSIATSIYASI AXLOQ KODEKSI

Reja:

- 13.1 Buyuk Britaniyada ijtimoiy ish sohasining mazmun-mohiyati.**
- 13.2 Ijtimoiy ishning asosiy qadriyatlari. Inson qadr-qimmati va qadriyat.**
- 13.3 Ijtimoiy adolat. Insonparvarlikka xizmat qilish.**
- 13.4 Inson huquqlari. Kompetentlik tushunchasi.**

Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy ishni rivojlantirish bilan bog'liq to'plangan tajribani o'rghanish, uni anglash va undan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy yordamning tarixiy rivojlanish bosqichlari xristian dini tarqalishi bilan ijtimoiy masalalarga doir me'yoriy-hujjatlar qabul qilinishidan boshlangan. 347-yilda Sardukiy bosh cherkovida (G'arbiy va Sharqiym Rim imperiyasi chegarasida) faqirlar, yetimlar, bevalar va musofirlarga yordam ko'rsatish bo'yicha o'n ikkita qoida qabul qilindi. Shu bilan birga ushbu qoidalarda xayr-ehson tarqatishda, faqirlarni ovqat bilan ta'minlashda o'z aksini topgan boshpana va oziq-ovqat berish tizimi ustuvor o'rin egallaydi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XVII asrlarda ijtimoiy yordam davlat tizimi rasmiylashtirilishi davlat rolining oshishi va ayni bir vaqtida xristian cherkovi faolligining pasayishi bilan izohlanadi.

Angliyada 1531-yilda nochorlarga yordam berish to'g'risida qonun qabul qilinadi, 1572-yida faqirlarga yordam ko'rsatish uchun umummilliy soliq joriy etiladi. 1601-yilda Angliyada qabul qilingan Kambag'allik to'g'risidagi qonunda muhtojlarga moliyaviy yordam berishga urg'u berildi. Bu qonun mazkur sohada qonunchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi va hukumatning inson ehtiyojlari uchun javobgarligi shakllanishida burilish yasadi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshida G'arbiy Yevropa mamlakatlari sanoatida tub burilish davri boshlanib, ishlab chiqarish texnik jihatdan takomillashibgina qolmay, balki ijtimoiy muammolarning keskinlashishiga, ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishiga, jinoyatchilik va ishsizlikning o'sishiga olib keldi. Ushbu davrda Buyuk Britaniyada qashshoqlik bo'yicha qo'llanma joriy etiladi, 1834-yilda nochorlarga yordam ko'rsatish tartibga solingan maxsus qonunchilik (Poor Laws) qabul qilinadi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshida G'arbiy Yevropa mamlakatlari sanoatida tub burilish davri boshlanib, ishlab chiqarish texnik jihatdan takomillashibgina qolmay, balki ijtimoiy muammolarning keskinlashishiga, ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishiga, jinoyatchilik va ishsizlikning o'sishiga olib keldi. Ushbu davrda Buyuk Britaniyada qashshoqlik bo'yicha qo'llanma joriy etiladi, 1834-yilda nochorlarga yordam ko'rsatish tartibga solingan maxsus qonunchilik (Poor Laws) qabul qilinadi.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishni kasb sifatida paydo bo'lishiga ijtimoiy muammolarning keskinlashishi qashshoqlar muammo si kelib chiqishi ma'lum darajada sabab bo'ldi. Ushbu muammolar jamoatchilik tomonidan haqli ravishda barqarorlikka va tartibga tahdid sifatida qabul qilindi. Bu holat nafaqat G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy sohadagi munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy qonunchilikning paydo bo'lishiga, balki aholining turii guruhlarini empirik o'rganishga olib keldi. XIX asr boshida aholi ro'yxatga olina boshlandi, turli ijtimoiy muammolar tekshirildi, tahliliy ifodalab berildi. Biroq XIX asr oxiridagina ijtimoiy islohotchilar va xayriya tashkilotlari yetakchilari nochorlarga yordam ko'rsatadigan odamlar maxsus tayyorgarlikdan o'tishi kerak degan xulosaga keldi. 1869-yilda Londonda ko'rsatilayotgan yordamni muvofiglashtiruvchi Xayriya jamiyati tashkil etildi (The Charity Organization Society). Shu bilan bir vaqtida faoliyatning yangi turlari (The settlement house movement) Angliyadagi muhojirlar uchun manzilgohlar tashkil etilgan *settlement* harakati paydo bo'ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida pozitivizm va liberalizm vakillari qarashlari sanoati rivojlangan mamlakatlarda shaxsning maqbul hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib bera

olmaydigan davlatning shaxs oldida javobgarligi va ma'naviy burchi to'g'risidagi tushuncha paydo bo'lishiga ko'maklashdi.

1946–1948-yillarda Buyuk Britaniyada aholini ijtimoiy himoyasi doirasida keng ko'lamlar islohotlar o'tkazildi. Buning natijasida barcha aholi qatlamlari tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga, oilaviy yordamlar olishga, yoshga doir nafaqa olishga erishildi.

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimi ustuvorliklari o'zgarishini belgilab bergan omillar orasida tug'ilishning kamayishi va umrning uzayishi natijasida aholining tez qarishi qayd etiladi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchragan iqtisodiy qiyinchiliklar va ularning oqibatlari davlatning bir qancha ijtimoiy dasturlarini to'xtatishiga katta ta'sir o'tkazdi. Iqtisodiy inqiroz o'sib boruvchi byudjet taqchilligi, ishsizlar va qashshoqlar sonining ortishi, aholining qarishi, to'liq bo'limgan oilalar sonining oshishi va boshqa omillar davlat ijtimoiy siyosatidagi o'zgarishlarga olib keldi.

Ijtimoiy ish turlarini guruhlarga bo'lish universal hodisa emas va u turli mamlakatlarda turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishning asosiy turlarini keyingi yillarda an'anaviy tarzda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlarga bo'linadi:

- a) ijtimoiy sug'urta;
- b) ijtimoiy ta'minot;
- c) ijtimoiy yordam.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishning turlarini guruhlarga bo'lish uchun shu ish yo'naltirilgan obyekt vazifasini bajaradi.

Buyuk Britaniyada: a) individ bilan olib boriladigan ijtimoiy ish; b) o'xshash vaziyatlarga tushib qolgan odamlar guruhi bilan olib boriladigan ijtimoiy ish; c) jamoa bilan olib boriladigan ijtimoiy ish.

Kasbiy faoliyat sifatidagi ijtimoiy ish turlarining kelib chiqishi ko'p jihatdan mamlakatlar taraqqiyotidagi madaniy va milliy xususiyatlari, turli ijtimoiy institutlar o'rtaсидаги о'заро та'sir xususiyatlari, ijtimoiy ong, madaniyat, fan, ta'limning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Har bir mamlakatdagi davlatning ijtimoiy ko'mak berish tizimi shu yerdagi tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqib shakllantirilgan bo'lib, bajarilayotgan vazifalarning o'xshashligi va bir xilliligiga

qaramasdan ulardagi yondashuvlar, uslublar va tashkiliy shakllarda tafovut mavjud. Bu tafovutlar ijtimoiy ishdagi Yevropa va Amerika modellarini qiyoslaganda ko‘zga ayniqsa yaqqol tashlanadi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha dunyoda 9-o‘rinni egallaydi. Ushbu masalalarga ajratilayotgan davlat xarajatlari 30 % dan ortig‘ini tashkil etmoqda.

Yevropa qit’asida ijtimoiy ta’minot tizimining rivojlanishi uzoqroq tarixga ega. U jamoalar o‘rtasidagi (jamoalararo) aloqalar uzilishriga bog‘liq tarzda shakllandi. Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ta’minot dasturlarini amalga oshirish, turli ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan rasmiy tuzilmalarning yaratilishida davlat tashabbuskor bo‘ldi. Amerikaga ko‘chib borganlar uchun xos belgi esa o‘zining kuchiga, shaxsiy tashabbusga va davlat tuzilmalarining ta’sirini maksimal darajada kamaytirishga intilish bo‘ldi. Bunday individualistik yondashuv hozirgi kungacha aholini ijtimoiy muhofaza qilishda unchalik katta rol o‘ynamaydigan Buyuk Britaniyada davlat ijtimoiy siyosatining shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Buyuk Britaniyadagi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining xususiyati va Yevropa modellaridan asosiy farqi uning nomarkazlashtirilganidadir.

Boshqaruv organlari tomonidan tartibga solinadigan turli ijtimoiy dasturlardan iborat. Bundan tashqari, alohida dasturlar mahalliy hokimiyatlar tomonidan ham qabul qilinadi. Bunday yondashuv muayyan mintaqada ijtimoiy ko‘makka bo‘lgan ehtiyojni yetarlicha to‘la va tezkor aniqlash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy ta’minot davlat tizimi ikki shaklga asoslanadi: ijtimoiy sug‘urta va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘mak, ular o‘zaro moliyalashtirish manbalari bilan farqlanadi. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar mehnatkashlardan ham, tadbirkorlardan ham olinadigan ijtimoiy sug‘urta solig‘i shakllantiradigan sug‘urta jamg‘armalari hisobiga amalga oshiriladi. Davlat tomonidan beriladigan ko‘mak federal byudjet mablag‘lari, shtatlar byudjeti yoki mahalliy hokimiyat organlari byudjetlari mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniyaning ijtimoiy sug‘urta haqidagi qonuniga ko‘ra ijtimoiy sug‘urtaning ikki turi: qarilik nafaqasi va ishsizlarga to‘la-

nadigan yordam puli belgilangan. Qonunda kambag‘allarning ba’zi toifalari, birinchi navbatda nogironlar va yetimlarga yordam berish ham ko‘zda tutilgan. Vaqt o‘tib borishi bilan ijtimoiy sug‘urtaning yangi shakllarini tatbiq etish ko‘zda tutilgan ko‘plab tuzatishlar kiritib borildi: boquvchisini yo‘qtoganda beriladigan nafaqa; ishlab chiqarishda shikastlanish bilan bog‘liq bo‘lmagan mehnat qobiliyatini yo‘qotish tufayli beriladigan nafaqa; 65 va undan katta yoshlilarga beriladigan tibbiy sug‘urta huquqi va boshqalar.

Ijtimoiy muhofazaning Buyuk Britaniya davlat tizimidagi yana bir tarkibiy qism kambag‘allarga beriladigan ko‘makdir. Bu tizim 60-yillardan boshlab keng rivoj topdi. Ijtimoiy sug‘urtadan farqli o‘laroq, ijtimoiy ko‘mak tizimida yordam olish uchun oldindan maxsus to‘lanadigan badallar talab qilinmaydi. Uni olish uchun asosiy mezon – muhtojlik.

Ko‘mak berish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar: kafolatlangan daromadni ta’minalash, yordamga muhtoj bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlash, oziq-ovqat, turar joy va tibbiy yordam ko‘rsatish.

Kafolatlangan daromadni ta’minalash dasturi keksayib qolganlar va nogironlarni qamrab oladi. Aholining bu toifasiga federal hukumat ular uchun kafolatlangan daromad deb ataladigan yashash vositalarining minimumini ta’minalash maqsadida pul mablag‘lari to‘laydi. Bu mablag‘lar «qashshoqlik chegarasi»ga to‘g‘ri keladigan summaning taxminan 60 % ini tashkil qiladi.

Bolali oilalarga yordam dasturi kam daromad oladigan, oila boshlig‘i, eridan ajralgan yoki yolg‘iz beva bo‘lgan ko‘p bolali oilalarga yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Oziq-ovqat yordami doirasida muhtojlarga oziq-ovqat talonlari berish juda keng tarqaldi. Ular bepul yoki arzonlashtirilgan narxlarda beriladi. Boshqa oziq-ovqat dasturlari – maktab nonush-talari, bir yoshgacha bolasi bor onalarga beriladigan yordam va boshqalar. Turar joy subsidiyalari kam daromadli oilalarga beriladi. Ijtimoiy sug‘urtaning xususiy tizimlari davlat tizimini to‘ldirib turadi va ular muayyan muruvvatlar yordamida davlat tomonidan tartibga solinadi. Buyuk Britaniyada xususiy sug‘urtaning ikki turi – ish joyidagi jamoaviy va individual turlari mavjud. Yetakchi shakl jamoaviy shakl hisoblanadi. Kasaba uyushmalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi jamoaviy shartnomalar odatda, muayyan ijtimoiy

to‘lovlар va kafolatlarni ko‘zda tutadi. Sug‘urtaning shunga o‘xshash turlari kasaba uyushmalari bo‘lмаган ко‘pgina sohalar va firmalarda ham mavjud.

Mehnatkashlarning katta qismi uchun xususiy nafaqalar muhim ahamiyatga ega. Jamg‘armalarning sezilarli o‘sishiga qaramasdan xususiy nafaqa tizimi davlat tizimiga qaraganda uch marta kamroq shaxslarni qamrab oladi. Gap shundaki, davlat nafaqalari miqdorini hisoblaganda ish joyidan qat’i nazar, umumiy staj hisobga olinadi, xususiy nafaqaga ega bo‘lish uchun esa ishchi yoki xizmatchi bitta firmada odatda, kamida 10 yil uzluksiz ish stajiga ega bo‘lishi lozim. «Korporatsiya» maxsus federal agentligi xususiy pensiya-larning kafolati sifatida amaldagi pensiya jamg‘armalarining to‘lov qobiliyatini kuzatib boradi va kompaniyalar bankrotlikka uchragani taqdirda, ularning qatnashchilariga beriladigan to‘lov miqdori va tartibini belgilaydi.

Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy qonunchiligi Amerika qonunchiligidan davlatning ijtimoiy siyosat yo‘nalishlarini belgilash, rejalashtirish, moliyalashtirish va hayotga tatbiq etishdagi ishtirokining yuqoriqoq darajasi bilan farqlanadi. Bunda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishdagi mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining muhim roli hamda aholining ko‘proq qismini ijtimoiy xizmatlar va yordam turlari bilan qamrab olinishini ta‘kidlash lozim.

Ijtimoiy ish xodimlari Britaniya Assotsiatsiyasi – bu Birlashgan Qirollikdagi ijtimoiy ish xodimlarining professional assotsiatsiyasidir. Uning majburiyatiga a‘zolar tomonidan axloqiy majburiyat-larni bajarilishini hamda ularga xizmatdan foydalanuvchilarining huquqlarini ta‘minlash va himoya qilishlari uchun lozim bo‘lgan kasbiy huquqlarini imkon darajasida ta‘minlash kiradi.

Assotsiatsiya Axloqiy Kodeksining birlamchi maqsadi ijtimoiy ishga xos bo‘lgan qadriyatlar va tamoyillarni bayon qilish va axloqiy amaliyat uchun ko‘rsatma berish. Kodekslar barcha a‘zolar uchun majburiy va Kodekslar orqali Assotsiatsiya Birlashgan Qirollikdagi barcha ijtimoiy ish xodimlari va ish beruvchilarining diqqatini jalb qilinishiga umid bog‘laydi.

Assotsiatsiya ijtimoiy ishning Ijtimoiy Ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasi va Ijtimoiy Ish Maktablari Xalqaro assotsiatsiyalari

tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi ta’rifini qabul qildi. Bu dunyoning har bir hududidagi barcha ijtimoiy ish amaliyotchilariga taalluqlidir.

Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o‘zgarishlarga, insoniy munosabatlar muammolarni hal qilishga, shuningdek odamlarning farovonligini oshirish uchun imkoniyatlarning taqsimlanishiga va ozod bo‘lishiga ko‘maklashadi. Insuniy xulq-atvor va ijtimoiy tizimlar haqidagi nazariyalardan foydalanib, ijtimoiy ish odamlarniig atrofdagilar bilan o‘zaro aloqadorlikka kirishgan joylarda yuzaga keladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning asosi bo‘ladi. (2001).

Ijtimoiy ish amaliyoti insonparvarlikka, halollikka va kompitentlikka xizmat qilish yo‘li bilan inson qadr-qimmatini hurmat qilishga ham, ijtimoiyadolatni ta’minlashga ham ko‘maklishishi kerak.

Inson qadr-qimmati va qadriyat

Har bir odam o‘ziga xos betakrordir. Barcha odamlar boshqalarning huquqlarini kamsitmaydigan darajada ijtimoiy farovonlik, o‘z-o‘zini namoyon etish va o‘z hayatini nazorat qilish huquqiga ega.

Tamoyillari:

Ijtimoiy xizmat xodimlari quyidagilarga amal qilishga majburlar:

a) BMT Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida va mazkur deklaratsiya asosidagi boshqa kelishuv hujjalarda qayd etilgan insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish.

b) barcha odamlarga hurmat ko‘rsatish va xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning ishonchi, madaniyati, maqsadlari, ehtiyojlari, qadriyatlari, o‘zaro munosabatlari va xususiyatlari va muayyan (guruhlarga) mansubliklariga e’tiborli bo‘lish.

d) xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning qadr-qimmati, individualligi, huquqlari va majburiyatlarini himoya qilish va rag‘batlantirish;

e) individual farovonlik va avtonomlikni rag‘batlantirgan holda boshqa odamlarning huquqlarini lozim darajada hurmat qilish;

f) xizmatdan foydalanayotgan shaxslarning huquqlarini hurmat qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish, xizmatdan foydalanayotgan shaxslarni va xizmat ko‘rsatayotgan shaxslarni rag‘batlantirish, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish;

g) xizmatdan foydalanayotgan shaxslarni cheklash hamda ularni va boshqalarni himoya qilish maqsadida ular ustidan hukmronlik

qilishni ham qamrab olunuvchi xizmatdan foydalanunchilar muhofazasini ta'minlash.

Ijtimoiy adolat

Ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lidagi izlanishlar yomon sharoitlarni kamaytirishga va ularni yengish strategiyasini qo'llab-quvvatlashni anglash va intilish masalalarini qamrab oladi.

Tamoyillari:

Ijtimoiy adolat quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

a) insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun lozim bo'lgan resurslarning adolatli va teng taqsimlanishi;

b) insoniy potensialga erishish uchun ijtimoiy xizmatlar va imtiyozlarga nisbatan teng imkoniyatlarni yaratish;

d) individuumlar, oilalar, guruhlar va jamoalarning huquq va majburiyatlarini tan olish;

e) qonun tomonidan bir xil munosabat va muhofaza muhitini yaratish;

f) insonning zamonaviy va kelajakdagi farovonligi manfaatlari yo'lida ijtimoiy rivojlanish hamda atrof-muhitni boshqarish.

Insonparvarlikka xizmat qilish

Inson farovonligi va ijtimoiy adolat yo'lida xizmat qilish ijtimoiy ishning eng birinchi maqsadi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

- Shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish;
- Odamlarning imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;
- Adolatliroq, jamiyat yaratish ishiga o'z hissasini qo'shish.

Tamoyillari:

Ijtimoiy ish xodimlari quyidagilarni bajarishga majburlar:

a) Milliy yoki xalqaro axloqiy kodekslarga mos ravishda o'z amaliyotining axloqiy majburiyatiga ega bo'lish;

b) O'z majburiyatini bajarish hamda hayotiy adolat tamoyillariga amal qilish davomida insonparvarlikka xizmat qilishni shaxsiy maqsad, fikr va foydadan ustun qo'yish;

d) Taklif etilayotgan va ko'rsatilayottan xizmatlarni mos madaniyatlarga xos tarzda ta'minlashga intilish.

Butunlik

Butunlik, halollik, ishonchlilik, ochiqlik va beg'arazlikni qamrab oladi va ijtimoiy ish amaliyotida muhim qadriyat hisoblanadi.

Tamoyillar:

Ijtimoiy ish xodimlari qo‘yidagilarni bajarishga majburdirlar:

- a) Xizmatdan foydalanayotgan shaxslarnint ehtiyojlari va manfaatlarini o‘zining shaxsiy e’tiqodi, maqsadlari, mulohazasi va foydasidan ustun qo‘yish hamda kasbiy munosabatlardan shaxsiy, moddiy yoki moliyaviy foyda olish uchun foydalanmaslik;
- b) Shaxsiy xulq-atvori kasbiy majburiyatini bajarishni xavf ostiga qo‘ymaslikni kafolatlash hamda kasb tamoyillari va standartlariga mos kelmayditan yoki kasbning butunligiga zarar yetkazaditan xulq-atvordan qochish;

- c) O‘zining malakasi, bilimlari, tajribasi, yutuqlari yoki biron bir guruhga mansubligiga nisbatan halol va aniq bo‘lish;

- d) Kasb chegaralarini buzuvchi har qanday xulq-atvorning turli-tuman shakllaridan qochish, anglanmagan holda kasbiy munosabatlarga zarar yoki ziyon yetkazishdan saqlanish.

Kompitentlik

Ijtimoiy ish amaliyotida malaka – zaruriy kriteriyadir.

Tamoyillari:

Ijtimoiy ish xodimlari qo‘yidagilarni bajarishga majburdirlar:

- a) Ijtimoiy ish amaliyotida bilim, nazariya va malakani aniqlashi, rivojlantirishi, foydalanishi va tarqatishi;
- b) O‘z malakasini oshirishning yangi yondoshuv va usullarini baholagan holda, sifatli xizmat ko‘rsatish va hisobot beriluvchi amaliyot uchun lozim bo‘lgan bilimlarini saqlash va kengaytirish;
- c) Mavjud nazorat va maslahatdan foydalanish hamda lozim kuzatuvni ta’minalash uchun, zaruriyatga qarab faol choralar ko‘rgan holda, uzlksiz ravishda kasbiy takomillashib borish;
- e) Ijtimoiy muammolarning tabiatini va manbalarini hamda ularni yechish yo‘llari haqida fikr yuritish;
- f) Baholash va tadqiqotlarga ko‘maklashish;
- g) Bilim va amaliy tajribalarini o‘rtoqlashgan holda hamkasblar va talabalarning o‘qishi va tayyorlanishiga ko‘maklashish;
- h) Insonning ijtimoiy farovonligiga doir strategiyalar va dasturlarni rivojlantirish va joriy qilishga ko‘maklashish;

«IJTIMOIY ISH ETIKASI» FANIDAN MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR

1. Ijtimoiy ishning birinchi marta tilga olinishi...

- A) eramizdan avvalgi 1750-yilga taalluqli
- B) eramizdan avvalgi 1850-yilga taalluqli
- C) eramizdan avvalgi 1860-yilga taalluqli
- D) eramizdan avvalgi 1900-yilga taalluqli

2. Ijtimoiy ish professional faoliyat turi sifatida qachon shakllandi?

- A) XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida
- B) XVIII asrning boshlarida
- C) XIX asrda
- D) XX asrning o‘rtalarida

3. Ijtimoiy ish bo‘yicha ta’lim muassasalari dastlab qayerda paydo bo‘ldi?

- A) Gollandiyada
- B) Buyuk Britaniyada
- C) Germaniyada
- D) AQSHda

4. Ijtimoiy ishni kasb sifatida shakllanishiga ta’sir qilgan omil...

- A) Filontropik tashkilotlarning rivojlanishi
- B) Ijtimoiy qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati
- C) Maxsus davlat dasturlarining qabul qilinishi
- D) Ijtimoiy ish fakultetlarining ochilishi

5. Stokgolmda Homiylik ijtimoiy uyushmasi qachon tashkil etilgan?

- A) 1866-yilda
- B) 1869-yilda
- C) 1876-yilda
- D) 1896-yilda

6. Ijtimoiy ish sohasining rivojlanishi nechta asosiy bosqichni bosib o'tgan?

- A) Uch
- B) To'rt
- C) Besh
- D) Ikki

7. Ijtimoiy ish xodimlarining kasbga doir manfaatlarini ifoda etgan birinchi tashkilot qaysi davlatda paydo bo'lgan?

- A) AQSHda
- B) Buyuk Britaniya
- C) Gollandiya
- D) Germaniya

8. Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy ish xodimlarining professional assotsiatsiyasi bu - ...

- A) Ijtimoiy ishchilar Britaniya assotsiatsiyasi
- B) Ijtimoiy ishchilar Britaniya Federatsiyasi
- C) Ijtimoiy ishchilar Xalqaro Assotsiatsiya maktabi
- D) Ijtimoiy ishchilar Milliy assotsiatsiyasi

9. Davlat xizmatchilarining xususiy ishtirokida nochorlarga yordam beruvchi Elberfeld tizimi qaysi davlatda amalda bo'lgan?

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) Finlyandiya
- C) Shvetsiya
- D) Germaniya

10. Nochorlar haqida g'amxo'rlik qiluvchi Germaniya Xayriya Ittifoqiga nechanchi yili asos solingan?

- A) 1880-yilda
- B) 1861-yilda
- C) 1866-yilda
- D) 1898-yilda

11. Lotin Amerikadagi birinchi ijtimoiy ish maktabi qaysi mamlakatda ochilgan?

- A) Chili
- B) Braziliya
- C) Paragvay
- D) Kolumbiya

12. Ijtimoiy ishchilar Axloq Kodeksi birinchi ishlasmalari qachon ishlab chiqilgan?

- A) 1915-yilda
- B) 1920-yilda
- C) 1922-yilda
- D) 1925-yilda

13. «Ijtimoiy davlat» termini qaysi davlat Konstitutsiyasida birinchi marta tilga olingan?

- A) Germaniya
- B) AQSH
- C) Fransiya
- D) Shvetsiya

14. «Ijtimoiy ishchilar muammolari» Akademiyasi qayerda joylashgan?

- A) Buyuk Britaniyada
- B) Rossiyada
- C) Ukrainada
- D) Avstraliyada

15. Buyuk Britaniyada ijtimoiy ishchilar tayyorlaydigan birinchi o‘quv muassasasini tashkil etgan olim ...

- A) Grem Teylor
- B) Meri Richmond
- C) Jeyn Adams
- D) Mariya Gaxeri

16. Ijtimoiy ishda Meri Richmond asos solgan yondashuv...

- A) Ekotizimli yondashuv

- B) Ramziy interokSIONIZM
- D) Inkirozli yondashuv
- E) Xulq-atvor yondashuvi

17. «Ijtimoiy himoya» tushunchasi birinchi marta qaysi davlat qonunchiligidagi ishlataligani?

- A) 1935-yilda AQSH qonunchiligidagi
- B) 1889-yilda Buyuk Britaniya qonunchiligidagi
- C) 1908-yilda Germaniya qonunchiligidagi
- E) 1993-yilda O'zbekiston qonunchiligidagi

18. Ijtimoiy ishchilarning kasbiy manfaatlarini himoya qiluvchi birinchi tashkilot ... -yil tashkil etilgan.

- A) 1917-yilda
- B) 1915-yilda
- C) 1912-yilda
- E) 1908-yilda

19. Meri Elen Richmond yashagan-yillarni ko'rsating.

- A) 1861-1928
- B) 1870-1928
- D) 1861-1922
- E) 1870-1922

20. Yunon tilidan tarjima qilinganda «insoniyatga nisbatan muhabbatni ifodalash» ma'nosini bildiradigan kategoriya ...

- A) Filantropiya
- B) Etika
- D) Falsafa
- E) Filologiya

21. Ijtimoiy ish etikasi fani qaysi fanlar bilan aloqador?

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) Estetika
- D) Etika
- E) Sotsiologiya

22. Shaxsni tarbiyalash, ta'lim berishga yo'naltirilgan fan...

- A) Pedagogika
- B) Sotsiologiya
- D) Falsafa
- E) Psixologiya

23. Ijtimoiy ish etikasi fanining metodologik asosi...

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) Etika
- D) Axloqshunoslik
- E) Estetika

24. Insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadigan fan.

- A) Sotsiologiya
- B) Huquqshunoslik
- D) Axloqshunoslik
- E) Psixologiya

25. Ma'nnaviy fazilatlarning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni masalasi Sharq mutafakkirlari ijodida o'ziga xos talqin etilgan. Qaysi Sharq mutafakkiri insonda va jamiyatda fazilatni hamma narsadan yuqori qo'yadi va uni asosan axloqiy kategoriylar bilan bog'laydi?

- A) Konfutsiy
- B) Abu Nasr Forobiy
- D) Ibn Sino
- E) Alisher Navoiy

26. Men-Szi insonda ezgulik nechta fazilat orqali amalga oshishini ta'kidlab, ularning asosini bilim tashkil qiladi deb hisoblaydi?

- A) 4
- B) 5
- D) 3
- E) 2

27. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida shahar hokimi oqil bo'lib, u tabiatan nechta xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarurligini ta'kidlab o'tgan?

- A) 12
- B) 10
- C) 8
- D) 6

28. «Ma'naviy fazilatlar tabaqaga qarab, ya'ni faylasufda donishmandlik fazilati, hunarmandda mo'tadillik, jangchida esa qahramonlik va botirlik namoyon bo'ladi» – degan fikr muallifini ko'rsating.

- A) Platon
- B) Konfutsiy
- C) Forobiy
- D) Suqrot

29. Ijtimoiy ish xodimlarining muhim kasbiy sifatlarini o'rgangan olimni ko'rsating.

- A) A.Kalyujniy
- B) Meri Richmond
- C) Grem Teylor
- D) Jeyn Adams

30. Ma'naviy fazilatlar nimalar bilan bog'liq?

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) insonning ma'naviy qiyofasi
- C) ijtimoiy hayot
- D) ong va munosabatlar

31. Alisher Navoiyning qaysi asarida komil insonga xos xususiyatlar, ularning sharqona fazilatlari kabi sifatlar keltirib o'tilgan?

- A) «Nasoyim ul muhabbat»
- B) «Xamsa»
- C) «Lison ut-tayr»
- D) «Mahbub ul-qulub»

32. Islom Karimov insonga, xususan rahbarga xos ma'naviy fazilatlar haqida Oliy Majlis nechanchi sessiyasi yig'ilishida nutq so'zlagan?

- A) Oliy Majlis birinchi sessiyasi yig'ilishida
- B) Oliy Majlis ikkinchi sessiyasi yig'ilishida
- C) Oliy Majlis uchinchi sessiyasi yig'ilishida
- D) Oliy Majlis to'rtinchi sessiyasi yig'ilishida

33. Ma'naviy fazilatlar shaxs ma'naviy dunyosining elementi sifatida qanday yo'nalishga ega?

- A) ichki va tashqi
- B) ochiq va yopiq
- C) xususiy
- D) kasbiy

34. Refleksiya – bu

- A) fikrlash
- B) xayrixohlik
- C) hamdardlik
- D) To'g'ri javob yo'q

35. O'zbekistonda ijtimoiy ish xodimining professional va etik kodeksi qachon ishlab chiqilgan?

- A) 2008-yilda
- B) 2009-yilda
- C) 2010-yilda
- D) 2011-yilda

36. 2004-yil oktabrda qayerda Ijtimoiy Ish bo'yicha Maktablar Xalqaro Assotsiatsiyasi va Ijtimoiy Ish xodimlari Xalqaro Federatsiyasining umumiy uchrashuvi o'tkazilgan?

- A) Adelaida
- B) Londonda
- C) Parijda
- D) Vashingtonda

37. O‘zbekistonda ijtimoiy ish instituti qachondan boshlab shakllanishni boshladi?

- A) 90-yillar oxiriga kelib
- B) 80-yillar oxiriga kelib
- C) 70-yillar oxiriga kelib
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

38. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 1948-yil 10-dekabr
- B) 1950-yil 10-dekabr
- D) 1958-yil 10-dekabr
- E) 1960-yil 10-dekabr

39. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konventsya qachon qabul qilingan?

- A) 1989-yil 20-noyabr
- B) 1990-yil 20-noyabr
- D) 1992-yil 20-oktabr
- E) 1993-yil 20-oktabr

40. O‘zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyasini qachon ratifikatsiya qilgan?

- A) 1992-yil 9-dekabr
- B) 1992-yil 8-dekabr
- D) 1991-yil 1-sentabr
- E) 1991-yil 9-dekabr

41. «Inson uchun hayotdagи birinchi ustoz ehtiyoj va tajribadir. Aynan shular insonni foydali va zararli narsalarni farqlash darajasiga olib keladi» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Demokrit
- B) Suqrot
- D) Forobiy
- E) Arastu

42. «Axloqning asosiy mohiyati – o‘zgarmas va abadiy asl fazilat bo‘lmish donishmandlik» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Suqrot
- B) Demokrit
- D) Forobiy
- E) Arastu

43. Rossiyada ijtimoiy himoya davlat tizimining qaror topishi...

- A) 1701-yilda
- B) 1736-yilda
- D) 1780-yilda
- E) 1791-yilda

44. «Axloq – ma’naviyatning o‘zagi. Inson axloqi shunchalik salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq bu, avvalo, insof vaadolat tuyg‘usi, imon, halollik degani» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Islom Karimov
- B) Forobiy
- D) Amir Temur
- E) Navoiy

45. «Axloq» atamasi qaysi tildan olingan?

- A) arabcha
- B) lotincha
- D) forscha
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

46. «Axloq – o‘z muvozanatini yo‘qotganning xulqini tartibga keltiradi, mukammallikkä yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanati buzilgan xulqning muvozanatini saqlab qoladi» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Ibn Sino
- D) Amir Temur
- E) Navoiy

47.»Siyosat» nomli asar muallifi...

- A) Arastu
- B) Suqrot
- C) Demokrit
- D) Pifagor

48. Arastuning axloqiy qarashlari, asosan ...ga bag‘ishlangan.

- A) O‘g‘liga
- B) Kambag‘allarga
- C) Boylarga
- D) To‘g‘ri javob yo‘q

49. «Axloq» nomli asar muallifi...

- A) Ibn Sino
- B) Forobiy
- C) Demokrit
- D) Pifagor

50. «Kimning odobi yaxshi va axloqi to‘g‘ri bo‘lsa, u kishi maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi, chunki yaxshi axloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) Yusuf Xos Xojib
- B) Forobiy
- C) Arastu
- D) Mahmud Qoshg‘ariy

51. Mutaxassisning kasbiy faoliyatiga va sifatlariga jamiyatning umumlashgan talablarini o‘zida mujassam etgan hujjat...

- A) Professiogramma
- B) Kodeks
- C) Dekloratsiya
- D) Konvensiya

52. «Odam u yoki bu axloqiy amalni bajarsa bu hali uning yaxshi ekanini anglatmaydi, mana shunday amallar xarakterining barqaror belgisiga aylangandagina u haqiqatan ham yaxshi hisoblanadi» – degan fikr muallifini aniqlang.

- A) G. Gegel
- B) Forobiy
- C) Demokrit
- D) Pifagor

53. «Ijtimoiy ishning xalqaro axloqiy andozalari» necha guruhga ajratilgan?

- A) 5 guruh
- B) 4 guruh
- C) 3 guruh
- D) 2 guruh

54. Inson xulq-atvorini va unga ko'rsatiladigan yordamni belgilaydigan sharoitlar betakror ekanini tushunishga intilish qaysi andozaga tegishli?

- A) Axloqiy xulq-atvor andozalari
- B) Mijozlar bilan o'zaro munosabatlari
- C) Hamkasblari bilan o'zaro munosabatlari
- D) Kasbga munosabat

55. Ijtimoiy ish...

- A) Barcha javob to'g'ri
- B) Amaliy faoliyat
- C) O'quv sohasi
- D) Ilmiy yo'nalish

56. Kompetentlik...

- A) Chuqur bilimga egalik
- B) Maxfiylik
- C) Sir saqlash
- D) B va V

57. Konfidensiallik...

- A) B va V
- B) Maxfiylik
- C) Sir saqlash
- E) Chuqur bilimga egalik

58. Ijtimoiy ish ... asosiy kriteriyaga tayanadi.

- A) Besh
- B) Olti
- D) To'rt
- E) Uch

59. «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qachon qabul qilindi?

- A) 1994-yilda
- B) 1995-yilda
- D) 1996-yilda
- E) 1997-yilda

60. «Ijtimoiy ish etikasi: tamoyillar va nazariyasi» nomli hujjat qayerda qabul qilindi?

- A) Kolomboda
- B) Jenevada
- D) Londonda
- E) Parijda

61. O'zgalarga beg'araz g'amxo'rlik qiluvchi va odamlar baxt-saodati yo'lida o'zini qurban qilishdan voz kechmaydigan shaxs.

- A) Altruist
- B) Gumanist
- D) Egoist
- E) To'g'ri javob yo'q

62. Amoralizm...

- A) Axloqsizlik
- B) Ezgulik

- D) Insonparvarlik
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

63. Insoniylik, insonparvarlik, inson haqida g‘amxo‘rlik...

- A) Gumanizm
- B) Altruizm
- D) Egoizm
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

64. Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan falsafiy tushuncha...

- A) Qadriyat
- B) Qobiliyat
- D) Madaniyat
- E) Muloqot

65. Insonning individual salohiyati, imkoniyatlari, shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati...

- A) Qobiliyat
- B) Qadriyat
- D) Madaniyat
- E) Muloqot

IJTIMOIY ISH ETIKASI DARSLIGI BO‘YICHA ATAMALARNING QISQACHA LUG‘ATI

Altruizm (egoizmning aksi) – odamlarga ongli va ixtiyoriy xizmat qilish, boshqalarga yordam berishni istamoq, muhabbat, sodiqlik, vafodorlik ramzi asosida ularning baxtiga ko‘maklashish. Bu ibora O.Kont tomonidan egoizmga qarama-qarshi ma’noda kiritilgan. Altruizm ijtimoiy ishdagi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Altruizmga xos bo‘lgan qobiliyat ijtimoiy-madaniy soha ishchilarining muhim sifatlaridandir.

Altruizm shaxsning o‘z-o‘zini baholash, «yagona bir o‘zim» deyish qoidasidan voz kechishini anglatadi. Altruizm axloqiylikni tashqaridan baholash orqali ta’milanadi, shuning uchun altruizm insonni o‘z faoliyatiga vijdon bilan qarash, xolisona baholashga majbur etadi.

Altruizm yaxshi fazilat sifatida buddizm va xristianlik etikasida tavsiflangan. Altruizm tushunchasi keyinchalik XVIII asr ingliz etikasida (A.Shefsberi, F. Xatcheson, A. Smit) va boshqa fransuz ma’rifatparvarlari g‘oyalarida rivoj topgan.

O‘z qadriga etish, boshqalarning qayg‘usini yengillashtirishga qaratilgan g‘oyalar Shopengauer tomonidan ham rivojlantirildi. A.Nitsshe tomonidan inkor qilingan gumanizm etikasi altruistik ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi.

Altruist – o‘zgalarga beg‘araz g‘amxo‘rlik qiluvchi va odamlar baxt-saodati yo‘lida o‘zini qurbon qilishdan voz kechmaydigan shaxs. Shuni ham nazarda tutish kerakki, o‘zini yomon ko‘radigan, o‘z qadr-qimmatini anglamaydigan shaxsdan altruist etishib chiqmaydi. Altruist o‘zini er bilsa; boshqani sher deb hisoblaydigan mard, kamtar va o‘zgalar baxt-saodati, faravonligi, erki, ozodligida o‘z ideallarini ko‘ra boshladigan, olijanob shaxsdir.

Javonmardlar oddiy hunarmandlar, ziyolilar vakillari bo‘lib, ular muayyan jamoaga uyushadilar. Ularning ustoz (pir) lari bo‘lar edi. Utoz oldida mardlik belbog‘ini bog‘lagan va unga chin yigitlik

so‘zini bergen odam o‘z ahdiga sodiq qolar, hayotini jamoa manfaatiga, do‘stu yorlariga bag‘ishlardi. Javonmardlar bir-birlarini aka-uka, birodar, qiyomatli do‘st deb bilardilar. Ular molu dunyo deb o‘z vijdonlarini aslo sotmas, shunday qilganlarga qarshi astoydil kurashardilar. Ayni chog‘da javonmardlar vatanni tashqi dushmanlardan himoya qilishar, mustamlakachilarni yurtlaridan haydab chiqarishda qahramonlik namunasini ko‘rsatishardi.

O‘zbekkarda mehmonnavozlik, do‘st-birodarlarga sodiqlik, qarindosh-urug‘ini qadrlash, qiyin ahvolga tushganlarga yordam qo‘lini cho‘zish, muruvvat va saxovatpeshalik javonmardlik ta’sirida tarixan qaror topgan, desak xato bo‘lmaydi. Demak, altruizmning sharqona ko‘rinishi bo‘lgan javonmardlik g‘arbiy shakllar mazmunini yanada boyitadi.

Amoralizm (axloqsizlik) – 1) ijtimoiy-tarixiy hodisa, insonlar xulqida umumiy qabul qilingan axloq me’yorlarini rad etishda namoyon bo‘ladi; 2) inson hulqidagi, shuningdek odamlarning ma’lum guruhlari tomonidan yoki siyosiy partiyalar tomonidan o‘tkaziladigan siyosatda axloqning umuminsoniy me’yorlariga nigilik munosabatlarning to‘g‘riligini asoslovchi amaliy yoki g‘oyaviy yo‘nalish 3) insonning salbiy sifatlarining, uning hayot tarzi va salbiy qilmishlarining tavsifi (bo‘ton, yolg‘on, sotqinlik, xiyonat, bardamlik va h.k.). Ba’zi jabhalarda amoralizm chetlashuvchi xulq kabi tushunchalar bilan aloqada bo‘ladi.

Anomiya – jamiyatning qadriyatli-me’yoriy tizimidagi turli xatolar; jamiyatning holati, unda jamiyatning ma’lum qismi ularni majburlovchi me’yorlarining mavjudligini bilib ularga salbiy yoki befarq qarash. «Anomiya» tushunchasi fransuz sotsiolog E.Dyurkgeym tomonidan kiritilgan, keyin amerikalik sotsiolog R.Merton tomonidan qayta takomillashtirilgan. R.Merton anomiyani rad etuvchi xulq asosi kabi o‘rganib, u qonuniy yo‘l bilan individual maqsadlarga erisholmaslikni e’tirof etgan. Hozirgi vaqtida anomiya inqiroz vaziyatlarni, o‘tish davrda ijtimoiy holatlarni o‘rganishda,

huquq va axloq sotsiologiyasida, ijtimoiy ish sohasida – deviantli xulq muammolarini tekshirish va hal qilishda qo'llaniladi.

Aparteid (irqiy ayirmachilik) – irqiy diskriminatsiyaning eng oxirgi shakli. Aholining biror-bir guruhining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish yoki chetlatishni anglatadi. (Rezervatsiyaga qarang). Aparteidga genotsidning ba'zi jabhalari kiradi. Hozirgi xalqaro huquq aparteidni insoniyatga qarshi jinoyat deb hisoblaydi. 1973-yilda BMT aparteidni yo'q qilish va uning uchun jazolash haqidagi Xalqaro konventsiyani qabul qilgan.

Asketizm – hissiy qoniqishdagi tiyilish shakli, tabiiy istak va ehtiyojlarni ongli so'ndirish, yerdagi hayotning moddiy boyliklari va quvonchlariga to'la e'tiborsizlik. Axoqiy printsip kabi zavqli hayotning oliy boyligi va maqsadiga ko'taruvchi lazzatlanishga qarshi turadi. Asketizmning ikkita asosiy turi mavjud, ya'ni turli tarixiy davrlarda o'ziga xos shaklni qabul qiluvchi diniy va axloqiy printsiplar. Diniy asketizm ko'pincha odamovilik, tanholik, nikohsizlik, o'z-o'zini turlicha qiynashda namoyon bo'ladi. Axloqiy asketizm mulkiy tengsizlik, hukmdor sinflarning boyligiga qarshi chiqish shakliga asketizmni, ham gedoizmni yengishdan, hayotni sezish, borliq quvonchlariga erishish, inson mohiyatining barcha boyliklarini amalga oshirishdan iborat.

Affekt – (lotincha – affectus – ruhiy hayajon) kayfiyat va ehtirosdan farqli o'laroq, insonning kuchli, shiddat bilan kechadigan va nisbatan qisqa muddatda o'tib ketadigan hissiy holat, kuchli ifodalangan emotsiyal reaksiya, u erkin-harakatlanuvchi sohada (to'xtab qolish yoki qayta qo'zg'atish, harakat koordinatsiyasining buzilishi), ham vegetativ reaksiya sohasidagi (tomir urushi va nafas olishning o'zgarishi, qon tomirlarining spazmi va boshqalar) buzilishi bilan kuzatiladi. Affekt oliy nerv jarayonlarining o'z vaqtida kechishini buzishi mumkin. Shu sababli o'z vaqtida affekt va patologik affekt holatlari mavjud. Patologik affekt o'z harakatlarini amperiya bilan nazorat qilish qobiliyatini yo'qotish bilan belgilanadi (ma'lum davrdagi voqeа va kechinmalar haqida

eslolmaslik). Potologik g‘azab affektida inson qotillikni ham sodir etishi mumkin, umidsizlik, tushkinlik patologik affektida inson o‘z joniga qasd qilishi ham mumkin. Patologik affekt ruhiy nosog‘lom shaxsda yuzaga keladi. Affekt holatida sodir bo‘lgan jinoyat jinoiy huquqda yengil holatlarda sodir bo‘lgan deb qaraladi. Ijtimoiy ish amaliyotida affekt holati ruhiy nosog‘lom mijozlar bilan muloqotda hisobga olinishi kerak.

Adab qoidalari (etiket) – 1) keng ma’noda – biror-bir jamiyatda qabul qilingan hulq, odob qoidalari majmuyi; 2) tor ma’noda – saroyda, diplomatik doiralarda qabul qilingan tarbiya qoidalari to‘plami. Adab qoidalari ijtimoiy me’yorlari sifatida doimo odat tusiga kirib boradi. Biroq axloq me’yorlari kabi muhim ahamiyatga ega emas. Agar axloq me’yorlari xulqning ichki mazmunini aks ettirsa, adab qoidalari esa uning tashqi ko‘rinishiga tegishli.

Antisosial shaxs – mas’uliyatsiz shaxs, o‘z faoliyati bilan boshqalarga zarar yetkazuvchi, atrofdagilar va jamoat institutlari bilan tez-tez tortishish, o‘z aybini sezmaydigan, boshqalarni ayblovchi va xatolarini tan olmaydigan kishi.

Axloq – (lotincha. «moralis») – qoidaga, xulq-atvorga, urfatdagi taalluqli, axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlari yig‘indisi; odamlar hulqining jamiyat hayotida amal qilinishi lozim bo‘lgan me’yorlari, qoidalari, tamoyillari. Shuningdek, insoniy hulq, odamlarning bir-biriga va jamoatchilikka bo‘lgan munosabati nuqtayi nazaridan qaraladigan hissiyoti, mulohazalar. Axloq o‘z ichiga ham amaliy, ham mafkuraviy tamoillarni oladi. Huquqdan farqli ravishda axloq davlat tomonidan majburlashga tayanmaydi. U ijtimoiy fikr bilan qo‘llab-quvvatlanadi va odatda ishonch bilan amal qilinadi. Inson jamiyatining rivojlanishi bilan axloq muntazam ravishda tako-

millashib boradi. Axloq turli davrlarda sinflar, guruhlar, tabaqalar manfaatini aks ettirib kelgan.

Axloq hulq, axloqiy ong, axloqiy munosabat qoidalari kabi ijtimoiy ishchilarning mijozlar bilan o'zaro faoliyatida muhim rol o'yynaydi.

An'ana – (lotincha tradition – uzatish) – madaniy tajribaning u yoki bu unsurlarini saqlaydigan, avloddan-avlodga o'tadigan, ma'naviy qadriyatlarga asoslangan, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy-genetik (nasliy) uzviyligini ta'minlaydigan universal shakl. Uzoq vaqt davomida ma'lum jamiyat, ijtimoiy va boshqa guruhlarda avloddan-avlodga o'tadigan va saqlanadigan ijtimoiy va madaniy meros elementlari. An'ana xalqlarni o'tmishdan to hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan ijtimoiy qoidalari, xulq me'yorlari, qadriyatlar, g'oyalar, urf-odatlar, marosimlardir.

An'analar o'z mazmun-mohiyati bilan zamon ruhiga qanchalik mos tushib, hamohang bo'lsa, jamiyat taraqqiyotini shunchalik osonlashtiradi, jadallashtiradi va aksincha, ya'ni unga to'g'ri kelmasa, ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'lishi mumkin. Jamiyatda an'ana o'ziga xos vazifalarni bajaradi: kishilarni ma'rifatli qilish, ularni tarbiyalash, odamlarga estetik zavq-shavq berish, ularni o'zaro yaqinlashtirish, axborot bilan ta'minlash va hokazo. An'analar har bir xalqning hayot tajribasi, bilimlari, aql-zakovati, zehnu idroki, donishmandligi, ruhiyati, ichki kechinmalari, mehnat ko'nikmalarida o'z ifodasini topadi. An'analar ma'lum ma'noda vorisiylik ahamiyatini ham kasb etadi. chunki tarix sahnasiga endi kirib kelayotgan yosh avlod oldingi avlod qoldirayotgan ma'naviy boylikka vorislik qiladi, ayni vaqtida uni rivojlantiradi hamda kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi. Shunday qilib, avloddan avlodlarga o'zaro bog'lovchi «ko'priklar» vazifasini bajaradi. An'ana millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, urf-odati, diniy qadriyatlari, tili va boshqalar bilan o'zaro uzviy bog'langan. Ular xilma-xil shakllarda bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'ladi, o'ziga xos tizimni tashkil etadi.

An’ana ta’sirida tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – qon-qarindoshlik, madaniy-ma’naviy meros, ona yurt tuyg‘usi va boshqalar nisbatan barqaror bo‘ladi.

An’anani ijtimoiy ish soha vakillari ijtimoiy etnik guruhli jamiyat mijozlari bilan ishlashda hisobga olishlari kerak.

Bag‘rikenglik – o‘zga turmush tarziga, xulqi, urf-odatlari, hissiyotlari, fikri, g‘oyasi, e’tiqodiga chidamlilik.

Jumladan, ijtimoiy ishchilarga ularning mijozlar bilan, ishlashda kerakdir.

Bolalar – o‘ziga xos ehtiyoj va manfaatlarga, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega 18 yoshgacha bo‘lgan aholining ijtimoiy-demografik guruhi.

Bolalik – insonning hayotiy davri bosqichi. Unda organizm shakllanadi, muhim funksiyalari rivojlanadi, individning faol ijtimoiylashuv sodir bo‘ladi (ya’ni jamiyatning sog‘lom va to‘la huquqli a’zosining shakllanishiga imkon beruvchi ijtimoiy faoliyat turlari o‘zlashtiriladi, bilimlar, qadriyatlarning ma’lum tizimi o‘rganiladi).

Bixevoirizm – (inglizcha – behaviour – xulq-odat, xattiharakat) – XIX asr oxiri, XX asr boshlarida psixologiyada paydo bo‘lgan muhim yo‘nalish. Bixevoirizm asoschisi E.Torndayk hisoblanadi. Bixevoirizm dasturi va termini bиринчи marotaba J.B.Uotson (1913) tomonidan taklif etildi. Bixevoirizm ilmiy asoslar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bixevoirizm zaminida inson xulqining tashqi muhitda harakatlantiruvchi verbal va emotSIONAL ta’sirlar majmuasini tushunilishi yotadi. Bixevoirizmning uchun manbayi sifatida pozitivizm falsafiy tamoyillari anglashiladi, chunki fanning vazifasini bevosita kuzatuvni tahlil etish va bayon etish tashkil etadi deb hisoblaydi.

Valeologiya – sog‘lom turmush tarzi, inson organizmining jismoniy imkoniyatlari, insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati haqida, salomatlikka xavf soluvchi texnologik omillarning ta’siri, aholining sanitariya va gigiyena me’yoriy talablariga amal

qilish, salomatlikni tiklash usullarini o'rgatish shakllari haqidagi ta'limdi.

Vasiylik – 1) yaqinlari va qarindoshlarning qaramog'idan mahrum bo'lgan layoqatsiz fuqarolarning shaxsiy, mulkiy huquq va manfaatlarini muhofaza qilish shakli; 2) g'amxo'rlik, otalikka olish. Vasiylik sud tomonidan belgilanadi.

Vasiylik – ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlaridan biri; fuqarolarning mulkiy huquqi va manfaatlarini va shaxsni himoyalashning huquqiy shakli.

Vasiylik: a) ota-onasiz qolgan 15–18 yoshdagি voyaga yetmaganlar ustidan; b) o'z huquq va majburiyatlarini mustaqil amalga oshirolmaydigan, salomatligi yo'q voyaga etganlar ustidan; d) ichkilikbozlik yoki giyohvandlik natijasida sud tomonidan mehnatdan mahrum qilingan shaxslar ustidan belgilanadi. Vasiylikning turli shakllari ichida – internat uylar, ota-ona qaramog'idan ayrılgan bolalarga yordam ko'rsatish markazlari, boshqa oilalarga bolalarni joylashtirish va boshq.

Vijdon – axloqiy ong tushunchasi, o'zining ijtimoiy xulqi uchun axloqiy javobgarlik.

Ko'pincha ijtimoiy ishchilar o'z faoliyatida yomon xulqli mijozlarining vijdonini «uyg'otish»ga harakat qilishadi.

Gedonizm – (yunon tilida gedoni – huzur-halovat). Etika nazariyasidagi axloqiy talablarini asoslash tamoyili bo'lib, unga ko'ra, huzur-halovat keltiruvchi va azob-uqubatdan qutqazuvchi narsa yaxshilik deb, azob-uqubat keltiruvchi narsa esa yomonlik deb e'tirof etiladi.

Gumanizm – (lotincha – «Humanitas» – insoniylik, inson-parvarlik, inson haqida g'amxo'rlik) – insonni himoya qilish, uning huquqlariga kafillik berishni maqsad qilib olgan ta'lilot. Ushbu ma'noda gumanizm tushunchasi Sharq mutafakkirlarining ijodida ham o'z aksini topgan. Gumanizm zamonaviy jamiyat va davlatni tashkil qilishning tamal toshlaridan biri ekanligi umuminsoniy tamoyilga aylandi. Hozirgi davrda BMT, YUNESKO, EXHT kabi

nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘z faoliyatlarida gumanizm tamoyiliga tayanadilar va har bir xalqaro muammoni hal qilishda gumanizm talablariga rioya qilishni zaruriy shart deb biladilar: 1) keng ma’noda, inson qadr-qimmatini uning erkinligi, baxt, qobiliyatlarini rivojlantirish va ko’rsatishga bo‘lgan huquqini tan olishda asoslangan dunyoqarashlarining tarixiy o‘zgaruvchi tizimidir. Inson baxti ijtimoiy institutlarni baholash omili, birlilik,adolat, insoniylik printsiplari – odamlar o‘rtasidagi munosabatlar me’yori hisoblanadi; 2) tor ma’noda – Uyg‘onish davrining madaniy harakatlanish. Ijtimoiy ishning muhim printsiplaridan biri.

Ijtimoiy moslashuv – individ, qatlam, guruhning o‘zgaruvchan yoki o‘zgargan hayotning ijtimoiy sharoitlariga faol moslashtirish jarayoni va natijasi. Ijtimoiy moslashuvda ikki xil shakl mavjud: a) faol, ya’ni subyekt muhitga uni o‘zgartirish maqsadida ta’sir etishga intilsa (masalan, u o‘zlashtirish kerak bo‘lgan qadriyatlarning, o‘zaro ta’sir etish va faoliyat shaklining o‘zgarishi); b) passiv, ya’ni subyekt o‘sha ta’sir va o‘zgarishdagi jarayonga intilmasa. Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatli ko’rsatkichi bo‘lib mazkur muhitda individning yuqori ijtimoiy mavqeyi, bu muhit hamda uning eng muhim elementlari bilan ruhiy qoniqishi hisoblanadi (asosan, ish bilan, uning sharoit va mazmuni, mukofatlash, tashkilot bilan qoniqqanligi). Ijtimoiy moslashishning past ko’rsatkichlari bo‘lib subyektni boshqa ijtimoiy muhitga ko‘chirish (kadrlarning tez-tez al mashish, migratsiya, ajrimlar) hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatliligi muhit va subyektning tavsifiga bog‘liqdir. Bunda ijtimoiy moslashuv inson turmushining biologik, psixologik, sotsial sohalarini qamrab oladi. Ijtimoiy moslashuv tushunchasining umumiy maqomi aniq ilmiy sohalar uchun invariant bo‘lgani bois unga juda keng ta’rif berish zarurati sezilmoqda. Ijtimoiy moslashuv tashqi va ichki muhit ta’sirini in’ikos etuvchi tizimlarning alohida turi bo‘lib, ular bilan dinamik muvozanat o‘rnatuvchi tendentsyaga qaratilgan. Bu

muvozanat tizimlarni, ularning tashqi muhit bilan va o'sha tizimlar rivojida, uyg'un munosabatini ta'minlaydi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi – 1948-yil 10-dekabrda BMT ning Bosh Assambleyasida qabul va e'lon qilingan. Bu masalani bajarishga, irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqali yoki boshqa holatidan qat'iy nazar barcha uchun asosiy ozodlik va inson huquqlariga bo'lgan hurmatni oshirish.

Bunday huquqlar sifatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi quyidagilarni shakllantirdi: yashash huquqi, ozodlik va shaxsiy daxlsizlik; qullikdan va erksizlik holatidan ozodlik; qynoqdan yoki shafqatsiz, sha'nini pasaytiruvchi muomala yoki jazolashdan ozodlik; ixtiyoriy qamoqqa olish, tutib olish yoki surgundan ozod qilish; mustaqil va xolis sud tomonidanadolatli va oshkora ishni ko'rib chiqish huquqi; shaxsiy va oilaviy hayotga ixtiyoriy aralashishdan, uy-joy va korrespondensianing dahlsizligiga ixtiyoriy tajovuzdan ozodlik; ko'chish; yashash joyini tanlash erkinligi; fuqarolikka huquq; nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka ega bo'lish huquqi; fikrlash, vijdon va din erkinligi; e'tiqod va uni ifodalash huquqini; tinchlik yig'inlari va assotsiatsiyalar erkinligi huquqi; davlatni boshqarishda ishtirok etish va davlat xizmatiga teng kirishish huquqi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, ijtimoiy ta'minot huquqi, mehnat, dam olish va bo'sh vaqt huquqi, turmush darajasi huquqi, ta'lim olish huquqi, jamiyatning madaniy hayotida ishtirok etish huquqi kabi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar ham bayon qilingan.

Shu bilan birga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir odamning jamiyat oldidagi majburiyati, boshqa odamlarning huquq va erkinliklarini, demokratik jamiyat printsiplarini tan olish va hurmat qilish burchlari kiritilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi printsiplari asosida BMT bir qator hujjatlarni qabul qildi, bu uni imzolagan davlatlar uchun majburiy xususiyat ega edi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va uning asosida qabul qilingan hujjatlar ijtimoiy siyosatni yanada samarali amalgamoshirish, odamlarni ijtimoiy himoyalash vazifasini yechishga qo'maklashuvchi muhim yuridik, siyosiy va axloqiy omil hisoblanadi.

Interiorizatsiya – sotsial me'yor va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir.

Ijtimoiy ishchilar assotsiatsiyasi (Rossiya) – ijtimoiy ish sohasida mutaxassislarni birlashtirish. Rossiyada ijtimoiy ishchilar assotsiatsiyasi bir nechta: ijtimoiy xizmat ishchilarining mintaqaviy assotsiatsiyasi (1991-yil tuzilgan); ijtimoiy ishchilar Assotsiatsiyasi (1992); ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy xodimlar Assotsiatsiyasi (1990); ijtimoiy ish maktablari va oliy o'quv yurtlari jamoalarining Assotsiatsiyasi (1993); ular ijtimoiy xodimlarining Xalqaro federatsiyasi faoliyatida va boshqa xalqaro tashkilotlarda ishtirok etadilar, turli davlatlarning milliy assotsiatsiyalari bilan hamkorlik qiladilar.

Ijtimoiy gerontologiya – keksa odamlarning hayot tarzini sotsiologik o'rganish, ularning nafaqaga chiqishi tufayli yangi sharoitga moslashish usullarini, ularning ijtimoiy mavqeyi, obro'si, moddiy, oilaviy ahvolidagi, ijtimoiy roolidagi o'zgarishlarga moslashishni o'rganuvchi soha.

Ijtimoiy o'zaro ta'sir – ijtimoiy faoliyat yordamida turli soha, hodisa va jarayonlarning, shaxs yoki jamiyatning o'zaro ta'siri. Tashqi va ichki o'zaro ta'sir bo'ladi. Agar ijtimoiy ishni tizim kabi o'rganilsa, uning tarkibiy elementlari o'rtaсидаги o'zaro ta'sir ichki hisoblanadi, uning boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'siri – tashqi bo'ladi.

Ijtimoiy guruh – aniq o'rinni egallovchi va ijtimoiy ishlab chiqarishda o'ziga tegishli bo'lgan rolni bajaruvchi odamlarning mustahkam guruhi. Bu sinflar, intellegensiya, xizmatchilar, aqliy va

jismoniy mehnat odamlari, shahar va qishloq aholisi. Ijtimoiy guruh o‘rtasidagi farq avvalambor iqtisodiyot, siyosat, maorif, daromadlar, turmush sharoiti sohalarida o‘z o‘rniga ega.

Ijtimoiy davlat – keng ijtimoiy asosga tayanuvchi va aholining turmush darajasini oshirish yoki barqaror ta‘minlashga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalash va amalga oshirishga, ta‘lim va ijtimoiy himoyaning zamonaviy tizimini yaratishga, aholining kam ta‘minlangan qatlarni qo‘llab-quvatlashga, ijtimoiy nizolarni bartaraf etish va uni muvaffaqiyatli hal qilishga va boshqalarga qaratilgan faol va kuchli ijtimoiy siyosatni olib boruvchi demokratik davlat. Ushbu atama birinchi marta Germaniya Federativ Respublikasining birinchi Konstitutsiyasida ishlatilgan. Ijtimoiy davlat tushunchasi «umumiy faravonlik davlati» tushunchasining sinonimi sifatida ifodalaniladi.

Ijtimoiy kafolatlar – hozirgi hamjamiyatda, alohida davlatda inson huquqlarining amalga oshishini ta‘minlovchi moddiy va ma‘naviy vositalar, yuridik aktlardir. Ijtimoiy kafolatlar avvalambor, insonning yashash, shaxsiy xavfsizlik, mulkka va uning qonun tomonidan himoyalanganligi, erkin fikrlash, vijdon erkinligi huquqiga asoslanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida ijtimoiy kafolatlar aholining barcha toifasi uchun ijtimoiy-kafolatlangan minimumni asoslash yo‘nalishida, fuqarolarning alohida guruqlariga imkoniyat va imtiyozlarni asoslash yo‘nalishida o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Iroda – insonning ongli qo‘yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklar, ziddiyatlar va nizolarni faol engishda ifodalashuvchi faoliyat va xulqni mustaqil boshqarish qobiliyati. Iroda insonning individuallagini ifodalaydi, o‘zini tasdiqlash, o‘zini ifodalashga xizmat qiladi. Iroda shaxsning hayotida bir qator vazifalarni bajaradi: shaxsni maqsadga maqsadga qaratilgan harakati va qilmishlarni sodir etganda ruhiy va jismoniy qiyinchilik va to‘siqlarni yengishda ongli munosabat; muhim, lekin qiyin erishiladigan

maqsadlarga erishishda namoyon bo‘ladigan noinsoniy xulqni barqarorlashtirish; shaxsning faolligini ta’minlash.

Iroda shaxsning maqsadga intilishi, qat’iyatliligi, sabrlilik kabi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi.

Irodaning ko‘rsatilgan funksiyalari va xususiyatlari ijtimoiy ish xizmat xodimlari faoliyatida nafaqat ijtimoiy muammolarni bevosita hal qilishda, balki mijozlarni qiyinchilik va ziddiyatli holatni yengishga, murakkab hayot vaziyatlaridan mustaqil chiqish yo‘llarini topishda juda muhimdir.

Ijtimoiy harakat – insonning ongli harakati, uning ehtiyojlari asosida kelib chiqadi, u boshqa odamning, boshqa odamlarning harakatlari bilan bog‘liq, ularning hulqiga qaratilgan, ularga ta’sir etadi va o‘z navbatida boshqalar xulqining ta’sirini boshidan o‘tkazadi. Ijtimoiy harakat haqidagi ta’limga M.Veber katta hissa qo‘shdi. U zamonaviy sotsiologiyada keng rivoj topdi (femenenologiya, funksionalizm va boshqa yo‘nalishlar). Ijtimoiy harakat o‘z ichiga: subyekt, muhit yoki «vaziyatni»; subyektning muhit sharoitiga, «vaziyatga» qaratilishini; subyektning boshqalarga (boshqa narsalarga) qaratilishini o‘z ichiga oladi.

Insonparvarlik – insoniylik, insonlarga, ularning sha’niga xayrixohlik munosabati.

Ijtimoiy diagnostika – insoniyat jamiyatining holati va rivojlanish g‘oyalarini qidiruv-aniqlov orqali aloqa munosabatlarini topish va o‘rganish uchun ijtimoiy hodisalarni tekshirish jarayoni. Ijtimoiy diagnostika jamiyat taraqqiyotini o‘rganishda nazariy xulosalar chiqaradi va amaliy tavsiyalar beradi. Tegishli boshqaruv tizimi tomonidan jamiyatdagi real resurslar va imkoniyatlarni hisobga olib jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy ishda ijtimoiy diagnostika – shaxs, qatlam, guruh hulqining ijtimoiy sabablarini, ularning holatlarini (moddiy, ruhiy va ma’naviy) o‘rganish, ular bilan ishlashning shakli va uslublarini aniqlashtiradi.

Imitatsiya – (taqlid qilish) bilimlar va tajribani egallab olishning muhim usuli hisoblanadi. Imitatsiya instinct bolani o‘z atrofidagi barcha odamlarning barcha xatti-harakatlarni qaytarishga majbur qiladi. Bola faqat 7 yoshga to‘lgandan keyin o‘z axloqiy asoslarini shakllantiradi va atrofdagi odamlarning xulq-atvori va qilmishiga baho berishi mumkin. Shu sababli bolani sevadigan va unga yaxshilik tilaydigan katta yoshdagilar o‘zlarining axloqsiz xatti-harakatlari bilan bolaga namuna bo‘lmaslik uchun o‘zlarining har bir qadamini qat’iy nazorat qilishlari zarur.

Imidj – (inglizcha – image – qiyofa, tanishtirish). Subyektni tashqi qiyofasini ma’lum bir maqsad asosida o‘zgalarning taassurotlarida, fikrlarida va munosabatlarida qiyofa hosil qilish.

Ijtimoiy manfaat – individ, ijtimoiy guruh va jamiyatning tan olingan ehtiyoj, harakat sababi. Ijtimoiy manfaat avvalambor, ehtiyoj ahamiyatini va ularni qoniqtirish usullarini tushunishdir. Ijtimoiy manfaat maqsadga qaratilgan faoliyat shakli kabitdir. Ijtimoiy manfaatni shakllantirish jarayonida uning obyektlari, uning subyekt uchun nisbiy qadriyati ko‘rsatiladi. Obyekt turldaridan qat’i nazar ijtimoiy manfaat u yoki bu yo‘nalishga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy manfaat tasnifi turli asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- ahamiyatiga ko‘ra bevosita va asoslangan;
- yo‘nalishga ko‘ra iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va shaxsan ijtimoiy manfaat;

d) tan olinish darajasiga ko‘ra – tabiiy va dasturli;

e) amalga oshish imkoniyatiga ko‘ra – real va hayoliy;

f) umumiylilik darajasiga ko‘ra – individual, guruhli va umumiy.

Turli ijtimoiy manfaatlar qarama-qarshi o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.

Mijozlar, qatlamlar, guruhlarning ijtimoiy manfaati mohiyatini ularni ta’minlashni o‘z faoliyatida ijtimoiy xizmat kabi har bir ijtimoiy xodim hisobga olishi kerak.

Ijtimoiy infratuzilma – jamiyatda inson hayoti shariotini ta’minlovchi moddiy-ashyoviy elementlar – sanoat, siyosiy va ma’naviy sohada, oila va turmushda; fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash,

savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, uy-joy kommunal xo‘jaligi, transport, aloqa kabi tarmoqlar yig‘indisi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi – inson qanday yashayotgani, qay darajada u ijtimoiy himoyalanganining muhim ko‘rsatkichidir.

Ijtimoiy maslahat – inson yoki kichik guruhga ularni ijtimoiylashtirish, ularning ijtimoiy funksiyasini tiklash va optimallashtirish, muloqotning ijtimoiy me’yorlarini ishlab chiqish maqsadida psixologik ta’sir etish yo‘li bilan ijtimoiy yordam ko‘rsatishning maxsus shakli. Ijtimoiy maslahatning quyidagi yo‘nalishlari mavjud: tibbiy-ijtimoiy, ruhiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, ijtimoiy-boshqaruv, ijtimoiy-innovatsion va boshqa ijtimoiy maslahat tashkiloti o‘z ichiga ijtimoiy maslahat berish va maxsuslashgan xizmatlarning mintaqaviy markazlarini oladi (oilaviy maslahat, er-xotin maslahati, psixologik yordam va maslahat berish, ishonch telefonlari xizmati, tibbiy muassasalar va jamoat tashkilotlarida ijtimoiy maslahat xizmati).

Ijtimoiy ishda menejment – ijtimoiy ish sohasida amalga oshiriladigan boshqaruv, u odamlarga, ayniqsa zaif qatlam, guruhlarga yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash, himoyalashga yo‘naltirilgan. Ijtimoiy menejmentda boshqaruv obyektlari – ijtimoiy ishchilar, xodimlar, aholini ijtimoiy himoyalash jarayonida odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning barcha tizimidir. Boshqaruv subyektlari bo‘lib ijtimoiy xizmat boshliqlari va ular tomonidan shakllanadigan boshqaruv organlari hisoblanadi.

Ijtimoiy ishni boshqarish jarayoni ma’lum tashkiliy tuzilmani nazarda tutadi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi ijtimoiy ishda boshqaruv darajasi va bo‘g‘inlarning kam soniga ega bo‘lishi kerak, funksiyalarning aniq taqsimlanishini, mustahkamlik, uzluksizlik, tezkorlikni ta’minlashi kerak.

Ijtimoiy mikromuhit – kichik guruhlar, aloqada bo‘lувчи jamoa va tashkilotlarning yig‘indisi, unga ijtimoiy muloqot va faoliyat jarayonida shaxs kiritiladi.

Mijozning mikromuhitini bilish – muvaffaqiyatli ijtimoiy faoliyatning muhim omilidir.

Ijtimoiy sabab – ehtiyojlarni sezganda yuzaga keladigan, faoliyatga undovchi shaxsning xususiyati hisoblanadi. Ijtimoiy ishchilararning amaliy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ish ko‘nikmaları – ijtimoiy ishchi quyidagilarni bilish shart: a) hamsuhbatini e’tibor bilan tinglashni; b) mijozning ijtimoiy tarixini tuzish va uning vaziyatini baholash uchun tegishli dalillarni tanlash va ma’lumotlarni ko‘rsatish; d) mijozlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha mahoratlari o‘zaro munosabatni yaratish va qo‘llab-quvvatlash; e) imzoli va imzosiz xulqni kuzatish va izohlash va shaxs nazariyasi bilimlarini va diagnostika usullarini qo‘llash; f) mijozlarni ularning muammolarini hal qilishga jalb etish va o‘zaro ishonchga erishish; g) mijoz uchun murakkab mavzularni ishonchli muhokama qilish; h) mijoz ehtiyojlarini ta’minlash uchun innovatsion yechimlarni topish; i) tekshiruvlarni o‘tkazish yoki ularning natijalarini sharhlash, kasbga tegishli adabiyotlarni tahlil qilish; j) tortishayotgan tomonlar o‘rtasida muzokara rahbari va vositachi rolida chiqish; k) tashkilotlar o‘rtasida aloqalarni amalga oshirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish; l) mavjud ehtiyojlar haqida moliyalashtirish manbalariga, jamoatchilikka, qonun chiqaruvchilarga ma’lumotni yetkazish.

Ijtimoiy ishchining kerakli qobiliyatlariga aniq gapirish va yozishni bilish, boshqalarni o‘rgatish, inqiroz vaqtida qo‘llab-quvvatlash, kasb munosabatlarida rolli xulqning modeli bo‘lib xizmat qilishni, murakkab ruhiy holatlarni izohlashni, boshqa odamlarga yordam ko‘rsatish uchun kerakli manbalarga yo‘l topa olishni, o‘z faoliyatini tanqidiy baholashni bilish kiradi.

Ijtimoiy kayfiyat – ijtimoiy va boshqa guruhlarning hissiyoti va aqlining ma’lum holatida ifodalanuvchi ijtimoiy-psixologik ko‘rinish. Emotsional jo‘sinqinlik darajasi va tegishli predmetli yo‘nalish bilan aniqlanadi.

Ijtimoiy tajriba – insonning, jamiyatning, guruhning real hayotdan, amaliy faoliyatdan, ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonidan o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikmalar yig‘indisi.

Ijtimoiy holat – ijtimoiy-sinfiy munosabatlар tizimida, jamiyatning ijtimoiy tuzilishida inson egallaydigan joy; shaxsning ongli maqsadi, dunyoqarashli, axloqiy shart-sharoiti. Ijtimoiy ishning yutug‘i ko‘p jihatdan odamlarning ijtimoiy holati qanchalik hisobga olinishiga bog‘liq.

Inson huquqlari – o‘z xohishiga ko‘ra individga amal qilish imkonini beruvchi, odamlar va davlat o‘rtasida o‘zaro munosabat printsiplari, me’yorlari. Inson huquqlari keng va tor ma’noda bo‘ladi. Tor ma’noda inson huquqlari deganda taqdim etilmaydigan, balki davlat tomonidan muhofaza qilinadigan va kafolatlanuvchi huquqlargina tushuniladi. U har bir insonga tug‘ilgandan tegishlidir va ularning konstitutsion – huquqiy birikishlari va davlat chegaralaridan qat’i nazar amal qiladi. Bu yashash huquqi, jismoniy dahlsizlik, inson sha’nini hurmat qilish, vijdon erkinligi va boshqalaridir. Keng ma’noda inson huquqlari deganda shaxsning barcha huquq va erkinliklari, ularning turlari tushuniladi. Inson huquqlari salbiy (individ erkinligini muhofaza qiladi va davlatlar, boshqa fuqarolarning shaxs uchun salbiy huquq va harakatlardan tayinlash majburiyatini aniqlaydi) va pozitivga bo‘linadi (davlatning fuqaroga mehnat, dam olish, ta’lim, tibbiy xizmat huquqiy berish majburiyatini belgilaydi). Inson huquqlari klassifikatsiyasi yanada aniq bo‘lishi mumkin: a) alohida erkinlikni kafolotlovchi (shaxsiy); b) davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning faol ishtirokini aniqlovchi siyosiy; d) ishchi kuchiga erkin egalik qilish, mulkchilik, tadbirkorlik huquqini ko‘rib chiquvchi iqtisodiy; e) insonga yaxshi turmush darajasini va ijtimoiy himoyalanganlikni ta’minlovchi ijtimoiy; f) shaxsning ma’naviy rivojlanishini kafolotlovchi madaniy.

Inson huquqlariga amal qilish – ijtimoiy xodimning muhim axloqiy va mahoratli vazifalaridan biridir.

Ijtimoiy huquq – odamlarni ijtimoiy himoyalash me’yorlarini bo‘ysinliruvchi huquq bo‘g‘inidir; «Ijtimoiy ish» mutaxassisligi fani, talabalarga oila, mehnat, uy-joy qonunchiligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, voyaga yetmaganlar, nafaqadagilar, nogironlar huquqi, ularni ijtimoiy himoyalash haqidagi; vasiylik, asrab olish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, maxsus o‘quv yurtlariga yuborish, odamlarni himoyalashning boshqa muammolari to‘g‘risidagi bilimlarni beradi.

Ijtimoiy ish amaliyoti – inson, tabaqa, guruhga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish uchun ijtimoiy ish bilimlari va ko‘nikmalarini qo‘llash. Ijtimoiy ish amaliyoti o‘z ichiga ijtimoiy yordam, ijtimoiy terapiya, ijtimoiy reabilitatsiya, sug‘urta, vasiylik, vositachilikni oladi.

Ijtimoiy imtiyoz – alohida shaxslar, guruhlar, sinflar, muassasalarning huquq va imkoniyatlari. Quldarlik va feodalizm tuzumida ijtimoiy imtiyoz yuqori tabaqali kishilar uchun yuridik va siyosiy jihatdan qonuniylashtirilgan. Biroq tabaqali imtiyozni bekor qilinishi ijtimoiy imtiyozni yo‘q qilmaydi. Ijtimoiy imtiyozning saqlanishi odamlarning «boshlang‘ich imkoniyatlari»ni farqlash bilan bog‘liq.

Ijtimoiy afzalliklar – jamiyat tomonidan birinchi galdagi yechimlarni talab qiluvchi eng majburiy ijtimoiy vazifalar. Ijtimoiy afzalliklarni bir xil tushunishga ijtimoiy vazifalarni samarali hal qilishga bog‘liqdir.

Ijtimoiy dastur – ijtimoiy loyiha yoki rejani amalga oshirish uchun kerakli tadbirlar yig‘indisi: aniq ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan harakatlarning mazmuni va oqibatini aniqlovchi hujjat.

Ijtimoiy psixologiya – odamlarning xulqi va faoliyati qonunlarini o‘rganuvchi psixologiya bo‘g‘inidir, ularning psixologik guruhlarga tegishliliqi bilan asoslangan. Ijtimoiy psixologiya psixologiya va sotsiologiya o‘rtasidagi bilimlar bo‘g‘ini hisoblanadi. psixologiya bilan bir qatorda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash va faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy psixologiyani bilish

individual va umumiy birlamchi va umumiy, psixologik va ijtimoiyning qarama-qarshiligini yengishga, ularning dialektik bog‘liqligini ko‘rishga imkon beradi.

Ijtimoiy reabilitatsiya – shaxsning, ijtimoiy institutning, ijtimoiy guruhning, ularning jamiyat hayoti sohasining subyekti kabi ijtimoiy rolining asosiy ijtimoiy funksiyalarini tiklash. Ijtimoiy reabilitatsiya reabilitatsiyaning barcha jabhalarini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy rivojlantirish xizmati – ishlab chiqarish va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlar, trestlar, korxona, vazirlik va idoralarning tizimli bo‘g‘inlari, ularning tarkibida sotsiologlar, psixologlar, ta’lim, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish mutaxassislari ishlaydi.

Ijtimoiy himoya – qonuniy biriktirilgan, fuqarolarning ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy kafolatlarini amalga oshirish bo‘yicha imtiyozlari va mexanizmlari tizimidir, ijtimoiy rivojlanish sharoitlariga muvofiq aholi hayotining ijtimoiy qulay darajasiga erishishga yordam beruvchi ijtimoiy himoyalanganlik darajasini ta’minalashga jalg qilingan ijtimoiy xizmat tizimidir.

Ijtimoiy himoya – bu inson huquq va erkinliklariga amal qilish va bajarishning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy kafolatidir. Ijtimoiy himoya fuqarolarga faravon hayot sifati va darajasini ta’minalaydi.

Ijtimoiy himoyalanganlik – fuqarolarning qonuniy biriktirilgan iqtisodiy, yuridik va ijtimoiy huquq va erkinliklari, ijtimoiy kafolatlarining yaxlit tizimidir.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – vaqtinchali og‘ir iqtisodiy ahvolda qolgan fuqarolarning ba‘zi toifasiga kerakli ma’lumotlarni moliyaviy mablag‘, kredit, ta’lim, imtiyozlar berish yo‘li bilan yordam ko‘rsatish bo‘yicha choralar tizimi.

Ijtimoiy siyosat – jamiyatning ijtimoiy sohasining rivojlanishini boshqarish bo‘yicha davlat va boshqa siyosiy institutlarning faoliyati. Sotsiologiya ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishiga yordam beradi.

Ijtimoiy yordam – turmush qiyinchiliklarini yengish va yengil-lashtirish, uning ijtimoiy mavqeyini qo'llab-quvvatlash uchun alohida shaxs yoki aholi guruhlariga ijtimoiy xizmat tomonidan ko'maklashish, yordam berish, xizmat ko'rsatish kabi ijtimoiy choralar tizimi.

Ijtimoiy psixoterapiya – salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va dalillar haqidagi psixologik tasavvurlarga ta'sir etish usullarining tizimi. Bu tamoyilga muvofiq har qanday «yomon xulq» turli sabablarga asoslangan odam ruhiyatidagi kamchiliklar bilan aniqlanadi. Yomon xulqning barcha shakllarini tuzatishning usuli bo'lib psixofarmakologik vositalar, gipnoz, elektroshok, majburiy izolyatsiya, neyroxiturgiyani qo'llash hisoblanadi.

Ijtimoiy ish faoliyati – turli guruhli aholining ijtimoiy kafolangan va shaxsiy manfaat va ehtiyojlarini qoniqtirishga qaratilgan professional faoliyat turidir.

Ijtimoiy soha – inson jamiyatining hayot faoliyati sohasi, unda ijtimoiy davlat siyosati moddiy va ma'naviy boyliklarni taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy soha ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy munosabatlar, jamiyat va shaxs aloqalari tizimini qamrab oladi. Unga shunnigdek ijtimoiy va boshqa guruhlarning yashash omillari kiradi. Ijtimoiy soha inson hayotining barcha makonini qamrab oladi. Ijtimoiy soha mazmuni bo'lib ijtimoiy va boshqa guruhlar, individlar o'rtasida ularning joylashishi, jamiyatdagi o'rni va roli, turmush tarziga ko'ra munosabatlari hisoblanadi.

Ijtimoiy qonunchilik – yollanma ishchilarining ahvolini tartibga soluvchi, shuningdek odamlarning ijtimoiy himoyalash va ta'minlash masalalarini ko'rib chiquvchi huquqiy me'yorlardir.

Ijtimoiy ta'minot – qariyalar, mehnatga layoqatsiz, shuningdek bolali oilalarga yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish davlat tizimi. Ijtimoiy ta'minot aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish – muhtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha choralar kompleksi, u hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy sog'lijni saqlashga, inqirozni yengishga, o'z-o'zini ta'minlash va o'zaro yordamni rivojlantirishga imkon beradi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish aholining ijtimoiy xavfsizligi tizimining bir qismi hisoblanadi va ijtimoiy xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagog – bolalar va ota-onalar bilan, oila-turmush muhitida katta yoshdagi aholi bilan, o'smirlar va yosh guruhlar va birlashmalar bilan ishlashga mutaxassislashgan ijtimoiy soha xodimi. Ijtimoiy pedagog bolalar va yoshlarni sotsiallashuv jary-yonini ijtimoiy-qo'llab-quvvatlashga, oilaga, turli tarbiyalash muassasalariga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishga, o'smirlarga ularning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida yordam ko'rsatish, ularning huquqlarini himoya qilishga jaib qilingan. Ijtimoiy pedagogning quyidagi mutaxassisligi bor: madaniy – dam olish faoliyatining tashkilotchisi, yashash joyida jismoniy-sog'lomashtirish ishlarining tashkilotchisi.

Ijtimoiy ishchi – inson, oila yoki guruh tomonidan ularda yuzaga kelgan muammolarni yengishda ijtimoiy yordamning barcha turlarini o'zining kasbidan kelib chiqib xizmat ko'rsatuvchi kishi.

Ijtimoiy hamkorlik – yollanma mehnat shaxslari, ish beruvchilar va davlatning kelishilgan harakatlari va holatlarining umumiyligi bilan belgilanuvchi mehnat munosabatlari. Ularni odatda jamoa shartnomalarini tuzishda kasaba uyushmalari, tadbirdorlar tashkilotlari, ma'muriyat vakillari muzokaralarda namoyish etadilar. Ijtimoiy hamkorlikning asosiy printsiplari – o'zaro talab va javobgarlikni hisobga olish, bir-birining manfaatlariga hurmatli munosabat, muzokara davrida nizoli vaziyatlarni va tortishuvlarni hal qilish, tuzilgan shartnomalarga kelgusida amalga oshirilishi.

Ijtimoiy hamkorlik – ishchi, xizmatchilar, oila a'zolarining ijtimoiy himoyalanishining muhim omilidir.

Ijtimoiy rivojlanish – 1) keng ma'noda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlar umumiyligidir; 2) tor ma'noda ijtimoiy sohaning, ijtimoiy munsoabatlarning rivojlanishi.

Ijtimoiy rivojlanish – ijtimoiy muhit, ijtimoiy hayotda yoki ijtimoiy munosabatlarda, ijtimoiy institatlarda, ijtimoiy guruhli va ijtimoiy tashkiliy tuzilishlarda muhim sifatli va miqdorli o'zgarishlar sodir bo'ladigan jarayondir. Ijtimoiy hodisadagi har qanday o'zgarish ham ularning rivojlanishini ko'rsatmaydi. Ijtimoiy rivojlanishning asosiy shaklari: evolyutsiya, ya'ni ma'lum ijtimoiy tizimning eski elementlarining muntazam yo'qolishi va ularning yangi elementlar bilan almashtirilishi; barcha eskirgan tizim elementlarining bir vaqtning o'zida buzilishi va yangi elementlar bilan almashishi – ijtimoiy inqilob, inqilobiyligilik.

Ijtimoiy rivojlanish – odamlarning samarali himoyasini asoslovchi muhim omil.

Ijtimoiy farqlar – mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy har xilligida, ijtimoiy faollikning, madaniyat, ta'lim, malaka, mehnat va turmush sharoiti, ijtimoiy sinflarning turmush tarzining har xil rivojlanishida asoslanuvchi sinflar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasidagi tarixiy farq. Ijtimoiy farqning yuqori yoki past darajasi aholining u yoki bu guruhi yoki tabaqasining ijtimoiy himoyalanganlik muammolarini hal qilishga ta'sir etadi.

Ijtimoiy xizmatlar – og'ir vaziyatni yengish yoki yengillashtirish maqsadida aholiga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko'rsatuvchi, aholiga xizmat ko'ratish bo'yicha ijtimoiy ishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat boshqaruv organlari, maxsus muassasalarning umumiyligi. Ijtimoiy xizmat tizimi, nodavlat va munitsipal (mahalliy) xizmatni o'z ichiga oladi. Davlat ijtimoiy xizmatiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish boshqarmasi, muassasa va tashkilotlar kiradi, ularning vazifasi aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishdir. Nodavlat ijtimoiy xizmatga – ijtimoiy, xayriya, diniy va boshqa tashkilotlar, alohida shaxslar tomonidan yaratiladigan ijtimoiy xizmat muassasalari va korxonalarini kiradi. Munitsipal ijti-

moiy xizmatga – mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari ixtiyoridagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari va korxonalarini kiradi.

Ijtimoiy ish mutaxassislari – kasbga oid funksiyalarni samarali bajarishga imkon beruvchi yuqori umum madaniy, intellektual va axloqiy salohiyat, kasbiy tayyorgarlik va kerakli shaxsiy sifatlarga ega ijtimoiy xizmat ishchilari. Ijtimoiy ish mutaxassisini ijtimoiy guruh, oila va alohida odamning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik^{*} hayot sharoitini o‘rganadi va ijtimoiy himoyalash, qo‘llab-quvvatlash reabilitatsiya va boshqa usullarni qo‘llaydi, shuningdek turli ijtimoiy texnologiyalarni ham.

Ijtimoiy adolat – odamlar o‘rtasidagi asoslangan tenglik va saqlanuvchi tengsizlik munosabati. Ijtimoiy adolat – bu oilaviy ahvoli, sog‘ligidan qat’i nazar odamlarning ijtimoiy minimal ehtiyojlarini qoniqtirish. Ijtimoiy adolat shunda namoyon bo‘ladiki, har qanday taraqqiy etgan jamiyatda hokimiyat har bir oila, har bir insonga eng muhim moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qoniqtirish ehtiyojini beruvchi minimal daromadni ta’minlashga, «iste’molchilik savati» ning amalga oshishini nazorat qilishga harakat qiladi. Ularni amalga oshira olmasligi aholi sonining kamayishiga, o‘lim darajasining oshishiga – kataklizmaga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy adolat darajasi jamiyatning rivojlanish darajasi bilan asoslangan. Hozirgi vaqtda islohotlarni amalga oshirish sharoitida asosiy muammo ijtimoiy adolatni mustahkamlash, iqtisodiy mehnat samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy muhit – insonni qurshab turgan ijtimoiy, moddiy, ma’naviy sharoitlar. Ijtimoiy muhit keng ma’noda (makro muhit) ijtimoiy-siyosiy muhitni qamraydi. Ijtimoiy muhit tor ma’noda ijtimoiy muhit elementi kabi insonni bevosita qamrab olishni o‘z ichiga oladi (oila, mehnat jamoasi, turli guruhlari). Ijtimoiy muhit shaxsnинг shakllanishi va rivojlanishiga qatta ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy muhitni tahlil qilishda qator falsafiy tizimlarda moddiy va iqtisodiy omillarga asosiy e’tibor qaratib kelingan. Madaniy va ma’naviy omillarga yetarli ahamiyat berilmagan.

Ijtimoiy qoniqqanlik – individ ongida uning o‘z ijtimoiy hayotining sharoitlarini qabul qilish va baholash majmuyi: qoniqish holati, burch, talablarni bajarganda, ehtiyojlarning amalga oshishida orzularining ijobat bo‘lishida inson his etadigan holat. Ijtimoiy qoniqqanlik oliy va quyi diapazonda o‘lchanadi.

Ijtimoiy ko‘rsatma – subyektning ijtimoiy obyektga qimmatli munsoabati. Ijtimoiy xizmat mijozlari bilan ishlashga ijobiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqish – sotsionomlarning muvaffaqiyatli kasb faoliyatlarining uzlusiz shartidir.

Ijtimoiy dalil – tadqiqotchilar yoki boshqa subyektlarning tekshirishlaridan qat’iy nazar ma’lum vaqt va ma’lum sharoitda o‘z o‘rniga ega voqealar, ijtimoiy dalil sifatida odamlar, ijtimoiy va boshqa guruhlar xulqining tavsifi harakati, qilmishlari, inson faoliyatining moddiy va ma’naviy mazmuni, odamlarning fikri, qarashlari, baholashlari, ularning o‘zarobog‘liqligi qaratildi.

Ijtimoiy omil – biror-bir ijtimoiy hodisaning sababi, harakatlanuvchi kuchi, uning xarakter va alohida xususiyatlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy maqsadlar – individ, guruh, sinflar, jamiyat qadriyati, ularning faoliyati, ularning erishilishiga qaratilgan.

Ko‘nikma – bir harakatni ongli bir necha bor takrorlash natijasida avtomatizmgacha yetkazilgan maqsadli harakatlarni bajara bilish, amaliy yoki o‘quv faoliyatida masalalarni yecha bilish.

Konvensiya – shartnoma, kelishuv. Maxsus masalalar bo‘yicha kelishuv, shartnoma.

Ma’naviyat – (arab. «ma’naviyat» – ma’nolar majmuyi) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy, tasavvurlari va tushunchalari majmuyi. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadi.

Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi. Manfaat faoliyatni keltirib chiqaribgina qolmay, uning yo‘nalishi, vosita va shakllari, maqsadini ham belgilab beradi.

Manfaatlar shakllanishi ularni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq tarzda, vujudga kelishini ko‘rsatadi. Shuni e’tiborga

olib, ehtiyoj yo‘q joyda manfaat yo‘q ham bo‘lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun manfaatlarni atrof-muhiddagi narsa va hodisalarning subyekt ehtiyojlariga mosligi, deyish mumkin. Subyekt o‘z manfaatlarni qanchalik chuqr anglasa, ularni ro‘yobga chiqarish uchun shunchalik qulay imkoniyat tug‘iladi. Manfaatlarni chuqr anglab yetmaslik, shaxs yoki guruhning o‘z manfaatlariiga zid faoliyat yuritishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Manfaatlarni anglash darajasi esa shaxs va ijtimoiy guruhning ma’naviy taraqqiyoti darajasiga bog‘liqdir.

Muloqot – o‘ziga xos odamlarning o‘zaro faoliyati, ijtimoiy haqiqatni aks ettirish asosida amalga oshiriladi. Muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lmasdan va nazariyani bilmasdan ijtimoiy ish faoliyatini olib borib bo‘lmaydi.

Maqsad – rejalashtiriladigan natija. Maqsad mazmuni haqiqatning obyektiv qonunlariga, subyektning real imkoniyatlariga va qo‘llaniladigan vositalarga bog‘liq. Turli maqsadlarni ajratish mumkin: konkret va abstrakt, strategik va taktik, individual, guruhli va ijtimoiy.

Nogiron – jismoniy yoki axloqiy qobiliyatining yetishmasligi sababli me’yorl shaxsiy yoki ijtimoiy hayot ehtiyojlarini mustaqil ta’minlay olmaganda insonning holati.

Nafaqa – Konstitutsiyada kafolatlangan, fuqarolarni moddiy ta’minlash shakli, masalan, vaqtinchalik mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmasganda tayinlanadi.

Oilaviy terapiya – oila munosabatlarini me’yorlashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat sohasi. Individning o‘ziga mo‘ljallangan terapiyadan farqli oilaviy terapiya butun oila bilan o’tkaziladi, uning yordamida alohida kishining emas, balki barcha oilaning muammolari hal qilinadi.

Oila terapiyasi bir qator fanlarning yutug‘ida asoslanadi (oila sotsiologiyasi, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika va boshq.). Avval oila terapiyasi hech bir ilmiy fanga bog‘lanmaydi

deb izohlangan, hozirda esa uni ma'lum darajada ijtimoiy ishga bog'lash mumkin.

Oilaviy maslahat – oila va uning a'zolariga psixologik ta'sir etishdir, uning maqsadi – uning faoliyat yuritishini tiklash va muvofiqlashtirish, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oila va uning a'zolarini rivojlantirish uchun oila ichidagi maqbul sharoitlarni yaratish.

Patronaj – ijtimoiy xizmat ko'rsatish turi, asosan uyda, alohida mijozlarga va «risk» gurnhlariga, u doimiy ijtimoiy nazorat ostida, ijtimoiy ishchilarning ularning uylariga tashrifidan, ularga kerakli iqtisodiy, moddiy-maishiy, davolov-profilaktik yordam ko'rsatishdan iborat.

Professional moslashuv – insonning kasb talablariga o'rganishi, moslashishi, kasbga oid funksiyalarni bajarish uchun kerakli ishlab chiqarish – texnik va ijtimoiy xulq me'yorlarini o'zlashtirish. Professional – ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarishning sifatli va miqdorli darajasi, mehnat natijalarining sifatli va miqdorli ko'rsatkichlari, o'z kasbiga boy munosabatlarning shakllanganligi o'chanadi.

Professional axloq – kasb egalari uchun majburiy me'yorlar, axloqiy talablar tizimi.

Professional ijtimoiylashuv – yoshlarning bilim olishi bir yoki bir necha kasb bo'yicha mehnat ko'nikmalari va tajribalarini egallash.

Psixodrama – ommaviy terapiyani qabul qilish. Psixodrama ishtirokchilari turli ijtimoiy toliqish vaziyatida o'zini yoki o'z raqiblarini tasvirlab biror-bir rolni ijro etadi. Bu ularga o'zining ichki hissiyotlarini ko'rsatish imkonini, hayajonni yo'qotishga, murakkab vaziyatlarda o'zini tuta bilishni o'zini boshqalar o'mrida his etishni beradi. Psixodramada ishtirok etuvchi guruh a'zolari bir-biri bilan gaplashish imkoniga ega.

Reabilitatsiya – (tiklash) – bemorlar va nogironlarning mehnat qobiliyati va organizmlarining buzilgan funksiyalarini tiklash yoki

to'ldirishga qaratilgan tibbiy, yuridik va boshqa choralar majmuyi. Reabilitatsiya – ijtimoiy ishda asosiy yo'nalishlardan biridir.

Tolerantlik – sabr-toqtatlilik, chidamlilik, bag'rikenglik ma'nosini anglatadi.

O'zgalar (yakka shaxs, guruh, etnik va diniy jamoalar) turmush tarzi, xulqi, urf-odati, milliy-etnik tuyg'usi, fikrlari, mafkura, g'oya va e'tiqodiga bag'rikenglik doirasida xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ko'ngliga tegmaslik, ko'nglini og'ritmaslik.

O'zgalar tomonidan namoyon bo'lgan yoki bo'layotgan noqulay emotsiyal omillarga nisbatan ratsional (oqilona) munosabatda bo'lish, chidamlilik, bardoshlik namunasini ko'rsatish.

Faoliyatni rag'batlantirish – maqsadni shakllantirishda va ishlab chiqishda rag'batlarni shakllantirish va qo'llash. Rag'batlantirish mohiyati faoliyatga qiziqtirishdan iborat. Faoliyatni rag'batlantirish uchun moddiy va ma'naviy, obyektiv va subyektiv omillarning o'xshashi muhimdir. Ularga kiradi: a) tashqi obyektiv sharoitlar (real mavjud muhit); b) faoliyatga qiziqishni subyekt tomonidan o'zlashtirilishi; d) ishlab chiqarish faoliyatining natijasi kiradi. Ijtimoiy ishni rag'batlantirishda omillarning uchta guruhi ham katta rol o'ynaydi. Biroq ba'zi sharoitda ulardan bittasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Faoliyat – inson jamiyatni mavjudligining shakli, borlig'ini, tashqi dunyoni, insonning o'zini maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirishga qaratilgan insonning eng muhim xossalardan biri hisoblanadi. Faoliyat ongli xususiyatga ega bo'lib, u o'zida maqsad, vositalar, natija va jarayonni qamrab oladi. Faoliyat tamoyili antik davr mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan.

Filantropiya – xayriya, ijtimoiy himoyalanganlarga, kam ta'minlanganlarga yordam.

Sha'n – Ijtimoiy ish xodimining asosiy axloqiy tamoyillaridan biri. Inglizcha «honour» – (nomus) yuksak ma'naviy sifat. Izzat, hurmatli jamiyatni va ommani individual olqish olish turi.

Empatiya – individning boshqa odamlarning kechinmalariga emotsional fikr bildirish qobiliyati. Empatiya ijtimoiy xodimlar uchun mijozlar bilan ishlashda kerakli sifatdir.

Etika – 1) axloq; 2) axloq nazariysi, u yoki bu axloq tizimining, yaxshilik va yomonlik, adolat, burch, vijdon, baxt, hayot mazmunining u yoki bu tushunchasining ilmiy asoslanganligi.

Ijtimoiy ishchilarni tayyorlash va faoliyatida muhim ahamiyatga ega, ularning majburiyatiga insonning insonga, jamiyatga, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi axloqiy me’yorlarni bilish, ekologik va ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqishda ularni hisobga ola bilish kiradi.

Ehtiyoj – organizmning yashash faoliyatini, inson shaxsini, ijtimoiy va boshqa guruhlarni, jamiyatni qo‘llab-quvvatlash uchun kerakli biror narsaga zarurat; faollikning ichki undovchisidir. To‘g‘ri ehtiyoj manfaat kabitdir. Ehtiyoj: a) faoliyat sohasi bo‘yicha – mehnatga, o‘rganishga, muloqot va dam olishga ehtiyoj; b) obyekt bo‘yicha – moddiy va ma’naviy, axloqiy va boshq.; d) funksional roli bo‘yicha – ikkinchi darajali, markaziy periferik, mustahkam va vaziyatli; e) subyekt bo‘yicha – individual, guruhli, jamoali, ijtimoiy. Ehtiyoj mohiyati va uning turlarini tushunish – ijtimoiy xodimlarning muvaffaqiyatli faoliyatining muhim shartidir.

Homiylilik – inglizcha patronage (otaliq). Ijtimoiy ish faoliyatining shakli bo‘lib shartnoma asosida muttasil tarzda moddiy va ma’naviy jihatdan yordam berish.

IJTIMOIY ISH ETIKASI DARSLIGI BO‘YICHA ILOVALAR

Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi

Ushbu deklaratsiya BMT tomonidan 1948-yil 10-dekabrdan qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi ushbu deklaratsiyani 1991-yil sentabr oyida ratifikatsiya qilgan

Insoniyat oilasining barcha a’zolariga xos qadriyatlarni va ularning teng va tarkibiy huquqlarini tan olish ozodlik,adolat va yalpi tinchlikning asosi ekanligini e’tiborga olib va inson huquqlarini mensimaslik va undan nafratlanish insoniyat vijdonini g‘azablantirgan vahshiyliklarni sodir qilishga olib kelganligini, odamlar so‘z erkinligi va e’tiqodlariga ega bo‘ladigan hamda qo‘rquv va muhtojlikdan holi bo‘lib yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning intilishidir deb e’lon qilinganligini e’tiborga olib, va bunda insonning huquqlari qonun hukmronligi bilan qo‘riqlanishi zarurki, pirovardida inson, so‘nggi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko‘tarishga majbur bo‘lishini oldini olishni ta’minlashni e’tiborga olib, va xalqlar o’rtasidagi do’stona munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish zarurligini e’tiborga olib, va Birlashgan Millatlarning xalqlari Nizomida insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining qadr-qimmatiga va erkak va ayolning tengligiga ishonchlarini tasdiqlaganliklari va yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashishga kelishilganliklarini e’tiborga olib, va a’zo bo‘lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik qilishda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini o‘ta hurmat rioya qilish bobida harakat qilish majburiyatlarini olganliklarini e’tiborga olib, va mazkur huquq va erkinliklarning xususiyatlarini barcha tomonidan anglanishi mazkur majburiyatlarning to‘liq bajarilishi uchun katta ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olib, Bosh Assambleya inson huquqlarining mazkur umumiy Deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga

intilishi lozim bo‘lgan vazifa sifatida e’lon qilar ekan, toki har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutib ma’rifat va ta’lim yo‘li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishi, milliy va xalqaro taraqqiyat parvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta’minlanishiga, Tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar xalqlari o’rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o’rtasida yoppasiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

1-modda

Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan va ular bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabat qilishlari kerak.

2-modda

Har bir inson irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoxud boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy yohud tabaqaviy yoki boshqa sharoitidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklarga ega bo‘lishi shart.

Bundan tashqari, inson mansub bo‘lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, o‘z suverenitetida ushbu hudud mustaqilmi, vasiyimi, o‘zini boshqarolmaydими, yohud boshqacha tarzda cheklanganligidan qat’i nazar, biror bir farqlanish bo‘imasligi lozim.

3-modda

Har bir inson yashash, ozod bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir.

4-modda

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qullar bilan savdo qilishlik barcha ko‘rinishlarda ta’qilanganadi.

5-modda

Hech kim azoblarga yohud shafqatsiz, noinsoniy yoki o‘zining qadr-qimmatini xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.

6-modda

Har bir inson qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining huquqiy layoqati tan olinishiga haqlidir.

7-modda

Barcha odamlar qonun oldida tengdirlar va hech bir tafovutsiz qonunning teng himoyasiga haqlidirlar. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyani buzuvchi har qanday kamsitishdan va shunday kamsitilishga undaydigan har qanday g‘alamislikdan teng himoya qilinish huquqiga egadirlar.

8-modda

Har bir inson unga konstitutsiya yohud qonun bilan berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda vakolatli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishiga haqlidirlar.

9-modda

Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg‘in qilinishi mumkin emas.

10-modda

Har bir inson o‘z huquq va burchlarini belgilash va unga qo‘yilgan jinoiy ayblovning asoslantirilganligini aniqlashi uchun, to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va barcha adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega.

11-modda

1. Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson unga ochiq sud majlisida himoya uchun barcha imkoniyatlar ta’minlangan holda, uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

2. Hech kim, milliy qonunlar yoki xalqaro huquqqa ko‘ra sodir etilgan vaqtida jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jazoga nisbatan og‘irroq jazo berilishi mumkin emas.

12-modda

Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joy daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlariga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonuniy himoya qilinish huquqiga ega.

13-modda

1. Har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va o‘ziga yashash joyi tanlash huquqiga ega.

2. Har bir inson har qanday mamlakatdan, xususan o‘z mamlakatidan chiqib ketish va o‘z mamlakatiga qaytib kelish huquqiga ega.

14-modda

1. Har bir inson ta’qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshipana izlash va o‘sha boshipadan foydalanish huquqiga ega.

2. Bu huquqdan haqiqatda nosiyosiy jinoyat sodir etish uchun yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va printsiplariga zid xatti-harakat tufayli ta’qib paytida foydalanish mumkin emas.

15-modda

1. Har bir insonning fuqaro bo‘lish huquqi bor.

2. Hech kim o‘z fuqaroligidan yoki fuqaroligini o‘zgartirish huquqidan o‘zboshimchalik bilan mahrum qilinishi mumkin emas.

16-modda

1. Balog‘at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqiy belgisi, millati yoxud dini bo‘yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o‘tishga va oila qurishga haqlidir. Ular nikohdan o‘tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqlardan foydalanadilar.

2. Nikoh faqat nikohdan o‘tayotgan har ikki tomonning erkin va to‘liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishga haqlidir.

17-modda

1. Har bir inson yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega.

2. Hech kim zo‘ravonlik bilan o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas.

18-modda

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egä; bu huquq o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini va ta’limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e’tiqodiga

yakka o‘zi, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi.

19-modda

Har bir inson e‘tiqodlar erkinligi va ularni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siksiz o‘z e‘tiqodlariga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat‘i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi.

20-modda

1. Har bir inson tinch yig‘inlar va uyushmalar o‘tkazish huquqiga ega.

2. Hech kim biror bir uyushmaga kirishga majbur qilinishi mumkin emas.

21-modda

1. Har bir inson o‘z mamlakatini boshqarishda bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali qatnashish huquqiga ega.

2. Har bir inson o‘z mamlakatida davlat xizmatiga teng kirish huquqiga ega.

3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo‘lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqida, yashirin ovoz berish yo‘li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta‘minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z aksini topishi lozim.

22-modda

Har bir inson jamiyat a‘zosi sifatida ijtimoiy ta‘minotga va o‘zining qadr qimmatini saqlash, shaxsnинг erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini milliy sa‘y-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik orqali va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq amalgalashishga haqli.

23-modda

1. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.

2. Har bir inson hech bir kamsitisiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega.

3. Har bir ishlovchi kishi o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta'minlaydiganadolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo'lganda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldiriluvchi daromad olish huquqiga ega.

4. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega.

24-modda

Har bir inson dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, shu jumladan ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

25-modda

1. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zurur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishiga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'limgan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega.

2. Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'iy nazar bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

26-modda

1. Har bir inson ta'limga olish huquqiga ega. Ta'limga olishda hech bo'limganda boshlang'ich va umumiyligi ta'limga tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'limga majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliv ta'limga esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'limga ikerak.

2. Ta'limga inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'limga barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak.

3. Kichik yoshdagagi bolalari uchun ota-onalar ta'limga turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadir.

27-modda

1. Har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega.

2. Har bir inson o'zi mualliflik qilgan ilmiy, adabiy yoxud badiiy asarlarning natijasidan kelib chiqqan ma'naviy va moddiy manfaatlarni himoya qilish huquqiga ega.

28-modda

Har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo'lishi huquqiga egadir.

29-modda

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umumfarovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va printsiplariga aslo zid bo'lmasligi kerak.

30-modda

Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir narsa biror bir davlat, kishilar guruhi yoki alohida shaxslarga mazkur Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni yo'q qilishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanish yoki harakat qilish mumkin deb talqin etilmasligi kerak.

BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDA KONVENSIYA

1989-yil 20- noyabrdan qabul qilingan.

*O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyani 1992-yil
9-dekabrdan ratifikatsiya qilgan*

MUQADDIMA

Ushbu Konvensiya ishtirokchi — davlatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e’lon qilingan tamoyillarga muvofiq, jamiyat barcha a’zolarining o‘ziga xos bo‘lgan qadr-qimmati, teng va ajralmas huquqlari yer yuzida erkinlik,adolat va tinchlikni ta’minlashning asosi ekanligi e’tirof etilganini hisobga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqlari Nizomda insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha’hi va qadr-qimmatiga bo‘lgan o‘z ishonchlarini tasdiqlaganliklari hamda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilash borasida ko‘maklashishga ahd qilganliklarini e’tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasi va inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjalarda har bir inson mazkur hujjalarda ko‘rsatib qo‘yilgan huquq hamda erkinliklarga irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug‘ilishi yoki boshqa holatlar bilan bog‘liq belgilariiga ko‘ra har qanday tafovutdan qat’i nazar, ega bo‘lishini e’lon qilganligi va rozilik bildirganligini e’tirof etib,

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasiga bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e’lon qilganligini eslatib,

Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a’zolari, ayniqsa, bolalar o‘sib-ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga to‘liq oladigan bo‘lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta’milanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda,

bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamoloti uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘sishi zarurligini e’tirof etib,

bola jamiyatda mustaqil hayotga to‘la tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e’lon qilingan g‘oyalari ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib,

bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924-yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘zda tutilganligini va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktda (jumladan, 23 va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktda (jumladan, 10-modda), shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarining farovonligi masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli hujjatlarida e’tirof etilganligini e’tiborga olib,

Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘rsatib o‘tilganidek, «bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan bo‘lsa, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj» ekanligini e’tiborga olib,

Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to‘g‘risidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari («Pekin qoidalari») va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to‘g‘risida deklaratsiya qoidalariiga tayanib,

jahondagi barcha mamlakatlarda niroyatda og‘ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e’tiborga muhtoj ekanliklarini e’tirof etib,

bolaning himoya qilinishi va uyg‘un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an‘analari va madaniy qadriyatlarini muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib,

har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e'tirof etib, quyidagilar haqida kelishib oldilar:

I QISM

1-modda

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi.

2-modda

1. Ishtirokchi – davlatlar ushbu Konvensiyada o'z ta'sir doira-sida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qat'i nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bola, uning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun hamma zarur choralarни ko'radilar.

3-modda

1. Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimiyo'qmi, bundan qat'i nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga bиринчи darajali e'tibor beriladi.

2. Ishtirokchi-davlatlar o'z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlash, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo'yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e'tiborda tutishni hisobga oladilar hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma'muriy chora-tadbirlarni ko'radilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalar haqida g'amxo'rlik ko'rsatish yoki ularni himoya qilish uchun mas'ul hisoblangan organlar, muassasalar va xizmatlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo'-

yilgan me'yorlarga, xususan, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasida va ulardag'i xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek, vakolatli nazorat olib borishi nuqtayi nazaridan belgilangan me'yorlarga javob berishlarini ta'minlaydilar.

4-modda

Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarни ko'radilar. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga nisbatan ishtirokchi-davlatlar bunday choralarни o'zlarida mavjud bo'lgan imkoniyatlar doirasida, mumkin qadar yuqori darajada zarurat tug'ilgan taqdirda esa xalqaro hamkorlik doirasida qabul qiladilar.

5-modda

Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning va tegishli holatlarda kengaytirilgan oila a'zolari yoki mahalliy urf-odatlarda ko'zda tutilganidek, jamoaning vasiylar yoki qonun bo'yicha bola tarbiyasi uchun javobgar hisoblangan boshqa shaxslarning ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanib borayotgan qobiliyatlariga muvofiq holda bajarishdagi mas'uliyati, huquq va majburiyatlarini hurmat qiladilar.

6-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bola yashash uchun ajralmas huquqqa ega ekanligini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bolaning omon yashashi va sog'lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib beradilar.

7-modda

1. Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi.

2. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlarni o'z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshirilishini, ularning majburiyatları shu sohaga tegishli xalqaro hujjalarga asosan, xususan, agar bola boshqa fuqarolikka ega bo'limgan taqdirda bajarilishini ta'minlaydilar.

8-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qonunda ko‘zda tutilganidek, bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini jumladan, fuqaroligi, ismi va oilaviy aloqalarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, qonunga zid ravishda aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini oladilar.

2. Agar bola o‘ziga xoslik elementlarining bir yoki barcha qismlaridan g‘ayriqonuniy ravishda mahrum etilgan bo‘lsa, ishtirokchi-davlatlar uning bu xususiyatlari tezroq tiklanishi uchun zarur yordam va himoyalashni ta‘minlaydilar.

9-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bola o‘z ota-onasidan ularning xohishlariga zid ravishda ayrilib qolmasligini ta‘minlaydilar, vakolatli organlar sud qaroriga binoan qo‘llanilgan qonun va tartib-rusumga muvofiq tarzda bunday ayrilish bolaning eng yaxshi manfaatlari yo‘lida zarur deb topgan holatlar bundan mustasnodir. Bunday ajrim, masalan, ota-onsa bolaga shafqatsizlik bilan munosobatda bo‘lgan yoki uning haqida g‘amxo‘rlik qilmay qo‘yan yoxud ota-onsa alohida yashayotgan hamda bola yashaydigan joyga nisbatan qaror qabul qilish zarurati paydo bo‘lgan u yoki bu aniq holatda zarur bo‘lishi mumkin.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq holda ishni har qanday sharoitda ko‘rib chiqish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarga muhokamada qatnashish va o‘z nuqtayi nazarini bayon qilish imkoniyati beriladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasining bittasi yoki har ikkovidan ham ayrılgan bolaning ular bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar bog‘lab turish huquqini hurmat qiladilar, bunday munosabatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari zid keladigan bo‘lsa bundan mustasno bo‘ladi.

4. Ishtirokchi-davlat tomonidan qabul qilingan biror-bir qaror, masalan, hibsga olish, qamash, surgun qilish, deportatsiya yoki ota-onadan bittasi yoxud ikkovining ham yoki bolaning o‘limi (ana shu shaxs davlat ixtiyorida bo‘lgan paytda har qanday sababga ko‘ra ro‘y bergen o‘lim ham shunga kiradi) tufayli sodir bo‘lgan bo‘lsa, ishtirokchi-davlat ota-onaga, bolaga yoki, agar zarurat tug‘ilsa, oilaning boshqa a‘zosiga ularning iltimosiga binoan oilaning yo‘qolgan a‘zosi (a‘zolari yashab turgan joy) haqida, zarur

axborotni agar bu bolaning farovonligiga ziyon keltirmaydigan bo'lsa yetkazib beradi. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimosni qondirish o'z-o'zidan tegishli shaxs (shaxslar) uchun noxush oqibatlarga olib kelmasligini ta'min etadilar.

10-modda

1. Ishtirokchi-davlatlarning 9-moddadagi 1-band bo'yicha majburiyatiga muvofiq bola yoki uning ota-onasi oilani birlashtirish maqsadida ishtirokchi-davlatga kirish yoxud undan chiqish uchun bergen arizalari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ijobjiy, insonpar-varlik ruhida va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishi lozim. Ishtirokchi-davlatlar bunday iltimoslar arizachilar va ularning oila a'zolari uchun noxush oqibatlar keltirib chiqarmasligini ta'minlaydilar.

2. Ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga egadir. Ana shu maqsadda 9-moddaning 2-bandi bo'yicha ishtirokchi-davlatlarning majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar bolaning va ota-onasining har qanday mamlakatni tark etish, jumladan, o'z mamlakatini tashlab ketish va unga qaytib kelish huquqini hurmat qiladilar. Har qanday mamlakatni tark etish huquqiga nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan va davlat xavfsizligini, jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i va ma'naviyati hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini saqlash uchun zarur hisoblangan, ushbu Konvensiyada e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos tushadigan cheklashlargina amalda bo'ladi.

11-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning g'ayriqonuniy ravishda ko'chirilishiga va chet eldan qaytmasligiga qarshi kurash olib borish uchun chora-tadbirlar ko'radilar.

2. Ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitimlar tuzilishiga yoxud amaldagi bitimlarga qo'shilishga ko'maklashadilar.

12-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar o'zining qarashlarini shakllantirishga qodir bolaga ana shu qarashlarni bolaga taalluqli barcha masalalar bo'yicha, erkin ifoda etish huquqini ta'minlaydilar, binobarin,

bolaning qarashlariga uning yoshi va yetukligiga muvofiq munosib darajada e'tibor beriladi.

2. Ana shu maqsadda bolaga, jumladan, bolaga taalluqli har qanday sud yoki ma'muriy muhokama paytida, bevosita, vakil yoxud tegishli organ orqali milliy qonunchilikning protsessual me'yorlarida ko'zda tutilgan tartibda o'zining fikrlarini ular tomonidan eshitish imkoniyati beriladi.

13-modda

1. Bola o'zining fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagи axborotni, chegarasidan qat'i nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at asari ko'rinishida yoki bolaning tanlovgiga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o'z ichiga oladi.

2. Bunday huquqning amalga oshirilishi ba'zi bir cheklashlarga duch kelishi mumkin, biroq bunday cheklashlar faqat qonunda ko'zda tutilgan chekashlardan iborat bo'ladi, bu quyidagilar uchun zarur:

a) boshqa shaxslarning huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun;

b) davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini (ordre public), aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun.

14-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqini hurmat qiladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar ota-onaning hamda tegishli holatlarda qonuniy vasiylarning bolaga uning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq keladigan usul orqali bola huquqini amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqi va majburlyatlarini hurmat qiladilar.

3. O'z dini yoki e'tiqodini targ'ib qilish erkinligi faqat qonunda belgilangan hamda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholining ma'naviyati va sog'lig'ini saqlash yoki boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur hisoblangandagina cheklanishi mumkin.

15-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning assotsiatsiya va tinch yig'ilishlar erkinligi huquqini e'tirof etadilar.

2. Bu huquqning amalga oshirilishiga nisbatan biror-bir cheklashlar qo'llanilmaydi, qonunga muvofiq qo'llaniladigan va demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yoki jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi (ordre public) manfaatlari yo'lida, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini saqlash, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan cheklashlar bundan mustasnodir.

16-modda

1. Birorta bola uning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy daxlsizligi yoki pochta orqali yuboriladigan narsalarning maxfiy-ligiga bo'lgan huquqi amalga oshirilishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga zid ravishda aralashish yoxud uning sha'ni va obro-siga g'ayriqonuniy tajovuz qilish obyekti bo'lishi mumkin emas.

2. Bola ana shunday aralashishlar yoki tajovuz qilishlardan qonun yo'li bilan himoyalanish huquqiga egadir.

17-modda

Ishtirokchi-davlatlar ommaviy axborot vositalarining muhim mavqeyni e'tirof etadilar hamda bola turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlari hamda materiallari, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy farovonlikka, shuningdek, bolaning sog'iom, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan axborotlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydilar. Shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar:

a) ommaviy axborot vòsitalarini ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi hamda 29-modda ruhidagi bola uchun foydali axborot va materiallarni tarqatishga rag'batlantiradilar;

b) turli xil madaniy, milliy va xalqaro manbalardan bunday axborot va materiallar tayyorlash, ayirboshlash hamda tarqatish sohasidagi xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar;

d) bolalar adabiyotini nashr etish va tarqatishni rag'batlantiradilar;

e) ommaviy axborot vositalarining qandaydir ozchilikni tashkil qiluvchi guruh yoki tub aholiga mansub bolaning til ehtiyojlariga alohida e'tibor berishni rag'batlantiradilar;

f) 13 va 18-moddalarni hisobga olgan holda bolaning farovonligiga zarar yetkazadigan axborot va materiallardan uni

himoya qilishning tegishli tamoyillarini ishlab chiqishni rag'batlantiradilar.

18-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bola tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun ota-onaning umumiy va bir xil javobgarligi tamoyili e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan barcha mumkin bo'lgan kuch-g'ayratlarni safarbar etadilar. Ota-onsa yoki tegishli holatlarda qonuniy vasiylar bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun asosiy javobgar bo'ladilar. Bolaning eng yaxshi manfaatlari ular ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi.

2. Ushbu Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlash va ko'maklashish maqsadida ishtirokchi-davlatlar ota-onsa va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlaydilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar ota-onasi ishlaydigan bolalar uchun mo'ljallangan xizmatlar hamda bolalar parvarish qilinadigan muassasalardan bolalarning foydalanish huquqiga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

19-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolani jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, haqoratlash va suiiste'molliklar, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik yoki beparvolik bilan muomalada bo'lish, qo'pol muomala qilish yoki ota-onsa, qonuniy vasiylar yoki bola haqida g'amxo'rlik qiluvchi har qanday boshqa shaxs tomonidan ekspluatatsiya qilish, jumladan, shahvoniy suiiste'molliklar sodir etishning har qanday shakllaridan himoyalash maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma'muriy, ijtimoiy va ma'rifiy chora-tadbirlarni ko'radilar.

2. Bunday himoya choralari, zarurat tug'ilgan taqdirda, bola va uning haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan shaxslarni lozim darajada qo'llab-quvvatlash maqsadidagi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish uchun samarali tartib-rusumlarni, shuningdek, bola bilan yuqorida ko'rsatilgan tarzda shafqatsizlarcha muomala qilish hollari munosabati bilan ogohlantirish, aniqlash, xabar berish, qarab chiqish, tergov olib borish, davolash hamda shundan keyingi choralarni ko'rish zarurati tug'ilgan taqdirda, sud ishini qo'zg'atish uchun chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

20-modda

1.O‘zining oila g‘amxo‘rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo‘lgan yoki o‘zining eng yaxshi manfaatlari yo‘lida bunday g‘amxo‘rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko‘rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.

2. Ishtirokchi-davlatlar o‘z milliy qonunlariga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta’minlaydilar.

3. Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariati bo‘yicha «kafola»ga tarbiyaga berishni, asrab olishni yoki, zarurat tug‘ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o‘z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.

21-modda

Bola asrab olish tizimi mavjudligini e’tirof yoki hal qiladigan ishtirokchi-davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda hisobga olinishini ta’minlaydilar, ular:

a) bolani asrab olish faqat vakolatli ma’murlar tomonidan hal etilishini ta’minlaydilar, bunday ma’murlar qo‘llaniladigan qonun va tartib-rusumlarga muvofiq hamda ishga taalluqli va ishonchli butun axborot asosida asrab olishga ota-onas, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga nisbatan bolaning maqomiga qarab, agar talab etilsa, manfaatdor shaxslar zarur bo‘lib qoladigan maslahat asosida asrab olish uchun o‘zlarining ongli roziliklarini berishlari bois yo‘l qo‘yilishini aniqlaydilar;

b) boshqa mamlakatda asrab olish, agar bolani tarbiyaga berish yoki uning tarbiyasini ta’minlay oladigan yoxud asrab oladigan oilaga joylashtirish mumkin bo‘lmasa, agar bola paydo bo‘lgan mamlakatda uni munosib ravishda tarbiyalashni ta’minlashning iloji bo‘lmasa, bola boqishning muqobil usuli sifatida qaralishini e’tirof etadilar;

d) bola boshqa mamlakatda asrab olingen taqdirda xuddi mamlakat ichkarisida asrab olingenida qo‘llaniladigan kafolat ya me’yorlar qo‘llanilishini ta’minlaydilar;

e) bola boshqa mamlakatda asrab olingen taqdirda uning joylashtirilishi shu ish bilan bog‘liq shaxsga o‘zini oqlamagan

moliyaviy foyda keltirmasligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar;

f) zarur holatlarda ushbu moddaning maqsadlariga ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartlashuvlar yoki bitimlar tuzilishi yo'li bilan erishishga ko'maklashadilar hamda shu asosda bolaning boshqa mamlakatda joylashuvi vakolatli ma'murlar va organlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlashga intiladilar.

22-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar qochoq maqomini olishni istagan yoki qochoq hisoblangan bolani qo'llaniladigan xalqaro yoki ichki huquq va tartib-rusumlarga muvofiq ravishda, ham unga hamroh bo'layotgan va bo'lmayotgan ota-onasi yoki tegishli ravishda himoya qiladigan va insonparvarlik yordami ko'rsatadigan har qanday boshqa shaxsni, ishtirokchilari hisoblanadigan ko'rsatib o'tilgan davlatlar ushbu Konvensiyada va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda yoki hujjatlarda bayon qilingan qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqlardan foydalanishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar.

2. Ana shu maqsadda ishtirokchi-davlatlar, o'zлari zarur deb topgan holatlarda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa vakolatli hukumatlararo tashkilotlar yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik qilayotgan nodavlat tashkilotlarning bunday bolani himoya qilish, unga yordam ko'rsatish hamda har qanday qochoq bolaning ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini izlashda, uning o'z oilasi bilan qo'shilishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish maqsadidagi har qanday kuch-g'ayratlariga ko'maklashadilar. Agar ota-onasi yoki oilasining boshqa a'zolarini topish iloji bo'lмаган taqdirda bu bolaga, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilganidek biror-bir sababga ko'ra o'zining oilaviy g'amxo'rligidan doimiy yoki vaqtincha mahrum bo'lgan har qanday ko'rsatiladigan himoya taqdim etiladi.

23-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan bola o'zining qadr-qimmatini ta'minlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan va uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokinи yengillashtiradigan sharoitlarda to'laqonli hamda munosib tarzda yashashi lozimligini e'tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar aqliy va jismoniy noto'kis bola o'ziga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilishi huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar hamda buni rag'batlantiradilar, imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda, yordam so'rab iltimos qilingan bo'lsa va bunday yordam bolaning ahvoliga, uning ota-onasi va bola haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan boshqa shaxslarning mavqeyiga mos kelsa, shunga haqli bolaga unga g'amxo'rlik qilish uchun javobgar kishilarga ana shunday yordam berilishini ta'minlaydilar.

3. Aqliy va jismoniy noto'kis bolaning alohida ehtiyojlari e'tirof etilgan holda ushbu moddaning 2-bandiga muvofiq yordam imkon darajasida bolaning ota-onasi va uning haqida g'amxo'rlik qilayotgan boshqa shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinib bepul beriladi, bunday yordam noto'kis bola ta'lim, kasb-kor tayyorgarligi, tibbiyot, sog'liqni tiklash, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish sohasidagi xizmatlaridan samarali ravishda bahramand bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutadi, shuningdek, dam olish vositalariga yo'l ochadiki, bunday vositalar imkon darajasida bolani ijtimoiy hayotga jalb etishga, shaxsning rivojlanishi, jumladan, madaniy va ma'naviy kamol topishga olib keladi.

4. Ishtirokchi-davlatlar xalqaro hamkorlik ruhida noto'kis bolalarning sog'lig'ini saqlash profilaktikasi, tibbiyot, ruhiy va funksional davolanishi sohasidagi tegishli axborotning ayirboshlanishiga ko'maklashadilar, sog'lomlashtirish usullari, umumiyligi ta'lim va kasb-kor tayyorgarligi haqidagi axborotni tarqatish, shuningdek, ana shu axborot bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lish ham shunga kiradi, toki ishtirokchi-davlatlar bu sohadagi o'z imkoniyatlari va bilimlarini yaxshilashga, tajribalarini kengaytirishga erishsinlar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi lozim.

24-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning sog'liqni saqlash tizimining takomillashgan xizmatlaridan, kasalliklarni davolash va salomatlikni tiklash vositalaridan foydalanishini huquqiy e'tirof etadilar. Ishtirokchi-davlatlar birorta ham bola sog'liqni saqlash tizimining bunday xizmatlaridan bahramand bo'lishdan iborat o'z huquqidan mahrum bo'lib qolmasligini ta'minlashga harakat qiladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqning to'la amalga oshishiga erishadilar, jumladan, quyidagi choralarini ko'radilar:
- a) chaqaloqlar va bolalar o'limi darajasini pasaytirish;
 - b) hamma bolalarga zarur tibbiy yordam ko'rsatilishi va ularning sog'lig'ini saqlashga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirishga birinchi darajali e'tibor berilishiga erishish;
 - c) boshqa usullar qatorida qulay texnologiyani qo'llash va yetarli miqdorda to'yimli oziq-ovqat va toza ichimlik suv yetkazib berish yo'li bilan hamda atrof-muhitning ifloslanish xavf-xatarini e'tiborga olgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish doirasida kasalliklar va to'yib ovqatlanmaslikka qarshi kurash olib borish;
 - d) onalarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyingi davrda ularning sog'lig'ini saqlash sohasida tegishli ravishda xizmatlarni taqdim etish;
 - e) jamiat barcha tabaqalarining, jumladan, ota-onalar va bolararning go'daklar sog'lig'i va ovqatlanishi, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, gigiyena, bola yashayotgan muhit sanitariyasi va baxtsiz hodisalarning oldini olish haqidagi xabardorligini ta'minlash, shuningdek, ularning ilm olishiga yo'l ochish va egallagan bilimlaridan foydalanishlarini qo'llab-quvvatlash;
 - f) profilaktik tibbiy yordam va oila hajmini rejalashtirish sohasidagi ma'rifiy ishlar va xizmatlarni rivojlantirish.

3. Ishtirokchi-davlatlar bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan an'anaviy amaliyotga barham berish maqsadida har qanday samarali va zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddada e'tirof etilgan huquqlar to'la amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish majburiyatini oladilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlariga alohida e'tibor berilishi zarur.

25-modda

Ishtirokchi-davlat parvarish qilish, himoya ostiga olish yoki jismoniy yoxud ruhiy davolash, bolaga taqdim etiladigan davolashni vaqtincha baholash hamda bunday vasiylik bilan bog'liq bolaga tegishli barcha boshqa shart-sharoitni yaratib berish maqsadida vakolatli organlar tomonidan vasiylikka topshirilgan bolaning huquqlarini e'tirof etadilar.

26-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning ijtimoiy ta'minot ne'matlaridan, jumladan, ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq davlatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq tarzda to'la amalga oshishiga erishish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

2. Bu ne'matlar zaruratga qarab bolaning hamda bolani boqish mas'uliyatini zimmasiga olgan shaxslarning, bola tomonidan yoki uning nomidan ne'matlarni olish bilan bog'liq har qanday fikr-mulohaza nazarda tutilgan holda taqdim etiladi.

27-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topish uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega bo'lish huquqini e'tirof etadilar.

2. Ota-onada yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o'z qobiliyatları va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitini ta'minlashga asosiy javobgardir.

3. Ishtirokchi-davlatlar milliy shart-sharoitlarga muvofiq va o'z imkoniyatlari doirasida ana shu huquqning amalga oshishida ota-onada yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslarga yordam ko'rsatish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radilar, zarurat tug'ilgan holdarda moddiy yordam beradilar ayniqsa oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy bilan ta'minlash borasidagi dasturni qo'llab-quvvatlaydilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar ota-onada yoki bola uchun moliyaviy javobgar hisoblangan boshqa shaxslar tomonidan bolani boqish ishtirokchi-davlat ichida ham, xorijda ham tiklanishini ta'minlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar, Xususan, bola uchun moliyaviy javobgar shaxs va bola turli davlatlarda yashayotgan bo'lsa, ishtirokchi-davlatlar xalqaro bitimlarga qo'shilishga yoki shunday bitimlar tuzilishiga, shuningdek, boshqa tegishli kelishuvlarga erishishga ko'maklashadilar.

28-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning ilm olish huquqini e'tirof etadilar hamda ana shu huquq teng imkoniyatlari asosida amalga oshishiga asta-sekin erishish maqsadida ular, jumladan:

a) bepul va majburiy boshlang'ich ta'limi joriy etadilar;

b) ham umumiy, ham kasb-hunar bo'yicha o'rta ta'limning turli shakllari rivojlanishini rag'batlantiradilar, bunday ta'limdan hamma bolalar bahramand bo'lishlarini ta'minlaydilar hamda bepul ta'lim joriy etish va zarurat tug'ilgan hollarda moliyaviy yordam ko'rsatish singari zarur chora-tadbirlarni ko'radilar;

d) barcha zarur vositalar yordamida har bir bolaning qobiliyatasi asosida oliv ta'limdan bahramand bo'lishini ta'minlaydilar;

e) barcha bolalar uchun ta'lim va kasb-hunar tayyoragarligi sohasida axborot hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratib beradilar;

f) bolalarning maktabga muntazam borishlariga ko'maklashish hamda maktabni tashlab ketadigan o'quvchilar sonining kamayishi uchun chora-tadbirlar ko'radilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar maktab intizomi bolaning insoniylik qadr-qimmatini hurmatlash o'z ifodasini topgan usullar yordamida hamda ushbu Konvensiyaga muvofiq bog'lab olib borilishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

3. Ishtirokchi-davlatlar ta'limga taalluqli masalalar bo'yicha, jumladan, butun dunyoda johillik va savodsizlikni tugatishga yordam beradigan hamda ilmiy-tehnikaviy bilimlar va o'qitishning zamonaviy usullariga yo'l ochishni yengillashtiradigan maqsadlarga qaratilgan xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradilar va rivojlanitardilar. Shu munosabat bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlari alohida e'tibor berilishi zarur.

29-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaga ta'lim berish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozimligiga rozilik bildiradilar:

a) bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatları eng to'la hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

d) bolaning ota-onaga, uning madaniy o'ziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga, o'zinikidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

e) bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli bo‘lish, erkaklar va ayollarning tengligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo‘lgan shaxslar o‘rtasida do‘stlik ruhida tayyorlash;

f) atrof - tabiatga hurmatni tarbiyalash.

2. Ushbu moddaning yoki 28-moddaning hech qaysi bandi alohida shaxslar va organlarning o‘quv yurtlarini ochish hamda ularga ushbu moddaning I – bandida bayon etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda rahbarlikni amalga oshirish hamda bunday o‘quv yurtlarida beriladigan ta’lim davlat tomonidan o‘rnatilgan minimal me’yorlarga javob berishi kerak, degan talabning bajarilishidagi erkinligini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

30-modda

Etnik, diniy yoki til jihatdan ozchilikni tashqil qiluvchi yoxud tub aholiga mansub shaxslar yashaydigan davlatlarda ana shunday ozchilik yoki tub aholiga mansub bolaning mazkur guruh boshqa a’zolari bilan birgalikda o‘z madaniyatidan foydalanish, o‘z diniga e’tiqod qilish va uning rasm-rusumlarini bajarish, shuningdek, ona tilidan foydalanish huquqi rad etilmasligi lozim.

31-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning dam olish va bo‘sh vaqtini o‘tkazish huquqini, o‘zining yoshiga mos keladigan o‘yinlar va ko‘ngilochar tadbirdorda ishtirok etish, madaniy hayotda erkin qatnashish, san’at bilan shug‘ullanish huquqini e’tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar bolaning madaniy va ijodiy hayotda har tomonlama qatnashish huquqini hurmat qiladilar, rag‘batlantiradilar hamda madaniy va ijodiy faoliyat, bo‘sh vaqtini o‘tkazish va dam olish uchun tegishli teng imkoniyatlar yaratib berilishiga ko‘maka-lashadilar.

32-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog‘lig‘i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoki ta’lim olishiga to‘sqinlik qiladigan yoxud sog‘lig‘i, jismoniy, aqliy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e’tirof etadilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta’minalash uchun qonuniy, ma’muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta’lim

sohasidagi chora-tadbirlarni ko‘radilar. Ana shu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar, jumladan:

- a) ishga qabul qilish uchun eng kichik yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo‘yadilar;
- b) kundalik vaqtdagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar;
- d) ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini ta’minlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni ko‘zda tutadilar.

33-modda

Ishtirokchi-davlatlar tegishli xalqaro shartnomalarda belgilab qo‘yliganidek, bolalarni giyohvandlik va psixotrop moddalarini g‘ayriqonuniy ravishda iste’mol qilishdan himoya etish maqsadida zarur barcha chora-tadbirlarni, jumladan, qonuniy, ma’muriy va ijtimoiy, shuningdek ta’lim sohasidagi choralarни hamda ana shunday moddalarini g‘ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘radilar.

34-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolani shahvoniy maqsadlarda foydalanish va shahvoniy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar. Ana shu maqsadlarda ishtirokchi-davlatlar, jumladan, milliy, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama darajada quyidagi holatlarning oldini olish uchun hamma zarur chora-tadbirlarni ko‘radilar:

- a) bolani har qanday g‘ayriqonuniy ravishdagi shahvoniy faoliyatga tortish va majburlash;
- b) bolalardan fohishabozlik yoki g‘ayriqonuniy ravishdagi boshqa shahvoniy maqsadlarda foydalanish;
- d) bolalardan pornografiya va pornografiya materiallari tayyorlash maqsadlarida foydalanish.

35-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar bolalarni o‘g‘irlash, sotish yoki ularni har qanday maqsadlarda va har qanday shakllarda kontrabanda qilishning oldini olish uchun milliy, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama darajada barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘radilar.

36-modda

Ishtirokchi-davlatlar bolani uning farovonligiga oid har qanday jihatdan zarar yetkazadigan foydalanishning barcha boshqa shakllaridan himoya qiladilar.

37-modda

Ishtirokchi-davlatlar quyidagilarni ta'minlaydilar:

a) birorta ham bola qyinoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni oyoq osti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini, na o'llim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi;

b) birorta ham bola g'ayriqonuniy ravishda yoki o'zboshim-chalik bilan ozodlikdan mahrum etilmasligini. Bolani hibsga olish, ushlab turish yoki qamoqqa solish qonunga muvofiq amalga oshiriladi hamda faqat noiloj chora sifatida va mumkin qadar tegishli qisqa vaqt mobaynida ishlataladi;

d) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola uning yoshidagi shaxs ehtiyojlari hisobga olingan holda insoniy muomala va shaxsining ajralmas qismi bo'lgan qadr-qimmatini hurmatlashdan foydalanishini. Xususan, ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola, agar bolaning eng yaxshi manfaatlari yo'lida shunday qilish kerak, deb hisoblanmasa, kattalardan ajratib saqlanadi hamda alohida holatlarni istisno qilganda, o'z oilasi bilan xat yozish va diyordor ko'rishish orqali aloqa bog'lab turish huquqiga egadir;

e) ozodlikdan mahrum etilgan har bir bola huquqiy va boshqa tegishli yordamdan zudlik bilan bahramand bo'lish huquqidan, shuningdek, sud yoki boshqa vakolatli, mustaqil va xolis organ oldida o'zining ozodlikdan mahrum etilishining qonuniyligiga e'tiroz bildirish huquqidan hamda ana shunday har qanday protsessual xatti-harakatga nisbatan ular tomonidan kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi huquqidan foydalanadi.

38-modda

1) Ishtirokchi-davlatlar xalqaro insonparvarlik huquqining qurolli mojarolar ro'y bergan holatda ularga nisbatan qo'llaniladigan va bolalarga taalluqli me'yorlarini hurmat qilishni, ularga rioya etilishini ta'minlashni o'z zimmalariga oladilar.

2. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to‘lмаган шахслар харбија
харакатларда бевосита исхирок етмасликларини та’минлаш үчун
имкони бо‘лган барча чора-тадбирларни ко‘радилар.

3. Ishtirokchi-davlatlar 15 yoshga to‘lмаган хар қандай шахсни
о‘з қуролли кучлари сафига хизматга ҳақиришга ўйлаб, 15 yoshga yetgan бироq 18 yoshga to‘lмаган шахслар орасидан
армиyага jaлb etilayotganda ishtirokchi-davlatlar yoshi kattaroq
шахсларни ма’гул ко‘ришга харакат qиладilar.

4. Qurolli mojarolar paytida харбија bo‘lмаган ахолини himoya
qilish bilan bog‘liq xalqaro insonparvarlik huquqi bo‘yicha
majburiyatlariga muvofiq ishtirokchi-davlatlar qurolli mojarolarning
та’siridan bolalarni himoyalash hamda parvarishlashni та’минлаш
үчун имкони бо‘лган барча зарур чора-тадбирларни ко‘риш
majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

39-modda

Ishtirokchi-davlatlar beparvolik, ishlatish yoki suiiste’molliklar,
qiyashning har қандай ко‘ринишлари yoki shafqatsizlik, noinsoniy
yoxud qadr-qimmatni oyoqosti qiladigan boshqa har қандай
muomala, jazolash yoki qurolli mojarolar qurboni bo‘лган bolaning
jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy jihatdan o‘zini o‘nglab
olishiga ko‘maklashish үчун барча зарур чора-тадбирларни
ко‘радилар. Bunday tiklanish va o‘zini o‘nglab olish bolaning
sog‘lig‘i, o‘zini o‘zi hurmatlashi va qadr-qimmatini та’минлашдиган
sharoitlarda amalga oshirilishi lozim.

40-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb
topilgan, qonunni buzishda ayblanayotgan yoki aybdor deb
topilayotgan har bir bolaning unda qadr-qimmat va ahamiyatga
moliklik his-tuyg‘usini tarbiyalaydigan, bolada inson huquqlariga va
boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan
hamda bunda bolaning yoshi va o‘zini o‘nglab olishi, jamiyatda
foydatli o‘rin tutishiga ko‘maklashish istagi hisobga olinadigan
huquqini e’tirof etadilar.

2. Ana shu maqsadlarda va xalqaro hujjalarning tegishli
qidalarini e’tiborga olib, ishtirokchi-davlatlar, jumladan,
quyidagilarni та’минлашдилар:

a) birorta bola xatti-harakat sodir etilgan vaqtida milliy yoki xalqaro huquqda man etilmagan harakat yoki harakatsizlik sababli jinoiy qonunchilikni buzgan deb topilmasligi, ayblanmasligi va aybdor deb topilmasligini;

b) jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan yoki uni buzishda ayblanayotgan har bir bola kamida quyidagi kafolatlarga ega bo‘lishi zarur:

I) uning aybi qonunga muvofiq isbotlanguncha aybsizlik prezumpsiysi;

II) unga qarshi qo‘yilayotgan ayblar haqida o‘ziga, zarurat tug‘ilgan taqdirda, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi orqali kechiktirmasdan va bevosita ma’lum qilish hamda o‘zining himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy va boshqa xil yordam olishi;

III) ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud organi tomonidan ishniadolatli tarzda ko‘rish davomida qonunga muvofiq ravishda advokat yoxud boshqa tegishli shaxs ishtirokida, agar bu bolaning eng yaxshi manfaatlariga zid keladi deb hisoblanmasa, xususan, uning yoshi yoki ota-onasi yoxud qonuniy vasiylarining mavqeyi hisobga olingan holda hech kechiktirmasdan qaror qabul qilinishi;

IV) guvoqlik ko‘rsatmasi berish yoki aybga iqror bo‘lishga majburlashdan erkinlik; ayblast bo‘yicha guvoqlarning ko‘rsatmalari yoxud mustaqil ravishda yoxud boshqa shaxslar yordamida o‘rganib chiqish hamda himoya guvoqlarining teng ravishdagi ishtiroki va ularning ko‘rsatmalarini o‘rganishni ta’minlash;

V) agar bola jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblansa, yuqori turuvchi vakolatli, mustaqil va xolis organ yoki sud tomonidan tegishli qarorni va u bilan bog‘liq holda qabul qilingan har qanday choralarini qonunga muvofiq ravishda takroran ko‘rib chiqish;

VI) agar bola foydalani layotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, tarjimonning bepul yordam berishi;

VII) ishni ko‘rib chiqishning barcha bosqichlarida uning shaxsiy hayotini to‘la hurmat qilish.

3. Ishtirokchi-davlatlar jinoiy qonunchilikni buzgan deb hisoblanayotgan, qonunbazarlikda ayblanayotgan yoki aybdor deb

topilgan bolalarga bevosita taalluqli qonunlar, tartib-qoidalar, organlar va muassasalarni aniqlashda ko‘maklashishga intiladilar, jumladan:

a) jinoiy qonunchilikni buzishga qodir bo‘limgan eng kichik yoshni belgilashga;

b) zarurat tug‘ilgan taqdirda va istak bo‘lganda, bunday bolalar bilan muomala qilish bo‘yicha inson huquqi va huquqiy kafolatlarga to‘la riosa etilgan holda sud muhokamasidan foydalanmaslik chora-tadbirlarini ko‘rishga.

4. Bolaning farovonligi, holati va jinoyatning xususiyatiga muvofiq keladigan, muassasalardagi parvarishning o‘rnini bosadi-gan muomala qilishni ta’minalash maqsadida parvarish, vasiylik va nazorat haqida qoida, maslahat xizmatlari, sinov muddatini belgi-lash, o‘quv va kasb-hunarga tayyorlash dasturlari va parvarishning boshqa shakllari mavjud bo‘lishi zarurdir.

41-modda

Ushbu Konvensiyadagi hech bir narsa bola huquqlarini amalgaloshirishga ko‘p darajada yordam beradigan har qanday vaziyatga daxl qilmaydi hamda bunday qoidalar quyidagilarda o‘z ifodasini topishi mumkin:

a) ishtirokchi-davlat qonunchiligidagi;

b) mazkur davlatga nisbatan amal qilayotgan xalqaro huquq me’yorlarida.

II QISM

42-modda

Ishtirokchi-davlatlar tegishli va ta’sirli vositalardan foydalangan holda Konvensiyaning tamoyillari va qoidalari haqida katta yoshdagilarni ham, bolalarni ham keng xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladilar.

43-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar tomonidan ushbu Konvensiyaga muvofiq qabul qilingan majburiyatlar bo‘yiga erishilgan taraqqiyotni ko‘rib chiqish maqsadida quyida ko‘zda tutilgan vazifalarni ado etadigan Bola huquqi bo‘yicha qo‘mita ta’sis qilinadi.

2. Qo‘mita o‘zining yuksak ma’naviy fazilatlari hamda ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalarda vakolatli deb e’tirof etilgan o‘n nafar ekspertdan iboratdir. Qo‘mita a’zolari ishtirokchi-davlatlar

tomonidan o‘z fuqarolari ichidan saylanadilar hamda ular shaxsan ishtirok etadilar, binobarin, adolatli ravishda jüg‘rofiy taqsimlanishga, shuningdek, bosh huquqiy tizimlarga e’tibor beriladi.

3. Qo‘mita a’zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan ko‘rsatilgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilganlar orasidan yopiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar. Har bir ishtirokchi-davlat o‘z fuqarolari orasidan bitta shaxsni ko‘rsatishi mumkin.

4. Qo‘mitaga dastlabki saylov ushbu Konvensiya kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oydan kechikmasidan, keyin esa har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Har bir saylov kunidan kamida to‘rt oy oldin Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ishirokchi-davlatlarga ikki oy mobaynida o‘z nomzodlarini taqdim etish taklifi bilan xat orqali murojaat qiladi. So‘ngra Bosh kotib ko‘rsatilgan barcha nomzodlar ro‘yxatini alifbo tartibida ishtirokchi-davlatlar nomini qayd etgan holda tuzib chiqadi hamda bu ro‘yxatni ushbu Konvensiya ishtirokchi-davlatlariga taqdim etadi.

5. Saylovlar Bosh kotib tomonidan chaqiriladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy muassasalarida ishtirokchi-davlatlar kengashlarida o‘tkaziladi. Ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki qismi kvorumni tashkil etadigan ana shu kengashlarda Qo‘mita tarkibiga saylangan deb eng ko‘p ovoz olgan hamda ishtirokchi-davlatlarning kengashida ishtirok etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan vakillarining mutlaq ko‘pchilik ovozini to‘plagan nomzodlar hisoblanadilar.

6. Qo‘mita a’zolari to‘rt yillik muddatga saylanadilar. Ular nomzodlari takroran ko‘rsatilgan taqdirda qayta saylanish huquqiga egadirlar. Birinchi saylovlarda saylangan besh a’zoning vakolat muddati ikki yillik davr oxirida tugaydi, birinchi saylovdan keyinoq zudlik bilan aynan shu besh a’zo kengash Raisi tomonidan qur’a tashlash orqali aniqlanadi.

7. Qo‘mita a’zolaridan birortasi vafot etgan yoki iste’foga chiqqan yoxud u qandaydir sababga ko‘ra Qo‘mita a’zosini vazifalarini bundan keyin bajara olmay qolgan taqdirda o‘sha Qo‘mita a’zosini ko‘rsatgan ishtirokchi-davlat Qo‘mita qo‘llab-quvvatlashi sharti bilan qolgan muddatga o‘z fuqarolari orasidan boshqa ekspert tayinlaydi.

8. Qo‘mita o‘zining tartib-qoidalalarini o‘rnatadi.

9. Qo‘mita ikki-yillik muddatga o‘zining mansabdon shaxslarini saylaydi.

10. Qo‘mita sessiyalari, odatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy muassasalarida yoki Qo‘mita tanlagan boshqa har qanday qulay joyda o‘tkaziladi. Qo‘mita o‘z sessiyalarini, odatda har yili o‘tkazadi. Qo‘mita sessiyasining davom etishi Bosh Assambleya qo‘llab-quvvatlashi sharti bilan ushbu Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining kengashida aniqlab qo‘yiladi va zaruratga qarab qayta ko‘rib chiqiladi.

11. Qo‘mita o‘zining vazifalarini ushbu Konvensiyaga muvofiq samarali bajarishi uchun uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi zarur xodimlar va moddiy mablag‘ bilan ta’minlaydi.

12. Ushbu Konvensiyaga binoan ta’sis etilgan Qo‘mita a’zolari Bosh Assambleya tomonidan belgilab qo‘yilgan tartib va shartlarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti mablag‘lari hisobidan Bosh Assambleya tasdiqlagan rag‘batlantirishlarni oladilar.

44-modda

1. Ishtirokchi-davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi orqali Qo‘mitaga Konvensiyada e’tirof etilgan huquqlarni mustahkamlash yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar haqida hamda ana shu huquqlarini amalga oshirishda erishilgan taraqqiyot haqida ma’ruzalar taqdim etish majburiyatini oladilar:

a) Konvensiya kuchga kirganidan keyin ikki yil mobaynida tegishli ishtirokchi-davlat uchun;

b) keyinchalik har besh yilda.

2. Ushbu moddaga muvofiq taqdim etiladigan ma’ruzalarda mazkur Konvensiya bo‘yicha majburiyatlarning bajarilish darajasiga ta’sir etuvchi omil va qiyinchiliklar, agar ular mavjud bo‘lsa, ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, ma’ruzalarda yetarli axborot ham o‘z ifodasini topadi, toki mazkur mamlakatda Konvensiyaning amal qilishi borasida Qo‘mita to‘la tasavvurga ega bo‘lsin.

3. Qo‘mitaga har tomonlama dastlabki mufassal ma’ruza taqdim etgan ishtirokchi-davlat ushbu moddaning 1b-bandiga binoan taqdim etiladigan keyingi ma’ruzalarda ilgari bayon qilingan asosiy axborotni takrorlashiga zarurat bo‘lmaydi.

4. Qo‘mita ishtirokchi-davlatlardan ushbu Konvensianing bajarilishiga taalluqli bo‘lgan qo‘shimcha axborot so‘rab olishi mumkin.

5. Qo‘mita faoliyati to‘g‘risidagi ma‘ruzalar ikki yilda bir marta Bosh Assambleyaga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash vositachiligidagi taqdim etiladi.

6. Ishtirokchi-davlatlar ma‘ruzalarini o‘z mamlakatlarida keng oshkora bo‘lishini ta‘minlaydilar.

45-modda

Konvensianing samarali amalga oshirilishiga ko‘maklashish va ushbu Konvensiyada qamrab olingan sohalardagi xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish maqsadida:

a) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg‘armasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqa organlari ushbu Konvensianing ular vakolati doirasiga kiradigan qoidalarini amalga oshirishga doir masalalar muhokama qilinayotgan paytda vakil yuborish huquqiga egadirlar. Qo‘mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg‘armasi va boshqa vakolatli organlariga agar maqsadga muvofiq deb topsa, ularning tegishli vakolat doirasiga kiradigan masalalarda Konvensianing amalga oshirilishiga doir ekspertlar xulosasini taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Qo‘mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg‘armasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Boshqa organlariga o‘z faoliyat doirasiga kiradigan sohalarda Konvensianing amalga oshirilishi haqida ma‘ruzalar taqdim qilishni taklif etishi mumkin;

b) Qo‘mita Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari, Bolalar jamg‘armasi va boshqa vakolatli organlariga, agar maqsadga muvofiq deb topsa, ishtirokchi-davlatlarning texnik maslahat yoki yordam so‘ralgan yoxud shunga ehtiyoj ko‘rsatib o‘tilgan har qanday ma‘ruzalarini, shuningdek, Qo‘mitaning ana shunday iltimos va yoki ko‘rsatmalarga doir fikr-mulohaza va takliflarini, agar ular mavjud bo‘lsa, qayta yo‘llaydi;

d) Qo‘mita Bosh Assambleyaga o‘z nomidan Bosh kotibga bola huquqlariga taalluqli alohida masalalar yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazishni taklif etishni tavsiya qilishi mumkin;

e) Qo‘mita ushbu Konvensiyaning 44 va 45-moddalariga muvofiq olinadigan axborotga asoslangan umumiy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar kiritishi mumkin. Umumiy ahamiyatga molik bunday taklif va tavsiyalar manfaatdor har qanday ishtirokchi-davlatga oldindan yo‘llanadi hamda ishtirokchi-davlatlarning fikr-mulohazalari bilan birgalikda, agar mavjud bo‘lsa, Bosh Assambleyaga ma’lum qilinadi.

III QISM

46-modda

Ushbu Konvensiya barcha davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiqdir.

47-modda

Ushbu Konvensiya ratifikatsiya qilinishi zarur. Ratifikatsiya yorilqlari saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

48-modda

Ushbu Konvensiya unga har qanday davlatning qo‘shilishi uchun ochiqdir. Qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjatlar saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

49-modda

1. Ushbu Konvensiya yigirmanchi ratifikatsiya yorlig‘i yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjat saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshirilgan sanadan e’tiboran o‘ttizinchilik kun o‘tgandan keyin kuchga kiradi.

2. Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan yoki unga qo‘shiladigan har bir davlat uchun yigirmanchi ratifikatsiya yorlig‘i yoxud qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjat saqlab qo‘yishga topshirilgan sanadan e’tiboran mazkur Konvensiya bunday davlat uni ratifikatsiya qilish yoki qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjatni saqlab qo‘yishga topshirilgandan keyingi o‘ttizinchilik kundan boshlab kuchga kiradi.

50-modda

1. Har qanday ishtirokchi-davlat Konvensiyaga tuzatish taklif qilishi va uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga taqdim etishi mumkin. Shundan so‘ng Bosh kotib taklif etilgan tuzatishni ishtirokchi-davlatlarga mana shu takliflarni ko‘rib chiqish va ularni

ovozga qo'yish maqsadida ishtirokchi-davlatlarning konferensiyasini chaqirish tarafdorimi, degan so'rov bilan qayta yo'llaydi. Agar mana shunday xabar yetkazilgan sanadan boshlab to'rt oy mobaynida ishtirokchi-davlatlarning kamida uchdan bir qismi shunday konferensiyanı chaqirishni yoqlab chiqsa, Bosh kotib bunday konferensiyanı Birlashgan Millatlar Tashkiloti belgisi ostida chaqiradi. Bu konferensiya ishtirok etayotgan va ovoz berishda qatnashayotgan ishtirokchi-davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan har qanday tuzatish tasdiqlash uchun Bosh Assambleyaga taqdim etiladi.

2. Ushbu moddaning 1-bandiga muvofiq qabul qilingan tuzatish uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tasdiqlagandan keyin hamda ishtirokchi-davlatlarning uchdan ikki aksariyat qismi qabul qilgan taqdirda kuchga kiradi.

3. Tuzatish kuchga kirgandan keyin u mana shu tuzatishni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun majburiy bo'lib qoladi, boshqa davlatlar uchun esa ushbu Konvensiya qoidalari hamda ular qabul qiladigan keyingi har qanday tuzatishlar majburiy hisoblanadi.

51-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi davlatlar tomonidan ratifikatsiya yoki qo'shilish paytida bildirilgan e'tiroz matnini qabul qilib oladi hamda barcha davlatlarga yuboradi.

2. Ushbu Konvensiyaning maqsad va vazifalariga mos tushmaydigan e'tiroza yo'l berilmaydi.

3. E'tiroz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yuborilgan tegishli bildirishnomasi yo'li bilan istalgan paytda olib tashlanishi mumkin, so'ngra Bosh kotib bu haqda barcha davlatlarga xabar yetkazadi. Bunday bildirishnomasi uni Bosh kotib qo'fga olgan kundan boshlab kuchga kiradi.

52-modda

Har qanday ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyani Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga yozma ravishdagi bildirishnomasi yuborish asosida bir tomonlama bekor qilishi, Bosh kotib bildirishnomani olganidan keyin bir yil o'tgach, kuchga kiradi.

53-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ushbu Konvensiyaning saqlovchisi etib tayinlanadi.

54-modda

Ushbu Konvensiyaning inglizcha, arabcha, ispancha, xitoycha, ruscha va fransuzcha asl nusxasi matnlari teng bir xillikka ega bo‘lib, saqlab qo‘yish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga topshiriladi.

Shuni tasdiqlash uchun quyida imzo chekkan vakolatlari vakillar o‘zlarining tegishli hukumatlari tomonidan shunga yetarli darajada vakil qilingan bo‘lib, mazkur Konvensiyani imzoladilar.

AYOLLARGA NISBATAN KAMSITISHLARGA BARHAM BERISH TO‘G‘RISIDA DEKLARATSIYA

*Bosh Assambleyaning 1967-yil 7-noyabrdagi
2263 (XXII) – rezolyutsiyasi bilan e’lon qilingan*

Bosh Assambleya,

Birlashgan Millatlar xalqlari insonlarga asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga va erkak va ayolning teng huquqliligiga o‘zlarining e’tiqodlarini Nizomda yana bir bor tasdiqlaganliklarini e’tiborga olib,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik tamoyilini tasdiqlaganligi va barcha odamlar erkin va o‘z qadr-qimmati va huquqlarida teng bo‘lib tug‘ilishlarini va har bir inson hech bir tafovutsiz, jumladan jinsidan qat‘i nazar unda e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi lozimligini e’lon qilganligidan kelib chiqib, erkaklar va ayollarning teng huquqliligiga ko‘maklashish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashgan muassasalari tomonidan qabul qilingan rezolyutsiya, deklaratsiya, konvensiya va tavsiyanomalarini e’tiborga olib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro paktlarni va Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashgan muassasalarining boshqa hujjatlariga va tenghuquqlilik masalasida amalga oshirilgan taraqqiyotga qaramay ayollarga nisbatan muayyan kamsitish hamon mavjud ekanligidan xavotirlanib, ayollarga nisbatan kamsitish ayolning inson sifatidagi qadr-qimmati, oila va jamiyatning farovonligi bilan mos kelmasligini, mamlakatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida uning erkak bilan teng sharoitlardagi ishtirokiga xalal berishini va ayolning o‘z mamlakati va insoniyatga xizmat qilishida imkoniyatlarini to‘la rivojlantirishiga to‘siq ekanligini hisobga olib, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga ayollarning qo‘sghan katta hissalarini

va ularning oiladagi rolini, va ayniqsa bolalarni tarbiyalashdagi rolini eslagan holda, mamlakatning to'la taraqqiyoti, butun jahoning farovonligi va tinchlik ishi ayollarning erkaklar bilan tenglikda barcha sohalarda imkon qadar ko'proq ishtirokini talab qilishiga ishongan holda, erkaklar va ayollarning tengligi tamoyilini qonunchilikda va amaliyotda umum e'tirof etilishini ta'minlashni zarur deb hisoblab, mazkur Deklaratsiyani tantanali ravishda e'lon qiladi:

1-modda

Ayollarning erkaklar bilan teng huquqliliginini inkor qilishga yoki cheklashga olib keluvchi ularga nisbatan kamsitish o'z asosiga ko'ra adolatsizlik hisoblanadi va inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyatdir.

2-modda

Ayollarga nisbatan kamsituvchi hisoblangan mayjud qonunlar, odatlar, qarorlar va amaliyotni bekor qilish, erkaklar va ayollar teng huquqliligining tegishli huquqiy himoyasini o'rnatish uchun barcha zarur choralar ko'rishi lozim, jumladan:

a) erkaklar va ayollarning tengligi tamoyili konstitutsiyaga kiritilishi yoki qonun bilan boshqacha tarzda kafolatlanishi lozim;

b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashgan muassasalarining ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishga oid xalqaro hujjatlari ratifikatsiya qilinishi yoki ularga qo'shilish lozim yoki imkon qadar qisqa muddatlarda to'laligicha hayotga tatbiq etilishi lozim.

3-modda

Ayollarning to'laqonli emasligi g'oyasiga asoslangan tushunchalarga barham berish va odatlar va boshqa amaliyotni tugatishga jamoatchilik fikrini tayyorlash va milliy intilishlarni qaratish maqsadida barcha tegishli choralar ko'rishi lozim.

4-modda

Ayollarga erkaklar bilan bir xil sharoitlarda hech bir kamsitishez:

a) saylovlarda ovoz berish huquqi va ochiqdan ochiq saylanadigan organlarga saylanish huquqi;

b) barcha ochiq referendumlarda ovoz berish huquqi;

d) davlat xizmatida bo‘lish huquqi va barcha jamoatchilik vazifalarini bajarish huquqini ta’minlash uchun barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozim.

Ushbu huquqlar qonunchilik bilan kafolatlangan bo‘lishi lozim.

5-modda

Ayollar o‘z fuqaroligini olish, o‘zgartirish va saqlab qolishda erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lishlari lozim. Xorijlik bilan nikohda bo‘lish xotinning fuqaroligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatmasligi kerak, xususan uni fuqaroligidan mahrum qilishi va erining fuqaroligini qabul qilishga majbur qilishi mumkin emas.

6-modda

1. Har qanday jamiyatning asosiy hujayrasi bo‘lib qolayotgan oilaning yaxlitligi va tinchligini saqlashga ziyon yetkazmagan holda, turmushga chiqqan va chiqmagan ayollar fuqarolik huquqi sohasida erkaklar bilan xilda huquqlarga, xususan:

a) mulkni sotib olish va meros qilib qoldirish, shuningdek, uni boshqarish, foydalanish va tasarruf qilish huquqi, jumladan, nikohda bo‘lgan davrda ega bo‘lingan mulkni ham;

b) teng huquq va muomalaga layoqatlilik;

d) shaxslarning ko‘chib yurishi to‘g‘risidagi qonunchilikda ham erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash uchun barcha tegishli choralar, asosan, qonunchilik choralari ko‘rilishi lozim.

2. Er va xotin holatining tengligi tamoyilini ta’minlash uchun barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozim, jumladan:

a) ayollar erkaklar ega bo‘lgani kabi turmush o‘rtog‘ini erkin tanlash va nikohga faqat o‘zining erkin va to‘la roziligi bilan kirish huquqiga ega bo‘lishlari lozim;

b) ayollar nikohda bo‘lgan paytlarida va uni bekor qilishda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishlari lozim. Barcha holatlarda bolalarning manfaatlari ustuvor bo‘lmog‘i kerak;

d) ota-onalar bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari lozim. Barcha holatlarda bolalarning manfaatlari ustuvor bo‘lmog‘i kerak.

3. Bolalarning nikohlari va qizlarning jinsiy balog‘atga yetmay turib unashirtilishi ta‘qiqlanishi lozim va eng kam nikoh yoshini aniqlash va nikohni fuqarolik holatlarini qayd etishda majburiy

ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadida samarali choralar, jumladan qonunchilik choralari ko‘rilmog‘i lozim.

7-modda

Ayollarga nisbatan kamsitish xarakteriga ega bo‘lgan jinoyatlar to‘g‘risidagi qonunchilikning barcha holatlari bekor qilinishi lozim.

8-modda

Ayollar bilan savdo qilish va fohishalikdan foydalanishning barcha ko‘rinishlariga barham berish uchun barcha tegishli, jumladan, qonun orqali choralar ko‘rilishi lozim.

9-modda

Barcha pog‘onadagi ta’lim sohasida qizlar va turmushga chiqqan va chiqmagan ayollarga erkaklar bilan teng huquqlarni ta’minalash uchun barcha tegishli choralar ko‘rilmog‘i lozim va xususan:

a) ta’lim olishga teng sharoitlar va barcha turdagи o‘quv maskanlarida, jumladan universitetlar va kasb-hunar, texnika va maxsus maktablarda ta’lim olish;

b) o‘quv maskanining har ikki jinsdagi shaxslarni bирgalikda o‘qitishga mo‘ljallangan yoki mo‘ljallanmaganligidan qat‘i nazar xuddi shu ta’lim dasturlari, bir xildagi imtihonlar, xuddi shu malakadagi o‘qituvchilar tarkibi, xuddi shunday sifatdagi o‘quv xonalari va jihozlar;

d) ta’lim olish uchun stipendiya va boshqa imtiyozlarni olishning teng imkoniyatlari;

e) keyingi bosqich ta’lim dasturlari, jumladan kattalarning o‘qimishliligini ta’minalash dasturlari uchun teng imkoniyatlari;

f) oilalarning sog‘lig‘i va farovonligini ta’minalashga ko‘makhishish maqsadida ma’rifiy ma’lumotlarni olish.

10-modda

1. Turmushga chiqqan va chiqmagan ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda erkaklar bilan bir xildagi huquqlarni, jumladan:

a) fuqarolik holati sababli yoki boshqa belgilarga ko‘ra kamsitishlarsiz kasbiy tayyorgarlikni olish, ishlash, kasb va mashg‘ulotlarni erkin tanlash va o‘z kasbi va mutaxassisligida takomillashib borish huquqini;

b) erkaklar bilan bir xildagi mehnat uchun teng haq va teng moddiy ta’minot olish huquqini;

d) ishsizlik, kasallik, qarilik va ish qobiliyatini boshqa tarzda yo‘qotganlik holatlarida haq to‘lanadigan ta’til, nafaqa ta’mnoti va moddiy ta’mnot huquqini;

e) erkaklar bilan bir xildagi shartlarda oila uchun nafaqa olish huquqini ta’minlash uchun barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozim.

2. Ayollarga nisbatan nikohda bo‘lganlik yoki homiladorlik sabablariga ko‘ra kamsitishning oldini olish va ularning samarali ishslash huquqini ta’minlash uchun ularning nikohga kirishlari yoki homiladorliklari holatlarida ishdan ozod qilishning oldini olish va avvalgi ishga qaytish kafolati bilan homiladorlik uchun haq to‘lanadigan ta’til berish va kerakli ijtimoiy xizmat turlarini, jumladan bolalarga qarash imkoniyatini ta’minlash uchun tegishli choralar ko‘rilishi lozim.

3. Ayollar organizmining fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’lum ish turlarida ularni himoyalashga qaratilgan choralar kamsituvchi deya hisoblanmasligi lozim.

11-modda

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillariga muvofiq erkaklar va ayollarning teng huquqliligi tamoyili barcha davlatlarda hayotga tatbiq etilishi talab qilinadi.

3. Shuning uchun hukumatlarga, nohukumat tashkilotlariga va xususiy shaxslarga mazkur Deklaratsiyadagi mavjud tamoyillarni amalga oshirishga ko‘maklashish uchun ularga bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni qilishlari tavsiya etiladi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. «IJTIMOIY ISH ETIKASI» FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA MAZMUNI.....	7
Reja:	
1.1. “Ijtimoiy ish etikasi” fanining obyekti, predmeti.	
1.2. “Ijtimoiy ish etikasi” fanining maqsadi va vazifalari fanining zarurligi.	
1.3. “Ijtimoiy ish etikasi” fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi.	
II bob. IJTIMOIY ISHNING RIVOJLANISH TARIXI....	32
Reja:	
2.1. Faoliyat turi sifatida ijtimoiy ish yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.	
2.2. G’arbiy Yevropa va AQShda ijtimoiy ishning kasb sifatida qaror topishi.	
2.3. XX asrda ijtimoiy ishning rivojlanishi.	
III bob. IJTIMOIY ISH ETIKASI FANIDA AXLOQIY TA’LIMOTLARNING QADIMIY ILDIZLARI VA MAR- KAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY TA’LIMOTLARI.....	82
Reja:	
3.1. Ijtimoiy ish etikasi fanida axloqiy ta’limotlarning qadimiy ildizlari.	
3.2. Axloqiy qarashlarning inson ma’naviy taraqqiyotida tutgan o‘rni.	

IV bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING MA'NAVİY FAZİLATLARINI O'RGANİSHNING İLMİY-NAZARIY 109 ASOSLARI.....

Reja:

- 4.1. Ijtimoiy ish sohasida ma'naviy fazilatlar tushunchasi va mohiyati.
- 4.2. Ma'naviy fazilatlarning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni
- 4.3. Ijtimoiy ish xodimining ma'naviy fazilatlari.
- 4.4. Vatanparvarlik, mas'uliyat, kasbiy kompetentlik va boshqaruv madaniyatiga egalik ijtimoiy ish xodimlarining muhim ma'naviy fazilatlari sifatida.

V bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING KASBIY VA AXLOQIY SİFATLARI..... 136

Reja:

- 5.1. Ijtimoiy ish xodimining axloqi.
- 5.2. Ijtimoiy ish xodimining kasbiy va axloqiy sifatlari.
- 5.3. Ijtimoiy ish xodimining ma'naviy-axloqiy qiyofasi.

VI bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING ETİKETİ..... 148

Reja:

- 6.1. Ijtimoiy ish sohasida ijtimoiy adolat tushunchasining o'rni. Uni qaror toptirishda ijtimoiy ish xodimining ma'naviy javobgarlik asosi.
- 6.2. Ijtimoiy ish xodimining ish faoliyati jarayonidagi mas'u-liyati.
- 6.3. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillarining ijtimoiy ish sohasida qaror toptirish asoslari.

VII bob. IJTIMOIY ISH ETİKASI: ASOSIY TAMOYIL VA PRİNСİPLAR..... 191

Reja:

- 7.1. Ijtimoiy ishda axloqiy tamoyillar.

- 7.2. Ijtimoiy ishda xalqaro axloqiy standartlar.
- 7.3. Ijtimoiy ish xodimining axloqiy me'yorlarni hayotga tatbiq etishi.

VIII bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING MAJBURIYATLARI VA VAZIFALARI. IJTIMOIY ISH SOHASI XODIMIGA QO'YILADIGAN TALABALAR..... 206

Reja:

- 8.1. Ijtimoiy ish xodimining majburiyatlarini umuminsoniy munosabatlarda namoyon bo'lishi.
- 8.2. Ijtimoiy ish xodimining axloqiy majburiyatları.
- 8.3. Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishda axloqiy muammolar.

IX bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING QOBILIYAT VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 240

Reja:

- 9.1. Ijtimoiy ish xodimining kasbiy salohiyati va uni rivojlantirish.
- 9.2. Ijtimoiy ish sohasida samarali shaxslararo munosabatlarni ta'minlash asoslari.
- 9.3. Ijtimoiy ish xodimining samarali muloqotini ta'minlovchi sifatlar.
- 9.4. Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy ish xodimining sifatlari.

X bob. IJTIMOIY ISH XODIMINING PROFESSIOGRAMMASI..... 265

Reja:

- 10.1. Ijtimoiy ish xodimining professional ko'nikma va malakalari.
- 10.2. Ijtimoiy ish xodimining shaxsiy-professional sifatlari.
- 10.3. Ijtimoiy ish xodimlarining etik majburiyatları.
- 10.4. Ijtimoiy ish xodimining professional majburiyatları.

XI bob. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY XODIMINING PROFESSIONAL VA ETIK KODEKSI.....	305
11.1. Ijtimoiy ishning kasb sifatidagi noyob tavsifnomasi.	
11.2. Ijtimoiy ishning qadriyat va tamoyillari.	
XII bob. ROSSIYA IJTIMOIY ISH XODIMINING KASBIY-AXLOQIY KODEKSI.....	338
Reja:	
12.1. Rossiyada ijtimoiy ish sohasining rivojlanish bosqichlari.	
12.2. Ijtimoiy ishchining ko'rinishi va xulq-atvori. Kompetentlik (chuqur bilimga egalik) va professional takomillashish.	
12.3. Ijtimoiy ishchining mijozlarga nisbatan belgilangan axloqiy burchlari.	
12.4. Ijtimoiy ishchining hamkasblariga nisbatan belgilangan axloqiy normalari (me'yordi).	
12.5. Ijtimoiy ishchining kasbi oldidagi axloqiy burchlari.	
XIII bob. IJTIMOIY ISH XODIMLARI BRITANIYA ASSOSIASIYASI AXLOQ KODEKSI.....	347
Reja:	
13.1. Buyuk Britaniyada ijtimoiy ish sohasining mazmun-mohiyati.	
13.2. Ijtimoiy ishning asosiy qadriyatlar. Inson qadr-qimmati va qadriyat.	
13.3. Ijtimoiy adolat. Insonparvarlikka xizmat qilish.	
13.4. Inson huquqlari. Kompetentlik tushunchasi.	
«Ijtimoiy ish etikasi» fanidan mavzulashdirilgan testlar.....	360
Ijtimoiy ish etikasi darsligi bo'yicha atamalarning qisqacha lug'ati	360
Ijtimoiy ish etikasi darsligi bo'yicha ilovalar.....	387
Bola huquqlari to'g'risida konvensiya.....	394
Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida deklaratsiya.....	421

QAYDLAR UCHUN

IJTIMOY ISH ETIKASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	G.Karimova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 17.11.2015.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, «Timez Uz» garniturasi.
Offset bosma usulida bosildi. Sharthli bosma tabog'i 26,75.
Nashriyot bosma tabog'i 27,0. Tiraji 500. Buyurtma №159.

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI
TANQİYYAT
TANQİYYAT
TANQİYYAT

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

YÖNETIL JAMUA HIZI

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**

TAN VA
TEKNOLOGIYALAR

ISBN 978-9943-990-54-8

9 789943 990548

A standard barcode representation of the ISBN number 978-9943-990-54-8.